

HAMIDJON HOMIDIY

# DAHOLAR DAVRASI



„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI  
TOSHKENT — 2011

**УДК : 821.521.133**  
**ББК 72.3(5Ў)+63.3(5Ў)**  
**H77**

Aziz o'quvchi! Ilmiy, badiiy lavhalardan tarkib topgan ushbu kitobda ko'hna mashriqzamindagi ko'plab buyuk allomalarning mashaqqatli hayot yo'llari tasvirlangan, ilmiy, badiiy ijodlari teran tahlil qilingan. Biz fikr yuritgan allomalar qaysi xalq farzandi bo'lmasin, ularning ibratli hayot yo'li, boqiy ruhi, bebaho ijodiy merosi barcha qavm va avlodlar uchun hamisha mo'tabar va ardoqlidir.

**Homidiy, Hamidjon.**  
**72.3(5O')** Daholar davrasi / H.Homidiy. —T.: „O'qituvchi“  
**H77** NMIU, 2011. 352 bet. — T. — (Ma'naviyatimiz  
sarchashmalari).

ISBN978-9943-02-396-3

YDK:821.512.133  
ББК 72.3(5Ў)+63.3(5Ў)



## MUQADDIMA

Rivoyat qilishlaricha, Jamshidshoh shikorga ketayotib, janatsimon bir bog' oldidan chiqibdi. Bog'da yuzlab xildagi mevalar g'arq pishib yotgan emish. Shoh bog'bondan ichishga suv so'rabdi. Bog'bon uyiga kirib, anorni bir siqqan ekan, piyola to'la sharbat tushibdi. Keltirib Jamshidshohga beribdi. U anor sharbatini simirib, chanqog'ini qondirib piyolani bog'bonga uzatibdi.

— „*Otaxon, bu bog' kimga qaraydi?*“ — so'rabdi shahanshoh.

— „*Hech kimga. Men parvarish qilaman, mevasidan el, o'tgan-ketgan musofirlar bahramand bo'ladi*“, — javob beribdi chol.

„*Men Jamshidshoh bo'laman. Shuncha katta bog'ni bir o'zingiz yeb yotmasdan, har yili podsholik xazinasiga yuz tangadan jarima to'lab turing*“, — debdi-da, yo'lida davom etibdi shoh.

Jamshidshoh ovdan qaytishida yana o'sha bog'ga kirib, sharbat so'rabdi. Bog'bon bir necha anorni siqsa ham, bir qultumdan ortiq sharbat chiqmabdi. Shoh bog'bonning uzoq hayallagani sababini so'rabdi.

— „*Adl bilan el farovon, zulm bilan yurt xarob, deganlar. Sendan zulm zohir bo'lgani uchun o'nta anorni siqsam-da, yarim piyola ham sharbat chiqmadi*“, — debdi bog'bon.

Jamshidshoh aytgan so'zidan pushaymon bo'lib, jarimani bekor qilibdi.

Bog'bon uyiga kirib, ikki anorni siqqan ekan, piyola sharbatga to'libdi. Shundan so'ng Jamshidshoh hech kimga zulm qilmaydigan, adolatli shoh bo'libdi.

O'zbek xalq dostoni „Barzunoma“dan olingan bu rivoyatda adolat g'oyasi teran tasvirlangan. Sharq mutafakkirlarining hayoti, ijodiy merosi ham ana shunday ibratomuz — odamiylikka, jasoratga chorlovchi hikoyatlar, rivoyat hamda naqlar bilan yo'g'rilgan. Men ularni izlash, o'rganishda ko'p ko'hna dastxatlarni, ma'rifatparvar olimlarning asarlarini mutolaa qilganman. Hikmat to'la bunday sahifalarni har gal varaqlaganimda o'zim uchun yangi taassurot, ma'rifat olaman. Keyingi yillarda Mahmud ibn Valining „Bahr-ul-asror“ („Sirlar ummoni“), Hoji Yusufning „Arz ul-aflok“, Gardeziyning „Zayn ul-axbor“,

Bayhaqiyning „Tarixi Mas’ud“ kitoblarini, „Masnaviyi ma’naviy“, „Asrornoma“, „Tazkirat ul-avliyo“, „Tarixi tomm“, „Tarixi Rashidiy“ kabi asarlarni, „Avesto“ning asli nusxasini, professor H. Hasanovning „Sayyoh olimlar“ kitobini, ko‘plab yangi manbalarni, sharq shoirlarining devonlarini o‘qib chiqdim, ayrim mulohazalarim yanada to‘lishdi, mukammallashdi. Ba’zi kasbdoshlarimning buyuk allomalar haqidagi maqolalaridan fayz topdim.

Mazkur lavhalar keng kitobxonlar ommasiga donishmand bobolarimiz haqida dastlabki ma’lumot berishga mo‘ljallangan. Ulardan Zardusht, Urfiy Sheroziy, Malik Jahon Xotun, Daraqiy, Hay’atiy, Ubaydiy, Sharofiddin Roqimiy, Muhammad Murod Samarqandiy, Muhammad Siddiq Rushdiy singari siymolar haqidagi lavhalar oldin boshqa kitoblarda bitilmagan dalillar, dastxatlardagi ma’lumotlar asosida yozilib, ilk bor kitobxonlar e’tiboriga havola qilinmoqda. Biz fikr yuritgan allomalar qaysi xalq farzandi bo‘lmasin, ularning ibratli hayot yo‘li, boqiy ruhi, bebaho ijodiy merosi barcha qavm va avlodlar uchun hamisha mo‘tabar va ardoqlidir.





## MA'NAVİYATIMIZ SARCHASHMALARI

### ZARDUSHT

**Abulqosim Firdavsiy** „Shohnoma“ ning alohida boblari hamda „Gushtasp“ dostonida Turon va Eron xalqlarining islomgacha bo‘lgan dini — zardushtiylilik hamda uning asoschisi Zardusht haqida mehr bilan yozadi, uni mo‘badlar mo‘badi — donishmandlar peshvosi, payg‘ambar deb ta‘riflaydi, uning boshchiligida yaratilgan qomusiy kitob „Avesto“ni ko‘p tilga oladi. Haqiqatan ham, Zardusht Sharqning birinchi faylasufi, notig‘i, shoiri, donishmandi hisoblanadi.

G‘arb sharqshunos olimlaridan Yan Ripka, K. V. Trever, Y. E. Bertels, S. P. Tolstov, I. S. Braginskiy, B. G‘afurov, M. Dyakonov, O. Chunakova, H. Rizoiy, X. Mirzozodalarning tadqiqotlaridagi mulohazalarga qaraganda, Zardusht miloddan oldingi VII asrning oxiri va VI asrning birinchi yarmida yashagan. U Xorazm hokimligiga qarashli chorvadorlik bilan shug‘ullangan Spitama urug‘idan bo‘lgan. Otasini Purushasp, onasini esa Dugdova, deb atashgan. Bolaligidanoq ot va tuya boqish bilan shug‘ullangan Zardusht chorvador qavmlar orasida yurib, ularning urf-odatlari, din-u udumlarini o‘rgangan, har xil e‘tiqoddagi kishilar — peshvolarning suhbatlarida bo‘lgan.<sup>1</sup>

Ma‘lumki, qadimgi ota-bobolarimiz turli-tuman dinlarga topinganlar, ular bilan bog‘liq ko‘plab rasm-rusumlarni bajarganlar. Ana shulardan biri har bir qabilaning o‘z xudosi qurbonlik qilish odatidir. Chorvadorlar orasida kezib yurib, mo‘ysafidlar gurungida bo‘lgan Zardusht ko‘p qurbonlik natijasida borgan sari mollarning kamayib, qirilib ketayotganini ko‘rib aziyat chekadi, buning oqibati xunuk bo‘lishini ko‘ra biladi; qabilalar orasida tez-tez bo‘ladigan nizo, qirg‘in urushlarning negizi ham mana shu odat bilan bog‘liqligini his etadi.

---

<sup>1</sup> Ushbu lavhani yozishda zikr etilgan olimlarning asarlaridan, „Avesto“ning ikki jildli forsiy tabdili hamda qisman o‘zbekcha tarjimasidan foydalanildi. — H. H.

Turfa dunyoqarashdagi keksalar bilan bo'lgan suhbat, bahslar natijasida Zardusht ko'pxudolikning zararini to'la tushunib yetadi va yigirma yoshida o'zining nor tuyasiga minib (Zardusht — sariq tuya egasi demakdir), qishloqma-qishloq, shahar-mahar kezib, yakkaxudolik g'oyasini targ'ib etadi; oilasini xavf ostida qoldirib, o'z maqsadiga erishish uchun fidoyilik ko'rsatadi. Natijada, o'n yildan keyin yagona xudo **Ahuramazda** (Hurmuzd) ni kashf etadi va qabila, urug'chilik e'tiqodlariga qarshi yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Bu ishda u inson ruhiyatiga yaqin turadigan xalq she'riyatidan ustalik bilan foydalangan. Zardusht ilgari surgan g'oyaning negizini ikki narsa tashkil qiladi: mutlaq g'oya Hurmuzdning yakka-yu yagona xudo ekanligini tan olish; *yaxshilik* bilan *yomonlik*, *rostgo'ylik* bilan *yolg'onchilik*, *zulmat* bilan *nur* o'rtasidagi doimiy kurash haqidagi ta'limot — borliqni ikkiga bo'lib qarash — dualistik qarashga sodiq qolishdir. Zardusht kambag'al bo'lgan. U ot-u tuyasi kamligi, o'z aqidalarini yoyish yo'lida mablag'sizligidan shikoyat qiladi, noliydi.

Zardusht ta'limoti tobora xalqqa kuchli ta'sir etayotganini sezgan muxoliflar unga qarshi qat'iy kurashga kirishadilar. Hayoti xavf ostida qolgan Zardusht bir guruh o'z tarafdorlari bilan Eronga qochib o'tishga majbur bo'ladi va o'sha yerda o'z ta'limotini uzil-kesil shakllantiradi.

Zardusht Farohimning qizi Dug'dovaga uylangan bo'lib, Istavatra, Urvatatnara, Xverechitra nomli o'g'illari hamda Freni, Triti, Purichista nomli qizlari bo'lgan. Doro I hukmronligi davrida (miloddan oldingi 522—486-yillar) xoxomashinlar sulolasining rasmiy dini zardushtiylik bo'lgan.

Firdavsiy va Beruniylarning ta'biricha, Zardusht birinchi bo'lib, o'z dinini Eron shohi Vishtaspga asoslab berib, uning e'tiborini qozonadi. Zardusht va ulamolar yangi dinning yo'riq-nomasi 21 nask (qism)dan iborat „Avesto“ni yozib, 12 ming mol terisiga oltin suvi bilan ko'chirtirib, Gushtasp (Vishtasp) kutubxonasiga topshiradi. Shundan so'ng shoh payg'ambarning tarafdori sifatida bu dinning ashaddiy targ'ibotchisiga aylanadi.

Bu orada aka-ukalar o'rtasida kelishmovchilik chiqib, Amuning ikki sohilidagi yurtlarning hokimi Arjasp akasi Vishtaspni ajdodlar e'tiqodidan qaytganlikda ayblab, unga qarshi lashkar tortadi. Tengsiz muhorabada Arjasp o'ldiriladi. Natijada

Eron-u Turonda mazdoparastlik — zardushtiylik dini to'la joriy etiladi. Zardushtning xohishi va Vishtaspning farmoniga muvofiq, barcha shaharlarda otashkadalar — ibodatxonalar quriladi. Ana shunday otashkadalardan biri — eng ulkani Balx shahrida qad ko'taradi. Zardusht 77 yoshida, ushbu oltin suvi bilan zarhallangan binoda ibodat paytida, ko'pxudolik tarafdori Bratarvaxsh tomonidan chavaqlab o'ldiriladi. Ammo uning ta'limoti, asos solgan dini Ajam o'lkalarida islom qabul qilingunga qadar muqaddas e'tiqod bo'lgan. Hozir ham Janubiy Hindistonda yuz mingdan ziyod, Shimoliy Eronda bir necha ming kishilarda zardushtiylik e'tiqodi saqlanib qolgan.

O'rta Osiyo xalqlari orasidagi turli marosimlarda, ba'zi udumlarda sham yoqib qo'yish, to'ylarda gulxan yoqib, uning atrofida bazm uyushtirish, ko'chaga gulxan yoqib kelinni uning atrofida aylantirgach, uyga olib kirish; chavandozlarning katta gulxan alangasidan sakrab o'tishlari, yo'rgaklangan chaqaloqni gulxan ustidan u yoq-bu yoqqa olib o'tish va boshqa an'analar ham zardushtiylikning hamon saqlanib kelayotgan udumlaridandir. Bu — quyosh va otashni muqaddas deb hisoblanganining natijasidir.

## AVESTO

„Avesto“ zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, uning ilk sahifalari Zardusht tomonidan miloddan avvalgi VII asrning oxirlarida Amudaryo sohillarida yaratilgan. Keyinchalik Shimoliy Eronda otashparastlik dinining ulamo-kohinlari tomonidan to'ldirilib, takomillashtirilgan. Bu kitob 12 ming mol terisiga bitilgan. Makedoniyalik Aleksandar Sharqni zabt etganda uning nodir nusxasini Elladaga eltib, kerakli joylarini tarjima qildirgan, qolganini esa o'tda yondirgan. Milodimizning I asrida ashkoniylar hukmdori Valages Arshakid va III asrda Xusrav Parviz, Shopuri Hurmuzd davrida „Avesto“ kitobi bir necha bor ko'chirilgan, qayta tiklangan. Keyingi vaqtlarga qadar „Avesto“ning vatani xususida olimlar o'rtasida jiddiy bahslar bo'lib kelardi. O'tgan asrning 80-yillarida barcha tadqiqotchilar „Vendidad“da uchraydigan Marv, Baqtriya, Hirot, So'g'd, Niso, Xorazm, Seiston, Amudaryo, Sirdaryo kabi geografik atamalarga, gatlardagi aniq ta'kidlarga asoslanib, „Avesto“ning Vatani O'rta Osiyo, aniqrog'i Xorazmdir, degan qat'iy xulosaga

keldilar. Haqiqatan ham „Avesto“dagi geografiyaga doir ma'lumotlar bu xulosani to'la tasdiqlaydi. Zeroki, unda ikki daryo oralig'idagi joylar, tog'-u daryolar, yaylovlar haqida mulohazalar ko'p.

Arablar VIII asrda Eronni zabt etganda zardushtiylikka sadoqatini saqlagan bir necha ming mahalliy aholi Janubiy Hindistonga qochib o'tadilar. Ular qadimgi madaniyat, adabiyot va e'tiqodga doir yodgorliklarni ham o'zlari bilan olib ketadilar. Jumladan, „Avesto“ning to'rtidan bir qismining eng nodir nusxasini ham o'zlarida saqlaganlar.

1723-yili ingliz olimi **Jorj Bouje** „Avesto“ning bir nusxasini Hindistondan olib borib, Oksford kollejining kutubxonasiga topshiradi. Shundan so'ng bir necha yil otashparastlar orasida yurib, ularning qadimgi tilini o'rgangan fransuz olimi **Anketil Dyupperron** 1771-yili „Avesto“ning bir qismini so'z-boshi, asl matn va tarjimai bilan nashr etadi. Bu ish tufayli G'arbiy Yevropada „Avesto“ga qiziqish va uni o'rganishga e'tibor oshadi.

Hozir ana shu dastxatlardan biri Bombeydagi Koma sharqshunoslik institutida saqlanadi. Bu institut Zardushtiylarning madaniy markazi bo'lib, shu jamoa mablag'i hisobiga ishlaydi. Kitob 1615-yilda parfiyoniy yozuvida ko'chirilgan bo'lib, 672 betdan iborat.

*„Avesto“ning bizga qadar saqlanib qolgan nusxasi quyidagi qismlardan iborat:*

1. *Gatlar* — ibodat paytida ijro etiladigan matnlar. 72 bobdan iborat bo'lgan bu qismning 17 bobi Zardusht qo'shiqlari — Gat madhiyalaridan iborat.

2. *Yasht* — zardushtiylarning Allohni tavsif etadigan maxsus ohanglar asosiga qurilgan madhiyalari, har biri alohida dostonni eslatadigan qasidalar bo'lib, ular 52 bobdan iborat.

3. *Vendidad* — devlarga — zulmat timsoliga qarshi kurash qonunlari majmuasi. Mazkur bo'limda diniy qonunlar matni, qadimgi dostonlar, miflarning mazmuni, parchalari saqlangan, ko'plab mifologik qahramonlarning nomlari zikr etilgan. Bu qism 24 bobdan tashkil topgan.

4. *Vispered* — butun borliq Allohnikni. Ibadatlar to'plami, ibodat yo'sinlari; ibodat paytida qiroat qilinadigan matnlar, ijro etiladigan qo'shiqlar. Bu qism nazm va nasr aralash yozilgan. U 27 bobdan iborat.



5. *Xorda* avesto 22 bobdan iborat. Uning asosiy qismini marosimlarda o'qiladigan duolar tashkil qiladi.

„Yasht“ hamda „Vendidad“da Zardushtning shaxsiyati, ruhiy olami, ijtimoiy kelib chiqishiga oid dalillar, zardushtiylikning tarqalish yo'lidagi ziddiyatlar haqida ma'lumotlar mavjud.

„Avesto“ zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lishi bilan birga, ilm-fan, hayotning barcha sohalaridan mukammal ma'lumot beradigan ulkan, eng ko'hna manba hisoblanadi. Grek olimi Pliniy „Avesto“ni 2 million baytdan iborat (miloddan oldingi III asr) degan edi. Biz undan O'rta Osiyo, Eron va Ozarbayjon xalqlarining *eng qadimgi marosimlari: urf-odat, e'tiqod, ibodat paytida qiroat qiladigan oyatlari, diniy marosimlarda ijro etadigan qo'shiqlari, minglab xalq ohanglari* haqida ma'lumot olamiz. Bundan tashqari, kitobda qadimgi xalq og'zaki ijodiga taalluqli yagona sujetlar — *dostonlardan parchalar mavjud*; Jamshid, Kayumars, Mitra, Anaxito, Zahok, Faridun, Bahrom singari ko'plab mifologik obrazlar, osmoniy rivoyatlar bilan bog'liq atamalar tilga olinadi; „Mavzun suxan“ — alohida hijo va qofiyali she'r haqida ma'lumot beriladi. Chorvadorlik, dehqonchilik, savdo-sotig'-u hunarmandchilik bilan bog'liq juda ko'p lavhalar, mulohazalar bayon etiladi. Masalan, Zardusht qurg'oqchilik yuz berishi bilan dehqonchilikka zavol kelib, yaylovlar kamayib, chorva mollari qirilib ketayotganida Axuramazdaga iltijo bilan murojaat etadi.

Bundan tashqari, „Avesto“da miloddan oldingi ikki minginchi yillardan tortib, to oltinchi asrlargacha bo'lgan davrdagi O'rta Osiyo va Eron xalqlari tarixiga doir, Sirdaryo va Amudaryo sohillarida yashaydigan xalqlarning ijtimoiy turmushiga oid ma'lumotlar bor. Chunonchi, kitobda shu sarzaminlarda istiqomat qilgan xalqlarning kasb-kori, savdo-sotig'i, qo'shni xalqlar bilan munosabatlari bayon qilingan; har bir kasb, hunar egasining jamiyatda tutgan o'rni alohida qayd etilgan. Dehqonlar bilan chorvadorlar jamiyatning moddiy ne'matlarini yaratuvchilari sifatida ta'riflangan.

Mazkur manbada *iqtisodiy hayot, geografiya, falakiyot, ilmi nujum, ijtimoiyot, biologiya, falsafa va tibbiyotga* doir ko'plab qimmatli ma'lumotlar mavjud. „Avesto“dagi tibbiy dalillar ota-bobolarimizning tabobatga doir qarashlari Rim, yunon va arab tabobatidan ko'hna va uzoq tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Undagi tibbiy ma'lumot ko'proq „Vendidad“ning

turli joylarida uchraydi. Biz shu o'ringda „Avesto“dagi tibbiy qarashlarga kengroq to'xtaymiz. *Undagi tibbiy fikrlarni taxminan quyidagicha tasnif etish mumkin:*

1. Tashreh (anatomiya) va mizoj (fiziologiya).
2. Bemorlikning oldini olish vositalari.
3. Kasalliklar haqidagi ma'lumotlar.
4. Bemorlarni davolash yo'llari.
5. Tabiblarning axloqi va tabobatga oid ba'zi qonun-qoidalar.

„Avesto“da inson organizmi, *mushak, suyak, teri, miya, asab, badan yungi, tomir va qonga* (asab va miya — yerga, badan tuki esa daraxtga o'xshatilgan), badandagi tomirlar va oq, ya'ni qonsiz tomirlar (asab)ga bo'lingan.

Badanning quvvati esa *jon, vijdon, ravon* (tan), *idrok* va *azaliy* (qadimiy) *ruh* kabi 5 qismga bo'lingan. Mizojni esa *harorat* (issiqlik), *rutubat* (sovuqlik), *brudat* (namlik) va *quruqlikka* bo'lingan. „*Jigar qon manbayi bo'lib, o'ng tomonga joylashgan*“, deyiladi.

„Avesto“da *suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqat*larni toza tutish va saqlashga alohida e'tibor berilgan. Unda qabristonlarni shahar va qishloqlardan yiroqda tashkil etish, uni o'rab qo'yish, murdasha'ylarning maxsus tozalikka rioya qilishi, murda tekkan libos, palos, yerlarni qatron qilish xususida fikrlar mavjud. Inson yoki hayvon o'ligi tushgan soy, ariq, hovuz, quduqlarni bir necha bor qatron qilish (suvga to'ldirib bo'shatish, yomg'ir suvi bilan yuvish) ta'kidlangan. „*Uning (suvning) ustiga uch marta yomg'ir yog'ib o'tsin, so'ngra u oldingidek inson va hayvon ichadigan suvga aylanadi*“. Ahuramazda javob berdi: o't-o'lanlar hamda mevali daraxtlar ekilgan, suvlari hamisha ravon bo'lgan zamin eng yaxshi yerdir. Ayol va farzandlari sarson va sargardon yuradigan (g'izo topilmaydigan) yer eng yomon zamindir. Yerni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar „400 qamchi urish“ jazosiga giriftor qilinardi. Inson yashayotgan xonadagi obrez-xanikda yuvinish va cho'milish qat'iyman etilgan. „*Avesto*“dagi *muhit tozaligini saqlash va kasalliklarning oldini olish vositalarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:*

1. Axlatlarni bekitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan ko'mib tashlash lozim bo'lgan. Shu yo'l bilan mikroblar o'ldirilgan yoki kamaygan.

2. Otash, issiqlik va sovuqlik yo‘li bilan yo‘qotish. „Avesto“da otash poklovchi va ofatni ketkazuvchi vosita. U bilan, hatto, kiyim-kechakni zararsizlantirilgan.

Kimyoviy yo‘l: kul, sirka, sharob, turli giyohlar (isfand, mexak, sadaf, piyoz, aloe, sandal) tutatish yo‘li bilan. Bularning ko‘pi hozir ham *mikrobg qarshi vositadir*. „Vendidad“ning 5-bobida *shamol, hayvon, parranda, pashsha* orqali turli kasalliklarning tarqalishi qayd etilgan. Kasallik tarqatadigan hayvon va hasharotlarni yo‘qotishga da‘vat etilgan holda „Avesto“da uy jonivorlarini ehtiyot qilishga ham da‘vat kuchli bo‘lgan. „Vendidad“da „... suv yoki (ov) itini o‘ldirgan kishi 10 000 barsum, 10 000 ruhiyatni tetiklashtiradigan o‘simlik bargi berishi lozim. Shuningdek, u 1000 ta echkemar, 1000 ta suv qo‘ng‘izi, kasal tarqatuvchi pashshani o‘ldirib, gunohini yuvishi lozim“.

„Vendidad“ning 5 va 17-boblarida doimiy badantarbiya bilan shug‘ullanish, kunda yuz-qo‘lni bir necha marta yuvib turish, sochni toza tutib, tirnoqlarni tez-tez olib turish tavsiya etiladi. Inson me‘yori bilan doim to‘q yurishi, ko‘proq go‘sh tiste‘mol qilishi lozimligi uqtirilgan. „Avesto“da issiqlik, sovuq havo, ochlik, ruhiy iztirob, buzilgan taomni yeyish, tozalikka rioya qilmaslik, Ahriman yuborgan qurt, pashsha va boshqa hasharotlar, yomon havo — kasalliklarning asosiy manbayi deyiladi. Unda 9999 kasallikni Ahriman paydo qildi, deyiladi.

Erkak zurriyot qoldirish qobiliyatiga ega bo‘lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg‘a bosishar yoki beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur qilishardi. Ba‘zan bunday erkakni qopga solib kaltaklashgan. „Avesto“da qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi man etilgan. Qavm va urug‘ qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Ko‘p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan, bir yo‘la 2—3 ta tug‘gan ayollar mukofot olishga sazovor, deb uqtiriladi.

„Vendidad“da kasalliklarni *rejim, parhez, duo, dori, jarrohlik* yo‘llari bilan davolash aytilgan va dorivor o‘simliklarning nomi berilgan: *shira, barg, gul, don, meva, buta, giyoh ildizi* va hokazo. Ular *za‘faron, koskiy, kunjut, ko‘knor, sipand, zira, piyoz, siyohdona*, (ya‘ni sedana), *savsan, qatron, nayshakar, turp, xurmo, sabzi, behi, shakar, asal, zaytun moyi* va boshqalardan tayyorlangan. Jarrohlikda asl sharobga nasha qo‘shib berib, behush qilib jarrohlik ishlarini bajarishgan. Buqrotning tabiblar qasamyodi haqidagi fikrlaridan bir necha asr burun

„Avesto“da tabiblarning maxsus qasamnomasi keltirilgan; tabobat ramzi — *ilon zahar sochayotgan idish* — jom tasviri ham ilk bor shu kitobda tasvirlangan. Unda qadimgi kishilarning oʻrtacha umri 800—900 yil boʻlishi, ayrim odamlar yashash sharoiti, muhitiga qarab 1400 yilgacha umr koʻrishi mumkinligi uqtilgan.

Xullas, qadimgi ajdodlarimiz yaratgan „Avesto“ dunyodagi eng qadimiy, noyob bilimlar xazinasidir. Unda olamdagi barcha — *diniy, dunyoviy, tabiiy* fanlar boʻyicha teran mulohazalar mavjud. Biz Gippokratdan oldin tibbiyotning nozik jumboqlarini yechgan, falakiyot, musiqa boʻyicha shoh fikrlarni oʻrtaga tashlagan, oʻz donishmandligi, notiqligi bilan Ajam xalqlarini oʻziga ergashtira olgan Zardusht bilan har qancha faxrlansak arziydi.

## SHARQ MUSIQASINING ASOSCHISI

Har gal Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Asad, Tusiy, Ibn Sino, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy va Navoiy singari allomalar asarlarini mutolaa qilganda „surudi Borbad“, „Borbad ohangi“, „Borbad usuli“, „Borbadona tarona“ singari soʻz va iboralarga duch kelardim. Ana shunday kezlarda „Borbad kim ekan?“, „Bu qanday ohang boʻldi?“ kabi savollar aqlimni band qilardi. Bu jumboqni yechmoq uchun koʻp koʻhna manbalarni oʻrgandim, qomuslarni varaqladim, sharqshunos va musiqa-shunoslarning asarlarini oʻqib chiqdim. Va nihoyat, topganlarim, oʻqiganlarimni oʻquvchilar hukmiga havola qilishni lozim topdim.

*Borbad* — *yetuk musiqashunos, bastakor, raqqos, hofiz va shoir* boʻlgan. U taxminan 589-yili Marvda tavallud topgan. Turkmanistonning hozirgi Bayram-Ali muzofoti yaqinida joylashgan Marv VI—VIII asrlarda ilm-fan, madaniyat, sanʼat va adabiyot, hunarmandchilik rivojlangan shahar boʻlgan. VII asrda moʻyna, charm buyumlari, musiqa asboblari, ayniqsa, turli-tuman boʻz, harir shoyi matolari bilan shuhrat qozongan. Hatto, arablar unga Shohijahon (jahon shohisi) deb ham nom berganlar. Marvda muhtasham kutubxona, ilmiy markaz, madrasalar qad koʻtargan. XI—XII asrlarda Marv Saljuqiylar hamda Xorazmshohlar davlatining markazi boʻlgan. Bagʻdoddagi „Baytul hikma“ yoki „Maʼmun akademiyasi“ deb nomlangan ilmiy markazda Al-Xorazmiyga hamroh boʻlib kelgan Marvaziy taxallusli bir necha riyoziyot va falakiyot (astronom) olimlari ishlagan. Anvariylar Marvaziy, Abdulloh Marvaziy, Abdurahmon

Marvaziy, Muhammad Solih Muzaffar Marvaziy, Muhammad Kisoyi Marvaziy singari o'nlab san'atkorlar va qomusiy bilim sohiblari hayotining asosiy qismi Marv bilan bog'liq. Bundan tashqari, Firdavsiy va Tabariylar Marvda dunyoga mashhur baxshilar, Ozodvar Changiy singari sozandalar yashab o'tganlarini qayd etishgan.

Bo'lajak bastakor ana shu go'zal madaniy markazda, Arab va Ajam mamlakatlaridagi madrasalarda ta'lim olgan. Yigitlik yillaridayoq xalq kuylarini mahorat bilan chalish hamda qo'shiq aytishda nom chiqargan. Zamonasining hukmronlari Borbadni o'z saroylariga jalb etmoqchi bo'ladilar. Ammo yosh hofiz Eron shahanshoi Xusrav Parviz saroyiga borishga jazm etadi. Zero, ki, Xusrav adabiyot va san'atning, umuman madaniyatning taraqqiyotiga jiddiy e'tibor berib, ko'plab san'atkorlarga homiylik qilardi. Borbad saroydagi ortiqcha bazm-dabdabalar, behuda yurish-turishlarga qaramay, ijodiy ishlar bilan jiddiy shug'ullanadi: yosh hofiz musiqachilar tarbiyasiga alohida e'tibor beradi. Sosoniylar sulolasi davrida yetishgan mashhur sozanda va shoirlar Amir, Nekiso Changiy, Ozodvar Changiy, Geso'i Novagar, Sarkash va Sarkablar bevosita yoki bilvosita Borbad shogirdlari hisoblanadilar. Borbad bastakor va hofizgina bo'lib qolmay, iste'dodli shoir ham edi. Uning aksariyat kuylari o'z she'rlari matniga yozilgan. O'sha davrdagi hijoli (barmoq vazniga yaqin) yangi she'riy shaklning ixtiro qilinishi ham Borbad nomi bilan bog'liq.

Tabiatan *shoir, sozanda, bastakor, hofiz* va *raqqos* bo'lgan Borbad ijodining ilk pallalaridan boshlaboq, asarlarida tabiat ko'rki, bahorning betakror chiroyi, hayot nashidasini kuylashga, ifodalashga intilgan. Bastakor ijodining tadqiqotchilari uning „Gulzor“, „Sabz bahori“, „Rohi gul“, „Oroyishi xurshedu moh“, „Abhari kuhan“, „Ravshan charog“, „Polizbon“, „Dilangizon“ singari asarlarida bevosita tabiat go'zalligi aks etganligini uqtiradilar. U haftaning yetti kuniga nisbat berib, „Xusravoniy“ ohanglari to'plamini, o'ning 30 kuniga qiyoslab 30 lahn (kuy, maqom yo'li), yilning 360 kuniga bag'ishlab shuncha tarona yaratgan. Borbadning „Sigona“sidagi 19 va 20-qo'shiqlar „Kini Eraj“ hamda „Kini Siyovush“ VII—X asrlarda Buxoro ahli tomonidan qadimgi bahodirlarni xotirlash marosimida ijro etilgan.

Borbad yaratgan kuy va taronalarning ko'pchiligi bizning zamonimizgacha o'zgarishsiz yetib kelgan. Musiqashunoslarning aniqlashicha, *borbad* cholg'u asbobini ham Borbad ixtiro qilgan. Uning „Zefarkand“, „Nuhuft“, „Gulno'sh“, „Oromishi jon“, „Darg'am“ kabi kuy va taronalarini arab, turk sozanda hamda mashshoqlari to'hanuz ijro etadilar. Bastakorning arab mamlakatlarida Bahlbad, Borid, Pahlapaz va Fahlbaz taxalluslari bilan keng shuhrat qozonishi ham shundan dalolat beradi. Borbad musiqiy majmualaridagi barcha qo'shiq matnlarini o'zi ijod etgan. Sharq musiqiy bilimi donishmandlarining uqtirishicha, „Yazdon ofarid“, „Sabz andar sabz“, „Partavi farxor“, „Ganji Bodovard“, „Kini Siyovush“, „Bog'i Shahriyor“, „Rohravi Shabdiz“ singari tarixiy, hayotiy hamda mavsum va marosim qo'shiqlari ana shular jumlasidandir. „Shashmaqom“ ohanglari silsilasidagi „Zerafkand“, „Xusravoni“, „Navro'zi Buzurg“, „Navro'zi Ajam“, „Navro'zi xoro“ maqom yo'llarida Borbad ijodining an'analari bevosita davom etmoqda. Borbad ijodi o'tmish musiqashunoslari tomonidan yuksak baholangan. „Eron musiqasi bilan tanishish“ kitobining muallifi Aziz Sha'boniy „*Borbad Sharq musiqasi tarixida yorqin siymolardandir. U bu sarzamin xalqlari musiqiy ilmi, notasi, soz-u ohangining asoschisidir*“, deb yuqori baho beradi. Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiylar musiqaga doir risolalarida Borbadning musiqiy iste'dodini e'zozlab, unga yuksak baho berganlar. Borbad VII asrning o'rtalarida ona shahri Marvda vafot etgan. Keyingi yillarda tojik olimi A. Rajabov Borbad haqida maxsus tadqiqot yaratdi. Biz bu lavhani yanada to'ldirishda o'sha kitobga ham murojaat qildik.

### Sarkash naqli

Rostini aytsam, Borbad safimizga kelib qo'shilgan kundan boshlab tinchim yo'qoldi. Qalbimda allaqanday g'ashlik paydo bo'ldi. Zeroki, u favqulodda *iste'dod sohibi, hofiz, bastakor* sifatida kundan kunga o'zini ko'rsata boshladi. O'zi she'r yozib, unga kuy bastalar, tabiat ehson etgan noyob ovoz bilan ijro etar edi. Martabam, obro'yim qo'ldan ketayotgan, har soniyada u o'rnimni olib qo'yayotgandek tuyulardi menga. Shuning uchun saroydagi xos bazmlarga Borbadni yaqinlashtirmaslikka, Xusrav huzurida o'z san'atini namoyish etishiga yo'l qo'ymaslikka intilardim.

Bahor kunlaridan birida Xusrav a'yoni davlat, muvakkiloni mamlakat ishtirokida Firdavs o'tlig' bog'ida gul sayri, she'r-u soz bazmi o'tkazadigan bo'ldi. Jiddiy tayyorgarlik, mashqlardan so'ng bir guruh sozanda-yu hofizlar bilan bog'ga joylaydigan bo'ldik. Borbad ham bazmda ishtirok etishni juda-juda istadi. Hatto yolvordi ham. „*Hali yoshsan. Buncha shuhratparast bo'lmasang!? Yo, ehson istaysanmi?*“ — dedim-da, uchta tillo tanga berib, jo'nab ketdim.

Bog' sayri, gul gashtidan so'ng barchamiz sarvzor o'rtasidagi muhtasham ko'shikka to'plandik. She'r bahsi, soz-u ovoz jarangi ko'kka o'rladi. Bir tarafda raqqoslar Borbad yangi o'rgatgan raqsni qiyomiga yetkazib o'ynamoqda edilar. Ayvon to'ridagi shohsupada Nekiso Changiy boshchiligidagi mashshoqlar kuy „dodini“ berishmoqda. Shu payt ayvon yonidagi sarvlar orasidan bir kuy taraldi. Ko'tarinki, shodiyona ruhdagi bu kuy shu darajada yoqimli, sehrli ediki, butun tabiat go'zalligi unda mujassamlangan, deysiz. Bir soniyada yig'ilganlar og'zi xanda-yu sho'xlikdan, sozandalar tori noladan, raqqoslar oyog'i xironidan qoldi. Kuy avj nuqtasiga yetgach, asta-sekin pasayib, maysazorlar uzra yoyilib borib, sarvlar ichiga g'arq bo'ldi.

Xusrav ishorasi bilan uch kishi sarvzorga yugurdik. Ne ko'z bilan ko'raykim, daraxtlar ichidagi yam-yashil o'tlar ustida maysarang liboslar kiyib olgan Borbad o'tirardi. Hatto, qo'lidagi sozi ham yashil rangda edi. Qo'ltig'idan oldimda, ko'shk tomon yetakladim. Hamma uni xushvaqt peshvoz oldi. Men ham ta'zim qildim. Sarvlar orasidan taralgan ohang ustida bahs bo'ldi. Hamma bir og'izdan kuyda tabiat ko'rki, fayz-u tarovati jozibali, mukammal aks etganini ta'kidladilar. Xusrav Borbadning og'zini tilloga, etagini durr-u javohirga to'ldirtirdi. Kuyni „Sabz andar sabz“, deb atadilar. Shu bugundan boshlab, Xusrav Borbadni mening o'rnimga saroy san'atkorlarining boshlig'i etib tayinladi. Men uning dahosi oldida bosh egdim va bir umrga shogirdligimcha qoldim.

Ma'lum bo'lishicha, mening „shuhratparast“ deb uch tanga berishim Borbadning izzat-nafsigaga tekkan ekan. U to'g'ri uyiga borib, bahor manzarasiga o'xshatib maysarang liboslar kiyibdi, borbatini ham yashilga bo'yabdi. So'ngra bog'bon Bomduy huzuriga kelib, shu kungi bazm paytida bog'ga kirishga ruxsat so'rabdi. Borbad san'atining chin muxlisi Bomduy bog' sayriga kirishga ijozat bergan ekan.

## Nekiso naqli

Bahor oylari edi. Biz bir guruh mashshoqlar bilan Isfahonda Navro'z tantanalarida ishtirok etib, o'z kuy va qo'shiqlarimiz bilan xalq sayliga fayz bag'ishlab yurar edik. Ittifoqo, Xusrav o'z o'g'li Sheruya tomonidan o'ldirilganini eshitdik. Men yashin tezligida Madoyinga yetib keldim. Lekin hayhot, kechikibman, allaqachon Xusrav dafn etilgan. Saroydagi alg'ovdalg'ovlar haqida duv-duv gap yurar edi. Poytaxt odamni tutib yeyman, deydi. Ko'hna oshnolardan hech kimni topa olmadim. Hamma zada bo'lgan qushlarday tumtaraqay bo'lgan.

*Ne qilarimni bilmay dovdirab qoldim. O'zimni qo'lga oldim-da, to'g'ri ustozim Borbad hovlisiga qarab yurdim. Yetib keldim-u o'z ko'zlarimga ishonmay dong qotib qoldim. Evoh, bu qanday ko'rgilik. Ey falak, bu ne bedodlik! Nahotki shunday koshonaning kulini ko'kka sovursang! Qanday kuch bilan baqirganimni bilmayman. Ko'z o'ngim qorong'ilashib, boshim aylana boshladi. Gandiraklab yurib, kultepalarni aylandim. Hamma narsa kuyib, xok-u turob bo'lgan edi.*

Kechgacha shahar aylanib, qo'ni-qo'shnilardan ustozimni so'roqladim. Bir ikki yo'lovchilar Borbadni bozor boshida devonavor aylanib yurganini, darveshlar jandasini kiyib olganini aytishdi. Shundan so'ng shahar chetidagi karvonsaroylarni kezdim, darveshxonalaridan qidirdim. Va nihoyat, darvesh hujralaridan biridan topdim. Eshikdan salom berib kirishim bilan burchakda o'tirgan Borbad menga qarab, o'rnidan turdi. Shamshoddek qomati dol, arg'uvondek ruxsori za'faron bo'lgan. Bag'riga otildim, ota-boladek bir-birimizni quchib salomlashdik. Navbat qo'l berib ko'rishishga kelganda, qo'lim oldingi ipakdek mayin, hamisha otashdek issiq kaftlarga emas, allaqanday qalamlangan, sovuq novdalarga tekkanday bo'ldi. Bir seskanib tushdim. Qarasam ustozimning har ikki qo'lining bosh va ko'rsatkich barmoqlari tagidan kesilgan, o'rni qorayib, burishib yotardi. Ko'zlarimdan tirqirab yosh chiqib ketdi. Tomog'imga bir narsa tiqilib kelardi: „*Nahotki kuyga suiqasd qilgan bo'lsalar!?* Nahotki!?“

Naql etishlaricha, ustozim tong-saharda Xusravga suiqasd qilinganini eshitib, saroyga chopibdi. O'zining xos xonasida qonga belanib yotgan homiysini ko'rib zor-zor yig'labdi. O'zi yuvib-tarabdi, dafn marosimida bosh-qosh bo'libdi. Shohona



maqbaraga eltish yo'lida mashhur „Xusravoni“ kuyini chalib boribdi. Homiysini o'z qo'li bilan lahadga qo'yibdi. Dafn marosimi ham g'aribona bir tarzda o'tibdi. Ustoz nazarida ma'rifat va adolat oftobi so'nib, dunyoni zulmat egallagandek bo'libdi. Diyonat va irfon, san'at va nafosat olamini jaholat buluti qoplabdi. Bunday hayotga la'nat o'qib, bu dunyodan bosh olib ketgisi kelibdi. U maqbara yonidan to'g'ri uyiga kelib, avval sozini sindiribdi, so'ngra barmoqlarini bolta bilan chopibdi, keyin uyiga o't qo'yib, darveshona hayot kechirishni ixtiyor etibdi.

Men ustozimni uyimga eltmoqchi bo'ldim. Ammo u o'z qaroridan qaytmadi. Deyarli har kuni uning oldiga kelib turardim, yolg'izlatib qo'ymaslikka intilardim.

Shahar hamon alg'ov-dalg'ov, saroy notinch edi. Hamma yoqni ayg'oqchilar, g'alamislar bosgan. Xusrav vafotidan olti oy o'tgandan so'ng fitnachilar Sheruyani ham o'ldirib ketishdi. Otasini o'ldirgan farzand shohlikka yaramaydi, yarasa ham olti oydan nariga o'tmaydi, degan quyidagi hikmat o'shandan qolgan.

*Padarkush podshohiro nashoyad,  
Agar shoyad, zi shash mohe napoyad.*

(Mazmuni: *Padarkush podsholikka loyiq emas. Agar loyiq bo'lsa ham olti oyga bormaydi.*)

Kunlardan bir kun kelib, ustozni darveshlar kulbasidan topa olmadim. „*Marvga ketib qoldilar*“, deyishdi hamxonalari. Oradan ko'p o'tmay „*Borbad vafot etdi*“, degan xabar keldi. Ha, munkayib qolgan mo'ysafidni vatan xoki mehri tortgan ekan... Borib qabrini ziyorat qilib qaytdim.

\* \* \*

Borbadning ayrim kuylari yaratilishi tarixi bilan bog'liq rivoyatlar ham kitoblardan kitoblarga ko'chib yuradi. „*Ganji gov*“, „*Ganji bodovard*“, „*Rohravi Shabdiz*“ ohanglarining ijod etilishi bilan bog'liq rivoyatlar shular jumlasidandir.

## AL-JABR, YA'NI ALGEBRA

Xalifa Xorun-ar Rashid tomonidan Xurosonga amir etib tayinlangan Ma'mun bugun ham Marvning Jome' masjidi peshayvonida qo'llari orqasiga bog'langan sobiq amir Ali ibn Iso ustidan xalqning arz-dodini eshitib, olim-ulamolalar kengashi bilan

ulardan tortib olingan mol-mulkni undirib bermoqda. Olomon orasidan qotmadan kelgan, sallani chorpech o'rab, sipogina kiyingan yigitcha amirga yaqinlashdi.

— *Senga ne aziyat yetdi, yigit?! —* xitob qildi amir.

— *Men Ali ibn Isoning Xuroson-u Movarounnahr xalqiga qilgan bedodliklarini eshitgan edim. O'zini ham bir ko'ray deb keldim, hech qanday arzim yo'q, amirim —* javob berdi yigit.

— *Bu yigit Mavlono Muso bo'ladilar, taqdir. Riyozatda ko'p dono. Marvga tahsil olish uchun kelganlar. Holo, u kishi Javhariy va al-Hosiblar davrasida ilm o'rganish bilan mashg'uldirlar, —* dedi amir noiblaridan biri.

Ilm-fan kishilariga xayrixoh, o'zi ham yoshligidan ilmi nujum (astronomiya)ga mehr qo'ygan Ma'mun Abdullo Muhammad ibn Muso Xorazmiyni saroyga taklif etadi.

783-yili Xorazmda tug'ilgan Muso dastlabki ta'limni xususiy muallimlardan oladi. Keyinchalik o'sha davrning ilm-fan markazi bo'lgan Marvga kelib, madrasada o'qiydi, mustaqil mutolaa, ilmiy kuzatishlar bilan shug'ullanadi. Xorun-ar Rashid vafot etgach, xalifaning o'g'illari Muhammad Amin va Ma'munlar o'rtasida taxt uchun kurash ketadi. Bu kurashda Ma'mun g'alaba qozonib, 818-yili Bag'dodda xalifalik taxtiga o'tiradi. Ma'mun Muhammad Muso Xorazmiyni ham o'zi bilan Bag'dodga olib ketib, „Baytul hikma“ („Hikmatlar uyi“) deb nomlangan o'ziga xos Fanlar akademiyasi bo'lgan ilmiy markazga boshliq etib tayinlaydi. Bu yerda Xorazmiy Abdulvafo Buzjoniy, Is'hoq Ibodiy, Ahmad Farg'oniy, Abdulabbos Nayreziy, Abduja'far Xurosoniy, Abdulfath Isfahoniy, Muhammad Ahmad va Hasan ibn Shokirlar bilan birgalikda ilm-fan, aniq fanlarning turli sohalariga doir kashfiyotlar bilan shug'ullanadi. O'zining ilk asari „Surat-ul-arz“ („Yer surati“) kitobini yozadi. Unda Sharq mamlakatlari shaharlari, tog'lar, daryo-yu sahrolarning joylashishi haqida, ekvatorial chiziq ostida joylashgan quruqliklar xususida aniq ma'lumotlar keltirgan.

Ma'mun Bag'dodda Muhammad al-Xorazmiy ishtirokida rasadxona, tabiiy fanlar o'qitiladigan madrasa, ulkan kutubxona qurdirgan, qadimgi yunon olimlarining asarlarini arab tiliga tarjima qildirgan. Davrning buyuk munajjimi darajasiga yetgan al-Xorazmiy umrining oxirgi damlarigacha shu yerda qolib, al-Ma'mun, al-Mo'tasim va al-Vosiq kabi xalifalar

homiyligida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. Xalifa Vosiq Xorazmiyga katta ishonch bildirib, uni quyi Volga Xazar xoqonligidagi vakolatxonasiga boshliq etib tayinlagan.

Bu vazifani tark etgach, Xorazmiy qadimgi yodgorliklar va elatlar turmush tarzini o'rganish maqsadida safarlarda bo'ldi. Kichik Osiyoning Afsus shahri yaqinida joylashgan mashhur g'orni tekshirishda ishtirok etadi. Ammo Xorazmiyning asosiy vaqti xalifa Ma'mun nomiga nisbat berib „Ma'mun akademiyasi“ deb yuritiladigan ilmiy markaz „Baytul hikma“da o'tadi. U dastlab hindlarning astronomiya va matematikaga doir asari „Sidxanta“ning 773-yili bajarilgan arabcha tarjimasini „Sindi hind“ni tahrir qiladi.

Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, tarix, geografiya va boshqa fanlarga doir ko'plab risolalar yozdi. „Al-jabr val muqobala“ — („Tenglamalar va qarshilantirish“), „Hisob al-hind“ („Hind hisobi“), „Ziji Xorazmiy“, „Risolayi musiqiy“, „Kitob-ut tarix“ („Tarix kitobi“), „Kitob al-amal usturla-bat“ („Usturlab bilan ishlash haqida kitob“) singari asarlar ilmda yangi kashfiyot bo'lib, olimga jahonshumul shuhrat keltirdi. Xorazmiy har bir asarini yozishda uning amaliy ahamiyatiga jiddiy e'tibor beradi. Olimning o'zi tenglamalar haqidagi kitobida quyidagilarni yozadi: „*Men arifmetikaning sodda va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob yozdim. Chunki u odamlarga meros taqsimlash, vasiyatnoma yozish, boyligni bo'lish va adliya ishlari, savdo-sotiq, kanal qazish, geometrik hisoblashlar, shuningdek, boshqa turli munosabatlarda juda ham zarur*“.

Mazkur kitobda algebraning qonun-qoidalari sodda bir tarzda bayon etilgan.

Xorazmiyning tarixga doir kitobi arab xalifaligining ilk davri, Xuroson, Kichik va O'rta Osiyoning VIII—IX asrlar tarixiga doir eng aniq hamda lo'nda ma'lumot beradigan asardir. Olimning astronomiyaga doir kitoblari o'zidan keyingi asrlar Sharqda astronomiya fani taraqqiyotiga sezilarli ta'sir etgan. O'sha yillari Bag'dod, Damashq, Qohira singari shaharlardagi maktablarda *handasa, ilmi nujum, riyoziyot, tibbiyot, musallasot* (trigonometriya) fanlari keng o'qitilardi. Bunda Xorazmiy boshchiligidagi Eron, Xuroson va Movarounnahrda borgan olimlarning hissasi ham katta bo'lgan. Chunonchi, Xorazmiy

boshchiligidagi 70 ta olim jahon xaritasini tuzishga kirishadi. Professor H.Hasanovning aniqlashicha „Ma'mun dunyo xaritasi“ deb atalgan bu ish 840-yili tugallangan.

Xorazmiy „Hind hisobi“ kitobida hozir biz ishlatadigan birdan to'qqizgacha bo'lgan raqamlar va nol yordamida istalgan sonni yozish, ular bilan arifmetik to'rt amalni bajarish, o'sha raqamlar bilan ifodalangan sonlardan kvadrat ildiz chiqarish qoidalarini izohlab bergan.

Taniqli faylasuf, professor Omonullo Fayzullayevning ta'kidlashicha, Xorazmiy arifmetikaning algoritmlari bo'lgan *qo'shish, ayirish, ko'paytirish* va *bo'lish* qoidalarini yaratgan. Shuningdek, turli o'lchov birliklaridagi sonlarni ko'paytirish algoritmini ham ishlab chiqqan. Masalan, *daqiqqa, soniyalarni* bir-biriga ko'paytirish uchun, avvalo ularni bir xil shaklga, ya'ni soniyaga yoki daqiqaga aylantirib olish kerakligini ko'rsatgan.

Hozirgi zamon algoritm tushunchasi ham al-Xorazmiy ismining lotincha talaffuzi „algoritm“ so'zidan olingan. Tenglamalar haqidagi fanning bir sohasini ifodalovchi „Algebra“ so'zining kelib chiqishi ham Xorazmiyning „Al-jabr val-muqabala“ risolasi bilan bog'liq. Xorazmiyning bu asari hozirgi Ispaniya va Portugaliyada yashovchi arablar orasida ham keng tarqalgan. Ular „j“ tovushini „g“ tarzida talaffuz etib, „aljabr“ni „algebr“ deganlar. Mazkur kitob lotin tiliga tarjima qilingach, G'arbiy Yevropada ushbu so'z „algebra“ tarzida qabul qilingan va tenglamalar haqidagi fanning nomi bo'lib qolgan.

Buyuk matematik vatandoshimiz Xorazmiy 850-yili Bag'dodda olamdan o'tgan. Xorazmiyning ilmiy asarlari *yunon, lotin, nemis, ingliz, golland, rus* tillariga qayta-qayta tarjima qilingan.

Xorazmiyning ilmiy faoliyatiga buyuk olim Beruniy, shoir va matematik Umar Xayyom yuksak baho berganlar. Olimning boy ilmiy merosi hamon o'z qimmatini saqlab, avlodlari olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda.

## TABARIY SABOQLARI

Mehmonxona mo'ysafid qarindoshlar, doimiy guruh qatnashchilari — hamsoyalar bilan liq to'la. Taomdan so'ng yana Qur'on oyatlari-yu Payg'ambar hadislari sharhi atrofida bahs bo'ldi. Mehmonlardan biri:

— *Abdu Ja'far bobosidan o'rgangan hadislardan o'qib bersin,*  
— iltimos qildi qo'qqisdan.

Otasining roziligi ishorasidan so'ng 6—7 yashar bola o'rnidan turib, Hadis aytdi:

— *Ey mo'min! Bani odamiyg'a yaxshiliq qil, yaxshiliq qila bilmasang, bori yamonliq qilmag'aysankim ul ham yaxshiliqdur.*

— *O'g'lim „Yosin“ni ko'p yaxshi qiroat qiladilar-da, yana bir eshitsak devdim,* — ilova qildi bir nuroniy mezbon.

Bola Qur'oni karimdan „Yosin“ surasini chunonam qiyomiga yetkazib o'qidikim, ahli majlis bir soniyaga sehrlanganday jim bo'lib qolishdi. So'ngra:

— *Iloho umring uzoq bo'lsin, Alloh seni ma'rifat kimyosidan saodatmand etibdi, nuri ilohiy seni aslo tark etmasin,* — deb duo qilishdi.

Bu go'dak Qur'on-u hadisning bo'lajak targ'ibotchisi, tarixchi olim Tabariy edi.

**Abdu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy** 839-yili Tabaron viloyatining Amul shahrida zodagonlar oilasida dunyoga keladi. U ona shahrida xususiy muallimlardan ta'lim oladi. Bo'lajak olim yetti yasharligida „Qur'on“ni to'la yoddan biladi, qadimgi tarix, arab tili va adabiyotini o'rganish bilan jiddiy shug'ullana boshlaydi. Tabariy to'qqiz yasharligida avlodidagi keksalar og'zidan Payg'ambar hadislarini-yu xalq hikmat, rivoyatlarini yozib olib boshlaydi. Madrasa tahsilidan so'ng turli o'lkalar bo'ylab sayohatga chiqadi: Bag'dod, Shom, Basra, Ray, Kufa shaharlarida bo'ladi, davrning mashhur olimlari-yu shayxlarining ma'ruzalarini tinglaydi, ilmiy majlislarida ishtirok etadi.

Tabariy qayerga bormasin, noyob kitoblarni qidirib o'qiydi, xalqlarning qadimgi tarixi, madaniyati, adabiyotini o'rganadi; roviy, noqillardan turli rivoyat, voqealarni yozib olib yuradi: 867-yili Misrga kelganida Tabariy ilm-adab ahli tomonidan e'tirof etilgan olim darajasiga yetgan edi. Ko'p yillik safar orasida bir necha marta Amulga borib qaytgan Tabariy Bag'dodda muqim yashab qoladi. U bu yerda huquqshunoslik maktabini ochadi, mudarrislik qiladi. Ayni paytda olim ko'hna tarixiy asarlarni ko'zdan kechiradi, fiqh donishmandlaridan payg'ambarlar tarixi, ular haqidagi rivoyatlar, hadislar yozib oladi. Chunonchi, Muhammad binni Humayra ar-Roziydan o'n mingdan ortiq hadis yozib olgan.

Tabariyning iqtidor-u tinimsiz izlanishlari, kuniga yuzlab sahifa ish yozishi, xalq ogʻzaki ijodi asarlarini toʻplashdagi jasorati haqida shogirdlari ibratomuz fikrlarni yozib qoldirgan. Tabariy 923-yili Bagʻdodda vafot etgan. U *tarix, fiqh, huquqshunoslik, ilmi badeʼ, tib ilmiga* doir oʻnlab asarlar yozib qoldirgan. Ammo bizga qadar olimning „Tarix-ar-rusul va al-muluk“ („Paygʻambarlar va shohlar tarixi“), 20 jilddan iborat „Kitobul jomeʼ-ul-bayon fi tafsir-il „Qurʻon“ („Qurʻon tafsiri bayoni haqida kitob“), „Kitob ixtilof al-fuqaho“ („Faqihlarning ixtiloflari haqida kitob“) singari asarlari mukammal saqlanib qolgan. Mashhur arabshunos V.I. Belyayevning taʼkidlashicha, Tabariy tafsiri oʻzining aniq-haqqoniyligi-yu badiiyligi bilan shu soha donishmandlarini hayratga solgan.

Tabariyga olamshumul shuhrat keltirgan asari oʻn uch jilddan iborat „Paygʻambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi“ kitobidir. Zeroki, unda olim oʻzigacha oʻtgan tarixchilar asarlari, xalq naqlari hamda oʻzi guvoh boʻlgan dalillar asosida Arab, Ajam, Kaspiyboʻyi, Kavkaz, Xuroson-u Movarounnahr xalqlarining eng qadimgi davrlardan tortib, 915-yilgacha boʻlgan tarixi haqida hiyla mukammal maʼlumot beradi. „Tarixi Tabariy“ nomi bilan mashhur bu kitobning birinchi jildi muqaddima hamda Yaqin Sharq xalqlarining miloddan oldingi tarixi bayoniga bagʻishlangan, ikkinchi jildi Eron sosoniylari hukmronligi tarixiga, 3–5- jildlari esa Muhammad paygʻambar sarguzashti, faoliyati hamda Abubakr, Umar, Usmon, Haydar singari xalifalar hokimligi, ular oʻrtasidagi ixtiloflar, xalifalik hududini kengaytirish uchun olib borilgan bosqinchilik urushlari bayoniga bagʻishlangan boʻlib, voqealar xronologik tarzda, izchil hikoya qilingan.

Asarning qolgan qismlari Ummaviylar hamda Abbosiy xalifalar sulolalari tarixi bayonidan iborat. Kitobda Marv, Balx, Xorazm, Soʻgʻd, Huttaliyon, Xuroson-u Movarounnahrning boshqa shaharlari tarixiga doir dalillar ham juda koʻp. Muallif arablarning Movarounnahrda hujumi, bosqinchilarning bu oʻlka shaharlarida qilgan xunrezliklari, mahalliy xalqlarning ajnabiy qonxoʻrlarga qarshi olib borgan vatanparvarlik kurashlarini ham ancha jonli hikoya qilgan; *mazdakiylar, barmakiylar va Bobak qoʻzgʻolonlari* singari xalq harakatlari jarayonini yaxshi yoritgan.

„Paygʻambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi“ kitobini 936- yili somoniylarning donishmand va maʼrifatparvar vaziri

Bal'amiy dariy-forsiyga tarjima qilib, uni „Tarixi Tabariy“ deb atadi. Tarjima jarayonida Bal'amiy eroniy xalqlar hayotiga oid ba'zi lavhalarini, rivoyat va qadimiy dostonlarni kitob matniga hamroh qilgan. Chunonchi, forsiy nusxadagi „Bahromi Cho'bina“ dostoni asl arabcha qo'lyozmalarda uchramaydi. Kitob turk, nemis, ingliz, o'zbek (XIX asrda) tillariga tarjima qilingan. Uning alohida boblari N.A. Mednikov, A.E. Shmidt, V.I. Belyayevlar tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. 1987-yili „Fan“ nashriyoti „Tarixi Tabariy“dan saylanma qismlarni rus tilida alohida kitob holida nashr etdi. „Tarixi Tabariy“ Muhammad Sodiq Koshg'ariy tomonidan XVIII asrda uyg'ur tiliga tarjima qilingan. Mutarjim ish jarayonida asar tarkibiga „Mirnoma“, „Qissas-ul-anbiyo“, „Ravzat-us-safo“, „Me'roj-noma“, „Shohnoma“ singari asarlardan voqealar silsilasiga qarab ba'zi bir lavhalarini ilova qilgan. Ana shu tarjima asosida Sh. Zokirova va M. Qutluqovlar asarning „Yazdigirdning o'ldirilishi va Xurosonning bosib olinishi voqealari“, „Qutaybaning Movarounnahrda hujumi“ bo'limlarini rus tiliga ag'darib, „O'rta va Markaziy Osiyo tarixidan materiallar“ („Fan“, 1988) to'plamiga kiritganlar. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi B. Ahmedov „O'zbekiston xalqlari tarixining manbalari“ (1991) degan kitobiga ham Tabariyning Movarounnahr tarixiga doir ma'lumotlarining bir qismini tarjima qilib kiritgan.

„Tarixi Tabariy“ning dastxat nusxalari Sankt-Peterburg, Toshkent, Dushanbe qo'lyozmalar xazinalarida, Nizomiy nomidagi Davlat pedagogika universitetining professor N.M. Mallaev nomidagi o'quv xonasida saqlanmoqda.

Tabariyga xos ilm o'rganish yo'lidagi zahmatkashlik, fidoyilik, xalq qadriyatlariga mehr bilan qarash, o'tmish tarixini, og'zaki ijod asarlarini, Qur'on-u hadislarni e'zozlash, ilmiy izlanishlar yo'lidagi, muxoliflar bilan bahs-u munozaralar jarayonidagi sabot-u matonat barchaga ibrat bo'larlidir.

## MUALLIMI SONIY

Shom shahri madrasalaridan birida arabshunos olimlarning yig'ilishi davom etardi. Raislik qiluvchi yosh bir yigitchaga so'z berdi. U arab tili shevasining tovush xususiyatlari haqida ma'ruza qildi. Ma'ruza jiddiy bahsga sabab bo'ldi. U o'z fikrini ishonch bilan isbotlay oldi. Oxirida barcha mashhur tilshunos olimlar bu yigitchani *arab tili donishmandi*, deb tan oldilar. Bu

tolibi ilm qomusiy bilim sohibi, mashhur faylasuf, shoir, adabiyotshunos va musiqashunos **Abu Nasr Forobiy** edi. „Forobiy yetmish tilni bilardi“, degan naql o‘shandan qolgan ekan.

Abu Nasr Forobiy 870-yili Sirdaryo bo‘yidagi Forob shahriga yaqin Vosinch qishlog‘ida harbiy xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. Boshlang‘ich maktabni o‘z qishlog‘ida tugatgan Forobiy Buxoro va Samarqand madrasalarida bilim oladi. Otasi bilan Isfahon, Hamadon va Ray shaharlariga safar qiladi. So‘ng Forobiylar oilasi o‘sha paytlari Kichik Osiyo, Xuroson va Movarounnahrda asosiy ilmiy markaz bo‘lmish Bag‘dod shahriga ko‘chib boradi va bo‘lajak olim ilm o‘rganish bilan jiddiy shug‘ullana boshlaydi. U Abubashir Mattondan *qadimiy yunon* tilini, Yuhan ibn Haylondan *tib ilmi* va *mantiq* bo‘yicha ta‘lim oladi. Yosh yigit Forobiy ham ilm o‘rganar, ham muallimlik qilar ekan. Chunonchi, mashhur olim Abu Sirojiddindan *astronomiya* va *matematikani* o‘rganadi, o‘zi esa unga *mantiq* bo‘yicha dars beradi. Qadimiy manbalarning guvohlik berishicha, Forobiy butun umrini ilm o‘rganishga bag‘ishlab, arab mamlakatlardagi madrasalarda dars berish bilan kamtarona, faqirona hayot kechirgan. Birgina Shom shahrida uning mingdan ziyod shogirdlari bo‘lgan. G‘animlarning fitnasi bilan hayoti xavf ostida qolganda, uni qutqazgan ham shogirdlaridir. Forobiy Halab shahrida yashagan paytida shahar hokimi, ilm-fan homiysi Sayfutdavla unga davlat hisobidan maosh to‘lardi. Shunisi qiziqki, olim bu puldan kundalik tirikchiligi uchun yetadiganinigina olardi. Forobiy 950—951-yillar orasida vafot etgan.

Abu Nasr Forobiy qomusiy bilim sohibi bo‘lgan. U *falsafa*, *mantiq*, *adabiyotshunoslik*, *musiqashunoslik*, *siyosat*, *psixologiya*, *matematika*, *astronomiya*, *geometriya*, ilm-fanning boshqa sohalariga doir ko‘plab risolalar yozgan. Nafaqat falsafada, balki *arab grammatikasi*, *shevashunosligida* ham o‘z davrining peshqadam olimi bo‘lgan. Olim ijodini o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘lgan tadqiqotchilar uning 160 ta asar yozganini ta‘kidlaydilar. Ularning 17 tasi turli olimlarning falsafiy asarlariga yozilgan sharh, 50 tasi alohida kitob, 5 tasi bir qancha maqolalarni o‘z ichiga olgan majmualar hisoblanadi. Bular orasida „Siyosat va madaniyat“, „Ruhning mohiyati haqida risola“, „Fozil kishilarning axloqiy qarashlari“, „Hajm va



miqdor haqida soʻz“, „Oʻlchovlar haqida kitob“, „Boʻlak va boʻlinmas narsalar haqida soʻz“, „Falsafaning muqaddimasi“, „Sheʻr va qofiyalar toʻgʻrisida soʻz“, „Sheʻr sanʻati qonunlari haqida maqola“, „Osmon va olam“, „Yulduzshunoslikka oid risola“, „Oliy jismlar haqida kitob“, „Ilmlar majmuasi“ asarlari mashhurdir.

U yunon ilmining buyuk vakili Aristotelning barcha falsafiy, tabiiy, ilmiy asarlariga, Ptolemey, Evklid, Galen, Gipokratlarning risolariga sharhlar bitdi.

Forobiy sheʻriyat va musiqa nazariyasiga doir kitoblar ham yozgan. Qonun musiqa asbobiga bir qoʻshimcha tor ilova qilib, takomillashtirgan, uning ovoz imkoniyatini oshirgan. Uning sheʻriyatga doir risolasi oʻzbek va rus tillarida nashr etilgan. Forobiyning bu asarlari Sharq xalqlari tarixida alohida oʻrin tutadi. Ilm-fanda dunyo falsafasining asoschisi — birinchi muallim, qadimgi yunon faylasufi Aristotel hisoblanadi. Forobiy antik yunon faylasuflaridan Platon asarlarini tarjima qilib, sharhlab, Sharqda keng tarqalishiga katta hissa qoʻshgani va juda koʻp falsafiy masalalarni oʻsha olimlar darajasida talqin etgani uchun „*Muallimi soniy — Ikkinchi muallim*“ deb nom olgan. Uning ijodini oʻrganish va arab tilidan tarjima qilishda akademik M.Xayrullayevning xizmati katta.

Oʻtmish mutafakkirlari Forobiyning ijodiga yuksak baho berganlar. Oʻn ikkinchi asrning oxiri va oʻn uchinchi asrning boshlarida yashagan tarixchi Bayhaqiy „*Islomda unga teng keladigan odam dunyoga kelgan emas. Dunyoda toʻrtta yirik olim boʻlgan. Ularning ikkitasi islomgacha yashagan. Chunoschi, Aristotel va Buyuk Aleksandr (Afrodiziy); ikkitasi islom davrida yashagan; Abu Nasr va Abu Ali (ibn Sino), Abu Ali Abu Nasrning asarlaridan juda koʻp foydalangan*“, deb yozgan „Tarixi Masʻud“ kitobida. XIX asr nemis sharqshunosi Fridrix Ryukkert, „*falsafani haqiqiy qatʻiy ilmiy asosda ishlab chiqqan kishi deb faqat Forobiyni hisoblamoq lozim*“, deydi. Rus sharqshunosi E.Bertels boʻlsa, Forobiyni qomusiy bilim sohibi sifatida taʻriflab: „*Forobiy yaxshi matematik boʻlgan, oʻsha davrdagi tibbiyotning barcha tomonlarini bilgan, musiqa nazariyasi boʻyicha bir qator risolalar yaratgan, bastakor sifatida shuhrat qozongan*“, deydi.

## Forobiy hikmatlaridan

Inson yuksak kamolotga erishuv yo'lida harakat qilganidek, aqliy bilishga ham harakat qilsa, hech shubhasiz, o'zi intilayotgan so'nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi.

\* \* \*

Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-atvor, fazilatlariga ega bo'lmog'i lozim. Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari sababli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.

\* \* \*

Inson har doim quvnoq, xushchaqchaq bo'lishi va baxtiyor yashamog'i zarur.

Ilmiy masalalar bilan yetarli shug'ullanuvchi hamda turli-tuman ishlarga berilgan odamlarga kelganda ularning ishlarida tartib ham, intizom ham bo'lmaydi.

\* \* \*

Haqiqat tarqatib ket, bo'lsa imkon.

\* \* \*

Baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi fazilatli jamoadir. Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergan xalq fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo'ladi.

\* \* \*

Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashashi, oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi va ularga ega bo'lishi uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj sezadi.

\* \* \*

Har kimki ilm-hikmatni o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo'lishiga intilsin, axloq-odobli bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyonat va makr-hiyaladan uzoq bo'lsin.

Yomon ishlardan oʻzini ehtiyot qilib yurganlarnigina bilimdon, deyish mumkin.

### ASRNING NOYOB HODISASI

Uloqnoʻyon va Sektuboʻqo boshchiligidagi moʻgʻil askarlari Sirdaryoni kechib oʻtib, sonsiz lashkar bilan shaharga hujum qildilar. Xalq tengsiz dushman bilan oʻn kun mardonavor kurashdi: tungi janglar dushmanni tahlikaga soldi, kunduzi qalʼa devorlari ustidan turib gʻanimlar boshiga oʻq-u tosh yogʻdirdi. Oziq-ovqat tanqisligiga qaramay qalʼa himoyachilari soʻnggi tomchi qonlari qolguncha kurashishga ahd qilishgandi. Lekin bir guruh savdogarlar xoinlik qilib, kechasi shahar darvozasini ochib berdilar. Xalq nafratidan choʻchigan bosqinchilar 8 ming asirni oldilariga solib, shaharga bostirib kirdilar, qariyalar, xotin-qizlar, fidoyi jangchilarni qirib tashlab, obod shaharni yer bilan yakson qildilar. 50 ming yigit koʻprik qurish uchun togʻdan tosh tashishga haydaldi.

Atoqli oʻzbek tarixchisi va olimi Abulgʻoziy Bahodirxon (XVII asr) „Shajarayi turk“ — „Turk-oʻzbek avlodlari tarixi“ asarida taʼriflangan bu shahar Sharqda „Tirozi jahon“ („Jahon koʻrki“) nomi bilan shuhrat qozongan **Xoʻjand** shahridir. Xoʻjand qadim zamonlardan Movarounnahrning hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan taraqqiy etgan obod shaharlaridan biri boʻlgan. Jumladan, X—XII asrlarda bu yerdan Abu Mahmud Xoʻjandiy, Abu Jaʼfar Muhammad Xoʻjandiy, Abdujabbor Xoʻjandiy singari dunyoga shuhrati mashhur munajjim (astronom)lar yetishib chiqqan.

Ular orasida Abu Rayhon Beruniy tomonidan „*asrning noyob hodisasi*“ deb taʼriflangan **Abu Mahmud Xoʻjandiy** alohida oʻrin tutadi. Zeroki, Abu Mahmud Sharq ilm-fani tarixida astronomiyaning amaliy va nazariy masalalari bilan shaxsan shugʻullangan olim hisoblanadi. Boʻlajak olim X asrning yigirmanchi yillari oʻrtalarida Xoʻjandda tugʻiladi. Abu Mahmudning bolalik va oʻsmirlik yillari ona shahrida oʻtadi: astronomiya, matematika, geometriya va tib fanlarini zoʻr qiziqish bilan oʻrganadi. Marv va Urganch shaharlarida madrasada taʼlim oladi va xususiy muallimlarda tahsil koʻradi. Professor P.B. Bulgakovning aniqlashicha, Abu Mahmud biroz vaqt Xorazmshoh

Mahmud tomonidan Urganchda tashkil etilgan ilmiy markazda ishlagan.

Shundan so'ng Abu Mahmud xalifalikning markazi bo'lmish Bag'dodga boradi. Lekin tez orada Ray shahri hokimi Faxruddavla (976—997) olimni o'z saroyiga da'vat etadi. Bu yerda Mahmud Xo'jandiy jiddiy ijodiy va amaliy ishlar bilan shug'ullanadi. Taxminan 993-yili Taborak tog'ida Abu Mahmud rahbarligida rasadxona quriladi va 994-yilning boshlarida olim o'zi yasagan radiusi 43 metrli astronomik asbob — sekstant yordamida quyosh harakatining balandligi va yulduzlar muvozanatini kuzatadi. Jumladan, olim quyosh balandligini o'lchash yordamida Ray shahrining kengligi 350—35 gradusga tengligini aniqlagan. 22 yashar Beruniy xuddi mana shu davrda Ray shahrida Abu Mahmud bilan uchrashib, do'stlashgan, uning faoliyati bilan tanishgan.

Abu Mahmud Xo'jandiy o'zigacha bo'lgan va zamondosh munajjmlarning ilmiy faoliyatini puxta o'rgangan. Yaqin va O'rta Sharqda qurilgan barcha rasadxonalarning tuzilishini sinchiklab kuzatgan, ular tajribasidan Taborak rasadxonasini qurishda ijodiy foydalangan. Hatto tadqiqotchilar Abu Mahmud bolaligidayoq buzilib yotgan Xo'jand rasadxonasi qoldiqlarini ham kuzatgan, degan fikrni bayon etdilar.

Abu Mahmud keyinchalik ana shu kuzatish va tajribalar natijalari o'laroq, matematika va astronomiyaga doir o'nlab asarlar yaratgan, astronomik asboblarning birinchi ixtirochisi sifatida shuhrat qozongan. Olimning „Umumiy astronomik asboblardan foydalanish qoidalari“, „Mamlakatning tuzilishi va joylashishini aniqlash haqida risola“, „Astronomiya qonunlari“ singari bir necha risolalarigina bizga qadar yetib kelgan. Abu Mahmud Xo'jandiy 1000-yili Ray shahrida vafot etgan.

Abu Rayhon Beruniy yaqin do'sti Abu Mahmud Xo'jandiyning astronomik asboblari yasash bo'yicha ixtirochi sifatida „asrning noyob hodisasi“ degan bo'lsa, uning vaqt birligi doirasida „sekund“ni aniqlashini „beqiyos kashfiyot“ deb baholagan. Abu Mahmud Xo'jandiyning ilmiy va amaliy merosi keyingi asrlar Sharq astronomiyasi taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazdi. Chunonchi, Marog'a (Eron, XIII asr), Samarqand (XV asr) hamda Jaypur (Hindiston, XVII asr) rasadxonalari Abu Mahmud sekstanti o'rnatilgan edi. Ko'hna manbalarning guvohlik berishicha, Marog'a kutubxonasida 40 mingta kitob

saqlangan. Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasini qurishga bevosita rahbarlik qilgan Jamshid Koshiy o‘zining „Astronomik asboblar sharhi haqida risola“ kitobida ushbu rasadxonaga o‘rnatilgan Abu Mahmud sekstantini alohida sharhlagan: „Tusiy yigirma bobining sharhi“ (XVI asrning boshlari) kitobining muallifi Birjandiy Sharq mamlakatlarida yaratilgan astronomik asbob va uskunalarni batafsil sharhlar ekan, Abu Mahmud Xo‘jandiy yasagan asboblarni birinchi o‘rinda ta‘riflaydi.

Buyuk bobomiz Beruniy tomonidan ta‘riflangan vatandoshimiz, Ray rasadxonasining me‘mori, astronomik asboblar ixtirochisi Abu Mahmud Xo‘jandiy bilan har qancha faxrlansak arziydi.

### TO‘NG‘ICH TARIXNAVIS

Ilm-adab ahli orasida ko‘pdan beri „Buxoro tarixi“, „Narshaxiy tarixi“, „Buxoro xabarleri“, „Buxoro viloyatining tahqiqi“ nomi bilan mashhur bo‘lgan asarning muallifi **Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far Narshaxiydir**. Narshaxiy 899-yili Buxoro viloyatiga qarashli Narshax mavzesida tug‘ilgan. Yoshligidan qadimgi tarix, geografiya, arab tilini puxta o‘rgangan, madrasada tahsil ko‘rgan. Olimning vafot etgan yili noma‘lum. Bizgacha uning „Buxoro tarixi“ kitobi yetib kelgan.

„Bu asar O‘rta Osiyo tarixnavisligining to‘ng‘ich asari bo‘lib, Somoniy amirlaridan Nuh ibn Nasr Somoniy (942—954-yillari hukmronlik qilgan) topshirig‘i bilan yozilgan. Asar arab tilida bitilgan bo‘lib, asl nusxasi bizgacha saqlanib qolmagan yoki hali topilmagan. Muallif kitobni bitishda bizgacha yetib kelmagan ayrim arabiy kitoblar hamda o‘zining shaxsiy kuza-tishlaridan foydalangan. „Buxoro tarixi“ 1192-yili Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Kuboviy tomonidan forsiyga ixchamlashtirilib, tarjima qilingan; xuddi shu nusxani 1198-yili Muhammad ibn Zufar ibn Umar qayta tahrir qilib, 1178—1179-yillar voqealarini ilova qilgan. Keyinchalik ham bu kitob bir necha marotaba tahrir qilinib, unga mo‘g‘illar istilosigacha bo‘lgan davrdagi Buxoro tarixi voqealari ham kiritilgan. „Buxoro tarixi“ning o‘zbekcha tarjimasiga so‘zboshi yozgan tarix fanlari doktori A.O‘rinboyevning uqtirishicha, tarjimon Abu Nasr Ahmad Narshaxiyning arab tilidagi nusxasida mavjud

bo'lgan ba'zi mavzularni tashlab ketish bilan bir qatorda asarga katta tarixiy qimmatga ega bo'lgan ko'pgina ma'lumotlarni qo'shgan va bunda u o'z davridan ilgari voqealarni yoritish uchun boshqa tarixiy manbalardan foydalangan. Bu manbalardan biri Abu Nasr Ahmadning o'zi ko'rsatib o'tgan Abulhasan Abdurahmon (ibn) Muhammad Nishopuriyning „Xazoyinul-ulum“ nomli asaridir. Bu asarning bizning davrimizgacha yetib kelgan-kelmaganligi ma'lum emas. Ammo unda keltirilgan „Buxoro tarixi“dagi satrlarning o'zi ham Abulhasan Abdurahmonning kitobi naqadar muhim bir tarixiy manba bo'lganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, mutarjim va tahrirchilar asar voqealaridan kelib chiqib, fasl hamda sarlavhalar qo'yib chiqqanlar.

„Buxoro tarixi“ boshqa shu xildagi kitoblar singari alohida boblarga ajralmaydi. Unda Narshaxiy Buxoro shahri, unga tobe bo'lgan nohiyalar, qishloqlar, mahalla, bozor, amaldorlar, binolar, kiborlarning manzilgohlari, Buxoro tangalari, bu yerda joriy etilgan oliq-soliq turlari, shaharning Qutayba ibn Muslim tomonidan zabt etilishi, Movarounnahrda islom dinining joriy qilinishi, somoniylar sulolasi va hukmronligini g'oyatda izchillik bilan tadrijiy takomilda bayon etgan. Boshqa tarix kitoblaridan bu asarning farqi shundaki, olim har bir manzil xalqining kasb-kori, odati, diniy va madaniy udumlari, hunarmandchilik mahsulotlari haqida keng ma'lumot beradi.

Ma'lumki, forsiy til va undagi adabiyotning asoschisi Abu Abdullo Rudakiyning „Bo'yi Jo'yi Mo'liyon oyad hame“ misrasi bilan boshlanadigan qasidasi orqali Buxoroda Mo'liyon anhuri bo'lganligini bilar edik. Narshaxiy ma'lumotlaridan bizning u haqdagi tasavvurimiz yanada boyiydi. Manzilgohlarni ta'riflagan Narshaxiy yozadi: „Jo'yi Mo'liyon“ yerlari qadim vaqtlarda Tog'shodaning mulki bo'lib (Buxoroning hokimi — *H.H.*), u o'z farzandi va kuyovlarining har biriga taqsimlab bergan edi. Marhum amir Ismoil Somoniy bu yerlarni xalifa al-Musta'in ibn al-Mutasimning lashkarboshisi bo'lgan Hasan ibn Muhammad ibn Tolutdan sotib oldi. Amir Ismoil Jo'yi Mo'liyonda saroylar va bog'lar barpo qilib, uning ko'proq qismini maloviylarga (ozod etilgan qullar. Ular amir gvardiyasida xizmat qilgan — *H.H.*) vaqf qildi. U hozirgacha ham vaqf. Amir Ismoil doim o'z maloviylariga g'amxo'rlik ko'rsatib kelar edi.

Bir kuni Amir Ismoil Buxoro hisori (qal'asi)dan Jo'yi Mo'liyonga qarab turganida uning yonida otasining mavlosi Simoul-kabir — „Ulug' siymo“ turgan edi. Amir Ismoil uni do'st tutar va yaxshi ko'rar edi, unga qarab: „*Bir vaqti kelsa Xudoi taolo biror sabab tug'dirib, bu yerlarni sizlar uchun sotib olsam va menga umr bersa, bu yerlarni sizlarniki bo'lganini ko'rsam, chunki bu yerlar Buxoroning barcha yerlaridan qimmatliroq, yaxshiroq va xushhavoroqdir*“, deydi. Xudoi taolo nasib etib, amir Ismoil ul yerlarni sotib olib mavlaviylarga berdi va u yerlar Jo'yi Mavliyon, deb ataldi. Ko'pchilik xalq esa uni Jo'yi Mo'liyon, deb ataydilar.

Biz tarix kitoblari, badiiy asarlarni o'qiganimizda ko'pincha riyyokor, zolim, kishilarni nohaq jazoga hukm etadigan, shoh-u feodallarning laganbardori — qozilar haqidagi ma'lumotlarga yoki tasvirga uchrar edik. Narshaxiy bo'lsa, Buxoroda qozilik qilgan odamlar haqida gapirganda ularning insonparvar, halol-u pok, adolatpeshaliklarini alohida iftixor bilan tasvirlagan: „*Yana qozilardan biri Abu Zar Muhammad ibn Yusuf al-Buxoriy bo'lib, u rahmatli Imom Shofiyning suhbatdoshlari jumlasidan hamda olim va zohid edi. Uni barcha Buxoro olimlari orasida yuqori qo'yar edilar. U kishini yashirin pora berish va har xil yo'llar bilan sinab ko'rdilar, ammo u biron narsa bilan ham o'zini bulg'atmadi, balki kundun kunga undan adolat va insof ravshanroq sodir bo'ldi... Ahmad al-Marvaziy as-Sulamiy ko'p yillar davomida Buxoroda qozilik qildi va zarracha ham o'ziga ayb yuqtirmadi. U barchaga barobar adolat va insof yuzasidan ish ko'rar hamda uning davrida olimlik hamda zohidlikda butun dunyoda unga teng keladigan kishi yo'q edi*“.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Narshaxiy u yoki bu shahar, manzilgohning, imoratning bunyod etilishi haqida gapirganda nom va atamalarning kelib chiqishi, ma'nosini g'oyatda aniqlik bilan izohlaydi. U haqdagi naql va rivoyatlardan foydalanadi, voqealar tafsilotida xolis fikr yuritadi. Muallif ma'lumotlariga qaraganda, arablar Buxoro atrofidagi eng obod, serhosil yerlarni xalqdan tortib olgan ekanlar. Mashhur Mo'liyon anhuri bo'yidagi xushmanzara yerlarini, o'z ona yurtining bir parchasini xalifa lashkarboshisidan amir Ismoilning sotib olishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Kitobda keltirilgan ko'plab dalillar, bosqinchilarga qarshi xalq qo'zg'olonlari, yerli xalqning jasorati va matonati tasvirlari o'quvchi qalbida iftixor hissini, vatanparvarlik tuyg'usini jo'sh urdiradi.

Shuning uchun ham „Buxoro tarixi“ kitobi o‘tmishda ham, hozir ham G‘arb-u Sharq olimlari diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda. Uni 1892-yili **Ch. Sheffer** fransuz tilida, 1954-yili **Mudarris Rizaviy** Tehronda, 1897-yili **N. Likoshin** Toshkentda fransuzchasi, asli va ruscha tarjimalarini nashr ettirgan. 1954-yili uni **R. Fray** Kembrij shahrida ingliz tiliga tarjima qilib, batafsil izohlari bilan chop qildirdi. „Tarixi Narshaxiy“ mashhur sharqshunos **A. Rasulov** tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinish, 1966- va 1991-yillari bosib chiqarildi. Asarni o‘rganish va targ‘ib etishda mashhur sharqshunoslar **B. G‘afurov**, **B. Ahmedov** va **A. O‘rinboevlarning** xizmatlari katta.

### QOMUSIY BILIM SOHIBI

Bir kuni Xorazmshoh ot ustida turib, Beruniyni hujrasidan chaqirishni buyurgan. Nima sababdandir Beruniy biroz kechikkan. Sabri chidamagan Xorazmshoh buni o‘zicha talqin qilib, ot jilovini Beruniy hujrasi tomon burgan va ulovdan endi tushmoqchi bo‘lib turganda, Abu Rayhon hujradan chiqqan va shoh oldiga tez yetib kelib:

— „*Xudo haqqi shohim, bunday qilmasinlar*“, — deb ta‘zim qilgan. Shunda Xorazmshoh tamsil tariqasida bunday degan:

— „*Ega bo‘linadigan narsalarning eng sharaflisi ilmdir. Barcha unga qarab boradi-yu, lekin u kelmaydi. Ilm har narsadan yuksak, hech narsa undan yuqori bo‘lolmaydi*“.

„*Men bolalik chog‘imdanoq, — deb yozgandi Beruniy, — o‘z yoshim va sharoitimga qarab, imkoni boricha ko‘proq bilim olishga intildim. Buning dalili sifatida quyidagini keltirish kifoya: biz turadigan joyga bir yunon ko‘chib kelgan edi. Men har xil donlar, urug‘lar, mevalar va hokazolarni olib borib, unga ko‘rsatib va bu narsalar uning tilida qanday atalishini so‘rab, nomini yozib qo‘yar edim*“.

Demak, Beruniy yoshligidanoq chidam va matonat bilan bilim o‘rgangan, hatto yunon tilini hijjalab egallagan. Undagi aql-zakovat, teran bilim Xorazmshoh-u Sulton Mahmudlarni hayratga solgan.

Qomusiy bilim sohibi **Abu Rayhon Beruniy** 937-yili Xorazmning Kot shahrida dunyoga keladi. U dastlabki ta‘limni ona shahrida oladi, yoshligidan aniq fanlarga, til o‘rganishga qiziqadi. O‘sha davrning mashhur olimi Abu Nasr ibn Ali Iroqdan ilmi



nujum (astronomiya), riyoziyot (matematika)dan dars oladi: o'n sakkiz yasharligida ilk astronomik kuzatishlarini Xorazm observatoriya (rasadxona)sida o'tkaza boshlaydi. Bushkotir degan joyda yulduzlarni kuzatganda Beruniy yetuk olim darajasiga yetgandi. Beruniy qadimgi *xorazm, so'g'd, yunon, suryoniy* va qadimgi *hind* tili — *sanskritni* puxta o'rganadi. Qoraxoniylar va g'aznaviylar zarbalaridan so'ng markazlashgan Somoniylar davlati larzaga keladi. Somoniylarga tobe bo'lgan Xorazmda toj-taxt uchun kurash kuchayib ketadi. Yigirma ikki yashar Beruniy Vatanini tark etib, Eronning Ray shahriga boradi: u yerda astronomik asboblarni ixtirochisi Abu Mahmud Xo'jandiy bilan uchrashadi. Ikki yildan so'ng Beruniy o'z ona shahriga qaytadi. Buxorolik yosh olim Ibn Sino bilan munozaralar o'tkazadi. 998-yili Gurganj viloyatining amiri **Qobus ibn Vashmgir** Beruniyni o'z saroyiga taklif qiladi. U bu yerda Abu Sahl Masihiy bilan do'stlashadi. Masihiy astronomiya va matematikaga oid 12 ta risolasini Beruniyga bag'ishlagan.

Beruniy bu yerda jiddiy ijodiy ishlar bilan shug'ullanadi va Qobusga bag'ishlab „Osor-ul-boqiya“ — „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“ asarini yozadi. Bu asarda olim o'ziga ma'lum bo'lgan barcha xalqlarning yil hisobini chuqur tahlil qilgan: *etnografiya, mineralogiya, kartografiya* va boshqa o'nlab fanlar haqida ham fikr yuritgan.

Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun (998—1009) va ayniqsa, Abdulabbos Ma'mun ibn Ma'mun (1009—1017) davlatining yangi markazi Urganch tez rivojlanadi. O'z yurtiga qaytib kelgan Beruniy Ma'munning homiyligi va xayrixohligi bilan bu ilmiy-madaniy markaz taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi. 1016-yili Sulton Mahmud G'aznaviy Ma'mundan batamom o'ziga bo'ysunib, Xorazmni G'aznaviylar davlatining tarkibiy qismi, deb tan olishni talab qiladi. Xorazmshoh Ma'mun bunga rozi bo'ladi. Isyon ko'targan askarlar, haqoratomuz shartnomaga ko'ngan Ma'mun va uning barcha amaldorlari qatl etiladi. Bundan foydalangan Sulton Mahmud katta lashkar bilan Xorazmni zabt etadi va Beruniy boshchiligidagi olimlarni G'aznaga olib keladi. Beruniy o'sha yillar „Quyosh harakatini aniqlash yo'li“, „Geodeziya“ singari tadqiqotlar muallifi bo'lib, olim va fozillar orasida obro'yi baland edi.

Abu Rayhon Beruniy Sulton Mahmud hukmronligi davrida Shimoliy Hindistonning ko'p viloyatlariga sayohat qildi.

Umuman, Beruniy Sharqning Ray, Jurjon, Bag'dod, Balx, Bomiyon, G'azna, Kobul, Dinpur, Peshovar, Jaylam, Lohur, Mo'ltan, Badaxshon, Atton kabi yigirmadan ortiq shaharlarida bo'lgan. U 13 yil davomida hind xalqi adabiyoti, madaniyati, tarixi, urf-odatini o'rganish bilan shug'ullanib, „*Hindlarning aqlga sig'adigan yoki sig'maydigan ta'limotlarining haqiqatini aniqlash*“ yoki „Hindiston“ risolasini yozadi. Beruniy umrining oxirgi yillarida „Mineralogiya“, „Qonuni Ma'sudiy“, „Saydana“ singari asarlar yaratgan. Beruniy astronomiya va matematika fanlariga ko'p yangiliklar kiritadi; u tuzgan trigonometrik jadvallar aniqligi bilan boshqa jadvallardan ajralib turgan. Tibbiyotga bag'ishlangan „Saydana“da mingdan ortiq dorivor moddalarni ta'riflagan. Ularning nomini 30 tilda bergan Beruniy o'z asarlarini o'sha davr ilmiy an'anasiga ko'ra arab tilida yozgan, she'rlar bitgan, arab shoirlarining she'rlarini sharhlagan. U G'aznada madrasada dars bergan, shogirdlar yetishtirgan, rasadxona qurdirib, kuzatishlar olib borgan. Buyuk bobokalonimiz 1048-yili G'aznada vafot etgan.

Abu Rayhon Beruniy hokimlar huzurida katta obro' va e'tiborga ega bo'lsa ham izlanish, ijodni har qanday mansab-martabadan ustun qo'ygan, boylikka intilmay kamtarona hayot kechirgan. Chunonchi, Qobus ibn Vashmgir unga vazirlik mansabini in'om etganda qabul qilmaydi. „Qonuni Ma'sudiy“ kitobini yozib tugatganda g'aznaviylarning so'nggi hokimi, matematika va astronomiyaga ixlosmand Sulton Ma'sud unga bir fil kumush tanga jo'natadi, lekin Beruniy, „bunga mening ehtiyojim yo'q“, deb sovg'ani qaytarib yuborgan.

Beruniyning 152 ta asar yozgani, 1036-yilgacha bitilgan kitoblari ro'yxatini shaxsan o'zi tuzgani bizga ma'lum. Afsuski, bu asarlardan 30 tasigina bizgacha saqlanib qolgan. Beruniy Sharq olimlari orasida dunyoning eng mukammal xaritasini chizgan, 995-yili Yer sharining shaklini — globusni yasagan. Bundan tashqari, Beruniy „Saydana“ning muqaddimasida „Vomiq va Uzro“, „Urmuzdyor va Mehriyor“, „Bomiyonning ikki sanami“, „Dodmoh va Kirmondo'xt“, „Nilufar“ singari qissa va dostonlarni, Unsuriyning „Xingbut va Surxbut“, „Shodbahr va Aynulhayot“ masnaviylarini forsiydan arab tiliga nazm va nasrda tarjima qilganligini maxsus qayd etgan. Beruniyning bizgacha yetib kelgan aksar baytlari hasbi hol (o'z dardi, ko'nglini izhor qilish)ni eslatadi.

Beruniy asarlari O'rta Osiyo, umuman, Sharq xalqlari ilm-fanining keyingi asrlardagi taraqqiyoti uchun bir zamin bo'lib xizmat qildi. Olimning asarlari hamon o'zining ilmiy, tarixiy, madaniy, amaliy ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Xususan, „Hindiston“ asari hind xalqining qadimgi adabiyoti, madaniyati, tarixi ilm-fani tarixini, tibbiyotini o'rganishda hindshunoslar uchun hamon yagona manba bo'lib kelmoqda. Beruniy ijodini o'rganish va asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda A. Qayumov, U. Karimov, A. Rasulov, B. Bulgakov, A. Irisov va boshqa olimlarning xizmatlari beqiyosdir.

### **Beruniy hikmatlaridan**

Jonli mavjudotning barchasi, shu jumladan, insonning o'zi ham, tabiiy ravishda paydo bo'lgan va u tabiatning rivojlanishi hamda o'zgarishining natijasi hisoblanadi.

\* \* \*

Kishi ko'ngli tartibli va kelishgan narsalarga moyil bo'ladi, tartibsiz narsalardan nafratlanadi.

\* \* \*

Nodonlik bedavo darddir.

\* \* \*

Inson fanning u yoki bu sohasi haqida ilmiy amaliyotga va aniq tadqiqotlarga suyangan holdagina mulohaza yuritishga haqlidir.

\* \* \*

Nomurodlarni kamsitma.

\* \* \*

Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi.

\* \* \*

Biliming shunday narsaki, u yalang'och bo'lganingda ham o'zingda qoladi, hammomga kirsang suv bilan yuvib bo'lmaydi. Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir.

\* \* \*

Yomonlikning shoxobchalari ko'p bo'lsa, ularning asosi tama, g'azab va ilmsizlikdir.

\* \* \*

Erta-yu kech dushmanga zarar-u, do'stga foyda keltirgan kishi, mardlar mardidir.

\* \* \*

Oriyatli yigit o'zini qurbon qilishga ham borib yetadi yoki zulmni daf qilishga: qo'ni-qo'shnilarni, xalqni muhofaza qilishga o'tadi.

\* \* \*

Til so'zlovchi istagini eshituvchiga yetkazadigan tarjimondir.

\* \* \*

Yolg'onchilik kishini adolatdan yuz o'girtiradi. Yaxshilik jamiki odamlarga yaxshilik qilmoqdan iboratdir.

\* \* \*

Hakim va olimlar axloqidan ta'lim olish yaxshi xulqni ziyatlaydi, yomon qiliqni o'ldiradi.

\* \* \*

Tenglik hukm surgan joyda sotqinlik, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi.

\* \* \*

Bugunning chorasini ko'rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir.

\* \* \*

Har bir insonning qadr-qimmati o'z ishini qoyil qilib bajarishidadir.

## INSONLAR QALBINING CHAROG'I BILIM

Jahonda ilm-adab ahli orasida shunday siymolar borki, ularning merosini kuzatsangiz, badiiy ijodning barcha jabhalari ibtidosidek ko'rinadi. Abu Abdulloh Rudakiy ana shunday benazir buyuklar sirasiga kiradi.

Bo'lajak daho san'atkor Abu Abdulloh Ja'far binni Muhammad binni Abdurahmon Odam 858-yili qadimiy Panjakentning Panjrudak qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Dastlabki ta'limni oila muhitida olgan Ja'far Samarqand madrasalarida tahsil ko'radi. Zamonasidagi barcha bilimlarni

puxta egallab, Qur'on hofizi darajasiga yetadi. Xalq qo'shiqlarini sevib kuylaydi; mashhur mashshoq va badihago'y Abu Abbos Baxtiyordan musiqa ilmini o'rganadi; borbati, rud, ud, chang, qonun asboblari chalishda shuhrat qozonadi; musiqalarga o'zi she'rlar bitadi; ularda „Rudakiy“ taxallusini qo'llay boshlaydi.

Arablar istilosiga barham berilib, markazlashgan davlat barpo etilgach, Xuroson-u Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat, adabiy hayot, hunarmandchilik, savdo-sotiq gurrakib rivojlanadi. Ayniqsa, davlatning qudrati Amir Nasr II Somoniy (914—943) davrida yanada oshadi. U shahar-u qishloqlardan, uzoq-yaqindan ahli hunar, ilm-adab ahlini markaz Buxoroga to'playdi, ularning faoliyatiga sharoit tug'dirib beradi, homiylik qiladi. She'riyat va musiqada shuhrati oshgan Rudakiy ham saroyga taklif etiladi va „malik ush shuaro“ etib tayinlanadi. Natijada shoir butun ijodga sho'ng'ib ketadi: *qasidalar, g'azallar, ruboiy, qit'a, dostonlar* yaratadi. Uning obro'si ortib, boyligi oshib boradi. Bu xususda mashhur tarixchi, adib va adabiyotshunos Muhammad Avfiy „Lubob ul-albob“ (1222) tazkirasida quyidagilarni yozgan. „... *Rudakiy usta cholg'uchi bo'lib yetishgach, uning ovozi butun dunyoga yoyildi. Xuroson amiri Naib binni Ahmad Somoniy uni o'zining yaqin kishilari qatoriga qo'shgach, u yuqorilab ketdi, uning boyligi esa haddan tashqari ko'payib ketdi... Undan keyingi shoirlar orasida hech kimga bunday boyluk nasib etmadi va hech kim uningdek baxt egasi bo'lmadi*“.

Haqiqatan ham, Rudakiy Somoniy amirlarining eng „yaqin nadimi“ (Avfiy) sifatida *xushxon hofiz, mohir mashshoq, nuktasanj shoir* sifatida beqiyos obro'ga ega edi. Somoniy amirlarning barcha safarlarida shoir asarlarining qo'lyozmalari Turondan to Xuroson shaharlarigacha tuyalarga yuklab olib borib ko'z-ko'z qilib yurilishi ham buni tasdiqlaydi. X asrning o'rtalariga kelib, Somoniylar saroyidagi ahvol og'irlashadi: ayrim hur fikrli ziyolilar „fotimiylar“ hamda „karomatiylar“ harakatlariga xayrixoh sifatida tahqir etiladilar; qirq yil vazirlik qilgan ma'rifatparvar donishmand Abulfazl Balamiy vazifasidan olinib, saroydan chetlashtiriladi. O'z homiysi va do'stlaridan judo bo'lgan, qarib qolgan, saroy atrofidagi mashmashalardan zada bo'lgan Rudakiy umrining oxirgi yillarini o'z qishlog'ida yashab, 941-yili vafot etadi.

Qadimiy sarchashmalarda Rudakiyning shaxsiyati, taqdiri haqida rang-barang ixtilofli fikrlar mavjud: ayrim olimlar shoir tug‘ma ojiz edi deyishsa, ba’zilari, *u karomatiylar tarafdori bo‘lgani uchun ko‘zlariga mil tortilib, saroydan badarg‘a qilingan*, deyishadi. Ba’zi tadqiqot va maqolalarda esa shoir qand kasaliga giriftor bo‘lgani uchun qariganida uning asoratida ko‘r bo‘lib qolgan, degan fikrni uqtirishadi. Bizningcha, Rudakiyning „Modarzot ko‘r“ bo‘lgani haqiqatga yaqin. Zeroki, Gomer, Abu A‘lo al Mari Ahmad Yugnakiy singari buyuk ijodkorlar ham tug‘ma ojizliklariga qaramay o‘z asrlarining yagonasi bo‘lishgan.

Rudakiy ijodiy merosi haqidagi mulohazalar ham turli-tuman. Saolibi (XI), Muhammad Avfiy, Nizomiy Aruzi Samarqandiy (XIII), Davlatshoh Samarqandiy (XVI) kabi olimlar shoir asarlarini bir million baytdan uch million baytgacha bo‘lgan deb taxmin qiladilar. Bu raqam qay darajada mubolag‘ali bo‘lmasin muttasil badiiy ijod bilan shug‘ullangan, doim badiha tarzida she‘r aytib yurgan Rudakiy merosi ulkan bo‘lishi tabiiy. Yuksak vatanparvarlik ruhidagi „Buxoro“ qasidasining yaratilishi ham bu mulohazani quvvatlaydi. Afsuski, mo‘g‘il yag‘mosining vahshiyliги tufayli million nusxa qo‘l-yozmalar saqlanayotgan O‘tror va Buxoro kitobxonalaridagi dastxatlar kuyib kul bo‘ldi. Shuning uchun ming afsuski Rudakiy asarlaridan bizga qadar bir ming bir yuz baytdan ziyodroq namunalar saqlanib qolingan, xolos. Ammo ana shu boqiy misralarning o‘ziyoq Rudakiy dahosi haqida mukammal tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Ma‘lumki, IX—X asrlarda hali forsiy adabiy til to‘la shakllanib ulgurmagan, unda yetarli darajada badiiy ijod ne‘matlari yaratilmagan edi. Ana shunday bir sharoitda Rudakiy xalq jonli tili unsurlariga, og‘zaki ijod injulariga suyangan holda forsiy adabiy tilning poydevorini qurdi, fors-tojik adabiyotiga asos soldi. Bu sohada aytarli an‘ana bo‘lmagan quruq yerda lirik turning barcha janrlarida eng mumtoz asarlar yozdi. „Kalila va Dimna“, „Sindbodnoma“ singari masnaviylarni yaratdi. Badiiy ijodning barcha sohasida birinchi bo‘ldi. Shuning uchun ham zamondoshlari uni „Odamushshuaro — shoirlar Odam Atosi“ degan nom bilan sarafroz etishdi. Haqiqatan ham, Rudakiy she‘rlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, ularda haqiqiy ishq bilan majoziy ishq, insondo‘stlik, vatanparvarlik, ilm o‘rganish,

kasb-hunar egallash, insof va diyonat, adolat va adolatli shoh, ona tabiatga mehr, atrof-muhitni avaylab-asrash g'oyalari betakror nafis obrazlarda tasvirlanganining guvohi bo'lamiz. Shoir g'azallarida oshiq ruhiy kechinmalarini qay yo'sinda bokira tarzda ifodalashga erishsa, ma'shuqa chiroyini undanda go'zal vositalarda chizadi. Masalan, bir baytda yorning sadafdek tishlarini *yomg'irdan so'ng nihol shoxchasi*da tizilib qolgan *shaffof donachalar* — *qatraboronga o'xshatsa, boshqa bir baytda yuzingdan pardangni ko'targaningda quyosh xijolatdan yuzini berkitdi, ya'ni o'zini bulut orqasiga oldi*, deydi. Ma'shuqaning etaklari yer yuzidan sudralib o'tgani uchun tuproq poklanib, „suv bo'lmasa tayammum“ etib ibodat qilish joiz bo'lgan ekan. Bunday tasvir mavlono Lutfiyda ham uchraydi. Oshiq ertalab bog' sayriga chiqsa anhordan gulob hidi anqirdi. *Yorab, yorim mendan oldin chiqib ariq boshida qo'l yuzini yuvdimikan*, deya o'yg'a toladi. Ruhiy holat tabiat chiroyining turfa unsurlari ta'rifi orqali chiziladi:

*Bahor oyi yetib kelib, qish oyini etdi yag'mo,  
Fazo yuzin qopladi chang, qonga to'ldi dasht-u sahro.  
Ilk bahorning ko'z yoshidan shoxlar oldi yuziga rang,  
Hamal oyin xush hididan bo'ldi tuproq anbaroso.  
Layli yuzi kabi lola keng sahroda kulib turar,  
Majnun ko'zi kabi bulut qon yoshini qilur daryo.  
Oqar suvdan kelmoqdadir har soatda gulob hidi,  
Mening yorim ariq ichra gul yuzini yuvmish go'yo.*

Rudakiy asarlarida insonparvarlik, ilm egallashga da'vat, insonni sharafdash, bu dunyoda „bani odamiga yaxshilik qilib“ yashashga undov, Oллоh tomonidan berilgan qisqa umrni ilm o'rganib, uni ijtimoiy, foydali mehnatga sarflashga da'vat yetakchi g'oyaviy motivlardan hisoblanadi:

*Shu oddiy ko'z bilan boqmagil, balki,  
Bilim ko'zi bilan boqgil jahonga.  
Jahon dengiz erur yaxshi ishingdan,  
Kema yasab o'tgil narigi tomonga.*

Shoir asarlarida shod-u xurramlik, Navro'zi olam tarovati-yu, sharobning hayotbaxsh fazilati, yorning noz-u karashmasiyu, do'stlar diydorining farahbaxsh qudrati, xayr-ehson, insof va muruvvat, rahm-shafqatli bo'lish ham masnaviy-lari-yu qasidalarida, qit'a-yu ruboiylarida zo'r musiqiylikda tarannum

etiladi. Rudakiy qasida janrining eng mumtoz namunalarini yaratgan. „Buxoro“, „Mayning onasi“, „Qarilikdan shikoyat“ singari asarlarida shoir, bir tomondan, vatanparvarlik, insondo‘stlik, umrning qadriga yetish xususida jo‘shqin fikrlar yuritsa, ikkinchi tomondan, go‘zal tabiatni sevish, hamisha shod-u hurram yashashga undaydi. Somoniy zodagonlar madhiga bag‘ishlangan qasidalarda esa shoir ko‘proq ularning davlat ravnaqi yo‘lidagi xizmatlarini, xalq farovonligini oshirishdagi sa’y-harakatlarini ta’riflashga intilgan. Hayratlanarlisi shundaki, masnaviynavislik hech kimning xayoliga kelmagan bir davrda Rudakiy „Kalila va Dimna“, „Sindbodnoma“, „Davroni oftob“ dostonlarini yozib, ularda yuksak insoniy axloq-odobni, Vatan, do‘stlik, xalq qahramonligini, maqsad-e’tiqod yo‘lida jonfidolik bilan kurashishni, ilm-ma’rifat, kasb-hunarni targ‘ib etdi. „Kalila va Dimna“ning ma’rifiy-falsafiy qimmatidan hayratga tushgan Nasr binni Ahmad shoirni 14 ming oltin tanga bilan siylagan.

IX—X asrlarda Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho, Farhod va Shirin, Vomiq va Uzrolarning sevgi sarguzashtlari hali kitobiy qissalar shakliga aylanib ulgurmagan edi. Rudakiy bo‘lsa, o‘z she’rlarida bu sarguzashtnomalar sujetini, ulardagi bosh qahramonlarni badiiy detal, poetik (she’riy) vosita sifatida ko‘p qo‘llaydi. Demak, shoir Sharq xalqlari og‘zaki ijodida keng tarqalgan ishqiy rivoyat-u afsonalarni ham har jihatdan puxta o‘rgangan. Hatto u bir she’rida Yusufning uch sehrli ko‘ylagi — *pirohan* haqidagi rivoyatga ishora qiladi. Rudakiy asarlari o‘ta sodda, ravon bir usulda — *sahli mumtane’— osonu nomumkin* usulida yozilgan. O‘tmishda juda ko‘p forsiygo‘y shoirlar uning asarlariga o‘xshatma, tazminlar yozganlar. Ammo biron ijodkor Rudakiy darajasiga yetolmagan. Jumladan, „Bo‘yi Jo‘y-i Mo‘liyon oyad hame“ (mazmuni: „Mo‘liyon arig‘ining hidi kelayotir“ — deb boshlanadigan Buxoro qasidasiga fors-tojik mumtoz adabiyotining ilk namoyandalaridan 120 shoir nazira yozgan. Ammo birontasi asl matn darajasiga yetolmagan: vazn, ohangini topganlar mavzuda qoqilgan, mavzuni nishonga to‘g‘ri ola bilganlar esa musiqiylik, qofiyani uddalay olmaganlar.

Shuning uchun ham o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk so‘z san’atkorlari Rudakiy dahosini munosib qadrlagan, uning



she'riy qudratiga yuksak baho berishgan. Jumladan, zabardast lirik shoir, birinchi shohnomanavis Daqiqiy uni shunday ta'riflaydi:

*G'azal rudakiyvor bo'lgay go'zal,  
Rudakiycha g'azal yoza olmadim.  
Juda nozik xayol bilan urinib,  
Bu parda ichiga yo'l topolmadim.*

Abu Abdulloh Rudakiy o'zi kuylagan insondo'stlik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, xalqlar do'stligi g'oyalari bilan barcha zamonlarda bashariyatga xizmat qilaveradi. Shoir ijodi asrlardan beri o'zbek xalqiga juda yaqin. Bobur „Muxtasar“ risolasida shoir asarlaridan namunalar keltirgan, Po'latxon Domullo Qayumiy o'z tazkiralariida shoir ijodini yoritgan. Ustozlarimizdan Sh. Shomhammad, N. Mallayev hamda M. Muinzodalar Rudakiy hayoti va ijodini tahlil qilib, asarlarini tarjima etib, targ'ib qilishda katta hissa qo'shishgan.

### **Rudakiy hikmatlaridan**

Jahonning shodligi yig'ilsa butun,  
Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.

\* \* \*

Kimda-kim hayotdan olmasa ta'lim,  
Unga o'rgatolmas hech bir muallim.

\* \* \*

Ilmdan yaxshiroq xazina yo'qdir,  
Qo'lingdan kelganicha terib ol uni.

\* \* \*

Odamlar qalbining charog'i bilim,  
Balodan saqlanish yarog'i bilim.

\* \* \*

Buzoqlar ichida bittasi butun  
Podani bulg'atib yurishi mumkin.

\* \* \*

Badbaxt erur kimki, bermas ham yemas,  
Yeb ham ehson qilsa xushbaxt umrbod.

## DAQIQIY

Somoniylar saltanatdordligi davrining buyuk shoirlaridan biri, forsiy tildagi ilk masnaviy muallifi Daqiqiydir. Bo'lajak lirik shoir va dostonnavis **Abumansur Muhammad ibn Ahmad** 956-yili Balx shahrida ziyoli xonadonida dunyoga kelgan. Ammo bir qancha tazkiranavislar uni „Tusiy, Samarqandiy, Marvaziy, hatto Hiraviy“ deb ham atashgan. Daqiqiy dastlab oila muhitida, xususiyy muallimlarda ta'lim oladi, so'ngra Marv hamda Balx madrasalarida tahsil ko'radi. Zamonasidagi barcha bilimlarni, xususan, *kalomi bade'ni* puxta egallagan Ahmad — „Daqiqiy“ taxallusi bilan she'rlar yoza boshlaydi. Natijada u somoniy hukmdorlardan Abusolih Mansur ibn Nuh (961—976), Abulqosim Nuh ibn Mansur (976—997) zamonida katta obro'ga ega bo'lgan, ularni madh etib qasidalar yozgan. Shuning uchun ham Abulqosim Nuh ibn Mansur Daqiqiyga ajdodlari tarixini nazm silkiga olib, „Shohnoma“ yozishni topshirgan. Professor A. Abdullayev shoir madh etganlar orasida Chag'oniyon amiri Fahrudavla Ahmad binni Muhammad ham borligini hisobga olib Daqiqiy „Chag'oniyon hukmdorlari dargohida xizmat qilgan“ deb yozadi. Daqiqiy avji ijodiy kamolot pallasida — 980-yili bir bazmda o'z quli tomonidan chavaqlab o'ldiriladi. Shoir zardushtiylik e'tiqodida bo'lgan. Ayrim olimlar uning o'ldirilishini ana shu ruhiyat hamda shoir-dagi yuksak insondo'stlik, vatanparvarlik bilan ham bog'laydilar.

Uning she'rlarida ham, masnaviysida ham zardushtiylikka moyillik sezilib turadi. Bu holni olimlar turlicha talqin etadilar:

*Daqiqiy chor xislat bar guzidaast,  
Ba geti in hama xubivu zishti:  
Labi yoqut rangu nolayi chang,  
Mai xushrangu dini zardushti.*

(Mazmuni: *Daqiqiy dunyoning yaxshi va yomon kunlarida to'rt narsani tanlagan. Bular: yoqutrang lab, changning nolasi, toza may, zardusht dini*).

Daqiqiy favqulodda nozikta'b iste'dod sohibi bo'lgan. Buni Muhammad Avfiy „Lubob-ul-albob“ tazkirasida, Nizomiy Aruziy Samarqandiy „Chahor maqola“ kitobida alohida ta'kidlashgan. Bundan tashqari, Farruxiy, Muizziy, G'azoiriy, So'zaniy singari shoirlar ham Daqiqiy she'riyatining fasohat va

balogʻatiga yuksak baho berishgan. Haqiqatan ham, koʻhna sarchashmalarda Daqiqiy katta hajmdagi devon tuzganligi, unda *qasida, gʻazal, qitʻa, ruboiy, vasf, bahoriya* va boshqa lirik tur janrlaridagi asarlar jamlanganligi qayd qilingan. Afsuski, shoir devoni bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilmagan. Ammo „Lubob-ul-albob“, „Lugʻati furs“, „Majmaʻ-ul-fusaho“, „Tarixi Bayhaqiy“, „Tarjimon-ul-balogʻa“, „Al-Moʻjam“ singari tazkiralar, manbalar hamda boshqa sarchashmalar orqali saqlanib qolgan sheʼrlarning oʻzi ham Daqiqiy ijodi xususida muayyan tasavvur hosil qilish imkoniyatini beradi.

Maʼlumki, X—XII asrlardagi fors-tojik sheʼriyatining yetakchi mavzularidan birini insondoʻstlik, ilm oʻrganish, kasb egallashni targʻib qilish tashkil etadi. Ayni paytda zamona shoirlari ijodida maʼshuqaning betakror chiroyi taʼrifi, oshiq ruhiyatining nozik qirralari tasviri ham asosiy nuqta hisoblanadi. Daqiqiy gʻazallarini oʻqir ekanmiz, yorning oshiq tilidan berilgan rang-barang taʼriflarini koʻramiz, maʼshuqaning moʻjaz-miniatura tasviri chizgilariga duchor boʻlamiz:

*Shabi siyoh bad-on zulfakoni tu monad,  
Sapedi roʻz ba pokii ruxoni tu monad.*

(Mazmuni: *Qorongʻu tun sening kokillaringga oʻxshaydi, tongning oqligi ruhingning pokligiga oʻxshaydi*). Gʻazalning boshidan oxirigacha maʼshuqaning betakror chiroyi boʻston qoʻynidagi anvoyi gullarga tashbehanib, ajib bir manzara yaratiladi. Mana bu baytlarda esa shoir lirik qahramon ruhiyatining oʻzga qirrasini aks ettirishga muvaffaq boʻlgan:

*Koshki andar jahon shab nesty,  
To maro hijroni on lab nesty.  
Zaxmi aqrab nesti bar jononi man,  
Gar varo zulfi muaqrab nesty.*

(Mazmuni: *Koshki bu jahonda tun boʻlmasaydi, oʻsha lab hajri menga nasib boʻlmasdi. Agar oʻsha gajak zulflar boʻlmaganda, menga chayon zahri ham boʻlmasdi*).

Daqiqiy har bir sheʼr, xususan, qasidaga gʻoyatda obrazli ifodalar bilan sayqal berishga intiladi. „Agar qalbingni unga topshirish qoʻlingdan kelmasa, zaharolud mujgonlariga boqa koʻrma“ degan Daqiqiy, butun qasidada yor vasfini oʻzga shoirlarda uchramaydigan oʻnlab sheʼriy va lafziy sanʼatlarni qoʻllab, bokira tarzda yaratishga muvaffaq boʻlgan.

Daqiqiy o‘z she‘rlarida tabiatning rangin jozibasini qay darajada tasvirlasa, ma‘shuqaning betakror siymosini ham shu darajada nafis tasvirlab, lirikada o‘ziga xos yor tasvirini yaratadi:

*Parichehra bute ayyoru dilbar,  
Nigore sarv qaddu mohmanzar.  
Siyahchashme, ki to ruyash bididam,  
Sirishkam xun shudastu bar mushajjar.  
Agar na dil hame xohi supurdan,  
Bad on mijgoni zahrolud mangar.  
Basoni sarvi siminast qaddash  
Va lekin bar sarash mohi munavvar.*

(Mazmuni: *Pari yuzli ayyor but, sarvqaddu oy yuzli nigorim. Ul qaro ko‘zning yuzini ko‘rgandan buyon, ko‘z yoshlarim qon bo‘ldi. Agar unga qalbingni topshirishni istamasang, zaharolud mijgonlariga nazar solma. Qomati oltin sarvga o‘xshaydi, boshida esa to‘lin oy.*)

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Daqiqiy 977—978-yillar orasida „Arjasp va Gushtasp“ nomli doston yozgan. Keyinchalik 1000 baytdan iborat bu dostonni Abulqosim Firdavsiy kamoli ehtirom bilan, o‘zigacha mutaqoribda yozilgan jangnomaning yaxshi namunasi sifatida o‘zining „Shohnoma“siga kiritadi. Dostonda Gushtaspning otasi Luhraspdan arazlab Rumga borib, Qaysarning qiziga uylanishi, bu yo‘lda ko‘p jasoratlar ko‘rsatishi tasvirlanadi. Yurtiga qaytgan Gushtasp Eron taxtiga sohib bo‘lgach, dastlabki paytlarda adolat bilan hukm suradi. Yakka tangri g‘oyasini targ‘ib etgan yangi — mazdoparastlik dinini qabul qiladi, Zardushtni din peshvosi, donishmand sifatida e‘zozlaydi. Gushtasp tomonidan yangi dinning qabul qilish jarayoni ko‘tarinki ruhda tasvirlangan. Voqealar davomida Arjasp Eronga qarshi lashkar tortib, ko‘p shaharlarni vayron qiladi, qartayib qolgan Luhraspni qizi bilan o‘ldiradi. Asl voqea davomida zindondan qutulgan jahonpahlavon Isfandiyor Arjasp lashkarini tor-mor etadi. Dostonda Sheruya, Shedasp, Jomasp, Navzar, Nastpr, Bedirafsh singari qator obrazlar ham tasvirlangan.

Dostonda Daqiqiy asarda bir tomondan, ilm o‘rganish, kasb-hunar egallash, o‘g‘il bolalarni yoshlikdanoq jismonan, harbiy jihatdan chiniqtirib voyaga yetkazish lozimligini uqtiradi. Ayni paytda keksalar maslahatiga, donishmand olimlar o‘gitiga

quloq solib, yurtni adolat va tadbirkorlik bilan boshqaradigan podshoh g'oyasini ilgari suradi. Ikkinchi tomondan esa, boylik, amal-martabaga intilish, shon-shuhrat oldida esankirab, man-manlik qiladigan, takabbur, xudbin podsholarni, yurtni xonavayron qiladigan o'zaro urushlarni qattiq qoralaydi. Bu jihatdan asardagi Isfandiyor siymosi g'oyatda qiziqarlidir. Isfandiyorni shoir hech qanday qurol, otash ham kor qilmaydigan temirtirnoq, jahonpahlavon qilib tasvirlaydi. Shahzoda ana shu qudratiga tayanib bilimi, hunari, tajribasi kam bo'lishiga qaramay, otasidan taxtni tortib olish payida bo'ladi. U podsholikni qo'lga kiritish yo'lida har qanday pastkashlikdan qaytmaydi, vazir-u vuzarolar, ustozlari pandiga quloq solmaydi; eng xavfli to'siqlar bo'lmish haftxonni bosib o'tishga boradi. Oxir-oqibatda ana shu takabburlik, amalparastlik, dunyoga hirs qo'yish uni halokatga eltadi.

Daqiqiyning bu asari yosh avlodni kasb-hunarga, ilmga mehr qo'yish, vatanparvarlik, insondo'stlik ruhida, kamtarinlik, ta'zim-tavozuli bo'lish ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Doston Sharq adabiyotida masnaviy yo'lida yozilgan ilk jangnoma hisoblanadi. Daqiqiy ijodi hali bizda o'rganilmagan va she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilinmagan.

### XALQ QAHRAMONLIGI KUYCHISI

Tong saharlab Rustam sevimli oti Raxshga minib ovga chiqdi. U butazorlar oralab borar ekan, qo'qqisdan usti o't-o'lanlar bilan berkitilib, ichiga xanjarlar qadab qo'yilgan chohga quladi... Dubulg'a va o'q-yoyi qo'lidan uchib ketdi.

— *Ha-ha, endi qalaysan, ahvolding shu ekan-ku,* — degan masxaraomuz ovoz eshitildi.

Rustam tepaga qaradi. Chuqurlik labida o'gay ukasi Shog'od tirjayib turar edi.

— *E-e, senmisan uka, yaxshiyam kelib qolding, kamonimni olib ber, qarg'a-quzg'un o'tsa otaman,* — dedi Rustam yolvorib.

— „*O'zi nima ahvolda-yu yana ov qilar emish*“ hayol qildi o'gay uka.

— *Ma olaqol,* — deya hiringladi Shog'od Rustamga qurolini uzatarkan.

Yarador Rustam oxirgi kuchini yig'ib, Shog'odni mo'ljalga oldi va o'q uzdi. O'q nomard ukaning kuragi ostidan teshib chiqdi.

Ertasi kuni Rustamning Shogʻod qazib qoʻygan chohga qulab tushib oʻlgani haqidagi xabar butun mamlakatga yoyilib, xalq bahodirning azasiga toʻplandi. Vatan bir necha kun motam libosida boʻldi. Ha, elning koʻzidan nur, belidan quvvat ketgandek edi. Butun yoshlik shijoatini el-yurt uchun baxshida etgan xalq qahramoni Rustam mardonavor jang maydonida emas, nomard Shogʻod makri tufayli halok boʻldi.

**Abulqosim Firdavsiy** ana shunday xalq — Vatan uchun fidoyi yuzlab bahodirlar obrazini yaratgan benazir sanʼatkoridir. Firdavsiy 941-yili Eronning Tus shahri yaqinidagi Boj qishlogʻida oʻrtahol dehqon oilasida tugʻilgan. Boʻlajak shoirning otasi Tus hokimining „Firdavs“, yaʼni „Jannat“ nomli bogʻida bogʻbon boʻlgan. Firdavsiy avval qishlogʻidagi maktabda, soʻng Tus shahri madrasalarida tahsil oladi. Otasi vafotidan soʻng bogʻbonlik qiladi va taxallus sifatida oʻziga shu bogʻning nomini tanlaydi. Firdavsiy yoshligidan qadimgi xalq afsonalari, qahramonlik dostonlariga qiziqadi. Sharq xalqlari tarixini zoʻr qiziqish bilan oʻrganadi. Koʻp shahar va qishloqlarda boʻlib, mehnatkashlar ogʻzidan koʻhna rivoyatlarni yozib oladi. Ajoyib shoir sifatida elga taniladi.

Abulqosim Firdavsiy 1025-yili oʻz vatanida vafot etadi. Lekin ruhoniylar shoirning jasadini musulmonlar mozoriga qoʻydirmaydilar. Uni oʻz bogʻiga dafn etadilar. Chunki, Firdavsiy islomgacha boʻlgan zardushtlik — mazdoparastlik dini tarafdori edi, xalq ozodlik harakatlarini, adolatni qoʻllab-quvvatlardi. Feodal hukmronlar, ularning yaqin odamlari boʻlmish ruhoniylarga bu yoqmas edi, albatta. X—XII asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlarining madaniyati, ilm-fani, badiiy adabiyoti yuksak darajaga koʻtarildi. Forsiy guruh shevalarida gapiradigan qabilalar birgalashib, xalq sifatida shakllandi: ularning yagona tili — dariy tili vujudga keldi; turkiy lahjalarda gapiruvchi elatlar ham birlashib, xalq sifatida shakllandi, eski turkiy (oʻzbek) adabiy tili ilm-fan, badiiy ijod vositasiga aylandi. Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Forobiy singari olimlar, Rudakiy, Umar Xayyom, Nosir Xisrav, Firdavsiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy kabi shoirlar xuddi mana shu davrda yetishib, olamshumul obroʻ va shuhratga ega boʻldilar.

Xalq orasida oʻtmish ajdodlar tarixiga, qadimgi afsonalar, rivoyat va dostonlarni qayta toʻplashga qiziqish kuchayadi. Ana shu bobolar merosiga qiziqish natijasi oʻlaroq, qadimgi voqea-

nomalar, afsonalar to'planib, „Shohnomayi mansur“ nomi bilan alohida kitob holiga keltiriladi. Somoniy amirlar buxorolik shoir Daqiqiyga bu nasriy kitob asosida she'riy „Shohnoma“ yozishni topshiradilar. U ming baytdan iborat „Gushtasp“ dostonini yozganda quli tomonidan o'ldiriladi. Endi bu ishni davom ettirish ko'hna qissalar donishmandi Firdavsiyga topshiriladi. Firdavsiy 30—35-yil ishlab, „Shohnoma“ni tugatadi. Bu orada Somoniylar davlati qulab, hokimiyat g'aznaviylarga o'tgan edi. Shoir asarni Sulton Mahmud G'aznaviyga taqdim etadi. Rivoyat qilishlaricha, Sulton shoirga 120 dona oltin tanga bermoqchi bo'ladi. Lekin johil, ig'vogar vaziri Ayozi, „*son-sanoqsiz lashkarlarga kiyim-kechak, oziq-ovqat lozim bo'lib turgan bir paytda oddiy shoirga shuncha oltin berish aqlli kishining ishi emas*“, deydi. Sulton Mahmud shoirga 120 dona kumush tanga beradi. Bundan g'azablangan Firdavsiy to'g'ri hammomga boradi. 60 tangani hammomchiga, 60 tangasini esa sharobfurushga berib, Sulton Mahmudga qarshi hajv yozib, o'z yurtidan bosh olib chiqib ketadi. Buni eshitgan Sulton shoirni tutib, fil oyoqlari ostiga tashlab o'ldirishni buyuradi. Firdavsiy uzoq vaqt quvg'inda yurib, qarib-qartayib qolganida o'z qishlog'iga qaytib, shu yerda vafot etadi. Umuman, Firdavsiyning „Shohnoma“ni Sulton Mahmudga taqdim etishi bilan bog'liq yarim haqiqat, yarim chin rivoyatlar juda ko'p. Keyingi tadqiqotlar bu ijodkorlar o'rtasidagi g'arazgo'ylikning natijasi, ataylab uyushtirilgan g'alamislik ekanini tasdiqlamoqda. Shuning uchun ham „Sulton Mahmud hajviyasi“ni Firdavsiy yozganligi haqiqatdan ancha yiroq masala. Bu muammo jiddiy o'rganishni talab qiladi.

Firdavsiy „Shohnoma“si hajmi, mavzusi, obrazlari, g'oyaviy motivlari va badiiy qimmatini jihatidan dunyodagi eng katta epik asardir. U yuzdan ortiq dostonlardan tashkil topgan bo'lib, ularda mingdan ziyod bir-biriga o'xshamagan obraz va personajlar tasvirlangan. Bu asar mavzu va g'oyaviy jihatdan ham eng zo'r asar hisoblanadi. Chunki, shartli ravishda mifologik, qahramonlik, tarixiy qismlardan iborat bo'lgan „Shohnoma“da Firdavsiy vatanparvarlik, xalqparvarlik, tinch-totuv yashash, baynalmilallik, adolat, ma'rifatparvarlik kabi yuksak g'oyalarni ilgari suradi. O'zaro qonli urushlar, feodal ichki mojarolar, zulm-zo'ravonlikni, markazlashgan davlatga futur yetkazishga qaratilgan isyonlarni qoralagan shoir Mazdak boshchiligidagi

xalq harakatiga xayrixohlik bilan qaraydi: islom g'azavotchilari bo'lmish arab xalifaligining bosqinchiligiga qarshi xalq, vatanparvarlik kurashini zo'r mehr bilan tasvirlaydi. Xalq oddiy temirchi Kova boshchiligida qo'zg'alib, ikki yelkasidan ilon o'sib chiqqan, insoniyatga qirg'in keltirayotgan Zahhokni qulab, uning o'rniga odil Faridunni shohlikka ko'taradi.

Xalq qahramoni Rustam butun umrini Vatan va xalqni balo-qazodan asrash, chet el bosqinchilaridan himoya qilishga sarflaydi. O'z hayotini xavf ostida qoldirib bo'lsa ham xalqni Yaman sehrgarlari va Mozandaron devlari qo'lidan xalos etadi. U bu yo'lda yetti dahshatli to'siqni yengib o'tadi. Yosh bahodir Bijan do'sti Gurginning xoinligiga qaramay arman xalqini ofatdan, to'ng'izlar hujumidan qutqaradi. Siyovush hamisha adolat uchun, turli xalqlarning tinch yashashi uchun kurashadi, qonli urushlar oldini aql-zakovat bilan, sulh yo'li bilan olishga intiladi. Asardagi Zoli Zar, Sudoba, Suhrob, Gudarz, Gev, Tus, Hojir, Gurdofarid, Humoy, Manija singari obrazlar ham yer yuzida adolat tantanasi uchun kurashadilar. „Zol va Sudoba“ hamda „Bijan va Manija“ dostonlarida chinakam baynalmilallik g'oyalari ilgari surilgan. Firdavsiy „Isfandiyor“, „Shog'od“, „O'n ikki muhoraba“ dostonlarida, ayniqsa, mamlakatning butunligiga tahdid soluvchi, o'zaro urush chiqarish uchun bahona izlovchi shohlar, shahzoda va lashkarboshilarni qattiq qoralaydi. Manmanlik, mansabparastlik, xudbinlik, noshukurlik, qasoskorlik va fitnagarlik Isfandiyor va Shog'od singari shavkatli bahodirlarni bevaqt halokatga eltdi. Bularning beboshligi, kaltafahmliги yurt va el boshiga ko'p kulfatlar keltiradi.

Abulqosim Firdavsiy feodal o'rta asri sharoitida xalq qahramonligini ulug'ladi, vatanparvarlik hamda xalqlar birdamligi g'oyasini targ'ib etdi: ma'rifat, aql-zakovatni jaholatga qarshi qo'ydi. Arzimagan bahonalar bilan urush chiqarishni qoralagan shoir tinchlikni olqishladi.

Firdavsiyning mangu barhayot „Shohnoma“si uzoq o'tmishda aslida ham, tarjimasida ham xalqimiz orasida mashhur va manzur bo'lgan. U Shoh Hijron, Xomushiy (XVIII asr), Nurmuhammad Buxoriy, Ochildimurod Miriy (XIX asr)lar tomonidan nazm va nasrda o'zbekchalashtirilgan. Bizning zamonimizda „Shohnoma“ dostonlari sujeti asosida „Zahhoki moron“, „Siyovush“, „Rustam va Suhrob“ singari sahna asarlari yaratildi, opera yozildi. Shoirlarimizdan Hamid G'ulom,



Nazarmat, Jumaniyoz Jabborov, Shoislom Shomuhamedovlar „Shohnoma“ning yangi she'riy tarjimasini yaratdilar. Bundan tashqari, o'zbek va tojik tillarida barobar ijod etgan shoir Vasfiy ham Firdavsiyning bir necha dostonini o'zbek tiliga asl vaznida o'g'irgan, lekin ular chop etilmagan. O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tojik yozuvchisi Sotim Ulug'zodaning „Firdavsiy“ romanini o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirdi, R. In'om-xo'jayev Sotim Ulug'zoda nasriy bayonini o'zbekchalashtirdi.

### **Firdavsiy hikmatlaridan**

Hamisha aqlingni rahnamo etgil,  
Noloyiq ishlardan olisga ketgil.

\* \* \*

Mehnat tagidadir, ey oqil, har ganj,  
Ganj topmas hech kimsa topmas esa ranj.

\* \* \*

Hunar birla aqling birikkan hamon,  
Har ish bu jahonda yurishgay ravon.

\* \* \*

Qudratlidir kimki bo'lsa bilimdon,  
Bilimdan keksalar dili navqiron.

\* \* \*

Nodonlikdan yomonlik keladi faqat,  
Nodonga yondoshma, bosmasin g'aflat.

\* \* \*

Ikki do'st turarkan yelkama-yelka,  
Tog'larni ham oson ayladi tilka.

\* \* \*

Kishiga yaxshilik qil, berma ozor,  
Qarosin yuqtirar doimo qozon.

\* \* \*

To'g'rilikdan kelmish hamma yaxshi ot,  
Egrilikdan foyda ko'rmadi bir zot.

\* \* \*

Shirin so'zli bo'l, ey sen bilimdon,  
Tiling sovuq so'z-la bulg'atma oson.

## „OFARINNOMA“ MUALLIFI

Arab xalifaligi hukmronligi barham topib, Xuroson-u Movarounnahrda mahalliy Somoniylar davlati vujudga kelgach, amir-u umaro, vazir-u vuzaro ona tili va undagi adabiyotni rivojlantirishga, ajdodlarning qadimiy qutlug‘ udum-an‘analarini qayta tiklashga ahd etadilar. Shu maqsadda shahar-u qishloqlardan olim-u fozillar, shoir-u hofizlarni markazga — Buxoroga yig‘ib, mahalliy tilda ijod qilishga da‘vat etiladi, ular davlat homiyligiga olinib, ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab turiladi. Saroy doirasidagi ana shunday ijodkorlardan biri **Abushukur Balxiydir**.

Shoirning tarjimayi holi, ijtimoiy kelib chiqishi to‘la ma‘lum emas. Eron olimi Said Nafisiy, professor Xoliq Mirzozodalarining aniqlashlaricha, Abushukur 915—16-yillar orasida Balxda tug‘ilgan, avval xususiy muallimda, so‘ng madrasada bilim olgan. Yigitlik ayyomida Nuh ibn Nasr (943—954) saroyidagi adabiy doiraga doxil bo‘lgan, Murodiy, Rudakiylar bilan hamsuhbat bo‘lgan. Buni shoirning o‘zi ayrim baytlarida ham qayd etgan. Uning vafot etgan yili ham noma‘lum.

Abushukur Balxiy iste‘dodli lirik shoir va dostonnavis bo‘lgan. U lirik turning barcha janrlarida she‘rlar yozgan, ishqiy, falsafiy mavzularda to‘rtta doston bitgan. Ammo „Lubob ul-albob“ (Negizlarning negizi) tazkirasining muallifi Avfiy hamda ustod Said Nafisiy ta‘kidlaganlaridek, bizga qadar undan bir qancha qit‘a va ruboiylar, 947-yili yozgan „Ofarinnoma“ dostonining ma‘lum qismigina saqlanib qolgan, xolos.

Shoir o‘z ruboiy va qit‘alarida, masnaviyalaridagi lirik chekinish va qistirmalarda komil insonni ulug‘laydi, uning go‘zalikka, hayotga, yashashga muhabbatini kuylaydi; lirik qahramonning ishq-sevgi xususidagi nozik kechinmalarini nafis, o‘ynoqi baytlarda tasvirlaydi, yuksak insoniy fazilatlarini ulug‘lab, kibr-u havo, tanballig-u sudxo‘rlikni, dilozorlig-u ta‘magirlikni, johillig-u achchiqzabonlikni qattiq qoralaydi:

*„Do‘stning diydori-yu donishmandning so‘zi, Inson qalbidan g‘am-anduhni aritadi. Kimda-kim foyda-yu manfaatni ko‘zlab do‘stlashsa, shubhasiz, uni o‘zingga dushman, deb bil“.*

„Ofarinnoma“da shoir insonning turmush urinishlari, mavjud ijtimoiy tuzum bilan bog‘liq ko‘plab siyosiy, ma‘naviy, maishiy masalalar xususida, axloqiy-ta‘limiy muammolar

borasida bir mutafakkir faylasuf sifatida mushohada yuritadi, ibratli xulosalar chiqaradi; o'zining nazariy mulohazalarini hayot tajribasidan, og'zaki ijoddan olingan mo'jaz hikoyatlar bilan isbotlab boradi, pand-nasihatlar beradi; adolatli hukmron g'oyasini ilgari suradi. Xususan, dostonning hunar va ilm o'rganishning foydasi, yaxshilik va xayr-u ehsonning sharofati, adolatning nafi-yu zulmning kasofati tasviriga bag'ishlangan bo'limlari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

*„Bu dunyoga yaxshilik urug'ini sep, o'zing o'tib ketsang ham, nomingni kishilar yaxshilik bilan zikr etishsin“*, deydi shoir.

### **Balxiy hikmatlari**

Yaxshi nom bilan o'lsam roziman, rizo,  
Tanam o'limga, otim yaxshilikka ravo,  
Zeroki Xusrav demish: „Yaxshi nom bilan o'lmoq bil,  
Dushmanga taslim bo'lib yashashdan a'lo“.

\* \* \*

Aytmişlar: tildan chiqsa so'z agar o'tkirdir misoli olmos-u xanjar. So'z qulatajak minbar-u dorni, Suxan inidan chiqarar ilonni.

\* \* \*

Ko'nglingga sig'magach o'zgalar siri, Dil so'zingni saqlar qay bir kishi. O'ttiz ikki tishingdan chiqqan suxan, O'ttiz ikki qulog'u dilga qo'nmish albat. Og'izdan chiqqan so'z, otilgan o'qdir qayta o'z o'rniga tushmog'i yo'qdir.

Umuman, Abushukur Balxiy she'riyatidagi pand-nasihat X asr adabiyotidagi axloqiy-ta'limiy yo'nalishda o'ziga xos bir sahifalarni tashkil etadi. Ularni to'plab, batafsil tadqiq etish adabiyotshunosligimizning galdagi vazifalaridandir.





## BIRINCHI SULTON

### O'g'il jazoga mahkum

*Nizom-ul-mulk lutf etibdur.* naql qilibdurlarkim kunlardan bir kun bir savdogar Sulton Mahmud huzuriga kirib, shahzoda Mas'ud ustidan shikoyat qilibdi: „*Men bir savdogar odamman. Ko'pdan beri bu yerda sarson qolib ketdim. O'z yurtimga ketolmay yuribman. Chunki sizning o'g'lingiz mendan 60 ming dinorlik molimni xarid qildi-yu, ammo pulini bermayotir. Sizdan iltimos, orani ochiq qilish uchun amir Mas'udni men bilan qozining oldiga yuborsangiz*“.

Bu xabarni eshitgan Sulton Mahmud juda xafa bo'libdi va o'g'liga quyidagi mazmunda noma yo'llabdi: „*Savdogarning haqini darhol bergin. Yo'qsa, uning oldiga tushib, shariat qozisi huzuriga borgin, ular qanday hukm chiqarsa, o'shani tutgin*“.

Shundan so'ng xabarchi Mas'ud uyiga, savdogar esa, qozixonaga qarab yo'l olishibdi. Xizmatkor shahzoda xonadoniga kelib, nomani tutqazibdi. Uni o'qigan Mas'ud hang-u mang bo'lib qolibdi. U xizmatkorni chorlab debdi:

— *Xazinani qara-chi, qancha pul bor?*

Xazinabon borib, pullarni hisoblab ko'ribdi va qaytib kelib debdi:

— *Yigirma ming dinor qolgan ekan.*

— *Hammasini olgin-u savdogarga eltib ber va qolganini uch kundan so'ng olar ekansan, degin,* — uqtiribdi Mas'ud. Va xabar-chiga qarab debdi:

— *Sultonga borib, yigirma mingini beribdi va qolgan qarzini uch kunda uzarkan, degin.* Men liboslarimni kiygan va etigimni yechmagan holda u kishining farmoniga tayyor turibman, nimani buyursalar, shuni bajaraman. Aytsinlar: *qozi majlisiga boraymi yoki tijoratchi pulini topib berish payida bo'laymi?*

Xabarchi bu voqeani Sultonga bayon etibdi.

— *Savdogarning pulini to'la bermaguncha, ko'zimga ko'rinmasin!* — debdi g'azab bilan Sulton.

Buni eshitgan Mas'ud to'rt tomonga odam yuborib, do'st-laridan qarz olib, asr namozigacha savdogarning 60 ming

dinorini eltib beribdi. Bu voqea butun olamga yoyilibdi: Sul-tonning adolatpeshaligini eshitgan Chin-u Xitoy, Xo'tan-u Misr va Adan-u Basradan G'aznaga qarab savdogarlar oqib kela boshlabdi. Shahar bozorlari ajoyib-u g'aroyib matolarga to'lib ketibdi.

Shuning uchun ham u zamonda oddiy farroshdan tortib, amaldorlargacha, Isfahon amiri-yu Xuroson raisi shoh far-monidan bo'yin tovlashmas ekan.

Qiziq, „Siyosatnoma“, „Chahor maqola“ (XI asr), „Jome-ul-hikoyot“, „Lubob-ul-albob“ (XIII asr) „Gulzor“, „Miftoh-ul adl“ (XVI asr), „Jome-ul-hikoyoti turkiy“ (XVII asr) va boshqa o'nlab to'plam hamda solnomalar, tarixiy kitoblar tarkibida keltirilgan hikoyatlarda Sulton Mahmud adolatli, fuqaroparvar, tadbirkor, sermulohaza va kelajakni ko'ra bila-digan, har qanday murakkab muammolarni aql bilan odilona hal etishga intiladigan shoh sifatida tasvirlanadi. Abu Said Gardiziy „Zayn-al-axbor“da Movarounnahrning xalqqa jabr-zulm o'tkazgan hokimlarini Sulton Mahmud adolatga undagani xususida ko'plab dalillar keltirgan. Ayrim ilmiy, tarixiy asar-larda, bizning zamonamizda g'aznaviyalar tarixiga bag'ishlangan barcha xildagi asarlarda esa „Sulton Mahmud zolim, johil“, „ashaddiy g'azavotchi“, „qotil-u botil“, „fosiq“, „ma'rifat ku-shandasi“ qabilidagi gaplar bilan chalpib, bulg'ab bir yoqlama baholangan. Nega endi sarchashmalarda bir fikr-u, ular asosida yozilgan kitoblarda uning teskarisi. Ana shu „nega?“ ko'pdan beri bizning fikrimizni band qilib kelardi. Shu bois, Sulton Mahmud shajarasi, ijtimoiy-siyosiy faoliyatini o'rganishga kirishdik va mavjud kitoblar-u tadqiqotlarni, nashriy va dastxat manbalarni ko'zdan kechirib chiqdik.

## Temir intizom

Asli sotib olingan qul bo'lgan Sabuktegin Somoniylar lash- karida ko'plab jasorati, mardligi, qahramonliklari tufayli oddiy askardan bosh qo'mondon darajasiga yetadi. 977-yilning martida G'azna noibi etib saylanadi. Uning noibligi davrida G'azna viloyatiga Bust, Zamindovar, Kusdar, Bomiyon, butun Toxa- riston va G'o'r viloyatlari qo'shib olinadi. Hind rojasi Jayapal, so'ng esa Qoshg'ar hukmdori Bug'roxon qo'shinlarini tor-mor keltirib, o'z davlati mustaqilligini tiklaydi. Butun Xurosonda

ichki nizolarga barham beradi. Muarrix Abulfazl Bayhaqiy Sabukteginni oqil, odil va fozil hukmdor edi, deb ta'riflaydi. 994-yili Xorazmshoh Abu Ali Ma'mun (992—997) qo'shinarini tor-mor keltirgani uchun Sabuktegin xalifadan Nosirud-davla vad-din unvonini oladi.

Abulfazl Bayhaqiyning yozishicha, Sabukteginning otasini Qora Bajkam deyishgan. Oti esa Juk bo'lgan. Turkiy tilda Qora Bajkam — Qora Ho'kiz degani. Butun Turkistonda o'zining bahodirligi va jasorati bilan shuhrat topgan Sabuktegin 20 yil hukm surdi va 56 yoshida 996-yil yozida Balx yaqinida vafot etdi... Otasi vafoti xabarini eshitgach, Xuroson poytaxti Nishopur voliyi Mahmud Balx va G'azna voliyi Ismoilga ta'ziyanoma yuborib, o'ziga bo'ysunishni talab qiladi. Ukasi ko'nmaydi. Shunda Mahmud Hirotga jo'naydi. Bu yerda amakisi Qarochoq (Bug'rocho'q)ning Ismoilga yon berganligini bilib, Bo'stga o'tadi. Mahmudning yana bir ukasi Nasr Bo'st hokimi edi. U bilan birga G'aznaga yuradi. G'azna yaqinida Ismoil bilan jang bo'ladi. Ismoil yengiladi. Ismoilni tutib, Juzjon zindoniga tashlaydi. U shu yerda vafot etadi. Ismoilning onasi Alteginning qizi edi. Maqsudning onasi esa Zobil (Qandahor) raisining qizi edi. Bu davrda 20 yoshda edi. Xalifa Qodir nomini Xutbaga qo'shib o'qitgani uchun xalifa unga Xuroson toji, Yaminuddovla va *amid unmilli* laqabini taqdim etadi. Qoraxoniylar xoni Nasrning qiziga uylanadi.

Aslida katta o'g'il Mahmud taxt vorisi bo'lishi lozim bo'lsa-da, ammo Sabuktegin bemorlik paytida o'g'li Ismoilni valiahd etib tayinlaydi. Uning hukmronligi 7 oy davom etadi, xolos. Tabiatan betadbir, uzoqni ko'ra bilmaydigan, odamlarni qovushtirib, bir ishni uddalay olmaydigan, mutakabbir, landavur Ismoil viloyat hokimlarining isyon-u xurujiga bardosh berolmaydi. Bundan foydalangan Mahmud katta qo'shin bilan G'aznaga bostirib kiradi va taxtni egallaydi. Xalifalik ham uni markaziy hokimiyat boshlig'i sifatida tan oladi, in'om-ehson jo'natadi va nomiga xutba o'qitiladi. Bu esa Mahmudning obro'sini oshirib, g'ayratiga-g'ayrat qo'shadi, tarafdorlari kun sayin ortib boraveradi. Natijada u jang harakatlarini kuchaytirib, Seiston viloyati va uning atrofidagi yerlarni ham qo'lga kiritadi.

Sabuktegin davridagi kelishuvga ko'ra, G'aznaviylar bilan Qoraxoniylar davlati oralig'idagi chegara chizig'i Samarqand yaqinidagi Qatven cho'li qilib belgilanadi. Ammo qoraxoniylar

bitimni bir necha marta buzib keladilar. Sulton Mahmud hind yurishida edi. Qoraxoniylar Iligxoni Xurosonni ham o'z yerlariga qo'shib olish maqsadida Suboshi tegin boshchiligida o'n ming suvoriyni jo'natadi. Suboshi tegin Jayhundan o'tib, Balx va Termizni va nohiyalarini bosib oldi. Bu haqdagi xabar Sulton Mahmudga yetganda u Mo'ltan shahrini va katta g'animatni qo'lga kiritgan edi. Sulton Mahmud hech qayerda to'xtamasdan Marvga yetib keldi va amirlari Oltunbosh va Arslon Jozib boshchiligida Suboshiga qarshi qo'shin jo'natdi. Bu qo'shin Marv cho'lini kesib o'tib, qazoyi osmoniydek Suboshi qo'shinlariga tashlandilar. Ularning ko'pi qirib tashlandi. Qolganlari ming mashaqqatlar bilan qutulib qoldi. Bu vahshatli xabarni Iligxon eshitib o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Turkistonning hamma burchaklaridan qo'shin to'plashga kirishdi. Uning akasi, Qoshg'ar xoni Arslonxon uni bu yo'ldan qaytarishga urindi: „*Mahmud iqtidorli va baxti chopgan sulton, behuda urinma*“, — dedi.

998-yili ikki o'rtada jang bo'ldi. Iligxon yengilib, bor-budidan ajraldi. Ikkinchi bor qo'shin to'plash unga muyassar bo'lmadi. Natijada bu jang Xurosonning hammasini, Chag'oniyon va Huttaliyon viloyatlarini uzil-kesil qo'lga kiritishi bilan tugallanadi. Mahmud G'aznaviy oz fursatda yashin tezligida harakat qiladigan ulkan lashkarga ega bo'ladi. Uning hukmronligi davrida oddiy darvozabondan tortib, viloyat hokimigacha, saisxona xizmatkoridan tortib, bosh qo'mondongacha farmoni oliyga so'zsiz itoat etadigan, podshohning har qanday ko'rsatmasi faqat itoat etilishi va bajarilishi shartligi bir e'tiqodga aylangan edi. Shuning uchun ham Mahmud G'aznaviy qisqa muddat ichida Movarounnahrda yagona muxolifi Qoraxoniylarni zabun etdi; Samarqanddan tortib, Isfahon-u Raygacha bo'lgan yerlarni zabt etib, ulkan bir imperiyani tashkil qildi. Uning bu yurishlarini xalifalik qo'llab-quvvatlab turdi. Shuning uchun u Hindistonga qilgan 13-yurishini islom shuhratini oshirish, bu mintaqalarga ham ana shu dinni tarqatish shiori ostida o'tkazdi. Uning lashkarida maxsus, „g'azavotchi“ qo'shinlar mavjud bo'lgan. Harbiy xizmatchilarning hammasi davlat hisobidan yetarli miqdorda maosh bilan ta'minlangan. Sulton Mahmud davlat idora hay'atida ham, viloyat hokimlari devonida-yu qo'shin sarkardalari orasida ham qattiq intizom orqasidan jiddiy nazorat o'rnatgan; mahalliy hokimlarning ichki va tashqi ahvolidan ma'lumot yetkazib turuvchi maxsus

mahkama tuzgan; uning lashkarida 700 dan 1300 gacha jangovar hamda harbiy nog'ora ortilgan fillar, qo'rg'onlarni qurshab olganda tosh, neft quyilgan idishlar otadigan manjaniqlar, daryolarni kechib o'tish uchun suzuvchi ko'priklar, maxsus paromlari bo'lgan; Chiston va Marvda bir korxonalar hamda osma ko'priklar uchun alohida palma po'stlog'i va ipakdan arqon ishlab chiqargan. Sulton qo'shinining asosiy qismini harbiy hunarlar o'rgatilgan qullar tashkil etgan. Bundan tashqari, sarhanglar tarkibida maxsus duradgorlar, temirchi va qurolsozlar, ayg'oqchi-ayyorlar guruhi bo'lgan. Xullas, Sulton Mahmud eng zamonaviy qurollar bilan musallah etilgan, 32 harbiy hunar o'rgatilgan, yuksak jangovar ruhdagi yuz minglab suvoriy va piyoda lashkarga ega edi. U har bir jang oldidan askarning tayyorgarligini shaxsan o'zi ko'rikdan o'tkazardi. Masalan, Hindistonning Nanda qal'asiga hujum oldidan 50 ming suvoriy, 300 fil, 30 ming piyoda, bir necha ming „otashbaron“larni nazardan o'tkazadi.

Bizga ma'lumki, Xorazm vohasi xalqi hamisha mustaqillikka intilib, hukmronlari „xorazmshoh“ unvonini saqlab kelgan. Mahmud G'aznaviy hokimiyatining dastlabki yillarida xorazmshohlar bilan quda-andachilikni yo'lga qo'yadi. Ma'mun o'ldirilgach, „ularni qoraxoniylar tajovuzidan himoya qilish“ bahonasi bilan Xorazmni ham o'z davlatiga qo'shib oladi va „Ma'mun akademiya“sini G'aznaga ko'chiradi. Mahmudning nazarida mamlakat aholisi asosan ikki guruhga — lashkar va oddiy xalqqa bo'linadi. Boshqa toifalar ana shu ikki guruh tarkibiga kiradi.

Har qanday yurtgirlik, markazlashgan yagona davlatni tuzishga intilish qirg'insiz, turli o'lkalar va xalqlarni talashsiz yuzaga kelmaydi. Metindek intizom, qattiqqo'llik va dahshatli qo'rqituv siyosatiga asoslangan Mahmud G'aznaviy yurishlari ham ko'p xalqlarga kulfat keltirdi. G'azna va Marv shaharlarini obod qilish uchun turli o'lkalardan ko'plab boyliklar keltirildi, yuzlab hunarmandlar, ustalar, qullar haydab kelindi. Masalan, Hindistonga qilgan 1019-yilgi yurishi paytida ko'plab qimmatbaho toshlar, oltin, kumush va boshqa metallardan yasalgan butlar, 350 fil, 57 ming qullarni keltirgan, o'ljaga olingan boyliklarning son-sanog'i bo'lmagan. Birgina Peshovar hokimi Jayapalning bo'ynidagi taqinchoq 180 ming dinorlik bo'lgan.



Abu Said Gardiziy „Xabarlar ziynati“ kitobida Hindistonning Matxura viloyatining Sulton Mahmud tomonidan zabt etilishi bayonida quyidagilarni yozadi:

„... U yerdan amir Mahmud hindlarning payg‘ambari Krishna tug‘ilgan Matxura qo‘rg‘oniga qarab yurdi. Alloh oxiratini obod qilgur Mahmud Matxuraga kelganda hech kim unga qarshi jangga chiqmadi. Amir o‘z qo‘shiniga bu mulkka hujum qilishni buyurdi. Barcha yodgorliklar buzib tashlandi, g‘orat qilindi, butlar parchalab yuborildi, son-sanoqsiz boyliklar talandi. Amir Mahmud bu viloyat xazinalaridan shunchalik ko‘p o‘lja oldikim, hech kim uning sanog‘iga yetolmadi. U og‘irligi to‘rt yuz ellik misqol keladigan yaxontni qo‘lga kiritdi. Hali insoniyat tarixida hech kim bunchalik ulkan rangli toshni ko‘rmagan. Bu yerdagi kumush va oltin butlar ham hisobsiz edi. Xudo rahmat qilgur Mahmud bir oltin butni maydalab tortishni buyurdi. Tortib ko‘rishsa, 98 ming 300 misqol chiqibdi“. (Abu Said Gardiziy, „Zayn-al-axbor“, T., „Fan“, 1991, 98— 99-betlar.)

Shuni ham ta’kidlash lozimki, Sulton Mahmud ba’zan urushdan ko‘ra sulhni ma’qul ko‘rgan. Gardiziy asarida bunga ko‘pgina misollar mavjud. „Amir Mahmud u yerdan Kalonjar viloyatiga o‘tib, Nanda qo‘rg‘onini qurshadi... Qal’ani halqa singari qisib, butun yo‘llarni to‘sib qo‘ygan ulkan qo‘shinni ko‘rgan Nanda sulh yo‘lini tutib, elchilar jo‘natdi. Muzokaralar natijasida Nanda juzya to‘laydigan va 300 ta sara fillardan yuboradigan bo‘ldi. Nanda o‘sha zahotiyiq qo‘rg‘ondan uch yuz filni haydab chiqazishni buyurdi. Mahmudning farmoniga ko‘ra, qo‘shindagi turklar va boshqa askarlar fillarni o‘rtaga olib, tutishdi. Hindlar ularning jasoratiga qoyil qolishdi“. (O‘sha asar, 101-bet.)

Sulton Mahmud ba’zan o‘ta ko‘ngilchan, odamlarga mehribon, inson qadriga yetadigan amirlardan bo‘lgan ekan. Gardiziyning yozishicha, Nanda Mahmudga she’r — vasf yozadi. Sulton uni fors va arab tillariga tarjima qildirib, zamonasining ulkan shoirlariga ko‘rsatadi. Ular she’rni yuksak baholaydilar. Sulton Nandaga ko‘p in’om jo‘natadi. Sulton Mahmud Movarounnahrda bo‘lganida 4 ming xonadon turkman sarhanglar o‘z boshliqlaridan shikoyat qilib, Xurosonga o‘tib yashashga ruxsat so‘raydi. U bunga rozi bo‘ladi. Kelajakda ana shular uning avlodlarini qon qaqshatadi.

Manbalarning xabar berishicha, Gʻazna atrofida qullar uchun manzilgohlar qurilgan ekan. Ana shu toʻplangan sonsiz boyliklar, tekin ishchilar-u ustalarni Gʻazna shahrini qayta qurish va obod etishga, Balx yaqinidagi Mashhur qarorgohini rivojlantirishga sarflagan, safarbar etgan. Koʻhna kitoblardagi maʼlumotlarga qaraganda, Mahmud Gʻaznaviy urushdan boʻsh vaqtlarida asosiy eʼtiborni poytaxtni rivojlantirishga, karvonsaroylar, masjid va madrasalar qurishga qaratgan. Jumladan, uning bevosita nazorati ostida qurilgan Gʻaznaning jomeʼ masjidi va mashhur Sulton madrasasi Hind-u Xurosonning eng noziktaʼb meʼmorlari tomonidan, minglab qullar mehnati evaziga qurildi. Ularga ishlatilgan qimmatbaho yogʻochlar, tosh-u oq marmarlar yuzlab farsax yerlardan qoʻlda tayyorlab, tashib keltirilgan.

Bundan tashqari, Gʻaznada ulkan madaniy markaz, minglab nodir kitoblar saqlanadigan kitobxona quriladi. Nishopur, Balx va Ray singari shaharlarda koʻplab masjid, madrasalar bunyod etiladi. Masalan, Nishopurda Xoja Abu ali Hasan, „Saidiya“ singari bir necha madrasa qad koʻtardi; Sulton Mahmudning oʻgʻli Muhammad oʻz tasarrufidagi Gurgon viloyatida jomeʼ masjidi, madrasa qurdiradi, ariq chiqazdiradi. Bu haqda shoir Farruxiy bir qasidasida quyidagilarni yozgan:

*Dar diyori Guzgonon andar in ahdi qarib,  
Chor chizi nomvar kard az payi muzdu savob;  
Masjidi odinavu oliymanori maymuna,  
Saddi rudi sudyobu joʻi obi kavсарob.*

(Mazmuni: *Bu xushbaxt zamonda Gurgon diyorida savob uchun toʻrt ulugʻ ishni amalga oshirdi; biri jomeʼ masjidi, ikkinchisi baxt minorasi, uchinchisi ulkan devor va toʻrtinchisi zilol suvli anhor*).

Ayrim binolar bir necha yillar davomida qurilgan. Jumladan, Sulton Mahmudning chizgisi asosida tiklangan „Koʻshki Gʻaznin“ toʻrt yilda qurib bitkazilgan; shu yillar Eron-u Xuroson, Movarounnahrda koʻhna markaziy shaharlarda adabiy, madaniy hayot nisbatan sustlashib, Gʻazna asosiy adabiy doira maskani boʻlib qoladi.

Bu davrda Gʻazna Sharqning eng goʻzal shaharlaridan biriga aylanadi. Shuningdek, Mahmud Hindistonning oʻzi vayron qilgan, talagan shaharlarida, butxonalar oʻrnida hashamatli masjidlar, xonaqohlar hamda madrasalar qurdirgan, yerli aholiga islom qoidalarini oʻrgatish uchun yuzlab mudarris va muallim-

larni safarbar etgan. „Mahmud o‘z davrining bilimdon kishilaridan edi. U uch tilni, jumladan, arab tilini mukammal bilardi. Sulton Mahmud qonli janglardan bo‘sh vaqtlarida tafsir yaratgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, uning ilmi bade’ni bilmasligi aslo mumkin emas“. (E.Э. Бертелс, История литературы и культуры Ирана, М., „Наука“, 1988, 203-bet.) Sulton Mahmud G‘aznaviy 1030-yili uzoq davom etgan kasallikdan so‘ng vafot etadi.

## Oltinni do‘st tutma

*Nizom ul-mulk keltiribdur.* Eshitishimcha, kunlardan bir kun G‘azna nonpazlari ishlamay, novvoyxonalarining eshigini berkitib qo‘yibdilar. Bundan beva-bechoralar, xususan, qalandarlar aziyat tortibdilar. Ular to‘planishib, Sulton Mahmud dargohiga shikoyatga kelibdilar. Sultonning farmoniga ko‘ra novvoylar sardorini tutib kelib, filning oyoqlari ostiga tashlab o‘ldirishibdi. Uning murdasini fil tishlariga bog‘lab, osiltirib, shaharni aylantirishibdi va „*kimda-kim novvoyxonasini ochib non sotmasa, boshiga shu kun tushadi*“, deb jar solishibdi.

Asr namozi vaqtiga kelganda barcha novvoyxonalar ochilib, peshtaxtalarida nonlar taxlab qo‘yilibdi.

Keltiribdurlarkim, Sulton Mahmud g‘oziy badbashara, cho‘tir, cho‘kka burun, bo‘yni uzun, ko‘sa bir kishi edi; doim sharob ichib yurishiga qaramay, rangi sap-sariq edi. Rahmatli otasi Sabuktegin olamdan o‘tgandan so‘ng u podsholik taxtiga o‘tirib, Hindistonni ham o‘ziga tobe qildi.

Kunlardan bir kun Sulton namozi bomdod payti o‘zining xos hujrasida joynamoz ustida o‘tirganida vaziri Shamsulmukofot Ahmadi Hasan kirib keldi. Unga bosh qimirlatib, „o‘tir“ degan ishora qildi. U Mahmudning yoniga o‘tirdi. Namozdan forig‘ bo‘lgan Sulton choponini kiyib, kulohini boshiga qo‘yib, etigini kiygach, oynaga qaradi va basharasini ko‘rib, miyig‘ida kuldi.

— *Hozir dilimdan nima o‘tganini bilasanmi?* — qo‘qqisidan so‘radi Mahmud.

— *Uni Xudoning o‘zi biladi,* — javob berdi Hasan.

— *Xalq mening basharamga qarab hurmat qilmay qoladi,* deb qo‘rqaman. Avom odatda, xushchehra, ochiq yuzli podsholarni yaxshi ko‘radi. *Nima qilsam bo‘lar ekan-a?!* — gapini davom ettirdi Sulton.

— *Sen oltin, boylikni o‘zingga dushman tutsang, undan qo‘lingni yig‘sang, xalq seni sevadi*, — ta’kidladi Hasan.

Vazirning gapi Mahmudga xush yoqdi va dedi:

— *Shu bir so‘zning ostida ming xil ma’no yotibdi*.

Shundan so‘ng Mahmud xalqqa taom ulashish va xayrotlar berishga qo‘l uzatdi va xalq uni sevib qoldi. Natijada u ulkan ishlarni uddaladi, hisobsiz boyliklar qo‘liga kirib kelaverdi. U Sumanotga borib, u yerni kashf etdi. Samarqandni musaxxar etdi va Iroqqa yuz tutib, zafar quchdi.

Kunlardan bir kun Mahmud Hasanga dedi:

— *Men zardan qo‘l yiqqanim uchun ikki jahon ilkimga kirdi, dunyoni xor tutgan edim, ikki jahonda aziz bo‘ldim*.

Unga qadar „sulton“ kalimasi bo‘lmagan. Islom olamida o‘zini „Sulton“ deb e‘lon qilgan birinchi podshoh Mahmud edi.

Mashhur tarixchi Mirxond „Ravzat-us-safo“ asarida yozibdur: *„Aytishlaricha, Sulton Mahmud o‘limdan ikki kun oldin xizmatkorlariga xazinasidagi kumush diramlar to‘ldirilgan qoplarni, oltin dinor to‘la xaltalar-u rang-barang noyob rangli toshlar saqlangan qutichalarni hamda bisotidagi barcha qimmatbaho narsalarni — shohligi davomida to‘plagan boyliklarni keltirib, ro‘parasidagi maydonchaga yoyishni buyuribdi. Xizmatkorlar shunday qilishibdi. Bu maydoncha birpasda qizil, sariq, savsar, pushti va boshqa xil gullar bilan bezangan gulzordek jilvalanibdi. Sulton ularga afsus va nado-matlar bilan boqibdi va ho‘ngrab yig‘lab yuboribdi. Uzoq yig‘idan so‘ng ularni yig‘ib, xazinaga eltib qo‘yishni buyuribdi. Ammo shuncha boylikdan biron kishiga bir miri ham berdirmabdi“*.

Xalq hikoyat va rivoyatlarida Sulton Mahmud bu darajada odil va xalqparvar etib tavsiflansa-yu tarixiy kitoblarda o‘ta ziqna, mol-dunyoga hirs qo‘ygan shaxs etib tasvirlansa. Ajablanarlisi shundaki, xalq yaratgan asarlarning birontasida Sulton Mahmud G‘aznaviy badnom qilinmaydi. Yoki hikoyatlar maxsus roviylar tomonidan to‘qilib, xalq orasida tarqatildimi?! Agar shunday bo‘lsa, Nizom-ul-mulk va Kaykovus, Nizomiy Aruziy Samarqandiydek adolatli, ma’rifatli zotlar bunday hikoyatlarni pandnomalarida ibrat namunasi sifatida keltirmagan bo‘lardilar. Aftidan, Sulton Mahmudning islompanohlik shiori ostida olib borgan urushlari, ulardagi uzluksiz zafarlar, hadsiz o‘ljalar evaziga shaharlarni obod qilishga intilishi, olim-u fozil-larni o‘z atrofiga jamlash yo‘lidagi ovozalar uning shaxsini xalq orasida ideallashtirib yuborgan ko‘rinadi. O‘ttiz yildan ziyod

davr orasida shahanshohlik taxtida o'tirishi ham uning xalq nazdidagi obro'siga shuhrat qo'shgan. Gardiziy Sulton Mahmudning Xuroson va Movarounnahrda ayrim hokimlar ustidan shikoyat qilib kelgan xalqning dodiga quloq solganini ham alohida yozib qoldirgan. Natijada u oddiy mehnatkash nazarida yurtning pushti panohi, adolatsizlik oldini to'sadigan saddek bo'lib ko'ringan va nomi og'izdan og'izga o'tib, tillarda doston bo'lib, xalq og'zaki ijodi obrazlaridan biriga aylandi. Bundan tashqari, xalq qattiqqo'l podshoni yoqtiradi. Zeroki, osoyishtalik va intizom uchun metindek qonun shart.

### **Mezon — xolislik**

*Nizom-ul-mulk yozibdur.* Sulton Mahmudning shunday odati bor erdi: u o'z lashkarini turkiylardan, xurosonlig-u hindlardan, g'o'ri-yu daylamilardan saralab tuzardi va alohida bir dasta tuzib, tun bo'yi ularni nazoratda tutardi. Shuning uchun lashkarlar bir-biridan va soqchilardan hadiksirab o'rinlaridan qimirlamas, hamisha ziyrak, jasorat ko'rsatishga tayyor turishardi. Ular bir-birining ustidan „faloniy jangda bo'shanglik qildi“, degan gap tarqalishidan qo'rqishardi. Shu bois, Sulton Mahmud lashkarining bari jasur, shijoatli va nomdor edilar. Ular qo'liga qurol olgach, dushmanga shikast yetkazmasdan orqaga qaytishni xayoliga keltirishmasdi. Sulton lashkari hujumga o'tib, dushman ustidan zafar qozongach, shunday dahshatli qirg'in bo'lardiki, muxolifning ming otliq yigiti, bularning yuz otlig' lashkariga yuzlanolmay qolardi. Natijada chor atrofidagi yurtlar bu podshohdan qo'rqishar va unga qarshi bosh ko'tarishga yuragi dov bermasdi.

Demak, Sulton Mahmud lashkar tanlash, janglarda ularidan qanday foydalanish, nazorat va intizom, harbiy burchga sadoqat, muhoraba siyosati masalalarida ham o'ziga xos yo'l hamda usullarni qo'llagan. Masalan, ba'zan muxolif tomon lashkari orasida vahima qo'zg'ash uchun 300 mast filga yuklangan nog'oralarni chaldirib, hayqirig'-u qiyqiriq bilan jang boshlagan; otash va o'q otuvchilarni old qo'shinga joylab, hujumga o'tgan. Biz bu yerda Sulton Mahmudning 13 yil davomida Hindistonda mag'lubiyatsiz urush olib borib, ko'p yerlarni zabt etib, obod shaharlarni vayron etgani, madaniy obidalarni nest-nobud qilgani, musulmonlashtirish siyosatini olib bor-

gani, u tufayli ko'hna hind yeriga islom ma'rifati kirib borgani yoki Sultonning mahrami Ayozi bilan munosabati, uning chaqimchiligi tufayli ko'p olim-u fuzalo, arkoni davlatning yostig'i qurigan va boshqa masalalarni tadqiq etmoqchi emasmiz. Faqat Sul-ton Mahmud o'ta johil, qonxo'r, bekorga qirg'in qiluvchi, ishratboz, sharobxo'r bo'lganda bu darajada shuhrat qozonmagan, tillarda doston bo'lmasdi, demoqchimiz. O'zingiz o'ylab ko'ring, faqat g'ayriinsoniy xislatga ega shaxs shuncha ulkan imperiyani tuza olarmidi? 30 yildan ziyod vaqt davomida uni temir intizom bilan boshqara olarmidi? Nima uchun faqat islom ahkomlariga suyanib ish ko'rgan birinchi Sul-ton birgina poytaxt — G'aznada 408 (Davlatshoh Samarqandiy) shoir va olimlarni davlat homiyligida asradi? Asli turkiynajod bo'la turub, forsiy til va undagi madaniyat-u adabiyotni rivojlantirishga bu qadar e'tibor berishining boisi nimada? O'ziga hamd-u sano o'qitish uchunmi?! Yo'q. Bizningcha, u ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotida, saltanat qudratida tutgan o'r-nini to'g'ri tushungan, madaniyat, ilm-fan, badiiy adabiyot davlatining shoniga shuhrat qo'shajagini anglagan, his etgan. O'tmishda „falon amir“ yoki „falon podsho saroyida muncha shoir-u olim bor“, deyishning o'zi o'sha davlatning shavkatini ko'rsatgan. Qolaversa, u chor atrofda ma'naviyat homiysi sifatida dong taratgan. Hatto Sul-ton Mahmud turli shahar va o'lkalarga kishi yuborib, shoir-u olimlarga pul, in'om ehsonlar berib, ularni o'z poytaxtiga da'vat etar, jalb qilar ekan. Shuning uchun ham u va o'g'li Mas'ud davrida madaniy, adabiy hayot boshqa joylarga nisbatan bu yerda ravnaq topadi. Unsuriy, Farruxiy, Manuchehriy, Asjadiy, Manshuriy, Utoridiy, Mas'udi Roziy, Labibiy, Ziynatiy, Masrur singari o'nlab sohibde-von san'atkorlar ijodi g'aznaviylarning sulolasi davrida avj cho'qqisiga ko'tarildi. Ayniqsa, bu sulola zamonida qasida va masnaviy adabiy doirada yetakchi janrlarga aylanadi; forsiy tilda eng ko'p qasida shu davrda yaratiladi, nasr janr sifatida to'la shakllanadi.

Shu o'rinda Firdavsiy va Sul-ton Mahmud o'rtasidagi mojaroga ham o'z munosabatimizni bildirib o'tishni lozim ko'ramiz. Zeroki, bu masala hamon xolis bahosini, yechimini olmay kelmoqda. Mahmud G'aznaviy ilm-fan, adabiyot va san'atga jiddiy e'tibor bergan. Beruniy atrofida o'nlab olimlar ishlagan, buyuk olim Hindiston yurishlarida hamroh bo'lib, 13 yil

davomida qadimgi hindlarning tili, madaniyati, ilm-fani, adabiyoti, urf-odatları, hayvonot olami, o'simliklar dunyosi, tarixi, geografiyasi, tog'lari-yu daryolarini o'rgangani ma'lum. Xususan, shahzoda Mas'ud davrida Beruniyga katta ijodiy sharoit tug'ilgan. Unsuriy saroy doirasidagi olim-u adiblarga sardor bo'lgan. Mahmudning vaziri darajasidagi obro'ga ega bo'lgan atoqli shoirga poytaxtdagi adabiy va ilmiy doiraga dohil bo'lish orzusida yurgan har bir ijodkorni imtihon qilish vazifasi topshirilgan. Unsuriyning sinovidan o'tib, uning fatvosini olgan qalam sohibigina G'azna ma'naviy muhitiga qabul qilingan.

Ma'lumki, Xuroson-u Movarounnahrda arab xalifaligining 200 yillik hukmronligi tugab, hokimiyat mahalliy feodallar qo'liga o'tib, Somoniylar davlati vujudga kelgach, amir-u zodagonlar qadimgi ajdodlar an'anasini qayta tiklashga intilib, dariy (forsiy) tilni *davlat tili* deb e'lon qiladilar va olim-u adiblarni shu tilda ijod qilishga da'vat etadilar. Ular eng qadimgi afsonalar, rivoyat-u tarixiy dalillarni to'plab, bir kitob holiga keltirishga kirishadilar. Natijada, „Shohnomayi mansur“ nomli bir yodnoma vujudga keladi. Firdavsiy „Avesto“, qadimgi yodnomalar va boshqa kitoblarni o'rganib chiqadi. Nishopur, Marv, Seyiston, Balx, Buxoro, Choch va boshqa yurtlarni kezib chiqib, baxshi, roviy, naqllardan ko'hna rivoyatlarni, qahramonlik dostonlari mazmundorlarini, tarixiy shaxslar haqidagi hikoyatlarni yozib olib, „Shohnoma“ yozish bilan jiddiy shug'ullanadi.

Natijada, Abulqosim Firdavsiy 35 yil mehnat qilib, 200 yillik Ajam tarixini she'rda tiriltirib, „Shohnoma“dek dunyoda eng katta dostonlar majmuasini G'aznaga keltirganda Unsuriy ham ikki doston va bir devon muallifi edi. Bu asar lashkarining hamisha jangovar ruhda bo'lishini, doim oldinga — g'alabaga intilish taktikasini qo'llagan Mahmudga shubhasiz ma'qul bo'ladi. Zeroki, G'azna adabiy doirasida qo'shinni jasorat, shijoat, mardlik va matonatga undovchi sara jangnomalar hali yaratilmagan edi. Bundan tashqari, Firdavsiy Asjadiy, Faruxiy va Unsuriylarni dahanaki mushoirada o'ziga tan berdiradi. Ana shularni hisobga olib, o'z obro'sining pasayishidan qo'rqib, „malikushshuaro“ Unsuriy Sulton Mahmud huzurida „Shohnoma“ning qadrini pastga uradi, bir qishloqi shoirning mamduhi (madh etilgan) nazariga tushib qolishiga baxillik

qiladi. Shunday ulkan asarni o‘qib chiqishga esa, Sulton Mahmudning vaqti yo‘q edi. Bu esa buyuk shoir izzat-nafsiga tegadi. Y.E. Bertelsning *Sulton Mahmud „Shohnoma“ni qadrsizlantirishni o‘zi uyushtirgan. Chunki, u o‘zini Rustami Doston o‘rnida ko‘rishni istardi, degan gaplariga qo‘shilib bo‘lmaydi. Zeroki, ancha zukko, she‘riyat qadrini biladigan va tushunadigan shahanshohning bunday qilishi mantiqqa ziddir.* Buning ustiga bu davrda Sulton Mahmud allaqachon shuhrat cho‘qqisiga erishgandi. Firdavsiyning „Sulton Mahmud haqidagi hajviyasi“ masalasiga kelsak, bu ham nihoyatda chigal va jumboq muammo. Chunki, hajviyaning bu qadar tez yozilishi va o‘sha kuniyoq Sultonga borib tegishi aqlga sig‘maydigan hodisa. Bu g‘alamislik va ataylab to‘qilgan fitna mahsuli bo‘lishi kerak. Anvariy hali Balxga yetib kelmasdanoq, uning nomidan shahar xalqini masxaralovchi hajviy she‘r yozilib tarqatilishi, Hoqoniy Shervoniy Haj safaridan qaytib, do‘stlari va bolalarini ko‘rib ulgurmasdanoq, uning imzosi bilan Isfahon haqida hajviy qasida yozilib, bir necha nusxada u yerga yuborilishini eslaylik. Bularning bari u yoki bu adabiy doiradagi ijodkorlarning bir-birini ko‘ra olmasligi, tug‘ma iste’dod sohiblari bilan o‘rtamiyona ijodkorlar orasidagi ziddiyat, ijodiy raqobat va ma‘naviy g‘alamislik oqibatidir. Mazkur masala, u bilan bog‘liq bo‘lgan hikoyat-u rivoyatlarning asl mohiyati uzoq va jiddiy tadqiqot olib borishni taqozo etadi.

Oxir-oqibatdagi niyatimiz shuki, biz kelajakda Sulton Mahmud G‘aznaviy faoliyatini xolis o‘rganishimiz, uning jahongirlik yo‘lidagi janglari-yu xalq boshiga solgan kulfatlarini ham, Xuroson va Movarounnahr xalqlari harbiy hunarlarini rivojlantirishdagi o‘rnini ham, ilm-fan, madaniyat, adabiyot, shaharlarni qayta qurishga homiyligini ham birday o‘rganib, xalqqa bor bo‘y-basti bilan ko‘rsatib berishimiz zarur. Toki avlodlarimizning bu beqiyos tarixiy shaxs haqidagi tasavvuri bir yoqlama bo‘lib qolmasin.







## HAYRATANGEZ ISTE'DOD

G'aznaviylar sulolasi davri adabiy muhitining yirik vakillaridan biri **Abdulhasan Ali ibn Chulug' Farruxiydir**. U 980-yili hozirgi Afg'oniston hududidagi Seyiston viloyatida kambag'al oilada dunyoga keladi. Bo'lajak shoir o'z shahrida o'qigan, xususiy muallimlardan musiqa va ilmi bade'dan dars olgan; yirik zamindor-dehqon qo'lida ishlagan. Abdulhasan 12—14 yasharligidayoq serzavq shoir, xushovoz xonanda-yu saliqali changnavoz sifatida shuhrat qozonadi.

Ma'lumki, o'tmishda aksariyat iste'dod sohiblari ilmiy, madaniy markazlarga intilib, u yoki bu hukmron dargoh bilan bog'liq bo'lgan adabiy muhitga kirishga, o'zlariga homiy topishga harakat qilishgan. Yosh Farruxiy ham o'ziga pusht-u panoh izlab Chag'oniyonga keladi va amir xizmatkori Amid As'adga uchrab, bir qasida bilan o'z iste'dodini namoyish etadi. As'ad yosh yigit qobiliyatiga shubha bilan qarab, hokim Abdulmuzaffar tabiatning so'lim go'shasi — dala qarorgohi — Dog'gohida dam olayotganini aytadi. Shunda favqulodda salohiyat sohibi Farruxiy quyidagi baytlar bilan boshlanadigan mashhur „Dog'goh“ qasidasini yozadi:

*Chun parandi nilgun bar ro'y po'shad marg'zor,  
Parniyoni hafrang andar sar orad ko'hsor.  
Xokro chun nofi ohu mushk zoyad beqiyos,  
Bedro chun parri to'ti barg ro'yad beshumor.  
Do'sh vaqti subhidam bo'yi bahor ovard bod,  
Habbazo, bodi shamol-u xurramo bo'yi bahor.*

(Mazmuni: *Yaylovlar niliy harirdan libos kiygan, tog'lar boshi kamalak rangli gilam yopingan, ohuning ko'kragi tuproqqa mushk baxsh etgan. Tolda esa to'ti qanoatlari singari barglar qaynab chiqqan. Subhidam chog'i bahor eli dimog'imga xush hid keltirdi. Ey bahor nasimi, orombaxsh hid taratishni tark etma*).

Xizmatkor she'rni o'qiydi-da, shoirni to'g'ri amir bog'iga boshlab boradi. Ilm-adab ahlini e'zozlab, o'zi ham ba'zan g'azallar yozib yuradigan Abdulmuzaffar Farruxiyini xush

qabul qiladi va qasidani yuksak baholab, muallifga shohona chopon, ot va pul in'om etadi. Farruxiy bir yil davomida saroyda xizmat qiladi. Bu hol uning ijodiy kamolotiga sezilarli ta'sir etadi. Nizomiy Aro'ziy Samarqandiy „Chahor maqola“ (XII asr) kitobida bu haqda maxsus hikoya keltirgan.

Markazlashgan davlat Sulton Mahmud qo'lida mustahkamlangach, Farruxiy G'aznaga keladi va saroy adabiy doirasiga dohil bo'ladi. Mashhur sharqshunos Y.E. Bertelsning yozishi-cha, Farruxiy Chag'oniyonda bir yil turgach, Sulton Mahmudning birodari, Xuroson hokimi Abuyaqub Yusuf xizmatiga o'tadi. Adabiyotshunoslikka doir asarlar hamda tarixiy manbalar mualliflari Farruxiyning chinakam madhgo'y, saroy vassofi sifatida tilga oladilar. Shoir tarjebandlarining barchasi devonga kirmay, turli tazkira va qo'lyozma bayozlarda parokanda qolib ketgan. Farruxiy ijodini tadqiq etish va ommalashtirishda professorlar R. Hodizoda, A. Abdullayev hamda dotsent M. Mullaahmadovlarning xizmatlari katta. Ammo shoir devoni bizda hali mukammal nashr etilmagan.

Haqiqatan ham yuzaki qaralsa, Farruxiy Sulton Mahmud va G'aznaviy amaldorlarini madh etuvchi qasidalar muallifdek tuyuladi. Zero, u aksariyat qasidalarini sulton va uning zodagonlariga bag'ishlagan va ulardan muruvvat ko'rgan. Ammo shoir asarlarini sinchiklab o'rganilsa, ular tematika, janr, g'oyaviy yo'nalish, xususan, badiiylik nuqtayi nazaridan o'ziga xos bir yangilik ekanini sezib olish mumkin. Chunki, shoir o'z qasidalarida bir tomondan, hukmron tabaqalarni maqtaydi, ularda mavjud bo'lgan va bo'lmagan sifatlarni ataylab bo'rttirib sanab, eng odil, raiyatparvar, tadbirkor, jasoratli hukmdorlar, deb ta'riflaydi, ya'ni mamduhlarini o'zi orzu qilgan tafakkurida tajassum etgan davlatdor darajasida bo'lishini umid qiladi, shunga da'vat etadi. Demak, qasidalarning ko'pida insondo'stlik, hayotsevarlik, vatanparvarlik g'oyalari ham o'z aksini topgan.

Ikkinchidan, Farruxiy chinakam tabiat oshig'i, ona yurti Seyiston va G'aznaning shaydosi. Shuning uchun ham shoir devonida yuzdan ortiq bahor, navro'zi olam, oltin kuz, kofur qish tasviriga bag'ishlagan qasidalar mavjud. „Dog'goh“dan tortib deyarli barcha qasidalarida tabiatning betakror, turli-tuman ko'rinishlari-yu jozib lavhalari faqat Farruxiyga xos obrazlilikda tasvirlangan, *tazod*, *tashbeh*, *ig'roq*, *g'ulu*, *tarse*, *talmeh* singari she'riy hamda lafziy san'atlardan; o'nlab xalq

iboralari, maqol va hikmatli soʻzlardan gʻoyatda ustalik bilan foydalangan. Har bir bahoriya xarakteridagi qasida tabiat goʻshasining bir parchasini kitobxon koʻz oʻngida namoyon etadi. Shoir manzara tasvirida koʻpincha muayyan joy-yurt, shahar, bogʻ koʻrinishini, Seyiston, Gʻazna, Balx, Gurgonning betakror bahorining serjilo fayzini chizishga intiladi, kitobxonning ona zaminga mehrini oshiradi. „*Marhabo, ey Bomiyon Bahori, marhabo! Noʻshod darasidan keldingmi yoki Navbahor bogʻidan chiqdingmi, xush kelibsan, Balxning soʻlim navbahori, bahor Balxdan boshlanganligi uchun oʻzgacha goʻzaldir*“ kabi fikrlar bilan boshlanadi „ummul bilod“ — shaharlar onasi Balx tasviriga bagʻishlangan bir qasida. Barcha tadqiqotchilar Sharq madh qasidasining eng taʼsirchan qasidamarsiyasi, haqida gapirganda „Sulton Mahmud motami“ qasidasini tilga oladilar. Haqiqatan ham bu qasidalarining birida tabiat goʻzalligi koʻtarinki ruhda tasvirlansa, ikkinchisida, gʻaznaviylar xonadoni, saroy aʼyonlari boshiga tushgan musibatning mungli ohanglari nazm rishtasiga tortilgan.

Farruxiy qasidalarini nashr va tadqiq etgan olimlar bu asarlarda tabiatga, Vatanga mehr ufurib turishini aytib, ular shu sanʼatkorlagina xos sahli mumtaneʼ (oson-u nomumkin) usulida yaratilganligini uqtirishadi. Har bir qasidada mavzu, obraz, gʻoya, qofiya, badiiy unsurlar mutlaqo yangi.

Shu bilan birga, shoir qasidalari katta madaniy tarixiy ahamiyatga ham ega. Chunki, bir qancha qasidalarida muallif turli yillarda Hindiston, Xuroson, Movarounnahr singari mintaqalarda roʻy bergan voqealarni tasvirlaydi, sanalarni xronologik tarzda beradi; shu oʻlkalar xalqlari kasb-koriga doir koʻplab qiziqarli dalillarni keltiradi. Barcha gʻaznaviy hukmronlarining safari-yu zafarlarida hamroh boʻlgan shoir oʻz qasidalarida tarixiy haqiqatni yozgan. Farruxiy XI asr forsiy sheʼriyatida koʻp qasida yozgan sanʼatkorlardan biri hisoblanadi. Uning qasidalari sujet va kompozitsiyasi nuqtayi nazaridan mutlaqo oʻziga xosdir. Bahor vasfidagi qasidaning muqaddima baytlariga eʼtibor bering:

*Yake xufta dar parand, yake hufta dar harir,  
Yake rasta az nuhuft, yake jasta az hisor,  
Zi bulbul surudi xush, zi sulsul navoi nagʻz,*

*Zi sari hadisi xub, zi qumri xuro'shi zor.  
Yake bar kanori gul, yake dar miyoni bod,  
Yake zeri shoxi sarv, yake bar sari chanor.*

(Mazmuni: „...Biri tosh qobig'ida yotardi, yana biri harirga burkanib uxlardi, biri mast uyqudan turdi, boshqa biri esa ulkan qo'rg'on bo'g'otidan chiqdi. Bulbulning xushnavo nag'masi, sulsulning esa xush ohanglari. Kakku, yaxshi hadis aytadi, qumri esa nafis xonish etar, biri gul bag'rida, ul biri esa majnuntol qurshovida. Biri sarv tubida-yu boshqa biri chinor shoxida mastona kuylaydi“.)

Qasidaning nasib-u gurezgohi ham, muqaddima xotimasi ham bahor kelishida boshlangan tabiat ko'rki, xushilxon qushlar bazmi ta'rifiga bag'ishlangan. U o'quvchi qalbida Navro'zi olamga nisbatan rag'bat, shukuhli olamga muhabbat uyg'otadi.

Farruxiyning g'azal va ruboiylari ham ayricha tarovat, ohangga ega. Ularda shoir ishq mavzusini o'ziga xos bir uslubda tasvirlagan. Yor mujgonlari-yu qoshi, otashin yanog'i-yu, isonafas guftori, jonbaxsh la'li, mushkin sochi-yu sarv-u to'bini sharmanda qiladigan alifdek qomati nafis chiziladi; oshiq uchun visol nash'asi qanchalik totli bo'lsa, ayriliq dardi, hijron azobi ham shu qadar ruhafzodir:

*Siyohchashmak mehri tu g'amg'usori man ast,  
Bar ro'zg'ori xazon ro'yi tu bahori man ast.  
Dilam shikori siyohchashmakoni tuvuv ravost,  
Az onki du labi shirini tu shikori man ast.*

(Mazmuni: *Qorako'zligim sening mehring menga g'amgusordir, hayotim xazonrezgisida sening yuzing bahorimdir. Mening qalbm sening charos ko'zlarini ovlashga intilsa ravodir, zeroki istagim ikki shirin la'li labingga erishmoqdir.*)

Ba'zi tadqiqotchilar Farruxiyning jonli xalq tili bilan adabiy tilni bir-biriga yaqinlashtirgan san'atkor sifatida alohida e'zozlaydilar. Chunki shoir asarlarida oddiy xalq orasida, turli shevalarda qo'llaniladigan ko'plab so'z, ibora, nom, giyoh, o'simliklar, parrandalar-u nabototga doir atamalarni mohirlik bilan qo'llab, ona-tili leksik qatlamiga olib kirgan. Demak, Farruxiy xushovoz xonanda-yu nozikta'b mashshoq, chinakam tabiat va go'zallik vassofi-san'atkor, g'aznaviyilar davri adabiy-madaniy hayotining zabardast arbobi sifatida hamisha ardoqqa loyiqdir.

## G‘AZNAVIYLAR MALIKUSHSHUAROSI

Sulton Mahmud (978—1030) Ismoil Somoniydan so‘ng mamlakatni tadbirkorlik va qattiqqo‘llik bilan boshqargan hokimlardan hisoblanadi. Uning davrida g‘aznaviylar davlati ravnaq topdi. Ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik, madaniy hayot tez rivojlandi. Iqtisodiy jihatdan qudrati kuchaygan davlatning obro‘si oshdi, islom dini janubiy Hindistongacha yoyildi. Ko‘proq yurtgirlik bilan band bo‘lgan Sulton Mahmud mamlakat hududida ilm-fan, madaniyat va adabiyot rivojiga homiylik qilish, e‘tibor berishga ham vaqt topdi. Muhammad Avfiy (XIII asr), Davlatshoh Samarqandiy (XVI asr) singari tazkirana-vislar g‘aznaviylar saroyi doirasida 400 dan ziyod shoir jamlangani va „mamlakat hududidagi barcha ijodkorlarga Unsuriy Malikushshuaro ekanligini“ alohida ta’kidlashgan. Bu sulola hukmronligi davrida Eron-u Xuroson va Movarounnahrdagi qadimiy markaziy shaharlarga nisbatan G‘azna gurkirab rivojlanadi, yagona madaniy, ilmiy, adabiy markazga aylanadi.

**Abulqosim Hasan binni Ahmad Unsuriy** 970—980-yillar orasida Balx shahrida tug‘ilgan; uning bolalik, o‘qish yillari Xurosonning eng go‘zal va gavjum shaharlaridan bo‘lgan ona shahrida o‘tgan. U ibtidoiy ma‘lumotni hamda madrasa tahsilini Balxda olgan. Davlatshoh Samarqandiy va Nizomiy Aro‘ziy Samarqandiylar Unsuriyning „*zamonasidagi barcha ilm-fanda kamolot kasb etdi*“, deb yozib qoldirishgan.

Shundan so‘ng u Sulton Mahmudning ukasi amir Nasr Sabuktegin dargohida xizmat qiladi. Amir Nasr vafotidan keyin esa shoir G‘aznaga kelib, Mahmud saroyidagi adabiy muhitga dohil bo‘ladi. U o‘z qasidalari va zukkota‘bligi bilan sultonga ma‘qul tushadi. Natijada shoir uning „Malikushshuarolik“ unvoniga ega bo‘lib, Mahmud G‘aznaviyning barcha yurishlar-yu bazm-u tantanalarida hamroh bo‘ladi. Unsuriyning obro‘si kundan kunga oshib boradi. U Sulton Mahmud mamlakati ijodkorlarining sardori darajasiga yetib, „bir nadimdek“ (Davlatshoh Samarqandiy) obro‘ va ta’sirga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham u ko‘p og‘ir va g‘amgin hollarida lutf yoki donishmandona aytilgan baytlar bilan Sultonning ta’bini xush etib, in’om-ehsonlarga sazovor bo‘ladi. Unsuriy G‘aznadagi eng boy kishilardan hisoblanarkan. Uning 4000 qo‘yi, 400 tuyasi, son-

sanoqsiz mulki, zar-u kumushlari bo‘lgan ekan. Bu haqda tazkiralalar, ko‘hna sarchashmalarda ko‘p hikoyatlar mavjud.

Naql qilishlaricha, kunlardan bir kun kechasi Sulton Unsuriy chaqirib kelishga odam yuboribdi. Unsuriy shunday javob beribdi: „*Sultonga borib aytinglar, biz u kishi davlati baxti soyasida sog‘ar ichmoqdamiz, tong saharlab huzurlarida hozir bo‘lurmiz*“. Xizmatkorlar bu xabarni Sultonga yetkazishgan ekan, u, „gilamga solib ko‘tarib olib kelinglar“, debdi. To‘rt kishi borib, shoirni bir gilamga o‘tirg‘izib, to‘rt burchagidan ko‘tarib keltirishibdi. Sulton hushyor ekan. U Unsuriyini sinab ko‘rmoqchi bo‘lib oldiga boribdi va so‘rabdi:

— *Men kimman?*

Unsuriy darhol badeha tarzida quyidagi baytlarni o‘qibdi:

*Tu on shohe, ki andar G‘arb-u Sharq,  
Juhud-u tarsov-u gabr-u musulmon.  
Hamego‘yand dar tasbeh-u tahlil,  
Iloho, oqibat Mahmud gardon.*

(Mazmuni: *Sen shunday bir shohsanki, G‘arb-u Sharqda juhud ham, gabr-u tarso va musulmonlar ham sajda va tasbeh o‘girish paytida, ey Xudo, Mahmudni o‘zing asra, deb duo qilishadi.*)

Bu suxan Sultonga g‘oyatda xush yoqibdi va shoirning og‘zini gavharga to‘ldiribdi. (Ko‘hna Sharq podsholarida eng e‘zozli kishilarni og‘ziga gavhar to‘ldirib, ardoqlash odati bo‘lgan.)

Ushbu hikoya, bir tomondan, Unsuriyning Mahmud G‘aznaviy saltanatida naqadar obro‘ va martabaga ega ekanligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, shoirning juda katta favqulodda iste‘dod sohibi ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi. U g‘oyat hushyor, zakovatli, hozirjavob bo‘lgan; ilmiy majlislarda zamonasining anchayin allomalari uning nozikbinligiga tan berishgan. Bundan tashqari Unsuriyning shaxsiyati, Yaqub Yusuf ibn Sabuktegin bilan munosabati haqida ham bir qancha hikoyat va rivoyatlar mavjud. Ularning ayrimlari Abulfazl Bayhaqiyning „Mas‘ud tarixi“ kitobida ham turli munosabatlar bilan keltirilgan. Unsuriy 1039—40-yillar orasida G‘aznada vafot etgan.

Unsuriy o‘z davri adabiy hayotida rasm bo‘lgan janrlarning barchasida mumtoz asarlar yaratgan. Ammo bizga qadar uning kichik hajmdagi bir she‘rlar devoni, uch dostonigina yetib kelgan, xolos. Rizoqulixon Hidoyat, Y.E. Bertels va A. Abdullayev kabi sharqshunoslarning ta‘kidlashlaricha,

bizgacha yetib kelgan asarlar Unsuriy merosining uchdan bir qismi ham emas ekan. Muhammad Avfiy, „*Unsuriy sohibdevon ustod edi*“, desa, Davlatshoh Samarqandiy, „*uning devoni yaqin o'ttiz ming baytdan iboratdir*“ singari aniq fikrlarni bayon etgan. Bizga qadar saqlanib qolgan ixcham devonidan qasida, ruboiy, qit'a va g'azallar joy olgan. Nizomiy Aro'ziy Unsuriy qasidalari, „*madhiyaning eng oliy namunasidir*“, deb baho bergan.

Haqiqatan ham shoir qasidalari bu janrning barcha talablariga to'la javob beradi, ular mazkur she'riy ko'rinish inki-shofida yangi bir bosqich hisoblanadi. Zeroki, Unsuriy qasidalarida, bir tomondan, tabiatning rango-rang ko'rinishlari nafis bir tarzda, betakror holatlarda tasvirlansa, ikkinchi tomondan, ularda turli tarixiy voqealar, ayrim muhim sanalarning, xalq udumlarining mohiyati haqqoniy tarzda o'z ifodasini topgan. Masalan, eng qadimgi miflar, „Avesto“ hamda „Shohnoma“dagi ma'lumotlarga ko'ra xalqning islomgacha bo'lgan rasmiy bayrami Mehrjon, Sada kabi bayramlari Jamshid va Faridunlar davrida rasm bo'lgan. Unsuriy bir qasidasida ana shu xalq bayrami tarixi, uni o'tkazish rusumlarini batafsil tasvirlab, Mahmud G'aznaviy zamonida ham bu qutlug' an'anaga, xususan, hosil bayrami Mehrjonga e'tiqod kuchli ekanligini jo'shqin tasvirlagan. Boshqa qasidasida esa shoir Navro'zni „Dehqonlar bayrami“, deb atagan. Ma'lumki, Unsuriy Sultonning barcha yurishlarida, zafarlarida rikobdor singari hamroh, hamnafas bo'lgan. Shuning uchun ham shoir yigirmadan ziyod qasidasida bevosita o'zi shohid bo'lgan tarixiy voqealarni yuksak ko'tarinki ruhda aks ettirgan. Ular ajoyib she'riy lavhalar bo'lish bilan birga, u yoki bu tarixiy voqea haqida aniq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Mashhur sharqshunos Y.E. Bertels shoir qasidalarini tahlil qilar ekan, Unsuriyning 162 baytdan iborat bir qasidasida Sulton Mahmudning Xuroson-u Movarounnahrda 998-yildan 1014-yilgacha olib borgan janglari tadrijan tasvirlanganligiga e'tibor qaratib, bu she'r shoir ijodiy biografiyasini, G'aznaviylar saltanatida tutgan mavqeyini o'rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida qayd etgan. Chunki, ularda shoir ham, Sulton Mahmud va uning lashkarlari yurtgirlik jarayonida ko'rsatgan mardlik, jasorat ham, zabt etilgan o'lkalarning tarixi, xalq urf-odati, madaniyati, tabiati manzaralari ham

allaqanday bir ko'tarinki ruhda tasvirlangan, janglar, voqealar rivoji aynan haqqoniy aks topgan. Unsuriy qasidalarida bahoriya karakteridagi tasvirlarning ko'plab uchrashi ham uning turli o'lkalar tabiati jozibasidan olgan taassurotlarining bir in'ikosidir. Shoir lirikasida tabiat, Navro'zi olam tasvirining rango-rang ko'rinishlarining ko'zga tashlanishi ham uning chinakam tabiat oshig'i ekanligini ko'rsatadi.

Unsuriy devonidagi qit'a, ruboiy, g'azallarda (g'azal bir nechtagina, xolos) sevgi mavzusi o'ziga xos bir tarzda nozik tasvirlangan. Shoir aruzning yengilroq bahrlarida ijod qilgan. G'azallarining aksariyati 5—6 baytdan iboratdir. „O'tajak“, „Ochilibdur“, „Nega?“, „Oysan“, „Pinhondur“ radifli g'azallarda go'zallikda bexato ma'shuqa chiroyining bir jihati: *mushk hidini taratadigan tim qora sochi, oydek yuzi, jonbaxsh labi, to'bi-yu sarvni sharmanda etadigan alifdek qomati tasviri berilib*, kitobxonga olam-olam zavq, farah baxsh etadi. Unsuriy g'azallarida mavzu yaxlitligi, fikrning tadrijiy takomillikda, yakporalikda berilishi xiyla ustundir.

Ruboiy va qit'alarida shoir mutlaqo betakror san'atlarni, so'z va iboralarni qo'llab, to'rt yoki olti misrada yaxlit, lo'nda fikrlarni ifodalashga erishadi; kamyob so'z o'yinlarini qo'llab, tabiiy ichki ohang hosil qiladi. Masalan, bir ruboiysida Unsuriy iztirobda nola chekayotgan yor diydasidan oqayotgan qon ko'z yoshlarini yorning gulgun yuzidan oshiq ko'z yoshlarining rang olgani natijasidir, deb tasvirlasa, quyidagi to'rtlikda esa o'zgacha manzara yaratgan:

Guftam: sanamo, dilam turo jo'yon ast,  
Gufto: ki labam dardi turo darmon ast.  
Guftam: ki hamesha az manat hijron ast?  
Gufto: ki paryon az odamiyon pinhon ast.  
Dedim: ey sanam, dilim sani qidirmoqda.  
Dedi: lablarim dardingga darmondir.  
Dedim: qachongacha meni hijronda saqlaysan?  
Dedi: parilar odamzoddan pinhondir.

Unsuriy Sharq adabiyotida ajoyib dostonnavis sifatida ham nom qozongan. Uning „Shodbahr va Aynulhayot“, „Xingbut va Surxbut“, „Vomiq va Uzro“ singari dostonlar bitgani Nizomiy Aro'ziy, Muhammad Avfiy, Abutohir Tartusiy, Davlatshoh Samarqandiylar tomonidan zikr etilgan. Bu uch masnaviy Mahmud



Gʻaznaviyga bevosita taqdim etilgani sababli oʻsha davridayoq „Xizonayi Yaminuddavla“ („Mahmud xazinasi“) nomi bilan shuhrat topgan. Shuning uchun ham Eron olimi Zabihullo Safoning maʼlumotiga koʻra „Xingbut va Surxbut“ hamda „Shodbahr va Aynulhayot“ni Beruniy arab tiliga tarjima qilgan ekan. Bu ikki doston xalq ogʻzaki ijodi sujetlari asosida yaratilgan boʻlib, „Vomiq va Uzro“ning mazmuni qadimgi yunon afsonalariga borib taqaladi. Afsuski, Gʻuz hukmdorlaridan Alouddin Husayn Jahonsoʻz tomonidan Gʻaznaga oʻt qoʻyilganda boshqa nodir yodgorliklar qatori Unsuriy asarlarining dastxatlari ham kuyib kul boʻlgan.

Naql qilishlaricha, yunon amaldorlaridan biri Fuluqrotning Uzro nomli qizi boʻlgan ekan. Fuluqrotning boshqa shaharda Makzitus nomli qarindoshi boʻlib, uning yakka-yu yagona oʻgʻli Vomiq yoshligidan onadan yetim qolibdi. Oʻgay onasi bolani koʻp qiynab, otasiga yomon koʻrsatib qoʻyibdi. Ogʻir ahvolda qolgan Vomiq uyidan bosh olib ketishga majbur bolibdi. Koʻp sarson-sargardonliklardan soʻng Vomiq Fuluqrotning yurtiga kelib, tasodifan Uzroni koʻribdi va ikki yosh orasida ishq-muhabbat paydo boʻlibdi. Aslida aqlli, chaqqon Vomiq 32 harbiy hunarni egallab oʻz davrining eng zoʻr bahodiri va chavandozi darajasiga yetgan ekan. Ikki yosh boshlaridan koʻp voqealarni oʻtkazishibdi, yoʻllarida uchragan yovuz kuchlarni, tajovuzchilarni mardonavor yengib, oxir-oqibatda murod-u maqsadlariga yetibdilar. Doston kitobxonni sadoqatli, vafodor, halol-u pok, maqsad yoʻlida jonfido boʻlishga, hamisha insonlarga yaxshilik qilishga intilishga oʻrgatadi, hushyorlikka daʼvat etadi.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, Unsuriy sheʼriyatining xarakterli xususiyatlaridan biri ulardagi axloqiy-taʼlimiy, maʼrifiy xislatlarning boʻrtib turishidir. Agar shoir sheʼrlarida maqollarni koʻp qoʻllasa, masnaviylarida bevosita didaktik lavhalarini uchratamiz. Ularda yuksak darajadagi axloqiy-taʼlimiy fikrlar oʻz ifodasini topgan.

*Feʼli oluda gavhar oloyad,  
Az xumi sirka sirka poloyad.  
(Badʼel kishi qoʻlida gavhar bulgʻanadi,  
Sirkali xumdan sirka olinajak).*

*Har kiro rohbar zag'an boshad,  
Manzili o'ba marg'zan boshad.  
(Kimning fe'li olaqarg'aga o'xshasa,  
Qo'nish joyi go'ngtepa bo'ladi.)*

Unsuriy o'z asarlarida rang-barang tasviriy vositalardan ustalik bilan foydalangan san'atkordir, u *tashbeh, jami taqsim, istiora, tanosib, tardiaks, talmeh, takror, tavsif, tajnis, ig'roq, irsol-u masal, laf* va *nashr* kabi lafziy va she'riy san'atlarni ko'p va turli-tuman ko'rinishlarda ishlatadikim, ular faqat shu shoir uslubiga xosdir. U ba'zan bir g'azalda bir necha san'atdan istifoda etishning yuksak namunasini yaratgan. Tadrij san'ati g'oyatda mukammal qo'llanilgan bir qasidasida Unsuriy quyidagi bayt bilan boshlanadigan go'zal „tavsif“ yaratgan:

*Parizode, pariro'ye, parichehre, paripaykar,  
Dilorome, diloroye, g'amanjome, g'amafzoye.*

Xulosa qilib aytganda, Unsuriy XI asr forsiy tildagi she'riyatni, xususan, qasida janrini san'atkorlik jihatdan g'oyatda boyitgan shoirdir. U o'z masnaviyalarida ham, g'azal va qasidalarida ham davr ijodkorlarida uchramaydigan so'z sehrini kashf etgani bilan alohida ajralib turadi. Unsuriy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish hamon galdagi vazifa bo'lib qolmoqda.

## TIBBIYOT BOBOKALONI

**Shayxurrais** — donishmandlar ustoz nomi bilan shuhrat qozongan tabib, shoir, qomusiy bilim egasi **Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Hasan ibn Sino** 980-yili Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'iladi. Otasi Abdullo asli balxlik bo'lib, Somoniy hukmdorlar mahkamasida xizmatchi bo'lgan, onasi Sitara esa afshonalik edi. Ibn Sino 5 yoshga kirgach, bolani o'qitish uchun oila Buxoroga ko'chib boradi. Avval xususiy muallimdan — Abu Abdullo Notiliy va Ismoil Zohidlardan mantiq asoslarini, riyoziyot, falsafa, fiqh-dinshunoslikni mukammal o'rganadi, keyin madrasada ta'lim olgan Ibn Sino o'tkir zehni, favqulodda qobiliyati bilan alohida ajralib turadi. U qunt bilan mustaqil mutolaaga beriladi.

*Ibn Sino o'z qo'li bilan yozgan tarjimayi holida ilm o'rganish borasida chekkan zahmatlarini quyidagicha bayon etadi:*

„Keyin yana bir yarim yil ilm va mutolaaga berildim. Mantiq va falsafaning barcha qismlarini qaytadan o‘qib chiqdim. O‘sha kezlarda men kechalari kam uxlab, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug‘ullanmas edim... Agar biroz uyquga ketsam tushimda ham o‘ngimdagi o‘sha masalalarni ko‘rardim, ko‘p masalalar yechimi tushimda ayon bo‘lardi. Ana shu zaylda hamma ilmlarni mustahkam egallab oldim va ulardan inson imkoniyati darajasida xabardor bo‘ldim.

Bir kuni shohdan (Buxoro amiri Nuh ibn Mansurdan) kutubxonasiga kirishga va u yerdagi tibga oid kitoblarni mutolaa qilishga ruxsat so‘radim. Shoh menga ruxsat berdi. Men ko‘p xonalardan iborat kutubxonaga kirdim. Har bir xonada kitob sandiqlari turar, kitoblar esa ustma-ust taxlab qo‘yilgan edi. Xonalarning birida arab kitoblari, she‘rlari, boshqasida fiqhshunoslikka doir asarlar turardi. Shu tartibda har bir xonada bir fanga oid kitoblar to‘plangan edi. Keyin bizdan oldin o‘tgan kitoblar ro‘yxatini o‘qib chiqdim va undan keraklarini talab qildim. U yerda shunday kitoblarni ko‘rdimki, ko‘pchilik ularning, hatto nomlarini ham eshitmagan bo‘lsa kerak. Bu kitoblarni o‘zim ham avval ko‘rmagan edim, bundan keyin ham uchratmadim. O‘sha kitoblarni o‘qib, ulardan bahramand bo‘ldim“.

XIII asrning boshlarida ming sandiq kitob saqlangan ana shu qiroatxona, har biri o‘n mingdan ziyod kitob fondiga ega bo‘lgan O‘tror va Marv kutubxonalarini mo‘g‘ul bosqinchilari yoqib, kulini ko‘kka sovurgan.

Ibn Sino mustaqil mutolaa bilan shug‘ullanib, *matematika*, *astronomiya*, *fizika* fanlarini, *arab* va *fors* tillarini puxta bilib oladi. Mashhur tabib Abu Mansur Qamariydan *ilmi tibni* o‘rganadi. O‘n yetti yasharligida Ibn Sino atoqli olim va tabib sifatida dong taratadi. Qo‘shnisi Abulhasan Aruztoga turli bilimlarni o‘rgatishga yordam beradigan „al-Majmu“ („To‘plam“) risolasini, Abu Bakr Baraqiyga yigirma jild keladigan „Saxovat va jinoyat haqida kitob“ qo‘llanmalarini yozib beradi. Buxoro amiri Nuh ibn Mansurning oshqozon kasalini davolashga muvaffaq bo‘ladi. Afsuski, yuqoridagi kitoblarning dastxati o‘sha odamlar qo‘lida qolib, yo‘qolib ketgan yoki hali topilmagan.

Ibn Sino avval Urganchga, keyin Afg‘oniston va Eronga o‘tib ketishga majbur bo‘ladi. U Gurgon, Ray shaharlariga boradi, biroz vaqt Hamadon hokimi Abutohirga vazir bo‘ladi. U yerdan Isfa-

hong'a o'tib, 1023-yili „Kitob an-najot“, „Ishora va tanbihlar“, „Donishnoma“ singari asarlarini yozadi. O'n yetti yoshida Ibn Siño maktub orqali Beruniy bilan tabiat hodisalari xususida munozara qilgan; davrning Abusahli Masehiy, Abunasri Iroq, Abulxayri Xammor singari mashhur olimlari suhbatida bo'lgan. Ushbu dalillar ham ibn Sinoning favqulodda iste'dod sohibi ekanligini ko'rsatadi. Umrining oxirigacha sargardonlikda yurib, 1037-yili Hamadon shahrida vafot etadi, uning qabri ustiga o'n ikki qirra ustunli maqbara o'rnatilgan.

Ibn Sino umrining ko'p qismini darbadarlikda o'tkazganiga qaramay, muttasil ijod qildi. Dorivorlar tayyorlash, *yurak kasalligi, jarrohlik* kabi tibbiyot masalalariga, *mantiq, falsafa, musiqa, adabiyotshunoslik, til bilimi, tabiiyot, astronomiya* va boshqa sohalarga doir 400 dan ziyod asar yozdi. Ibn Sinoning yigirma jilddan iborat „Kitob an-insof“ asari hali topilmagan. Uning „Tib qonunlari“ nomi bilan shuhrat qozongan asari o'tmishda Sharqda ham, G'arbda ham tibbiyotda asosiy qo'llanma hisoblangan. Olimning tibbiyotga doir kashfiyotlari, ayniqsa, turli o'simliklardan kimyoviy yo'l bilan dori-darmonlar tayyorlash haqidagi fikrlari hamon o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

Ibn Sino olim bo'lish bilan birga iste'dodli adib hamdir. Uning forsiy tilda yozgan she'rlar devoni, turli bilimlar bo'yicha bahs yuritiladigan „Donishnoma“ kitobi, arab tilida yozilgan „Salomon va Ibsol“, „Yusuf haqida qissa“, „Qush“ va boshqa qissalari bizga qadar yetib kelgan. Ibn Sino xalq og'zaki ijodidagi termalar asosida yozma adabiyotga ruboiy janrini olib kirdi; arab va fors tilida she'rlar yozdi. O'z g'azal va ruboiylarida shoir go'zallikni, ilm-fanni targ'ib etadi, jaholat, zulm-zo'rlikni qoralaydi. Bir ruboiysida ilmda kamolot cho'qqisiga yetishsa-da, hamon qadrlanmaganidan shikoyat qilsa, boshqa birida o'z ilmiy qudratini ta'kidlaydi.

*Qora yer qa'ridan to avji Zuhal,  
Koinot mushkulin barin qildim hal.  
Ko'p chigal tugunni angladim, yechdim,  
Yechilmay qolgani birgina ajal.*

O'z qissalarida Ibn Sino mardlikni targ'ib qilib, *munofiqlik, sergaplik, yolg'onchilik, ishyoqmaslikni, riyokor* imomlarning ikkiyuzlamachiliklarini fosh etadi. Ibn Sino kishilarni ilm-fanni

o'rganishga, kasb-hunar egallashga da'vat etadi. Ibn Sino asarlari O'rta Osiyo xalqlari pedagogik qarashlari, fani, tarixini o'rganishda ham eng muhim sarchashmalar hisoblanadi.

Ulug' olim va iste'dodli adibning nodir asarlari biz uchun hamisha aziz va mo'tabardir.

## Ibn Sino haqida ikki rivoyat

### Uzuk voqeasi

Abu Ali ibn Sinoning onasi uni chaqaloqligida cho'miltirayotganida qimmatbaho uzugini yo'qotib qo'ygan ekan. U uzugini ko'p qidiribdi. Lekin hech qayerdan topa olmabdi. Keyin uni kanizak olgan, deb gumon qilib, bechora kanizakni rosa kaltaklatibdi. Kanizakni urishayotganda Abu Ali yig'lay boshlabdi, kaltaklashdan to'xtashsa, chaqaloq ham yig'idan to'xtabdi. Hamma bundan ajablanib, uzukni yo'qoldiga chiqarishibdi.

Ibn Sino tilga kirganida, birinchi aytgan gapi shu bo'libdi:

— *Sizlar o'sha vaqtda kanizakni nohaq urgan edinglar. Onam meni cho'miltirayotganda, uzugi tog'oraga tushib ketgan edi. U tog'orani ag'darganida uzuk ham suv bilan birga kir o'raga tushib ketgan. Mening tilim chiqmaganidan, sizlarga aytolmagan edim. Kanizakni urganinglarda yig'lab, to'xtaganlaringda yig'idan to'xtaganimning sababi shu edi.*

Shundan keyin o'rani kavlashgan ekan, uzuk topilibdi.

Bu voqeani eshitgan-u bilganlar Ibn Sino zehniga qoyil qolishgan ekan.

### „Men ho'kizman“

Buxorolik bir kishi kasal bo'lib, „Men ho'kizman, meni so'yinglar“, deydi qolibdi.

Kasalning qarindosh-urug'lari buni Abu Ali ibn Sinoga ayti-shibdi. Abu Ali kasalning oldiga qassob bo'lib kelibdi va „*Qani so'yadigan ho'kizinglar?!*“ — deb baqiribdi. Bemor uning oldiga chopib borib, „*So'yiladigan ho'kiz menman*“, debdi. Abu Ali darrov bemorning qo'l-oyog'ini bog'latibdi, so'ng qo'lida pichoqni o'ynatib, bemorning biqinidan ushlab ko'ribdi-da:

— Ho'kizimiz semiz demabmidilaring, bu juda oriqlik, buni men hozir so'ymayman, sal semirsin, keyin so'yaman, — debdi.

Bemor bu gapni eshitib: „*Qani menga ovqat beringlar, men semiray*“, deb ovqat talab qilaveribdi.

Abu Ali ibn Sino bemorning oilasiga dori qoldirib, uni ovqatga qo‘shib, bemorga berishni uqtiribdi. Uydagilar shunday qilishibdi. Natijada bemor hademay tuzalib ketibdi. Keyinchalik Abu Ali ibn Sino bemorning uyiga kelib:

— *Semirgan ho‘kizinglar qani, so‘yib beray*, — debdi va sog‘aygan bemorga ko‘zi tushib:

— *E, ancha semiribsan-ku, endi so‘ysa bo‘ladi*, — debdi.

Bemor tabibning gapidan juda taajjublanibdi va:

— *Meni so‘yadiganning boshi o‘nta, tegib ko‘r-chi, menga*, — deya do‘q uribdi.

Yig‘ilgan qarindosh-urug‘larning hammasi avvalgi voqeani eslab, xaxolab kulib yuborishibdi.

\* \* \*

Ibn Sinoning badiiy va ilmiy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilib nashr etishda arabshunoslardan A. Rasulov, U. Karimov, A. Irisov hamda H. Hikmatullayevlar zahmat chekib kelmoqdalar. Jumladan, A. Irisov shoirning „Urjuza“ deb atalmish to‘qqizta tibbiy mavzudagi dostonlarini ham o‘zbekchalashtirgan.

## OZODVAR CHANGIY

Ko‘hna Sharq insoniyat madaniyatining qadimiy o‘chog‘idir. Dunyodagi barcha fanlar, san‘at sohalari shu mintaqa sarzaminlarida ilk bor paydo bo‘lgan. Tibbiyot-u falakiyot, handasa-yu falsafa, jo‘g‘rofiya-yu musiqa-yu chehrakusholikka bobolarimiz asos solgan. Bugina emas, notiqlik, raqqos-u raqqosalik ham ajdodlarimizning kundalik yumushi bo‘lgan.

Qadimshunolarimiz Shahrison, Choch, Bolaliktepa, Tillotepa kabi qadimiy shaharlar qoldiqlarini qazish paytida topgan ro‘zg‘or buyumlaridagi tasvirlar, haykallar, Chin sayyohlarining solnomalaridagi dalillar bizda musiqa san‘ati bilan barobar raqs san‘atining ham taraqqiy etganligini tasdiqlaydi. Xuroson va Movarounnahr musiqa hamda tomosha san‘ati taraqqiyotida ayollar ham muhim rol o‘ynagan. O‘z raqqoslari bilan yog‘iyning orqa qo‘shinini dog‘da qoldirgan Farg‘ona ayyor va Susanayi Romishgar, sozanda, xushxon ashulachi va raqqosa Diloromlar haqidagi

rivoyatlar, Voruxdan yetishib chiqqan romishgarlar Mashriq zaminida shuhrat qozonganlar.

Masalan, shahanshoh Afrosiyobning josusi Susanayi Romishgar Eron-u Turon chegarasidagi jannatmisol bog'larda o'z raqqosalari bilan bazmi Jamshid uyushtiradi. Eronning man-man degan bahodirlari raqqosalar huzuriga kelib sharobxo'rlik qiladilar va behush qiladigan dori ta'sirida qo'lga tushadilar.

Bugina emas, qadimiy dastxatlar hamda badiiy asarlarda kasbiy musiqa san'ati rivojiga katta ulush qo'shgan xotin-qizlar xususida ham ba'zi ma'lumotlarni uchratamiz. Shoir, raqqosa hamda ohangsoz **Ozodvar Changiy** ana shulardan biridir. Saolibiyning „Gurar“, Yoqut Xamaviyning „Mu'jam ul-udabo“ (XI—XII asrlar), Nizomiy Ganjaviyning „Xusrav va Shirin“ asarlaridagi dalillarga qaraganda, Ozodvar Eronning Istaxr (ayrim manbalarga ko'ra Marv) shahrida baxshi oilasida 562-yili tug'ilgan. Xusrav Parvizning san'atkorlarga homiylik qilayotganini eshitgan Ozodvar Borbad boshchiligidagi sozandalar dastasiga qo'shilishga erishadi. Tabiatan raqqosa, shoir va sozanda bo'lgan Ozodvar tez orada changnavoz sifatida shuhrat qozonadi hamda xotin-qiz changchilar dastasini tuzadi.

Firdavsiy va Manuchehriylarning ma'lumotiga qaraganda, Ozodvar Changiy Madoyin musiqa hayotida muhim mavqega ega bo'lgan, yuzlab ohanglar ijod etgan, xalq ohanglarini o'z dastasida ijro ettirgan. Ammo bizga uning XVI asrga qadar „Duvozdahmaqom“, „Ponzdahmaqom“larning alohida go'sha yoki sho'basini tashkil etgan „Ozodvar ohang“ taronasigina yetib kelgan, xolos. Bu kuy o'tmish musiqashunoslari, shoirlarining asarlarida qayta-qayta tilga olinadi. Ozodvar Changiy 625-yili o'z vatanida vafot etgan. Uning ijodi hamon tadqiqotchilarini kutmoqda.

## AL-MATRONIY KIM?

Movarounnahr hamda Xuroson xalqlarining X—XII asrlardagi ilm-fani, madaniy hamda adabiy hayoti tadqiqotiga bag'ishlangan barcha ilmiy asarlarda „jamoat arbobi“, „shoir“, „adib“ „aloqa tizimi xizmatchisi“, „o'ta so'zamol“ **al-Matroniy** ko'p tilga olinadi. Biz bu serqirra faoliyat sohibi kim ekan, deb ko'hna sarchashmalarni ko'zdan kechirdik: As-Saolibiyning

„G‘urar“, „Yatim-at-dahr“, Narshaxiyning „Tarixi Buxoro“, Gardeziyning „Zayn al-axbor“ asarlarini, mashhur arab-shunos, mutarjim, fan arbobi I. Abdullayevning „Buxorolik arabiynavis shoirlar“ (1968), T. Mardonovning „X—XII asrlardagi arab tilidagi she‘riyat“ (1979), H. Zohidovning „X—XII asrlardagi arab tilidagi badiiy nasr“ (1992), Y.E. Bertelsning „X asr Buxorodagi fors she‘riyati“ kitoblarini mutolaa qildik. Natijada al-Matroniyning hayoti va ijodiy merosi haqida nisbatan tugalroq tasavvurga ega bo‘ldik.

As-Saolibiy „Yatim-at-dahr“ tazkirasida Xuroson, Xorazm, Buxoroda yashab o‘tgan 119 ta arabiynavis shoirlar ijodi va hayoti haqida ma‘lumot bergan. Ular orasida 4 ta amir, 8 ta vazir, 28 ta kotib, 31 ta turli amaldorlar, 48 ta har xil kasb egalari, arabiynavis shoirlarni sanab o‘tadi. Bularning ayrimlari kelib chiqishi jihatidan arab bo‘lishsa, ko‘pchiligi forsiynajot arabiynavislar bo‘lishgan. Xarakterlisi shundaki, bu davrda aksariyat arabiynavis shoirlar mustaqil ijod bilan shug‘ullana turib forsiy tildagi she‘riyatni, xalq maqollarini, Rudakiy baytlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug‘ullanishgan. Bular orasida Abulfadl as-Sukariy, Abulfath Bustiy, Abulqosim Ismoil singari mashhur tarjimonlar ham ijod qilgan. Aynan shu davrda Abushukr Balxiyning „Ofarinnoma“ masnaviysi arab tiliga tarjima qilingan. (E.Э. Бертелс, Персидская поэзия в Бухаре. X век. Москва — Ленинград, 1935, стр.11.)

Ana shu dastxat manbalar hamda ilmiy adabiyotlardagi ma‘lumotlarga qaraganda Abu Muhammad Hasan al-Matroniy X asrning 30-yillarida ko‘hna Shosh (Toshkent)da xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Ibtidoiy ta‘limni o‘z yurtida olgan Abu Muhammad Samarqand madrasalarida tahsil ko‘radi. O‘qish yillaridayoq u badiiy ijodga qiziqib, „Al-Matroniy“ tahallusi bilan asosan arab, qisman forsiy tilda she‘rlar yoza boshlaydi. Tahsildan so‘ng al-Matroniy tezda donishmand va serzavq shoir sifatida shuhrat qozonadi. Natijada u voha aloqa xizmati mahkamasiga boshliq etib tayinlanadi.

Vazifa talabi taqozosi o‘laroq al-Matroniy saltanat markazi Buxoroga tez-tez borib turadi, bu oradagi adabiy muhit bilan oshno bo‘ladi.

Al-Lahhom, Murodiy singari arabiynavis shoirlar bilan yaqindan tanishadi. Al-Matroniyning mashhur ma‘rifatparvar vazir Abu Ali al-Bal‘amiyga atab qasida yozgani uning amr



saroyiga yaqin turganini ko'rsatadi. Arabshunos olimlar I. Abdullayev hamda T. Mardonovlar Al-Matroniy 980-yili vafot etgan, degan xulosaga kelishgan.

Al-Matroniy arab tilidagi she'rlarini to'plab devon tuzgan. Ammo devonning qo'lyozmalari bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilmagan. As-Saolibiy al-Matroniyni iqtidoriga yuqori baho berib, qasida, g'azal, vaf, lug'z, hajv singari janrlarda benazir she'rlar yozganini aytib, „Yatim-at-dahr“da asarlaridan 112 bayt namuna keltiradi va quyidagilarni ta'kidlaydi: „Uning she'rlari devonga jamlangan bo'lib, ular latif so'zlarga boydir. U o'z she'rlari bilan kishini qanday zavqlantirsa, nasriy asarlari bilan ham shunday zavqlantirar edi. Uni shoir al-Lahhom bir qancha satiralari bilan hajv qiladi. Bu ikki shoir o'rtasidagi tortishuv uzoq davom etadi. Ular bir-birlarini hajv qililar va badnom qililar edilar. Al-Lahhom ham hajviyot bobida undan ustun bo'lsa-da, boshqa janrlarda unga tenglasha olmas edi (I. Abdullayev tarjimas).

As-Saolibiy tazkirada keltirgan she'rlarini kuzatar ekanmiz, al-Matroniy asarlari mavzu jihatidan ham, g'oyaviy yo'nalish jihatidan ham rang-barang badiiy yuksak ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Shoir vazir al-Bal'amiyga bag'ishlangan qasidasida ma'rifatparvarlik, adolatpeshalik g'oyalarini targ'ib etib, o'zini qarib, qartayib muhtojlikka giriftor bo'lganidan shikoyat etadi:

*Boshimda qarilikdan xabar beruvchi oq mo'ylar paydo bo'ldi va hayotimdagi gullagan yoshlik o'tib ketdi.*

*Mo'ysafidlikning erta tonggi shu'lasi (oq soch) yoshligim qar-g'alariga (qora soch) uchib ketishi joyi bo'lib qoldi.*

*Bu xuddi erta tong shu'lasi porlaganda qora qushlar o'z uyasini tashlab ketganga o'xshaydi (A. Irisov tarjimas).*

Al-Matroniy hajviyalari, asosan odamlarda uchraydigan ziqnalik, ochko'zlik, tanballik, ta'magirlik, ma'rifatsizlik, ach-chiqzabonlik singari illatlarni tanqid qilish, noshud, lapashang, beo'xshov kishilar ustidan kulishga qaratilgan. Aftidan al-Matroniy zodagonlar, kiborlar doirasida ancha obro'-e'tiborga ega bo'lganga o'xshaydi. Chunki uning amir amaldorlaridan bo'lmish Abu Xotim Muhammad at-Tusiy haqidagi hajviyasi juda keskin. Shoir uni shoshqaloqlik, mutakabbirlik va qo'nimsizlikda, kalondimog'likda ayblaydi, hajv qiladi. Professor H. Zohidovning yuqorida zikr etilgan risolasida al-Matroniy hikoyalardan namunalar keltirilgan.

Bu davr arabiynavis shoirlari ijodida *vasf*, *satira* va *yumor* yetakchilik qiladi. Al-Matroniy o'ta xushta'bligi, inson ruhiy holatining rang-barang qirralarini, hatto tarixiy voqealarni ham she'rda o'ziga xos nafislikda, betakror badiiylikda ifodalay olishi bilan zamondosh ijodkorlardan ajralib turadi. As-Saolibiy shoirning 974-yili Buxoro muzofotida yuz bergan qahatchilik tarixiga bag'ishlangan she'rini ta'riflaydi va unda tarixiy haqiqat to'g'ri badiiy aks topganligini ta'kidlaydi.

Shoir asarlarida oshiqning dard-hasrati, ayriliq iztiroblari-yu visol onlarining farahbaxsh fayzi ayricha nafosat va balog'atda ta'sirlangan. Ular kitobxonga olamjahon huzur baxsh etadi:

*Oshiq uyqusizligi tufayli kechani uzun deb faraz qiladi.*

*Kecha esa o'zining ma'lum me'yordagi uzunligida harakat etadi.*

(Ma'shuqadan) judolikda kechgan muhabbat kechasi bir yilga tengdir.

Ammo mahbubiga yetishganda uning qisqaligi bir mud-rashga barobardir.

(A. Irisov tarjiması)

Xulosa qilib aytganda, al-Matroniy ijodi janr jihatidan ham, mavzu silsilasi-yu badiiylik nuqtayi nazaridan ham g'oyatda rang-barang va boy. U qadimiy Toshkentimizdan X asrlardayoq sohibdevon ijodkorlar yetishib chiqqanligini tasdiqlaydi. Bu bilan biz har qancha faxrlansak arziydi.

## RASHIDIDDIN VATVOT

Xorazmshoh saroyida she'r bahsi-yu mushoira davom etardi. Davot qo'yilgan kursi orqasida o'tirgan chuvakkina, pakana bir odam munozarada so'zamollik qilar, murakkab savollarni o'rtaga tashlar edi. O'zi chuvakkina-yu bu daraja donishmand odamga nazari tushgan Muhammad Xorazmshoh Otsiz shunday dedi:

— *Davotni ko'taringlar-chi, uning orqasidagi kim ekan. Nechuk u bu qadar so'zamollik qilmoqda?*

— *Hazratim, tili va dili ushoqqina bo'lsa-da, asli mard hamisha marddir,* — javob berdi yigit. Shohga bu lutf xush yoqdi va majlis yana qizigandan ham qizidi. Bu hozirjavob, chechan yigit bo'lajak mashhur shoir, allomayi zamon

**Rashididdin Vatvot** edi. Rashididdin Muhammad ibn Muhammad Abuljalil 1087-yili Balxda ziyoli oilasida dunyoga keladi. Dastlab xususiy muallimlarda tahsil ko'rgan Rashididdin keyin shahardagi Nizomiya madrasasida o'qiydi. Imom Abusaid Xiraviy yigitning tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanadi. U o'qish jarayonida *kalom, sarfunahv, falsafa, adabiyot nazariyasi, aruz ilmi, insho* va *bayon* ilmlarini puxta egallaydi. Rashididdin taxminan 1115—20-yillar orasida Xorazmga keladi va mushoira-yu bahs-u munozaralarda o'z ilmini namoyish etib, shoh nazariga tushadi. Natijada Xorazmshoh dargohida turli vazifalarda xizmat qiladi va *malikushshuaro* darajasiga yetadi.

Davlatshoh Samarqandiyning „Tazkirat ush-shuaro“si (XVI asr)dagi ma'lumotlarga qaraganda Rashididdin Muhammad Xorazmshoh nazdida juda baland martabaga ega bo'lgan va uning urush-u zafarlarida, bazm-u safarlarida hamroh bo'lgan. Saljuqiylarning Hazoraspga hujumi davridagi jang paytida Rashididdin ko'rsatgan oqilona jasorat bu fikrni tasdiqlaydi. Mashhur tehronlik olim Zabehullo Safo o'zining „Eron adabiyoti tarixi“ kitobida Rashididdinning Xorazmdan tashqaridagi obro'si va shuhrati haqida qiziqarli dalillar keltirgan. Davlatshoh „*shoir to'qson yetti yil umr ko'rib, 1187-yili vafot etgan va uning qabri Urganchda*“, deb yozib qoldirgan. Olim o'z tazkirasida Vatvotning mahorati-yu jasorati haqida qiziqarli rivoyatlar keltirgan. Rashididdin Vatvot *aruz nazariyasi, tilshunoslik, tasavvuf, tarix* va boshqa sohalarga doir ko'plab risolalar yozgan. Klassik she'riyatning barcha janrlarida mumtoz asarlar yaratgan. Ayrim manbalar, qomus va risolalarda shoir devoni yetti-sakkiz ming baytdan iborat, deb qayd qilingan. Ammo Davlatshoh: „Rashididdinning devoni 15 ming baytga yaqindir“ deb qayd qilgan. (Davlatshoh Samarqandiy, „Tazkirat ush-shuaro“, D.: Adib, 1999, 45-bet.)

Shoir devonida *g'azal, qasida, ruboiy, tarkibband, tarje'band, masnaviy* singari janrlardagi asarlar jamlangan. Vatvot arab va forsiy tillarda barobar bokira she'rlar bitgan *zullisonayn* san'atkordir. Rashididdin Vatvot forsiy tildagi adabiyotda eng ko'p va xo'b qasida yozgan shoirlardan hisoblanadi. Devonidagi 223 qasidalarning ko'pchiligi ijtimoiy-falsafiy, siyosiy masalalarga bag'ishlangan. Jumladan, 153 ta qasidasida zamonasidagi davlatni boshqarish, adolatparvarlik, jang o'rniga sulh, hukmronlarga nasihat kabi masalalar o'z ifodasini topgan; ularda

shohlarni adolatpesha, xalqparvar, ilm-u madaniyatga pushtu panoh bo'lishga da'vat yetakchi g'oyaviy motivlar hisoblanadi.

*Ba adl ast har saltanatro subbot,  
Ba ilm ast har mamlakatro mador.  
Sazad mulk andar kanori kase,  
Ki boshad tahi az haromash kanor.  
Tu islohi geti az on kas majo'y,  
Ki bar nafsi xud nestash iqtidor.*

(Mazmuni: *Har bir saltanatning rivoji adldandir, har mamlakatning qudrati ilmdandir. Mulk o'zini haromdan tiya olgan odamgagina munosibdir. Sen dunyo islohini o'z nafsiga qullardan kutma.*)

Shoir qasidaları ko'p jihatlari bilan an'anaviy qasidana-vislikdan jiddiy farq qiladi. Zeroki, axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy fikrlar betakror badiiylıkda — *tarse'*, *tazod*, *tajmis*, *zuqofiyatayn*, *zubahrayn*, *mulamma*, *murassa* singari she'riy va lafziy san'atlardan izchil foydalanish orqali yuksak badiiylıkda ifodalangan; ba'zi qasidalarning *matlaidan maqtai-gacha tajnis musajja usuli* hukmron. Asarlarning bu xususiyatidan faxrlangan shoir: „*Mendan oldin hech kim bu usulda shuncha she'r ijod qilgan emas*“, (Davlatshoh) degan ekan. Bundan tashqari, shoir asarlari orasida adib Sobir Termiziy, Zamaxshariy, Katton Marvaziy, Xoqoniy, Anvariylarga bag'ishlangan *qit'a* va *qasidalar* ham borkim, bu uning zamonasidagi zabardast san'atkorlar bilan yaqından samimiy ijodiy hamkorlikda bo'lganligini ko'rsatadi. Rashididdin Vatvot g'azallari asosan, majoziy ishq tasviriga bag'ishlangan; ruboiylarida esa ko'proq adolatpeshalikni, axloqiy-ta'limiy, ma'rifiy g'oyalarni targ'ib etgan.

Aksariyat g'azallarda shoir lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini jo'shqin tarzda boshqa shoirlarda kam uchraydigan so'z va iboralar orqali tasvirlab, ma'shuqa siymosini o'quvchi ko'z o'ngida gavdalandirishga muvaffaq bo'ladi.

*Zi furo'htani ro'i tu dar jahon otash,  
Zada g'ami tu maro dar miyoni jon otash.  
Agar baroram az ando'hi ishq tu nafasi,  
Bigirad az nafasi man hama jahon otash.*

(Mazmuni: *Yuzing nuridan jahonga otash tushdi, sening g'aming meni otash quchog'iga otdi. Agar ishqing qayg'usidan nafas chiqarsam, mening nafasimdan dunyoni otash tutadi.*)

Xorazmshoh Otsiz vafotidan so'ng, El Arslondan keyin Xorazm taxtini Sulton Alovuddin Takash egallaydi. U Rashididdin Vatvotni ko'rmoqchi bo'ladi. Qartayib qolgan shoirni Sulton huzuriga keltiradilar. U shohga qarab quyidagi ruboiyni badihantan o'qiydi:

*Jaddat varaqi zamona az zulm bishust,  
Adli padarat shikastaho kard durust.  
Ey ba tu qaboi saltanat omada just,  
Xon to chi kuni navbat davlati tust?*

(Mazmuni: *Bobong zamona varag'idan zulmni yuvdi, otang adolati barcha siniqlarni but etdi. Ey saltanat libosi tekkan yigit, nima qilsang qil, navbat sening davlatingdir.*)

Takashga bu ruboiy ko'p ma'qul tushibdi va shoirni oldingi vazifasiga tayinlabdi. Demak, Vatvot ruboiylari ham g'oyaviy-tematik jihatdan rang-barang va hozirjavoblik bilan yaratilgan asarlar ekan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Rashididdin Vatvot o'zidan keyin arab va fors tillarida ko'plab risolalar qoldirgan. „Hadoyiq-us-sehr fi daqoyiq ush-she'r“, „Aqsom-ul-buhur“, „Risolayi aro'z“, „Abkor ul-afkor fil-rasoil-val ash'or“, „Arois ul-xavotir va nafois un-navodir“ asarlari shular jumlasidandir. „Abkor ul-afkor fil-rasoil-val ash'or“ 9 ta arab tilidagi, 9 ta fors tilidagi risolalardan, 18 ta arab va fors tillaridagi qasidalardan iborat; „Arois ul-xavotir va nafois-un-navodir“ esa 25 ta arabiy va 25 ta forsiy risolalardan tashkil topgan. Mazkur risolalar, munshatdagi nomalari davr ijtimoiy-siyosiy hayoti, adibning falsafiy-ijtimoiy qarashlari, adabiy jarayonni, tarjimaiy holining ko'p qirralarini o'rganib, bilib olishda noyob manbalar hisoblanadi. Masalan, Vatvot aruz nazariyasining ko'p jihatlarini teran yoritgan, 29 bahrning mukammal tasnifini bergan.

O'tmish tazkiranavislari, olim-u fuzalolari Rashididdin Vatvotning favqulodda iqtidori, arab va forsiy tildagi she'rlarining balog'atiga yuksak baho berishgan. Jumladan, Yoqut Hamaviy „Mo'jam ul-udabo“ kitobida „*Rashid davron nodiri va zamon ajoyibidir, uning asarida arab adiblari orasida nazm va nasrda u bilan raqobat qiladigan ijodkor topilmasdi*“, degan.

Afsuski, xorazmshohlar davlatining ziynati, Zamaxshariyning yaqin do'sti Rashididdin Vatvotning ijodi tarix fanlari doktori U. Uvvatovning „Rashididdin Vatvot Xorazmda“ maqolasini hisobga olmaganida hali yetarli tadqiq etilmagan, she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilinmagan.

## BAYHAQIY — BOSH MIRZO VA TARIXCHI

Sulton Mas'ud a'yonlari, lashkarboshilari, o'z tomoniga o'tgan Hirot zodagonlari bilan muhtasham saroyda o'tirgandi. Mulozimlar shaharning oldingi Xos Hojibi Ali o'z odamlari bilan kelganligini aytishadi. Sulton kirishga ijozat etdi. Ali xizmatkorlari bilan ichkariga tashrif buyurib, ta'zim qildi, yer o'pdi, sulton etagini yuz-ko'zlariga surtdi, uning oyog'iga ikki xalta oltin tangalarni nisor etdi. Mas'ud ham mehmonga keragidan ortiq iltifot qildi: o'ng qo'lidan — yuqoridan shohona kursi ko'rsatdi. Qizg'in suhbat va ziyofatlardan so'ng Ali ketishga ijozat so'radi. Sulton ishorasi bilan uni kuzatib chiqdilar. Hovlidagi katta izdihom ichidan ikki kishi kelib, Alining qo'llarini orqasiga qayirdi, uchinchisi liboslarini yechdi va gardanidan bosib turib, kallasini olib tashladi. O'zining qattol muxolifi huzuriga in'om-ehson keltirgan har bir kishining taqdiri shunday bo'ladi. XI asrning mashhur mirzoboshi va tarixchisi Abu Fazl Bayhaqiy o'z faoliyati davomida ana shunday yuzlab voqealarning guvohi bo'lgan, jang-u jadallarni kuzatgan.

Xuroson va Movarounnahrda g'aznaviyalar sulolasi hukmronligi davrida o'nlab shoir, olim va davlat arboblari yetishib chiqdi. O'zi astronomiya va matematikaga qiziqqan Sulton Mas'ud G'aznada olimlar uchun maxsus ijodxonona — qasr ham qurib bergan. **Abu Fazl Bayhaqiy** ana shu G'azna muhitida ijod qilgan olimlardan biridir.

Abu Fazl Mahmud ibn Husayn Bayhaqiy taxminan 994—996-yillar orasida Xurosonning Bayhaq mavzeyida amaldor xonadonida tug'ilgan. Otasi Sulton Mahmudning Seyistondagi nadimlaridan bo'lgan. Uning o'qish va yigitlik yillari Nishopurda kechgan. U avval maktabni, so'ngra Nishopur madrasasini tugatgan, zamonasidagi barcha bilimlarni, jumladan, davlat idorasi ishlarini puxta egallagan. Shuning uchun ham Bayhaqiy 25—26 yoshlarida Sulton Mahmud saroyiga dabirlik vazifasiga, keyinchalik bosh mirzolik lavozimiga ko'tarilgan.

„Siyosatnoma“ hamda „Qobusnoma“ mualliflari dabirning si-fati, burchi hamda vazifalari haqida gapirib, u o‘z davridagi barcha bilimlardan tugal xabardor bo‘lishi, bir necha tilni, xususan, arab, forsiy tillarni mukammal bilishi, *xushsuxan, voz, notiq, xushxat, ishbilarmon, turli davlat elchilarini qabul qila oladigan*, o‘z nutqida *Qur‘oni karim* va Payg‘ambar *hadislaridan* dalillar keltira oladigan va *husnixat egasi*, istagan paytda *chiroyli gapiradigan, she‘r aytib, badihago‘ylikda* boshqalarga ibrat bo‘la oladigan komil inson bo‘lishi kerak, deyishgan. Bayhaqiy ana shun-day fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan yosh arbob edi. Shu-ning uchun ham u‘uzoq vaqt davlat kotibotining boshlig‘i — Mirzoboshining o‘ng qo‘li vazifasini bajardi. Bosh mirzo Abu Nasr Mishkan vafotidan so‘ng bu ishga Abu Saxl Zavzaniy tayinlanadi. Abu Fazl Bayhaqiy Mishkanga yaqin bo‘lgani uchun Zavzaniy uni unchalik xush ko‘rmaydi. Oralarida jiddiy kelish-movchilik bo‘lishiga qaramay Bayhaqiy Sulton Mas‘ud xohishiga ko‘ra Zavzaniy bilan uzoq muddat birga ishlashga majbur bo‘ladi.

Lekin Sulton Mas‘ud saljuqiylarga qarshi janglarda ketma- ket mag‘lubiyatga uchrayverdi. Bayhaqiy Muhammad, Mavdud va Farruxzodalar hukmronligi davrida ham bosh mirzolik lavozimida ishlaydi. Bu orada saroydagi va yuqori harbiy lavozimlardagi fitnalar natijasida bir necha yil hibsdan ham yotadi. „Mas‘ud tarixi“ni rus tiliga mukammal tarjima qilgan mashhur olim A.K. Arends Bayhaqiyning to‘la ijodiy biografiyasini yaratishga intilarkan, uning nima sababdandir ma‘lum vaqt- larda fitnachilarga yon bosganligini ham uqtirgan. Olim va davlat arbobi Bayhaqiy taxminan 1076—1077-yillar orasida vafot etgan.

Bayhaqiy besh sultonlik davrida yashadi va ishladi. Undan 11 yil Mas‘ud saltanati davrida bosh Mirzo muovini vazifasini o‘tadi. Sultonlarning toj-taxt talashi, Zavzaniy bilan doimiy ziddiyat, saljuqiylarning markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritishga intilishi — jiddiy siyosiy kurashlar jarayoni Bayhaqiyning kek- salik yillariga to‘g‘ri keldi; u shaxsan Beruniy bilan ko‘rishgan bo‘lishi mumkin va uning asarlari bilan tanish bo‘lgan.

Ayrim tadqiqotchilar Bayhaqiyning ilmiy, ijodiy merosi 30 jildidan ziyod, deyдилar. Tarix fanlari doktori A.K. Arends esa, olim asarlarining olti jildigina bizgacha yetib kelganini aniqlagan. „Kotiblar ziynati“, „Sabuktegindan sulton Ibrohimgacha bo‘l- gan davr tarixi“, „Tarixlar majmuyi“, „Sabuktegin tarixining

saylanmasi“, „Mas’ud tarixi“ yoki „Bayhaqiy tarixi“ kitoblari shular jumlasidandir.

Afsuski, — deydi Arends, — bu kitoblarning ko‘pchiligi mo‘g‘il istilosigacha bo‘lgan boshqa ilmiy asarlar singari bizgacha saqlanib qolmagan. Ammo ulardan ba‘zilarining nomi yoki parchalari Muhammad Avfiyning „Jome’ ut-tavorix“ (1261), Qozi Minhoji Sirojning „Tabaqoti Nosiriy“ (1333), „Tarixi Hofizi Abro“ (1427), Sayfiddin Uqayliyning „Osor-al-vuzor“ (1430) singari asarlarida tilga olinadi.

Bizga qadar Bayhaqiyning „Mas’ud tarixi“ to‘la saqlanib qolgan. Bu va boshqa asarlarini yozishda olim o‘z tajriba va kundaliklaridan tashqari Mahmud Varroqning bizgacha yetib kelmagan asarlari, Beruniyning „Xorazmning mashhur kishilari“, „Xvataynamak“ („Xudonyma“)ning Ibni Muqafa qalamiga mansub arabcha tarjimai hamda „Qadimgi Ajam shohlari tarixi“ kitoblaridan foydalangan. Bu haqda muallifning o‘zi turli munosabatlar bilan ma‘lumot berib o‘tgan. „Mas’ud tarixi“ni rus tiliga o‘g‘irgan sharqshunos A.K. Arends Bayhaqiyning ijtimoiy kelib chiqishi, uni voyaga yetkazgan madaniy-ilmiy, siyosiy muhit, davlat arbobi sifatidagi faoliyati va nihoyat ijodiy merosi — asarlarining yozilishi tarixi, sanasi, unda qamrab olingan davr hamda voqealar sirasi, olim ijodining o‘rganilishi tarixini xiyla sinchkovlik bilan tadqiq etgan.

Ma‘lum bo‘lishicha, Bayhaqiy „Mas’ud tarixi“da Sulton Mahmudning otasi Sabukteginidan boshlab 50 yillik voqeani qamrab olmoqchi bo‘lgan. Lekin asarning yozilish jarayoni bir tekisda kechmagan. Keyinchalik olim umrining oxirgi yillari voqealarini ham ayrim bob sifatida unga qo‘shgan. Ba‘zan voqealarni roviy nomidan yoki zamondoshlari tilidan: „*U menga shunday deb hikoya qilgan edi*“, „*Men bu voqea tafsilotini undan eshitib edim*“, „*Abu Ali Is’hoqdan shunday eshitib edim*“, singari kiritmalar bilan bayon etadi. Muallif yozganlarining tarixan to‘g‘ri va rost ekanligini bir necha o‘rinda qayta-qayta ta’kidlagan.

Kitob g‘aznaviyalar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishidan tanazzuligacha bo‘lgan davr haqida xiyla puxta ma‘lumot beradi; g‘aznaviy hukmronlarining saltanatdorligi, ularning boshqa o‘lkalar, viloyat hokimlari bilan munosabatlari, jang-u jadallari, turli farmonlar, diplomatik aloqalar aynan hikoya qilinadi, keltiriladi. Ora-sira muallif o‘zidan oldin yashagan



Rudakiy, Abullay, Abu Dulaf, Rumi va o'sha davrda ijod etgan shoirlar, olimlar haqida ma'lumot beradi, she'rlaridan namunalar keltiriladi, xalq orasida keng tarqalgan hikoyat va rivoyatlardan foydalangan, ularga ishora qilingan. Chunonchi, Ali fojiasida Abumuslimning o'ldirilishi eslatiladi. Bu esa kitobning adabiy-badiiy qimmatini, ta'sirchanligini oshirgan, o'qimishli qilgan. „Mas'ud tarixi“ arab, ingliz, fransuz tillariga tarjima qilingan; Kalkutta, London, Qohira, Tehron va Toshkentda chop etilgan. U haqda akademik B. Ahmedovning „O'zbekiston xalqlari tarixining manbalari“ (1992) kitobida ham qisqacha ma'lumot berilgan.

Xullas, Abul Fazl Bayhaqiyning asarlari Xuroson va Movarounnahr xalqlari tarixini, xususan, g'aznaviylar sulolasi saltanatdorligi davri voqealari, madaniy, ilmiy hayotini, xalq turmush tarzini o'rganishda muhim xazinadir.

## GO'ZALLIK OSHUFTASI

G'aznaviylar saltanatdorligi davrining zabardast shoirlaridan biri **Abunajm Ahmad ibn Qavs ibn Ahmad Manuchehriydir**. Manuchehriy Damg'onda tug'ilgan. Uning tavallud yili aniq emas. Ray va Damg'on madrasalarida tahsil ko'rgan. Favqulodda iste'dod sohibi ilm-adab ahli nazariga tushadi, shoir sifatida tez shuhrat qozonadi. Buni sezgan zamon hukmdorlari uni o'z saroylariga jalb etishga intiladilar. Natijada u biroz muddat Ray, Isfahon shaharlarida yashaydi. Keyinchalik G'aznaga kelib, Mas'ud G'aznaviy dargohida ishlaydi va taxminan 1040—1041-yillar orasida shu yerda vafot etadi.

Manuchehriydan bizga qadar unchalik katta bo'lmagan she'rlar devoni meros qolgan. Unda 57 ta g'azal, 11 ta musammat, 20 ta qit'a, 6 ta ruboiy, 30 dan ziyod qasidalar jamlangan. Aftidan shoir zamonasining ko'p davlat arboblari, shoir-ufuzalolari bilan yaqindan do'stlik rishtalarini bog'lab yashagan ko'rinadi. Chunki shoir qasidalari orasida vazir Ahmad binni Abdulsamad, amir Abul Harb Baxtiyor, Sipohsolar Muhammad binni Nasr, Manuchehriy ibn Qobus, Nadim Xoja Abulabbos, Xoja Tohir, Xoja Abulqosim Kassir kabi yigirmadan ortiq zamonasining nufuzli shaxslariga bag'ishlangan asarlar mavjud.

Shoir ijodi o'z davri va undan keyingi asrlarda ancha shuhrat qozongan ekan. Chunki ko'pgina tarixiy asarlar, lug'atlar

hamda tazkiralarda Manucehriyning bir qancha she'rlari uchraydi. Jumladan, doktor Said Muhammad Dabirsiyoqiyning aniqlashicha, „Lug‘atnomayi Asadiy“da 12 bayt, Sururiyning „Majma‘ ul-forsi“da 34 bayt, „Farhangi Jahongiriy“da 106 bayt, „Farhangi Rashidiy“da 40 bayt, Rashiddin Vatvotning „Hadoyiq-us-sehr“ kitobida musammatidan bir bayt she'rlari uchraydi. Demak, Manucehriy asarlari o‘rta asrlar Sharqining barcha ilm-adab ahlining diqqat markazida bo‘lgan. (Devoni Manucehriy Damg‘oniy, uchinchi nashr, Tehron, 2005, 220-bet.)

Manucehriy XI asr forsiy she'riyatida qasida ustalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bu janr shoir devonida yetakchi mavqeni egallaydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qasidalarning aksariyati zamonasidagi sultonlar, amirlar, viloyat hokimlari, vazirlar, yaqin do'stlari, lashkarboshilar, shoirlar vasfiga bag'ishlangan. Bundan tashqari, shoir qasidolari orasida bahor, qish, navro'z, may — sharob — sabuh, soqiy ta'rifiga bag'ishlangan, hasbihol mohiyatidagi she'rlar ham mavjud. „O‘z dushmanlarim va hasadchilarim ta'rifida“ qasidasi shular jumlasidandir. Yuzaki qarashda bu she'rlarning bari madh etilganlar ta'rifi, tavsifidan iboratday ko'rinadi. Ammo har bir qasidani sinchiklab olib qaralsa, botiniy jihatlariga zehn solinsa, ularda muallifning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ma'rifiy, hatto tarixiy mushohadalarini idrok etish, ilg'ab olish mumkin.

Dastlab shuni ta'kidlash lozimki, shoir u yoki bu hukmdorni madh etar ekan, birinchi navbatda uning davlat butunligini saqlash, yurt, xalq osoyishtaligini ta'minlash, ilm-ma'rifat ravnaqi yo'lidagi xizmatlarini bo'rttirib tasvirlashga intiladi. Deyarli barcha qasidalar bahor tavsifi yoki may ta'rifi bilan boshlanadi. Natijada muqaddimadayoq kitobxon shod-u xurramlik, ko'tarinki bir kayfiyatga sohib bo'ladi. Chunonchi, Sulton Mas'udning donishmand, ma'rifatparvar vaziri Xoja Ahmad madhiga bag'ishlangan qasidada quyidagi baytlar muqaddima sifatida keladi:

*Omadat Navro'z-u omad jashni navro'zi faroz,  
Komgoro! Kori geti toza az sar gir boz.  
Lola xudro'y shud chun ro'y bar ro'yon bideh,  
Sunbul andar peshi lola chun sari zulfi daroz.  
Shoxi guli shatranji siyminu aqiqin gashtaast,  
Vaqti shabgiron ba nateh sabza bar shatranj boz.*

*Guliston dar bo'ston chun xusravon orasta,  
Murg'akon chun shoiron dar peshi in bozon faroz.*

(Devoni Manuchehriy, 35-bet.)

(Mazmuni: *Go'zal Navro'z ayyomi keldi, ey baxtiyor, dunyo ishini qayta boshdan qo'lga ol. Xudro'y lola gul yuzlilardek ochildi, sunbul lola nazdida chilvir sochlardaydir. Shatranj gulining shoxlari oltin-u aqiqday tovlanadi, tunlari ko'katlar shatranjdir. Bo'stondagi gullar xusravlardek yasangan, bulbullar bu lochinlar huzurida shoirlardek g'azalxondirlar.*)

Shoir may, bahor, soqiy haqidagi qasidalarida chinakam tabiat oshig'i, hayot kuychisi sifatida namoyon bo'ladi. May — shodlik ramzi, qayg'u-hasrat, g'am-anduhni bartaraf etuvchi, navjuvonlik ruhiyatini baxsh etuvchi vosita, soqiy esa insonlarga xushbaxtlik, xurramlik baxsh etuvchi, go'zallikka intiluvchi, hamisha ko'tarinki kayfiyat sohibi sifatida talqin qilinadi.

Agar shoir sudxo'r va badbin muxoliflari haqidagi qasidasida zamonasi ijodkorlari orasidagi bir-birini ko'rolmaslik, g'alamislik, ig'vo-yu fitnalarni dard-u alam bilan nazm rishtalari orqali ifodalasa, shoir „Ali binni Imron madhi“da o'z iqtidori, Alloh in'om etgan favqulodda san'atkorligidan faxrlanish hislari yaqqol sezilib turadi:

*Ali binni Ibrohim az shahri Musal,  
Biyomad ba Bag'dod dar she'rxoniy  
Bidodash hamonki Rashid Xalifa,  
Ba Musal du-sa badr az zarri koni  
So'i toji imroniyon ham bad inson,  
Biyomad Manuchehri Damg'oniy  
Tu z-on podshohon ham nesti kam,  
Az on podshohon bar tari begumoni  
Agar kamtari tu az eshon ba ne'mat,  
Ba himmat az eshon fuzuni tu doni...  
Va gar kamtaram man az eshon ba ma'ni,  
Az onon fuzunam ba shirin zaboni.*

(Devon, 143-bet.)

(Mazmuni: *Ali binni Ibrohim Musaldan Bag'dodga she'r o'qishga keldi. Xalifa Rashid Musalga ikki-uch dona asl la'l berdi. Manuchehriy Damg'oniy ham imroniyalar poytaxtiga keldi. Sen u podsholardan kam emassan, shaksiz ulardan ustunsan. Agarda*

*sen ulardan ne'matda kambag'alroq bo'lsang-da, himmatda ulardan ustunsan. Men ma'noda ulardan quyi bo'lsam ham, shirinzaabonlikda ulardan yuqori turaman.)*

Katta hajmdagi qasidadan olingan ushbu baytlar ikki jihatdan diqqatga molik: dastlab shuni ta'kidlash lozimki, qasidada ma'lum bo'lishicha, Ali ibn Imron Xalifa Xorun ar-Rashidning saroy shoiri bo'lib, katta obro' va boylikka ega ekan. Soniyani g'aznaviylar saroyiga yaqin turgan Manuchehriy badiiy qudratda — „shirinzaabonlik“da o'zining undan ustun ekanligini faxriya tarzida ta'kid etmoqda. Xalifalik saroyida atoqli shoirlarning yashab ijod qilganliklari ham g'oyatda qiziqarli dalil.

Manuchehriyning o'ndan ziyod qasidalari Sulton Mas'ud vasfiga bag'ishlangan. Ularda, bir tomondan, shoir Mas'udni Mahmud G'aznaviyning munosib vorisi ekanligini madh etsa, ikkinchi tomondan, ma'rifatli, ilm-fan ahli homiysi, tadbirkor, jasoratli hukmdor sifatida „Anushirvoni odil“, „Iskandari Zulqarnayn“larga qiyoslab, shon-shavkatini bo'rttirib ta'riflaydi. Beruniyga maxsus ijodxon qurdirib bergan ham shu Sulton Mas'ud edi. Bu asarlarda aksariyat tarixiy haqiqat to'g'ri badiiy ifodalanganligi uchun ular g'aznaviylar tarixining muayyan qirralarini o'rganishga ham ko'maklashadi. Ya'ni ular ma'rifiy hamda tarixiy ahamiyatga ham molik.

Shoir g'azallari, to'rtliklari, parokanda baytlari hamda ruboiylarida sevgi-muhabbat, insonparvarlik, mardlik, jasorat, axloq-odob masalalari ifodalangan. Agar bir ruboiysida yaxshi tarbiya ko'rgan Mas'udning taxtga o'tirishi tarixi tasvirlangan bo'lsa, boshqa birida sof majoziy ishq aks etgan:

*Dar bandayi az on zulfi band andar band,  
Nolonam az on aqiqi qand andar qand.  
Ey va'dayi fardoi tu pech andar pech,  
Oxir g'ami hijroni tu chand andar chand.*

(Mazmuni: *Band ichida bandli (jingalak) zulflarga bandman, qand ichida qandli aqiq (lab)dan noladaman. Ey, va'dasi hech ichida hech, oxir hijron g'ami qanchadir-qancha?*)

Forsiy tildagi adabiyotda badiiy san'atkorlikda tengsiz (Dabirsiyoqiy) qasida janrining barcha ko'rinishlarida yuksaklikka erishgan adib Manuchehriyning ijodi maxsus tadqiqot olib borishni taqozo etadi.

## O‘Z MAMDUHI O‘QIDAN O‘CHGAN SHOIR

Saljuqiylar davrining „Amirush shuaro“si **Abuabdullohi Muhammad ibn Abdulmalik Muizziy** 1049-yili Nishopurda, olim va shoir Xoja Burhoniddin xonadonida tug‘ildi. Otasi uning tarbiyasini Sulton Malikshoh Saljuqiya (1072—1092-yillarda hukmronlik qilgan) topshiradi. Natijada uning yoshlik yillari bevosita saroyda kechadi. Malikshoh va adolatli vazir Nizom-ul-mulklar unga homiylik qilishadi, madrasada tahsil ko‘radi. Ular vafotidan so‘ng (1092-y) yurtida notinchlik yuz beradi, ilm-ma‘rifat ahli mutaassib ruhoniylar tomonidan quvg‘in qilinadilar. Natijada Muizziy Marv, Hirot, Isfahon shaharlarida darbadarlikda, g‘am-hasrat, muhtojlikda yashashga majbur bo‘ladi. Hokimiyat Sulton Sanjar qo‘liga o‘tgach (1118—1156-yillarda hukmronlik qilgan), uning saroyi atrofida o‘ziga xos adabiy muhit paydo bo‘lib, Muizziy ana shu doiraga „Amirush shuaro“ etib tayinlanadi. Ammo hozirgacha noma‘lum tasodifga ko‘ra shoir homiysi Sulton Sanjar o‘qidan yaralanadi. Bir yildan so‘ng sihat topsa ham, o‘sha jarohat asorati ta‘sirida azob chekib, bemor bo‘lib uzoq yotib, 1127-yili 79 yoshida vafot etadi.

Shoirdan bizga qadar katta hajmdagi she‘rlar devoni saqlanib qolgan. U 18 ming 620 baytdan iborat bo‘lib, 463 qasida, 3 tarkibband, 3 tarje‘band, 1 musammat, 59 g‘azal, 33 qit‘a, 176 ruboiy, 11 vasfiyalardan tashkil topgan. Shoir qasidaları Saljuqi sultonlar, vazir, shahzodalar, nadim hamda malikalar tavsifiga bag‘ishlangan. Uning qasidaları *tag‘azzul*, *taxallus*, *madh*, *talab* va *duo* kabi qismlardan iborat. Shoirning umri, asosan, Malikshoh va Sulton Sanjarlar saroyida o‘tgan. Shuning uchun ham uning qasidalarida shu sultonlar madhi yetakchi o‘rinni egallaydi. Sirdan qaraganda uning qasidaları o‘z mamduhlari shon-shavkatini ta‘riflash, favqulodda mubolag‘alar bilan ular siymosini mukammal ko‘rsatishga qaratilgandek tuyuladi. Ammo har bir qasidaning botiniy jihatiga nazar tashlansa, ularda shoirning dardhasrati, saroydagi ichki ziddiyatlar, adolat bilan zulm, johillik bilan ma‘rifat o‘rtasidagi kurashlar ham o‘z in‘ikosini topganligini sezish mumkin.

Tarixiy dalillardan ma‘lumki, butun umrini Saljuqiylar davlatining mustahkamligi va daxlsizligini ta‘minlash, yurt iqtisodiy qudratini oshirish, ilm-ma‘rifatni rivojlantirishga

sarflagan Nizom-ul-mulk do'stlarining noravobinligi, saroydagi o'zaro nifoq va amalparastliklarning qurboni bo'ladi. Ammo Muizziy yaqin do'sti, doimiy homiysi, yurt-u davlatning pusht-u panohi, donishmand vazirning fojiali halokati munosabati bilan marsiya — qasida yozadi. Bu she'r, bir tomondan, Muizziy dunyoqarashini naqadar insonparvarlik bilan yo'g'rilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, Nizom-ul-mulkning qanday tarixiy shaxs ekanligi ko'z o'ngingizda badiiy namoyon bo'ladi: u adolatpesha, raiyatparvar, beva-bechoralar-u ilm-adab ahlining suyanchig'i, peshvosi sifatida ta'riflanadi: „Xalq unga umid ko'zini tikkan edi“, deydi:

*Du chashmi javr zi adli tu dar shudast baxob,  
Shavad bo amni tu ohubara nadimi hajabr.  
Shavad ba farri tu tayhubacha qarini uqob,  
Zi ahli she'r-u adab har kujo nakusuxan ast,  
Tui musannifi she'r-u muallifi odob.*

(Mazmuni: *Sening adling tufayli zulmning ikki ko'zi uyquga ketgan. Sening amniyating tufayli ohu bolasi ham babrga xizmatkor. Qayerdakim she'r-u odob ahli haqida gap ketsa, Sen ana shu she'rning ijodkori-yu odobning muallifi hisoblanasan.*)

Shoir qasidasida ana shunday buyuk insonning qabihlar qo'li-dan halok bo'lganiga afsus-nadomat chekadi, go'yo yer yuzida adolat quyoshi so'nib, zulmat bulutlari olamni qoplab olganday bo'ladi.

*Tu budi roziqi rizqi man,  
Duro'g'i tangdastonro xaridor.  
Turo donam nakusht on k-o' turo kusht,  
Ki rizqi mardumonro kusht nochor.  
Dari ro'zi bubastu rohi shodi  
Sari davlat buridu, dasti miqdor.  
Daraxti judro barkandu afkand,  
Saxoro bexu baxshishro nagunsor.*

(Mazmuni: *Sen zamona ahlining rizq ulashuvchisi eding. Beva-bechoralarning dodiga quloq tutarding. Qotillar seni emas, balki bechora xalqning nasibasini o'ldirdi. Ular (bu bilan) kishilar rizqi va shodlik eshigini berkitishdi. Ular davlat boshini kesib, saxovat qo'lini sindirishdi, ehson va in'om tanasini yer bilan yakson qilishdi.*)

Qasidaning boshidan oxirigacha adolat va ma'rifat, insonparvarlik hamda vatanparvarlik olqishlanib, zulm-zo'rlik, xiyonatkorlig-u munofqlik, gina-advovat, amalparastlig-u takabburlik qattiq la'natlanadi.

Umuman, Muizziy qit'a, ruboiylarida ham ana shunday ichki dard, teskari aylanuvchi g'addor falakdan nolish, uning zolimlarga no'sh berib, adolat va ma'rifat ahliga nish uradigan fe'li yomonlarni la'natlash, zamondosh hokim va kiborlarni insof, muruvvatga chorlash hiyla kuchlidir:

*Ey charx! Kamar maband bar kinai man,  
Bigzor haqi xizmati derinai man.  
Osoishi sinai maro darmon kun,  
K-osoishi sinahost dar sinai man.*

(Mazmuni: *Ey falak! Mening qasdimga kamar bog'lama, O'tmishdagi xizmatlarim haqqini hisobga ol. Siynamning osoyishiga malham bo'l, Zeroki, unda ko'plab menga o'xshaganlar osoyishi jamlangan.*)

Aftidan, bu ruboiy hasbihol xarakteriga ega. Chunki unda shoirning bevosita o'zi olgan jarohatga malham bo'lish xususi-dagi iltijo o'z ifodasini topgan. Mashhur chex sharqshunosi Yan Ripka Muizziy qasidalarida Unsuriy, Farruhiy, Asjadiylar ijodining ta'siri, an'anasi sezilsa-da, u qasida janrini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tara oldi, shoirning asarlari „sahli mumtano“ (oson-u nomumkin) usulida yozilgan bo'lib, betakror badiiy sodalilik, ravonlikka ega, deb yuksak baho bergan. Amir Muizziyning *g'azalsaro* va *qasidago'y* sifatidagi san'atkorlik mahorati maxsus tahlil etishni talab qiladi.

Quyidagi baytlarda esa shoir ijodining yuksak ijtimoiy ruhi yanada mukammal, o'tashin bir tarzda o'z aksini topgan. Ularda bir umr saroy doirasida yurib, hayotining gul faslini zodagonlarga, davlat ishlariga sarflagan san'atkorning teskari aylanuvchi falak badkirdorligini ro'y-rost tanqid ruhi ancha baland:

*Alo, ey gardishi garduni davvor,  
Nadoni juz badi kardan digar kor.  
Nagardi rom bo kas dar zamona  
Nabandi dil ba mehri hej do'st, yor.  
Guro'hero namoi shodmoni  
V-az dur dori ranj-u ozor.  
Pas on gah nogahon dude barori,  
Az on dud ba dard-u dog'u temor.*

(Mazmuni: *Ey, aylanib turuvchi falak! (Xalqqa) yomonlik qilishdan o'zga ishni bilmaysan. Zamon ahliga aslo rom bo'lmaysan, hech bir kishiga ko'ngil bog'lamaysan. Bir guruh odamlarni shod etib, ulardan g'am, hasratni yiroq tutasan. Qo'qqisdan shunday otashli tutun chiqarasanki, undan ko'pchilik dard-u g'amga giriftor bo'ladi.*)

Demak, Muizziyning ko'plab she'rlari, xususan, qasidalari oddiy vasf, ta'rif-tavsif bo'lmay, ularda lirik qahramonning ijtimoiy, siyosiy, falsafiy qarashlari, zamona ziddiyatlari haqidagi xolisona, peshqadam fikrlari, xulosalari mujassamlashgan. Shoir asarlarini mutolaa qilgan kitobxon yuksak badiiy qoniqish hosil qilish bilan birga saljuqiylar davridagi ijtimoiy hayot, ma'naviy-ma'rifiy jarayon, tarix, turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar haqida ham olamjahon ma'lumotlar oladi. Shoir ijtimoiy-siyosiy, real voqealarni lo'nda, mukammal tarzda she'rda ifodalay olgan san'atkordir. Ularda davr dardi, zamona ruhi badiiy muhrlangan. Barcha mutaxassislar Amir Muizziyni forsiy tildagi she'riyatda vasfning eng mumtoz namunalarini yaratgan san'atkor sifatida baholaydilar. Shoirning devoni Abbos Iqbol harakati bilan 1930-yili mukammal tarzda Tehronda chop etilgan. Professor A. Abdullayev hamda dotsent R. Abdullayevlar shoirning hayoti, faoliyati hamda ijodiy merosi xususida maxsus tadqiqotlar yaratishgan.







## MA'RIFATPARVAR VAZIR VA OLIM

Ko'hna Sharq madaniyati tarixida shunday buyuk siymolar borki, ular xalq, ilm-fan, ma'rifat yo'lida jonini fido qilgan, jaholat va razolatga tik qarshi borgan. Nizom-ul-mulk ana shunday ulkan ma'naviyat va siyosat arboblariidan biridir.

**Abu ali Hasan ibn Ali ibn Is'hoq Nizom-ul-mulk** 1017-yili Xurosonning Tus viloyatida amaldor oilasida tug'ildi. U o'z davrining til, adabiyot, siyosat, falsafa, riyoziyot, huquqshunoslik, nujum va boshqa bilimlarini egallaydi. Nizom-ul-mulk saljuqiy hukmdor Alparslon va keyinchalik Malikshoh Saljuq saroyida xizmat qilib, vazirlik darajasiga ko'tarildi. Uning davrida barcha katta shaharlarda maktablar ochildi, yangi madrasalar qurildi; ilm-fan, madaniyat tez ravnaq topdi; olim va adiblarga davlat hisobidan maxsus maosh tayinlangan, ularga ijodxonalar qurib berilgan. Isfahon rasadxonasi bevosita olimning rahbarligi va mablag'i hisobiga barpo etildi.

1079-yilning 15-martidan mashhur olim va shoir Umar Xayyom hamkorligida tuzilgan yangi taqvim joriy qilinadi. Ana shu taqvim G'arbiy Yevro'pada Papa Grigoriy XIII tomonidan 1582-yili joriy etiladi. Ammo 1090-yili Malikshohning mahrami Tojulumluk va xotini Turkonxotun fitnasi tufayli Nizom-ul-mulk hibsga olinadi va 1092-yilning 15-oktabrida Bag'dod safarida, yo'lda o'ldiriladi. Uning jasadini Isfahonga dafn etiladi.

Davlat arbobi va ma'rifatparvar adib Nizom-ul-mulk XI asr Eron-u Xuroson ilmiy, madaniy va siyosiy hayotida juda katta mavqega ega edi. Uning xayrixohligi, moddiy ko'magida o'nlab shoir va adiblar balog'at nuqtasiga yetdilar. O'zi ham rasadxonada ilmiy kuzatishlar olib borib, ko'plab ilmiy risolalar yozgan, ammo bizga qadar uning faqat „Siyosatnoma“ asari yetib kelgan. Bu asar Sharq siyosatshunosligida davlatni boshqarishga doir ilk maxsus kitobdir. Unda *shoh, qozi, vazir, lashkarboshi, elchi, xazinabon, saroy amaldorlari, bosh qo'mondon, lashkarboshilar, devonbegi* hamda boshqalarning vazifalari, *hunarmandlar, savdogarlar* keng xalq ommasi bilan munosabat, qo'shin va qurol-yarog'ni saqlash, ulardan maq-

sadga muvofiq foydalanish, fuqaroning arz-dodini eshitisht, soliqnlarni tartibga solish, uning undirilishini nazorat qilish, mamlakatning butunligi, davlatdorlarning *adl-u insofi, himmat, ehson, to'g'rilik, xayrixohlik, ma'rifatparvarlik, inson — do'stlik, raiyatparvarlik* haqida ellik faslda adolatpesha siyosatdon sifatida fikr yuritadi. Hatto, yozgan ayrim hikoyatlari orqali amaldorlarni xususiy ishlarda, qullari, xizmatkorlarini jazolashda ham qonunga, yuksak axloq me'yoriga rioya qilishlarini uqtirgan; jamiyat taraqqiyotida amaldorlarning halolligi-yu pokligining muhim omilligini qayd etgan. Bunda u 27 yillik vazirlik faoliyati davomida orttirgan tajribasiga suyanadi; har bir mulohazasining isboti uchun Doro, Iskandar, Bahrom Go'r, Anu'shironi Odil, Ismoil Somoniy singari o'tmishdagi shohlar, xalifalar, vazirlar, davlat arboblari faoliyatidan qiziqarli, ibratomuz hikoyatlar keltiradi. Nizom-ul-mulkning fikricha, davlat boshlig'i donishmand, tadbirkor, ma'rifatli bo'lishi, yurtni olimlar kengashi maslahati bilan, qonun asosida, o'tmish davlatdorligining ilg'or tajribalaridan foydalangan holda boshqarishi zarur; shoh-u qozining hukmi odil bo'lmog'i lozim.

„Siyosatnoma“da saljuqiylar saltanatdorligi, Sharqda turli davrlarda yuz bergan xalq g'alayoni-yu qo'zg'olonlari haqida qimmatli ma'lumotlar bor. U XI asr Eron-u Xuroson xalqlarining tarixini, turmush tarzini, forsiy tildagi nasr tarixini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Zeroki, Nizom-ul-mulk o'z siyosiy, ijtimoiy, axloqiy, falsafiy qarashlarini nuktdon yozuvchi sifatida g'oyatda nafis, turli-tuman badiiy-tasviriy vositalar orqali ifodalagan. Ibrat tariqasida keltirilgan hikoyatlar mumtoz va jozibdir. Hikoyatlardan oldin yoki so'ng Hasan Basriy, Sofvon Suriy, Fuzayl, Abu Ali Daqqoq, Abu Ali Ilyos, Luqmon, Ibn Ammor, Boyazid Bastomiy, Junayd Bag'dodiy singari donishmandlarning hikmatlaridan keltiriladi. Masalan, „Anushiron va 90 yashar bog'bon“, „Xusrav va sozanda“, „Bahromi Cho'bina va Parviz“ hikoyatlarida rostgo'ylik, halollik, mehnatsevarlik, chin e'tiqod, vafo hamda sadoqat, baniy odamiga yaxshilik qilish, rost gapning foydasi targ'ib etiladi.

Shunisi xarakterliki, „Siyosatnoma“da eslatilgan yuzlab *tarixiy shaxslar, joy nomlari, atamalar, din, san'at, tarix, musiqa, axloq, hikmat, hadis, tasavvuf, falsafa, tabiiy fanning barcha sohaları* Yaqin va O'rta Sharq xalqlari tarixi-yu geog-

rafiyasi, madaniyati-yu musiqasi, aqidasi-yu axloqini o'rganishga ko'maklashadi. Ularning sharhi va izohining o'zi katta bir risola bo'ladi.

Kitob o'tmishda arab, ingliz, nemis, fransuz tiliga tarjima qilinib, asl nusxasi chop etilgan. 1949-yili uni yozuvchi va olim B.N. Zaxoder rus tiliga mukammal izohlar bilan to'la tarjima qilgan. „Siyosatnoma“dan ba'zi hikoyatlarni B. Ahmedov o'zbek tiliga o'girib, „Ajdodlar o'giti“ (1991) to'plamiga kiritgan.

Ahamiyatli tomoni shundaki, „Siyosatnoma“ Sharq xalqlari nasrida, xususan, kichik hikoya janrida an'ana va o'ziga xoslik masalasini o'rganishda birinchi manba hisoblanadi. Zeroki, kitobda uchraydigan Anushirvoni Odil, Xusrav Parviz, Borbad, Bahromi Cho'bina, Sulton Mahmud va Qozi, Sulton Mahmud va Kampir, Ismoil Somoniy va amaldorlari xususidagi o'nlab hikoyalar keyingi asrlarda yaratilgan turli asarlarda uchraydi. „Jome'-ul hikoyot“ (XIV asr), Xondamirning tarixiy asarlari, Poshshoxo'janing „Gulzor“ va „Miftohul adl“, Koshifiyning qator kitoblarida (XVI asr) aynan yoki qisman o'zgartirishlar bilan kelgan. Demak, bu hikoyalarni Nizom-ul-mulk xalq ijodidan olib, o'z kitobiga kiritgan. Natijada o'sha mazmun va mavzu asardan asarga ko'chib, sayyor hikoyatlarga aylangan.

Ilm-u urfon homiysi, nujum ahli peshvosi, adib, Sharq davlatshunosligi nazariyasining asoschisi Nizom-ul-mulkning faoliyati va „Siyosatnoma“ asari fan tarixida, xususan, huquqshunoslik tarixida eng yorqin sahifalar bo'lib qolaveradi. Asarni „Adolat“ nashriyoti A.Erkinov va Shodmon Yusuf tarjimasi bilan 1997-yili chop etdi.

## RIYOZIYOTSHUNOS FAYLASUF

Yulduzlar asrori haqidagi bahs yarim tungacha davom etgani uchun do'stlar dong qotib uxlab yotishardi. Tong saharlab darvoza taqilladi. Sohibi xona eshikni ochdi:

— *Ustoz qani, ustozni chorlang*, — o'pkasi to'lgancha ichkari-ga otildi kelgan odam.

Bu orada hamma shoshib uyg'onib, yuz-qo'lini yuvishga ulgurdi.

— *Tez bo'linglar, bu yerda qolish xayfli! Olomon rasadxonani buzdi, xizmatkorlarni ur-kaltak qilishdi. Nizom-ul-mulkni*

*hibsga olishdi*, — gapida davom etdi ko‘z yoshlarini artaturib haligi kishi.

— *Ustoz, hozir karvonsaroydan bir guruh ulamolar hajga jo‘namoqchi, ularga qo‘shilib Makka tavofiga bormoq joiz*, — maslahat berdi do‘stlardan biri.

To‘rtovlon shoshilinch shahar chetidagi karvonsaroyga borib, izdihomga qo‘shilib, haj yo‘lini tutdilar.

Bu ustoz mashhur riyoziyotshunos olim, faylasuf shoir Umar Xayyom edi.

**G‘iyosiddin Abdulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom** 1048-yili Nishopurda hunarmand (xaymado‘z) oilasida dunyoga keldi. U yoshligida Balxga kelib, o‘sha davr ulamolaridan bo‘lmish Muhammad Mansur qo‘lida tarbiya ko‘radi. Saljuqiylarning tojtaxt uchun kurashi kuchaygan bir paytda Umar Xayyom Balxni tark etib, avval Samarqand qozikaloni Abutohir panohida, so‘ngra esa Buxoro hokimi Shamsulmulk Qoraxoniy dargohida yashaydi. Umar Xayyom 26 yasharligida saljuqiy hukmronlardan Jaloliddin Malikshoh va uning ma‘rifatparvar vaziri Nizom-ul-mulk taklifiga ko‘ra Isfahonga kelib, rasadxona tashkil etishga kirishadi. Demak, bunga qadar Xayyom *astronomiya, geometriya, matematika, geografiya, fizika, kimyo* fanlari bo‘yicha barkamol olim darajasiga yetgan edi. Bundan maqsad Yazdigurd III davrida, ya‘ni 632-yili joriy etilgan Zardushtiylik yil sanasini isloh qilishni boshlash edi. 1074—1079-yillar Abuhotam Muzaffar Isfizoriy, Abulabbos Lukariy, Abdurahmon Haziniy, Maymun ibn Najib Vositiy singari olimlar Xayyom boshchiligida nisbatan yangi, mukammal yil taqvimini ishlab chiqadilar. 1092-yili Malikshoh vafot etgach, u qurdirgan rasadxona, madaniyat o‘choqlari yer bilan yakson etiladi, Nizom-ul-mulk o‘ldiriladi. Xayyom kasbdoshlari bilan hajga borib, qaytishda saljuqiylarning yangi poytaxti Marvga ketishga majbur bo‘ladi. Umrining oxirgi yillarini Nishopurda o‘tkazgan Xayyom 1131-yili vafot etadi. Buyuk olim va shoir ijodining ishqibozlari uning qabri ustida muhtasham maqbara bunyod etishadi.

Umar Xayyom Sharq-u G‘arbda ulkan olim, betakror san’atkor sifatida necha asrlardan beri e‘zozlanib kelingan. Zeroki, Xayyom shoir sifatida forsiy tildagi she‘riyatda ruboiy janrini yangi taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘tardi. U o‘z ruboiylarida hayot va koinot, inson va tabiat, borliqning hududsizligini, go‘zallikka, hayotga munosabat, imon-e‘tiqod, yashash, xush-

chaqchaqlik, g'am-hasratni daf etish vositasi bo'lgan may haqida mushohadalar yuritdi. U razolat va jaholatni, riyokorlig-u dilozorlikni, mo'minlarning bekorga qonini to'kilishini qoraladi, ilm-ma'rifat, aql-zakovat-u komil insonni ulug'ladi. Shoirning aqidasicha, dunyoning samari bo'lgan inson o'z umrini shod-u hurramlilik bilan o'tkazmog'i, har jihatdan kamolot sari intilmog'i zarur; mayni, tavsif etishdan maqsadi umrini xush o'tkazishga da'vatdir.

*Dunyoning tilagi, samari ham biz,  
Aql ko'zin qorasi — javhari ham biz.  
To'garak jahonni uzuk deb bilsak,  
Shaksiz uning ko'zi — gavhari ham biz.*

Umar Xayyom ruboiylarida ishq va hayotni jo'shqin madh etish bilan birga insonparvarlik, ma'rifat, kasb-korni targ'ib etdi. Bir ruboiysida „tok qonini ichadigan“ komil insonni „odam qonini so'radigan“ zolim, riyokor muftiga qarshi qo'ysa, bir qancha to'rtliklarida inson tafakkuri qudratini ulug'laydi, haqiqiy ma'rifatni olqishlaydi, do'stlik, birodarlikni tarannum etadi; pand-nasihat beradi:

*Do'stlar inoqlikda bo'lingiz obod,  
Tez-tez diydor ko'rib, eting dilni shod,  
Soqiy toza mayni suzganda aylang —  
Men bechorani ham duo birla yod.*

*Bir kun kelar ekan qo'lingdan zinhor,  
Azizlar xotirin shod et, ey dildor.  
Nokasdan sir berkit, tilingni bog'la,  
Ablahdan yashirin bo'lmoqqa chog'la.*

Xayyom ruboiylarida *kulol*, *ko'zagar*, *xumdon*, *g'isht quyuvchi*, *hunarmand* obrazlari, uning ish jarayoni bilan bog'liq lavhalar ham ko'p tilga olinadi. Avvalambor, ular san'atkor g'oyaviy niyatini ifodalaydigan bir vosita, uning ilmiy-falsafiy qarashlari, moddiy olamning azaliyligi haqidagi mushohadalarini in'ikos ettiradi. Chunonchi, inson tug'iladi (diniy aqidaga ko'ra uning asl moyasi tuproqdan yaratilgan), ma'lum zamon va makonda yashaydi. Oxir-oqibat o'lgach, yana tuproqqa aylanadi; shoh ham, gado ham, xunug-u go'zallar ham bir. Kulol o'zining ham shu holga aylanishidan bexabar, loyni tepkilab, mushtlab ko'za, idish yasaydi:

*Bozorda bir kulol ko'rsatib hunar,  
Bir bo'lak xom loyni tepib pishitar,  
Loy ingrab aytadi: hoy, sekinroq tep,  
Men ham kulol edim, sendek birodar.*

Ma'lumki, Sharq klassik she'riyatida *may* va *rind* obrazi an'anaviydir. Umar Xayyom ana shu azaliy timsollardan o'zgacha bir mahorat, o'ta jo'shqinlik, ko'tarinkilik bilan foydalangan. Shoir mayda — hayot ramzi, xushchaqchaqlik omilini ko'radi. U shoir uchun zamon jabri, turmush aziyatlarini unutish, nobop, munofiq kishilar diydoridan yetadigan malollikni unutish, bahor nashidasi-yu go'zallar yanog'ining taftini xotirada tutish, samimiy do'stlarning qaynoq suhbatu-yu gul gashtini qo'msash vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ham kishini badmast qiladigan, og'zidan nobop so'z chiqishga, noloyiq ishlarga qo'l urishiga sabab bo'ladigan sharobxo'rlikni qattiq qoralaydi. Xayyom zabardast olim sifatida *geometriya*, *trigonometriya*, *algebra*, *din*, *madaniyat*, *musiqaga* doir 15 ta ilmiy risolalar yaratgan. Ulardan „Ziji Malikshohiy“, „Navro'znoma“, „Risola fil baroxim alo masoxil al-jabr val muqobala“, „Risola fi sharhi mo ashkala min musodarot kitobul Iqlidis“, „Mushkilot ul hisob“, „Risola fi kulliytul vujud“ hamon o'z qimmatini saqlab kelmoqda. Bu risolalarida Xayyom, bir tomondan, qadimgi yunon olimlarining aniq fanlarga doir kitoblaridagi nazariy fikrlarni arab tilida mukammal sharhlay, ikkinchi tomondan, tenglamalar haqidagi fikrlarni davom ettirib, fizik, geometrik va trigonometrik tenglamalarning *modullarini* topdi. Umuman, Xayyomning matematika, geometriya va trigonometriya sohasidagi nazariy fikrlari, kashfiyotlari (xususan, to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak, to'g'ri chiziq va kesma chiziq), xulosalari astronomiya, me'morchilik keng taraqqiy eta boshlagan o'sha davr talabiga mos aks sado sifatida vujudga kelgan edi.

Umar Xayyomning „Navro'znoma“ asari juda katta tarixiy, ma'rifiy ahamiyatga ega. Zeroki, unda muallif Sharq xalqlarining qadimiy udumlarini, xususan, Navro'zning xalq bayrami sifatida rasm bo'lishi tarixini batafsil yoritgan, u bilan bog'liq naql-u rivoyatlarni keltirgan. „Navro'znoma“ omiyona til — xalq jonli tiliga yaqin bir ibora ifodalarda yozilgani uchun yengil o'qiladi. U XII asr forsiy tildagi nasrning eng yaxshi namunasi hisoblanadi.

Xayyom ruboiylari oʻrta asrlardan beri ilm-fan, adabiyot va sanʼat ahlini sehrlab kelmoqda. Uning Jaloliddin Rumiy, Pahlavon Mahmud kabi payravlari paydo boʻldi. Shoir asarlarining dunyo tillariga sheʼriy, nasriy tarjimalari, sharhlari yaratildi. Amerikada Xayyom ruboiylari asosida teatrlashtirilgan sahna asari, Londonda maxsus xayyomxonlar saroyi mavjud. Ularda shoir ruboiylari ham aslida, ham tarjimasida badiiy soʻz ustalari, mashhur notiqlar tomonidan qiroat qilinadi, ijro etiladi. Bu saroylarga kirish pattalari bir necha hafta oldin sotib boʻlinadi. Sharqda bunday sahna asari — „Oʻz-oʻzim bilan suhbat“ Tojikiston xalq artisti Mahmudjon Vohidov tomonidan yaratildi, tasmaga hamda gramplastinkaga yozildi. 1976-yili Mahmudjon Vohidov Pokiston, Eron va Iroq mamlakatlari boʻylab ijodiy safarga chiqadi. Mashhur sanʼatkor Pokiston va Erondagi hashamatli sanʼat saroylarida xayyomxonlik qiladi, sheʼriyat muxlislari uni oyoqda tikka turib, qarsaklar bilan olqishlaydilar. Lekin mutaassib kishilar ruboiylardagi „xudo“, „mufti“, „soʻfi“, „tangriga xitob“larni notoʻgʻri talqin etib, uning iziga tushadilar. Iroqqa kelib, Bagʻdod mehmonxonalaridan birida tanho yashayotgan Mahmudjon Vohidovni nomaʼlum shaxslar toʻrtinchi qavatdan tashlab yuboradilar. Hamrohlari safardan uning oʻligini keltiradilar. Lekin hamon sanʼatkorning jozibali, mayin ovozi Xayyom ruboiylarini vatanidagi har bir xonadonga olib kirmoqda.

Xayyom ijodiy merosi oʻtgan asrlardanoq oʻzbek adabiyoti muxlislarning diqqatini oʻziga jalb etib kelmoqda. Jumladan, 1914-yili „Shoʻro“ jurnalining bir necha sonida bir qancha ruboiy toʻliq ilmiy sharhi bilan nasriy tarjimada eʼlon qilinadi. Keyinchalik Fitrat, O. Sharafitdinov va Abdurahmon Saʼdiylarning maqolalari hamda Fattoh Abdullayev 14 ta ruboiyning oʻzbekcha sheʼriy agʻdarmasi chop etdi. Ammo shoir ruboiylarini oʻzbek kitobxonlariga yaqinlashtirishda mashhur sharqshunos, professor Shoislom Shomuhamedovning xizmatlari beqiyosdir. Zahmatkash ustoz dastlab „Umar Xayyom“ risolasini (1963-y.) yozdi, keyin esa 300 dan ortiq ruboiylarni mahorat bilan oʻzbekchalashtirdi. Bu tarjima hozirgacha uch marta chop qilindi. Zukko oʻzbek ilm-adab ahli orasida Xayyomdan gap ketsa, albatta, kimdir shoir ruboiylaridan beixtiyor namuna oʻqiydi. Bu esa, buyuk shodlik kuychisining xalqimiz orasida nechogʻlik ardoqlanishining nishonasidir.

## Xayyom hikmatlaridan

Bir so‘ngakka sordek qanoat qilg‘on,  
Afzaldir nokasga bo‘lgandan mehmon,  
Nokasning shinnilik nonidan yaxshi,  
O‘zing topib yegan burda arpa non.

\* \* \*

Tokay pastlar xizmatin etasan bajo,  
Har yemishga pashshadek qilma jon fido,  
Bir nonni ikki kun ye, tortma hech minnat,  
O‘zga nonidan o‘z dil qoning ko‘p a‘lo.

\* \* \*

Bir non topib, agar yesang ikki kun,  
Siniq ko‘zang bo‘lsa suv ichmak uchun,  
O‘zingdan pastlarga yollanmoq nega,  
O‘zingdek xizmatin qilmoqlik nechun.

\* \* \*

Xushvaqt bo‘l, g‘ussaning cheki yo‘q bir on,  
Bu charx yulduzlarga soladi qiron.  
Sening tuprog‘ingdan yasalgan g‘ishtlar,  
Bo‘lar o‘zgalarga manzil-u makon.

\* \* \*

Nokasdan sir berkit, tilingni bog‘la,  
Ablahdan yashirin bo‘lmoqni chog‘la.  
Kishilar joniga o‘z qilmishin ko‘r,  
Sen ham shunga ko‘z tut, shuni so‘rog‘la.

\* \* \*

Dil uning dardiga to‘lsa yaxshidur.  
Bosh yo‘lin tuprog‘i bo‘lsa yaxshidur.  
G‘am tig‘in do‘st o‘tsa, unga ranjima,  
Har narsa do‘stingdan kelsa yaxshidur.

\* \* \*

Har sirni dilida saqlasa dono,  
U yashirin bo‘lsin misoli anqo,  
Sadafning ichida qatra dur bo‘lur,  
Sir qilib qalbida yashirgan daryo.



## TIL BILIMINING DONISHMANDI

... Kemaga tushib, Ila daryosida suzib borayotganimizda o'ng tomonda uzoqda bir quruqlik — manzilgoh ko'zga tashlandi. Uyg'urlar yurtiga ketayotgan bo'lsak-da, kemani o'sha tomonga burdik. Odamlar bizni yaxshi kutib olishdi. Keyin bilsak, bu yer Mingloq eli ekan. Hozirgacha uni hech kim bilmas edi:

Kema ichra o'tirib,  
Ila suvin kehdik biz.  
Uyg'ur tomon yuzlanib,  
Mingloq elin ochdik biz.

Mazkur fikr Mahmud Koshg'ariyning „Devon-u lug'otit turk“ („Turkiy so'zlar devoni“) kitobida zikr etilgan. XI asrda yashab ijod etgan **Mahmud Koshg'ariy**ning hayoti va ijodiy faoliyati haqida yetarli ma'lumot saqlanib qolmagan. Uni taxminan 1029—1030-yillar orasida tug'ilgan, degan fikr mavjud. Olimning to'liq ismi Mahmud ibn Muhammad Koshg'ariy. Buvasi Muhammad va otasi Husayn Koshg'ardagi Beregon shahridan bo'lib, o'z zamonasining donishmandlaridan bo'lgan. Koshg'ariylar oilasi Bolosog'unga (hozirgi Qirg'izistonning To'qmoq shahri) ko'chib kelishganda Mahmud hali yosh bola edi. Bo'lajak olim bu madaniy va ilmiy markazda qunt bilan o'qiydi, arab, fors tillarini o'rganadi. U Samarqand, Buxoro, Marv, Nishopur shaharlarida bo'lgan, Buxoro madrasalarida tahsil ko'rgan. Mahmud yoshligidan xalq jonli tilidagi so'z va iboralarni, hikmatli so'z, maqollarni yozib yuradi, ularni sharhlash, ma'nosini anglashga intiladi. Ana shu qiziqish tufayli u turkiy xalqlar tarixi, tili, urf-odatlarini puxta o'rganish maqsadida butun O'rta va Kichik Osiyoni kezib chiqadi. Bag'dod shahriga kelib, arab tili va adabiyotini chuqur o'rganadi, arabshunoslarning ilmiy ishlarini kuzatadi. Keyinchalik ana shu to'plagan dalillari asosida o'z davrining eng cho'ng olimi bo'lib yetilgan Mahmud Koshg'ariy „Javohirunahvi fi lug'otit-turk“ („Turkiy tillarning sintaksisi qoidalari“) va „Devon-u lug'otit turk“ asarini yozgan. Olimning birinchi asari yo'qolgan yoki hali topilmagan. Mahmud Koshg'ariyning 1072—1078-yillar orasida yozilgan „Devon-u lug'otit turk“ asari muqaddima va lug'atdan iborat. Muqaddimada olim

soʻzlarning tuzilishi, turk qabilalari tabaqalarining nomini, turk tillarining bayonini beradi.

Mahmud Koshgʻariyning bu asari oʻsha davrdagi Oʻrta Osiyo xalqlari tarixi, turmushi, madaniyati, urf-odatlarini, adabiyotini oʻrganishda eng noyob manbadir. „Devon-u lugʻotit turk“da turkiy xalqlardan tashqari arab, fors, xitoy, rus xalqlari haqida ham maʼlumot bor.

„Devon-u lugʻotit turk“ asarida turkiy xalqlar ogʻzaki ijodi va yozma adabiyotiga doir 300 dan ziyod sheʼriy parchalar, maqollar, hikmatli soʻzlar va lavhalar berilgan. Bu namunalar mavzuyi, gʻoyaviy yoʻnalishi va badiiyligi jihatdan rang-barang boʻlib, qadimgi turkiy xalqlar ogʻzaki ijodini, ayrim lirik tur janrlarini, hatto baʼzi adabiyotshunoslik atamalarini tarixini oʻrganishda katta ilmiy ahamiyatga molik. „Devon“ning beqiyos qimmatini yana shundaki, olim oʻz asariga dunyo xaritasini ilova qilgan. Oʻz xaritasi va unda qabilalarning joylashtirilishi haqida olim quyidagilarni yozadi: *„Sharqdan boshlab har bir qabilaning turar joylarini birin-ketin tartib bilan koʻrsatdim. Rumdan kun chiqargacha musulmon va boshqalarini koʻrsatdim. Rumga yaqin birinchi qabila beyenen, soʻng qipchoq, oʻquz, yaman, boshgʻirt, basmil, soʻng qaoʻ, soʻng yabaqu, soʻng tatar, soʻng qirgʻiz keladi. Qirgʻizlar Chin yaqinidadir. Bu qabilalarning hammasi Rum yaqinidan kun chiqar tomonga choʻzilgandir. Soʻng chigil, soʻng tuxsi, soʻng yagʻma. Xitoy „Chin“dir. Soʻng-ra tavgʻach: bu „Mochin“dir. Bu qabilalar Janub va Shimol oʻrtasidadir. Bu qabilalarning turar joylarini bu doirada koʻrsatdim“.*

Mashhur geograf olim, professor Hamidulla Hasanovning aniqlashicha, Mahmud Koshgʻariy oʻz xaritasida yer yuzining markazini Oʻrta Osiyoga — ona yurti Issiqkoʻl bilan Bolosogʻun oraligʻida boʻlgan yerlarga toʻgʻrilagan. Oʻsha davrlarda tuzilgan xaritalarda yer yuzi odatda Islom markazi Makka va Madinadan boshlanardi. Mahmud Koshgʻariyning ana shu anʼanani oʻsha davrda buzishi katta jasorat va ibratlidir.

Mahmud Koshgʻariyning „Devon-u lugʻotit turk“ asari davr taqozosiga koʻra arab tilida yozilgan. Uni nemis olimi Karl Brekkelman 1928-yili nemis tiliga, sharqshunos Bosim Ataloy 1939-yili turk tiliga tarjima qilgan. Asar ozarbayjon tiliga ham tarjima qilingan. 1960—1963-yillari esa S.Mutallibov uni oʻzbek tiliga oʻgirdi. Undagi soʻz va iboralarning izohli lugʻatini tuzdi,

maqol va hikmatli soʻzlarni toʻplab nashr etdi. Sheʼrlarni esa Aziz Qayumov tarjima qilgan. Mashhur rus sharqshunosi V. V. Bartold taʼkidlaganidek, „*Mahmud hayot voqealarini, fakt va dalillarni oʻz koʻzi bilan koʻrib, bilib yozgani uchun*“ bu asar hamon oʻzining ilmiy, tarixiy, maʼrifiy qimmatini saqlab kelmoqda.

### „Devon-u lugʻotit turk“dan

Eshitib, ota-onangning  
Soʻzlarini qadrla.  
Mol-u mulking koʻpaysa,  
Magʻrurlanib quturma.

\* \* \*

Boqmas jahon sovuq soʻz,  
Shilqim, yuzsiz, baxilga.  
Yoqimli boʻl, xushxulq boʻl,  
Qolsin noming koʻp yilga.

\* \* \*

Kulsa kishi yuzingga,  
Koʻrlik boʻlib koʻringil.  
Shirin, ochiq soʻz soʻyla,  
Yoqmoq uchun uringil.

\* \* \*

Undab ulugʻ chaqirsa,  
Tezlik bilan chopib kel.  
Ochlikda birga boʻlgil,  
Ne holda boʻlsa yurt, el.

\* \* \*

Suq odamlar mol-mulkka intilar,  
Oʻlimtikka tashlangandek quzgʻunlar.

\* \* \*

Keng toʻn toʻzimas,  
Kengashlik ish buzilmas.

\* \* \*

Botir jangda, dono majlisda sinaladi.

\* \* \*

Odobning boshi til.

## DOSTONNAVIS VA LUG‘ATSHUNOS

Sharq madaniyati tarixida shunday allomalar borki, ular yaratgan ilmiy, badiiy asarlar madaniy hayotning barcha sohalari taraqqiyoti, istiqbolida muhim rol o‘ynagan, kelajak avlod uchun muayyan soha kaliti vazifasini o‘tagan. Ana shunday serqirra ijodkorlardan biri **Asad Tusiydir**.

Asad Tusiy 1005-yili bobomiz Alisher Navoiy kanal qazdirib, obod etilishiga katta hissa qo‘shgan qadimiy Tus shahrida tug‘ilgan. Tus va Nishopur shaharlarida ta‘lim olgan. G‘oyatda faqirona kun kechirgan shoir yoshligidan qadimgi eroniy tillar, xalq og‘zaki ijodi, tarix, geografiyaga qiziqqan. Asad Tusiy, professor H. Hasanovning ta‘kidlashicha, turli shaharlarga sayohat qilgan, Naxichevanga borib, biroz vaqt Abudulafi Dayroniy dargohida xizmat qiladi. U 1073-yili o‘z vatanida vafot etgan.

Asad Tusiy *shoir, yozuvchi, adabiyotshunos, tilshunos, yulduzshunos, geograf, dinshunos, dostonchi* sifatida o‘zidan keyin katta meros qoldirgan. U 1065—66-yillari Naxichevanda eroniy xalqlarning og‘zaki ijodi asosida, buyuk Firdavsiy „Shohnomasi“ga ergashib, 9000 baytdan iborat „Gershaspnoma“ dostonini yaratdi. Uni yozishda shoir Abulmuayyad Balxiyning „Kitobi Gershasp“ va „Tarixi Seiston“ singari kitoblardan ham bahramand bo‘lgan. Doston Xudo, payg‘ambar, to‘rt xalifaga bag‘ishlangan hamd va na‘tlardan so‘ng Som, Narimon, Zol, Rustam singari Seiston bahodirlaridan bo‘lmish Gershaspning qahramonligi-yu sevgi sarguzashti tasviriga bag‘ishlangan. Unda bosh qahramondan tashqari o‘nlab yorqin yaratilgan obrazlar mavjud. Shoir asarda xalq qahramonligi, vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surdi.

„Gershaspnoma“da o‘nlab orollar, tog‘lar, o‘rmonzorlar tasnifi berilgan. Asosiy — bosh qahramonlardan tashqari yana Tur, Shidasp, Tuvurg, Sham, Atrat, Mehroj, Baxu singari obrazlarning hayoti va taqdiri tasviri bosh qahramon siymosini yanada mukammal ifodalanihga xizmat qiladi. Dostonda „Shohnoma“ qahramonlaridan Jamshid, Zahhok, Rustamlar tilga olinadi, xolos. Voqea Turon, Sarandib, Hindiston va Rum o‘lkalarida kechadi. Gershasp Hindistonni zabt etish, Shikvand tog‘idagi ajdarni o‘ldirish va Rum shohi shartlarini bajarishda chinakam qahramonlik ko‘rsatadi. Asad Tusiy asarda ko‘plab axloqiy-ta‘limiy, ijtimoiy-falsafiy mohiyatdagi hikoyalar keltirgan, maxsus pand-

noma boblar ilova qilgan. Har bir hikoyat o'ziga xos sujet, kompozitsion qurilishi, pandnoma mohiyatidagi xulosalarga ega:

*Mayandoz sangi garon az barad,  
Ki chun bargardad, fitad bar sarad.*

(Mazmuni: *Etagingdagi og'ir toshni osmonga otma, chunki qaytib o'z boshingga tushishi mumkin.*)

Erta qiyomat kuni „imon-u yaxshiliging“ senga asqotadi, degan shoir boshqa bir baytida shunday ta'kidlaydi:

*Giristan ba hangom bo so'z-u dard,  
Beh az xandidan ba hangomi sard.*

Mazmuni: *Bemahal kulgandan ko'ra, o'z o'rnida ho'ngrab yig'lagan afzal.*

„Gershaspnoma“ni mashhur fransuz sharqshunosi H. Masse 1953-yili fransuz tiliga tarjima qilib, nashr etdi. Uning eng qadimgi (XIII asrga oid) nusxasi ham Parij kutubxonasida saqlanadi. Shundan so'ng dostonning alohida boblari dunyodagi ko'p tillarga tarjima qilingan. O'zbek tilida ham nasriy „Gershaspnoma“ mavjud. Lekin u hali o'rganilmagan, qaysi manbalar asosida yaratilganligi noma'lum. Davlatshoh Samarqandiy tazkirasida va boshqa sarchashmalarda Asad Tusiy va „Gershaspnoma“ning yaratilishi haqida bir qancha rivoyatlar mavjud. Ular tarixiy haqiqatga to'la muvofiq kelmasa ham, shoirning shuhratidan dalolat beradi.

*G'ami on kase xo'rdan oin buvad,  
Ki o' bar g'amat niz g'amgin buvad.*

(Mazmuni: *Sening g'amingga sherik bo'lgan kishining tashvishini tortsang bo'ladi.*)

Shoir fors-tojik adabiyotida munozara janrining asoschisi hisoblanadi. U xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot va arab adabiyoti an'analalaridan ijodiy foydalanib, ijtimoiy-falsafiy, diniy, axloqiy-ta'limiy ruhda ko'plab munozaralar bitgan. „Tun va kun munozarasi“, „Kamon va nayza munozarasi“, „Mo'min va g'ayridin munozarasi“ singari asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlar keyingi asrlarda Sharq adabiyotida munozara janrining paydo bo'lishi va takomillashishida muhim o'rin tutdi.

Olim xalq jonli tili materiallarini, ko'hna adabiyot namunalarini yig'ish borasida ham ulkan ishlarni amalga oshirgan.

U 1068—1070-yillar orasida „Lug‘ati fors“ nomli mashhur asarini yaratgan. Unda Asad Tusi, bir tomondan qadimgi eroniy til, uning lahjalariga oid minglab so‘zlarning ilmiy-filologik tahlili, sharhlarini bergan; ikkinchidan, har bir kalimaning ma’nosini izohlashda forsiyzabon xalqlarning shifoiy she’riyatidan, Daqiqiy, Rudakiy, Robia Balxiy, Abushukur Balxiy, Shahidi Balxiy, Firdavsiy, Unsuriy, Labibiy singari X—XI asrlarda yashagan shoirlar asarlaridan minglab misralarni keltirgan. Sharqshunoslar Rudakiyning „Sindbodnoma“ hamda „Kalila va Dimna“ kabi dostonlari xususida fikr yuritganda ana shu manba orqali saqlanib qolgan parchalarga suyanadilar. Bundan tashqari, mazkur kitob qadim eroniy til morfologiyasi, leksikasi va grammatik qurilishini o‘rganishda yagona, kamyob manba sifatida xizmat qilmoqda.

Asad Tusi xushnavis hattot sifatida ham shuhrat qozongan. Mashhur sharqshunos Y. E. Bertelsning aniqlashicha, Abumansur Muvaffaq Xirotiyning dorishunoslikka doir „Kitob-ul-abniya“ asarining eng qadimiy nusxasi olim tomonidan 1056-yili kitobat qilingan. Professor Y. E. Bertels shoir ijodini „Fors-tojik adabiyoti tarixi“ asarida birinchilardan bo‘lib ancha batafsil tahlil qilgan.

Buyuk adib va olim bemorlik to‘shagida yotganida shogirdlaridan biri undan so‘rabdi:

— *Ustoz, ilmning barcha sohalarida kamolotga yetdingiz, ko‘plab o‘rinbosarlar yetishtirdingiz, o‘tgan umringizdan rozimisiz?*

— *Yo‘q, umrni bekor o‘tkazganimdan afsuslanaman. Alloh menga hozirgacha hech narsa bilmaganimni endi anglatdi, — deb javob beribdilar alloma.*

Ha, kishi qancha ixtirolar qilmasin, bilim cho‘qqilarini ishgo‘l etmasin, bu dunyo-yu u dunyoning yangi-yangi sirr-u sinoati uning qarshisida zabt etib bo‘lmaydigan cho‘qqidek namoyon bo‘laveradi. Asad Tusiyning faoliyati va oxir-oqibatdagi xulosasi bunga dalildir.

## FIDOIY E‘TIQOD

Shahar qozisi mahbusni shariatga shak keltirganlikda, dahriylikda ayblab, Xo‘jayi Alamdor tog‘idan tashlab o‘ldirish xususida hukm chiqardi va hukmni ijro etishni ikki jallodga topshirdi. Jallodlar ikki qo‘li orqasiga bog‘langan mahbusni

haydab tog' etagiga keldilar va gunohkorni oldinga haydab tog'ga chiqq boshladilar. Tog' yo'li nihoyatda tik va tor bo'lganidan qilichlarini yalang'ochlab olgan qotillar mahbus bog'langan arqonni qo'yib yuborib, yuz mashaqqat bilan tepaga intilishardi. Shu payt balandroqqa chiqib olgan mahbus ulkan bir xarsang toshni siljitib yubordi. Haligi tosh ikki qonxo'rni pastga surib ketdi. Mahbus bo'lsa tog'ma-tog' qochib yurib, umrining o'n besh yilini Badaxshondagi Yung'on qishlog'i g'orida o'tkazdi. Bu kishi faylasuf shoir, ma'rifatparvar adib **Abu-Muiniddin Nosir Xisrav** edi.

Bo'lajak shoir va davlat arbobi Nosir Xisrav 1004-yilda hozirgi Tojikistonning Qubodiyon shahrida dehqon oilasida tug'iladi. Bo'lajak xalqparvar shoir dastlab o'z ona shahrida o'qib, yaxshigina bilim oladi, keyinchalik Marvga borib, madrasada o'qiydi, mustaqil mutolaa bilan shug'ullanadi. Sharq mamlakatlari bo'ylab safarlarda bo'ladi. Nosir Xisrav *falsafa, mantiq, matematika, til bilimi, geografiya, tabiiyotshunoslik, tib, adabiyotshunoslik, fiqh, astronomiya* va boshqa fanlarni puxta o'rganib oladi. Bir she'rida shoir doim o'qib, hamma ilmlarni o'rganishga intilganligini quyidagicha qayd etgan:

*Bilim qidirishga urdim boshimni,  
Bekorga o'tkazmadim umrimni bir dam.  
Qaydaki, eshitsam ilm-u donishni,  
Eshigi tagida o'turdim mahkam...*

Ilmda kamolotga erishgan Nosir Xisrav Balx, Marv shahrida davlat idoralarida ishlaydi, bir necha yil Marvda soliq yig'uvchilarga boshchilik qiladi. Mahmud va Mas'ud G'aznaviy-larning majlislarida ishtirok etadi, saljuqiylar mahkamasida ham xizmat qiladi. Mana shu lavozimdalgida u shahar va qishloqlardagi mehnatkash xalqning og'ir iqtisodiy ahvolini, xonavayronligini o'z ko'zi bilan ko'radi, vijdoni qiynalib, vazifasidan voz kechadi. Shundan so'ng shoir 1046-yili ukasi va shogirdi bilan yetti yillik safarga chiqadi. U Sharqning juda ko'p mamlakatlarida bo'ladi. Qohirada ikki yil yashaydi. Bu safar shoirning mehnatkash xalqqa bo'lgan mehr-muhabbatini oshirib boradi, u o'z davri uchun progressiv bo'lgan xalq harakatini mavjud tuzum, hukmron sinflarga nisbatan noroziligini qo'llab-quvvatlaydi, ilg'or fikrlarni targ'ib etadi. Hukm-

ron sinf va ruhoniylar erksevar shoirni quvg'in qiladilar, tahqirleydilar. Balx hokimi va ulamolar uni qatl etish haqida farmon chiqaradilar. Nosir Xisrav darbadarlikda yurib, oxiri, 1063-yili ukasi Abusaid bilan Badaxshonning Yumg'on nohiyasidan panoh topadi. Badaxshonning o'sha vaqtdagi hokimi Ali ibn Asad *ismoiliya* mazhabini qabul qilgani uchun shoirni o'z himoyasi ostiga oladi. U 25 yil davomida barcha asarlarini shu yerda bitadi, muallimlik qiladi.

Nosir Xisrav 1088-yili vafot etadi. Hazrati Sayyid qishlog'idagi minorali maqbarasi xalq ziyoratgohidir.

Nosir Xisravdan bizga qadar katta hajmda adabiy va ilmiy meros saqlanib qolgan. „Safarnoma“, „Saodatnoma“, „Ro'shnoinoma“, „Hikmatlar majmuasi“, „Musofirlarning yo'li ozuqalari“, „Vajhi din“, „Kushoyish va rahoyish“, „Xon-ul-ixvon“ („Birodarlar xoni“), arab hamda fors tillaridagi ikkita she'rlar devoni shular jumlasidandir. O'z asarlarida shoir ilm-fanni, kasb-hunar, foydali mehnatni ulug'laydi, ilm va kasb o'rganishni targ'ib etadi. Ilmni baxt-saodat kaliti deb bilgan shoir donishmand va olimlarni, bilimdonlarni ta'riflaydi, kishilarni ulardan ta'lim olishga chaqiradi. Ma'rifatparvar shoir zulm-zo'rlik, jaholat va nodonlikni, talonchilik va tovlamachilikni qoralaydi: xalq mehnati, boyligi evaziga aysh-ishrat bilan shug'ullanuvchi, boyluk orttiruvchi hukmronlarni tanqid qiladi. Xuroson amirlarini bo'riga o'xshatadi:

*Gurgi tu, na mir Xurosonro,  
Sulton nabuvad chunin, tu shayton.*

(Mazmuni: *Sen Xurosonning amiri emas, bo'risan, sulton emas, shaytonsan.*)

Nosir Xisrav mehnatkash xalqni, hunarmand, binokor, dehqonlar va boshqa kasb egalarini alohida ta'riflab, ularni jamiyatning moddiy ne'matlarini yaratuvchilar, deb biladi:

*Jahon shodligining boisi dehqon.  
Uning birla ekinzor, bog'-u bo'ston.  
Bu ishdin yaxshi olamda ne bordur,  
Odam nasliga bu ish yodgordir.*

Nosir Xisravning „Safarnoma“ asari alohida qimmatga ega. Chunki unda adib Ozarbayjon, Afg'oniston, Eron, Suriya, Fa-



lastin, Iroq, Turkiya, Misr singari mamlakatlarning geografiyasi, tabiati, ilm-fani, xo‘jaligi, arxitekturasi, turli xalqlarning turmush madaniyatiga doir qimmatli ma’lumotlar bergan, qiziqarli voqealarni yozib qoldirgan, xolis baholagan.

Erksevar shoir Nosir Xisrav o‘zi olqishlagan xalqparvarlik, ma’rifatparvarlik hamda insonparvarlik g‘oyalari bilan hamisha bizga yaqin va mehribondir.

### **Nosir Xisrav hikmatlaridan**

Dono suhbatidan sira qochmagil,  
Ta’sirin o‘tkazar senga ham u til.

\* \* \*

Aqlga ilm birla bergil ko‘mak,  
Aql bu ilmga xaridor, demak.

\* \* \*

Aqlning oltindan ortiqligi bor,  
Odam oltin bilan bo‘lolmas hushyor.

\* \* \*

Kosibdan shod-u xurram yo‘q jahonda,  
Hunardan yaxshi dur ham yo‘q jahonda.

\* \* \*

Kimki shogirdlikka chin dildan shod,  
Bir kuni o‘zi ham bo‘lgusi ustod.

\* \* \*

Ilm birla yetish mumkin, birodar,  
Zarrachadan chiqib, quyoshga qadar.

\* \* \*

Jaholat ahli birla qurma suhbat,  
Yetar har dam bu ishdin jona zahmat.

\* \* \*

Hamisha xalqingga mehribon bo‘lgil,  
Yaxshilikka tirish va omon bo‘lgil.

\* \* \*

Tutgil qarilarning qaltiroq qo‘lin,  
Qarigach bilursan keksalik yo‘lin.

\* \* \*

Yoshlik, telbalikni chiqar boshingdan,  
Onang xizmatida bo'lgil yoshingdan.

\* \* \*

Do'st topsang saqlagil fido etib jon,  
Do'st etagin qo'ldan chiqarma oson.

### „Safarnoma“dan

Iskandariya shahri Nil daryosi sohilida joylashgan. Shu yerdan Misrga kema orqali meva olib boradilar. Bu shaharda g'aroyib bir minora ko'rdim. Minoraning qubbasi uchiga qandaydir bir oyna joylashtirilgan bo'lib, o'zidan kuchli nur chiqarardi. Rumdan, ya'ni Istanbuldan chiqib, daryo orqali shu tomonga kelayotgan har qanday kema ana shu minora qarshisiga kelgach, haligi nurda kuyib ketarkan. Rumliklar (turklar) turli hiyla va josusliklar bilan bu oynani sindiribdilar. Bir kishi Misr sultoniga o'sha oynani asliga keltirishni va'da beribdi. „*Bunga hojat qolmadi, turklar usiz ham bizga sovg'a-salomlar beryaptilar, ta'zim bajo keltirayotirlar*“, deb javob beribdi sulton...

Tunis shahrida buqalamun nomli zarrin mato to'qilarkan. Bu matodan tikilgan libos bir kunda bir necha tusda tovlanarkan. Bunday matoni boshqa hech bir mamlakat xalqi ishlab chiqmas ekan. Shuning uchun Tunis buqalamuni Mag'rib-u Mashriqda shuhrat qozonibdi.

Makka shahrining havosi haddan tashqari issiq bo'ladi. Qishda ham Makka bozorlarida tarrak, bodring, bodinjon (pomidor) ko'rdim.

2005-yil 17—18-sentabr kuni London universitetida „Nosir Xisrav she'riyatining falsafiy mohiyati“ mavzusiga bag'ishlangan sharqshunoslarning xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tgandi. Shu munosabat bilan doktor Mehdi Muhaqqiy „Nosir Xisrav qasidaları shahri“ kitobini nashr ettirdi. Bu ilm-fanda mutlaqo yangilik edi. Zeroki, unda shoirning arab tilida ham she'rlar devonini tartib bilan bergani qayd qilinib, 30 ta qasidasi ilk bor keltirilgan. Ular hasbihol, sarguzashtnoma, mavjud ijtimoiy tuzum illatlarini, zulm-zo'rlikni tanqid ruhida bo'lib, maxsus o'rganishni taqozo etadi.

## BILIMLAR XAZINASI

O‘n birinchi asrning o‘rtalariga kelib, hozirgi Farg‘ona vodiysi va Koshg‘ar yerlarini o‘z ichiga olgan Qoraxoniylar davlati vujudga keladi. Bu davlat hududida yashovchi elatlarning ko‘pchiligini turkiy shevalarda so‘zlashadigan urug‘lar tashkil qilardi. Qoraxoniy feodallar bu tilni o‘zaro so‘zlashuv quroli, ilm-fan, badiiy ijod tili sifatida joriy qiladilar. Hokimlar turli qishloq va shaharlardan olimlar, ijodkorlarni saroylarga yig‘ib, ularni shu tilda ijod etishga undar edilar. Natijada X—XI asrlarda Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy kabi bir necha allomalar yetishib chiqib, turkiy tilda ijod etdilar va uning taraqqiyotiga munosib ulush qo‘shdilar.

O‘z davrining qomusiy bilim sohibi, davlat arbobi **Yusuf Xos Hojib** ana shu turkiygo‘y ijodkorlarning peshqadamidir. Yusuf 1020-yili qoraxoniylarning markaziy shaharlaridan bo‘lmish Bolosog‘unda ziyoli oilada dunyoga keldi. Ba‘zi tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, qoraxoniy hukmdorlarning, feodal zodagonlarning sayrgohi, dala hovlisi shu shahar atrofida joylashgan ekan. Davlat boshlig‘ining yozgi qarorgohi ham shu shaharda bo‘lgan. Bolosog‘un Sharq bilan G‘arb o‘rtasidagi savdo yo‘li ustida joylashgani uchun savdo-sotiq, hunarmandchilik, ilm-fan ancha taraqqiy etgan, ko‘plab maktab va madrasalarga ega bo‘lgan shahar edi. Yusuf ana shu madaniyat o‘chog‘ida voyaga yetdi, arab, forsiy til va undagi adabiyotlarni puxta o‘rgandi. Falsafa, mantiq, matematika va boshqa bilimlarni mukammal egalladi, davlat ishlari, idora qoidalari bilan qiziqdi. Sharq donishmandlarining bu boradagi fikr-mulohazalarini kuzatdi. Yusufning hayoti va ijodiy yo‘li haqidagi ma‘lumotlar juda oz. U 1069-yili „Qutadg‘u bilig“ („Saodatga yo‘llovchi bilim“) asarini Bolosog‘unda yoza boshlaydi va 1070-yili Qashqarda tugatib, hokim Bug‘roxonga taqdim etadi. Kitob Bug‘raxonga ma‘qul bo‘ladi va u Yusufga „Xos Hojib“ unvonini beradi. O‘shandan boshlab shoirni Yusuf Xos Hojib deb atay boshlaydilar. Manbalarda, tadqiqotlarda Yusuf Xos Hojib umrining oxirgi yillarini qanday o‘tkazganligi haqida boshqa ma‘lumotlar yo‘q.

Yusuf Xos Hojibning hayoti hamda uning „Qutadg‘u bilig“ dostoni V. Radlov, S.E. Malov, A. Fitrat, A. Valitova,

N.M. Mallayev singari yirik olimlar tomonidan ancha puxta o'rganilgan. Filologiya fanlari nomzodi Q.Karimov Namangan, Hirot, Vena, Qohira nusxalarini uzoq yillar jiddiy qiyosiy o'rganib, dostonning tanqidiy matnini nashrga (1971-y.) tayyorladi. Asarning to'la ruscha tarjimai ikki marta nashr etilgan. Bundan tashqari, „Qutadg'u bilig“ning poetikasi, til xususiyatlariga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi ham yoqlangan. Shuni ham mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, professor Boqijon To'xliyev dostonning bolalarbop ixcham nusxasini yaratdi, u haqida bir necha kitob chop ettirdi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, doston muqaddimasida shoir „Qutadg'u bilig“ni 50 yoshida, ya'ni 1069—1070-yillar orasida yozib tugatgani haqida ma'lumot beradi:

*Tegurdi manga elgi ellik yashim,  
(Ellik yoshim menga qo'lini tegizdi)  
O'qir altmish menga emdi manga kel teyu.  
(Emdi oltmish menga kel deya chorlayotir)  
Yil altmish iki erdi to'rt yuz bila,  
(To'rt yuz oltmish ikkinchi yil edi)  
Bu so'z so'zladim man tutub jon sura.  
(Bu so'zni jonga yaqin tutib bitdim)  
Tugalo'n sakkiz oyda aytim bu so'z,  
(Sakkiz oy davomida tugatib bo'ldim)  
Uzurdim, azirdim so'z evdim tera.  
(Terlab, horib-charchab so'zni terib tizdim.)*

Asarda shoirning hayoti va ijodiy faoliyati haqida bundan boshqa aniq bir ishora yo'q. „Qutadg'u bilig“ turkiy tilda yozilgan ilk didaktik doston, pandnomadir. Muqaddima ham xotimadan tashqari 73 bobdan iborat bo'lgan bu asarda shoir davlatni, xalqni idora qilish, boshqarish rusumlari, axloq-odob, ilm-ma'rifat, bola tarbiyasi, jamoat joylarida o'zini qanday tutish, so'zning ahamiyati va qadri, mehmondorchilik qoidasi, turmush tarzi, inson ma'naviy olamining ko'p masalalari xususida buyuk mutafakkir, bir ma'rifat jarchisi sifatida fikr yuritadi. Yusuf Xos Hojib dostonida markazlashgan davlat uchun kurash, donishmand, adolatli hukmdor g'oyasini ilgari suradi, xalq va davlat, davlat boshlig'i va fuqaro, olimlar va hokim, qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy madaniy aloqalar, hukmron tabaqalarning hokimiyat, xalq oldidagi burchi haqida



*Odamning oti qoldi, kishilarni (yaxshi) fe'li ketdi,  
Bu fe'l qayerga ketdi, ketidan men (ham) borayin.  
Dunyoda mehribon odam yo'q, (anchayin) qidirdim,  
Mehrsiz(lar)ga ko'nglimni qanday qilib bog'layin.  
Kimni o'zimga ko'zdek yaqin tutgan bo'lsam,  
Shaytondek dushman bo'lib chiqdi, shaytonni*

*nima qilayin.*

*Kimni sevgan bo'lsam, shirin jon kabi tutdim,  
Undan jafo keldi, bas kimni sevayin.*

Shundan so'ng shoir eng sevikli kishilari, yor-u birodarlari, qarindosh-urug'lari, osh-tuzini ichganlari ham undan yuz o'g'irganlarini birma-bir sanab o'tib, chin odam topa olmay yolg'iz iztirob chekayotganini, odam ham, olam ham buzilganini bayon qiladi; mavjud hayotdan noliydi, iztirob chekadi:

*Hamma ezgu(lar) o'ldi(lar), (ezgu) qonun-qoida, odatlarni  
o'zlari bilan olib ketdilar.*

*Odam(lar)ning eng pasti qoldi, qanaqa ezgu topayin.  
Ushbu qomat kerib yurganlar barchasi odam bo'lsa,  
Ular (ya'ni, o'lganlar) farishta ekanlarmi, qayerdan*

*bilayin.*

*Ular o'lib ketdilar, men bular bilan qoldim,  
Qanday yurayin, qaysi fe'lim bilan yarayin.  
Men qancha so'zlaganim bilan baribir so'z tugamaydi,  
Mana shunchasi bas, yana so'zning nimasi, ko'zdan g'oyib  
bo'layin.*

*O'zim uchun bundan yaxshiroq hech narsa topmadim.*

*Qishloq, shaharni tark etayin, odamlardan*

*yiroqlashayin.*

*Otimni bilmasinlar, o'zimni ko'rmasinlar,  
Izlab topmasinlar, so'zimni tugatayin.  
Chayondek chaqadilar, chivindek so'radilar,  
Ko'ppakdek qopadilar, qaysi birini urayin.  
Jabr-u jafo barchasi menga tegmasin,  
Tuban, bevafo(lar)dan chetroqda yurayin.*

Ko'rinib turibdiki, shoir mavjud ijtimoiy muhitdan, zamondan, o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy tabaqalardan qattiq shikoyat qilmoqda. Aftidan, Yusuf Xos Hojib hayotining

so‘nggi yillari markazlashgan Qoraxoniylar davlati parchalanib, o‘zaro feodal urushlar avj olib, oldingi hukmronlar quvg‘in qilingan bir davrga to‘g‘ri kelgan. Chunki, yuqoridagi parchalarda muallif zulm-zo‘rlik kuchaygan, vafo va sadoqat, osoyishta turmush, do‘stlik qahati bo‘lgan zamona „chayondek chaqadigan“, „ko‘ppakdek qopadigan“ kishilar bilan to‘lgan davr haqida gapirmoqda. To‘g‘ri, o‘tmishdagi ko‘pchilik gumanistlar ham charxning kajraftorligi-yu, vafosiz, beoqibat do‘stlardan zorlanishgan, mavjud tuzum illatlarini qattiq tanqid qilganlar. Lekin Yusuf Xos Hojibdagi shikoyat boshqacha. Shoir o‘tmish, osoyishta davrni, qo‘ldan ketgan mavqeni qo‘msamoqda, marhum maslakdoshlarini izlamoqda. Demak, bu davrda Yusuf mansabdan ketib, barcha imtiyozlardan mahrum bo‘lgan. Endi hech kim uni nazar-pisand qilmaydi, tahqir etadi, kamsitadi, ba‘zi yaqinlari, do‘st deb yurganlari ham g‘anim — dushmanga aylanganlar. Shuning uchun u o‘zi yashayotgan muhitni rad etadi, dasht-u sahrolarga bosh olib chiqib ketgisi keladi. Bunday hayotdan o‘limni afzal ko‘radi. Adabiyot tarixida bu xildagi faktlar ko‘p uchraydi. Chunonchi, yuz elining yuqori tabaqalaridan bo‘lmish Turdi Farog‘iy Abdulaziz dargohida xizmatda ekanida katta obro‘ga ega edi. Hokimiyatni Subhonqulixon egallagach, shoir saroydan chetlashtiriladi. Endi barcha do‘stlari, qarindosh-urug‘lari Turdidan yuz o‘giradi. Shoir xalq tomoniga o‘tadi, qo‘zg‘olonlarda ishtirok etadi, zulm-zo‘rlik, nomardlikni la‘natlab, o‘zbek elatlarini birlikka chorlab she‘rlar yozadi. Beldan kuchi, ko‘zidan nuri, hunaridan baraka ketgach, Mujrim Obidning urug‘-aymoqlari ham, bir o‘g‘il, besh qiz va xotini ham unga qayrilib boqmay, shoir darbarlikda umr kechirgan.

Yusuf Xos Hojib ham mansab-martabadan mahrum bo‘lgach, feodal zodagonlar nazaridan qolgan, oldingi samimiylik, odamiylikdan asar ham yo‘q. Natijada shoir „mudom mung chekib“ hasrat-nadomatda, hayotdan qat‘iy norozilikda yashab o‘tgan.

Bas shunday ekan, Bug‘roxonga taqdim etilib, Xos Hojiblik mansabiga sazovor qilgan „Qutadg‘u bilig“ tarkibiga bu shikoyatnoma qanday qo‘shilib qoldi, degan savol tug‘iladi. Bizningcha, asarning bir nusxasi shoir tasarrufida bo‘lgan. Hayotining g‘am-hasrat to‘la kunlarida kitobi unga hamdam-u

hamroh bo'lgan. Ana shu paytlarda asarning oxiriga hasbihol xarakteridagi mazkur bobni ilova qilgan.

Dostonning hozirgi qo'lyozmalari shoir qo'lidagi dastxatdan ko'chirilgan nusxalar bo'lishi kerak. Professor B.To'xliyev „Qutadg'u bilig“ning badiiy qimmatini tadqiq etgan, asarning turli tillardagi tarjimalari xususida maxsus tadqiqotlar yaratilgan.

### **Yusuf Xos Hojib hikmatlaridan**

Bilimni buyuk, o'quvni ulug' bil,  
Bu ikki narsa insonni ulug'laydi.  
Zakovat qayerda bo'lsa ulug'lik bo'ladi,  
Bilim kimda bo'lsa buyuklik bo'ladi.

\* \* \*

So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,  
Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin.

\* \* \*

Sen o'zingga esonlik tilasang  
Tilingdan yaroqsiz so'zni chiqarma.

\* \* \*

Bilib so'zlagan so'z donolik sanaladi,  
Nodonning so'zi o'z boshini yeydi.

\* \* \*

So'zni ko'p so'zlama, bir oz so'zla,  
Tuman so'z ma'nosin bir so'zda ko'zla.

### **HIKMATLAR ATRİYOTI**

Naql qilishlaricha, qadimda bir badavlat odam yashagan ekan. U umr bo'yi yig'gan boyliklarini oltin tangalarga aylantirib, bir hamyonga to'plab yurar ekan. Ittifoqo, o'sha davlatmand vafot etibdi. Kunlardan bir kun o'g'illaridan biri tush ko'rsa, otasi mushukka aylanib qolgan emish-u o'sha tillo tangalar solingan hamyonni berkitgan joy atrofida aylanib yurganmish.

— Bu yerda nima qilib yuribsiz, sizni kim bu ko'yga soldi, otajon? — so'rabdi o'g'li.

— Kimda-kim dunyo moliga hirs qo'yib, yig'sa, shubhasiz, mushuk sichqonni poylagandek, boyligi atrofida sargardon yuradi, — debdi otasi.



Shundan soʻng oʻgʻillari otadan qolgan boylikni beva-bechoralar-u madrasa talabalariga taqsimlab berib, nafsi ammorini cheklab, ishq ilohiy yoʻlida fidoyilik bilan riyozat chekib, yashay boshlabdilar.

Rivoyat qilishlaricha, bir Xoja kundan kunga boyib ketaveribdi, zamonasidagi eng goʻzal qizga uylanibdi. Favqulodda omad, goʻzal malikaga erishgan Xoja bosar-tusarini bilmay qolibdi, ortiqcha aysh-ishratga, isrofgarchilig-u qimorga berilibdi. Natijada oradan koʻp oʻtmay boyligining kuli koʻkka sovurilibdi, nochor qolganidan huriliqodek xotinini ham qul sifatida sotibdi. Ishi oʻngidan kelmay, qilmishidan afsus, nadomatlar chekib dunyodan oʻtibdi. Noshukurlik, notejamlik, takabburlik uni shu koʻyga solibdi.

Bu ikki hikoyat fors-tojik adabiyotining daholaridan biri, Sharqning buyuk mutafakkiri Farididdin Attorning „Ilohiynoma“ kitobidan oʻrin olgan. Shoir asarlarini koʻzdan kechirar ekanmiz ularda insonlarni rahmoniy yoʻlga daʼvat, shaytoniy yoʻldan parhez qilishga undash yetakchi ekanligini bilib olamiz. Boʻlajak shoir Muhammad Abu Bakr ibn Ibrohim 1145-yili Nishopur viloyatining Kadakon qishlogʻida attor va tabib oilasida dunyoga kelgan. Bir sheʼrida Attor „Dorishunos va doʻkondor boʻlgan otam huzuriga baʼzan besh yuz kishi toʻplanardi“, deydi. Adibning bolaligi ana shu shoir-u fuzalo, olim-u hoziqlar davrasida oʻtadi, xususiy muallimda zamonasidagi barcha bilimlarni oʻrganadi. Bir toʻrtligida Attor bilimlarining negizini „fiqh, tafsir va hadis tashkil etadi“, degan boʻlsa-da, Nishopur va Mashhad madrasalarida tahsil koʻrib, nujum, hayʼat, tabobat, falsafa, mantiq kabi bilimlarda ham kamolot kasb etgan, zabardast shoir, olim, xattot, mashoyix darajasiga yetadi. Ammo ota kasbi dorifurushlik, attorlik bilan kun koʻradi. Farididdin doʻkondorlik bilan birga muttasil badiiy, ilmiy ijod bilan shugʻullangan. Barcha tazkiranavislar uning merosini 71—149 ta asardan iborat, deb koʻrsatishadi. Lutfalibek Ozar „Musibatnoma“, „Ilohiynoma“, „Asrornoma“ — shogirdi Jaloliddin Rumiya bagʻishlangan, „Muxtornoma“, „Mantiq ut-tayr“, „Xusravnoma“, gʻazallar devoni-yu ruboiylarining miqdori 50 ming bayt, deb taʼkidlagan. Shoir ruboiylarining oʻzi 5000 ming baytdan ortiqdir; yuzlab qasida-yu mingdan ziyod gʻazallarni oʻz ichiga olgan sheʼrlar devoni bizga qadar

mukammal yetib kelmagan. Adibning nasriy asarlaridan faqat „Tazkirat ul-avliyo“gina bizgacha to‘la saqlanib qolgan.

Shoir 1221-yili Nishopurda vafot etgan. Zamonasining ko‘p shoh-u zodagonlari Attorni o‘z dargohlariga tortmoqchi bo‘lgan. Lekin mutasavvif shoir bu takliflarni rad etib, ota do‘konida umr-guzaronlik qilgan.

Farididdin Attor o‘z g‘azallari, ruboiylarida ko‘proq majoziy va haqiqiy ishqni targ‘ib etgan, irfoniy ma‘rifatni mo‘minlar ruhiyatiga singdirishga intilgan. Aksariyat g‘azallarida shoir hayot ma‘budasini madh etadi, undan noz-u karashmali visol onlarini darig‘ tutmaslikni, hech bo‘lmasa jabrini kam qilmaslikni iltijo etadi. „Oftob“, „Bu kecha“, „Dam urmag‘il“, „Kelibdur“, „Bizdan“, „Ishqing“ kabi radifli g‘azallarida ishq dardida „qalbi biryon“, „diydagiryon“, „jigarso‘zon“ bo‘lgan oshiqning rang-barang ruhiy holatlari, shodliklari o‘ynoqi baytlarda g‘oyatda nafis tasvirlangan; tabiat jozibasi, Navro‘zi olamning betakror fusunkorligi vasf etilgan:

*Nadidam hech vaqte la'li xandonash,  
Ki xun az chashmi giryonam nayomad.  
Chi tobe bud dar zulfi chu shastash,  
Ki on sad bor dar jonam nayomad.  
Base doston bikardam, lek dar dast,  
Sari zulfash ba dostonam nayomad.  
Sari zulfash base dorad rahi dur,  
Vale yak rah ba poyonam nayomad.*

(Mazmuni: *La'lingni hech ko'rmadim, shuningchun ko'zimni qon yohsiz ko'rmadim. Zulfig gajagi toblangan bilan, jonimga bir orom bermadi. Qo'llarimni necha iltijo bilan uzatsam ham, sochlari qo'linga kelmadi. Zulfiga yetmoq yo'li olis bo'lgani uchun, bu yo'l bizga hecham yaqin kelmadi.*)

Boshqa bir g‘azalida shoir „yorim dardida bir oh tortsam, dahonimdan chiqqan tutundan olamni zulmat qoplaydi“, — deydi. Ba‘zi g‘azallarida shoir haqiqiy ishqni o‘ziga xos yo‘sinda tasvirlab, kitobxon qalbida haq nuriga talpinish hissini uyg‘otsa, bir qator she‘rlarida zamona illati-yu kishilar o‘rtasida yuz beradigan kazzoblikni ro‘yirost tanqid qiladi, ularga shaytoniy yo‘ldan rahmoniy yo‘lga kirishlarini ko‘rsatadi.

Ammo Farididdin Attorga jahoniy shuhrat keltirgan asarlar uning ruboiylari, masnaviylari-yu „**Tazkirat ul-avliyo**“sidir.

Zeroki, bu asarlarida adib, bir tomondan, tasavvuf ta'limotidagi tavakkul, ishq, ma'rifat, shariat, tariqat, shukr, rizo, qanoat, nafs, tavhid, haqiqat, adolat, himmat, xayr-saxovat, juvonmardlik singari talab yo'llarni tashviq etadi, mutlaq orzu etmoq uchun zahmat-riyozat chekmoq shartligini uqtiradi, ikkinchi tomondan esa, o'z ilmiy-nazariy fikrlari, ta'limotini asoslash, tasdiqlash uchun tarixiy voqealardan, o'z hayotiy tajribalaridan, o'tmish mashoyixlari kechmishlaridan yuzlab hikoyalar, masallar keltiradi. Jumladan, „Ilohiynoma“ dostonidagi voqeaning asosini 6 o'g'ilning otasi bilan savol-javobi tashkil etadi. O'g'illar majoziy timsollar bo'lib, nafs, shayton, aql, ilm, faqr va tavhidni bildiradi. Savol-javoblar asnosida alloma o'zidan oldin o'tgan mashoyixlar, tarixiy shaxslar hamda zamondoshlari hayoti bilan bog'liq 282 ta hikoyat keltiradi. Aksariyati ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy mohiyatga ega bo'lsa, ularning ayrimlari tarixiy va ilmiy ahamiyatga ham molikdir. Jumladan, Faxriddin Gurgoniy, Mahasti Xo'jandiy, Robia Balxiy haqidagi hikoyat-u rivoyatlar bu adiblar hayoti, ijodiy biografiyasini yaratishda ham qimmatlidir.

Garchi shoir „Mantiq ut-tayr“ dostonida o'ttizta qush sarguzashti orqali ishq ilohiyini tasvirlagan bo'lsa-da, ammo asar tarkibidagi „Shayx San'on“ qissasida dunyoviy sevgi tamoyillari talqini xiyla kuchlidir. Buni biz Shayx San'on tomondan Tarsoduxtar qo'ygan shartlarni bajarishdagi sadoqati, oxir-oqibatda xristiankaning ham mo'ysafid fidoyiligiga aks javobi, uni izlab Makkaga borishi lavhalari tasvirida aniq kuza-tamiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, axloqiy-ta'limiy mavzudagi „Asrornoma“ Mavlono Jaloliddin Rumiya bag'ishlangan. Zeroki, Rumiya otasi bilan haj safari paytida bir necha kun Nishopurda Attor suhbatlaridan bahramand bo'lgan, uning mehrini qozongan. Rumiydagi bilimga chanqoqlik, teran mushohida-yu halimlik shoirga xush yoqqan. Jaloliddin Rumiya ham o'z asarlarida Attorni ko'p tilga oladi, undan muruvvat ko'rgani, fayz topganligini alohida uqtiradi. O'n ikki maqolatdan iborat bo'lgan mazkur dostonida tasavvuf ta'limoti haqida ma'lumot beriladi; so'fizm istilohlari sharhlanadi, juvonmardlik ta'limoti keng izohlanadi. Maqolalarda keltirilgan „Hindistonlik tabib va to'ti“, „Qimorboz juhud“, „Sham ko'targan nodon“, „Chol va hakim“, „Qishloqi va mutrab“, „Tabaq ko'targan

qul“ singari o‘nlab hikoyatlarda Attor aql-zakovat, hushyorlik, sir saqlash, yaxshilik, ehson, shirinsuxanlik, rostgo‘ylik, vafodorlikni tashviq etib, zulm, g‘afolat, g‘arazgo‘ylik, fitna, g‘iybat, yolg‘onchilik va gina-kuduratni tanqid qiladi.

Farididdin Attor so‘fizmdagi soliq (tariqat izdoshi) va pir munosabatlarini muqaddima va xotimadan tashqari 40 maqola (bob) dan iborat „Musibatnoma“ dostonida ancha batafsil yoritgan. Doston insonning maniydan paydo bo‘lib, to kamolot cho‘qqisiga yetgunga qadar bo‘lgan bosqichni batafsil tasvirlashga bag‘ishlangan. Inson balog‘at yoshiga yetgach, o‘z aslini anglash payiga tushadi; olamning tuzilishini aql tarozusi bilan o‘lchay boshlaydi. Shunda uni to‘g‘ri yo‘ldan boshlovchi bir pir paydo bo‘ladi. Shoir ana shu rahnamo tilidan so‘fizm tarafdori, shogird-solikning qanday bo‘lishini, burch hamda vazifalarini birma-bir bayon etadi. Natijada o‘zining hayot va koinot, insonning o‘zligini tanishi; Haqqa yetmoq uchun his, xayol, aql, dil va jon vodiylarini bosib o‘tish xususidagi, aqliy va qalbiy fikr haqidagi murakkab nazariy mulohazalarini izhor etadi. Bular „Bahlul“, „Majnun“, „Devona qissasi“, „Nuh ibni Mansur“, „Ma’sud G‘aznaviy“, „Xizmatkor va shoh qizi“, „Nasr binni Ahmad“ singari 340 ta hikoyat va masallar orqali tasdiqlanib, ziynatlanib boriladi. Muallif nafs va uni asrash, ma’rifat va odamiylik, saxovat va juvonmardlik xususida „**Mux-tornoma**“da fikr yuritar ekan, yuzdan ortiq so‘fistik istilohlarni izohlab-sharhlab o‘tadi; zamonasidagi ayrim hukmronlar, ulamolar-u ruhoniylarda uchraydigan zulm, razolat, riyokorlik, fisq-u fujur, haromxo‘rlig-u tamagirlikni qattiq qoralaydi. „**Muxtornoma**“ so‘fizm nazariyasiga doir jiddiy qo‘llanma bo‘lish bilan birga pir-u solik o‘rtasidagi sadoqat xususidagi bir pandnoma hamdir. „**Xusravnoma**“ dostoni ham ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-talimiy, komil inson qanday bo‘lishi masalalariga bag‘ishlangan.

Attor ijodining falsafiy, irfoniy jihatlarini mashhur olimlar Y.E. Bertels va A. Muhammadxo‘jayevlar tomonidan maxsus o‘rganilgan; professor N. Komilov „Ilohiynoma“ning bir qismini nasrda tarjima qilib, „**Tavhid asrori**“ tadqiqoti bilan (1994) birga nashr ettirdi; olim Mahkam Mahmudov „**Attor va Navoiy**“ nomli maqola e’lon qildi. O‘zbekiston Xalq shoiri Jamol Kamol „**Ilohiynoma**“ (2006), „**Asrornoma**“ (2007) asarlarining mukammal tarjimasini yaratdi. Taniqli shoir Mirza Kenjabek „**Tazkirat ul-avliyo**“ni (1997) tarjima qilgan.

Yurtimizda ma'naviyat va ma'rifat targ'ibi, ta'limiga maxsus e'tibor berilayotgan shu kunlarda bobomiz Navoiydek daholarni o'ziga rom etgan Farididdin Attor ijodini har tomonlama o'rganib, targ'ib etish faqat naf keltiradi, xolos.

## MA'NAVIYAT PESHVOSI

Kunlardan bir kun bir Qurbaqa anhor bo'yiga suvdan sakrab chiqsa, uyasidan chiqib turgan Sichqon salom beribdi. Qurbaqa alik olibdi. Ikki orada do'stlik paydo bo'libdi. Sichqon do'sti bilan suhbatlashib turgisi kelarkan. Ammo Qurbaqa suvga sho'ng'ib ketaverarkan.

— Men sen bilan chaqchaqlashib yurgim keladi. Sen bo'lsang bir soniya suhbatlashmasdanoq suvga tushib ketaverasan, — debdi Sichqon o'pkalab.

— Unday bo'lsa, uzun ip topaylik-da, bir uchini sening belingga, ikkinchi uchini esa mening belimga bog'lab qo'yaylik, qachon kerak bo'lsam, ipni tortsang chiqib kelaveraman, — maslahat beribdi Qurbaqa.

Shunday qilishibdi ham. Ittifoqo, bir kuni Sichqon uyasidan chiqib, oftobda toblanib yotgan ekan, uchib borayotgan Lochin uni tappa changallab, osmoni falakka ko'tarilibdi. Ipning ikkinchi uchida Qurbaqa ham jon hovuchlab borarkan. Nodon va nojins do'stning aqlsiz maslahati ikkovini ham ovchi domiga giriftor etibdi.

Dunyo epik she'riyatining gultojilaridan biri „**Masnaviy ma'naviy**“ mingdan ziyod ana shunday ibratomuz hikoyatlar majmuasi bo'lib, 25 ming baytdan iborat. Uning muallifi buyuk mutafakkir, faylasuf shoir Jaloliddin Rumi yoki Mavlono Rumi ydir. Jaloliddin Rumi 1207-yili Balxda ziyoli oilasida tug'iladi. Uning otasi Bahouddin Valad so'fizm va fiqh donishmandlaridan bo'lib, zamonasining eng obro'li allomasi edi. Shuning uchun ham Sulton Muhammad Xorazmshoh (1199—1220) uni saroyga da'vat etadi. Lekin Valad bu taklifni rad etib, maktabdorlik hamda ilmiy-ijodiy ishlar bilan mashg'ul bo'ladi. Uning obro'si kundan kunga oshib, turli o'lkalardan shogird bo'lishni xohlovchilar oqib kela boshlaydi. Buni ko'rolmagan Xorazmshoh saroyda unga nisbatan bo'hton tarqatadi. Sulton g'azabidan qo'rqqan Valad 400 shogirdi, 6 yashar Jaloliddin va oilasi bilan Makkaga qarab jo'naydi. Bahouddin

Valad yo'lda Xuroson-u Eronning ko'p shaharlarida to'xtab, zamonasining buyuk donishmandlari bilan hamsuhbat bo'ladi. Jumladan, Nishopurda Farididdin Attor huzurida bir necha hafta yashaydi. Attor yosh Jaloliddinni sevib qoladi, keyinchalik „Asrorнома“ dostonini unga bag'ishlaydi. Jaloliddin Damashq va Bag'dod madrasalarida, buyuk olimlar huzurida ilm o'rganishni davom ettiradi, Halabda hadis, tarix, falsafa, kalom va ilmi bade' allomalaridan bo'lmish Umar binni Ahmad binni Hibbatullohdan dars oladi. Ana shu yillardan boshlab u „Rumi“ taxallusi bilan she'rlar yoza boshlaydi. Shundan so'ng Jaloliddin Rumi Ko'nya shahriga kelib, muqim yashay boshlaydi va madrasalarda talabalarga ta'lim bera boshlaydi.

Barcha manba va tadqiqotlarda Jaloliddin Rumi shaxsiyati kamolotida buyuk shoir va shayx Shamsi Tabriziyning ta'siri kuchli ekanligi ta'kidlanadi. Rumiyning o'zi ham bir she'rida: „Agar Attor menga ruh baxsh etgan bo'lsa, Shamsi Tabriziy tilsim kalitini tutqazdi“, deydi. Zeroki, 1244-yili Shamsi Tabriziy Ko'nyaga keladi va Rumi uch yil davomida undan muttasil dars oladi: *falsafani*, xususan, *so'fizm* ta'limotini mukammal egallaydi, batamom uning ruhiyatiga o'tib ketadi. Shuning uchun 1247-yilgi bir isyon paytida Shamsi Tabriziy bedarak yo'qolgach, Rumi o'z g'azallarida „Shamsi Tabriziy“, „Shamsi“ taxalluslarini qo'llay boshlaydi. Shoir g'azallarining „Shamsi Tabriziy devoni“ nomi bilan shuhrat qozonishining boisi ham shunda.

Jaloliddin Rumi 1273-yili vafot etgan.

Jaloliddin Rumiyaning bizga qadar she'rlar devoni, „Makotib“, „Fihi mo fihi“ hamda „Masnaviy ma'naviy“ kitoblari meros bo'lib qolgan. „Fihi mo fihi“ nasriy asar bo'lib, olimning turli majlis va suhbatlardagi falsafiy nutqlarining majmuasidir. „Makotib“ esa muallifning zamondoshlari va ustozlari bilan bo'lgan turli yozishmalari — maktublaridan iborat. Har ikki kitobda ham muallifning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy mu-shohadalari, so'fiyona qarashlari o'z aksini topgan. Shoir devoni 25 ming baytdan ziyod she'rlarni o'z ichiga olgan. Jaloliddin Rumi majoziy ishq bilan ilohiy sevgini shu darajada yuqori pardada, his-hayajon bilan tasvirlaydiki, professor R. Hodizoda ta'kidlaganidek, „o'quvchi g'azallarining so'fiyona ma'nosini batamom unutib, ularni lirik she'riyatning tengsiz namunalari“ sifatida qabul qiladi. Shoirning aksariyat she'rlarida ayriliq dardi

ham, oshiqning yoriga iltijosi-yu husn-u kamoli ham ajib bir jozibada tasvirlanadi:

*Az rux-u lab gulshakar bisyor dorad husni tu,  
Koshki, bifro'xti, to poraye bixaridame.*

(Mazmuni: *Sening husning — yuzing-u lablaring gulshakar manbayidir, koshki sotsang edi, bir oz sotib olgan bo'lardim.*)

Shuning uchun ham o'tmishda yaratilgan ko'p ishqiy qissalarda goh oshiq tilidan, ba'zan ma'shuqa nutqidan Rumiyning g'azallari ko'plab keltiriladi.

Shoir ruboiylari ham mavzu jihatidan rang-barang, g'oyaviy yo'nalishi, badiiy qudrati nuqtayi nazaridan g'oyatda mumtoz va jozibdir. Ularda ishq-muhabbat, axloq-odob, ijtimoiy-falsafiy masalalar ifodalangan:

*Duri zi barodari munofiq behtar,  
Parhez zi yori nomuvofiq behtar.  
Xoki qadami yori muvofiq, haqqo,  
Az xuni barodari munofiq behtar.*

(Mazmuni: *Munofiq birodardan yiroq yurgan yaxshi, nomuvofiq yordan ko'ngil uzmoq yaxshi. Xudo haqqi, sodiq yorning xoki poyi, munofiq birodar qonidan yaxshi.*)

*Xohi-ki hamesha shod-u xurram boshi,  
Harjo ki ravi, aziz-u mahram boshi.*

*Pokiza shavu rost bizi, ilm omuz,  
To toji naberagoni Odam boshi.*

(Mazmuni: *Hamisha shod-u xurram yashab, qayerga borsang aziz-u mukarram bo'lishni istasang, pokiza bo'l, to'g'ri yasha, ilm o'rgan. O'shanda Odam Ato nabiralarning tojiga aylanasan.*)

Buyuk mutafakkirga olamshumul shuhrat keltirgan asar „**Masnaviyi ma'naviy**“ kitobidir. Zeroki, bu masnaviyning o'ziga xos yaratilish tarixi bo'lgani kabi, unda ifodalangan masalalar qamrovi ham had-hududsiz. Yetti jild (daftar)dan iborat asarning dastlabki qismlarini shogirdi Hisomiddin Chalabiy ustoziga og'zidan yozib olib, keyin tahriridan o'tkazgan. Chalabiy vafotidan so'ng Rumiyning asar davomini o'n yilda yozib tugatadi. Kitob o'z vaqtida va keyinchalik ham muallif nomini dunyoga keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Chunki, birinchidan, Jaloliddin Rumiyning masnaviyda Sharq-u G'arb olimlarining, hatto, antik

dunyo faylasuflarining falsafiy qarashlarini keng o'quvchilar ommasiga tushunarli va sodda bir uslubda she'riy yo'l bilan ta'riflab beradi, sharhlaydi; turli so'fstik oqimlar hamda ularning ta'limot va talablari bilan bog'liq nazariya, atamalarni lo'nda tarzda tushuntiradi. Ikkinchidan, o'zining ijtimoiy-falsafiy, diniy, so'fstik qarashlari bayoni jarayonida juda ko'p hikoyat, afsona, masal va latifalardan foydalanadi. Sanoiy va Attor kabi so'fi shoirlardan farqli o'laroq, Rumiylar hikoyatlari hayot haqiqatiga yaqinroq; ularning har birida qissadan hissa tarzida alohida hikmatomuz xulosalar, tanbehlar mavjud. Masalan, „Baqqol va To'tining yog'ni to'kib yuborishi“, „Savdogar va uning To'tisi“, „Saxovatda Hotami Toydan o'tgan xalifa“, „Qazviniyning kuragi ostiga naqsh tushirishi“, „Karning bemor qo'shnisini ko'rishga borgani“, „Luqmon va qullar“, „Muhtasib va mast“ singari yuzlab hikoyatlarda Jaloliddin Rumiylar noshudlik, g'irromlik, tuhmat, kaltafahmlik, takaburlik, sudxo'rlik, badnafslilik singari g'ayriinsoniy xatti-harakatlarni qattiq qoralab, aql-u farosat, sabr-u qanoat, rostgo'ylik-u halollik, kamtarlig-u saxovatpeshalikni targ'ib etadi. „Men yetmish ikki millat bilan ittifoqda va birlikdaman“, degan Rumiylar juda ko'p hikoyalarda inson qadrini ulug'laydi, insonparvarlik g'oyalarini islomiy ahkomlar bilan chambarchas bog'lagan holda targ'ib va tashviq etadi.

„Uch o'g'ri va bog'bon“, „Lo'li bola“, „Tuya va hammom“, „Muallim va shogirdlari“ singari bir turkum hikoyalarda Rumiylar hayotiy illatlar, insonlarda uchraydigan salbiy xislatlar ustidan lutf bilan kuladi, hajviy holat yaratadi. Muallimning loqaydligi, o'z kasbiga befarq qarashi, kamfarosatligidan foydalangan o'quvchilar, „ustoz, *bugun rangingiz sarg'ayib qolibdi, ko'zlarizingiz qa'riga tortib ketyapti*“, deb vahimaga solib, o'zlariga qo'shimcha „ozod kun“ olishga muvaffaq bo'ladilar. „Masnaviyi ma'naviy“ning olti jildli mukammal tarjimai atoqli shoir Jamol Kamol (2005—2007) tomonidan amalga oshirildi.

Istanbul shahridan 200 chaqirimchalik Shimoli-G'arbda Ko'nya shahri joylashgan. Bu ko'hna ma'naviyat manzilgohiga yaqinlashganingizda ko'z oldingizda osmono'par niliy gumbazli maqbara namoyon bo'ladi. Obida ro'parasiga kelsangiz, uning yuz xil naqsh-u nigori ziynati ko'zni qamashtiradi. Unga ganch o'ymakorligi, yog'och va mis kandakorligi san'atining qilqalam ustalari qadimiy uslubda zeb bergan. Butun peshtoqlar, devor-



lar-u ustunlarga, hatto darcha panjaralariga Qur'oni karim oyatlari sabt etilgan. Ularni o'qishga „tishingiz o'tmasa“ ham mohiyatini maqbara gumbazining qaysi bir go'shasidan taralayotgan nay sadosi vujudingizga singdirib yuboradi. Jaloliddin Rumiy bir baytida Alloh bizga barcha farz va sunnatlarni bajarish, bir-birimizga g'amxo'rlik qilib yashash uchun umr bergan, degan fikrni izhor etadi:

*Zindagi omad baroi bandagi  
Zindagi bebandagi sharmandagi.*

Nayning sehrangez ohanglari bandalariga shoirning ana shu baytlarini ham eslatayotganday tuyuladi. Uning maqbarasini ziyorat qilish va da'vatkor nay navosini eshitish hammaga nasib etsin!

## **JAHOLATNI QORALAB**

Ahmad Yassaviy umr bo'yi Xudo yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilgan, islom farz-u sunnatlarini targ'ib etib, inson qadrini e'zozlagan allomadir.

Bo'lg'usi shoir va din-u shariat peshvosi Xoja Ahmad Yassaviy XI asrning o'rtalarida Sayramda Shayx Ibrohim oilasida dunyoga keladi. U go'dakligidayoq onasidan, 7 yasharligida otasidan ajraladi. Uni opasi Gavhar Shahnoz tarbiyalaydi. Ahmad dastlab Yassida birinchi ustози Arslon bobo bilan uchrashadi va undan tahsil oladi („Yeti yoshida Arslon bobom izlab topdim“) so'ngra uning tavsiyasi bilan Buxoroga borib, madrasada tahsil ko'radi. Bu yerda u fiqh ilmining ustози Shayxulislom, tasavvuf falsafasi donishmandi Shayx Yusuf Hamadoniydan ta'lim oladi.

Asli Eronning Hamadon viloyatidan bo'lgan Yusuf Eron va Hindistonda o'qiydi. Imom G'azzoliyning ustози Shayx Abu Ali Faryumodiydan dars oladi. So'ngra Xuroson-u Movarounnahrga kelib, Marv, Samarqand, Hirot, Balx, Buxoro shaharlarida faoliyat ko'rsatadi, Buxoro madrasalarida tolibi ilmlarga bir necha yil dars beradi.

Yusuf Hamadoniy umrining oxirida Bomiyonda vafot etadi. Shogirdlar ustozlari jasadini Marvga eltib, dafn qiladilar.

Ahmad Yassaviy ustози vafotidan keyin biroz vaqt Buxoroda uning ishini davom ettiradi. U faoliyatining dastlabki yillaridayoq o'z dunyoqarashini xalq orasida kengroq yoyish

maqsadida turkiy qo‘shiq'larga monand she‘rlar ijod qila boshlaydi. Keyinchalik, Yassiga qaytib, ko‘plab tarafdorlar, shogirdlar orttiradi. Rivoyatlarga ko‘ra, Ahmad Yassaviy 63 yoshga, ya‘ni Payg‘ambar yoshiga yetgach, yer ostiga — yerto‘laga kirib, umrini toat-ibodat, Xudo yo‘lida riyozatda o‘tkazib, 125 yoshida 1166—67-yillar orasida vafot etgan.

Bizga qadar Yassaviydan „Devoni hikmat“ nomli she‘rlar kitobi saqlanib qolgan. Bu asar hamma zamonlarda, barcha turkiyzabon avlodlarga manzur va maqbul bo‘lib kelgan. Zeroki, u insonni asl komillikka eltadigan din, imon, Xudo yo‘lida fidoyilik, e‘tiqodda sobitlik, halollik, poklikni targ‘ib-tashviq etdi. Kishilarni asl maqsad — Xudoga erishmoq payida mashaqqat-riyozat chekmoqqa, ma‘rifat kasb etmoqqa, islomiy va dunyoviy ahkamlarni egallamoqqa chorladi. Filologiya fanlari doktori Ergash Rustamov „Hoja Ahmad Yassaviy Masjidi peshtoqiga Hazrati Rasulullohning „Talabul ilmi farizaton ala kulli muslimin va muslimatin“ — „Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farz“, degan hadisi bitilganini qayd etgan. Bugina emas, Yassaviy hikmatlarida to‘g‘rilik, mehnatsevarlik, mo‘minlarga mehribonlik, insof, muruvvat g‘oyalarini ilgari surgan. Ayrim hikmatlarda biz ijtimoiy adolatsizlikka qarshi keskin fikrlarni, dilozor, mardumozor, muftxo‘r bo‘lmaslikka da‘vatni ko‘ramiz. Ayni paytda Yassaviy, nodonlik, jaholat va razolatni qattiq qoraladi. Shuning uchun ham o‘tmishda Yassaviy hikmatlari singari uning shaxsiyati, shuhrati ham Turkistonda keng tarqalgan. Xalq orasida Yassaviyni donishmand, bashoratchi va nozikbin alloma — Hakim sifatida vashf etuvchi ko‘plab rivoyatlar, latifalar yaratilgan. Afsuski, bu hikoyatlar ko‘hna dastxatlardan saralanib, to‘plab bir kitob holiga keltirilmagan.

O‘tgan asrning 80-yillariga qadar Yassaviy ijodi tarkidun-yochilik, umidsizlikni targ‘ib etadi, deb kamsitib kelindi. Hatto, Ergash Rustamovning „**Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi**“ nomli jiddiy maqolasi atrofida ig‘vo uyushtirildi. O‘tmish madaniy merosiga munosabat o‘zgargan shu kunlarda esa, zahmatkash olimlarimizdan Orif Usmonov, Ibrohim Haqqulovlar Yassaviy ijodini o‘rganib, o‘z merosxo‘rlariga yetkazish, shajarasini aniqlash borasida xayrli ishlarni amalga oshirmoqdalar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti Ibrohim Haqqulovning sa‘yi-harakati bilan Yassaviy

hikmatlarini birinchi bor 1990-yili ko'p nusxada nashr etdi. Shundan keyin „Hikmatlar“ning boshqa nusxasi ham 1992-yili M. Hasaniy tomonidan chop ettirildi. Zukko matnshunos Nodirxon Hasan esa, Yassaviyning „Yangi hikmatlari“ (2004-y.)ni chop ettirdi.

### **Hikmatlarda zamondan shikoyat va zulm-zo'rlikka qarshi tanqid ruhi**

Islomni xaloskor din sifatida qabul qilgan, lekin uning joriy qilinishidan moddiy manfaat ko'rmagan mehnatkashlar uni ezish quroliga aylantirgan hukmdorlar, rasmiy din arboblari qarshi kuchli norozilik bildirmoqda edilar. Tasavvuf o'zining ilk davrlaridan (IX asrning boshlaridan) boshlab mana shu noroziliklarni o'zida aks ettiruvchi falsafiy oqim sifatida maydonga keldi. „Uning yirik vakillari urush va qirg'inga qarshi chiqar, hukmdor va amaldorlarni nafsni chegaralash, halol mehnat bilan kun kechirishga da'vat qilar, dunyoparastlikdan qattiq nafratlanar edilar. Ular hirs va havasni boylik orttirish va xususiy mulkchilikka berilish kabi insondagi nuqsonlarni adolatsizlikning asosiy manbayi hisoblar edilar“ (Ergash Rustamov).

Ma'lumki, Ahmad Yassaviy davrida ham mana shunday zulm-zo'rlik, manfaatparastlig-u xudbinlik, riyokorlig-u munofiqlik, o'zaro qirg'in urushlar avj olib turar edi; g'aznaviylar va saljuqiylar davridagi uzluksiz davom etgan g'azovotlar, o'zaro feodal qirpichoqliklar, qoraxitoylarning qoraxoniylar yurtini xonavayron etgani, tog'li g'uzlarning Marv va G'azna shaharlariga o't qo'yishi xalqning tinkasini quritgan edi. Shuning uchun ham Yassaviy „**Hikmat**“larida ana shu davr illatlariga qarshi aks sado o'z ifodasini topgan. Quyidagi she'r bosqinchilar, o'zaro toj-u taxt talashuvchilar tomonidan talanib, o'g'il-qizlari asirlikka olinib, qul sifatida haydab ketilgan va sotilgan xalqning dard hasratining otashin alangasidir:

*Kun ko'rmagan esiz mahbub mahporalar,  
Yuraklari qo'rqib bo'ldi sadporalar,  
Dardlariga davo topmay bechoralar,  
Munglug' bulbul, kofirga xor bo'ldi, ko'rung.  
Jondin ortuq ko'rgan jononalar,*

*Yuzi — oy, ko‘zi — cho‘lpon mastonalar,  
Bo‘ylarini hech ko‘rmagan begonalar,  
Kofirlarg‘a zor-u hayron bo‘ldi, ko‘rung.  
„Onam“ teyu kecha kunduz yig‘layurlar,  
Orib qolg‘on bo‘talardek bo‘zlayurlar,  
Yetim qolg‘on qo‘zi yanglig‘ mangroyurlar,  
Nolishig‘a tosh erib suv bo‘ldi, ko‘rung.*

Ayrim hikmatlarda Yassaviy mehnatkash xalqni talayotgan zamon g‘addorlarini ro‘yirost tanqid qiladi, adolatli, mehr-shafqatli bo‘lishga chorlaydi. Xususan, shayx-zohidlar, ayrim mullalardan diyonat ketgani, zulm-zo‘rlikka berilib, yetim-yesir, fuqaro haqqini yeyishdan qo‘rqmayotgani fosh etiladi. XI—XII asrlarda Xuroson-u Movarounnahrda yuz bergan qahatchilik, mo‘g‘ullar istilosining asoratlari tanqid qilinadi. Adolat, insof, rahm-shafqat o‘rnini bediyonatlik, takabburlik olganidan noliydi, himoyasiz qolgan xalqqa hamdardlik izhor etadi. Bunday hikmatlarda ijtimoiy ruh bilan ma’naviyat haqidagi fikrlar qorishib ketadi:

*Na anoda rahm qoldi, na atoda,  
Og‘o-ini bir-birig‘a mojaroda.  
Musulmonlik da‘vo qilur, ichar boda,  
Mastlig‘ bilan qarindoshdin tondi, ko‘rung.  
Nokas, xasis, bediyonat qullar hokim,  
Moumanlik haddin oshib bo‘ldi zolim,  
Xalq ichinda xor bo‘ldilar darvesh, olim,  
Himoyati xalqni kofir bo‘ldi, ko‘rung.  
Eshon, shayx, xo‘ja, mullo dunyo izlar,  
Ul sababdin podshohlarg‘a yolg‘on so‘zlar,  
Oyat, hadis so‘zin qo‘yub, mulkni ko‘zlar,  
Haq yo‘lida hargiz mehnat tortqoni yo‘q.  
Oxir zamon shayxlar ishi hamma riyo,  
Ro‘zi mahshar riyolari bo‘lg‘ay guvoh,  
Shayxman teku muncha havo muncha bino,  
Alloh uchun zarra javob etkoni yo‘q.*

Ayni paytda shoir beva-bechoralarga rahm-shafqatli, xayr-saxovatli, muruvvatli, ochiqqo‘l bo‘lishga ham chorlaydi, xalq boshiga „turli balo“ yog‘ganidan afsus-nadomat chekadi:

*Ahli dunyo xalqimizda saxovat yo‘q,  
Podsholarda, vazirlarda adolat yo‘q.  
Darvishlarni duosida ijobat yo‘q,  
Turluk balo xalq ustiga yog‘di, do‘stlar.*

Yassaviy hikmatlarida jaholat va razolatni qoralash, nodonlik, do‘stlikka xilof ish qilish, manmanlik tanqid qilinadi:

*Duo qiling nodonlarning yuzin ko‘rmay,  
Haq taolo rafiq bo‘lsa, birdam turmay,  
Bemor bo‘lsa, nodonlarni holin so‘rmay,  
Nodonlardin yuz ming jafu ko‘rdum mano.  
Ayo do‘stlar nodon birla ulfat bo‘lub,  
Bag‘rim kuyub, jondan to‘yub o‘ldim mano.  
To‘g‘ri aysam egri yo‘lga bo‘yin to‘lg‘ar,  
Qonlar yutub, g‘am zahrig‘a to‘ydum mano.  
Qayda ko‘rsang ko‘ngli sinuq malham bo‘lg‘il,  
Andoq mazlum yo‘lda qolsa hamdam bo‘lg‘il.  
Ummat bo‘lsang g‘ariblarg‘a tobe‘ bo‘lg‘il,  
Oyat, hadis har kim aytsa, som‘e bo‘lg‘il.  
Oqil ersang, g‘ariblarning ko‘nglin ovla,  
Mustafodek elni kezib, yetim ovla.  
G‘arib, faqir, yetimlarni qilg‘il shodon,  
Haqlar qilib, aziz joning ayla qurbon.  
Taom topsang joning bila qilg‘il ehson,  
Haqdin eshitib, bu so‘zlarni aydim mano.*

Bir to‘plam hikmatlarda shoir kishilarni qadrdon, halol-u pok, ilm-donishli, diyonatli, imon-e‘tiqodli bo‘lishga da‘vat etadi; dilozordan Haq bezor, barchaga yaxshiliq qilmoq — har bir mo‘minning bosh shioridir; chunki, mardumozorlikning jazosi qattiq:

*Sunnat ermish kofir bo‘lsa, berma ozor,  
Ko‘ngli qattig‘ dilozordan Xudo bezor.  
Oqil ersang eranlarg‘a xizmat qilg‘il,  
Amri ma‘ruf qilg‘onlarni izzat qilg‘il.*

Sabr-u qanoat, juvonmardlik, maqsad yo‘lida fidoyilik qilmoq ham haqiqiy oshiqning fazilati; u yo‘ldan ozgan gumrohlarni yo‘lga solmog‘i darkor; e‘tiborlisi shundaki, har bir so‘z, ibora nihoyatda sodda, ayni paytda mazmuni teran, undan kuzatilgan g‘oyaviy niyat umumbashariy mohiyatga molikdir.

*Nafsdan kechib, qanoatni pasha qilg'on,  
Har kim topsa, rozi bo'lub, bo'yin sung'on.  
Yaxshilarga xizmat qilib, duo olg'on,  
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo'q.*

\* \* \*

*Banda bo'lsang manmanlikni zinhor tashla,  
Saharlarda joning qiynab, tinmay ishla.  
Yo'ldan ozg'on gumrohlarni yo'lga boshla,  
Bir nazarda dillarini safo qildim.*

Mutakabbir, manmanlikka berilgan odamni, o'z qadrini bil-  
magan, o'zgal qadrini e'zozlamaganlarni inson sanab bo'lmaydi:

*Hayfi odam o'z qadrini o'zi bilmas,  
Manlik qilib, yaxshilarni ko'zga ilmas.*

Bu dunyoda kimda-kim nafsning gapiga kirsa, nafs yo'lida  
yugurib-yelsa, oxir-oqibat rasvo bo'ladi. Shuning uchun nafi  
baddin yiroq yurgan ma'qul!

*Nafs yo'lga kirgan kishi rasvo bo'lur,  
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib, gumroh bo'lur.  
Nafsing seni oxir damda gado qilg'ay,  
Din uyini g'orat qilib, ado qilg'ay,  
Oqil ersang nafi baddin bo'lg'il bezor.*

Haqiqatan ham oriflikning asosiy belgisi, komillikka erish-  
moqning yo'li ikki nafsdan ham parhezkorlik, saxovatpeshalik,  
juvonmardlig-u haqo'ylikdir. Hikmatlarda yolg'onchilik, ikki-  
yuzlamachilik, tovlamachilik, hirs, tamagirlik singari chin oshiqqa,  
oriflarga nomunosib g'ayriinsoniy xislatlar la'natlanadi, muno-  
fiqlar qoralanadi, tanqid qilinadi:

*To'g'ri yurgan oshiqlardan Xudo rozi,  
Oshiq ishi oson emas, qilma bozi.  
Yolg'onchilar oshiq men, der Alloh qozi,  
Imonini puchak pulga sotar ermish.  
Ey birodar, munofiqqa bo'lma ulfat,  
Kim ulfatdur, boshi uzra yuz ming kulfat.*

„**Devoni hikmat**“ tarkibidagi quyidagi fikrlar kitobdagi butun  
axloqiy, ma'rifiy, ishqiyy, insoniy mulohazalarning umumlashma  
yakuniga o'xshab ko'rinadi: chunki bu baytlarda komil inson uchun

majburiy bo'lgan barcha farz va sunnatlar g'oyatda ixcham tarzda o'z ifodasini topgan:

*Xayr-u saxo qilg'onlar, yetim ko'nglin olg'onlar,  
Chahor yorlar hamrohi kavsar labinda ko'rdum.  
Omil bo'lg'on olimlar, yo'lg'a kirgon osiyalar,  
Andog' olim joyini dorussalomda ko'rdum.  
Mufti bo'lg'on olimlar, nohaq fatvo berganlar,  
Andog' mufti joyini sirot qo'frugda ko'rdum.  
Zolim bo'lub zulm etgan, yetim ko'nglin og'ritgan,  
Qaro yuzlug' mahsharda qo'lin arqoda ko'rdum.  
Tun-u kuni uxlamay hu zikrini aytqanlar,  
Maloyiklar hamrohi arshni ustida ko'rdum.*

Ahmad Yassaviy hikmatlari nafaqat g'oyaviy jihatdan, balki badiiy nuqtayi nazardan ham XII asr turkiy she'riyatning mumtozidir. Zeroki, ular g'oyatda ravon ohangda, jonli tilga yaqin iboralarda bitilgan. Har bir so'z va ibora qat'iy mezonga, muvozanatga ega. Oxirgi misra — naqarotomuz bo'lib, bandlarini bir-biriga payvast etib turadi. Bundan tashqari, biz hikmatlarda Fir'avn, Qorun, Faridun, Muso, Vomiq, Uzro, Yusuf, Farhod, Majnun, Od, Shaddod, Mansur, Shibli, Boyazid, Junayd, Zunnun, Ya'qub, Zulayho, Zol, Rustam singari o'nlab afsonaviy, tarixiy nomlar bilan bog'liq rivoyatlar, naqlar, hikoyat va masallarga ishoralarni, ramzlarni ko'ramiz. Shuningdek, puli sirot, obi kavsar, salsabil, mahshargoh, arafot, arosat va boshqa atamalar, Rasululloh, sahobalar, chahoryorlarning faoliyatlariga doir tafsilotlar haqidagi qaydlarga ham duch kelamiz. Ular kitobxonni o'ylashga, fikr yuritishga undaydi, tafakkur qirralarini charxlashga yordam beradi. Quyidagi baytlarda butun bir tarix o'z aksini topganday. Ularni to'la sharhlashga bir kitob bitmoq lozim:

*Yunusdek ham daryo ichra baliq bo'lsam,  
Yusufdek ham quduq ichra vatan qilsam,  
Yoqubdek ham Yusuf uchun ko'p yig'lasam,  
Bu ish birla, Yorab, seni topg'aymumen?  
Shiblidedek ham oshiq bo'lub samo ursam,  
Boyaziddek tun-kun tinmay Ka'ba borsam,  
Ka'ba ichra yuzum surtub zor ingrasam,  
Bu ish birla, Yorab, seni topg'aymumen?*

*Ma'rufdek ham ushbu yo'lga qadam qo'ysam,  
Mansurdek ham jondan kechib dorga qo'nsam,  
Dor uzra shavqdanibon haqni aysam  
Bu ish birla, Yorab, seni topg'aymumen.*

Ko'rinib turibdiki, Yassaviy hikmatlarida insoniyat paydo bo'lgandan beri tarixiy haqiqat, afsonalar, rivoyatlar, turli islomiy arboblal, diniy-falsafiy oqimlar asoschilarining hayoti, turmush tarzi, komillik yo'lidagi tutgan rusumi g'oyatda nafis, tadrijiy takomilda o'z aksini topgan. Bunday hikmatlarni o'qib bilimimiz chuqurlashadi, imonimiz but bo'ladi, hayotga qarashimiz teranlashadi, Allohga erishmoq iznida riyozat chekmoq mashaqqatlarini his etamiz. Bu baytlardagi har bir so'z, ibora, hatto izofa zamirida nozik nuqtalar qat-qat bo'lib yotibdi. Ana shularni to'g'ri idrok etib, aniq tushungandagina biz maqsadga erisha olamiz. Yassaviy hikmatlari botinida yashirinib yotgan pand-nasihatlar, inson kamoloti yo'lida amalga oshirishi, bajarilishi lozim bo'lgan burch, vazifalar tasviri hamon o'z tadqiqini kutmoqda.

### **Hikmatlardan namunalar**

Duo qiling nodonlarning yuzin ko'rmay,  
Haq taolo rafiq bo'lsa, birdam turmay.  
Bemor bo'lsa nodonlarni holin so'rmay,  
Nodonlardin yuz ming jafu ko'rdum mano.

\* \* \*

Ayo do'stlar, nodon birla ulfat bo'lub,  
Bag'rim kuyub, jondan to'yub, o'ldim mano.  
To'g'ri aytsam egri yo'lga bo'yin to'lg'ar,  
Qonlar yutub, g'am zahriga to'ydim mano.

\* \* \*

Yer ostiga kirdim qochib nodonlardin,  
Ilkim ochib, duo tilab mardonlardin.  
G'arib jonim yuz tasadduq donolardin,  
Dono topmay yer ostiga kirdim mano.

\* \* \*

Qayda ko'rsang ko'ngli sinuq — malham bo'lg'il,  
Andoq mazlum yo'lda qolsa hamdam bo'lg'il.



\* \* \*

G'arib, faqir yetimlarni Rasul so'rdi,  
O'shal tuni me'roj chiqib, diydor ko'rdi.  
Qaytib tushib g'arib, yetim izlab yurdi.  
G'ariblarni izin izlab tushdim mano.

## ANDUH KOSHONASI

Forsiy tildagi she'riyatning buyuk siymolaridan biri Xoqoniy Shervoniydir. U Sharq she'riyatida o'ziga xos soz va ovozga sohib san'atkordir. Bo'lajak shoir 1120-yili Shirvonda duradgor oilasida dunyoga kelgan. Onasi nasroniy, otasi ozar bo'lgan. Shoirning to'la ismi Afzaliddin Bedil ibn Alidir. Go'dakligidayoq otasi vafot etib, shoir va tabib amakisi Umar binni Usmon Kofiddinning qo'lida tarbiyalanib, sarf-u nahv, riyoziyot, falsafa singari zamon fanlarini egallaydi. Shundan so'ng iste'dodli yigitcha shoir Abula'lo Ganjaviydan badiiy ijod sirlarini o'rganib, „Haqoyiqiy“ taxallusi bilan she'rlar yoza boshlaydi. Taxminan 25 yoshlarida ustoz yordamida Shirvonshoxdar saroyiga doxil bo'ladi va „Xoqoniy“ taxallusini qabul qiladi. Lekin undagi favqulodda iste'dod, otashqalblik, kun sayin ortib borayotgan shuhratini ko'rolmagan g'alamislar Xoqoniy bilan ustoz orasiga nizo tushiradilar. Natijada ustoz-shogird bir-birlarini badnom qiladigan hajviyalar yozib tarqatadilar. Ahvol murakkablashgach, Xoqoniy 1156-yili hajga borish bahonasi bilan bu mojarodan qutuladi. U salkam ikki yil Ajam-u Arabdagi ko'p shaharlarni kezib chiqadi, Makka va Madinada bo'ladi. Sherionga qaytgach, shoir 3 ming baytdan iborat „Tuhfat-ul-Iroqayn“ masnaviysini yozadi. Shirvonda shoir atrofidagi ig'vo va tuhmat yana alanga oladi. Buning ustiga ketma-ket boshiga kulfatlar tushadi: xotini bilan kenja o'g'li vafot etadi. Mujriiddin Bayloqoniy Xoqoniy nomidan Isfahon xalqini masxaralab, hajviya yozib tarqatadi. Ammo shoir „Sifahon“ nomli qasida yozib, bu tuhmatdan qutuladi. Demak, saroyga yaqin bo'lgan yoki „Saroy shoiri“ deb atalmish ijodkorlar biz o'ylagandek hamisha rohat-farog'atda bo'lmagan. Ularning hayoti doim xavfda, qil ustida turgan.

Atoqli sharqshunos Y.E. Bertels „Nizomiy va Fuzuliy“ (Moskva, 1962-y.) nomli kitobida Xoqoniyning Nizomiyga maktubi tarjimasini keltirgan. Unda shoir o'zining tuhmat va nadomatga duchor bo'lgani, munofiq, riyokor, ikkiyuzlamachi, ko'rinishda

mo‘min, aslida kofirdan ham battar, ilondek zahar sohadigan odamlar orasida qolganidan shikoyat qiladi, ig‘vo, jaholat va razolatni, nopok muhitni qattiq tanqid qiladi. Og‘ir ahvolda qolgan Xoqoniy Shirvonni tark etmoqchi bo‘ladi, lekin ulgurmaydi. Uni tutib olib, Shabron zindoniga tashlaydilar. Shoir she‘riy maktub bilan Ahsatandan madad so‘raydi. Ammo u nomani javobsiz qoldiradi. Uning mashhur „**Hibsiyot**“ qasidasi ana shu zindonda bitilgan. Aftidan Xoqoniy safar paytida Rum (Vizantiya) shahzodasi bilan do‘stlashgan ko‘rinadi. Zeroki, hibsonadan Andronik Kamenga noma — qasida yozib, madad so‘raydi va shoir zindondan ozod etiladi. Shundan so‘ng Xoqoniy ikkinchi marta haj safariga jo‘naydi. Safardan qaytgach, uni yana musibat kutib oladi: to‘ng‘ich o‘g‘li Iziddin Ahmad vafot etadi.

Shoir umrining oxirini Tabrizda muhtojlik, bekas-u benavolikda o‘tkazib, 1199-yili vafot etadi. U shaharning Surxob qabristonidagi „Maqbarat-ush-shuaro“ga dafn etilgan.

Xoqoniydan bizga qadar ulkan she‘rlar devoni va bir doston meros bo‘lib qolgan. Devon 17 ming baytdan iborat bo‘lib, unda 220 ta qasida, 330 ta g‘azal, 300 ta ruboiy, 230 ta qit‘a hamda 450 bayt arab tilidagi she‘rlar jamlangan. Shoir devonining dunyo qo‘lyozmalar xazinalarida ko‘plab nusxalari mavjud. U o‘tmishda va bizning kunlarimizda Tehron, Boku hamda Toshkentda asl nusxasida nashr etilgan.

Xoqoniy she‘riyati mavzu jihatidan ham, g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiyligi jihatidan ham rang-barangdir. Shoir forsiy tildagi she‘riyatda qasida janrining takomiliga eng ko‘p hissa qo‘shgan adiblardan biri hisoblanadi. Ayrim adabiyotshunoslar: „Xoqoniy qasidalarining aksariyati hukmronlar va zodagonlar ta‘rifiga bag‘ishlanganligi uchun mavzusi qashshoq, g‘oyaviy tomondan cheklangan“, degan fikrni bayon etadilar. Bu mulohaza bir yoqlamadir. Zeroki, shoir qasidalarini o‘qigan kishi, ularda ald-u adolat, insof-u diyonat, poklig-u sadoqat, mehrshafqat-u insonparvarlik, ajdodlar an‘anasiga fidoyilik, kasb hunar, ilm-ma‘rifatga e‘tibor g‘oyalari ulug‘langanligini sezadi. Ayni paytda shoir mutakabbirlik, fitna va ig‘vo, zulm-zo‘rluk, badqahrlik, mardumozorlikni qattiq tanqid qiladi, o‘z mamdo‘h — ta‘riflayotgan kishilarida bunday g‘ayriinsoniy xislatlarning bo‘lmasligini orzu qiladi. Eng e‘tiborlisi shundaki, Xoqoniy qasidalarida shoirona hissiyotdan ko‘ra ilmiy-falsafiy tafakkur kuchli. U o‘zining ilmiy mushohadalarini qabariq

ifodalashda tadrij, iltizom, tajdid, majoz, istiora, tazod, tarse', g'ulu, ig'roq kabi o'nlab badiiy usullardan g'oyatda mahorat bilan foydalangankim, bu hol o'sha davrdagi boshqa qasida-navislarda uchramaydi.

Masalan, „**Madoyin ayvoni**“ nomli qasidasida muallif ajdodlar an'anasiga mehr bilan qarash, tarix saboqlaridan to'g'ri xulosa chiqarish, do'stlik, insonlarga yaxshilik qilish, tenglik va birodarlik g'oyasini ilgari suradi; she'rda o'ndan ziyod *tarix, geografiya, handasa, me'morchilik, falakiyot, falsafa, fiqhga* doir nom va atamalarni qo'llaydi; fikrlarini narsa va hodisalarning xossalarini qiyoslash orqali bo'rttirib ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.

Xuni dili Shirin ast on may, ki dihad razbon,  
3-obu gili Parviz ast in xum, ki nihad dehqon.  
Chandin tani jaboron, kin xok furo' burda ast.  
In gurusnachashm oxir ham ser nashud z eshon.

(Mazmuni: *Uzumchi beradigan may Shirin dilining qonidir, dehqon keltirgan xum Parvizning loyidandir. Necha odamlarning tanini tuproq damiga tortgan bo'lsa ham, bu ochko'z ular bilan ham to'ymadi.*)

Bir qator qasidalar jiddiy ijtimoiy mohiyatga ega. Ularda fojialarga, ig'vo va tuhmatlarga to'la shoir hayotining ayrim qirralari, qalb dard-hasratlari yashirinib yotibdi. „Zuhdiyot“, „Hibsiyot“, „Sifahon“ singari qasidalar har jihatdan mumtoz asarlar hisoblanadi. Shuning uchun ham Sharqning ulkan adiblari Xoqoniy qasidalariga naziralar yozishgan. Chunonchi, „Dili man pur ta'lim ast“ so'zlari bilan boshlanadigan qasidaga Amir Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Nasimiy, Fuzuliy singari shoirlar nazira yozishgan.

Miqdor jihatidan g'azal Xoqoniy devonida ikkinchi o'rinda turadi. Garchi uning g'azallari g'oyaviy mundarija, badiiy tasvirning rang-barangligi jihatidan qasidalari darajasiga yetmasa ham, uslub, ifoda tarzi, poetik tilning leksik qatlami nuqtayi nazaridan mutlaqo o'ziga xosdir. Fikrdagi yaxlitlik, voqe'bandlikka, ixchamlikka intilish uning yetakchi xususiyatidir. Bundan tashqari, asosan, forsiy, qisman arab tilida ijod etgan shoir g'azallarida turkiy so'z va iboralarni ko'p qo'llaydi:

Tan garchi suv-u o'tmek az eshon talab kunad,  
Kay mehri shah ba Otsiz-u Bug'ro barafganad?

Ushbu baytda Muhammad Xorazmshoh Otsiz hamda qoraxoniylar sulolasining asoschilaridan biri Bug'roxonning tilga olinishi e'tiborga loyiqdir. Ma'lumki, Xoqoniy Xorazmshohning (1128—1156) saroy shoiri Rashididdin Vatvot bilan noma orqali do'stlashib, shoh nomiga maxsus qasida yo'llagandi. Xoqoniy g'azallarida murakkab iboralarni ishlatmaydi, badiiy-tasviriy vositalar zanjirini yaratishdan qochib, sodda, xalqona baytlar yaratishga intiladi:

*Lashkari g'amzayi tu berun toxt,  
Safi aqlam ba yak nazar bishikast.  
Narasad nomahoi man ba tu z-onki.  
Pari murg'oni nomabar bishikast.*

(Mazmuni: *G'amzang lashkari hujumga o'tgach, bir nazar bilan aqlim lashkarining safi sindi. Noma eltuvchi kabutar qanoti singani uchun mening xatlarim senga yetib bormadi. Umuman, shoir g'azallarida ko'pincha bir soniyadagi taassurotning mo'jaz naqshi ko'zga tashlanadi.*)

Xoqoniy she'rlarini mutolaa qilar ekansiz, qit'a va ruboiylari diqqatingizni o'ziga jalb etadi. Zeroki, shoir bu kichik she'riy janrlarda jiddiy fikrlarni dangal aytishga, o'z dard-hasratlarini to'kib, sochishga, zamon illatlarini fosh qilishga erishgan. Biz shoir ruboiylarida mardlik, halollik, insonparvarlik, kamtarlig-u sabr-qanoat haqidagi pand-nasihatlarini kuzatamiz; o'z boshiga ne-ne kulfat-u nadomatlarini solgan teskari aylanuvchi falakni la'natlash, g'am-hasrat bilan o'tgan umridan afsus-nadomat chekish, nosoz zamonani qoralash ohangini tuyamiz. Ular go'yo shoirning mashaqqatli hayot yo'lini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Bir ruboiysida tog'ning tog' bilan uchrashishiga ishonmay, insonning inson bilan uchrashishiga ishonib yuruvdim-u bu dunyoda biron chin odamni uchratolmadim, degan shoir, boshqa bir ruboiysida butun umri g'am bilan o'tganini uqtiradi:

*Dar g'ussa maro jumla javoni biguzasht,  
Ayyomi sig'ar chunonki doni, biguzasht.  
Dari marg havoyi zindagoni biguzasht,  
Umram hama dar marsiyaxoni biguzasht.*

Mazmuni: *Yigitlik g'ussada o'tdi, sag'irlik ayyomi, bilsang, shunday o'tdi. O'lim ostonasida yashash havosi o'tdi. Butun umrim marsiyaxonlik bilan o'tdi.*

Ko'pgina ruboiylarda „Jahonga sig'maydigan g'ussasi borligi“, „umr bog'ida na sabza, na lola va na sarv ungani“ haqida dard-alam bilan fikr yuritgan shoir saroyda o'tgan umridan afsus chekib, quyidagi xulosaga keladi:

*Har kas, ki zi dahr nimi none dorad,  
V-az bahri nishast yak makone dorad.  
Na xodimi kas buvad, na maxdumi kase,  
K-o', shod bizist, xush jahone dorad.*

(Mazmuni: *Kimda-kim jahonda yarimta non topib, o'tirishga joyi bo'lsa, birovning xizmatkori yoki amaldori bo'lmay, bir jahon egasiday shod yashasin.*)

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Xoqoniy „**Tuhfat ul-Iroqayn**“ safarnoma dostonini ham yozgan. Doston 1157-yili bitilgan bo'lib, olti maqolat va bir necha qismlardan iborat. Har bir maqolat quyosh tasviri va unga xitob bilan boshlanadi. Unda shoir Shervondan Madinagacha bo'lgan shaharlarni ta'riflaydi, ularning hashamatli imoratlari, bog'-u rog'lari-yu qadamjolarni tavsif etadi; mashhur kishilar bilan suhbatlarini keltiradi; u yoki bu shahar xalqining kasb-kori, shakl-u shamoyili, lahjasi, turmush tarzi haqida hikoya qiladi. „**Shohnoma**“dan keyin Sharq she'riyatida quyosh tasvirining eng yaxshi namunasi Xoqoniyda uchramiz. Ushbu masnaviy Ajam va Arab xalqlarining XII asrdagi madaniyati, hunarmandchiligi, ilm-fani, shaharsozlig-u turmush tarzini o'rganishda bir manba sifatida ham xizmat qiladi. U o'ziga xos bir she'riy safarnoma hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, saroy doirasidagi adabiy muhit hamma davrlarda ham g'oyatda murakkab kechgan. Shoh yoki amir hokimiyati markazidagi barcha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy nosozlik ma'naviy muhitga jiddiy ta'sir etgan. Buning ustiga ijodkorlar o'rtasidagi raqobat, obro', martaba talashish ko'pincha fojia bilan tugagan. Hazrat Navoiy atrofidagi g'alamisliklar, uning Astrobodga chetlashtirilishi bunga yaqqol misoldir. Xoqoniy Ahsatan binni Manuchehriy Shironshoh homiyligiga suyansa-da, eng og'ir paytlarda homiy ham shoir taqdiriga befarq qaraydi. Zeroki, Xoqoniy dushmanlari — raqiblari uni

shu holatga keltirdilar. Shuning uchun ham shoirning hayoti va ijodiy merosi chinakam jasorat namunasidir. U olqishlagan yuksak xislatlar hamisha kitobxon qalbida iliq taassurotlar qoldiradi.

## AXSIKAT ANDALIBI

Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanidan chiqib, Mingbuloqqa qarab yursangiz har joy-har joyi qazib tashlangan, yozning chillasida chuqurlarda nimanidir qidirayotgan odamlar yurgan manzilgohga duch kelasiz. Bu IX—XVI asrlar mobaynida Farg‘ona vodiysining markazlaridan biri bo‘lgan, madaniyat, ilm-fan, adabiyot gullagan ko‘hna Axsikat qoldiqlaridir. Arxeolog-qadimshunos olimlar qo‘lga kiritgan dalillar, Yoqut Hamaviy, „**Qomus-ul-a‘lom**“ muallifi Mahmud ibn Vali (XVI asr) va boshqa tarixchilar bu shahardan ko‘plab olimlar, fuzalo-yu shoirlar yetishib chiqqanligini ta‘kidlaydilar va ular orasida shoir Asiriddinni alohida tilga oladilar.

O‘z davrining alloma suxanpardozi bo‘lgan Abulfazl Muhammad binni Tohir Asiriddin Axsikatiy 1126—1128-yillar orasida tug‘ilgan. U dastlabki ta‘limni Vatanida olgach, Farg‘onaga borib, o‘qishni davom ettiradi. Lekin bu yerdagi o‘qish uni qanoatlan-tirmay, tahsilni Balx shahri madrasalarida davom ettiradi. U o‘z davridagi *tib, riyoziyot, kimyo, nujum, hayot, falsafa va mantiq* kabi ilmlarni puxta o‘rganadi; Hirot va Marv shaharlariga safar qiladi; u yerdagi ilm-adab doiralari bilan yaqindan tanishadi. Lekin nima sababdandir u Sulton Sanjar saroyidagi katta madaniy va adabiy harakat doirasiga kirmaydi va uning she‘rlari orasida Sultonga bag‘ishlangan qasida ham uchramaydi.

Shu yillari Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot izdan chiqqan, g‘o‘z qabilalari shahar-u qishloqlarda qatli om uyush-tirib, Sulton Sanjarni asir olgan edilar. Ana shu dahshatdan qo‘rqqan Asiriddin Iroqqa ketishga majbur bo‘ladi. U dastlab Hamadonda yashab, Arslon ibn To‘g‘ral (1160—1179) hamda Qizil Arslon (1185—1191) dargohida xizmat qiladi. Hamadondan bir necha bor Ozarbayjonga safar qiladi. Asiriddin Axsikatiy 1198-yili Vatanidan yiroqda, Ozarbayjonning Holhol qishlog‘ida vafot etadi. Demak, shoir yoshligidan umrining oxirigacha g‘urbatda, moddiy muhtojlikda yashab o‘tgan.

Asiriddindan bizga qadar qasida, g‘azal, qit‘a, ruboiy, fard, tarjiye‘band singari lirik tur janrlaridagi asarlarni o‘z ichiga olgan,

1313-yili Ulviy Koshiy tomonidan ko'chirilgan, she'rlar devoni saqlanib qolgan. U London kutubxonasida saqlanmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Asiriddin umrida biron bir hukmron saroyida muqim turmadi, Hamadon hokimi Muhammad Saljuq va Ozarbayjondagi ayrim hukmronlarni madh etib qasidalar yozgan bo'lsa-da, saroy bilan doimo bog'liq bo'lmagani uchun ularda o'zining erkin, dadil mulohazalarini ham izhor etavergan; ba'zi qasidalarida sargardonliqda chekkan aziyatlar-u qon yutib kechgan umridan qattiq zorlanadi.

Ko'p o'rinlarda hasbihol xarakteridagi ruhiy kechinmalar hayot haqidagi chuqur falsafiy mushohadalar bilan qorishib ketadi. Bunday qasidalarda Asiriddin Axsikatiy shoir-olim sifatida namoyon bo'ladi. Chunki, shoir rang-barang tashbehlarni qo'l-laydi, son-sanoqsiz ilmiy tushunchalarni ishlatadi.

Asiriddin Axsikatiy o'z g'azallarida dunyoviy ishq-muhabbatni o'ziga xos sodda va ravonlikda tasvirlaydi, qasidalaridagidek murakkab tashbeh va qiyoslar-u ramzlarni ishlatmaydi. G'azallari-da ham biz noahil do'stlar-u zamona zulmidan aziyat chekkan, kimni do'st tutsa, muxolif ish tutishidan g'am-u anduhlar gir-dobida qolgan lirik qahramonni ko'ramiz. Ammo oshiqni yorning noz-u firoqi, jabr-u jafosi „diyda purxun“ etsa, bir qayrilib boqishi gulgun etadi:

*Ob megirad zi ro'yash chashmi kas,  
Aksi o' on ob gulgun mekund.*

(Mazmuni: *Uning yuzini ko'rgach, ko'zim suv oladi (ya'ni yig'layman), ammo unga (suvga) tushgan aksi obi diydanni gulgun etadi.*)

Asiriddinning ayrim g'azallari boshdan oxirigacha zamondan shikoyat, o'zi yashayotgan muhit illatlarini ro'yirost tanqid qilish, fosh etishdan iborat. „**Meningdir**“, „**Kelmadi**“, „**O'tajakdir**“ ra-difli g'azallari ham shunday mazmunga ega. Shoirning ba'zi g'azal-lari ham hasbihol mohiyatidadir:

*Bo ki go'yam roz, chun hamdam namond,  
Dard biguzasht az hadd-u, marham namond.  
Naqshi yak hamdam ba man nanmud charx,  
Vin batar, kaz umr ham yak dam namond.*

(Mazmuni: *Bir hamdamim qolmagach, rozimni kimga aytay, dard jondan o'tib ketdi-yu bir malham qolmadi, bu charx menga*

*bir hamdam naqshini ham ko'rsatmadi, buning ustiga umrdan ham bir dam qolmadi.)*

Ammo aksariyat g'azallarida shoir ma'shuqaning lutf-u nazokati-yu visol onlarining zavqini tarannum etadi; dilbari bilan lola sayri-yu bog' gashtini surishni orzu qiladi; gul-u bo'ston tomoshasi yor bilan xushdur:

*Ba tan budam imro'z chun notavone,  
Shudam bo ra'fiqe so'i bo'stone,  
Zi har so', ki kardam nazar gulistone,  
Daraxtone bo'ston arusonu har yak,  
Kushod az zamin lolagun bar bayone.*

(Mazmuni: *Butun vujudimla notavon bo'lgan bu kun bir do'st bilan bo'ston sari yuzlandim. Qaysi tomondan lolazorga boqmayin, ko'zim gulistonga tushdi. Lolarang zamindan bosh ko'targan har bir daraxt kelinchaklarni eslatadi.*)

Demak, Asiriddin she'rlarida tanqidiy ruh bilan birga hayotga, go'zallikka, shodlikka mehr ham hiyla kuchlidir.

Shoir asarlari o'tmishda yaratilgan tazkiralalar, bayozlar va turli to'plamlardan joy olgan. Uning ijodiy merosini tadqiq va targ'ib etishda Y. E. Bertels va I. Hidoyatovlarning xizmatlari katta.

## XORAZM FAXRI

Har galgidek bugun ham Mahmud o'rnidan ko'zini uqalab turdi-da, onasining, „yuz-qo'lingni yuvib, nonushta qil, o'yin qochmaydi“, deyishiga qaramay, varragini olib, tomga chiqib ketdi. Hur-hur esayotgan bahor shabadasi birpasda varrakni osmonga ko'tardi. Varrak havolab yuqorilagan sari, Mahmud uni yanada balandga chiqarmoqchi bo'lib orqasiga tisarilaverdi.

Nogahoniy chinqiriq onani hushyor torttirdi: ne ko'z bilan ko'rsinki varrak allaqayoqlarga uchib ketgan, Mahmud esa tomdan qulab, ingrab yotardi. Onaning dod-voyiga qo'ni-qo'shnilar to'planishdi. Bolani ko'tarib, uyga olib kirdilar. Bu orada otasi Abulqosim ham yetib keldi. Tabib chaqirdilar. U oyoqning singanligini aytib, albatta, jarrohlik muolajasi zarurligini uqtirdi. Jarroh kelib muolaja qildi, jarohatni ochib, suyak zarrachalarini olib tashladi, asosiy suyaklarni o'rniga solib, malham qo'yib, taxtakachladi... Jarohatlar tuzaldi-yu, ammo Mahmud bir umrga oqsoq bo'lib qoldi.



Bu shoʻx bola keyinchalik Zamaxshariy taxallusi bilan oʻzbek madaniyati tarixiga kirib, oʻz zamonasining ulkan ijodkorlari safidan oʻrin oladi.

Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Zamaxshariy 1075-yilda Koʻhna Urganch yaqinida dunyoga kelgan. Bu diyor qoldiqlari Toshhovuz viloyatining Taxta tumanidagi Izmiqshir qishlogʻidadir. Nogiron boʻlib qolganiga qaramay, Mahmud dastlabki taʼlimni qishlogʻida oladi, soʻngra Urganch va Buxoro madrasalarida tahsil koʻrib, mustaqil mutolaa bilan shugʻullangan. Urganchda Zamaxshariy mashhur tilshunos Abumuzar ibn Jarir Zabbiye Isfahoniydan taʼlim olib, til, falsafa boʻyicha mukammal savod chiqaradi. Buxoro madrasalarida oʻqib yurganida esa Nosir Hosiriy, Abu-saʼd Zakoniy, Abulxattob ibn Abulbatir singari zamonasining mashhur olimlaridan saboq oladi; xattotlikni puxta egallab, odamlarga kitoblardan nusxa koʻchirib berib, tirikchilik yuritadi. Tahsildan soʻng Isfahon, Xuroson, Bagʻdod, Xijozga, ikki marta Makkaga safar qiladi. Zamaxshariy biroz vaqt Marvda Saljuqiylar saroyida xizmatda boʻlgan. 1118—1119-yillar ogʻir kasallikka chalingan Zamaxshariy tuzalgach, davlat xizmatini tark etib, arab mamlakatlari boʻylab sayohatga chiqadi. Bir necha yil Iroq va Arabiston yarim orolida yashab, yerli xalqlarni tili, turmush tarzi-yu, ilm-fani, madaniyatini oʻrganadi. Xalq jonli tili, arab adabiyoti bilan qiziqadi. Zamonasining zabardast, fidoyi olimi Mahmud Zamaxshariy 1144-yili vatanida vafot etadi. 1333-yili Xorazmni ziyorat qilgan arab sayyohi Ibn Batuta (1304—1377) Zamaxshariyning maqbarasini Koʻhna Urganch yaqinida koʻrganligini va uning ustiga qubba oʻrnatilganligini yozib qoldirgan.

Zamaxshariy til bilimi, tarix, geografiya, adabiyotshunoslik, etnografiya, axloq-odobga doir 50 dan ortiq asar yozgan. U isteʼdodli shoir ham boʻlgan, gʻazal, qasida, noma, qitʼalarini toʻplab, alohida devon tuzgan. Sheʼrlarda Zamaxshariy koʻproq dunyoning moddiyligi haqida falsafiy mushohadalar yuritadi, kitobxonga axloqiy masalalar xususida pand-nasihatlar beradi. Olim asarlarining oʻttizdan ortiq turli davrlarda koʻchirilgan nusxalari bizgacha yetib kelgan. Olimning „Al-qustos fil-aruz“ („Aruz oʻlchovi“), „Nasoyih-ul-kibor“ („Ulugʻlar nasihati“), „Asos-ul-balogʻa“ („Soʻzamollik asoslari“), „Al-kashshof“ („Ayon etuvchi“), Qurʼoni Karim tafsiri kitoblari Sharq

she'riyati nazariyasini, adabiy-estetik qarashlar tarixini, til tarixini, axloqiy-ta'limiy fikrlar takomilini o'rganishda hamon o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Chunonchi, u yaratgan tafsir hozirga qadar arabshunoslar, fiqh donishmandlarini hayratda qoldirmoqda. Zamaxshariy „Muqaddimatul adab“ („Nafis adabiyot muqaddimasi“) asarini xorazmshoh Alovuddin Abul Muzaffar topshirig'i bilan yozgan. U arab grammatikasi, shevashunosligiga doir o'nlab risolalar bitgan, lug'atlar tuzgan. Olimning „Amoul avdiya val jibol“ („Vodiy va tog' nomlari“) kitobi qadimgi Arabiston va Iroq mamlakatlari geografiyasi hamda xalqlari turmush tarzlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Iroq olimi Fozil Solih az-Samarniy Zamaxshariyning 56 asar yozganini aniqlagan.

Buyuk vatandoshimiz Zamaxshariyning asarlari barcha zamonlarda Sharq-u G'arb xalqlari orasida shuhrat qozongan. Shuning uchun uni ilm-adab ahli „Xorazm faxri“, „Ajam va Arab olimlarining ustodi“ („Ustod-ul Arab val Ajam“) singari nomlar bilan e'zozlashgan. Abusaid Sam'oniy-Marvaziy (1113—1167), Yoqut Hamaviy (1179—1227) kabi olimlar „Nasabnoma“, „Adiblar haqida to'plam“ asarlarida Zamaxshariyning „adiblar peshvosi“ deb ta'riflaganlar. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy „Sab'ayi sayyor“ („Yetti sayyora“) dostonining ustози Abdurahmon Jomiy ta'rifiga bag'ishlangan bobida Zamaxshariyning eslab o'tadi:

*Arabiyatda dars aning viridi.  
Ibni Hojib kamina shogirdi.  
Ibni Hojib demayki, Jorulloh,  
Oncha tafsir ishinda yo'q ogh.*

(Mazmuni: *Arabchadan dars berish uning doimiy ishi, Ibni Hojib unga kamtarin shogirdi, Ibni Hojibgina emas, hatto Jorulloh ham arab grammatikasida unga tenglasha olmaydi.*)

Zamaxshariy oila tashvishlari ijodga xalaqit beradi, deb dunyodan toq o'tgan, ammo ko'plab shogirdlari va asarlarini o'z farzandlaridek bilgan. Ayrim olimlar Zamaxshariy ikki marta Makkai Mukarramada bo'lgan, Qur'on va Hadisni chuqur bilib, mukammal sharhlagani uchun Jorulloh „Allohning qo'shnisi“ degan laqab olgan, deb uqtirishadi. Zamaxshariyning adabiyotshunoslik, tilshunoslik va axloq-odobga doir asarlari bizga hamisha hamdam-u hamrohdir. Uning ijodini o'rganishda

va o‘zbek tiliga tarjima qilishda professor A. Rustamov hamda sharqshunos U. Uvvatovlarning xizmatlari kattadir.

### **Zamaxshariy hikmatlaridan**

Insonning kiyimiga qarama, bilimiga qara. Ilm — bu ota, balki u sut berishda onadan foydaliroqdir. U yomonlikni tuzatish uchun hamma narsadan yaxshiroqdir. Agar tilingni tiymasang, jilovingni dushmaningga berib qo‘yasan.

\* \* \*

Aqlli g‘ofilning holi nodon g‘ofilning umriga siltov bo‘ladi.

\* \* \*

Senga eng yaxshi maslahat: mutakabbirlik bilan yuzingni teskari burma va shon-shuhrating bilan faxrlanma.

\* \* \*

Urishqoq va janjalkash kishi xafalik bilan shodlik orasida yashaydi.

\* \* \*

Haddan oshishingni pasaytir, kibrlanishdan voz kech.

\* \* \*

Yaxshilik bilan inson kamoli, ani qilurgacha yo‘qtir majoli.

\* \* \*

Quyosh nuri berkitilmaydi, haqiqat sham‘i so‘nmaydi.

\* \* \*

Vijdonli kishi xavfdan xoli yashasa, xiyonat qiluvchi kishi behalovat yashaydi.

### **NUKTASANJ SHE’RSHUNOS**

Tong saharlab darvoza taqilladi. Endi namozi bomdoddan forig‘ bo‘lgan mo‘ysafid borib darvoza zanjirini tushirdi. Eshik oldida 35—40 yashar ayol garmsel urgan niholday rangpar qizcha bilan turardi.

— Pirim, qizim og‘ir dardga chalinib qoldi, ko‘rsatmagan tabibim qolmadi, oxirgi umidim sizdan.

— Marhamat, qani ichkariga kiringlar. Mehmonlar ichkariga kirib, tor peshayvondagi ko‘rpacha ustiga o‘tirishdi. Tabib qizchanning tomirini ko‘rdi, ikki chakkasini, qovoqlarini bosib,

ko'zini taftish etdi, qovurg'alarini ham, kuraklarining ostini barmoqlari bilan silab ko'rganday bo'ldi.

— Qizingiz ko'p qon yo'qotibdi, qorinda balg'am yig'ilgan, zardob ham ko'p, qoldirib ketsangiz, muolaja qilib ko'raman, — dedi tabib.

— Mayli xudo xayringizni bersin, eti sizniki, suyagi bizniki, — yalindi onaizor.

— Unday demang, rozi bo'lsangiz, qizingizni men farzandlikka ola qolaman.

— Mingdan ming roziman, joni omon qolsa bo'ldi.

Tabib qizchani kampiri bilan bir oy davomida boqishdi, yuvib tarashdi, tomirdan qon olishdi, eng noyob dorilarni tayyorlab berishdi. Qizcha asta-sekin shifo topib, qayt qilish-u qon ketishlari to'xtab, sog'ayib ketdi. U yangi ota-onaning yumushini qilib, tog'-u toshlardan dorivor giyohlar terishda yordam berib yurdi.

Butun umrini ilm-fan, davlat ishlari-yu tabobatga sarflagan bu zot hamyurtimiz Nizomiy Aro'ziy Samarqandiydir.

Nizomiy XI asrning 90-yillarida Samarqandda tug'ilgan. Uning bolalik yillari ona shahrida o'tgan, madrasada tahsil ko'rib, ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha mukammal bilim olgan. Viloyat hamda taxt uchun feodal urushlar avj olgan bir paytda Nizomiy Aro'ziy Samarqandiy hozirgi Afg'oniston hududiga o'tib, g'o'riylar sulolasi hukmdorlari saroyida ishlaydi. G'azna, Fero'zkuh, Bomiyon va boshqa shaharlarda bo'ladi. Saljuqiylar, g'aznaviylar va g'o'riylar olib borgan xonavayrongarchilik urushlarining bevosita guvohi bo'ladi. Nizomiy Aro'ziy Samarqandiy XII asrning 60-yillarida Bomiyonda vafot etadi.

Olimning bizga qadar yagona „**Chahor maqola**“ kitobi yetib kelgan. Olim o'z asarini 1156—1157-yillar orasida Bomiyonda yozgan. Xudo, Payg'ambar va to'rt xalifa ta'rifiga bag'ishlangan hamd va na'tdan tashqari, to'rt fasl hamda bir hikoyatda dunyoning tuzilishi, yer sferasi, tabiatning moddiyligi, sezgi a'zolari hamda bilish haqida mushohada yuritilgan.

Shundan so'ng dabirlik ilmining sehri, she'r mohiyati va shoir salohiyati, yulduzshunoslik va munajjimlikning mohiyati, tabiblik va tib ilmining ahamiyati haqida to'rt maqola keladi. „Chahor maqola“ O'rta Osiyo va Xuroson xalqlari ilm-fani, madaniyati, adabiy-estetik qarashlari tarixi, u yoki bu yozuvchining hayoti hamda ijodiy merosini o'rganishda benazir

manba hisoblanadi. Zeroki, muallif kitobda oldin oʻtgan hamda oʻziga zamondosh boʻlgan koʻplab astronom, matematik, tib olimlari, adabiyotshunoslar, shoirlar hamda ilm-fanning boshqa sohalari vakillari nomini tilga olgan, asarlari xususida bahs yuritadi, turli munosabatlar bilan eslab oʻtadi, baholi qudrat baholaydi. Ayniqsa, risolaning „Sheʼr ilmining mohiyati va shoirning salohiyati“, „Shoir va sheʼrning qanday boʻlishi“ singari qismlari katta ilmiy, amaliy qimmatga molik. Chunki, bu boʻlimlarda olim hozirgi kunda ham dolzarb masalalar hisoblangan ijodkorning burchi, masʼuliyati, oʻziga talabchan, hamisha izlanishda, oʻrganishda boʻlishi xususida jiddiy fikrlarni yozgan. „Agar shoir yoshlik ayyomida va yigitlik davronida, — deb yozadi Nizomiy Aroʻziy, — oʻtmish shoirlarining sheʼrlaridan 20 ming baytni xotirasida tutmasa, zamondoshlarining asarlaridan 10 ming misrani yod bilmasa, ustodlar devonini doimo mutolaa qilmasa, soʻzning nozik tomonlari va qiyin joylarini qanday yoʻl bilan hal etganliklarini oʻrganmasa, yuksak darajaga yetmaydi. Hamda sheʼr navlari va yoʻllari uning tabiatida oʻz ifodasini topmaydi, sheʼrning yaxshi yoki nuqsonli tomonlari aqtning sahifasida oʻz aksini koʻrsatmaydi, soʻzlari buyuklik tomon, taʼbi noziki esa kamolot sari mayl koʻrsatmaydi“. Ijodga loqayd qaraydigan, noʻnoq shoirlarni qoralagan adib yosh olimlarga, sohibi isteʼdod qalamkashlarga gʻamxoʻrlik qilish, ularning tarbiyasiga jiddiy eʼtibor berish lozimligini alohida uqtirib oʻtadi. „Shoir yosh boʻlsa-yu, sheʼrlari yaxshi boʻlmasa, ammo qobiliyatli boʻlsa uning yaxshi shoir boʻlishiga umid qilsa boʻladi. Oliyjanoblik qoidasi boʻyicha bunday shoirning tarbiyasiga kirishish vojib, u haqda qaygʻurish farz, mehribonlik koʻrsatish shartdir“, — deb taʼkidlaydi muallif. Shundan soʻng muallif yosh ijodkorlar sheʼriyat nazariyasiga doir oʻtmish ajdodlar yaratgan asarlarni puxta bilishi, xususan, aruz va qofiya masalalariga doir kitoblarni oʻrganish zarurligi haqida fikr yuritadi hamda mutolaa qilish lozim boʻlgan ilmiy risolalarning nomlarini sanab oʻtadi.

Badiiy asarda shakl va mazmun birligi, sheʼriyatning inson tafakkuriga taʼsiri, badiiy-estetik, taʼlim-tarbiyaviy ahamiyati, oʻtmish ajdodlarning madaniy-adabiy merosiga hurmat bilan qarash, ularni toʻplash, koʻchirib kitob qilish xususidagi mulohazalari katta ahamiyatga ega. Shoir va sheʼrning qanday boʻlishi,

yaxshi badiiy asarning qadri, mangu barhayotligi xususidagi mana bu mulohazalar ham g'oyatda maroqlidir.

Muallifning fikricha, hukmronlar ijodkorlarga, shoirlarga e'tibor berishi lozim, ularni e'zozlash, asarlarini qadrlash zarur. „Chunki podsho... o'lim farmonini olgach, uning lashkarlari, xazinasi va qimmatbaho narsalaridan hech vaqo qolmaydi. Faqat nomigina shoirlarning she'ri orqali boqiy qoladi... Shoir majlislarida shirinkalom va do'stlar davrasida ochiq chehra bo'lishi lozim. She'rlari esa hayot sahifasida boqiy qoladigan, pokiza tabiatli kishilar tilidan tushmaydigan, bayozlarga yozib olinadigan va shaharlarda o'qiladigan darajaga yetgan bo'lishi zarur“.

Yaxshi badiiy asarning barhayotligi, inson kamolotiga, estetik didiga ta'siri borasida fikr yuritganda Nizomiy Aro'ziy Hanzala Badg'isiy, Abu Abdulloh Rudakiy va Abulqosim Firdavsiylarning nomi hamda asarlarini hurmat bilan tilga oladi. Chunonchi, oddiy qo'shchi Ahmad Abdulloh al-Xo'jastoniya Badg'isiyning ikki bayti ta'sirida jangovar sipohiy, mashhur lashkarboshi, oqibat natijada hukmdor darajasiga yetadi. Forsiy tildagi she'riyatning asoschisi Rudakiyning „Bo'yi jo'yi Muhiyon oyad hame“, — deb boshlanadigan mashhur qasidasi amir Nasr Ibni Ahmad boshchiligidagi a'yonlarda Vatanga mehrni tug'yon urdiradi. Sulton Mahmud „Shohnoma“ni yetarlicha qadrlamadi, ammo bu asar hamon kishilarni gumanizm, vatanparvarlik, qahramonlik ruhida tarbiyalab kelmoqda. Muallif o'nlab shoirlar taqdiri va ijodi misolida ana shu xildagi mulohazalarni bayon etadi.

Nizomiyni bu asari ingliz, nemis, rus tillariga tarjima qilingan. Uni o'zbek tiliga esa sharqshunos Mahmud Hasaniy o'g'irgan.

Xullas, Nizomiy Aro'ziy Samarqandiyning ilmiy qarashlari, xususan, adabiyotshunoslikka doir nazariy mulohazalari hamon o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

## XALQ DARDIGA HAMROZ

O'tmishdagi aksariyat shoirlarimiz Anvariyni ustod san'atkor sifatida zikr etadilar. G'arbiy Yevropa adiblari esa uni forsiy tildagi she'riyatning „payg'ambarlaridan“, deb ataydilar. Buning siri nimada? Gap shundaki, hali kichik she'riy janrlarda katta tajriba bo'lmagan bir davrda Anvariya lirik turning barcha

janrlarida mumtoz asarlar yaratdi, qasidaning shakl va mavzu doirasini kengaytirdi, she'riyatni zamon ruhiga yaqinlashtirdi. Natijada saljuqiylar sulolasi adabiy muhitida o'ziga xos bir maktab yaratgan shoir darajasiga yetdi.

Avhaduddin Ali ibn Muhammad ibn Is'hoq Anvariylar 1105-yili Hovaron o'lkasi, Abevard viloyatining Badka qishlog'ida tug'ilgan. Anvariylar yoshligidanoq ilm o'rganishga berilib, nujum, tib, handasa, ilmi bade', hikmat, falsafa va boshqa fanlarni o'rgandi. Tus madrasasida o'qib yurganidayoq „Xovariylar“ taxallusi bilan ishqiy she'rlar yoza boshladi. Xuddi shu davrda saljuqiy hukmronlar saroyida, xususan, Sulton Sanjar hokimiyati paytida (1118—1157-y.) turli xil ijodkorlar jamlangan adabiy muhit mavjud edi. Anvariylar taxminan 20 yasharligida ana shu she'riyat doirasiga doxil bo'ldi. XII asrning o'rtalaridan boshlab, Xurosonda notinchlik sodir bo'ladi. Markaziy hokimiyat bilan viloyat feodallari o'rtasida jiddiy kelishmovchilik yuz beradi. Xorazmshohlar bir necha bor bosh ko'taradilar. Xususan, Afg'onistonning tog'li viloyatlaridagi g'ozlarning markazga hujumi ko'p falokatlar keltiradi: obod shaharlar vayron qilinadi, yondiriladi, ilm-fan, madaniyat kishilari o'ldiriladi yoki to'rt tomonga tarqalib ketishadi, ilm-u urfon tanazzulga yuz tutadi, Marv, G'azna kabi shaharlar huvillab qoladi.

Anvariylar dastlab Marvdan Nishopurga, u yerdan esa Balxga o'tib yashashga majbur bo'ladi. Lekin Futuhiylar Marvaziy nomli shoir g'arazli niyat bilan Anvariylar nomidan Balx va uning xalqini masxaralovchi hajviya yozib tarqatadi. Shoir og'ir ahvolda qoladi va „Qasamyod“ nomli qasida bitishga hamda shahar qozisi Hamudiddin yordamida bu malomatdan qutulishga erishadi.

Hasbihol yo'nalishidagi qasidalaridan birida shoir o'zining darbadar yurishi, tuhmat, fitna-yu malomat o'qiga nishon bo'lib, g'am-hasratda umr o'tkazib yurganligini, qay yurtga borsa ham noxushlik peshvoz chiqqanligini ifodalaydi:

*To omad az adam ba vujud asli paykaram,  
Juz g'am nabud bahra zi charxi sitamgaram.  
Xun shud dilam dar orzuyi on ki yak nafas,  
Bahri g'am zi gulshani shodi gule baram.*

(Mazmuni: *Tanam yo'qlik olamidan vujudga kelgandan buyon sitamgar charxdan g'amdan o'zga narsa nasibam bo'lmadi. Shodlik*

*gulshanidan tikonning zahrisiz bir gul terish orzusida bag'rim qon bo'ldi.)*

Og'ir, mashaqqatli hayotga qaramay, shoir *ishqiy, hajviy she'rlar, qasidalar* yozish, ilmiy risolalar bitish bilan mashg'ul bo'ldi. Anvariylar 1187-yili Balxda vafot etadi.

Anvariydagi bizga qadar g'azal, ruboiy, qit'a, qasida kabi janrlardagi she'rlarni o'z ichiga olgan katta hajmdagi devoni, ilmiy risolalar meros bo'lib qolgan. Tabiatan sho'x, hazilmutoyiba, rostgo'ylikka moyil Anvariylarning she'rlari lirik qahramonning nozik tuyg'ulari, hikmatomuz baytlar, munofiq kishilar, zolim feodallar-u riyokor do'stlarni tanqid va fosh etuvchi she'rlar bilan omuxta bo'lib ketadi. Shoir asarlari inson kamoloti, hayot va koinot, ijtimoiy borliq va inson tafakkuri haqidagi ilmiy, falsafiy mushohadalarga boy, turli-tuman ruhiy kechinmalarning rang-barang beqiyos tasvirlariga serobdir. Uning nuktasanj-u nozikbinligi tab ahlini hayratga soladi.

Biz oshiqning vafosizlikdan, muruvvatsizlig-u paymonbuzarlikdan shikoyati zamirida mavjud ijtimoiy tuzumdan, hukmron tabaqalardan nolishini sezamiz. Shuning uchun ham yuksak axloq-odobni, insonparvarlig-u samimiylilikni targ'ib etgan shoir mardumazor, jangjo'yi odamlarni tanqid ostiga oladi, xalqning zulm-zo'rlikka nisbatan nafratini ifodalaydi. Ikki kishining munozarasi shaklidagi bitilgan bir g'azalda shoir „Hokimlardagi barcha mulk xalqnikidir“ degan fikrini ilgari suradi:

*Durri marvorid chashmi ashki atfoli man ast,  
La'l-u yoquti sitamash xuni aytomi shumost.  
Onki tobi sabu payvasta as xostast,  
Gar bijo'y, to ba mag'zi ustuxonash oni most.*

(Mazmuni: *Tojidagi durr-u marvarid farzandlarimning ko'z yoshidir. Zeb-ziynatidagi la'l-u yoqut ajdodingizning qonidir, modomiki bizdan sharob suvini olar ekan, bilsangiz, suyaklaridagi iligi ham biznikidir.*)

Anvariylar saroyga yaqin turib, hukmronlarga atab qasidalar yozgan bo'lsa ham, moddiy qiyinchilikda yashadi, zamonasining murakkab ziddiyatlarini, oddiy mehnatkash xalqning hayotini, yurtda yuz berayotgan ijtimoiy adolatsizlikni zukkolik bilan kuzatgan, unga hamnafas hamdard san'atkordir. Shoir ishq-mu-



habbatni, hayot go‘zalligi-yu tabiat jozibasini rang-barang obrazlarda tasvirlagan, ulug‘lagan. U yorining noz-u firoqi, ag‘yorning g‘alamisligi, judolik dardini o‘tkinchi deb biladi, visol onlari kelishiga ishonch bilan, kelajakka umid bilan yashaydi:

*Gar baloye mekasham, aybam makun,  
Kin balo oxir ba kore mekasham.  
Zahmati sarmoi sard az mohi day,  
Bar umedi navbahore mekasham.*

(Mazmuni: *Boshimga biron balo kelsa, ayb etmagin, ertangi kun umidi bilan uning zaxmini tortaman. Bo‘lajak navbahor ishtiyoqida qishning qattiq sovug‘iga bardosh beraman.*)

Forsiy tildagi she‘riyatda Anvarieng ko‘p qasida yozgan va bu janr imkoniyatlarining yangi qirralarini ochgan ijodkordir. Bizga qadar uning 250 dan ziyod qasidalarini yetib kelgan. Shoir qasidalarini o‘qir ekanmiz, an‘anaviy vasf-madhiyalar bilan birga hasbe-hol, axloqiy-ta‘limiy mazmundagi fikr mulohazalarini kuzatamiz, davrning turli-tuman voqealari bilan oshno bo‘lamiz: xalq dardi, Vatan taqdiri haqidagi dardkash mushohadalarga sherik bo‘lamiz. Demak, Anvarieng sirtidan qaraganda faqat madhiya mohiyatiga molik bo‘lishi lozimdek tuyulgan qasidaga ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-siyosiy masalalarni olib kirdi, xalqparvarlik, insonparvarlik, vatando‘stlik g‘oyalari ifodalashga erishdi. Bu g‘oya „Xuroson ko‘z yoshlari“ qasidasida, ayniqsa, mukammal o‘z aksini topgan. Unda shoir xonavayron bo‘lgan xalqning g‘am-hasaratini, dushman oyog‘i ostida xarobaga aylangan obod shaharlar-u, bog‘-u bo‘stonlar manzarasini qalb iztiroblari bilan chizadi. Samarqand hokimidan madad so‘rash ohangida bitilgan baytlar kitobxon qalbida vatando‘stlig-u insonparvarlik tuyg‘ularini jo‘sh urdiradi; o‘zaro feodal urushlar, taxt-toj talashish, behudaga xalq qoni to‘kilishiga nafrat uyg‘otadi.

*Bar buzurgoni zamona xurdon shuda solor,  
Bar karimoni jahongashta laimon mehtar,  
Bar dari dunon ahror hazin-u hayron,  
Dar kafī rindon abror asir-u muztar,  
Shod, illo dari marg nabini mardum,  
Bikr, juz dar shikami mom, nayobi duxtar...  
...Xalqro z-in g‘am faryodras, ey shohnajod,  
Mulkro z-in sitam ozod kun, ey pokgular.*

Mazmuni: *Zamona ulug'lariga go'daklar bosh bo'ldi, jahon buyuklariga pastkashlar rahnamo bo'ldi, donolar nodonlar dargohida hayron-u g'amgindur, sharobxo'rlar changalida oqillar asir-u g'amgin, ajal ostonasida turgan xalqda shodlik na qilsun, ona qornidan o'zga joyda qiz bolani topolmaysan... Ey, shohnajod, bu g'amgin xalqning faryodiga yet, mulkni bu sitamdan ozod et, ey, pok gavhar.*

Qasida boshidan oxir ana shunday otashin mulkparvarlik, fuqaropeshalik, ilm-u urfon toptalishiga achinish ruhi bilan sug'orilgan. Demak, Anvariylar she'riyatining o'zining janr jihatidan rang-barangligi, g'oyaviy nuqtayi nazardan o'sha davr adabiy muhitidan bir daraja yuksak turishi bilan hamisha shuaro-yu fuzalo diqqatini jalb etib kelgan. Shoir ijodini o'rganish va nashr etishda V. A. Jukovskiy, R. Hodizoda, A. Abdullayev singari olimlarning xizmati katta. O'zbek adabiyotshunosligida Anvariylar ijodiga bag'ishlangan tadqiqot yaratilmagan, she'rlari o'zbek tiliga hali tarjima qilinmagan.

## XAMSACHILIK KASHSHOFI

Bahrom Go'r shikorga chiqqanida o'z mahoratini namoyish qilish uchun yonidagi malikadan uzoqda ko'ringan kiyikni qanday otib berishni so'raydi. Malika unga, „bir o'q bilan qo'lini qulog'iga mixla, ikkinchisi bilan bo'g'izla“, deydi. Bahrom bir o'q bilan ohuning qulog'ini nishonga oladi. Jaro-hatlangan, qulog'ini qashlayotgan kiyikni oyog'ini ikkinchi o'q bilan „qulog'iga mixlaydi“ va hunariga baho istaydi. Qiz bo'lsa, „bu yerda hech qanday sir, mahorat yo'q, bu mashqning mahsuli“, deydi. G'azablangan Bahrom suyukli qizni sahroda qoldiradi va bir sardorga o'ldirib yuborishni buyuradi. Shoh ketgach, oqila ayol, „shoh g'azabida shunday qildi, keyin afsuslanadi. Sen meni bir pana manzilga eltib qo'y“, deb bo'ynidagi durning bir donasini sardorga beradi. Haligi xizmatkorning shahar chetida ulkan bog'i bor ekan. Sardor raqqosa, sozanda qizni o'sha yerga eltibdi va uning iltimosiga ko'ra 60 zinali bir ayvon qurdiribdi. Qiz har kuni yangi tug'ilgan bir buzoqni o'sha zinalardan yuqoriga ko'tarib chiqib, olib tusharkan. Buzoq novvos bo'lganida ham zinalardan erkin ko'tarib chiqib, olib tushar ekan. Kunlardan bir kun qizning iltimosiga ko'ra xizmatkor ovdan qaytayotgan Bahromni o'sha

ayvonga mehmondorchilikka taklif etibdi. Ayni ziyofat qizigan paytda malika buqachani ayvonga ko'tarib chiqibdi va pastga olib tushib qo'yishni shohdan iltimos qilibdi. Shunda Bahrom, „buning ajablanadigan joyi yo'q. Bu mashq mahsuli“, debdi. „Nega endi kiyikning oyog'ini o'q bilan qulog'iga tushovlash mashq hosili emas ekan-u, buzoqni oltmish zinaga ko'tarib chiqish mashq mahsuli ekan“, debdi ta'na bilan qiz. Bahrom qilmishidan pushaymon bo'lib, sevgilisini saroyga eltibdi.

Sharqda besh dostonidan iborat „**Xamsa**“ yozishni boshlab bergan Nizomiy Ganjaviy ko'plab shunday ibratomuz hikoyalari muallifidir. Abu Muhammad Ilyos binni Yusuf Nizomiy 1141—1143-yillar orasida hozirgi Ozarbayjonning Ganja shahrida ma'rifatli oilada dunyoga keladi. Uning otasi Eronning Qum shahridan bo'lgan, onasi esa harbiy sarkardaning qizi edi. Ota-onasining vafotidan so'ng, yosh Yusufning tarbiyasi bilan tog'asi Xoja Umar shug'ullanadi. Nizomiyning ajdodlari, tahsil yillari va qaysi madrasalarda o'qigani ma'lum emas. Ganja X—XII asrlarda madaniyat, ilm-fan, savdo-sotiq ancha rivojlangan shahar bo'lgan. Shoir asarlaridagi dalillar uning forsiy va arab tillaridan tashqari yunon, qadimgi pahlaviy, sanskrit va boshqa tillarni ham bilganligini tasdiqlaydi. Nizomiy o'z davridagi falsafa, mantiq, ilohiyot, adabiyotshunoslik, kimyo, astronomiya, matematika singari fanlarni puxta bilgan, ilmning inson kamolotida tutgan o'rniga alohida e'tibor bergan. U zamonasidagi Abulaloyi Ganjaviy, Izuddin Shirvoniy, Mujjiriddin Bayloqoniy, Anvari, Jamoliddin Abdurazzoq ijodi bilan tanish edi. Xoqoniy Nizomiyning yaqin do'sti edi.

Yoshligidanoq she'r mashq qilib yurgan Nizomiy yigitlik pallasida shoir sifatida shuhrat qozongan. Uning arab va forsiy tilda yozgan g'azal hamda qasidalari ilm-adab ahli nazariga tushadi. Uni hukmronlar saroy shoiriga aylantirmoqchi bo'lalidilar. Moddiy muhtojlikda yashagan va ba'zan amaldorlarni madh etib qasidalar yozgan Nizomiy umrining oxirigacha saroyga bormaydi. Nizomiy Ofoq ismli xotinidan tavallud bo'lgan o'g'li Muhammadni ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalaydi. Shoir dostonlaridagi o'g'liga nasihatnomalar shundan dalolat beradi.

Buyuk mutafakkir va daho san'atkor 1209-yili o'z Vatanida vafot etadi.

Nizomiy badiiy ijod bilan erta shug'ullanadi. Shoir qasidalari vasfiya hamda faxriya mohiyatiga ega bo'lib, ko'proq ijtimoiy hayot, moddiy borliq haqida falsafiy mushohadalar yuritadi, adolat va aql-zakovatli, tadbirkor hukmronlarni vasf etadi. Ana shunday qasidalardan biri g'oyatda ma'qul bo'lgani uchun Darband shahri hokimi Ofoq ismli qipchoq qul qizini in'om etadi va shoir unga uylanadi. Davlatshoh Samarqandiy (1487-y.) Nizomiyning 20 ming misradan iborat she'rlar devoni mavjudligini ta'kidlagan. Shoirning o'zi „**Xusrav va Shirin**“da g'azallari Darband saroyidagi sozandalar dastasi tomonidan qo'shiq qilib kuylanishi haqida ma'lumot beradi. Ba'zi g'azallarida Nizomiy ijtimoiy adolatsizlikdan noliydi, axloqiy-ta'limiy fikrlarni ilgari suradi. Afsuski, bizga qadar shoirning o'nga yaqin qasidasi va bir necha g'azallarigina yetib kelgan, xolos. Uning she'rlar devoni hanuzgacha topilmagan.

Shoirning Eron olimlari tomonidan turli manbalardan yig'ib chop etilgan devoni 10 ta qasida, 192 ta g'azal, 5 ta qit'a, 68 ta ruboiydan iborat.

Nizomiyga olamshumul shuhrat keltirgan asar „**Xamsa**“dir. Shoir xalq og'zaki ijodi, qadimiy voqeanomalar, yozma manbalardan ijodiy foydalanib, hayotning dolzarb masalalarini aks ettiruvchi beshta doston yozdi va ular „Xamsa“ nomi bilan bir kitobga jamlangan.

Nizomiy „Xamsa“ning ilk dostoni „**Mahzan ul-asror**“ („Sirlar xazinasi“)ni 1173—1180-yillar orasida yozgan va Kichik Osiyodagi Erzinjon shahrining hokimi Bahromshohga yo'llagan. Doston Bahromshohga ma'qul tushib, shoirga talay in'omchson jo'natgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Nizomiyning muxoliflari bu tuhfani talon-toroj etganlar. Shuning uchun ham shoirning moddiy ahvoli umrining oxirigacha og'irligicha qolgan. „Mahzan ul-asror“ ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy doston bo'lib, mukammal muqaddima va yigirma bob maqolatdan iborat. Maqolatlarda Nizomiy odam va olamning yaratilishi, adolatning fayzi va zulmning zarari, odamgarchilik, yaxshilik, ajdodlar urf-odatiga hurmat hamda sadoqat, poklik va saxiylik, insof singari juda ko'p hayotiy masalalar xususida ulkan mutafakkir sifatida mulohaza yuritadi, o'z mushohadalarini hayotiy hikoya va masallar bilan tasdiqlab, isbotlab boradi. Nizomiy „Zolim shoh va odil kishi“, „Kampir va Sulton Sanjar“ singari qator hikoyatlarda adolatli shoh

g'oyasini ilgari surib, o'z davridagi zulm-zo'rlik, insofsizlikni qat'iy qoralaydi, zamon hukmronlarini odil bo'lishga undaydi. „Mahzan ul-asror“dagi insonparvarlik g'oyasi, axloqiy-ta'limiy qarashlar shoir pandnomalarining eng mumtozi ekanligini ko'rsatadi.

„Xusrav va Shirin“ ishqiy sarguzasht asar hisoblanadi. „Xamsa“ning ikkinchi dostoni bo'lmish bu ishqnomani Nizomiy xalq og'zaki ijodi, voqeanomalar va „Shohnoma“dan ijodiy foydalanib yaratgan. Firdavsiy Eronning sosoniy hukmronlari oxirgi vakili Xusrav Parvizning (590—628) tarixiy sarguzashtini jangnoma tarzida yozgan. Nizomiy esa shavkatli shoh Xusrav Parvizning Armaniston malikasi Shiringa bo'lgan muhabbatini tasvirlagan. Dostonda Xusrav, Mehinbonu, Shirin, Shakar, Maryam, Shopur, Shero'ya, Farhod, Bahromi Cho'bina va saroy amaldorlari obrazi tasvirlangan. Shoir Xusravni jasur, tadbirkor, davlatning butunligini saqlovchi shoh sifatida ta'riflansa ham, sevgi-muhabbatda beqarorligi va shaxsiy manfaat uchun muqaddas narsadan ham voz kechish, ma'naviy nuqsonlarini tanqid etadi. Shirin adolatli, tadbirkor hukmron Mehinbonuning jiyani, go'zallikda tanho. Ayni paytda u bilimli, donishmand qiz: turmush qiyinchiliklarini sabot bilan yengadi, xolasidan so'ng davlatni adolat bilan boshqaradi, yurtning tinchligi, xalqning farovonligini ta'minlaydi. Shirin Xusravni chin dildan sevadi, uni yaxshilikka, ma'rifat va adolatga yo'llab turadi. Nizomiy mohir usta va naqqosh Farhodning hunari va san'atini mahorat bilan chizgan. Umrining so'nggi nafasigacha Xusravga sodiq qolgan Shirin Farhodni chin inson, mohir usta sifatida hurmat qiladi. Uning bevaqt vafoti munosabati bilan mung chekadi. Bosqinchilik urushlarini, davlat butunligiga rahna soladigan isyon, o'zaro feodal mojarolarni, razolatni qoralagan Nizomiy ma'rifat va san'atni olqishlaydi: Borbad, Nekiso, Sarkash singari sozanda va hofizlarni zo'r samimiyat bilan tasvirlaydi.

Nizomiyning „Layli va Majnun“ dostonida Arabistondagi Bani Omir qabilasi boshlig'ining o'g'li Qaysning Layliga muhabbati tasvirlanadi. Shoir bu asarda haqiqiy sevgini tasvirlab, fidoyi oshiq-ma'shuqalar obrazini yaratish bilan birga yuksak insoniy fazilatlarini ulug'laydi: oliyhimmatlik, bilimdonlik, dardmandlarga hamnafas, hamdard bo'lish, inson-qadr-qimmatini e'zozlashni ta'kidlaydi.

„Haft paykar“ („Yetti go‘zal“) dostoni shavkatli Bahrom Go‘rning sevgi sarguzashti tasviriga bag‘ishlangan. Asar Bahromning sarguzashti, uning kanizak Fitnaga bo‘lgan muhabbati tasviridan tashqari, yana yetti qissani o‘z ichiga oladi. Shoir dostonida tadbirkor, adolatli, shijoatkor shoh Bahromni maqtaidi: Yaman shohi No‘mon tomonidan mashhur me‘mor Simorning minoradan tashlab o‘ldirilishi, vazir Rostravshanning xiyonati, zulmini, saroydagi nizo-advovat, makkorlik, mansab, boylik talashish, mol-mulkka hirs qo‘yishni qattiq qoralaydi. Xalq osoyishi va yurt oroyishini o‘ylaydigan hukmronlarni ulug‘laydi.

Doston oxirida Bahrom Go‘rning vaqtini ko‘proq kiyik ovlash bilan o‘tkazishini tasvirlagan. Kunlardan bir kuni bir go‘zal ohuni quvib g‘orga kirgan Bahrom qaytib chiqmaydi. Asar Bahromning halokati va shoirning nasihati bilan tugaydi.

Nizomiy „Xamsa“sining beshinchi dostoni „**Iskandarnoma**“ bo‘lib, u „Sharafnoma“ va „Iqbolnoma“ singari ikki qismdan iborat. „Sharafnoma“da shoir Iskandarning tug‘ilishidan to No‘shobani asirlikdan ozod etib, obi hayotni qidirib zulmatga kirishigacha bo‘lgan voqealarni tasvirlaydi. Bunda Nizomiy asosiy e‘tiborni Iskandarning Niqumojis va uning o‘g‘li Arastu qo‘lida voyaga yetib, faoliyat ko‘rsatishi, yer yuzida adolat o‘rnatib, turli yurt va elatlarda tinch va farovon hayotni ta‘minlash uchun olib borgan urushi tasviriga qaratgan. „Iqbolnoma“da esa Iskandarning turli soha olimlari bilan inson va koinot, obyektiv borliq va ijtimoiy hayot, ilohiyot xususidagi savol-javoblari batafsil yoritilgan. Iskandarning to‘rt sayohati tafsilotlari, ideallik tasviri, yetti buyuk donishmandning hayoti va boshqa juda ko‘p voqealar bayonida Nizomiy dunyoqarashining gumanistik, ijtimoiy-siyosiy jihatlarini badiiy yuksak darajada ifodalangan. Bosh qahramon barcha bilimlarning donishmandi, zamin va koinotning hamma sirlaridan voqif, karomatgo‘y va payg‘ambar darajasiga ko‘tariladi. Bundan shoirning maqsadi „Mahzan ul-asror“, „Xusrav va Shirin“, „Haft paykar“ dostonlarida yo‘l-yo‘lakay ifodalangan ma‘rifatli, adolatli shohning mukammal siymosini yaratish edi. Haqiqatan ham Iskandar yoshligidan barcha bilimlarni puxta o‘rganadi, aqliy va jismoniy jihatdan barkamol bo‘lgach, ilm-fanga rag‘bat qiladi. Uning zangilarga qarshi birinchi jangiyoc kambag‘allarni himoya qilish maqsadida boshlandi. Doroni yenggach, xarob yurtni obod, xonavayron xalqni shod etadi. Xullas, Iskandar siymosida

Nizomiy o‘zi orzu qilgan donishmand, tadbirkor, barcha xalqlarning tinch-totuv yashashi uchun, yer yuzida zulm va qabohat urug‘ini quritishga qattiq bel bog‘lagan, xalq orzu qilgan odil shoh obrazini mujassamlashtirgan.

Nizomiy „Xamsa“sidagi aksariyat obrazlar birinchi daf‘a badiiy adabiyotda mukammal sayqalini topib, keyinchalik Sharq dostonchiligida an‘anaviy obrazlarga aylandi. Bugina emas, Xusrav Dehlaviy, Hoju Kirmoniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ochildimurod Miriy singari allomalar Nizomiy an‘anasini davom ettirib, o‘zlariga xos uslub va mahorat bilan „Xamsa“ yozganlar. Dehlaviy, Jomiy va Navoiy „Xamsa“lari katta shuhrat qozondi. Ularda Nizomiyning mavzu, obrazlari yangicha rang va ohanglarda kuylanadi, shoirlarning ijodiy niyati davr talabi bilan rivojlantirildi va yangi taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘tarildi.

Nizomiy asarlari o‘tmishda aslida ham, turkiycha tarjimasida orqali ham xalqimiz orasida keng tarqalgan. O‘zbek xattotlari shoir „Xamsa“sini qayta-qayta ko‘chirdilar, musavvirlari esa miniaturalar bilan bezadilar. Iste‘dodli shoir va dostonnavis Qutb 1341-yili „Xusrav va Shirin“ni ma‘no nozikliklari, badiiy jozibasini saqlagan holda turk tiliga o‘girgan. Shoir Haydar Xorazmiy bo‘lsa, „Mahzan ul-asror“dan ilhomlanib, „Gulshan ul-asror“ dostonini yozdi. Atoqli shoir, tarixnavis va sermahsul tarjimon Ogahiy „Haft paykar“ni o‘zbek tiliga nasrda tarjima qilgan. Navoiydan tortib, barcha o‘zbek shoirlari Nizomiy o‘zlariga ustoz, deb bilishgan. Ulug‘ ozar shoiri dostonlari sujeti asosida sahna asarlari ham yaratilgan. Taniqli sharqshunos, professor Sh. Shomuhamedov Nizomiy g‘azal va qasidalarini, dostonlaridan ayrim hikoyatlarni tarjima qilib, nashr ettirdi. Shundan so‘ng Jonibek Subhon „Sharafnoma“ni, O. Bo‘riyev „Xusrav va Shirin“, „Layli va Majnun“ni tarjima qilishdi. Mashhur professor N. Mallayev, S. Erkinovlar Nizomiy hayoti va ijodiy merosi haqida risolalar yaratishgan. Xullas Nizomiy asarlari, u ulug‘lagan yuksak g‘oyalar xalqimizga hamisha qadrdon.

## JASORATLI ADIB

Xorazmshoh Otsiz markaziy hokimiyat boshlig‘i Sulton Sanjarga nisbatan doimiy adovatda bo‘lib, ba‘zan isyon ko‘tarar, qirg‘in-barot urushlar keltirib chiqarar edi. Ana shunday mojarolarning oldini olish maqsadida va viloyatdagi

voqealarni markazga yetkazib turish uchun Sanjar olim va shoir Adib Sobirni Xorazmshoh dargohiga elchi sifatida yo‘llaydi. Otsiz shoirni yaxshi kutib oladi. Bu orada Xorazmshoh ikki tajribali josusni maxsus tayyorgarlikdan so‘ng Sanjarni o‘ldirish, hech bo‘lmasa shahardagi ahvolni bilib kelish uchun Marvga jo‘natadi. Josuslarni yaxshi tanigan Adib Sobir ularning suratlarini chizib, bir kampirning mahsisi qo‘njiga joylab Sanjarga yo‘llaydi. Sulton Sanjar ana shu rasmlarga qarab shahar chetidagi saroylardan birida josuslarni tutib, qatl ettiradi.

G‘oyatda puxta o‘ylangan bu tadbirning fosh bo‘lishi sababini Xorazmshoh jiddiy taftish etadi va saroyida yagona suratkash Adib Sobir ekanligini aniqlab shoirni hibsga oladi va oradan ko‘p o‘tmay do‘stlarining himoya qilib qolishidan hadiksirab, yarim tunda ko‘kragiga tosh bog‘latib, Amudaryoga cho‘ktirib yuboradi. Bu fojia 1147-yilning kuz oylarida yuz beradi.

Davlat arbobi darajasiga yetgan oddiy kosib farzandi Adib Sobir Termiziy 1089-yili ko‘hna Termizning Duoba guzarida hunarmand ziyoli Adib Ismoil xonadonida dunyoga keladi. Bo‘lajak shoir shahar maktabida o‘qiydi. Adib Ismoilning shaxsan o‘zi bolasining tarbiyasi bilan shug‘ullanadi, barcha diniy va dunyoviy bilimlarni o‘rgatadi. Onasi Sadoqat otin ham o‘g‘lining tarbiyasiga alohida e‘tibor beradi. Adib Sobir 10—11 yoshlarida she‘rlar mashq qila boshlaydi. O‘g‘lidagi iqtidorni sezgan Adib Ismoil uni Hirot madrasasiga o‘qishga yuboradi. U madrasada ilm o‘rganish, she‘r mashq qilish bilan mashg‘ul bo‘ladi: *falsafa, mantiq, astronomiya, matematika* singari bilimlarni qunt bilan o‘zlashtiradi. Madrasa xatmidan so‘ng Adib Sobir Termizga qaytadi.

Bu orada Adib Ismoilning yaqin do‘sti, „Xuroson raisi“ deb nom olgan ma‘rifatli donishmand, ilm-adab ahlining homiysi Abulqosim Ali Sobirni o‘z huzuriga da‘vat etadi. Va nihoyat, 22 yashar shoir 1100-yili Nishopurga qarab safarga otlanadi. Abulqosim Ali binni Ja‘far o‘z davrining taniqli davlat arbobi bo‘lishi bilan birga matematika va astronomiya bilan muttasil shug‘ullanadi. U markaziy hukumatdan madad olib, Umar Xayyom va Imom Muzaffar Isfzoriy yordamida rasadxona qurdirgan edi. Ana shunday ilmiy markazda Adib Sobir ham ishladi va o‘zining tabiiy fanlarga bo‘lgan maylini takomillashtirdi. Adib Sobir Abulqosim Ali siymosida ma‘rifat



homiysi, ajoyib jasoratli olimni ko'rdi va shuning uchun ham uni madh etib, qasidalar bitdi.

Adib Sobirning kundan-kunga martabasi oshib, shuhrati chor atrofga tarqala boshlaydi: Sayqaliy va Nasimiy nomli shoirlar bilan yaqindan do'stlashadi. Buxorodan kelgan yosh shoir Zargar Javhariyga ustozlik qiladi. Muiziy Nishopuriy, Sa'di Salmon singari mashhur san'atkorlar bilan hamkor bo'ladi. Ammo laganbardor shoirlar, shuhratparast amaldorlar shoirning hokim oldidagi obro'-e'tiboriga baxillik qiladilar: uning imzosi bilan „Xuroson raisi“ Abulqosim Alini badnom qiladigan hajviya yozib tarqatadilar, nufuzli amaldorlardan Aminalmulk bilan shoir o'rtasida janjal chiqaradilar. Natijada Adib Sobir mirzolikdan haydalib, mol-mulki, qarorgohi musodara qilinadi. Shoirning ahvoli kundan kunga yomonlashadi, bu tuhmatlardan qutqarish haqidagi dodiga hech kim quloq solmaydi, hayoti xavf ostida qoladi, faqat 1125-yili yaqin do'stlari yordamidagina Termizga qaytishga muvaffaq bo'ladi. Ammo Adib Sobirni Ravon shahriga badarg'a qilishni mo'ljallab qo'ygan Aminalmulk uning vataniga ketganidan darg'azab bo'ladi va tezlikda surgun qilish haqida shahar hokimiga chopar jo'natadi. Adib Sobirning oila, Vatan huzuridagi osoyishta damlari uzoqqa cho'zilmaydi. U Ravonga majburiy mahbus sifatida ketadi. Faqat 1127-yildagina Haj safariga borish bahonasi bilan Arabiston sari yo'l olib, tutqunlikdan ozod bo'ladi. To'rt yil davomida Arabiston shaharlarini kezib chiqadi, Isfahonda bo'lib, shoir Imodiy bilan uchrashadi, qaytishda Nishopurga tushadi. Abulqosim Ali uni avf etib, Vataniga qaytishga ruxsat beradi. Bu yillar Adib Sobir balxlik Rashiddin Vatvot, Anvari, Abulvose' Jabaliy, Nizomiy Aro'ziy Samarqandiy singari zamon shoirlari bilan yaqindan aloqa bog'lagan, ustoz shoir sifatida ular tomondan e'tirof etilgan edi.

XII asrning 40-yillariga kelib, Sulton Sanjar boshchiligidagi saljuqiylar davlati zaiflasha boshladi. Bundan foydalangan viloyat hokimlari Sanjarga qarshi isyon ko'tarib, mustaqillikka intiladilar. Jumladan, Xorazmshoh Otsiz 1141-yili Sulton Sanjar Balxdaligida Marvga hujum qilib, qirg'inlar uyushtirgan edi. Bir yildan so'ng Sulton Sanjar katta qo'shin bilan Xorazmga yurish qiladi. Mag'lubiyatga uchragan Xorazmshoh tavba-tazarru bilan Sanjarga so'zsiz itoat etish haqida qasam ichadi. Sulton bu hiyla ekanligini sezadi va Otsizning har bir

xatti-harakatidan ogoh bo'lib turish uchun Urganchda elchi-xona ochadi. Ko'p maslahatlardan so'ng Abulqosim Alining tavsiyasi bilan Adib Sobir Xorazmga elchi qilib yuboriladi. Natijada uning bu faoliyati fojia bilan tugaydi.

Adib Sobir g'oyatda donishmand, serg'ayrat, tinib-tinchimagan ijodkor bo'lgan. Turli fitna, ig'vo, tahqir va haqoratlariga qaramay 37 yil davlat idoralarida ishladi, qaynoq hayot bag'rida bo'ldi, zamonasining barcha ziddiyatlarini o'z ko'zi bilan ko'rdi.

Shuning uchun shoir ijodining yetakchi g'oyaviy mazmunini davr illatlarini tanqid qilish tashkil etadi. U viloyat va markaziy hukumat idoralarida ishlashiga qaramay, zolim, fitnachi, ishratparast, sharobxo'r feodallarni, munofiq ruho-niylarni fosh etuvchi she'rlar bitdi. Jumladan, Termiz hokimi, johil va mayparast Amir Axti kirdikorlarini ro'yirost tanqid qiladi. Axti sharob tiqilib o'lganida hajviy she'rlar yozadi. Bu she'r Termiz xalqi orasida og'izdan og'izga ko'chib yuradi.

Adib Sobir g'alamislardan aziyat chekkanida, e'tiborsizlikda kun kechirayotganlarida, tanholigini his qilganida iztirob to'la, dardli dilning fig'oni ufurib turuvchi, teskari aylanuvchi falakni la'natlovchi she'rlar bitdi:

*Umidim yo'q zamonda yaxshilikdan,  
Umid birla va lek o'tdi umrim.  
Razillardan bo'shalsa, yaxshi olam,  
Saxiylardan bo'shabdur endi bilsam.*

Lekin Adib Sobir she'rlari faqat tanqid ruhida, zamona-dan shikoyat ohangi bilan sug'orilgan emas. Shoir chinakam insoniy muhabbat, shodlik va go'zallik shaydosi. Uning aksariyat she'rlari sof ishqni kuylashga, inson ruhiy kechin-malarini, tabiat jozibasini bog'-u rog'lar, gul-u gulzorlar nafosati bilan uyg'un tasvirlashga, kitobxon qalbida ona-Vatanga, ko'hna olamga mehr uyg'otishga bag'ishlangan. Adib Sobirning talaygina g'azallari peyzaj lirikasining mumtoz namunasi hisoblanadi:

*Bahor gul shohida ming turli ohang aylagay bulbul,  
Aning ohangi birla shodlikni beshumor ayla.  
Sening bazming qizitgay soz-u may, sozanda-yu yalla,  
Yig'ishga to'rtovin, albatta, qat'iy ixtiyor ayla.*

Ko‘p jabr-u jafolar chekkan Adib Sobir hamisha shodlikni kuyladi, yaxshilikka intildi, hur onlarni qo‘msab yashadi, she‘r-larida hayotga, kelajakka ishonch ohangi yangradi:

*Nihoyat tunimiz ulanar tongga,  
Yulduzimiz porlar sharaf burjida.*

Shoir ijodini o‘rganishda Termiz davlat universiteti professori A. Abdullayevning xizmatlari kattadir. Uning saylanma she‘r-lar to‘plamining o‘zbekcha tarjimasi ikki marta nashr etildi. Unga nuktadon adabiyotshunos Y. Isoqov so‘zboshi yozgan.

### **Adib Sobir Termiziy hikmatlaridan**

Erur davot, o‘g‘il, davlat yarog‘i,  
Dag‘al davlatni unga rom qilg‘il.  
Davotdan davlat etmoq xohlasang gar,  
„Alif“ni sen payvandi „lom“ qilg‘il.

\* \* \*

Davot topdi qalamdin nomdorlik,  
Qalam tut, ya‘ni shuhrat nom qilg‘il.

\* \* \*

Yomon niyatli bo‘lma el haqida,  
O‘zingga bu ishing so‘zsiz ziyondur.  
Kishi yaxshilik har kimga qilsa,  
Bu maydon ichra u sohibqirondur.

### **ADIB VA ADABIYOTSHUNOS**

IX—X asrlardagi O‘rta Osiyo xalqlari adabiyoti turkiy, arab va forsiy tillarda yaratilib, janr, mavzu, g‘oyaviy yo‘nalish, badiiy qudrat jihatidan jahonshumul shuhrat topdi. Ayrim adiblar bir yo‘la bir necha janrlarda ijod etdilar, badiiy ijodni ilmiy-nazariy, falsafiy va tarixiy asarlar yaratish bilan uyg‘un tarzda olib bordilar. Buxorolik Muhammad Avfiy ana shunday serqirra badiiyat sohibidir.

Muhammad Avfiy taxminan 1172—1177-yillar orasida Buxoroda tug‘ilgan. Uning bolalik va yigitlik yillari ona yurtida o‘tdi. U Rukniddin Ma‘sud Imomzoda Buxoriy, Ali Burhon, Qutbiddin Saraxsiy kabi zamonasining mashhur olimlaridan ta‘lim oladi. Samarqand, Xorazm, Niso hamda Xurosonning

turli shaharlarida bo‘lib, ilm-adab ahllari suhbatlarida bo‘ladi, yurt ko‘radi, el taniydi. Nishopurda o‘sha davr arab hamda forsiy tildagi she‘riyatni o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Lekin bu orada mo‘g‘ullar O‘rta Osiyoga yopirilib keladi. Muhammad Avfiy o‘z Vataniga qaytolmay Hindistonga o‘tib ketishga majbur bo‘ladi. Olim Hindistonning Uchh, Gujorot viloyatlarida yashab, turli vazifalarni bajarib, ijodiy ishlar bilan shug‘ullanadi.

Umrining oxirgi yillarini Dehlida o‘tkazgan Muhammad Avfiy 1227-yili vafot etadi.

Muhammad Avfiydan bizga qadar bir tarjima, „Lubob-ul albob“ („Negizlarning negizi“) tazkirasini, „Javome‘-ul hikoyot, lavome‘-ul rivoyot“ („Hikoyatlar majmuasi va rivoyatlar nuri“) hikoyatlar to‘plami yetib kelgan.

Ma‘lumki, XIII asrga qadar forsiy tilda ko‘p tazkiralari yozilgan. Lekin ulardan bizga qadar to‘la yetib kelgani „Lubob-ul albob“dir. Ikki jild, o‘n ikki bobdan iborat bo‘lgan ushbu tazkirada olim she‘riyat nazariyasiga doir fikr-mulohazalarini bayon etadi, arab hamda forsiy tilda she‘r yozgan shoirlar haqida mulohaza yuritadi. Hindiston, Movarounnahr, Xuroson, Iroq, Eronning janubiy qismida yashab ijod etgan 299 shoirning hayoti, ijodiy faoliyati haqida ma‘lumot beradi, ularning turmushi, ayrim asarlarining yaratilishi bilan bog‘liq rivoyatlarni keltiradi.

Tazkiraning birinchi jildi 7 bobdan iborat bo‘lib, dastlabki ikki bobda muallif she‘r fazilati va shoirning salohiyati haqida, 3—4-boblarida forsiy tilda yaratilgan birinchi she‘r va shoir xususida bahs yuritadi, ma‘lumot beradi. Qolgan uch bobda esa asli shoir bo‘lmisalar ham ba‘zan g‘azal yozgan, ilm-ma‘rifat ahliga homiylik qilgan podshoh, vazir, amir, olim hamda fozil kishilar xususida ma‘lumotlar keltirilgan. Shunday qilib, birinchi jildda 130 shoir yoki adabiyot muhoblari xususida fikr yuritiladi. Asarning ikkinchi jildi 5 bobdan tashkil topgan bo‘lib, unda IX asrning boshlaridan XIII asrning birinchi choragida yashagan, ya‘ni Xanzala Badg‘iysidan tortib, Ziyovuddin Sanjarga qadar 169 shoirning hayoti va ijodiy merosi haqida ma‘lumot keltiriladi. E‘tiborlisi shundaki, forsiy tilda ijod etgan o‘ndan ortiq shoirlarning merosidan ba‘zi namunalar ana shu tazkira orqaligina bizgacha yetib kelgan, xolos. Bu asar IX—XIII asrlar forsiy tildagi adabiyotni o‘rganish, Xuroson-u Movarounnahr xalqlari adabiy-estetik qarashlari tarixini aniqlaydi.

lashda eng noyob va mo‘tabar manba hisoblanadi. Muhammad Avfiyning „Javome’-ul hikoyot“ asari, tarix fanlari doktori, professor I. Nizomiddinovning aniqlashicha, ikki mingdan ziyod hikoyat, rivoyat va tamsillarni o‘z ichiga olgan. Tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, Muhammad Avfiy mazkur asarni yaratishda o‘zigacha yashagan arabiynavis va forsiyo‘limlarning 90 dan ziyod tarixiy, ilmiy, badiiy asarlaridan foydalangan. „Osor-ul-boqiya“, „Dastur-ul-vuzaro“, „Tarixi Tabariy“, „Siyosatnoma“, „Qobusnoma“, „Tarixi Yaminiy“, „Tarixi Turkiston“ shular jumlasidandir. Bundan tashqari, olim ko‘pgina hikoyatlarni bevosita o‘z hayot tajribalari asosida og‘zaki ijod dalillari, xalq naqllari asosida bitgani ham shubhasiz. Ba’zi hikoyatlarda bunga o‘zi ham ishora qiladi. Adib hikoyatlarining aksariyati, insof va adolat, aql va zakovat, vafo hamda sadoqat, insonparvarlik, mardlik, jasorat, ilm-hunarga da’vat singari rang-barang hayotiy masalalarni, yuksak insoniy axloq-odobni, idrok va donishni targ‘ib etishga bag‘ishlangan. Uning ijodini o‘rganish, ommalashtirishda M. Baqoyev, Sh. Shomuhamedov, mutarjim Kibriyo Qahhorovanning xizmatlari katta. Sharqshunos olim M. Baqoyev Avfiy ijodi haqida jiddiy tadqiqot olib borib, eng nodir dastxat asosida „Javome’-ul-hikoyot“ning bir qismini 1966-yili nashr ettirgan edi. Keyinchalik Kibriyo Qahhorova, I. Nizomiddinov hamda T. Fayziyevlar bu asardan bir qancha hikoyatlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirdilar.

Filologiya fanlari doktori Sulton Vohidov vatandoshimiz, yozuvchi va she’rshunos olim Muhammad Avfiy ijodiy merosini tadqiq va targ‘ib etishda xayrli ishlarni amalga oshirgan. Avfiy hikoyatlarini o‘zbek tiliga to‘la tarjima qilib, nashr qildirish adabiyotshunos va sharqshunoslarning galdagi vazifasidir.

## MAZLUMLAR KO‘Z YOSHI — OTASH...

Sayfiddin Muhammad Farg‘oniy XIII asrda yashagan atoqli qasidanavis, g‘azalگو‘y san’atkordir. Shoir asarlarining mukammal nusxalari (uchta qo‘lyozma devoni) hozir Turkiyada saqlanmoqda. Ular 1348 va 1498-yillarda ko‘chirilgan. Ana shu qo‘lyozmalarni chop etgan turk olimi Ahmad Otash, Eron adabiyotshunosi Zabehullo Safo va shu nashrlar asosida tadqiqot olib borgan tojik olimi Ansor Afsahovlarning aniqlash-

laricha, Sayfiddin XIII asrning 20-yillarida, mo'g'ullar Vatani talayotgan bir paytda dunyoga kelgan. Bu haqda shoirning g'azal va qasidalarida ham ishora bor. Sayfiddin Samarqand va Buxoro madrasalarida ta'lim olgan, deb taxmin qilish mumkin. U ba'zi she'rlarida „madrasaga borib, ilm o'rganishga ruju qilgani“, g'oyatda muhtojlikda kun kechirgani haqida shikoyat qiladi.

Mo'g'ullar bosqini kuchaygach, Sayfiddin boshqa ijodkorlar singari o'z Vatani tark etib, Tabrizga boradi va hokim Juvayniy saroyida ishlaydi. 1230-yilning o'rtalariga qadar shoir Juvayniy panohida Tabrizda yashaydi, mana shu yerda shoir hayotida muhim voqea ro'y beradi. U buyuk shoir Sa'diyning she'rlari bilan tanishadi va u bilan do'stlik aloqalarini o'rnatadi. Chunki, Sa'diy nisbatan adolatli, ilm-u adabni do'st tutuvchi Juvayniyga asarlarini jo'natar, uni ta'riflab qasidalar yozar edi. Sayfiddin Sa'diy bilan she'riy noma orqali do'stlashadi va bu aloqa ikki buyuk san'atkor ijodini ruhiy jihatdan bir-biriga yaqinlashtiradi. Tadqiqotchilar Sa'diy Tabrizga kelgan paytda (1265-y.) Sayf hamda mashhur shoir Xumomi Tabriziy bilan shaxsan uchrashib, do'stlashgan, degan fikrni bayon etadilar. Chunki Sayf o'z g'azal va qasidalarida Xumom nomini hamda Sa'diyning „Guliston“ va „Bo'ston“ singari shoh asarlarini ko'p tilga oladi, ta'riflaydi.

1248-yili feodal urushlar natijasida Shamsuddin Juvayniy xonadoni bilan qatl etiladi, hokimiyatni qo'lga olgan Shamsuddin Yahud musulmonlarga nisbatan qatli om uyushtiradi. Ilm-adab ahlining hayoti xavf ostida qolgach, Sayf Haj safariga borish bahonasi bilan safarga chiqadi. Makka ziyoratidan so'ng Sayf Kichik Osiyodagi Oqsaroy shahrida panoh topadi. Vatandan, do'stlaridan (1292-yili Sa'diy vafot etadi) judo bo'lgan shoir g'am-hasratda, moddiy muhtojlikda yashaydi. Tabrizga qaytishni istab G'azonxonga (1295—1304-yy.) qasidalar yozib yuboradi. Ammo bunga muyassar bo'la olmaydi. Zamonasining ayrim hukmronlari unga turli vazifa va mansabni, hatto devonbegi vazifasini tavsiya etadilar. Lekin saroy bilan bevosita bog'lanib qolishni istamagan shoir bu takliflarni rad etadi. Haqiqatan ham Sayfi Farg'oniy she'rlari orasida biron tarixiy shaxs, hukmronni shaxsan madh etuvchi g'azallar uchramaydi.

Shoir taxminan XIV asrning boshlarida Vatanidan uzoqda — Oqsaroyda vafot etgan.

Sayfi Fargʻoniyning bizga qadar katta hajmdagi sheʼrlar devoni saqlanib qolgan. Uning 1348-yili Muhammad Ali Oqsaroy tomonidan koʻchirilgan nusxasi, yuqorida eslatganimizdek, hozir Istanbul universitetining kutubxonasida saqlanadi. Devonning nashriy nusxalari ushbu dastxat asosida amalga oshirilgan boʻlib, u 573 ta gʻazal, 116 ta qasida, 13 ta ruboiy, 4 ta qitʻadan iborat.

Sayfi Fargʻoniy oʻz gʻazal va qasidalarida Saʼdiy, Sanoiy, Attor, Xoqoniy, Rudakiy, Anvari, Zohir Faryobiy singari ulkan sanʼatkorlarning anʼanalarini davom ettirib, dunyoviy sevgini kuyladi, hayotga, goʻzallik, tabiat koʻrkiga muhabbatni olqishladi, insonparvarlik, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy fikrlarni ilgari surdi. Bu bilan u forsiy til va undagi sheʼriyat taraqqiyotiga muhim ulush qoʻshdi. Shoir asarlarida zamona zulmidan, nodonlarning bedodligi-yu agʻyorlarning gʻalamisligidan shikoyat qilinadi, jamiyat illatlariga munosabat bildiriladi:

*Bozam az javri falak in dili gʻamnok pur ast,  
Bozam az xuni jigar diydayi namnok pur ast.*

(Mazmuni: *Gʻamgin koʻnglimga falak javri toʻlibdir, koʻz yoshimga jigar qoni toʻlibdir.*)

Ammo ijtimoiy hayot illatlari, zulm-zoʻrlik, tengsizlikdan shikoyat, bosqinchilik, oʻzaro urushlarni laʼnatlash, vayronaga aylangan Vatan uchun, abgor boʻlgan xalqi uchun kuyunish Sayfi Fargʻoniy qasidalarida gʻoyatda mukammal ifodalangan. Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy mushohadalar kuchli boʻlgan bu qasidalarda biz anʼanaviy madhiyabozlikni koʻrmaymiz. Hatto, davr hukmronlaridan boʻlmish Gʻazonxonga bagʻishlangan uch qasidada ham zamona nosozliklaridan shikoyat sadolari hiyla kuchlidir. Biz ularda moʻgʻul istilosi natijasida kultepaga aylangan shaharlarni-yu xonavayron boʻlgan bechoralarni, darbadar yurgan xalqni koʻramiz. Goʻyo shoir qasidalarida Chingizxon hujumi davridagi Oʻrta Osiyo xalqlari hayoti manzaralari chizilgandek tuyuladi. Bir qasidasida istilochilarning davlatni boshqara olmay, uni idora etishni mahalliy sotqin amaldorlarga topshirgani ustidan kulsa, quyidagi baytlarda ularni laʼnatlaydi:

*Mardumi beaqlu din girifta viloyat,  
Holi barra chun buvad, chu gurg shubon bud.  
Bingaru imro'z bin, ki az oni kiyonast,  
Mulki, ki diyu parer az oni Kayon bud.  
Mulki shayotin shuda az zulmi taaddi,  
On chi ba meros az oni odamiyon bud.*

Mazmuni: *Viloyatni aql-u dinsiz kishilar egalladi, bo'ri cho'pon bo'lgach, qo'yning ahvoli nima kechadi. O'tgan kunlar Kayoniylar mulki bo'lgan yurt bugun kimlarning qo'liga qolganini ko'r. Insoniyatdan qolgan barcha meros zulm-zo'rlikdan shaytonlar mulkiga aylandi.*

Mana bu baytlarda esa mo'g'ul istilosi davridagi xalqning og'ir turmushi, mamlakatning xonavayron bo'lgani aniq ta'kidlangan:

*Chu basta zeri poi pil mulke,  
Ba dasti in ovonon uftoda.*

(Mazmuni: *Bu la'natilar qo'liga tushgan yurt, filning oyog'i ostiga tushgan mulkka o'xshaydi.*)

*Guftam andar kunji uzlat ro' ba devor ovaram,  
Chun kunam, dar shahri mo yak xonaro devor nest.*

Mazmuni: *G'am-hasrat ko'yida bir devorga yuz o'girib suyanay desam, bizning bu shaharda devori butun biron uy topilmaydi.*

Qasidalaridan birida shoir G'azonxonga Rumning xarobaligi manzarasini chizadi va uni yurtni obod, elni ma'mur qilishga chorlaydi. Shahar noobod, xalq och-yalang'och, deydi Farg'o'niy, hukmronlar jabr-zulmni kundan kunga oshirmoqda, oliq-soliqlar ko'p, narx-navo baland, lekin mazlumlardan dodiga yetadigan inson yo'q. Shoir zodagonlar hayoti bilan mazlumlardan turmushini qiyoslab, mehnatkash xalq ahvolidan naqadar ayanchli ekanligini ro'yirost ko'rsatgan. Bu qasida Anvariyaning „Xuroson ahlining nomasi“ (ingliz olimi Eduard Broun qasidani „Xuroson ko'z yoshlari“ deb atagan)ga o'xshatma tarzida yozilgani uchun turk olimi Ahmad Otash uni „Rum ko'z yoshlari“ deb atagan.

*Zolimon murdadil-u mazlumakon navhakunon,  
Hech dilso'ze naboshad murdaro bar navhagar.*



(Mazmuni: *Zolimlar qalbi o'lig-u mazlumlar nolakash, o'liklar qanday qilib tirik yig'lovchilarga taskin berishsin.*)

Shunday qilib, Sayfi Farg'oniy qasidalari tom ma'nosi bilan zamon illatlarini: zulm-zo'ravonlik, sudxo'rlik, tovlamachilik, munofiqlik, riyokorlik, ta'magirlik, muttahamlik, talonchilikni qoralashga, diniy urf-odatlarni, shariat qoidalarini suiiste'mol qilib, xalqni qullik va jaholatda saqlashni qattiq tanqid qilishga qaratilgan. Shoir ilm-ma'rifatni targ'ib etadi, nodonlar izzatda-yu donolar xor-zorlikdaligidan noliydi, hukmronlarni insof, adolatga, insonparvar bo'lishga chorlaydi. O'z ahvolidan noligan shoir „jabr ko'rgan mazlumlar“, „parishonxotir bechoralar“ g'amidan afsus-nadomatlar chekadi, mo'g'ul bosqinchilari va ularning mahalliy malaylarini „xalqning go'shtiga tushgan qurt“ga o'xshatadi:

...*Base mardum zi sarmo dar zaminand,  
Chu barf andar zimiston uftoda,  
Ba joi anbaru mushkash kunun hast,  
Gazanda dar girebon uftoda.*

...*Ayo mazlumi sargashta ki xasta,  
Chunon mahrumu hayron uftoda.  
Zi javri zolimon dar mulki xesh,  
Ba xori chun g'aribon uftoda.*

(Mazmuni: *Ko'p xalq qishda yog'gan qordek sovuqdan yer bilan bitta bo'lib yotibdi. Endilikda (xalqning) yoqasiga mushk-u anbar o'rniga gazandalar yopishib olgan. Ey, sargardon mazlumlar, nechun bu qadar hamma narsadan mahrum-u hayronsan!? Zolimlar jabridan o'z vataningda g'ariblardek xor-zorlikka yo'liqibsan.*)

Afsuski, bu vatandoshimizning she'rlari hanuzgacha o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. Vaholanki, Sayfi Farg'oniy asarlari XIII asrning oxiri va XIV asr boshlari O'rta Osiyo xalqlari adabiyotidagi ijtimoiy-siyosiy ruhning taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. U xalqning kuch-qudratiga ishongan, uni e'zozlagan san'atkordir.

*Otash ast obi didayi mazlum,  
Chun ravon gasht xushk-u tar so'zad.*

(Mazmuni: *Mazlumlarning ko'z yoshi otashdir, u alanga olsa, ho'l-u quruq barobar yonadi.*)

Sayfiddin Fargʻoniy ijodini topish, targʻib va tashviq etishda Oʻzbekiston Respublikasi FA akademigi B. Ahmedov, U. Karimov hamda A. Afsahovlarning xizmati katta.

## NOZIKTAʼB BADIHAGOʻY

Mashhur shoir Jaloluddin Salmon ibn Xoja Alouddin Sovajiy (1300—1375) bahor oyida toʻlib-toshib oqayotgan Dajla daryosi boʻyidagi (Bagʻdod shahri yaqinida) bir tepalikka chiqib, tomosha qilib oʻtirgan ekan, oldiga yupun kiyingan, ustida namat chakmon-u qoʻltigʻida kitob bilan bir yigit kelib, salom beribdi:

— Kimsan, ey yigit? — soʻrabdi shoir.

— Men gʻarib bir shoirman, — javob beribdi musofir.

Shunda Salmon Sovajiy uning iqtidorini sinab koʻrmoq uchun quyidagi misrani oʻqibdi:

Bu yil Dajlaning raftori ajab mastonaga oʻxshaydir.

Musofir yigit shu zahotiyoc badeha tarzida baytning ikkinchi misrasini aytibdi:

Ayogʻi bandda-yu ogʻzida koʻpik, ajab devonaga oʻxshaydir.

Salmon tepalikdan tushib, sodda kiyingan bu yigitning qobiliyatiga ofarinlar aytibdi va ular bir umrga ustoz-shogirdday doʻstlashib qolibdilar.

Zabardast olim va shoir Davlatshoh Samarqandiyning „**Tazkirat-ush-shuaro**“ kitobida taʼriflangan bu darvesh yigit jahongashta shoir **Nosir Buxoriydir**.

Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shamsiddin Somiy va boshqa Sharq mualliflari Nosirni zukko shoir sifatida taʼriflagan boʻlsalar-da, ammo uning hayot yoʻli va ijodiy merosi haqida aniq maʼlumot keltirishmagan. Baʼzi manbalar hamda shoir asarlaridagi ishoralar, zamondoshlari bilan muloqotlariga qaraganda, Nosir XIV asrning boshlarida Buxoroda kambagʻal kosib xonadonida dunyoga kelgan. Bolalik va yigitlik yillari ona shahrida oʻtgan. Eron olimi Said Nafisiyning taʼkidlashicha, Nosir Buxoroning „Dorulamon“ madrasasida olim Hamiduddindan va Balx madrasalarida tahsil koʻrgan. Shahardagi notinchlik, oxirgi moʻgʻul hukmronlarining oʻzaro taxt talashishi, xalqqa qilayotgan bedodliklari shoirni ona-Vatanni tark etib, nisbatan osoyishta oʻlkalarga yuz tuttiradi.

Shoir o'z davrining buyuk shayxi va ma'rifatparvar donishmandi Xoja Muhammad Porso bilan do'st bo'lgan. Shundan so'ng Nosir Buxoriy Ajam va Arab mamlakatlarining Bag'dod, Ray, Quddus, Tabriz, Hijoz, Sheroz, Iroq kabi shaharlarini kezib chiqadi, ikki marotaba Makkada bo'ladi; Iroqda Salmon Sovajiy va Tabrizda Kamol Xo'jandiylar bilan uchrashadi. Ko'p podsho va zodagonlar shoirni saroy doirasidagi adabiy muhitga tortmoqchi bo'lishadi, turli mansablarni taklif etishadi. Lekin „dunyo moliga qo'l siltagan“ shoir faqat darveshona hayot kechirishni afzal ko'radi. Nosir Buxoriy taxminan 1381-yildan keyin musofirlikda vafot etgan. Uning xoki Tabriz atrofidagi shoirlar qabristonida, deb taxmin qilinadi.

O'tmish tazkiralorida Nosir Buxoriy katta hajmdagi devon tuzganligi ta'kidlanib, turli yillarda tuzilgan bayoz, majmua va fexristlarda she'rlaridan baytlar keltirilsa-da, ammo 60-yillarga qadar uning dastxati noma'lum edi. Filologiya fanlari doktori, professor Ismatulla Abdullayev Nosir Buxoriy devonining hozircha fanda yagona nusxasini Namanganda qo'lga kiritdi va u haqda „**Nosir Buxoriy**“ degan risolasini yozdi. Biz bu lavhani yozishda ushbu risola ma'lumotlari va shoir devonidan foydalandik.

Qo'lyozma devon, debocha, hamd va na'tlardan tashqari qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, muxammas, tarje'band, bir necha vasfiya (turli hayitlarga bag'ishlangan she'r)lardan iborat. Ularning jami 7 ming baytni tashkil qiladi. Yuqorida biz Nosir biron-bir shoh yoki amir saroyini ixtiyor etmagan, dedik. Haqiqatan ham devonda mavlono Shamsiddin Muhammad, Xoja Sadridin, Shayx Uvays, mavlono Tojuddin, Xoja Ubaydulloh singari ilm-adab ahli, islomiy ahkom ulamolariga bag'ishlangan qasidalargina mavjud, xolos.

Nosir Buxoriy she'rlari tematik jihatdan ham, g'oyaviy, badiiy nuqtayi nazardan ham rang-barangdir. Garchi shoir an'anaviy muhabbat mavzusida ko'plab g'azallar bitgan bo'lsa-da, lekin ularda tasvirlangan ishq ko'pincha haqiqiy ishq talqini bilan, komillikka mayl bilan qorishib ketadi; ba'zan esa sof lirikadek tuyulgan g'azallarda ijtimoiy ruh omixta keladi, ayrimlarida lirik qahramonning ichki kechinmalari, sargardonlikdagi oh-u zori, Vatan sog'inchi, do'st-u yorlar, xeshlar yodi aralashib ketadi:

*Salomimni yetkurgil, ey sabo, mendin Buxoroga,  
Degin, Majnun dilining tabrigin ul shahri Layloga.  
Xabar bergil kirib Shirin saroyi ichra Farhodin,  
Olib ketdi dili tanho g'aribni tog'-u sahroga,  
Muyassar bo'lsa ko'rmoq senga dildorim jamolini,  
Jahonda martabang oshgay, yetarsan joyi a'loga.*

Ammo Nosir Buxoriy she'rlarining yetakchi mavzusini vatanparvarlik, insonparvarlik, mavjud ijtimoiy tuzum illatlarini tanqid, adolat va xalqparvarlikni targ'ib etish, nomardlik, pastkashlik, sudxo'rlik-u tamagirlikni qoralash tashkil etadi. „Darveshga qanoat mulki taslim bo'lsa, u olamning sultonidir“, degan shoir sabr-u qanoat, xayr-u saxovat, juvon-mardlig-u yetimparvarlikni olqishladi; u doimo yoriga sadoqat ko'rsatib, fidoyilik bilan unga intilib, mehr-muruvvat tilaydi:

*Oinayi xudoy ruxsori tust moro,  
Biguzar, to bubinam dar oina xudoro.  
Dar ka'bai visolat gar boshadam maqome,  
Az zamzami du diyda ob zanam saforo.*

(Mazmuni: *Sening yuzing men uchun Xudoning oynasidir, ol-dimdan o'tgil, shu oynada Xudoni ko'ray. Sening visoling ka'basida maqom tuta olganimda edi, ikki ko'zim zamzamidan safoga suv sepgan bo'lardim.*)

Shoir bu yerda g'oyatda nafis tasvir yaratib, mantiqan kuchli qiyoslar yasash bilan birga, majoziy ishqni, so'fizm falsafasining „ishki kull“ haqidagi nazariyasiga sodiqligini ham ko'rsata olgan.

G'am-hasrat, Vatan mehri shoir qalbidagi jo'shqin kay-fiyatlarni so'ndira olmaydi. Tanbur navosi, nay nolasi, bodaning kayfiyati-yu bahorning jonbaxsh tarovati unga taskin beradi, tabiat jilosi ifordek hid taratib, ko'zini yashnatadi, kishi qalbi gul-gul yashnaydi:

*Bahor kelib gullar anjumani qizidi,  
Lola tog'-u sahrolarga o'z alamini tiqdi.  
Sarv boshiga chodirini tortib, bulbullar  
xonishga kirishdi,  
Donalarni tars yorib, g'unchalar yuz ko'rsatdi.*

Devondagi bunday g'azallar shoirning chinakam go'zallik va tabiat oshig'i ekanligini ko'rsatadi. Ular forsiy tildagi she'riyatda

manzara tasviriga bag'ishlangan lirikaning eng yaxshi namunalari hisoblanadi. Umuman Nosir Buxoriy she'rlarida manzara tasviriga ancha keng o'rin berilganligi uning tabiat oshuftaligidan dalolat beradi.

Shoir devonini varaqlar ekanmiz, uni chinakam do'stlik vassofi ekanligini ham bilib olamiz. Zeroki bir qancha g'azallar, qit'a va ruboiylar bevosita insonning insonga mehr-oqibatli bo'lishi, turli elat, din va mazhab kishilarining inoqligini tarannum etishga, do'stlikka da'vat qilishga qaratilgan. Aftidan shoir o'z Vatanida juda katta obro', shuhratga ega bo'lgan. Chunki bir she'rida „eski, sodiq do'stlardan rubob, shatranj, nay va sharob qoldi, xolos. Endi men ularni qancha qidirmayin, baribir topolmayman“, deydi. Shuning uchun do'stning qadriga yetmoq, unga sodiq qolmoq, „bulbuldek guldan ayrilib qolmaslikka“ intilmoq zarur:

*Agar do'stonro tavoni boz yoft,  
Tavon az pasi marg jon boz yoft.  
Kaseki az fiqoq ba vasl rasid,  
Dubora hayoti jahon boz yoft.*

Mazmuni: *Agar do'stlarimni qaytadan topsam, o'lik tanamga qayta jon kirganday bo'lardi. Kimki ayriliqdan keyin visolga yetar ekan, u ikkinchi marta hayotga yetishganday bo'ladi.*

Shoir g'azallaridagi do'stlik va hamjihatlik haqidagi mulohazalar keng qamrovli. Ularda muallif Xudo bandalarining bari teng, shuning uchun ular bir-biriga mehribon, xayrixoh, hamdard-u hamdam bo'lib, yaxshilik urug'ini sepib, bu dunyoda „yaxshilik“ degan nom qoldirib yashashga intilishi zarur. Bir g'azalida Nosir „dunyodan shunday yashab o'tginki, sendan so'ng, falonchidan yaxshi nom qoldi, deb yurishsin“, degan xulosaga keladi.

Qayd etganimizdek, Nosir Buxoriy g'azallarida mavjud ijtimoiy tuzum illatlarini qoralash, adolatsizlik, zulm-zo'rlikni tanqid qilish ancha kuchli. Ana shunday g'azallarida shoir donolar nazardan chetda-yu nodonlar izzatda bo'lgan, sudxo'rlik, riyokorlik, ikkiyuzlamachilik avjiga chiqqan zamonasidan noliydi, hukmron tabaqalarni, umuman, zamondoshlarini insofli, adolatli, xayr-saxovatli, halim, rostgo'y, ochiqko'ngil, shirinsuxan bo'lishga chorlaydi; o'z zamonasida insof, diyonat tansiq bo'lganidan aziyat tortadi:

*Nosir insof dar jahon matalab,  
Ki dar ofoq az o' nayobi gard.  
Xusravi odile namond magar,  
Tojdori xuro's xohad kard.  
Parvarad osmon bo xuni dilash.  
Harki dar davri mo suxanparvar ast.  
Kori donish zamin furo' burdaast,  
Zuhal naqs-u Zuhra nomard.  
Zarraye mehr agar budi dar charx,  
Chehrayi mehri o' nabudi zard.*

(Mazmuni: *Nosir dunyoda insof axtarib ovora bo'lma, butun ofoqda ham uning gardini topolmaysan. Boshida toji bo'lgan bilan adolatsiz Xusrav shoh hisoblanaveradimi. Unday bo'lsa, xo'rozning ham boshida toj bor-ku. Bizning zamonimizda quruq vaysaqilarni falak dil qoni bilan e'zozlaydi. Ilm qadrini yer yutib yuborgani uchun Zuhal baxtsiz, Zuhra nomard bo'lib qoldi. Charxning tabiatida zarracha mehr bo'lganda, Quyoshning yuzi sarg'aymagan bo'lardi.*)

Ammo shoir aqidasicha, turmush qiyinchiliklari, munofiqlig-u riyokorlik nazdida o'zni mardona tutmoq, taqdir taqozosiga rizolik bilan, halol mehnat, peshona teri bilan rizq topib, sabr, qanoat bilan yashab, nodonlarga mute, sarvatmandlarga ehtiyojmand bo'lmaslikka da'vat etadi; bir mutafakkir sifatida pand beradi; pastkashlik, tamagirlikka yo'l qo'ymaslikni uqtiradi:

*Otash andar tama' zanu chun xok,  
Bar dari nokason sifla magard.  
Boyadash sad sinon xori did  
Har, ki yak non z-noni dunon xo'rad.*

(Mazmuni: *Tamani otashda kuydirib, nokaslar eshigida tuproq bo'lib yurishdan saqlan. Pastlar dasturxonidan bir non yegandan ko'ra, kishi yuziga yuz xor-u zorlik nayzasi sanchilgani afzal.*)

Xulosa qilib aytganda, Nosir Buxoriy ijodi XIV asr forsiy tildagi adabiyotning o'ziga xos zarvaraqlaridir. Noziktab vatandoshimiz devonini o'zbekcha tarjimasini bilan nashr etish adabiyotshunos-u mutarjimlarimizning muqaddas burchlaridandir.

## JONBAXSH SHE'RIYAT

Forsiy tildagi she'riyatning eng ko'zga ko'ringan siymolaridan biri Kamol Xo'jandiydir. Zeroki, u an'anaviy g'azal janrini mavzu va g'oyaviy yo'nalishi jihatidagina emas, balki o'ziga xos badiiy nafosati nuqtayi nazaridan ham yangi pog'ona-ga ko'tara olgan san'atkordir.

Kamoliddin Ma'sud 1318—1321-yillar orasida Xo'jandda tavallud topgan. Uning bolalik yillari ona yurtida o'tgan. Ko'hna Urganchda tahsil ko'rgan, bir necha yil Toshkentda yashagan. Navoiy Xo'ja Ahror Vali ma'lumotiga asoslanib, Kamolning otasi toshkentlik edi, degan. Yoshligidan zehni o'tkir bo'lgan Kamoliddin zamonasidagi arab tili va adabiyotini, so'fizm falsafasi, hadis-u tafsirni puxta egallaydi. Madrasa xatmidan keyin bo'lajak shoir Hajga borish bahonasi bilan Hijozga jo'naydi. Ka'ba tavofidan qaytishda Tabrizga tushadi va bir umrga shu yerda qolib ketadi. 1375—1383-yillar Iroq va Ozarbayjonda hukmronlik qilgan Sulton Husayn Jaloyiri shahardan unchalik uzoq bo'lmagan Valiyonko'hdan shoirga mulk in'om etadi. Kamoliddin bu yerda Bihisht otlig' katta bog' barpo etadi.

„**Tarixi tomm**“ning muallifi Sharofiddin Roqimiyning yozi-shicha, „hokim ana shu bog'da Xonaqohi Nodiriy qurib beradi. U xizmatkorlar ka'basi va zohidlar qiblasi bo'lgan. Sulton boyligining yarmini shu xonaqohga vaqf qilib bergan“.

Lekin shoirning bu osoyishta hayoti uzoqqa cho'zilmadi. 1385- yili Dashti Qipchoq hokimi To'xtamish katta lashkar bilan Tabrizga hujum qilib, shaharni talaydi va boshqa asirlar qatori Kamoliddinni ham poytaxti Saroy shahriga eltadi va e'zozlaydi. Garchi Kamoliddin saroyda ardoqlangan, To'xtamishning safari-yu zafarlarida hamroh yurgan bo'lsa-da, Tabrizni sog'inib mumtoz g'azallar bitadi va Amir Temur To'xtamish ustidan g'alaba qozongach, 1396-yili sevimli shahriga qaytishga muvaffaq bo'ladi. U Mironshoh bilan do'st bo'lgan, undan muruvvatlar ko'rgan; shoir temuriylarga atab g'azallar yozgan bo'lishi kerak. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, mashhur Eron olimi va yozuvchilari Rizoqulixon Hidoyat (XIX asr), uning nabirasi Sodiq Hidoyat 1956-yili vafot etgan) Kamol Xo'jandiy avlodlaridan ekan.

Kamol Xo'jandiy 1401-yili Tabrizda vafot etadi. Uning qabri o'z bog'ida bo'lib, ilm-adab ahli ziyoratgohi hisoblanadi. Shoir

ayni paytda tasavvufning buyuk allomalaridan hisoblanadi. Uning karomat va riyozatlari haqida Sharqda ko'p hikoyatlar tarqalgan.

Kamol Xo'jandiy she'rlar devonining bir qo'lyozma nusxasi bizgacha saqlanib qolgan. Ostoni Quds (Mashhad), Boku, Dushanbe, Sankt-Peterburg shaharlaridagi qo'lyozmalar xazinasidagi dastxatlar nisbatan mukammal va qadimiyroqdir. Barcha tazkiranavislar shoir devonining 14 ming baytdan iboratligini ta'kidlashgan. Ammo bizgacha yetib kelgan nusxalardagi she'rlar 7 ming bayt atrofida. Unda 4 ta qasida, 917 ta g'azal, 101 ta qit'a, 1 ta mustazod, 37 ta ruboiy, 1 ta masnaviy, 11 ta muammo jamlangan, g'azallarning ko'pchiligi 7 baytdan iborat.

Kamol Xo'jandiy she'rlari g'oyaviy-tematik hamda badiiy nafosat jihatidan rang-barangdir. Ammo g'azallarning asosiy mavzusi an'anaviy ishq-muhabbatdir. Bu asarlarda vafo hamda sadoqat, insondo'stlik, samimiyluk, oshiqning turli-tuman kechinmalari-yu ma'shuqaning betakror husn-u latofati, noz-u karashmasi, ag'yorning g'alamisligi-yu toshbag'irligi g'oyatda nafis bir tarzda, xalqona soddalik bilan chizilgan. Yorning vafosizligi, oshiq qalbiga qadalgan mujgon o'qlari dardini, nozik tabassumi-yu, shirin guftori bartaraf etadi; hijron azobida kuyib, ado-yu tamom bo'layotgan oshiqqa ma'shuqaning bulut ostidagi quyoshdek „yalt“ etib ko'rinishi jon bag'ishlaydi. Shuning uchun ham Kamol Xo'jandiy g'azallaridagi ishq bu hayotga, yashashga, go'zallikka, yaxshilikka mehr, istiqbolga ishonch va umid bilan qarashning jozibali in'ikosidir.

*Ko'z yoshimni qo'ni-qo'shnilar ko'rib, hayron qolib,  
Dedilar: buzmasmikin bu sel bizning xonani,  
Garchi g'am dilni xarob etdi va lekin sen o'zing.  
Bir qadam-la tiklagaysen kulbayi vayronani.*

(Vasfiy tarjimai).

Professor A. Hayitmetov Ahmad Tiroziyning „**Funul ul-balog'a**“ (XV asr) asariga suyanib, shoir o'zbekcha she'rlar ham yozgan, degan xulosaga kelgan.

Kamol Xo'jandiy ishqni ho-yu havas, o'tkinchi insoniy hissiyot deb emas, balki oshiqning ma'naviy ehtiyoji, hayotning mazmuni, deb tushunadi. Shuning uchun ma'shuqaning noz-u



istigʻnosi-yu jabr-u jafosi oshiqqa kuch-qudrat baxsh etadi, u visol onlarini, yorning lutf-u karashmasini sogʻinib yashaydi, ayriliq dardi-yu jafodan nolimaydi:

*Gar tegʻ kashad dushman-u gar taʻna zanad doʻst,  
Qat az tuyu savdoyi tu qatʻan notavon kard.*

(Mazmuni: *Dushmanim qatlim uchun tigʻ tortib, doʻstim taʻna qilsa ham sen va sening hasratingdan kecholmasman.*)

Kamol Xoʻjandiy gʻazallarida tabiatning betakror jozibasi, chashma-yu anhorlarning zilol suvlari fayzi oshiq qalbidagi nozik hislar tizimiga ulanib ketadi. Shoir gʻazallarida biz Navroʻz latofati-yu bulbullar xonishi, qoʻshchilar ovozi-yu bogʻbonlar xirgoyisini his etamiz, bogʻu-boʻstonlardagi sheʻr bahsi, soz-u kuy, taronalar unini eshitamiz:

*Kanori obu labi joʻyboru goʻshayi bogʻ,  
Xush ast bo sanami sarvqad ba sharti farogʻ.*

Demak, shoir uchun anhor labidagi bogʻ sayri sarvqomat yori bilan fayzli va totlidir.

Xullas, Kamol Xoʻjandiyning har bir sheʻri oshiq qalb torining ohangi, maʻshuqaning sehrlovchi, jonbaxsh siymosining surʻatidir. Shuning uchun ular oʻquvchi qalbini hamisha toʻlqinlantirib, goʻzallikka, joʻshqin hayot qalbiga daʻvat etaveradi.

## PAHLAVON VA SHOIR

Mahmudning galdagi Dehliga safari hind xalqining milliy bayramiga toʻgʻri kelibdi. Bunday ayyomlarda turli savdo rastalari, xalq sayillari, har xil tomoshalar, musobaqalar uyushtirilar ekan. Mahmudning shahar chetidagi saroylardan biriga tushganini eshitgan sulton uni ertangi kurashda ishtirok etish va yosh saroy polvoni bilan bellashishini soʻrab odam yuboribdi. Mahmud yosh bahodirning izzat-nafsigaga shikast yetkazishni oʻziga ep koʻrmay bu iltifotni rad etibdi. Oʻz marhamati qabul qilinmaganini eshitgan sulton gʻazab otiga minibdi. Mulozimlar bu xabarni Mahmudga yetkazib, kurashda ishtirok etishini oʻtinib soʻrabdilar. U rozilik bildiribdi.

Odatda musobaqalardan oldin Mahmud musofirlar mozori ulugʻlarining qadamjolarini ziyorat qilar ekan. Oʻsha kecha ham shahardagi qabristonni ziyorat qilib yursa, bir ayol erining qabrini quchoqlab: „Ey Xudo, ikki bolam va erimni olding,

ertangi kun maydonda yolg'iz o'g'limning qo'lini baland qilgin“ deb nola chekayotgan ekan. Mahmud bu xotin sulton saroyidagi pahlavonning onasi ekanligini sezibdi.

Ertasi kun kurash maydonida Mahmud o'zini g'oyatda zaif va lapashang qilib ko'rsatibdi. Yosh bahodir ikki-uch davradan keyinoq Mahmudni chirpirak qilib ko'tarib uribdi. Sulton bu g'alaba sharafiga katta ziyofat beribdi. Tantanalardan so'ng hokim boshchiligida arkoni davlat, barcha xizmatkorlar, mehmonlar fillarga minib o'rmonga — ovga jo'nashibdi. Changalzorlar orasidan ketayotganda sulton taxtiravoni o'rnatilgan fil bexosdan botqoqqa botib qolibdi, ko'p urinishibdi, filni loydan chiqaza olishmabdi. Shunda Mahmud xizmatkorlarga filning oldingi oyoqlari orasini kovlab bo'shatishni buyuribdi. Shunday qilishibdi. Bo'shliqqa katta bir kundani tashlabdilar. Mahmud ana shu kunda ustiga tushib, fil oyoqlari orasiga yelkasini qo'yib, bor kuchi bilan ikki oyog'ini botqoqdan bo'shatibdi, fil o'zini o'nglab halokatdan qutulibdi.

Hamma mehmonning qudratiga ofarinlar aytibdi. Ovdan so'ng yana ziyofat boshlanibdi. Gap orasida sulton Mahmuddan:

— Kecha maydondagi zaifligingiz bilan bugungi jasoratingizni qanday tushunsa bo'ladi?, — deb so'rabdi.

— Ey, oliyhimmat sulton! Bu yigit bir bevaning yagona farzandi. Istiqboli porloq pahlavon, lekin hali tajribasiz. Men u bilan olishib, mayib qilib, umriga zomin bo'lishni istamadim. Ammo siz g'azablanganingizdan so'ng kurash tushishga rozilik bergandim, — debdi u.

— Tilang tilagingizni, nima istasangiz muhayyo qilaman, — debdi sulton.

— Menga hech narsa kerak emas, sizning zindoningizda 200 dan ortiq yurtdoshlarim asir ekan, o'shalarni ozod qilsangiz, Vatanimga birga olib ketsam bas, — debdi Mahmud.

Sulton bahodirga ot-ulov, sarpolar beribdi va asirlarni hibsdan bo'shatibdi. Mahmud vatandoshlari bilan Xorazmga qarab yo'l olibdi.

Mashhur faylasuf olim, insonparvar shoir Pahlavon Mahmud Puryorvaliy 1247-yili Xiva yaqinida po'stindo'z oilasida dunyoga kelgan. Ko'hna Urganch va Xiva madrasalarida ta'lim oladi, turli bilimlarni puxta egallash bilan birga jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanadi, milliy kurash qoidalarini o'rganadi. Yigitlik pallasidayoq kuragi yerga tegmagan bahodir, nozik didli shoir sifatida shuhrat qozonadi. U Sharqning deyarli

barcha mamlakatlarida bo‘lib, musobaqalarda qatnashib, faqat zafar quchadi, tushgan in‘om-ehsonlarni, sovrin, mukofotlarni beva-bechoralarga ulashib berib, o‘zi ota kasbi po‘stin-do‘zlik bilan kun kechiradi.

Pahlavon Mahmud 1325-yili ona shahrida vafot etadi. Hamshaharlari uning qabri ustida muhtasham maqbara tiklaydilar. Hozir bu maqbara davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Pahlavon Mahmud din nazariyasi — *fiqh, falsafa* va *mantiqqa* doir bir necha risolalar yozgan. Jumladan, javonmardlik haqida „**Kanzul haqoyiq**“ risolasini yaratgan. Rudakiy, Ibn Sino, Xayyom an‘analarini davom ettirib, forsiy tilda ruboiylar bitgan, she‘rlarida Puryorvaliy yoki Kitoliy taxalluslarini qo‘llagan. „**Majolis unoshiqin**“ kitobida shoir haqida qiziqarli ma‘lumotlar bor. Shoir o‘z ruboiylarida chin insoniy sevgini betakror noziklikda tasvirlaydi, yangi badiiy-tasviriy vositalar ishlatadi; zulm-zo‘rlikni, tamagirlik, pastkashlik, riyokorlikni qattiq qoralaydi; halollik, insonparvarlik, mardlik va ma‘rifatni olqishlaydi, kishilarni do‘stlikka, hushyorlikka, ilm o‘rganishga da‘vat etadi; ayrim ruboiylarida zamonasidagi tengsizlik, jabr-sitamdan shikoyat qiladi; mehnatkash xalqning og‘ir hayotiga achinadi.

*Har yoqdan g‘am otgan toshni ko‘raman,  
Ko‘z ochsam chimirilgan qoshni ko‘raman.  
Qachongacha poymol etib fikrimni,  
Tizza ko‘zgisida boshni ko‘raman.*

Nomardlik, pastkashli-gu nodonlikni qoralagan shoirning quyidagi ruboiysi ham ibratomuzdir.

*Uch yuz Ko‘hi Qofni kelida tuymoq,  
Dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq.  
Yoinki bir asr zindonda yotmoq,  
Nodon suhbatidan ko‘ra yaxshiroq.*

Sharqning buyuk mutafakkiri Abdurahmon Jomiy „**Silsilat-uz zahob**“ — „**Oltin zanjir**“ dostonida shu ruboiyga yaqin she‘rlar bitgan, uning g‘oyalarini o‘ziga xos yo‘sinda davom ettirgan. Demak, Jomiy javonmardlik aqidasiidagi Pahlavon Mahmud ijodini bilgan va qadrlagan.

Shoir hayoti va ijodiy merosini o‘rganish, to‘plab tarjima qilish va nashr ettirishda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi Yahyo G‘ulomov hamda nozik didli yozuvchi va tarjimon To‘xtasin Jalolov, shoir Matnazar Abdulhakimlar-

ning xizmati katta. Pahlavon Mahmudning shaxsiy hayoti va ruboiylari bizni doim insonparvarlikka, mardlik va jasorat hamda vatanparvarlikka chorlayveradi.

### **Pahlavon Mahmud hikmatlaridan**

Ko'zguga berardim kechqurun sayqal,  
Boqdim unga tiniq bo'lgan bil mahal:  
Shuncha ko'p ko'rindi o'z aybimki, men  
O'zgalar aybini unutdim tugal.

\* \* \*

Qo'rqoqlardan biron chiqqanmidi mard,  
Xaysiz odamdan lo'lining iti yaxshi.

\* \* \*

Nomard it kabidir, mard — bir daryo,  
Daryo it damidan nopok bo'lmas.

\* \* \*

Hamma darddan ko'ra ayriliq yomon,  
Hamma qayg'udan ham yomondir hijron.

\* \* \*

Yomon bilan ulfat bo'lma, yur yiroq,  
Yo'lingga don sochib, qo'yadi tuzoq.

\* \* \*

Kiyim eskirgani aybga qo'shilmas,  
Ayb shunda, gar bo'lsa kiyimda yomon.

\* \* \*

Toki bor g'ayrat-u mardlikdan asar,  
Ahlu ayolingni etma darbadar.

\* \* \*

Qora tosh sira ham bo'lmas lojuvard,  
Toza qalbga aslo yuqmas chang-u gard.

### **FAXRUZZAMON**

Qadimiy Shosh, ya'ni Toshkentda yashab ijod etgan adiblardan biri Badriddin Chochiydir. Badriddin Muhammad 1285-yili ziyoli oilasida tug'ilgan. Bolaligi Toshkentda o'tadi, keyin Samarqand va Buxoro madrasalarida o'qiydi. Bo'lajak shoir she'riyat va san'at bilan birga, zamonasidagi barcha

bilimlarni, xususan, tabiiy fanlarni yaxshi egallaydi. Mamlakatdagi notinchlik, toj-taxt uchun kurashlarning avj olib ketishi sababli Badriddin Muhammad Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohatga jo'naydi. Kichik Osiyo va Arabiston yarim oroli shaharlarini kezib chiqadi, Makkada bo'ladi. Tarixiy manbalarning guvohligiga qaraganda, u Hajdan qaytishda 1333-yili Hindistonga boradi va Dehli sultoni To'g'uluq Muhammad saroyiga ishga kiradi. Adabiy qobiliyati, barcha bilimlarda zukkoligini munosib taqdirlab, To'g'uluq Muhammad Badriddin Chochiyga 1344-yili Hindiston sultonlari tomonidan ta'sis etilgan „*Faxruzzamon*“ — „*zamonasining faxri*“ unvonini beradi. Badriddin Chochiy bir qit'asida o'z qobiliyati haqida faxriya sifatida quyidagilarni yozgan edi:

*Xudovando maro dar ilmi manqul,  
Zabonu didai dil gasht bino.  
So'i ma'qul tiram dastras hast,  
Agarchi nestam chun puri Sino.*

(Mazmuni: *Ey, Xudo! Diniy bilimlarda tilimni ravon, dil ko'zini ravshan etding. Sino farzandi bo'lmasam ham dunyoviy bilimlarda o'qim nishonga tegadi.*)

Shuni alohida qayd etish kerakki, o'tmishda O'rta Osiyodan Hindistonga borib yashagan va ishlagan olim hamda shoirlar juda ko'p bo'lgan. Lekin ulardan faqat Badriddin Chochiygagina „*Faxruzzamon*“ unvoni berilgan.

Badriddin Chochiy 1346—1350-yillar orasida Dehlida vafot etgan.

Shoir Dehli sultonlari dargohida ishlagan bo'lsa-da, muhtojlikda yashaganga o'xshaydi. Quyidagi misralar shundan dalolat beradi:

*Zaiflar shuda z-on mo'i didayeki zi dard,  
Dar obi didai xud xoru pinhon ast...  
Ba shakli tori bireshim ki dar bari chang ast,  
Nizoru zor pur az tob saxt nolon ast.*

(Mazmuni: *Darddan zaiflashgan kipriklar ko'z yoshlari orasida xor-u pinhondir. Uning holati kaltakdan har lahzada nola chekuvchi changning ipak torlariga o'xshaydi.*)

Chochiy, shubhasiz ko'plab ilmiy asarlar, dostonlar hamda g'azallar yaratgan. Hatto, o'tmishda Badriddin Chochiy devon-

laridagi she'rlarni sharhlovchi, izohlovchi alohida kitoblar, lug'atlar tuzilgan. Tazkiralarda (o'tmishda antologiyalar shunday nomlangan) Badriddin Chochiyning To'g'uluqiylar sulolasi tarixi tasviriga bag'ishlab, Firdavsiyga ergashib 30 ming misradan iborat „**Shohnoma**“ bitganligi ham qayd etiladi. U 1345-yili 2 ming baytdan iborat she'rlar devonini tuzgan.

Badriddin Chochiy forsiy tildagi she'riyatda qasida janrini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'targan san'atkordir. U, an'anaga ko'ra, o'z qasidalarida ro'y bergan tarixiy voqealar, xalifalik bilan sulton o'rtasidagi munosabatlarni, u yoki bu tarixiy shaxslarni maqtamaydi, balki Hindiston tabiatining betakror go'zalliklarini tasvirlaydi, bahorning jozibali manzarasini chizish orqali o'quvchi qalbida tabiat ko'rkiga, hayotga, yashashga zavq-shavq uyg'otadi. Badriddin Chochiy g'azal va ruboiylarida o'ziga xos badiiy san'atlarni ishlatadi, turli xil majoziy obrazlardan, hayotiy lahzalardan ustalik bilan foydalanadi. Shuning uchun ham o'z vaqtida „Badriddin Chochiy qasidalarining sharhi“ degan, shoir she'rlarini tushunish va tahlil qilishga yordam beradigan alohida kitoblar yaratilgan. Chunonchi, 1848-yili Chochiy she'rlariga Muhammad Usmon Qays ikki jildlik sharh yaratadi va uni „**Nusxai Usmonxon**“ deb ataydi. Afsuski, ana shu zabardast adib merosidan bizga yuzdan ziyod qasida, g'azal va ruboiylarigina yetib kelgan, xolos. Mazkur she'rlar Badriddin Chochiyning chinakam tabiat oshig'i, go'zallik shaydosi, insonparvar shoir ekanligini ko'rsatadi. Shoir o'z asarlarini o'sha davr an'anasiga ko'ra forsiy tilda yozgan. Badriddin Chochiy asarlarini Sharq ilm-fanining bilimdoni, shoir va tarjimon Anisiy 1967-yili o'zbek tiliga tarjima qilgan.

## DO'STLIK KUYCHISI

Shamsiddin Muhammad Hofiz Sheroziy 1320—1321-yillar orasida Eronning janubidagi Sheroz shahrida, kosib oilasida dunyoga keladi.

Shamsiddin Muhammad qobiliyatli, zehni o'tkir bola bo'lgan. Otadan erta yetim qolgan Muhammadni onasi novvoyga shogirdlikka beradi. Bo'lajak shoir bir vaqtning o'zida ham o'qiydi, ham novvoyga dastyorlik qiladi, ma'raka va yig'inlarda Qur'on va boshqa kitoblarni ifodali va xushovoz bilan o'qib berib, ro'zg'or tebratadi. Xushovozligi, bexato o'qish va yozishi

Muhammadga shuhrat keltiradi: uni Hofiz deb chaqira boshlaydilar.

Shamsiddin Muhammad Hofiz juda erta ijod qila boshlagan. U bir umr o'qish, ijod bilan band bo'lgan iste'dod egasi hisoblanadi. U she'rlarida „Qirq yil o'qigani“ni alohida ta'kidlagan. Hofiz umrining oxiriga qadar ona shahri Sherozda yashadi.

U 1389-yili shu yerda vafot etdi. Xalq o'zining sevimli farzandini mashhur Musallo bog'iga dafn etdi.

Hofizdan bizga qadar katta hajmdagi devoni yetib kelgan. Shoir o'z g'azallarida hamisha insonni ulug'ladi, chin muhabbatni, do'stlik, hamjihatlik, vatanparvarlik hamda insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qildi. Kishilarni halol mehnat evaziga kun kechirishga, bu dunyo noz-ne'matlaridan, tabiat ko'rkidan ko'proq bahramand bo'lishga chorladi.

Hofiz umr bo'yi yomon kishilardan uzoq yurdi, davlatmandlar, shoh va saroy xizmatiga bormadi. Shuning uchun shoir riyokor hukmron tabaqalar tomonidan tahqir qilindi, kamsitildi. Hofiz qo'pgina she'rlarida o'zaro feodal urushlar va mavjud ijtimoiy tuzum keltirib chiqargan xonavayronlik, zulm-zo'rlikka nisbatan g'azab va nafratini ifodalaydi. Chunonchi, quyidagi ruboiysida Hofiz zamon boshiga solgan g'am, alamdand hasrat chekadi:

*Umrinning hosili bo'ldi faqat g'am,  
Yil ichra har qanday paytlarda ham.  
G'amdand boshqa topmadim men bir ulfat,  
Darddan bo'lak topmadim vafoli hamdam.*

Hofiz ijodida ilm-fanni, rostgo'ylik va mehribonlikni, ma'rifatni targ'ib etish ham yetakchi o'rinni egallaydi. Shoir kishilarni hamisha bir-biriga hamdam, hamdard, inson farzandiga doim g'amxo'r bo'lishga chaqiradi, dilozorlik, munofiqlik, takabburlikni qoralaydi; insonparvarlik, oddiy mehnatkash haqida qayg'urish — Hofiz g'azallarining asosiy mavzuidir. Navoiy „**Devoni Foni**“dagi ko'p g'azallarini Hofizga javob tarzida yaratgan. Gyote, Geyne, Pushkin, Yesenin kabi shoirlar ijodidagi ko'p g'azallar Hofizga tatabbu tarzida yozilgan. Gyote „**G'arbu Sharq**“ devonini yozishda unga ergashgan:

*Yomondan uzoq bo'l, yaxshiga yondosh,  
Umring zo'ye ketgach, diling bo'lur g'ash.  
Yolg'on beviqor qilur odamni,  
Yolg'on sharmisor qilur odamni.*

### **Hofiz hikmatlaridan**

Kimki zahmat chekmadi,  
Rohatga ham yetmadi.  
Mehr urug'in ekmagan termas yaxshilik gulin.

\* \* \*

Sirdan ko'ringanchamas har narsaning ichi ham,  
Ba'zi shirin narsaning o'rtasida zahri ham.

\* \* \*

Yolg'onchidan ordir oqillar ishi,  
Yolg'onchini odam demas hech kishi.

\* \* \*

Yaxshi bo'lg'ay o'rtaga tushsa sinov tajribasi,  
Bu sinovda qora bo'lg'ay lofchilarning chehrasi.

### **Sargardonlikda**

Sheroz hokimi Shoh Shujo'ning saroy shoirlaridan bo'lgan laganbardor Imodi Faqeh Hofizning shon-shuhrati, iste'dodini ko'rolmasdi. Kunlardan bir kun Faqeh Hofizni dinsizlikda ayblab, Shujo'ga chaqadi va darhol tutib, toshbo'ron qilishga undaydi. Shujo' shoirni darhol tutib kelishni buyuradi. Mulozimlar Hofizni qidirishga tushadilar. Shoirning saroydagi do'st va muxlislari bu shum xabarni unga yetkazadilar. Hofiz o'sha tunni bir do'stinikida o'tkazib, ertasi azonlab Yazd shahriga qochib ketadi.

Yazd Sherozdan unchalik uzoq bo'lmagan Sherko'h tog'ining janubiy etaklarida joylashgan kichik shahar edi. Unga shoh Shujo'ning jiyani Yahyo hokimlik qilardi. Hofiz yo'lda Istaxr va Anjirak shaharlarida to'xtab, bir necha kunda yetib keladi. Lekin bu yerda ham shoirni noxushlik kutib oladi. Shahardagi masjidlardan birining musofirxonasiga joylashgan Hofiz bir g'azal bilan kelganligini shoh Yahyoga yetkazadi. Ammo, xasis va ziqna Yahyo buyuk shoirga e'tibor bermaydi, iltifot ko'rsat-



maydi. Bu safaridan g'oyatda pushaymon bo'lgan Hofiz yana Sherozga qaytmoqchi bo'ladi. Lekin g'ariblik, moddiy muhtojlik uni shu yerda qolishga majbur etadi.

Shoir vatanidan uzoqda g'am-alam bilan kun kechiradi. Tunlari musofirxonada bo'yra ustida uxlar, kunduzlari esa beva-bechoralar, darveshlar bilan suhbatlashardi. Ona yurtini qo'm-sab, dard-alam to'la she'rlar yozardi.

### Noyob qo'lyozma

Hofiz Sheroziy yoshligidanoq xushovoz qissaxon bo'lish bilan birga, chiroyli husnixat egasi ham edi. Zamonidagi juda ko'p ilm-adab ahliga kitoblardan nusxalar ko'chirib berib, shu yo'l bilan tirikchilik o'tkazishga tirishgan. Toshkentdagi Beruniy nomli Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida 1355-yilning aprel-may oylarida Hofiz tomonidan Sherozda ko'chirilgan kitob saqlanmoqda. Bu kitob mashhur shoir Amir Xusrav Dehlayiyning „**Iskandar oynasi**“, „**Shirin va Xusrav**“, „**Majnun va Layli**“, „**Sakkiz jannat**“ dostonlaridan iborat.

### Hofiz devonini ko'chirgan xattot

Hofiz asarlarini xalq orasida tarqatishda ilm-fan ahllari katta xizmat qilishgan. Ustoz Abdulqodir Murodiy ana shunday bilimdonlardan hisoblanganlar. Domla Murodiy asrimizning boshidayoq Hofiz she'rlarini qayta-qayta ko'chirganlar. Toshkentda nashriyot tashkil qilinganidan so'ng Hofiz g'azallari bir necha bor asl nusxada bosiladi. 1913-yili „G'ulomiya“ nashriyoti chop etgan Hofiz devonini Murodiy domla ko'chirib bergan edilar. 1958—1962-yillari Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti nashr etgan Hofiz hamda XII asrda yashagan shoir Kamol Xo'jandiy devonlarining arab alifbosidagi sahifalarini ham domla Murodiy bitganlar. O'zlari ham „**O'rta Osiyo xattotlari**“ (1974-y.) asarini yaratganlar. Bu risola Xuroson-u Movarounnahr xattotlik san'ati tarixi xususida yagona kitob hisoblanadi.

### ZOKONLIK HAJVCHI

Haybatulloxo'ja Xislatning „**Mushuk ila Sichqon**“ qissasini o'qigan bo'lsangiz kerak. Bu dostonda o'zboshimcha, zolim, xudbin mushuk ustidan sichqonlar qanday g'alaba qozongani ibratli tasvirlangan. Ana shu qiziqarli qissa asli fors-tojik adibi

Ubayd Zokoniy qalamiga mansub. Qissa shoir Xislat tomonidan o'zbekchalashtirilgan.

Serzavq shoir, ajoyib hikoyalar ustasi va dostonnavis Ubayd Zokoniy 1280-yilda Eronning Qazvin viloyatidagi Zokon shaharchasida amaldor oilasida dunyoga keladi. U dastlab Zokonda o'qidi. O'sha davrdagi Sharqning ilmiy markazi bo'lmish Bag'dod madrasalarida ta'lim oladi. O'qishni tugatgach, Qazvinda biroz davlat idoralarida ishlaydi. Keyin Sherozga qaytib, mashhur shoir Xoja Hofiz bilan tanishadi. Garchi Sheroz hokimi shoh Shujo' saroyida panoj topgan bo'lsa-da, taxt-toj talashishlarning yanada kuchayishi natijasida Ubayd goh Bag'dod, goh Qazvinda sarson-u sargardon, muhtojlikda yashadi. Shoir 1370—1371-yillar orasida o'z vatanida vafot etadi.

Ubayd Zokoniyning katta hajmdagi she'rlar devoni, dostonlari, „**Dilkusho**“, „**Dah fasl**“ („O'n fasl“), „**Sad pand**“ („Yuz pand“), „**Axloq-ul ashrof**“ („Ulug'lar axloqi“) singari ko'plab axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-falsafiy ruhdagi risolalari saqlanib qolgan. Aksariyati nasrda, ba'zilar nasr va nazmda yozilgan mazkur asarlarida yozuvchi ota-bobolarning qutlug'an'analarni targ'ib etadi, ajdodlarning ma'naviy, moddiy meroslariga mensimasdan qaraydigan feodal zodagonlar va ruhoniylarni qattiq tanqid qiladi, qoralaydi. „**Rishnoma**“ qofiyali nasr va nazmda bitilgan hajviy asar bo'lib, axloqiy-ta'limiy hikoyatlar bilan ziynatlangan. Unda ba'zi g'ayriinsoniy xislatlar tanqid qilinadi. Eng muhimi shundaki, ko'p umrini muhtojlikda o'tkazgan yozuvchi mehnatkash xalq hayotiga achinadi, yurtni vayron, elni qashshoq qiladigan urushlarni, razolat va jaholatni qattiq tanqid qiladi. Shuning uchun ham riyokor ruhoniylar, davlatni zulm-zo'rlikka suyanib boshqargan hukmronlar, laganbardor shoirlar Ubayd Zokoniyni tahqirlaganlar, badnom qilishga uringanlar. Lekin bular yozuvchi irodasini buka olmagan, asarlaridagi tanqidiy ruhni so'ndira olmagan. Mehnatkash xalqni madh etgan; ezuvchi, tamagirlik, maddohlik, laganbardorlik, baxillik, sudxo'rlikni qoralagan, hokimlarni adolatga chorlagan.

Yuqorida ta'kidlangan „**Mushuk ila Sichqon**“ qissasida shoir imo-ishoralar bilan Kimron shohi Muboriziddin bilan Sheroz hokimi Abo'ishoqi Inju o'rtasidagi jang-u jadallarni qoralagan. Shuning uchun ham bu dostonni shoir guvohi bo'lgan tarixiy voqealar asosida yozilgan haqqoniy asar deyish mumkin.

## Ubayd Zokoniy hikmatlaridan

Bir kishi Mavlono Azudiddindan so‘radi:

— Nega xalifalik davrida kishilar xudolik, payg‘ambarlik da‘vo qilishardi-yu endi hech kim bunday da‘vo bilan chiqmaydi?

— Bizning davrimizda xalq zulm va ochlikdan shu darajada ado-yu tamom bo‘lganki, Xudoni ham, Payg‘ambarni ham eslashga majollari yetmaydi, — javob berdi u.

\* \* \*

Bir kishi do‘stidan so‘radi:

— Ko‘zim og‘rib qoldi, nima qilsam ekan?

— O‘tgan yili tishim og‘rigandi, sug‘urib tashladim, — javob berdi do‘sti.

\* \* \*

Bir voiz minbarda va‘zxonlik qilayotgan ekan, majlis ahlidan birov ho‘ngrab yig‘lay boshlabdi. Shunda va‘zxon xitob qilibdi:

— Ey, xaloyiq, anovi kishidan so‘ranglar-chi, nega bunchalik yig‘laydi?

Yig‘layotgan kishi o‘rnidan turibdi-da, debdi:

— Ey, mavlono! Nima deb aljirayotganingni tushunmadim. Ammo, bir qizil echkim bor edi. Ikki kun burun o‘lib edi. Sen soqolingni qimirlatganda o‘sha echkim ko‘z oldimga kelib o‘pkam to‘ldi, yig‘lab yubordim.

\* \* \*

Ramazonning o‘n beshinchi kuni „bo‘zaxo‘rlik“da ayblab, bir kishini hibsga olishdi.

— Ramazon oyining necha kuni o‘tdi? — so‘radi haligi kishi.

— O‘n besh kuni o‘tdi, — javob berishdi.

— Necha kun qoldi? — yana so‘radi mahbus.

— O‘n besh kun.

— Unday bo‘lsa, men bechora ramazonning nimasini yeb qo‘yibman, — debdi u taajjublanib.

### „Yuz pand“dan

Chin do‘stga fidoyi do‘st bo‘ling.

\* \* \*

Kashandalarga qarshi kurashing.

\* \* \*

Mastlarni hibis qilishga yordam bering.

\* \* \*

Vaqtini g'animat tuting.

## HIKMATLAR GULDASTASI

Sharqu G'arbda Sa'diy, Shayx Sa'diy nomi bilan shuhrat qozongan, ko'p xalqlarning ulkan shoirlari o'zlariga ustoz deb bilgan mutafakkir san'atkorning asl nomi Musharrafiddin ibn Muslihiddin Abdullohdur. U 1189-yili sherozlik davlat xizmatchisi oilasida dunyoga keladi. Sa'diyning otasi Sheroz hokimi Sa'd binni Zanjii saroyida xizmat qilgan. Otasi Sa'diyni o'qitish bilan jiddiy mashg'ul bo'ladi, lekin qo'qqisidan vafot etadi. Yetim qolgan Sa'diy va ukasiga oz miqdorda bo'lsa ham davlat nafaqa tayinlaydi. Sherozda taxt-toj uchun kurash avj olgan bir paytda — 1226-yili Sa'diy Bag'dodga borib, „Nizomiya“ madrasasida tahsil ko'radi. O'sha davrning mashhur olimi Abdulfaroj Abdurahmon ibn Jazviy (1186—1257)dan dars oladi. Madrasa tahsilidan so'ng Eron, Janubiy Yevropa, Kichik Osiyo, Arab hamda O'rta Osiyo, Hindiston va Xitoy mamlakatlari bo'ylab safarga chiqadi. Qirq yil davomida turli yurtlarni ko'radi, har xil xalqlar orasida bo'ladi, ba'zan musofirlarni, savdo karvonlarini himoya qilib, qarqochilar bilan bo'lgan janglarda ishtirok etadi, salibchilar qurshovida qolib asir tushadi, bir do'sti uni qutqarib oladi. Umrining oxirgi yillarini Sa'diy munofiq va razil kishilardan yiroqda — uzlatda o'tkazadi, ijodiy ishlar bilan mashg'ul bo'ladi.

Sa'diy uzoq yashab, 1292-yili vafot etadi. U dafn etilgan bog' va maqbara Sheroz mehnatkashlarining qadamjolaridan biridir.

Sa'diy Sharq ijodkorlari orasida eng zahmatkash va jahongashtasidir. U 30 yil ilm o'rgandi, 40 yil sayohat qildi, 30 yil badiiy ijod bilan shug'ullandi.

Sa'diyning qasida, g'azal, ruboiy, qit'a va boshqa janrlardagi she'rlardan tarkib topgan to'rtta devoni — „Tayibot“<sup>1</sup>, „Badoye“<sup>2</sup>, „Xavotim“<sup>3</sup> va „G'azaliyot qadim“ bizgacha to'liq yetib kelgan. Ularda Sa'diy buyuk shoir sifatida yuksak g'oyalarni yangi bosqichga ko'targan.

---

<sup>1</sup> Tayibot — yoqimli, matlub.

<sup>2</sup> Badoye' — toza, yangi.

<sup>3</sup> Xavotim — xotima, oxir, tamom.

Sa'diy benazir shoir va mutafakkir sifatida maktab yaratgan san'atkor. Yuz yildan ortiq umr ko'rgan Sa'diy davrning barcha bilimlarini chuqur egallab, yurt ko'rib, xalq orasida yurib, chinakam olim, murabbiy, insonparvar san'atkor bo'lib yetishdi. She'riy va nasriy hikoya va masallaridan tashkil topgan „**Guliston**“ va „**Bo'ston**“, „**Sohibnoma**“ asarlari unga jahonshumul shuhrat keltirdi. Sa'diy o'z hikoyalarida boshqa Sharq mutafakkirlari singari xalq farovonligi, yurt tinchligi-yu, obodonligini odil podsho sharofatidan, deb biladi. Uning aqidasicha, podsho ilm-ma'rifatli, odil bo'lsa, mamlakatni ilmga, donishmandlarga suyanib boshqarsa, zulm-zo'rlik, jaholat va razolatni yer yuzidan yo'qotsa, davlat mustahkam, yurt obod, fuqaro to'q va tinch bo'ladi.

U ilm o'rganish, mehnatsevarlik, ta'zim-tavoze, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, ota-onaga e'tibor (til va muomala, so'zlash odobi, shirinsuxanlik) va boshqa juda ko'p masalalarda ulkan murabbiy, mutafakkir sifatida pand-nasihatchi beradi. Ayni choqda, yozuvchi sudxo'rlik, tovlamachilik, tamagirlik, tanballik, yolg'onchilik, g'irromlik, ikkiyuzlamachilik, firibgarlik singari g'ayriinsoniy illatlarni ayovsiz la'natlaydi va pokiza kishilarni bunday yaramasliklarga qarshi kurashishga chorlaydi.

Sa'diy Sheroziy asarlari o'zbek xalqi orasida qadimdan mashhur va manzurdur. Xususan, uning „**Guliston**“ va „**Bo'ston**“ asarlari o'tmishda O'rta Osiyo madrasalarida asosiy qo'llanma sifatida o'qitilgan. Sayfi Saroyi, Muhammad Rizo Ogahiy, Murodxo'ja domla, Sidqiy Xondoyliqiy bu kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilishgan. „**Bo'ston**“ni Chustiy domla 1960-yili tarjima qilgan. U alohida qiyosiy tahlilni talab qiladi.

Alisher Navoiydan tortib, barcha o'zbek adiblari Sa'diyning o'zlariga ustoz deb bilgan, uning merosidan ijodiy bahramand bo'lishgan. Navoiyning „**Hayrat-ul abrор**“, „**Mahbub-ul qulub**“, Avloniyning „**Turkiy guliston**“ asarlarida Sa'diy ijodining bevosita ta'siri bor.

Sa'diy asarlarini tadqiq va tarjima qilishda shoirlardan Chustiy, Muinzoda, G'afur G'ulom, olimlarimizdan professor Shoislom Shomammedov va Rustam Komilovlarning xizmatlari katta. Sa'diydagi tinimsiz riyozat chekish, yurt ko'rish, dunyo kezish, muttasil, sabot-matonat bilan ilm o'rganish, badiiy ijodda mo'jaz bayonlig-u sohirlik barcha zamonlar ahli uchun yuksak ibrat namunasidir.

## Sa'diy hikmatlaridan

Misrda ikki aka-uka yashar edilar. Ulardan biri sultonga xizmat qilar, ikkinchisi esa, o'z mehnati bilan kun kechiradigan bechora kishi edi. Kunlardan bir kuni akasi kambag'al ukasiga qarab:

— Sulton xizmatiga borsang-chi, erta-yu kech mehnat qilish azobidan qutularding, debdi.

Kambag'al ukasi unga shunday javob beribdi:

— Sen nega mehnat qilmaysan, minnatdan qutular eding. „Amir xizmatida oltin kamar bilan bel bog'lab turgandan ko'ra, arpa non yeb, quruq yerda o'tirgan yaxshi“, — deganlar.

Amir xizmatida mungli va abgor,  
Qo'llaring ko'ksingga qo'yganча har gal.  
Kuysa ham qo'llaring mayli, birodar,  
Kaftingda ohaktosh olganing afzal.

\* \* \*

Qachon so'zki, dilband-u shirin bo'lur,  
Sazovori tasdiq-u tahsin bo'lur.  
Bir aytdingmi, aytma uni o'zga dam,  
To'yib bir yedingmi, yetar holva ham.

\* \* \*

Yillar o'tib ketdi tepangdan g'ir-g'ir,  
Otang mozoriga bordingmi bir dam?  
Otang xotiriga nima ezgulik —  
Qildingki, o'g'lingdan kutasan sen ham.

\* \* \*

So'z ayni savobligini bilmaguncha gapirma,  
Unga soz javobligini bilmaguncha gapirma.

\* \* \*

Kamol-u fazldan bebahra bo'lsang,  
Og'zing ocha ko'rma, tilingni tiygil.  
Odamning o'z tili qilur sharmanda,  
Puch yong'oqning vazni kelgandek yengil.

\* \* \*

Oz-ozdan yig'ilib bo'ladi bisyor,  
Dona-dona g'alla to'ldirar ombor.

\* \* \*

Agar bo'lsang nodon ulfatga hamdam,  
Nodon qatoriga qo'shilding o'zing ham.

\* \* \*

Chu ko'rding ko'r kishi yo'linda chohdir,  
Indamay o'tirsang, katta gunohdir.

\* \* \*

Harchand o'qibsan — bilimdonsan,  
Agar amal qilmading — nodonsan.

\* \* \*

O'z ahdiga vafo qilmagan kishi,  
Na sevimli bo'lur va na izzatmand.

\* \* \*

Ajablanma o'ylab-o'ylab so'z desa,  
Hayotda kamolga yetgan bir kekxa.  
O'ylamasdan turib hech urmagil dam,  
Soz so'zla, agar kech so'zlasang ham.  
Avval o'ylab, so'ngra so'zla, ur nafas.  
To'xtat, hech kim senga demasidan „bas!“

## JAHON ICHRA BIR JAHON

Sharq adabiyoti tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblangan „Tazkiratul-xavotin“da 300 ga yaqin xonzoda, amirzoda, malika, malik, begim, amir, hokim va boshqa toifadagi ijodkor ayollar, olimu-yu musavvir, xattot-u lavvox, san'atkor xonimlar haqida g'oyatda qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Ana shunday so'z sohiralaridan biri, XIV asr forsiy she'riyatining yorqin yulduzi **Jahon Malik Xotundir**.

Bo'lg'usi otashnafas shoira Jahon Xotun Sheroz hokimi Abu Ishoq Injuning akasi Jaloliddin Ma'sudshoh xonadonida dunyoga kelgan. Uning onasi Xoja Rashiddinning qizi edi. Har ikki tomondan ota-onasi zodagonlar avlodiga tutashadi. Jahon yoshligidanoq va otasi o'ldirilgandan so'ng ham amakisi, shoirta'b, ilm-ma'rifat homiysi Abu Ishoq Inju himoyasi hamda tarbiyasida bo'ladi. Injular xonadoni mashhur so'fi, donishmand Abdulla Ansoriy avlodidan edi. U zamonasidagi barcha ilmlarni, she'riyat qonuniyatlarini o'rganadi, saroy doirasidagi adabiy mahfilda faol qatnashib, she'rlar yoza boshlaydi. Shuni

alohida ta'kidlash kerakki, Jaloliddin Ma'sudshoh juda badavlat kiyorlardan bo'lib, butun boyligini Ozarbayjondan Sherozgacha bo'lgan nohiyalarda ko'plab xonaqoh, rabot, karvonsaroy va madrasalar qurishga sarflardi. Sherozdagi mashhur Ma'sudiya madrasasini ham u qurdirgan. Ma'sudning o'g'illari bo'lmay, oiladagi yagona farzand Jahon Malik Xotun edi.

Abu Ishoq Inju saroyi doirasidagi adabiy mahfilga ko'plab miniatura ustalari, xattot-u naqqoshlar, olim-u ulamo jamlanar edi. Ular orasida Xudojo'y Kirmoniy, Ubaydi Zokoniy va Xo'ja Hofiz singari buyuk so'z ustalari bor edi. Jahon ana shu doirada bir shahzoda sifatida kamol topdi, ijod maydoniga kirib keldi. Lekin bo'lg'usi buyuk shoiraning hayot yo'li, taqdiri og'ir kechdi. Toj-taxt talashishlar natijasida Abu Ishoq o'ldiriladi, Oli Muzaffar Sheroz taxtni egallaydi; ilm-adab ahli, Injular xonadoni tahqir va quvg'in qilinadilar; shoiraning eri Aminiddin Jahramiy o'ldiriladi, yakka-yu yagona farzandi Sulton Baxt go'dakligidayoq vafot etadi. Qarindosh-urug'lar turli tomonlarga tarqalib ketadilar.

Shoiraning tug'ilgan hamda vafot etgan yillari hali aniqlanmagan. Qadimiy manbalarda Jahon Malik Xotunning Ubayd Zokoniy bilan mushoirasi, Hofizlar bilan musohibalari xususida qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Davlatshoh Samarqandiy Jahon Xotun she'rlari balog'at va fasohatda benazir edi, „agar ular Hindistonga borib qolsa, she'r ishqibozlari Xusrav va Hasan g'azallariga qaramay qo'yardilar“ degan, muholaga bilan.

Jahon Malik Xotun umr bo'yi lirik turning barcha janrlarida asarlar yaratib, o'zidan keyin ulkan adabiy meros — **devon** qoldirgan. Uning bir nomukammal nusxasi Eronda, ikkita komil dastxat nusxasi Parijda saqlanadi. So'nggi tadqiqot natijalariga qaraganda, shoiraning devoni 14 ming baytdan ziyod she'rlarni o'z ichiga oladi. Unda qasida, g'azal, ruboiy va boshqa janrlardagi she'rlar jamlangan. G'azal bilan ruboiy devonning asosiy qismini tashkil etadi.

Shoira g'azallari tarkibi — shakli jihatidan ham, mavzu doirasi, g'oyaviy yo'nalishi-yu poetikasi nuqtai nazaridan ham XIV asrdagi forsiy she'riyatning o'ziga xos zarvarag'larini tashkil qiladi. Ayrim munaqqidlar san'atkor ijodiga Sa'diy-yu Hofizlar ta'siri kuchli ekanligini uqtiradilar. Hatto, sharqshunos, adib Parvin Davlatobodiy „**Manzuri Xiradmand**“ kitobida Jahon



Xotun g‘azallaridan yigirmatasini Hofiz she‘rlari bilan qiyosiy tahlil qilib, ularning hamohang, mushtarak jihatlarini aniqlashga muvaffaq bo‘lgan. Bizningcha, shoira g‘azallarida Sa‘diyona axloqiy, irfoniy-ma‘rifiy ko‘tarinkilik, Hofizona ilohiy-falsafiy qudrat an‘analari ko‘zga tashlansa-da, uning bosh fazilati majoziy ishqni o‘ziga xos betakror badiiy-tasviriy vositalarda in‘ikos ettira olganligida, lirik she‘riyatda ijtimoiy-siyosiy masalalarni, zamona javridan paydo bo‘lgan qalb tug‘yonini behad teran ifodalay olganligidadir. Zeroki, shoira asarlarida Abu Ishoq Inju qatlidan so‘ng Sherozda ro‘y bergan to‘s-to‘polonlar, zo‘ravonlik, jabr-u sitamdan xalq boshiga tushgan kulfat, el musibati, dard-hasrati shunday ufurib turadi; o‘z nolafig‘onini to‘kib sochadi: „tolei badligi“, „do‘stning munofiqligi“, „ayriliqning og‘ir yukidan“, „g‘amdan umidi bukr bo‘lganidan“, „bo‘stonda faqat tikan nasib etganidan“, „burungi oshnolar yuz o‘girib ketganidan“, „ahli tamiz o‘rnini fe‘li badlar“ egallaganidan faryod chekadi, kajraftor falakka la‘natlar o‘qiydi:

*Dar in zamonai dun nest haqqi dinshinoxt,  
Vale chi chora tavon, bo zamona boyad soxt.  
Dar in zamona begonaxo‘i mebinam,  
Har oshnoki maro did xud maro nashnoxt.*

(Mazmuni: *Bu teskari zamonda haqiqiy dindorlar qolmadi, lekin zamonasozlik qilmasdan boshqa chorang yo‘q. Bu zamonada begonalarning e‘zozlanishini ko‘raman, meni ko‘rgan har bir oshnam tanimagalikka soladi.*)

Yoinki:

*Oh va sad oh az jafoi charxi besomoni mo,  
Dil pur az dar dast, az o‘, o‘ki kunad darmoni mo.*

(Mazmuni: *Bu teskari aylanuvchi charxning jafosidan „oh“, „yuz oh!“.* Uning dastidan qalbimiz to‘la dard, u darmonbaxshlik qilmaydi.)

Bevosita ishqiy mavzulardagi g‘azallarda ham, yorning vafosizligi, firoq, aziyat, ag‘yorning jafosi-yu ayriliq dardi tasvirlari jarayonida ham, Jahon Xotunning falak g‘addorligi-yu zamona nosozligidan shikoyatlarini ham his qilamiz. Shuning uchun ham ko‘plab g‘azallar qobig‘ida „nola“, „zori“, „dard“, „g‘am“, „faryod“, „nolon“, „fig‘on“, „g‘ussa“, „firoq“, „hijron“, „giren“, „xasta“, „so‘zan“, „otashbar“, „malomat“, „dod“,

„bedod“, „jabr“, „zulm“, „jafo“ singari ijtimoiy mohiyatdagi soʻzlar hamda ibora va birikmalar bot-bot takrorlanib turadi.

Darding durrini qachongacha ichgaymiz,  
Ishqing sirrini qachongacha yopgaymiz.  
Voqealar oʻti dilimni gʻam bilan tikdi,  
Yuzing mehri hijron otashi bilan kuydirdi.

Jahon Xotun gʻazallarining oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, devoni tarkibida 9-11-12 baytli gʻazallar anchagina; ularning aksariyatida „Jahon“ taxallusi qoʻllanmasa ham, baʼzan, qiyos, koʻpincha taʼkid, ayrim oʻrinlarda mubolagʻa tarzda matlaʼda ham, ichki baytlarda ham „Jahon“ soʻzi yuzlab marotaba takrorlanib keladi. Klassik (mumtoz) sheʼriyatimizda bu usul juda kam kuzatiladi; fikrlarda yakporalikka, mantiqiy tadrijiylikka jiddiy rioya qilinadi. Forsiy sheʼriyat tarixida biron bir shoira „Jahondek bisyor margʻub gʻazal bitmagan“ (Parvin Davlatobodiy).

Jahon Malik Xotun ruboiy janrida ham barakali ijod qilgan. U arab alifbosidagi barcha harflarga beshtadan oʻn bittagacha ruboiylar yozgan. Ular mavzu jihatidan rang-barang: aksariyat ruboiylar ijtimoiy-siyosiy mavzuda boʻlib, muallif ruhiy olamining turli qirralari inʼikosidir. Bir tizim ruboiylarda shoira ishqiyy, axloqiy-taʼlimiy, falsafiy mushohadalarini izhor etgan. Qizigʻi shundaki, shoira ruboiylarida ham har xil munosabatlar bilan „Jahon“ taxallusini qoʻllaydi. Ruboiylardagi nola va hijron-nadomat motivlari gʻazallardagi shu ruhning yanada balandroq pardalardagi sadosidek tuyuladi.

*Charx az hasudi royi balandam past ast,  
Va zi jurʼai himmatam Jahone mast nest.  
Lekin chi kunam choraki in charxi baland,  
Dasti mani bechoraro chunin dar basta ast.*

(Mazmuni: *Charx mening baland himmatimga hasad qilib pastlik etdi. Himmatim bodasidan Jahon mastdir. Lekin na chora, bu yuksak charx men bechora qoʻllarini mahkam bogʻlabdir.*)

Yoinki:

*Bechora dilam zabuni gardun boshad,  
Doim zi gʻami zamona purxun boshad.  
Roʻzu shab az anduhi falak megiryad,  
To oqibat kori Jahon chun boshad.*

(Mazmuni: *Bechora qalbm xarobdur, zamona g'amidan doim xalta to'la. Falak hasratidan tun-u kun yig'laydir. Oqibatda bu Jahon ishi shundaydir.*)

*Az lutfi Xudo husni tu orastand,  
Badxoh turo chu man zi g'am xostand.  
Boz oy Xudoro chi hama xalqi Jahon,  
Vasli tu bazoriy az Xudo hastand.*

(Mazmuni: *Xudo lutfida sening husningni yaratmishlar, badxohlar esa, seni mendek g'amga chulg'amishlar. Xudo haqqi, yana kel, hama Jahon xalqi sening vaslingni Xudodan zorlanib tilamishlar.*)

Shoira ruboiylari ham mavzuning yangiligi, badiiy-tasviriy vositalarning betakrorligi bilan salaflari ijodidan alohida ajralib turadi.

Demak, Jahon Malik Xotun she'riyatda mavjud ijtimoiy tuzum illatlarini, zulm-zo'rlik, jaholat kasofatlarini lirik qahramon dili-yu tili orqali badiiy quyma baytlarda aks ettira olgan shoira ekan. Uning ijodi hali maxsus, mukammal tadqiq va tahlil etilmagan. Shoiraning biz mutolaa qilgan devoni esa ilk nashr bo'lib, (Devoni Jahon Malik Xotun, Zavar nashriyoti, 2002) o'zining fidoyi tadqiqotchilarini kutmoqda.

Xususan, shoiraning o'ziga xos sozi va ovozi — shoirona mahorati tadqiqi sharqshunoslar oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Zeroki, Jahon Xotun Sharq shoiralari orasida eng ko'p va xo'b yozgan so'z sehgiridir.

## MA'RIFATNI OLQISHLAB

Yamuniddin Abdulhasan Amir Xusrav ibn Amir Sayfuddin Mahmud Dehlaviy 1253-yili Hindistonning Patyoli degan shaharchasida dunyoga keladi. Bu sana shoir asarlarida o'zi tomonidan ham qayd qilingan. Amir Xusravning otasi Amir Sayfuddin Mahmud shahrisabzlik bo'lib, avlodi turkiy elatlarining lochin urug'idan. Ammo, u O'rta Osiyoga mo'g'illar hujumining dastlabki yillaridayoq tarki vatan etib, Dehli hukmroni Shamsiddin Elutmish (1211—1236) saroyiga xizmatga kiradi. Sayfuddin Mahmud 1261-yili mo'g'illarga qarshi jangda halok bo'ladi. Xusravni o'sha davrning ma'rifatli kishisi bo'lgan bobosi Imodulmulk o'z tarbiyasiga oladi.

Bo'lajak shoir xushxat bo'lgani uchun otasi Xusravni xattot qilib tarbiyalash maqsadida xushnavis munshi Qozi Sa'duddin Muhammad huzuriga yuboradi. Ammo bolada xatdan ko'ra she'riyatga zavq va rag'bat kuchliligini sezgan Sa'duddin uni zamonasining fozil shoiri Xoja Azizuddin bilan tanishtiradi. Azizuddin kichkintoyning she'riy salohiyatini sinash maqsadida „mo'y“ (soch), „bayza“ (tuxum), „tir“ (o'q), „xarbuza“ (qovun) kabi ma'nosi bir-biridan uzoq so'zlar ishtirokida she'r aytishni so'raydi. Bola darhol badiha tarzida ruboiy o'qiydi:

*Har mo', ki dar zulfi siyahi on sanam ast,  
Sad bayzai anbarin dar on mo'y zam ast.  
Chun tir madon rost dilashro, zero,  
Chun xarbuza dandonash daruni shikam ast.*

(Mazmuni: *Ul sanam qora zulfining har mo'yiga yuz anbar tuxumi jamlangan. Dilini o'qdek to'g'ri-rost deb anglama, qovun singari uning tishlari bag'riga joylashgan. Ya'ni yorning jabr-u jafosi qalbida pinhon.*)

Shu voqeadan so'ng bo'lajak shoir ustoz va bobosi rahbarligida adabiyot, she'riy san'atlar, tarix, musiqashunoslik, mantiq va boshqa fanlarni puxta egallashga kirishadi. Yigirma yoshida Xusrav iste'dodli shoir, qomusiy bilim sohibi — olim, sozanda va bastakor sifatida shuhrat qozonadi. Buni sezgan Mo'ltan hokimi Kushlixon shoirni saroyga jalb etadi. Lekin oradan ikki yil o'tgach, Dehli hokimi G'iyosuddin Balabon (1265—1267) saroyiga tortiladi. Umuman, Xusrav Dehlaviy umri davomida yetti hukmronning dargohida xizmat qiladi. Davlat arbobi sifatida shuhrat topib, amir unvoniga ega bo'ladi. Xusrav Dehli va boshqa shaharlar hukmdorlari saroyidagi xizmatda bo'larkan, jang-u jadallarda, mo'g'illarga qarshi kurashlarda qatnashadi. Shunday janglardan birida do'sti Hasan Dehlaviy bilan asir tushib qoladi. Ammo, baxtli bir tasodif tufayli ikki do'st qatldan qutulib qoladilar. Shoir umrining oxirgi o'ttiz yilini Dehlida o'tkazadi. Tarixiy manbalar va asarlaridagi ishoralarga ko'ra, uzoq yillar mas'ul vazifalarda ishlashga va hukmronlar uning ilmi, shoirlik obro'sidan o'z manfaat, shuhratlari yo'lida foydalanishga intilganliklariga qaramay, Xusrav Dehlaviy kamtarona hayot kechirgan.

Ulug' shoir 1325-yili Dehlida vafot etadi.

Amir Xusrav Dehlaviy, o'z ta'biri bilan aytganda, „hali tishlari to'kilib yurgan go'daklik onlaridanoq“ ajoyib lirik she'rlar bita boshlagan, keyinchalik forsiy tildagi she'riyatni yangi taraqqiyot cho'qqisiga ko'targan. Shoir umr bo'yi yozgan she'rlarini „**Tuhfat us-sig'ar**“ („Yoshlik tuhfasi“) „**Vasat ul-hayot**“ („Hayot o'rtasi“), „**G'urat ul-kamol**“ („Kamolot ibtidosi“). „**Baqiyai nahiya**“ („Saralarning sarasi“), „**Nihoyat ul-kamol**“ („Kamolot cho'qqisi“) nomi bilan besh kitobga jamlab, Sharq adabiyotida devon tuzishni bir adabiy an'anaga aylantirgan.

Amir Xusrav Dehlaviy g'azalning ko'proq yengil vaznlarida g'oyatda mo'jaz, shakl va mazmun jihatidan sodda, ommabop asarlar yaratib, insof va adolatni kuylaydi, razolat va qabohatni qoralaydi. Shu sababli ham Xusrav lirikasi ravonligi, yengil o'qilishi va she'rxon qalbiga tez yetib borishi bilan boshqa g'azalnavislar ijodidan farq qilgan. Ma'shuqaning husn-u jamolini ta'rif etganda ham, muhabbatning hayotbaxsh, ruhafzo xislatini ta'kidlaganida ham, ag'yor ig'vosi-yu jafosi, yorning noz-u tamannosiga bog'liq ruhiy kayfiyatlarini chizganda ham shoir hamisha badiiy barkamollik, ayni paytda, soddalikka erishadi. Xusravning lirik qahramoni go'zallik oshig'i, u hamisha ma'shuqadan vafu va sadoqat istaydi, visolga yetishish umidi, zavq-shavqi bilan yashaydi. Shoir yorning go'zalligini qay darajada sehrli chizsa, oshiq his tuyg'ularining eng nozik va rang-barang holatlarini ham shu qadar mohirlik bilan ifodalaydi.

Amir Xusrav asarlarida yuksak insoniy fazilatlarini, axloqodobni targ'ib etadi, zamon va nobop kishilardan chekkan aziyatlarini qalamga oladi. Mo'g'il istilochilari Hindistonga muttasil hujum qilib turgan, o'zaro feodal urushlar avjiga minib, mamlakat va mehnatkash xalqning ahvoli og'irlashgan bir zamonda yashagan Xusrav she'rlaridan birida shunday noliydi:

*Xush erdi umr o'tsa bir zamon xush,  
Menga emas, shunday xush zamon yo'q.  
Falak va'da etar mehrini, lekin,  
Dilim aytarki, mehri onchunon yo'q.  
Agar shodlikning narxi bo'lsa yuz jon,  
Sotib olgum, falak derki, hamon yo'q.*

(Chustiy tarjimasi)

Inson ma'naviy barkamolligini tarannum etgan Xusrav Dehlaviyning son-sanoqsiz baytlari xalq hikmatlariga aylanib, dillardan-dillarga, tillardan-tillarga ko'chib yuradi:

*Istasang dunyoda baxtu saodat,  
Aylagil qardoshlar diydorin odat.  
Bu ko'hna olamda aylagil bunyod,  
Bir narsaki, xalqing etsin seni yod.*

(*Sh. Shomuhamedov tarjiması*)

Xusrav Dehlaviy Sharq she'riyatida dostonnavislik an'anasini davom ettirib, Jomiyning ta'kidlashicha, „Nizomiy „Xamsa“siga hammadan yaxshiroq javob aytgan shoirdir“. U Nizomiydan ruh va fayz olib, uch yil (1299—1301) mobaynida „**Matla' ul-anvor**“ („Nurlarning chiqishi“), „**Shirin va Xusrav**“, „**Majnun va Layli**“, „**Hasht bihisht**“ („Sakkiz jannat“), „Oinai Iskandariy“ dostonlaridan iborat „**Xamsa**“ yaratadi. Xusrav dostonlarida Nizomiy asarlarining shakl va sujeti, obrazlar silsilasini asosan saqlagan holda ulug' ozarbayjon shoiri tarannum etgan g'oyalarini yangicha kuyladi, ularga toza mazmun bag'ishladi. Masalan, Nizomiyning „**Maxzan ul-asror**“ („Sirlar xazinası“) dostoniga javoban bitilgan „**Matla' ul-anvor**“da shoir zulm-zo'rlik, qabohat va razolat, riyokorlik va munofiqlikka nafrat, axloq-odob, ilm-ma'rifat, insof va adolat masalalariga doir ijtimoiy, didaktik ruhdagi original hikoyalar yaratadi. „**Shirin va Xusrav**“da esa, Xusrav obrazi shonshavkatli, adolatli, hamisha osoyishtalikka intiluvchi, el va yurt g'amini yeguvchi inson, ilm-hunar sohibi sifatida talqin etiladi. Ayni paytda, shoir Xusrav tabiatidagi aysh-u ishratga berilishni, shuhratparastlikni qoralaydi. Farhod obrazini ham shoir chin oshiq, bahodir, zahmatkash, mohir hunarmand, pokdomon inson sifatida mehr bilan tasvirlaydi. Shoir „Xamsa“sining barcha dostonlari mazmunan barkamol, badiiylik nuqtai nazaridan benazir asarlardir. Shu jihatdan Jomiy va Navoiy kabi buyuk so'z san'atkorlarining Amir Xusrav Dehlaviy asarlariga yuksak baho berganliklari bejiz emas.

Xusrav Dehlaviy „**Qiron as-sa'dayn**“ („Ikki saodatli sayyoraning qo'shilishi“), „**Miftoh ul-futuh**“ („G'alabalar kaliti“), „**Xazoyin ul-futuh**“ („G'alabalar xazinası“). „**Duvalroniy va Xizraxon**“, „**Nuh sipehr**“ („To'qqiz qavat osmon“) singari o'nlab doston, nasriy asarlar ham yaratdi. Bular, bir

tomondan, shoir ijodining tobora kamolotga yetib, dunyoqarashining rang-barang qirralari namoyon bo'la borganligini, gumanist mutafakkirni zamonasining dolzarb masalalari g'oyat qiziqtirganligini ko'rsatadi. Masalan, xalqlar do'stligi, xotinqizlar qadri, aql-zakovati va haqiqiy ishq-muhabbatni olqishlagan shoir musulmon yigit Xizraxon bilan hind qizi Duvalroniy ishqiy sarguzashtini tasvir etish orqali hindlar bilan musulmonlar o'rtasidagi mazhabchilikning yomon oqibatlarini ko'rsatadi. Hindiston xalqlarini mustahkam birlikka chorlaydi. Bu esa tashqi hujumni daf etish va mamlakatni xonavayron qiladigan o'zaro feodal urushlarning oldini olish, ichki nizolarga barham berishning asosiy omili edi. Ikkinchidan, tarixiy voqealarga bag'ishlangan mazkur asarlarning aksariyatida shoir sultonlarni adolatga, ittifoqqa undaydi, dahshatli urushlarning ayanchli oqibatlaridan iztirobga keladi: fakt hamda voqealar tasviri yoki bayonida Hindistonning tabiati, ilm-fani, madaniyati, adabiyoti, san'ati, urf-odatlariga doir ajoyib ma'lumotlar beradi. Uning „**To'g'uluqnoma**“, „**Tarixi Dehli**“ kabi asarlari ham shunday xususiyatga egadir. Shoir adolat va odil shoh haqidagi fikrlarini ko'pincha afsonaviy yoki hayotiy hikoyatlar bilan asoslab, qissadan hissa chiqaradi.

„**E'jozi Xusraviy**“ („Xusrav mo'jizasi“) asari katta ilmiy qimmatga molikdir. Adabiyotshunoslikka doir bu asar besh risoladan iborat bo'lib, umuman, Sharq she'riyatidagi badiiy san'atlarni o'rganishda eng muhim manba va dasturilamal hisoblanadi.

Amir Xusrav Dehlaviy asarlari qadimdan aslida ham, tarjimasida ham xalqimiz orasida mashhur va manzur. Xusrav merosining ko'pchilik dastxatlari yurtimizda qayta-qayta ko'chirilib, keng tarqalgan, ilm-fan ahli anjumanlarida munozara va muhokamalarga sabab bo'lgan. Chunonchi, ilm va madaniyat homiylari Ulug'bek va Boysunqur Mirzolar Amir Xusrav Dehlaviy „Xamsa“si ustida ko'p bahslashganlar. Zayniddin Vosifiy „Badoye' ul-vaqoye“da 1515—1525-yillar Shoshdagi adabiy yig'inlarda ko'pincha Xusrav ijodi borasida suhbatlar qizib, tortishuvlar bo'lib turganligini yozgan. Boysunqur Mirzo shoir devonlarining bir necha nusxalarini qiyosan o'rganib, uning 120 ming baytini to'plagan. Husayn Boyqaro esa, Xusrav Dehlaviyning 18 ming baytdan iborat muxtasar devonini ko'chirtirgan.

Xusrav Dehlaviy ijodining o‘zbek adabiyotiga ta’siri kuchli ekanligining boisi ham shunda. Aksariyat zabardast shoirlar uni o‘zlariga ustoz, deb bilganlar. Alisher Navoiy „Xamsa“ni yaratishda Xusrav Dehlaviy ham „ruh“ va „quvvat“ baxsh etganini alohida ehtirom bilan ta’kidlaydi. Shoir deyarli barcha asarlarida Xusrav nomini tilga oladi. Navoiyning mashhur „**Tuhfat ul-afkor**“ („Fikrlar sovg‘asi,“) qasidasi „hind“ sehgari“ning „Daryoi abror“ qasidasiga javoban bitilgan, „**Devoni Foni**y“dagi bir qancha g‘azallar Xusrav Dehlaviy she’rlariga tatabbu’ tarzida yaratilgan. Alisher Navoiy „**Majolis un-nafois**“, „**Soqiy-noma**“ asarlarida shoirning hayoti va ijodiy faoliyatiga alohida to‘xtalib, „Yagonai zamona“, „Ishq va dard ahlining rahbar va peshvosi“, deb yuksak baho beradi. Zahiriddin Muhammad Bobur, Munis Xorazmiy, Muhammadrizo Ogahiy va boshqa so‘z san’atkorlari ham Xusrav Dehlaviy merosidan bahra olganlar.

Ogahiy o‘zbek kitobxonlarini shoir ijodi bilan yanada yaqindan tanishtirish niyatida „Hasht bihisht“ dostonining nasriy tarjimasini yaratadi.

Buyuk „hind sohiri“ (Navoiy) hayoti hamda ijodiy merosini tadqiq va targ‘ib etishda o‘zbek olimlari barakali mehnat qilmoqdalar. Professorlardan Sh. Shomuhamedov, M. Imomnazarov hamda dotsent B. Musayevning risolalari e’lon qilindi. Toshkent Davlat sharqshunoslik institutidagi „Xorijiy Sharq xalqlari adabiyoti“ kafedrasida huzuridagi xusravshunoslik markazi ikkita ilmiy to‘plamni ommalashtirdi. Shoirning g‘azallar majmuasi, hikmatlari to‘plami nashr etildi. Bu ulkan ishda professor Sh. Shomuhamedovning xizmati kattadir.

Xusrav Dehlaviy o‘zi kuylagan yuksak gumanistik g‘oyalar bilan asrlarga hamroh va hamdamdir. YuNESKOning qaroriga muvofiq, jahon taraqqiyparvarlari, ilm-ma’rifat ahli ulug‘ shoirning 700 yillik yubileyini keng nishonladi.

### **Xusrav Dehlaviy hikmatlaridan**

Halol ishlab topsang gar arpa donin,  
Yaxshidir yegandan biron oq nonin.

Ish vaqti bo‘lmagin g‘ofil, parishon,  
Oxiri mevasi bo‘lur pushaymon.



Do'stlaring ko'payar farovonliqda,  
Ularni sinab ko'r notavonlikda.

Meva bersa daraxt bitta butog'dan,  
Shu daraxt yaxshi ming mevasiz bog'dan.

Nimaiki o'zingga bo'lmabdi davo,  
Boshqaga ham uni ko'rmagil ravo.  
Yomon nafsingni odobga g'ulom qil,  
Odobsizni odobing birla rom qil.

Yosh har qancha ishda bo'lsin ibratli,  
Ko'p ko'rgan keksaning ishi ibratli.

To'g'ri o'ylab, to'g'ri yursa har kishi,  
Bilgilki, mahkamdir uning har ishi

Bu eski olamda bir narsa bunyod,  
Aylaki, manguikka xalqing etsin yod.

Hayotda qoldirsa kim abadiy nom,  
Eng baxtli odam shu, xullasi kalom.

Ishga yarab qolsa ilming bir muddat,  
Yana oshirmoqqa aylagil shiddat.

Qisqa so'zlik, qara, ne yaxshi holdir,  
Sergaplik tamoman dilga maloldir.

Mardlar kabi sen hunar talab et,  
Hunarsizlardan uzoq-uzoq ket.

To qadam qo'ymasang dastyorlikka,  
Hech kim kelmas senga do'st-u yorlikka.

Ulug'lik sharafin istagan odam,  
Kichiklarga aylar himmat-u karam.

### HAYOT SHAYDOSI

O'rta Osiyo mo'g'illar tarafidan istilo qilingan XIII—XIV asrlarda bosqinchilar tahqir va ta'qibiga qaramay, o'z ona tilida ijod qilgan shoir, yozuvchi va tarjimonlardan biri Sayfi Saroyidir.

Sayfi Saroyi 1321-yili Xorazmning Qamishli degan joyida hunarmand-qurolsoz oilasida dunyoga keladi. Dastlabki bilimini o‘z yurtida olgan Sayfi o‘qishni davom ettirish uchun Oltin O‘rda davlatining markazi Saroy shahriga boradi. Bu yerda u qunt bilan o‘qiydi, shoir sifatida taniladi. Bu haqda uning o‘zi quyidagilarni yozadi:

Qamishli yurt mening tuvg‘on elimdi,  
Biling, g‘urbatga kelturgan bilimdi.  
Kelib bo‘ldum saroyda she‘r fidoyi,  
Saroyning shoiri, elning gadoyi.

Lekin, o‘zaro feodal urushlarning avj olishi, taxt-toj uchun kurashning kuchayib ketganligi, markazlashgan davlat yaratish uchun intilayotgan Amir Temurning Oltin O‘rdaga shiddatli zarbasi tufayli Sayfi Saroyi yurtini tark etadi. U avval Eronga, so‘ng Turkiyaga boradi. Shoir sarson-sargardonlikda, muhtojlikda kechgan kunlaridan nolib she‘rlar bitadi:

O‘sib tuprog‘im uzra nayzalar men evdan ayrildim,  
Vatandan benishon o‘ldim-da, o‘zga yurta evrildim.  
Nechun menga falak javr ayladi, qanday gunohim bor,  
Iloho ayla kam javring, men elga sodiq ul erdim.

Zamondan, mavjud ijtimoiy tuzumdan nolish shoirning boshqa g‘azallarida ham ko‘zga tashlanadi.

Sayfi Saroyi umrining oxirgi yillarini Misrda o‘tkazib, taxminan 1396-yili shu yerda vafot etgan.

Sayfi Saroyining hayot yo‘li va ijodiy merosi hali mukammal o‘rganilmagan. Adib merosini to‘plash tadqiq etishda filologiya fanlari nomzodi Nasrullo Davron ancha xayrli ish qilgan. Bizgacha shoirning bir qancha g‘azal, qasida, ruboiy va masnaviy-lari, „Suhayl va Guldursun“ dostoni yetib kelgan. Bundan tashqari, Sayfi Saroyining 1391-yili Misrda Sa‘diyning „Guliston“ asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgani ham ma‘lum. Bu Sa‘diy asarining turkiy tillarga ilk tarjimasini bo‘lib, alohida qimmatga ega. Chunki, tarjimon asl nusxa matniga erkinroq, ijodiy yondashgan: asar uslubini o‘zbek nasriga, xalq hikoyatlariga yaqinlashtirgan, bir xil mazmun va g‘oyaga ega bo‘lgan hikoyalardan ba‘zilarini tushirib qoldirgan; muqaddima, xotima tarzda, nasr oralig‘ida keladigan pand-hikmat qabilidagi she‘rlarni ko‘pincha ixchamlashtirgan, ayrim hollarda o‘zidan

yangi baytlar qo'shgan. Ammo, bu o'zgartirishlar Sa'diy asarining tub mohiyatiga zarar yetkazmagan. Tarjima buyuk san'atkorning xalqparvarlik, adolatsevarlik, kasb-hunarga, ilmga mehr qo'yish, halol-u pok, diyonatli, xayr-ehsonli bo'lishga da'vat kabi yuksak g'oyalarini o'zbek xalqiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Sayfi Saroyi o'z she'rlarida yaxshilik, go'zallik va chin insoniy sevgini, hayotga muhabbatni kuyladi, ma'rifatni targ'ib etdi, kishilarni real hayotga, el-yurtiga mehr qo'yishga chorladi. Asarlarida o'ziga xos rang-barang badiiy-tasviriy vositalarni qo'llaydi, xalqona iboralarni ishlatadi. Shoir uchun xalqining marhamati, Vatani, hayot fayzi hamma narsadan afzal:

Xabarsizman u dunyo jannatidan,  
Uvurmam yuz elimning rahmatidan.  
Inonmam bo'lguchi dorul vafoya,  
Yorug'lik bahrasin topsam kifoya.

„Suhayl va Guldursun“ dostonida shoir Oltin O'rda xoni To'xtamishning o'g'li Suhayl bilan Temurning qizi Guldursun o'rtasidagi sevgi sarguzashtini tasvirlagan.

Amir Temur Ko'hna Urganch uchun To'xtamish bilan qilgan jangda g'alaba qozonadi. Ko'p lashkar qiriladi, To'xtamish o'ldiriladi. Uning bahodir o'g'li Suhayl boshchiligidagi asirlar Urganch qo'rg'oniga haydab kelinadi: hamma yoq yal-yal yashnagan, bog'-u rog'larda mevalar g'arq pishgan, mo'l hosildan dehqon yuzi gulgun, labi xandon. Ammo, bahodir Suhayl g'amgin, boshiga jaf osh toshi yog'ilgan; hech kim unga madad qo'lini cho'zolmaydi:

Suhayl husni erur Yusufdin oliy,  
Etar mot olmani yuzining oli.  
Biyik aramlari bor, so'zi shirin,  
Bo'lur oshiq ani ko'rganda Shirin...  
Faqat holini ko'rganlar etur oh,  
Uchar atrofda qushlar — dardli hamroh.  
Bo'lub mutrib gulistonlarda bulbul,  
Qilur ming turli nag'ma birla g'ul-g'ul.  
Gunash dunyo yuzindin chohga botti,  
Uzulgan gul tekin tuproqqa yotti.

Suhayl zindonda yotg'onida tushida Sohibqironning qizi Guldursunni ko'rib sevib qoladi:

Bu tushda bir pari bog'da yurarmish,  
Yurib bog' ichra ul gullar terarmish.  
Deyub anga Suhayl: „Ne gul terursan?  
O'zing guldonda ko'rqli gul erursan!  
Nedur zoting, parim-u yo odamizod?  
Manga ayt otingni, doim etay yod!..“  
Javob qutdi, bo'lib u ishq aro mast,  
Vale taqdir kulub, tez bermadi dast.  
G'izoltek silkinib, qochti parivash,  
Suhayl qo'ngliga tashlab katta otash!..

Guldursun ham el og'zida doston bo'lib ketgan go'zal va pahlavon Suhayl ta'rifini ko'p eshitib, uni bir ko'rish ishtiyoqida yurgandi. Asirlarni zindonga eltayotganlarida qiz dugonalarini bilan gul sayrida yurgandi va ittifoqo ko'zi Suhaylga tushdi:

Suhaylni ko'rdi-yu, aylandi birtek,  
Gunash girdinda yurgan misli ertek.  
O'zin gul bildi-yu, bulbul — Suhaylni,  
Ani sevdi-yu, taslim etdi maylni.  
Va ne chora qilsin bulbul qafasda,  
Kerak gul g'unchasi ozod nafasda...

Malika posbonga in'om berib, yigit bilan ahd-paymon qilishadi va zindondan chiqib qochishadi. Falak ham bularga hamdamlik ko'rsatdi, tun g'animlar ko'zidan pinhon tutsa, oy yo'llarini yoritadi:

Alar qo'ydi ikkisi yo'l sari poy,  
Boqib turg'onda yo'lg'a zar sohib oy.

Och, chanqoqlikdan tinkasi qurigan qizni qoldirib, Suhayl suv, g'izo qidirib ketadi. Qaytganida Guldursun o'lgan bo'ladi:

Menga yaxshi dedi yor birla o'lmak,  
Ne lozim g'am bilan dunyoda qolmak.  
Shu so'zni aytti, tig' urdu o'zig'a,  
Ko'rinmay qoldi keng olam ko'ziga.  
Suhayl ohidin shu dam qo'пти bo'ron,  
Aningtekki buzuddi charxi davron.  
Alar uzra to'kuldi, ko'mdi tuproq,  
Bu sirni tanho sahro bildi qo'proq.

Sayfi Saroyi ijodi, xususan, „Gulistonni bit turkiy“ yanada jiddiy o‘rganishni taqozo etadi.

### **Sayfi Saroyi hikmatlaridan**

Oqil o‘z so‘zin o‘rnida so‘zlagay,  
Ham javobini munosib ko‘zlagay.

\* \* \*

Siringni ko‘ngulda saqlagil berk,  
Mushfiq senga yo‘q jahonda sentek.

\* \* \*

Aytma deb ani bir kishiga aytma,  
Turmaskim, ani eshitsu tinch-tek.

\* \* \*

Qil hazar dushman so‘zindan, ey, rafiq  
Nekim ul aytsa, aning aksini et.

\* \* \*

Ayo, kelgan jahonga, ezgulik et,  
Yomon ishni yomonlarga qo‘yub ket.

\* \* \*

Or ko‘rma bilmaganni so‘rmaga,  
So‘rmayincha ilm o‘rganmas kishi.

### **NIGORISTON SOHIBI**

O‘n beshinchi asrning atoqli madaniyat arboblardan biri, iste’dodli shoir, adabiyot va san’atning jonkuyar homiysi bo‘lgan Boysunqur 1397-yilning 16-oktabrida Shohruh oilasida dunyoga keladi. Boysunqur tadbirkorligi, ishchanligi, bilimdonligi bilan tengdoshlaridan ajralib turardi. Shuning uchun ham otasi 1414-yili 17 yashar Boysunqurni Tus, Mashhad, Obivard, Habushan, Niso, Astrobod, Mozandaron, Shumulqon, Jurjon kabi viloyatlarga hokim qilib tayinlaydi. U davlatni iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksaltirishga, ilm-fanni taraqqiy ettirish, qo‘shni mamlakatlar bilan munosabatni yaxshilashga alohida e’tibor beradi. Boysunqur Mirzo 19 yasharligida Shohruh davlatining vaziri qilib tayinlanadi. Otasi safardaligida davlatni boshqaradi.

Uning ishbilarmonligi, san'at va madaniyat ahliga xayri-xohligi, mamlakatni obodonlashtirishdagi ishlarini zamondoshlari g'oyatda zavqlanib yozib qoldirganlar. Mashhur tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy: „U o'zining davlati gulshanida ehson niholidan boshqa narsani ekmadi. Davlat ahvolining tashvishi uning ravshan zamiridan joy olgan edi“, — deb yozgan. Hirot hamda Mashhaddagi Gavharshodbegim masjidlari bezagi-yu katibalarini Boysunqur Mirzo bajargan.

Boysunqur Mirzo vazirlik ishini olib borish bilan birga badiiy ijod, madaniy-ma'rifiy, ilmiy ishlar bilan ham shug'ullanardi. O'sha vaqtda u Hirotida juda katta kutubxona tashkil qilib, qirqqa yaqin xattot, sahhof (muqovachi), varroq (qog'oz tayyorlovchi), naqqosh, lavvoh (lavha chizuvchi) va boshqa hunar egalarini shu yerga to'playdi. Ular xushnavis xattot Mavlono Ja'far Tabreziy boshchiligida qo'lyozma yig'ib ko'chirish, bezash va tarqatish bilan shug'ullanganlar. Davlatshoh Samarqandiy uning mana shu faoliyatini ta'riflab: „Shahzoda Boysunqur hunarparvar va hunarmandlikda jahonda mashhur bo'ldi. She'riyat va xattotlik uning zamonida rivoj topdi. Hunarmand va fazl egalari uning ovozasini eshitib, tevarak-atrofdan xizmatga keldilar. Xushxat kotiblardan qirq kishi uning kutubxonasida kitobat qilish bilan mashhur edilar. Boysunqur Mirzo hunarmandlarni e'zozlab, shoirlarni do'st tutar edi“, — deydi.

Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Boysunqur kutubxonasida kitob ko'chirish bilan birga, kitoblarga zar bilan lavhalar chizish, go'zal naqsh va suratlar solish, o'tmish mutafakkirlarining ijodi va tarjimaiy holiga doir dalillarni to'plab o'rganish, noyob kitoblarning nusxasini ko'paytirish, ayrim ijodkorlarning mukammal kulliyotini yaratish kabi ilmiy-ijodiy ishlar ham keng yo'lga qo'yilgan. Masalan, Boysunqur ustod Sayid Ahmad naqqosh, Xo'ja Ali musavvir, sahhof Qavomiddin Tabruziyga Ahmad Bag'dodiy chizgan suratlardan nusxa ko'chirishni topshiradi. Chunki, Ahmad Bag'dodiy Amir Temur uchun chizgan suratlar majmuasi (albom)dagi ayrim rasmlar nursizlanib, o'z jilosini yo'qotayotgan edi. Boysunqurning ilm dargohida bajarilgan ishlar, ko'chirilgan, nafis san'at bilan zeb berilgan qo'lyozmalarning ba'zilari bizga qadar yetib kelgan. Abulqosim Firdavsiyning mashhur „Shohnoma“si, „Kalila va Dimna“, „Jome' ut-tavorix“ kabi asarlarning mavjud nodir nusxalari ana shular jumlasidandir.

Ma'lumki, Eron va O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi xalq og'zaki ijodi materiallari voqeanomalar asosida yozilgan „Shohnoma“ jahonda eng ko'p tarqalgan mumtoz asarlardan hisoblanadi. Bu asar o'tmishda shu darajada ko'p ko'chirilib tarqatilganidan uning qaysi biri to'la va asl nusxasi ekanligini aniqlash qiyin bo'lgan. Chunki, kotiblar ko'chirish paytida ayrim dostonlarni qisqartirib, tushirib qoldirar yoki Firdavsiy asariga o'zlaridan yangi lavhalar qo'shar edilar. Bu holni ko'rgan Boysunqur Mirzo „Shohnoma“ning 41 ta nusxasini to'platadi. Kutubxonada xattot va olimlar tomonidan 1425—1430-yillar davomida qiyosiy o'rganish natijasida „Shohnoma“ning asl nusxasi tiklanadi. Bu asarni mashhur xattot Ja'far Tabreziy ko'chiradi, kutubxona musavvirlari esa kitobni ajoyib lavhalar va suratlar bilan bezaydilar. Boysunqur Mirzo esa unga „Muqaddimai Boysung'uriy“ nomi bilan so'zboshi yozadi. Boysunqur unda Firdavsiyning hayoti va ijodiga doir qimmatli ma'lumotlarni bayon etarkan, „Shohnoma“ning yozilish tarixi, shoirning fojiviy hayot yo'li, asarning manbalari, afsonaviy obrazlar, nasriy „Shohnoma“ga doir ajoyib ma'lumotlar keltirib, Firdavsiy ijodini to'g'ri baholaydi. Mana shu nusxa hamda „Boysunqur muqaddimasi“ hozirgacha Firdavsiy ijodini to'liq o'rganib, „Shohnoma“ni ilmiy-tanqidiy nuqtayi nazardan tiklashda noyob manba hisoblanib kelinmoqda. Unga uch xattot 22 ta rasm chizgan. O'sha nusxa Eronning Koxi Guliston kitobxonasida saqlanmoqda.

Boysunqur Mirzo Amir Xusrav Dehlaviyning ijodi va adabiy merosini to'plash hamda o'rganish bilan ham shug'ullangan. U shoir devoniga kirgan she'rlaridan 120 ming baytini, devoniga kirmagan g'azallaridan esa 2 ming baytini jamlab, uni kitob holiga keltiradi. Boysunqur Mirzo iste'dodli shoir, xushnavis xattot ham bo'lgan. Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Sayfiddin Ali Safiy kabi buyuk so'z san'atkorlarining o'zbek va fors-tojik tillarida go'zal she'rlar yozgani haqida xabar beradilar. Lekin, hanuzgacha uning she'rlar devoni topilmagan. U olti xil xatni mukammal bilgan. Ayniqsa, suls yozuvida undan o'tadigan topilmasdi.

Boysunqur Mirzo o'nlab shoirlar, san'atkorlar va olimlarni o'z panohiga olib, ularga moddiy va ma'naviy yordam ham bergan. O'z davrining mashhur shoirlaridan Bobo Savdoiy, Muhammad Pahlavon, Kotibi Nishopuriy, Mavlono

Yusuf Amiriy, Amir Rukniddin Nuzlobodiy, Amir Shohi Sabzavoriy, Hofiz Yusuf Andugoniy va boshqalar bevosita Boysunqurning moddiy yordamidan fayz topganlar.

Bobo Savdoiy uning bevosita homiyligi, ko'p muruvvatlari tufayli katta shuhratga ega bo'lgan. Uning bog'i Safedida doim mushoira majlislari bo'lib turgan ekan.

Ko'plab san'atkorlar, xattot va musavvirlar ham Boysunqur Mirzoning marhamatidan chetda qolmaganlar. Mashhur olim Xo'ja Abdulqodir Marog'iy, xushnavis xattot Shamsiddin Hiraviy, bastakor va xonanda Xo'ja Yusuf Andugoniy, tarroh va me'mor ustod Qavomiddin, o'z zamonasining peshqadam musavviri mavlono Xalil shular jumlasidandir. XV asrning birinchi yarmida Hirot qad ko'targan go'zal imoratlarning ko'pi ustod Qavomiddin va uning shogirdlari tomonidan qurilgan. Boysunqurning moddiy yordami va homiyligida ijodiy kamolotga yetgan Xo'ja Yusuf Andug'oniy keyinchalik Hirot musiqa maktabining peshvosi hisoblangan. Husayn Boyqaro ham musiqa bilimini undan o'rgangan. O'z davrining mashhur xattotlari Ja'far Tabreziy, Mavlono Zahiriddin Azhar Tabreziy, Mavlono Ma'ruf Bag'dodiy va boshqalar Boysunqur kutubxonasida ijodiy ish bilan shug'ullanganlar.

Alisher Navoiy Boysunqurning faoliyatini quyidagicha ta'riflaydi: „Boysunqur Mirzo xushtab, saxiy va ayyosh va hunarparvar podsho erdi. Xattot va naqqosh, sozandadin va go'yandadin muncha benazir kishikim, aning tarbiyatida orog'a kirdi, ma'lum emaskim, hech podshoh zamonida paydo bo'lmish bo'lg'ay“.

Xullas, XV asrning birinchi yarmidagi Hirot adabiy va madaniy hayotini rivojlantirishda Amir Temurning nevarasi, Ulug'bekning ukasi Boysunqur Mirzo faol qatnashib, katta amaliy ishlarni bajargan. U madaniyat va san'at homiysi sifatida ko'plab ijodkorlarning yetishib chiqishiga sababchi bo'lgan. Dotsent N. Norqulovning aniqlashicha, „Nigoriston“da tibbiyot, geografiya, handasa, o'simlikshunoslik bilan shug'ullanuvchi olimlar guruhi ham bo'lgan. Shoir Yusuf Amiriyning „Dahnoma“sidagi quyidagi baytlar ham bu fikrni tasdiqlaydi:

Kechib oldida yuz turluk daqoyiq,  
Maorif birla anvoi haqoyiq.  
Biri hay'at biyozidin terib gul,  
Biri hikmat shafosidin berib mul.



Biri Iqlidis ashkolin hal qilib,  
Biri ko'k jadvalida madhal qilib,  
Biri fiqh ichida asrab maqomin,  
Biri mantiq sari eltib kalomin.

Mashhur sharqshunos M. M. Dyakonov Temuriylar davri madaniy hayoti haqida fikr yuritib: „Navoiy, Jomiy va Behzod davri Hiroti — XV asrning ikkinchi yarmi — Hirot madaniy yuksalishi va gullab yashnashi sarchashmalarini Shohruh davri Hirotidan qidirish kerak“, — degan. Shubhasiz, bu davr madaniyatining yuksalishida Boysunqur Mirzoning xizmati katta.

Boysunqur 1433-yili vafot etadi. Gavharshodbegim madrasasiga dafn etiladi. Amir Shohiy, Sayfiddin Naqqosh Isfahoniylar unga atab marsiya bitganlar. Uning uch o'g'li — Rukniddin Mirzo Alouddin, Qutbiddin Mirzo Sulton Mahmud, Mirzo Abdulqosimlar bo'lgan.

## ZAMINIDA OSMON YARATGAN OLIM

Mashhur rus olimi V. Bartold „Ulug'bek va uning davri“ kitobida quyidagi hikoyani yozib qoldirgan: „Madrasa binosi bitay deb qolganda, u yerdagi odamlar Ulug'bekdan: „Madrasaga kimni mudarris qilib tayinlamoqchisiz?“ — deb so'rganlarida, Ulug'bek: „Barcha fanlardan xabardor bo'lgan biror odamni qidirib topaman“, — deb javob bergan. Shu yerda g'ishtlar orasida iflos kiyimda o'tirgan mavlono Muhammad Ulug'bekning bu gapini eshitib qolgan va shu onda o'rnidan turib, „bu vazifaga men loyiqman“, — degan. Shundan so'ng Ulug'bek uni imtihon qilgan va Mavlono Muhammadning chinakam bilimdon odam ekanligiga ishonch hosil qiladi va uni hammomda yuvintirib, yaxshi kiyintirish haqida buyruq beradi. Madrasaning ochilishi kunida Mavlono Muhammad nutq so'zlagan. Mavlono Muhammadning nutqini Ulug'bek va Qozizoda Rumiylar bilan birga 90 kishidan iborat ulamolar ham tinglaydi. Riyoziyotdan bahs etgan bu va'zni Ulug'bek bilan Rumiygina tushunib yetganlar“.

Ulug'bek ilm-fanni, olimlarni e'zozlagan buyuk alloma edi. U 1394-yili Hirotida tug'iladi. To'rt yoshidan boshlab uning tarbiyasi bilan buvisi Saroymulxonim va bobosi Amir Temur shug'ullanadilar. Shosirtabiat, bilimdon, rivoyatgo'y Hamza binni Ali Tusiy (Xo'ja Orif Ozariy) shahzodaning xizmatiga

tayinlanadi. U yosh Ulug‘bekning tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanadi, adabiyot, tarix bilan bog‘liq naqlar, rivoyatlarni qiroat qiladi. Hatto Amir Temur sevimli nevarasini safarlarda, yurishlarda ham birga olib yurgan. Xususiy muallimlarda o‘qitgan. Said Sharif Jurjoniyan riyoziyot bo‘yicha dars tinglagan Ulug‘bek yoshligidanoq diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallaydi. Amir Temur 1405-yilda O‘trorda favqulodda kasalga chalinib vafot etadi. To‘rt yil mobaynida Amir Temur o‘g‘illari orasida taxt-toj uchun davom etgan jangda Shohruh g‘alaba qozonadi. U hozirgi O‘rta Osiyo yerlarini birlashtirib, poytaxti Samarqand bo‘lgan Movarounnahr davlatini tuzadi va 15 yashar o‘g‘li Ulug‘bekni unga hokim etib tayinlaydi. Poytaxti Hirot bo‘lgan Xuroson davlatini esa o‘zi boshqaradi.

Boshqa hukmronlar singari Ulug‘bek kuchi, aql-zakovatini jang-u jadallarga, yurt olish, boylik orttirishga emas, adolat bilan hukm surish, mamlakatni obod qilish, adabiyot, ilm-fanni rivojlantirishga sarflaydi. Ulug‘bek atrofiga „O‘z davrining Aflotuni“ deb nom qozongan mashhur matematik, astronom Qozizoda Rumiy, Ulug‘bek va Qozizodalarning shogirdi, „O‘z zamonasining Ptolomeyi“ taniqli matematik va astronom Ali Qushchi, matematik va astronomlar Mansur Koshiy, Ali ibn Muhammad Birjandiy, Miram Chalabiy, 1416-yili astronomik asboblar haqida risola yozgan G‘iyosiddin Jamshid, Muhammad ibn Umar Chag‘miniy kabi olimlar jamlangan edilar. Ulug‘bek ana shu olimlar maslahati, kengashi, hamkorligida matematika, astronomiya, geometriya kabi fanlarga doir tadqiqotlar olib boradi. Samarqand shahri atrofidagi Obirahmat soyi yoqasida rasadxona qurdiradi. Unga dastlab G‘iyosiddin Jamshid, keyin Qozizoda Rumiy, Ali Qushchilar mudirlik qilishgan. Rasadxona atrofida muhtasham binolar, go‘zal bog‘-u rog‘lar barpo ettiradi. Uch qavatdan iborat bo‘lgan bu rasadxonaning balandligi 50 metr bo‘lgan. Unda G‘iyosiddin Jamshid usturlub yordamida osmoniy jismlarni kuzatgan, 1018 ta yulduzning muvozanati aniqlangan. Rasadxonada olib borilgan kuzatishlari natijasida Ulug‘bek 1437-yili „Ziji Ko‘ragoniy“ risolasini yozib tugatadi.

Asar nazariy qism hamda rasadxonadagi tadqiqotlar yakuni — Ulug‘bek taqvimidan iborat.

Professor H. Hasanovning uqtirishicha, Obirahmat rasadxonasida 70 ta olim ishlagan. Ular Beruniyning „Qonuni Ma‘sudiy“ asaridan ham foydalanganlar.

Ulug‘bek ilmiy kuzatishlar olib borish va madrasada fala-kiyot ilmidan va‘z aytish bilan birga madaniy ishlarga ham jiddiy e‘tibor bergan, ko‘plab madrasa, xonaqoh, masjid, karvonsaroylar qurdirgan. Oldinroq qurila boshlangan Bibixonim masjidi, Go‘ri Amir maqbarasi, Shohizinda ansamblini nihoyasiga yetkazgan. Otasi Shohruh Hirotda diniy bilim donishmandlari qurshovida shariat va dinni mustahkamlash uchun kurashayotgan bir vaqtda, Ulug‘bek ma‘rifatni, ilmni rivojlantirish uchun intildi, adabiyot, ilm-fan ahllarini e‘zozladi.

Buyuk olim Ulug‘bek ruhoniylar fatvosi va o‘g‘li Abdulatifning bevosita roziligi bilan 1449-yili yollangan qotil Abbos tomonidan o‘ldiriladi.

Ulug‘ kishilar, daholar jisman o‘lsalar-da, lekin ularning nomi o‘z asarlarida mangu qoladi. Ular yoqqan ma‘rifat chirog‘i, ilm ziyosi xalq yo‘lini yoritib boradi, avloddan-avlodga o‘tib, taraqqiyparvar insoniyatga xizmat qilaveradi. Shuning uchun ham ko‘pgina o‘tmish mutafakkirlari Ulug‘bekni adolatli sulton, donishmand murabbiy, aniq fanlar ustoz sifatida tilga oladilar, madh etadilar, xalq esa o‘zining ardoqli farzandi haqida hikoyatlar, rivoyatlar to‘qigan. Mashhur turkiyo‘y shoir Sakkokiy Ulug‘bekka bag‘ishlab qasidalar yozdi. Bu she‘rlar laganbardorlik madhiyasi bo‘lmay, adolatpesha olimga berilgan haqqoniy ta‘rifdir. Ulug‘ bobomiz Navoiyning „Farhod va Shirin“ dostonida „Ulug‘bek madhiyasi“ degan maxsus bob mavjud, unda shoir Ulug‘bekni zaminda osmon yaratgan olim deb ta‘riflaydi:

Rasadkim bog‘lamish zebi jahondir,  
Jahon ichra yana bir osmondir.  
Bilib bu nav’ ilmi osmoniy,  
Ki andin yozdi „Ziji Ko‘ragoniy“.  
Qiyomatga degancha ahli ayyom,  
Yozarlar aning ahkomidin ahkom.

O‘sha zamon tarixchilarining hamda yozuvchilarning asarlarida ham ana shunday ta‘riflar ko‘p. Chunonchi, „Boburnoma“da, Sayfiddin Ali Safiyning „Turli toifalar haqidagi latifalar“, Vosifiyning „Badoye’ ul-vaqoye“ („Ajoyib voqealar“) singari kitoblarida biz Ulug‘bek haqidagi ko‘plab hayotiy hikoyalar va rivoyatlarni uchratamiz. Chunonchi, Bobur: „Yana bir oliy imorati pushtai Ko‘haq domanasida rasaddurkim, zij biti-

makning olotidur. Uch oshyonliqdir. Ulug‘bek Mirzo bu rasad bila „Ziji Ko‘ragoniy“ni bitibdurkim, olamda holo (hozir) bu zij musta‘maldur. O‘zga zij bila kam amal qilurlar“, — deb yozib qoldirgan.

Ulug‘bek ijodini o‘rganishda mashhur olimlar T. Qori Niyoziy, B. Ahmedov, A. Ashrapovlarning xizmatlari katta.

## Ulug‘bek va sayyoh

(„*Badoye’ ul-vaqoye*“dan)

Kunlardan bir kun bir kishi Ulug‘bek Mirzo huzuriga kelib, ta‘zim-tavozedan so‘ng shunday arz qilibdi:

— Ey, shohim! Mening boshimga bir mushkul ish tushdi. Uni hal qilish meninggina emas, barcha donishmandlarning qo‘lidan ham kelmayapti. Men Xuroson karvoniga hamroh bo‘lib, Iroqdan Samarqandga kelmoqda edim. Karvon Jayhun labiga yetgach, men bir chekkaga borib, liboslarimni yechdim. Menda bir parcha la‘l bo‘lib, uni charm xaltachaga tikib, bilagimga bog‘lab olib yurardim. O‘shal la‘l xaltachani ham bilagimdan yechib, kiyimlarim ustiga qo‘ydim-da, yuvinish uchun suvga tushib ketdim. Suvdan chiqsam haligi la‘l qo‘ygan joyimda yo‘q. O‘sha atrofda begona odam ko‘rinmasdi. Shuning uchun yo‘qolgan narsamni o‘rtoqlarimdan so‘rab-surishtirishga uyaldim. La‘l qanday g‘oyib bo‘lishi mumkin?

— Bu jumboqni yechish uchun bir yil sabr qilishingga to‘g‘ri keladi. Shu orada o‘sha la‘ling topilsa yaxshi. Mabodo topilmay qolsa, uning qimmatini men to‘layman, — debdi Ulug‘bek Mirzo.

Haligi kishi shukrona bajo keltirib ketibdi. Shundan so‘ng podshoh devonbegini chaqirib, o‘ziga qarashli yurt aholisining o‘sha yili podsholikka qancha to‘lov va soliq topshirganini nomma-nom yozib berishni buyuribdi. Devonbegi shoh farmonini bajaribdi.

Ulug‘bek Mirzo ro‘yxatni birma-bir ko‘zdan kechirib chiqib, o‘zida saqlabdi. Yangi yil kirishi bilan shoh devonbegini chaqirib, shohlik daromadi haqida o‘tgan yilgidek hisob-kitob topshirishni so‘rabdi. Shoh solishtirib ko‘rarkan, Qorako‘ldan o‘tgan yili davlatga ellik tanga soliq to‘lagan bir kishining bu yil podsholik xazinasiga 500 tanga kirim topshirganini ko‘rib qolibdi. Ulug‘bek Mirzo o‘sha kishini topib olib, xilvatda o‘z huzuriga kiritishlarini buyuribdi.

Podshoh farmoniga ko'ra haligi kishini topib keltirishibdi. Ulug'bek Mirzo u bilan suhbatlashib, so'rabdi:

— Sening soliq to'lashingda ikki yil orasida katta farq sodir bo'libdi. Bundan chiqdi sen otangdan qolgan yoki boshqa biron yo'l bilan katta boylikka ega bo'libsan. Rostini ayt, shuncha boyligni qayerdan topding?

— Men to'quvchiman, Qorako'lda yashayman, — debdi haligi kishi. Kunlardan bir kun o'z ishim bilan band bo'lib o'tirsam, bir qarg'a uchib kelib ro'paramdagi daraxt shoxiga qo'ndi. Uning tumshug'ida go'shtga o'xshash bir narsa bor edi. O'sha narsa qarg'a og'zidan tushib ketdi. Olib qaragam tumorga o'xshatib tikilgan charm ekan. Ochsam, ichidan oftobi olamdek yarqirab turgan la'l chiqdi. Uni Xudoning sadaqasi deb bildim-da, Samarqandga eltib, bir gavharshunosga ko'rsatdim. Uni ko'rishi bilan gavharshunosning rang-ro'yi la'ldек charaqlab ketdi va mendan so'radi:

— Buni qayerdan topib keltirding?

Men bu narsaning qimmatbaho tosh ekanligini endi tushundim-da, javob berdim:

— Qayerdan keltirganimni so'rab-surishtirib nima qilasan. Istasang, narxini kelishib ol. Bo'lmasa, molimni qaytarib ber.

— Necha pulga sotmoqchisan? — so'radi u.

— Ikki ming oltin tangaga sotaman, — dedim men. Uzoq talashib-tortishib 1500 tangaga sotdim. Pulini olib, to'g'ri bozorga bordim: bir qul, bir kanizak va boshqa qimmatbaho narsalar sotib oldim, bir otni egar-jabdug'i bilan olib to'g'ri Qorako'lga bordim. O'z tirikchiligimni, uy-ro'zg'or anjomlarimni badavlatlarnikiga o'xshatib, yaxshilab oldim. Kambag'allikdan qutulib, mol-dunyoli bo'lganimni ko'rgan qo'shnilar mendan so'rashdi:

— Buncha mol-dunyoni qayerdan topding?

— Samarqand shahrida bir badavlat qarindoshim bo'lardi. Ittifoqo, u vafot etib, davlati menga meros qoldi, — javob berdim men.

Mirzo Ulug'bekning buyrug'i bilan o'sha gavharshunosni keltiribdilar. U gavharni sotib olganiga iqror bo'libdi va yashirib qo'ygan joyidan keltirib ko'rsatibdi. Podsho uni olib egasiga beribdi. Gavharshunosni esa insofsizlik qilib, o'sha la'lning bahosini past urgani uchun jazolabdi.

## Yolg'onchining izza bo'lishi

Kunlardan bir kuni bir kishi Ulug'bek Mirzo huzuriga kelib arz qilibdi:

— Ey, podshohi olam! Men Samarqanddan Buxoroga safarga chiqqanimda hamyon-xaltamda ming tanga pulim bor edi. Shahardan chiqib, ikki farsax (16 kilometr) yo'l yurgach, bir daraxt soyasiga — suv bo'yiga dam olgani o'tirdim. Men endi ovqatlanayotgan edim, shaharga ketayotgan bir do'stim paydo bo'lib qoldi. Uni dasturxonga taklif etdim. Birga ovqatlandik. Hamyonni o'zim bilan eltishni lozim ko'rmadim-da, uni haligi do'stinga berib, shaharga borgach, uyga eltib berishni iltimos qildim. Safardan qaytib kelgach, bilsam o'sha do'stim hamyonni uyimga eltib bermabdi. Uning oldiga borib omonatimni so'radim.

— Jinni bo'ldingmi!? Men seni ham, hech qanaqa daraxt-paraxtni ham ko'rgan emasman, deb javob berdi u.

Ulug'bek Mirzo o'sha odamni chaqirib keltiribdi va ikki do'st shoh huzurida ro'baro' bo'lishibdi. O'sha odam, „men u daraxtni ham, bu odamni ham ko'rmaganman“, deb so'zida qat'iy turib olibdi.

Ulug'bek Mirzo da'vogarga, „o'sha daraxtdan uch-to'rt barg keltirgin, men uning vositasida haqiqatni aniqlayman“, debdi. Da'vogar yo'lga tushishi bilan shoh uning sherigiga bir hikoyatni ayta boshlabdi. Voqeaning eng qiziq joyiga borganda shoh:

— Da'vogar o'sha daraxtning oldiga yetib bordimikan? — deb savol tashlabdi.

Hikoyatni zavq bilan tinglayotib, g'aflatda qolgan haligi kishi bexosdan:

— U daraxt shahardan ancha uzoqda, hali yetib bormagan bo'lishi kerak, — debdi.

Ulug'bek Mirzo kulib yuboribdi-da va:

— Axir sen „men bu odamni ham, daraxtni ham ko'rmaganman“, — demabmiding, qanday qilib do'stingning u yerga yetib bormaganini bilding!? Yaxshisi yolg'on gapirmay, omonatini egasiga topshir, — debdi.

U kishi aybiga iqror bo'libdi va omonatni egasiga qaytarib beribdi.

## Kambag'al va qozi

Kunlardan bir kun bir kishi Ulug'bek Mirzo huzuriga arzga kelib debdi:

— Men Rum safariga tayyorgarlik ko'rayotganimda besh ming tilla ortiqcha mablag'im bor edi. Men ana shu pullarni biron bir diyonatli kishiga topshirib, safardan qaytgach, olmoqchi bo'ldim. Qancha o'ylasam ham zamona qozisidan ko'ra diyonatli kishini topa olmadim va o'sha oltinlarimni bir oftobaga solib, qoziga omonat topshirdim. Safardan qaytgach, o'sha omonatimni qozidan talab qiluvdim, u:

— Jinni bo'lib qolibsan shekilli, nega menga tuhmat qilasan? Men seni ko'rmaganman va tanimayman ham. Bundan keyin mening oldimga kelib, bunaqa noma'qul gaplarni gapirsang, tuhmat qilsang, odamlaringa buyuraman, urib tishlaringni sindirishadi, tilingni sug'urib olishadi, — deb do'q urdi. Nima qilishimni bilmayman, shohim. Siz menga yo'l ko'rsating, yordam bering, — debdi shikoyatchi.

— Men ertaga qozining uyiga boraman. Men u yerdan chiqib, otga minib ketmoqchi bo'layotganimda yetib kelib, shu arzingni ayt, — debdi Ulug'bek.

U kishi ketibdi. Ulug'bek qozini chaqirtirib debdi:

— Mening boyligim va javohirlarim shu darajada ko'payib ketdiki, xazinaga sig'may qoldi. Men ana shu mol-dunyoni hech kim bilmaydigan biron joyga yashirmoqchiman. Toki, vafotimdan so'ng farzandlarim olib xarj etsinlar. Xazinada tursa, men o'lganimdan so'ng talon-taroj bo'lib ketadi. Lekin, men bu masalada hech kimga ishonmayman. Kingaki ishonsam, u o'limimdan so'ng albatta tonadi. Shuning uchun bu shaharda sizdan ko'ra halol, rostgo'y odam yo'q, deb bildim. Zeroki, siz Payg'ambarning noibisiz, omonatga diyonat bilan qarashda hech kim sizga teng kela olmaydi. O'sha mollarni sizning uyingizga qo'yishga qaror qildim, toki, o'limimdan so'ng avlodlarim kuniga yarasin. Bu sirni siz biling-u men bilayin. Boshqa hech kim xabar topmasin.

Bu gaplarni eshitgan qozi xursandligidan yorilib o'lay debdi, zo'rg'a o'zini tutib olibdi. Va barmoqlarini ko'zlariga bosib, shoh iltimosini qabul etibdi.

Shundan so'ng Ulug'bek unga debdi:

— Men ertaga sizning uyingizga boraman. Ikkovlashib

xazinani qo'yish uchun joy belgilaymiz. Shundan so'ng mollarni yashirincha tashib, o'sha yerga bekitamiz.

Ertasi kuni Ulug'bek qozining uyiga boribdi. Qozi hovlisining to'rt tomonini diqqat bilan ko'zdan kechiribdi. Va nihoyat, xazina uchun bir joyni tayinlabdi.

Ulug'bek qozining uyidan chiqib, otiga mingan chog'ida haligi odam kelib, yerga tiz cho'kib, arz qila boshlabdi:

— Jahonpanoh! Men qozining uyiga omonat qoldirib edim.

Bu so'zlarni eshitgan va da'vogarni ko'rgan qozi sarosimaga tushib qolibdi va: „Agar inkor etsam, Ulug'bek menga shubha bilan qaraydi, mendan ranjib o'z xazinasini mening uyimga qo'ymasligi mumkin“, deb o'ylab:

— Sen qanaqa odamsan o'zi? Jinni-pinni emasmisan? Bu gapni podshoga arz qilish shartmidi? Sen qachon omonatingni so'rading-u men bermadim, — debdi.

Shundan so'ng qozi xizmatkoriga qarab:

— Bor, falon joydagi bog'ichli obdastani keltir, — debdi.

Xizmatkor ichi to'la obdastani keltiribdi. Qozi uni o'sha yerda — podshoh huzurida egasiga topshirib, o'zining „to'g'irli-gi-yu, halolligi“ni isbotlabdi.

## ULKAN MUARRIX

O'tmishda Hirot shahridan ko'plab tarixchi, ziroatshunos, fiqx, til bilimlari donishmandlari, adabiyotshunos-u musiqa-shunoslar yetishib chiqqan. Mashhur adib, tarixchi Xondamir olamga dong taratgan ana shunday donishmandlardan biridir.

G'iyosiddin ibn Humomiddin Husayniy-Xondamir 1475-yili Hirotida ziyoli oilasida dunyoga keladi. U dastlabki ta'limni xususiy muallimlardan oladi, so'ngra Hirot madrasalarida tahsil ko'radi, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro bilan maslakdosh bo'ladi. U zamonasidagi ko'pgina bilimlarni egallaydi, bobosi Mirxondning an'alarini davom ettiradi. Husayn Boyqaro saroyida kitobdor, Hirot madrasalarida mudarris bo'lib ishlagan olim 1528-yili Dehliga borib, avval Bobur, keyin uning o'g'illari huzurida yashaydi. Humoyunning barcha yurishlarida tarixchi sifatida hamroh bo'ladi. Xondamir 1535-yili Hindistonda vafot etadi. Olimning hayoti va ijodiy merosi O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademiklari, adabiyotshunos, tarixchi va sharqshunoslardan Izzat Sulton, Bo'riboy Ahmedov,



dotsent Naim Norqulovlar tomonidan o'rganilgan. Professor Hasan Quadratullayev bo'lsa yozuvchi asarlaridan ayrim parchalarni aslida — forsiyda ommalashtirgan; mashhur olim Porsoxon domla Shamsiyev „Makorim ul-axloq“ni o'zbekchalashtirgan.

Xondamirdan bizga qadar uch jilddan iborat „Xulosat ul-axbor“, „Dastur ul-vuzaro“, „Qonuni Humoyun“, „Chor unsur“, „Makorim ul-axloq“ singari asarlar yetib kelgan. Bundan tashqari, u bobosi Mirxondning „Ravzat us-safo“ asarining yettinchi jildining bir daftarini hamda xotimasini yozgan.

Muhammad ibn Xovandshoh ibn Mahmud Mirxond 1433-yili Balxda tug'ilgan. Uning otasi Burhoniddin Xovandshoh asli Buxoro sayyidlaridan bo'lib, Balxga ko'chib borgan. Mirxond Hirot madrasalarida ta'lim olgan. Temuriylar saroyiga yaqin turgan olim, Navoiyning iltimosiga ko'ra 7 jilddan iborat „Ravzat us-safo“ asarini yozgan. Unda eng qadimgi davrlardan tortib, XV asrning boshlarigacha o'tgan Payg'ambarlar, xalifalar, amir-u podshohlar haqida ma'lumotlar bergan. Hirot ilmiy va adabiy doirasida katta obro'ga ega bo'lgan Mirxond 1498-yili vafot etadi.

Xondamirning asarlari, bir tomondan, XV asrning oxiri, XVI asrning birinchi choragidagi Sharq mamlakatlari tarixini, xususan, Hindiston, Eron, Xuroson, Movarounnahr tarixini o'rganishda juda katta ahamiyatga ega. Olim ularda o'zigacha bo'lgan arab va fors tarixchilarining kitoblaridan keng foydalanadi, o'z fikrlarini ayrim rivoyat hamda hayotiy hikoyatlar bilan tasdiqlashga intiladi. Ayniqsa, ushbu risolalarda temuriylar saltanatining inqirozi, ularning shayboniylar, safaviylarga qarshi olib borgan jangi, Hindistondagi saltanatdorligi ancha batafsil yoritilgan. Olimning „Habib us-siyar“ asari juda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki, muallif unda Hindiston, Xuroson hamda Movarounnahr kabi o'lkalarning tabiati haqida ancha puxta ma'lumotlar beradi. Xondamirning hayvonlar-u parrandalar to'g'risidagi izchil mulohazalari bu joylarning hayvonot olami tarixini o'rganishda, zotlari yo'qolib ketgan ba'zi darranda va qushlarni aniqlashda bebaho manba hisoblanadi. Bu dalillar XV—XVI asrlarda Hirot tabiiy fanlarni tadqiq etish markazi bo'lganligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Bir kuni maqtovga loyiq Amir fikrini charxlash uchun Mavlono Fasihiddin Sohib bilan shatranj o'ynamoqda edi. Shu

payt to'satdan Amir Burhoniddin Atoullo kirib keldi. Ul hazrat izzat va hurmat taomillarini bajo keltirib, iltifot va ko'ngil so'rash yo'li bilan:

— Qayerdan tashrif buyurdilar va qanday yumushlar bor? — deb so'radilar.

— Har kun shahardan „Ixlosiya“ madrasasiga qatnashdan qutulish uchun ko'pdan beri uning atrofidan bir hovli sotib olish ishtiyoqida yurardim. Hozir esa o'shanday joy topdim va uch ming dinor kepakiyga sotib olmoqchiman. Biroq, bu borada bir amaldor paydo bo'lib, bu mablag' ustiga biroz qo'shmoqda. Sotuvchi esa hovlisini o'shanga sotmoqchi. Umid shuki, mulozimlaringiz u kishiga hovlini sotib olishdan voz kechish va menga qoldirish haqida shafqat yuzasidan bir qog'oz yozsalar. Daryo ko'ngilli Amir bu so'zlarga javob bermasdan, o'rtadagi shatranj mashg'ulotini tugatishga kirishdi. Shuning uchun u janob tashvishlanib: „Mening iltimosim oliy hazrat ko'ngliga og'ir tushdi“, deb o'yladi. Shatranj o'yini tugadi. Ehson va sahovat sohibi Amir ul zotga murojaat etib:

— Agar faqirlardan biri maydoni keng, imorati ko'p, havosi yoqimli va suvi shirin, madrasaga yaqin hovlini sizga in'om etsa, sizga munosibroq bo'ladimi yoki o'sha o'zingiz aytgan hovlini qo'lga kiritish uchun harakat qilinsinmi? — dedilar.

Ulug' nasablik ul janob bu so'zni eshitib, shodlik va xursandlik bilan minnatdorchilik izhor etdilar.

Ushbu hikoyat Xondamirning „Makorim ul-axloq“ asarining to'qqizinchi maqsadi (bobi)dan keltirildi. Unda zikr qilingan talaba „Badoye' us-sanoye“ („Badiiy san'atlar“) asarining muallifi, mashhur shoir, adabiyotshunos, mudarris Atoullo Mahmudi Husayniydir. Keyinchalik, olim o'z asarida Navoiydan ko'rgan muruvvati uchun minnatdorlik bildirib, ulug' Amir haqida iliq so'zlar yozib qoldirgan.

Ha, Xondamirning „Makorim ul-axloq“ asari, uning o'z ta'biri bilan aytganda, „bolaligi va yigitlik pallasida ko'p marhamatlar ko'rgani“ hazrat Navoiyga bag'ishlangan eng mukammal asardir. O'n maqsaddan iborat bu asarni Xondamir tugatib, hali xushnavis qilib ulgurmasdan Alisher Navoiy olamdan o'tadi. Olim ko'zida nam, dilda g'am bilan kitob oxirida shoir vafoti tafsilotlarini ham yoritadi.

Mazkur asar Navoiyning hayoti, faoliyati, ijodiy merosi xususida eng mukammal ma'lumot beradigan mo'tabar manbalardandir. Zeroki, risolada Xondamir Navoiyning tarjimai holi, u yaratgan bog'-u roq'lar, qazdirgan hovuz, ariqlar, davlat arbobi sifatida olib borgan ishlari, o'z mablag'i va podsholik hisobidan qurdirgan ravoq, tabobatxona, xonaqoh, madrasa-yu boshqa jamoat binolari, yosh adiblar, olim-u fuzalolarga g'amxo'rlik, ustozlari bilan munosabati va boshqalar xususida ancha batafsil fikr yuritgan hamda asarlarining ro'y-xatini keltirgan.

Xulosa qilib aytganda, Xondamir XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmi davridagi Xuroson fanining eng yorqin yulduzlari sifatida abadiy porlab, o'z vorislariga ma'rifat nurini sochaveradi.

### HAMISHA BEDOR QALB

Ma'naviyatimiz tarixida shunday siymolar borki, ular faoliyatini ma'lum bir soha bilangina bog'lab o'rganish mushkul. Chunki, bunday zoti kiromiylar o'z martabalari, vazifa-yu mavqelari taqozosi o'laroq, o'zlari yashagan ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga daxldordirlar. Sulton Husayn Mirzo Boyqaro ana shunday siymolar qatoriga kiradigan buyuk shaxslardan hisoblanadi.

Bo'lajak sulton, ilm-fan, adabiyot-u san'at homiysi, ko'p ahli fozilning murabbiyi Husayn Boyqaro 1438-yili Hirot-da zodagon oilada dunyoga keladi. Zahiriddin Muhammad Bobur uni „Karim ut-tarafayn“, ya'ni har ikki tomondan ham nasabi Amir Temurga bog'lanadi, degan. Uning otasi G'iyosiddin Mansur Mirzo ham, onasi Feruzabegim ham bevosita Sohibqiron avlodidan. Yetti yoshida otadan yetim qolgan Husayn Mirzo o'n to'rt yoshigacha ilm o'rganish bilan mashg'ul bo'ladi. 1452-yili Abulqosim Bobur Mirzo saroyiga ishga kirgan Husayn Mirzo ijtimoiy-siyosiy ishlarga sho'ng'ib ketadi. Biroz vaqt Samarqandda bo'lgan Husayn Mirzo yana Hirotga qaytib, Abulqosim Bobur saroyida xizmatni davom ettiradi. Xuroson hokimi 1457-yili vafot etadi. Husayn Marv, Jom va Mohan viloyatlari hokimi Sanjar Mirzo huzuriga boradi va uning qizi Beka Sultonbegimga uylanadi. 1469-yilning mart oyigacha turli viloyatlarda jang-u jadallar bilan yurgan Husayn Boyqaro

Abusayid Mirzo vafotidan so'ng Hirotni egallaydi, natijada uning nomiga xutba o'qiladi. Aprel oyida Navoiy Samarqanddan kelib, do'stini bu zafar bilan muborakbod etib, „Hiloliya“ qasidasini yozadi. Yodgor Muhammad, Sulton Ahmad Mush-toq hamda Ulug'bek Kobuliylar isyonlari, o'g'illari bilan bo'lgan mojarolarni hisobga olmaganda, Husayn Boyqaro yaqin 38 yil davomida mamlakatni qattiqqo'llik, tadbirkorlik bilan boshqaradi. Jasoratli va tadbirkor hukdor, ma'naviyat va ma'rifat pusht-u panohi, zukko donishmand, nuktafahm-u nozikbin shoir Husayn Boyqaro 1506-yili yurak xastaligidan vafot etadi. Uning 13 qizi, 14 o'g'li bo'lgan. Shahanshohning jasadi Hirotida o'zi qurdirgan madrasa ichidagi maqbaraga dafn etilgan. Hozir maqbara vayron bo'lgan, qabr va uning ustiga o'rnatilgan „Sangi haft qalam“ saqlanib qolgan. Uning zamonida Xuroson mulkida nisbatan tinchlik, adolat o'rnatiladi, iqtisodiy hayot, savdo-sotiq rivojlanadi, yuzlab karvonsaroylar, rabot, ko'prik, maktab, madrasa, masjid, xonaqoh, hammom, tabobatxona-yu yetimxonalar, suv havzalari quriladi, kanallar qaziladi, bog'lar barpo etiladi: sulton, shahzodalar, amirlar, hatto, malikabegimlar o'z nomlaridan masjid, madrasa qurishga kirishib ketishadi. Hirot chinakam madaniy qurilish maydoniga aylanadi. Ayrim binolarning qurilishi uzoq davom etgan. Jumladan, zilzila paytida shikastlangan Hirot Jomesi ta'miriga 6—7 oy vaqt ketgan; 403 gumbaz, 133 ravoq va 44 ta ustunga ega bo'lgan bu bino bevosita Alisher Navoiy nazorati ostida qayta tiklangan. Sarchashmalarda Husayn Boyqaro va Navoiylar sa'yi-harakati bilan qad rostlagan inshootlarning o'zi yuzga yaqin ekanligi qayd etilgan.

Husayn Boyqaro hukmronligi davrida turli yurtlardan Hirotga yuzlab olimlar, san'atkorlar oqib kelishadi. Zeroki, bu yerda ma'naviyatga homiqlik qilinadi, Jomiy, Navoiy singari ustodlar yashashardi. Natijada tabobat, tarix, til, adabiyot, handasa, tasviriy san'at, kitobat san'ati, qog'oz ishlab chiqarish, musiqa, tomosha san'ati, masxarabozlig-u ko'zboylag'ich, qo'g'irchoqbozlig-u muqallidlik, xullas, ilm-fan, ma'naviyatning barcha jabhalari gullab-yashnadi. Ko'plab yosh ijodkorlar balog'atga yetib, bebaho durdonalar yaratishdi. Sulton Husayn Boyqaro davrida Hirot madaniy hayotining gurkirab yashnashi haqida Bobur: „Sulton Husayn Mirzoning

zamoni ajab zamona edi. Ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis, Hiriy shahri mamlu<sup>1</sup> edi. Har kishiningkim, bir ishga mashg'ullig'i bor erdi, himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolg'a tegurgay“, — deb yozadi „Boburnoma“da. Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Sulton Ali Mashhadiy, Binoiy, Vasifiy, Koshifiy, Hiloliy singari o'nlab allomalar ana shu muhitda kamolga yetganlar. Sulton Husayn Boyqaroning bu sohadagi jonbozligini Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy kabi daholar qo'llab-quvvatlab turdilar. Xususan, Alisher Navoiy uning faoliyatini yo'naltirishda hamisha sarkorlik, hamrozklik vazifasini o'tadi.

Husayn Boyqarodan bizga qadar she'rlar devoni va bir risola meros qolgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek tilini davlat tili, o'qish-o'qitish, badiiy ijod tili darajasiga ko'targan Husayn Boyqaro — Husayniy ona tilida go'zal g'azallar bitgan. Uning ijodini o'rganishda Olim Sharafitdinov, Hodi Zarifov, Abduqodir Hayitmetov, Suyuma G'aniyeva hamda Turg'un Fayziyev kabi olimlar jiddiy mehnat qilishgan.

Husayniyning yaqin do'sti, butun siyosiy va madaniy faoliyatida eng yaqin ko'makdoshi Navoiy „Majolis un-nafois“ning sakkizinchi majlisini shoir ijodiga bag'ishlagan. „Ul hazratning xo'b ash'ori va marg'ub abyoti bag'oyat ko'pdur va devon ham murattab bo'lubtur“ degan Navoiy shoir g'azallarining birinchi baytlarini keltiradi. Ayni paytda muallif har bir matla'ning mazmun, g'oyaviy yo'nalish hamda badiiyligi jihatidan to'liq bayoni va tahlilini ham beradi. Husayniy devonidagi g'azallar faqat ishq mavzusida bo'lib, unda lirik qahramon kechinmalarining boshqa shoirlar ilg'ay bilmagan qirralari yuksak san'atkorlik bilan tasvirlanadi, g'aroyib lavhalar kitobxon ko'z o'ngida jilvalanadi, kamyob badiiy so'z vositalari qo'llaniladi: agar masiho nafasi bir necha o'likka jon baxsh eta olsa, ma'shuqaning la'li labi, shirin guftori „yuz ming o'likni“ tiriltiradi:

Gar Masiho umrida turguzdi bir necha o'luk,  
Dilbarim yuz ming o'lukni turguzur giftor aro.

Quyidagi baytlarda esa oshiq qalbi tug'yonining o'zgacha ohanglari ayricha badiiylkida, Husayniyga xos noziklikda ifodalangan:

---

<sup>1</sup> Ma'nosi: *Ayniqsa, Hirot shahrida bisyor edi, degani.*

*Ko'nglaki gulgunmidir yo gul yuzining aksidir,  
Yo, quyoshning tobidin gardun uza qo'ymish sahob.  
Tomsa bag'rim qoni o'qidin, chiqar ko'nglimdin oh,  
Dud o'lur chun qonini o't uzra tomizsa kabob.*

(Mazmuni: *Falak uzra bo'lgan qizil alvon yorimning ko'ylagimi yoki gul yuzining aksimi? Yo quyosh nurimi? Yor o'qi tekkan oshiq bag'ridan oqqan qon ta'sirida tortgan tutuni, o't uzra kabob qoni tomgandagi ko'tarilgan tutunga o'xshaydi. Mijgon o'qidan jarohatlangan oshiq holati otash ustida jizg'inak bo'layotgan kabobni eslatadi.*)

Boshqa bir g'azalda yor dudog'i oldida Iso nafasi kesilib, obihayot sharmanda bo'ldi, la'lingdin xijolat tortib lola qizardi, novvot suyulib ketdi, desa tubandagi misralarda yangi manzarani kuzatamiz: oshiq uchun yor ko'yi yuz firdavs gulzoricha bor; uning jabri xanjari o'tlug' ko'ngulga osoyish baxsh etadi. Xullas, ma'shuqaning noz-u karashmasi ham, jabr-u jafosi-yu hijron azoblari ham oshiqqa taskin beradi:

Emdikim bo'ldum giriftoring, tuman ming noz ila,  
Bevafolik rasmu oinini qilding oshkor.  
Aylasam la'li ravonbaxshingga jonim fido,  
Xanjari mujgon bila jonimni aylarsan figor.  
G'unchadek ko'nglum boshingga uyrulurni istasa,  
Anda, ey gul, g'amza neshindek solursan xor-xor.

G'azal maqta'ida fikr kelajakka umid ruhi bilan tugaydi yo Tangri yor ko'ngliga rahm bersin, yoki lirik qahramonga bardosh ato etsin. Chunki, u ma'shuqasisiz hayotni tasavvur etolmaydi, shuning uchun doim unga intiq. Badiiy tasvirda shoir ham fikrning tadrijiy takomiliga jiddiy e'tibor beradi, ham qo'llanilayotgan tasviriy vositalar tanosibini nazarda tutadi:

Sarv uzra gul ko'rmagan bo'lsang, qad-u yuzini ko'r,  
Joni shirin istasang, la'li shakarborig'a boq,  
Eyki, jannat ravzasi ichra tilarsen sarv-u gul,  
Gulshani ko'yiga kir, qad birla ruxsorig'a boq.

Shoirning „Xijil“, „Yo'q“, „Nihon“ radifli o'nlab g'azalari ham mumtoz she'riyatimizdagi yakpora g'azallarning eng yaxshi namunasi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakim, „Oqibat bo'lg'ay vasli dilxohing sening“ degan Husayniy — yorning jabr-u jafosi, bevafolidan shikoyat zamiriga dav-

rondan yetgan aziyat, tashvishlardan dilgirligini singdirib yuboradi. Bunday holatlarda Soqiyga murojaat etib, „Damo-dam sog‘ar“ uzatib „dardini“ daf etishni iltijo qiladi. „Har necha tuxmi vafo eksam, jafu berdi samar“, xoliq meni javr tortishga yaratgandek „ko‘nglima bir necha anduhi davron“, „Jonimg‘a davron javri ham“ degan shoir — bir g‘azalida quyidagilarni ta‘kidlaydi:

Kecha-kunduz jonima, vahkim balolar yuz qo‘yub,  
Shom to subh uyqu yo‘qdin ko‘nglima yuz ming sitam.  
Ey, Husayniy, motamim sharhini dedimki yozay,  
So‘zidin ham safhaga o‘t tushdi, ham kuydi qalam.

Yuz balolarga giriftor bo‘lgan lirik qahramon dardi, iztirobi shu darajada otashborkim, uning sharhini yozmoqchi bo‘lsa, qog‘oz-u qalam yonib ketadi. Bunday dardchil baytlarni o‘nlab g‘azallarda uchratish mumkin.

Navoiydan tortib, barcha tazkiranavislar Husayniyning „Qilni qirq yoradigan“ she‘rshunos ekanligini ta‘kidlaganlar. Bir adabiy bahsda Xusrav Dehlaviy baytini hammadan ko‘ra Husayniy mantiqan to‘g‘ri tahlil etib, barchaning e‘tirofiga muayassar bo‘lgani ham buni tasdiqlaydi. Shoir asarlaridagi mutlaqo yangi yuzlab badiiy tasviriy vositalar, radif-u qofiyalar, o‘zbekona so‘zlar shundan dalolat beradi. Yer labidagi qora holni „Bol ustiga qo‘nmish chibin“ga, ma‘shuqaning qomat-u ruxsorini „Sarv uzra ungan gul“ga qiyoslash, xatti mehri „xatti mushaf“ga tenglashtirish o‘sha davr g‘azaliyotida faqat Husayniy qalamiga xos hodisadir. Shoir boshqa zamon-doshlaridan farqli o‘laroq, arab va forsiycha so‘z hamda tasviriy unsurlarni juda kam qo‘llaydi. Ishlatganda ham „turktoz“, „hamsol“, „sa‘di kavkab“, „mohruxsor“, „g‘ayr az“ kabi o‘sha vaqt o‘zbek shoirlarida uchramaydigan so‘zlarnigina ishlatadi.

Xulosa qilib aytganda, Husayniy asarlari XV asr o‘zbek g‘azaliyotining muayyan zarvaraqalarini tashkil qiladi. Shoir ijodini o‘rganish va chop ettirishda olimlarimiz ma‘lum yutuqlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsalar-da, ammo uning san‘atkorlik mahoratini maxsus tadqiq etish — adabiyotshunosligimizning galdagi vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

## YUKSAK AXLOQ TARG‘IBOTCHISI

O‘z davrining atoqli adibi Koshifiy Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiyning nazari tushgan, Husayn Boyqaro bilan shaxsan oshno bo‘lib, farzandlariga dars bergan ulkan san‘at-kordir. U taxminan 1440—1450-yillar orasida Sabzavor viloyatining Bayhaq nohiyasida dunyoga kelgan. Bo‘lg‘usi adibning bolalik va dastlabki tahsil yillari o‘z Vatanida o‘tgan, o‘zining ilmsevarligi, zukko notiqligi bilan el hurmatini qozongan. So‘ngra u Nishopur va Mashhad shaharlariga borib, zamona-sidagi ko‘p bilimlarni qunt bilan o‘rganadi. 1470-yili Hirotga kelib, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning suhbatlarida ishtirok etadi, voiz, olim, mudarris sifatida shuhrat qozonadi, ilmiy, ijodiy va ta‘lim-tarbiya ishlari bilan mashg‘ul bo‘ladi. 1505-yili shu yerda vafot etadi.

Asl kasbi notiqlik bo‘lgan Koshifiy umr bo‘yi tabiiy va ijtimoiy fanlar sohasida ilmiy asarlar yozdi, badiiy ijod bilan shug‘ullandi. Undan bizga qadar, *matematika, tarix, astronomiya, axloq, falsafa adabiyot, ilmi nujum, tarbiya, nasr va nazm nazariyasi, insho* qoidalariga doir 37 ta asar meros bo‘lib qolgan. Ular orasida „Iskandar oynasi“, „Axloqi Muhsiniy“, mashhur hind masali „Kalila va Dimna“ning mutlaqo qayta ishlangan yangi forsiy nusxasi — „Anvori Suhayliy“, ilmi nujumga doir „Sab‘ai Koshifiy“ (yetti risoladan iborat), maktub yozish va insho bitishga doir „Maxzan us-insho“, hisob ilmiga doir „Risola dar ilmi a‘dod“, ganchkorlik kimyosiga doir „Mafoteh ul-kunuz fi kimyo“, muruvvat hamda javonmardlikka doir „Futuvatnomai sultoniy“, „Sahifai Shohiy“, „Ravzat us-shuhado“ („Shahidlar bog‘i“), „Risolai Hotamiya“ kabi asarlari Sharq-u G‘arb ilm-adab ahli orasida hiyla mashhurdir. Bu kitoblarning aksariyati yosh avlod tarbiyasiga, maktab va madrasa ta‘limiga moslab yozilgan ilmiy-ta‘limiy risolalardir. Adib badiiy asarlarida „**Koshifiy — kashf etuvchi**“ taxallusini qo‘llagan. Katta yig‘inlarda, diniy marosim, tadbir va bayramlarda nutq so‘zlashga, va‘z aytishga mohir bo‘lgani uchun **Voiz** deb nom olgan.

Husayn Voiz Koshifiy o‘z asarlarida insondo‘stlik, vatanparvarlik, adolatparvarlik, mardlik va jasorat, poklik va saxovat, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, kamtarlik, xayr-muruvvat, mehr-oqibat singari g‘oyalarni ilgari suradi, ulkan



mutafakkir sifatida pand-nasihah beradi. Adibning 1500—1501-yillari yozilib, Husayn Boyqaroning o‘g‘li Abdulmuhsin Mirzoga bag‘ishlangan „Axloqi Muhsiniy“ asari sof ta‘lim-tarbiyaga bag‘ishlangan asardir. Qirq bobdan iborat bo‘lgan kitobda yozuvchi *ibodat, ixlos, shukr, rizo, hayo, shafqat, adab, himmat, sabot, adl, avf, yaxshilik va marhamat, ta‘zim-tavoze, ahdga vafu, omonat va diyonat, g‘ayrat, shijoat, siyosat, haq va huquqqa rioya qilish* kabi ko‘plab inson kamoloti uchun muhim bo‘lgan sifatlarni ta‘riflaydi. Har bir bobda ana shunday foydali muammolar xususida o‘zining nazariy fikrlarini bayon etar ekan, ularni afsonaviy, tarixiy va hayotiy hikoyatlar bilan isbotlab boradi, qissadan hissa shaklida nasihatimiz baytlar bilan yakunlaydi. Bu asar o‘tmishda ingliz, nemis, o‘zbek, turk tillariga tarjima qilingan.

Koshifiyning asarlari O‘rta Osiyo xalqlari falsafiy, ilmiy-nazariy, axloqiy-ta‘limiy qarashlari tarixida muhim o‘rin tutadi. Xususan, uning falsafiy qarashlari silsilasida so‘fizm ta‘limotiga doir mulohazalari muhim ahamiyatga egadir. Buyuk bobimiz Alisher Navoiy Koshifiyning adib, notiq, nozikta‘b shoir sifatida alohida e‘zozlagan. „*Mavlono Husayn Voiz Koshifiy taxallus qilur, sabzavorlikdur. Yigirma yildurki, shahardadur va Mavlono zufunun va rangin, va purkor voqea bo‘lubdur. Oz fan bo‘l-g‘aykim daxli bo‘lmag‘ay* (ya‘ni, u bilmagan fan kam — H. H.). Xususan va‘z, insho va nujum aning haqqidur va har qaysida mutayyin va mashhur ishlari bor“.

Koshifiy „Anvori Suhayliy“ni yaratar ekan, ko‘hna hind masallarini qayta ishlaydi, o‘zidan yangi hikoya va maqolalar kiritadi; o‘tmish va zamondosh forsigo‘y shoirlarning hikmatomuz baytlarini qissadan hissa tarzida matnga singdirib yuborib, asarning didaktik mohiyatini yanada oshirishga erishgan. Natijada an‘anaviy sujetlar yangicha mohiyat kasb etib, o‘ziga xos bir masallar majmuasi hosil bo‘lgan.

Adibning fikricha, inson kamoloti zaminini ilm hosil qilish va kasb o‘rganish, pok diyonatlilik, imonning butunligi tashkil etadi. O‘lohg‘a yaqinlashmoq uchun ham aziyat chekmoq, ma‘rifatli bo‘lmoq, halol mehnat jarayonida toat-ibodat qilmoq, hunar egallab, aql-zakovat bilan kamolotga intilmoq zarur. Olimning bir necha risolalarida Qur‘on suralari, oyat hamda hadislar keltirilib, sharhlangan, tasavvuf va uning oqimlari

xususida mushohada yuritilgan. Bu esa uning *dinshunos alloma* ekanligini ham ko'rsatadi.

O'tmish maktab va madrasalarida „Axloqi Muhsiniy“ va „Anvori Suhayliy“lar darslik sifatida o'qitilgan. Ayrim sharq-shunoslarning aniqlashicha, hozirgi kunlarda ham Eron va Hindiston oliy o'quv yurtlarida bu asarlar axloq va tarbiya qo'llanmalari sifatida o'qitilar ekan. Mashhur ma'rifatparvar shoirlarimiz Sidqiy Xondayliqiy va Abdulla Avloniyilar o'z pedagogik risolalarida Koshifiy merosidan fayz topgan. Koshifiy ijodini o'rganish va targ'ib etishda R. Musulmonqulov, X. Aliqulov, M. Ahmedov, E. Vazirov, S. Vohidov kabi olimlarning hissasi katta. Adibning „Badoye' ul-afkor fi sanoye'-al ash'or“ („Badiiy fikrlar va she'riy san'atlar“, Moskva, 1977), „Anvori Suhayliy“, „Futuvvatnoma“. (Dushanbe, 1977—1991) singari asarlari nashr etilgan. Afsuski, bu ajoyib adib, nozikta'b she'rshunos, axloq-odob nazariyotchisining asarlari hozirgi o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. Loaqal „Axloqi Muhsiniy“ning 1858-yilgi Ogahiy bajargan o'zbekcha tabdili nashr etilgan.

## Til odobi

Sendan, til odobi qanday bo'ladi, deb so'rasalar, shunday javob ber: *Yaxshi fikrni ifodalash uchun og'iz ochish lozim, yomon gap uchun og'izni berk tutgin.*

Agar sendan, qanday holatlarda gapirish ma'qul, deb so'rasalar, shunday javob ber: *dilda pinhon bo'lgan narsalarni izhor qilish uchun, mazlumlarga yordam qo'lini cho'zish va marhumlarning dod-u faryodiga yetish uchun.*

— Nimalardan tilni tiyish darkor?, — deb so'rasalar, shunday degin:

*Birinchi:* yolg'on gapirishdan, zero yolg'onchilik, dushmandir.

*Ikkinchi:* va'daga xilof ish qilishdan, chunki bu ikkiyuzlamachilik nishonasidir.

*Uchinchi:* g'iybat va bo'htondan, sababi, bu — fosiqlar ishidir.

*To'rtinchidan:* janjaldan, xusumatdan, gap tashishdan va shaytonning vasvasasi bo'lgan aybjo'ylikdan.

*Beshinchi:* o'zni maqtash va ta'riflashdan tiyilish, chunki bular o'zdan ketish, takabburlikning alomatidir.

*Oltinchi:* xizmatkorlarni la'natlashdan o'zni tiyish, chunki bu zolimlar fe'lidir.

*Yettinchi:* Yomon duo va haqoratdan.

*Sakkizinchi:* odamlarning ranjishiga sabab bo'ladigan kulgu va masxaralashdan.

## **Javonmardlik odobi**

Agar sendan, javonmardlik odobi necha turli bo'ladi, deb so'rasalar, olti xildan iborat, deb javob bergin.

Javonmardlikning zohiriy belgilari quyidagilardan iborat:

*Birinchi:* tilni g'iybat va bo'htondan, yomon suxan aytishdan tiyish:

Gar mard ersang tilingni saqla,  
G'iybat-u bo'hton-u dilozorlikdan asra.

*Ikkinchi:* quloqni yomon so'zni eshitishdan asrash. Zeroki, g'iybatga quloq solmoq ham g'iybatchilik sanaladi:

So'ngra yomon so'zdan quloqni berk tut,  
Yomon gap aqlni xiralashtiradi.

*Uchinchi:* ko'rish zarur bo'lmagan, ya'ni botil narsalarni ko'rishdan (so'zdan) asramoq:

Ko'zni yumgin-u, qalbni qo'ldan berma,  
Yomon narsaga nazar solmasang bas.

*To'rtinchi:* harom narsani olish va xalqqa ozor yetkazishdan qo'lni tiymoq:

Qo'lingni zulm-ozordan yig',  
In'om-ehsonga ochiq tut.

*Beshinchi:* gina va adovat qo'zg'aladigan, gap teradigan joyga oyoq qo'ymaslik:

Borilmas yerga oyoq bosmagil,  
To'g'ri yo'l yurib, murodga yetgil.

*Oltinchi:* nafsni harom taom yeyishdan tiyish:

Xalq nazdida iffat asra,  
Ko'ngling mardlikka yayrat.

## FANOIY VA PURYORVALIY

O‘tmish mutafakkirlari, xususan mashoyixlar haqida manoqib hamda tazkiralalar yaratish Sharq ilmiy-adabiy hayotida o‘ziga xos bir an’anaga ega. XX asrgacha ana shunday tazkiralardan o‘ndan ziyodi yaratilgan. Ular orasida Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Sayfiddin Ali Safiylarning asarlari alohida qimmatlidir. Bu adiblarning „Tazkirat ul-avliyolari“, bir tomondan, o‘zlarigacha yashab o‘tgan irfoniy tafakkur donishmandlari hayoti, ijodiy merosi, aqidalari, ular haqidagi naqllar, hikmatlari, o‘zga bandalariga nasib etmagan nogahoniy ruhiy qudratlari haqida yaxlit ma’lumot bersa, ikkinchi tomondan, o‘sha oriflar yashagan davr ijtimoiy-falsafiy qarashlari tarixini, turli so‘fistik oqim va ta’limotlarning paydo bo‘lishi, o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishda ham eng nodir manbalar hisoblanadi.

Shoir va adabiyotshunos Kamoliddin Husayn Fanoiyning „Majolis ul-ushshoq“ kitobi ham ana shu turkumga kiradigan asarlardan hisoblanadi. Fanoiyning hayoti va ijodiy merosi haqida ma’lumot juda kam. Navoiy „Majolis un-nafois“da: „Mavlono Fanoiy ham Mashhadlig‘dur. Bu matla’ aningdurkim:

*Mani jo‘lidamo‘ bo aql az on begonagi doram,  
Ki dar ishq-i pari-ro‘ye sari devonagi doram“.*

(Mazmuni: *Sochi to‘zigan, men undan begonaman, chunki bir pari yuzli ishqida devonaman*), degan ma’lumotni beradi. Boshqa tazkiralarda shoir haqida ma’lumot uchramaydi. U XV asr va XVI asrning birinchi choragida yashagan san’at-kordir.

„Majolis-ul-ushshoq“ muqaddimasida adib Navoiy bilan „dabistonda hamsabaq bo‘lganini“, kitobi Husayn Boyqaroning bevosita nazari ostida yaratilganligini uqtirgan.

Bundan tashqari, hamd va na‘tlardan so‘ng „Ishq“ tavsifiga batafsil to‘xtagan shoir *fard, ruboiy, bayt, qit‘a, g‘azal, she‘r* ruknlari ostida bir qancha she‘rlar keltiradi. Muqaddima katta hajmdagi masnaviy, Jomiy, Attor, Rumi kabi shoirlardan keltirilgan g‘azallar bilan yakunlanadi. Majlislar tarkibidagi muallif qalamiga mansub she‘rlar ham Fanoiyning hiyla iqtidorli shoir ekanligidan dalolat beradi. Qo‘lyozma bilan

nashriy nusxalardagi she'rlarning janr xususiyatlarida ham, baytlar miqdorida ham jiddiy tafovut mavjud. Aftidan, noshirlar „Majolis-ul-ushshoq“ning mukammalroq nusxasidan foydalanganga o'xshaydi.

Tazkirada Hazrat Imom Ja'far Sodiq raziyallohu anhudan tortib, Husayn Boyqarogacha 78 bobda aksariyat mashhur mashoyixlar hamda ilm va davlat arboblari haqida g'oyatda qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Mansur Xalloy, Junayd Bag'dodiy, Boyazid Bastomiy, Sa'diddin Taftazoniy, mavlono Muhammad Tabadgoniy, shayx Najmiddin Roziy, Abulhasan Xarraqoniy, Shayx Najmiddin Boxarziy, Shayx Aziziddin Nasafiy, Farididdin Attor, Qosim Anvor, Amir Imodiddin Nasimiy, Majudiddin Sanoiyalar xususidagi ma'lumotlar — bu zotlar siymosini yanada to'laroq tasavvur etishga yordam beradi. Muallifning o'tmish mutafakkirlari haqidagi tafsilot va ma'lumotlari ikki jihati bilan kishi diqqatini o'ziga jalb etadi: *birinchidan*, adib u yoki bu mutafakkirning hayoti, ijtimoiy kelib chiqishi, maslagi haqida fikr yuritar ekan, ko'pincha tug'ilgan yili, manzili, bolalik va yigitlik onlari, qaysi kasb evaziga kun kechirishi, faoliyati haqida batafsilroq ma'lumot berishga intiladi. Ayni paytda o'sha donishmandning dunyoqarashi, ustodi-piri, nasl-nasabini ham uqtiradikim, bu uning ruhiy olamini chuqurroq idrok etishda muhim omil hisoblanadi. Masalan: „*Ilm-adab ahli orasida Mavlono Muhammad Mag'ribiy nomi bilan shuhrat qozongan Mavlono Muhammad Shirin shayx Abdurahmon Isfaroniy muridlaridandir*“, „*Mavlono Husayn Xorazmiy Kubraviy shayx Najmiddin Kubro sahobalaridandir*“. *Ikkinchidan*, har bir shayx siymosini kitobxon nazarida to'laroq namoyon etish maqsadida Fanoiy o'sha mutafakkir hayotida ro'y bergan favqulodda ruhiy holatlardan, ilmiy va jismoniy qudrati-yu karomatlaridan eng diqqatga molik lavhalarni keltirib o'tadi. Shayx Zunnun Misriy, Ibrohim Adham, Abulhasan Xarraqoniyalar faoliyatlari bilan bog'liq ba'zi tafsilotlar bunga misol bo'la oladi.

Boshqa tazkiranavislardan farqli o'laroq, Fanoiy Sharq ilm-fani, irfoniy ahkomlar taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot ravnaqida muhim o'rin tutgan, ma'naviyat va ma'rifat rivojining boshida turib, unga homiylik qilib, yo'nalish berib borgan buyuk tarixiy shaxslar faoliyati bayoniga ham kitobdan munosib o'rin ajratgan. Jumladan, Xayrulhokimin ibn

Sabuktegin, Sulton Ma'sud, Abulfattoh Sulton Jaloluddin Malikshoh, Muhammad binni Malikshoh, Iskandar binni Malikshoh, Alp Arslon, Abulfattoh Ibrohim Sulton, Husayn Boyqarolar haqidagi tafsilot va ma'lumotlar ham g'oyatda zavqlidir.

Bundan tashqari, kitobda Shayx Kamol Xo'jandiy, Qosim Anvor, Hofiz Sheroziy, Sa'diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Shayx Nizomiy-Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi daholar ijodi ham hiyla keng va atroflicha bayon etilgan. Umar Mardiy hamda Kamol Xo'jandiylarning forsiy va turkiyda barobar ijod qilganlari maxsus qayd etilgan. Ushbu san'atkorlarga bag'ishlangan majlislarni boshqa ma'lumotlar bilan qiyosiy o'rganish shubhasiz Sharq adabiyotiga doir qarashlarimizning ayrim jihatlarini to'ldirishga xizmat qiladi.

„Majolis ul-ushshoq“ning eng maroqli majlislaridan biri — „Xorazm Xayyomi“ — **Pahlavon Mahmud Puryorvaliyga** bag'ishlangan fasldir. Zeroki, unda muallif, bir tomondan, shoirning ijtimoiy kelib chiqishi, kasb-kori, ilmiy iqtidori, tengi yo'q pahlavonligi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi, tasavvuf tariqida yaxshi she'r, raso risolalar bitilgan yaxshi ruboiylari borligini, „Al haqoyiq“ kitobini yozganligini, Pahlavon Mahmudning javonmardlik xislatini bayon etayotib, yozuvchi uning kuragi yerga tegmagan bahodirligini ko'rsatadigan uchta hikoyani batafsil naql qiladi. Unda shoirning tanti, jo'mard, insondo'st, ayni paytda vatanparvar inson ekanligi o'z ifodasini topgan. Naql etishlaricha, Puryorvaliyning dong'i Hind shohi Jo'na qulog'iga yetib boribdi. Jo'na ko'p in'om-ehsonlar va'da qilib, bir zargar yigitni Xorazmga jo'natibdi. Jo'na taklifini keltirgan choparga Pahlavon Mahmud quyidagicha javob beribdi:

*Zargarbachaye ko'ft: „Rohi Mo'ltonro“,  
Ovard ba man qoidai Sultonro.  
On joki manu himmati pironi man ast,  
Ba yak jav naxaram Jo'nayu Hindustonro.*

(Mazmuni: *Zargar yigit yo'l bosib kelib, Sulton nomasini berib, „Mo'ltonga bor“, dedi. Vatanim va ustozlarim xoki turgan joyda Jo'na-yu Hindistonni bir arpaga olmasman).*

Mana shu ruboiydan so'ng yana gap Pahlavon Mahmudning jo'mardligi haqida ketadi-yu, bir naql keltiriladi: Ikkinchi

safar Dehli sultonining taklifini rad etmay, Hindistonga boradi. Shu o'rinda muallif Pahlavon Mahmudning sulton saroyidagi yosh bahodir bilan kurash tushishi haqidagi mashhur rivo-yatni keltiradi. Hikoya oxirida quyidagi baytlar bilan bosh-lanadigan 22 misradan iborat she'r shoir tilidan keltiriladi:

*Mo sangi niyat ba tarozu nihodayem,  
Sudu ziyoni xeshro ba yak so' nihodayem.  
Sargashtagoni bodiyai mehnatu g'amem,  
Dar rohi visol hamin ro' nihodayem.  
Bar gardani umedi tani notavoni xud,  
Zanjirho az on xamgeso' nihodayem.*

(Mazmuni: Biz tarozuga niyat toshini qo'rganmiz, foyda-yu ziyonimizni bir yoqqa qo'rganmiz. Biz mehnat-u g'am sahosining sargashtalaridanmiz, visol yo'lida shu ko'nga yuz burganmiz. Notavon tanimizning umid gardoniga o'sha gajak sochlardan zanjirlar solganmiz).

She'rda orifning maslak yo'lida sobitqadam, fidoyiligi rang-barang tashbehlarda, g'oyatda ta'sirchan ifodalangan.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, majlisda goh muallif, goh Pahlavon Mahmud tilidan keltirilgan baytlarning barchasi (ulardan birida „Fanoiy“ taxallusi qo'llanilgan) poklik, imon-e'tiqodli, fidoyi musulmon bo'lish, mardlik, oliyjanoblik tar-g'ibiga bag'ishlangan. „Masnaviy“ ruknida keltirilgan mana bu baytlar fikrimizni tasdiqlaydi.

*Chi neki guft on mardi suxandon,  
Bad on so'fii sargardon-u hayron.  
Ki so'fi-yu, imom-u, shayx-u zohid,  
Si moh ro'zador-u xilvatnishinu obid.  
Muraqqa'po'sh-u jamjamdor-u hoji,  
Masalagiru masjidjo'yu noji.  
Xatibu, voiz-u, mustiy-u qozi,  
Mudarris-u fathhoi hol-u mozi.  
Hama kishu shudgorat basomon,  
Vaqt ast agar gardi musulmon.  
Musulmoni dorai inu on ast,  
Ki on az ilmi xossai xosi jon ast.*

(U so'zamol donishmand, o'sha hayron va sargardon so'figa ko'p yaxshi aytgan: „Ey, so'fi imom-u, shayx-u zohid: o'ttiz kun

*ro‘zador-u kunjaknishin-u obid: muraqqa‘po‘sh-u, hashamli-yu hoji, masala aytib, masjid qidirib yuruvchi noji: imom-u, muftiyu, voiz-u qozi, mudarris-u, o‘tmish-u, hozirni bilguchi, hamma ekin-u tekining ko‘kka sovurilgay, sening musulmon bo‘ladigan vaqting yetdi. Musulmonda hamma narsa bordir, zeroki u jonga xos bo‘lgan ilmdir“).*

Demak, Pahlavon Mahmud aqidasiha, mansab, martaba, amal, davlat, mol-dunyoga hirs qo‘yish, unga ruju etish islomiy ahkomga zid: u mo‘minni haq yo‘lidan g‘aflatga tortibgina qolmay, balki imonning mustahkamligi — butligiga ham futur yetkazadi: chunki u „jonga taalluqli ilmdir“.

Pahlavon Mahmud haqidagi majlis „Sayyor ruboiyga“ aylangan fors-tojik adabiyotining „Odam-ush-shuaro“ Ro‘dakiy qalamiga mansub, insonparvarlikni targ‘ib etuvchi

*Gar bar sari nafsi xud amiri-mardi,  
Bar ko‘ru kar nukta nagiri-mardi,  
Mardi nabuvad fitodaro poy zadan,  
Gar dasti fitodayi bigiri-mardi,*

(Mazmuni: *O‘z nafsingni tiya olsang, birovga qattiq gapirmasang, mardsan. Yiqilganni tepib o‘tgan mard emas, qoqilganni suyab qo‘ygan maraddir.*) degan mashhur ruboiy va hamadonlik yosh yigitning Piryorvaliyga shogird tushishi hikoyati bilan tugaydi. Demak, Fanoiy Pahlavon Mahmudni, bir tomondan, atoqli olim, mohir ruboiynavis shoir sifatida tasvirlasa, ikkinchi tomondan, butun Sharqda dong taratgan bahodir, insonparvar, vatando‘st, hamisha beva-bechora, yo‘qsillar, bekaslarning pushti panohi sifatida ta‘riflagan. Shoir siymosi hamma zamonlarda barcha tabaqa kishilariga ibrat bo‘lib qolaveradi.

## SHOH VA IJOD TANOSIBI

Sobiq sho‘rolar hokimiyati davrida, xususan, kommunistik mafkura zug‘umi sharoitida o‘tmishdagi juda ko‘p davlat arboblarning faoliyatlari qasddan o‘rganilmay, e‘tirof etilmay kelindi. Zullisonayn shoir hamda ilm-madaniyat homiysi Ubaydiy ijodi ham shunday tahqirga uchragan. Vaholanki, *Abulg‘ozi Ubaydulloh Bahodirxon bin Mahmud sulton bin shoh Budog‘ sulton bin Abulxayrxon — Ubaydiy amirlashkar, xon va shoir bo‘lgan.*



Ubaydullohxon 1486-yili zodagon oilasida dunyoga keladi, xususiyl muallimlarda xat-savodini chiqargach, madrasalarda o'qiydi, diniyl va dunyoviy bilimlarni egallaydi. Hasano'ja Nisoriyl „Muzakkiri ahhob“ tazkirasida Ubaydullohxonning zukkoligi, bilim olish yo'lidagi zahmatkashligi xususida gapirib, „ilm yo'lida tirishqoqlik namunasini ko'rsatganlar, hech qachon barakatli vaqtlarini behuda va bekor ketkazmaganlar“, deb yozadi. (Hasano'ja Nisoriyl, „Muzakkiri ahhob“, 1993, Ismoil Bekjon tarjimasii, 23-bet).

Madrasa xatmidan so'ng „Ubaydiy“ yoki „Qul Ubaydiy“ taxalluslari bilan she'rlar ijod qila boshlagan shoir — amakisi Shayboniylxon qo'shinida noib va amirlashkarlik qiladi. Manbalarning guvohlik berishicha, shayboniylar sululasida eng jasoratli va shiddatkori Ubaydullohxon bo'lgan. U uch ming qurollangan chavandozlari bilan shoh Ismoilning oltmish minglik lashkarini tor-mor qilgan, uning sharofati bilan Movarounnahr safaviylarning hujumidan xalos bo'lgan. Ubaydullohxon 1533-yil, Abu Said bin Ko'chkinchixon vafot etgach, xonlik taxtini egallaydi va poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chiradi. Chunki Ko'chkinchixon avlodlari Ubaydullohxonning taxtni egallashiga qarshilik qiladi. Ubaydullohxon qattiqqo'llik bilan yurtni boshqarib, xonlik hududida nisbatan odilona hukm surib, 1540-yili 54 yoshida vafot etadi.

Ubaydullohxon davrida Buxoro xonligi iqtisodiy, madaniyl jihatdan yuksaladi, ilm-fan, adabiyot, madaniylat rivoj topadi, shahar obodonchiligiga, masjid, madrasalar, xonaqoh-u yo'llar qurilishiga jiddiy e'tibor beriladi. Ustodi hamda rahnamosi Xoja Ubaydulloh Ahrorning muridi Amir Abdullo Yamaniyl nomi bilan atalgan Miri Arab madrasasi, Mirak Said G'iyos bog'i, Ko'hak daryosiga qurilgan Mehtar Qosim ko'prigi Ubaydullohxon zamonida bunyod etilgan eng muhtasham obidalar dandir.

Ubaydullohxon o'z zamonasining durbin lashkarboshisi, tadbirkor xoni bo'lish bilan birga, ilm-adab ahli homiysi, ijodning ko'p sohalarida qalam surgan zukko donishmand bo'lgan. U musiqa, qiroat, hadis-u tafsir ilmlarida ustod darajasiga yetgan: bir necha musiqa asboblarini yaxshi chala olgan, xushxon hofiz sifatida davralarni qizitgan, Qur'onni tafsir etgan, qorilar uchun maxsus qo'llanma yaratgan, hadislarni sharhlab, risola bitgan. „Tarixi Rashidiyl“da Ubaydiyning

bu va boshqa xislatlari quyidagicha ta'riflangan: „*To Abu Saidxong'acha aningdin yoshi cho'ngroq kishi qolmadi. Xon taxtg'a o'lturdi. Adl-u ehson nasimi birla dunyoning dimog'ini muattar qildi... Ubaydullohxon podshoh erdiki sohibdiyona va parhezkor. Hamma din, millat, mulk, davlat, sipoh va raiyatlar ishini shar'ning andazasi birla faysala berur erdi... Nihoyati saxiy, nav'-nav' fazilatlar birla orasta erdi. O'z qo'li birla necha Kalomullo futub (kitobat) qilib erdi.*

*She'r va devonlari arabiy, forsiy va turkiyda aytibdurlar, holo bor. Ilmi musiqiyg'a ko'shish aylar erdi. Alg'araz podshoh erdiki, jami sifatlarda barkamol erdi. Aning tiriklik vaqtida Buxorodagi fuzalo va bulag'olar, xaloyiq va aloyiq Hirotdin — Mirzo Husayn zamonosidin yod berur erdi“ („Tarixi Rashidiy“, qo'lyozma 10191/11, 224 b-varaq). Shundan so'ng Rashididdin Mirzo Haydar Ubaydiy qilqalam xattot edi, „yetti nav' xat futur“ edi, Qur'on va boshqa ko'p kitoblarni o'z qo'li bilan ko'chirgan, „zamona kotiblarining ustodi“ edi, deb maqtaydi hamda devonlari orasida arabiy g'azallar devoni hiyla shuhrat topganini uqtiradi. Hasanxo'ja Nisoriy ham shoirning arab tilidagi g'azallarini ta'riflab, „*Yor jamoli hayratga solur, qaddi kamoli ko'zni olur*“ mazmundagi misra bilan boshlanadigan bir she'rini namuna sifatida keltiradi. „Tarixi tomm“ muallifi Sharofiddin Roqimiy (XVII asr) ham Ubaydullohxonning madaniy qurilishlarga katta e'tibor bergani, badiiy ijod ahliga homiylik qilganligini to'lqinlanib yozib qoldirgan va Mir Arab madrasasi qurilishi tarixini keltirgan.*

Ubaydiydan katta hajmdagi adabiy meros qolganiga qaramay, hali ular jiddiy o'rganilmagan, devonlari to'la tasnif qilinmagan. „Yozuvchi“ nashriyoti 1994-yili Qul Ubaydiyning „Vafo qilsang“ nomli ixcham she'rlar majmuasini chop etdi. To'plamni professor A.Hayitmetov muxtasar so'zboshi bilan nashrga tayyorlagan. Olimning ta'kidlashicha, Ubaydiyning har uch tildagi she'rlarini jamlagan devoni 1533-yili Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko'chirilgan yagona nusxasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining zaxirasida 8931-raqam bilan saqlanmoqda. Unda *g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, noma, muammo, masnaviy, hikmat*, „*yor-yor*“, *tarje'band* kabi lirik tur janrlaridagi she'rlar jamlangan. Demak, Ubaydiy she'riyati janr jihatidan ham, mavzu hamda g'oyaviy yo'nalishi nuqtayi nazaridan ham o'ziga xos va rang-barangdir. Shoir ma'shu-

qaning shakl-u shamoyili, odobini, hayotbaxsh lutf-u, nazo-kati-yu, noz-u karashmasini mutlaqo yangi tashbehlar, so‘z o‘yinlari, ibora va ifodalar orqali tasvirlashga intiladi, fikrni ixcham va tadrijiy takomilda rivojlantirib, avj nuqtaga yetishiga erishadi. „Bildim“, „Kerak“, „Tilarman“ radifli g‘azallar ana shunday xususiyatga ega. Shoir uchun yor visolini o‘ylash g‘am tunini munavvar etadi, jamolining sham‘i hijron kechasini yoritadi, yorning la‘li labi Xizr suvi — Obihayot o‘rnini bosadi. Quyidagi baytlarda ana shunday fikr izchil davom etadi:

Furqat tuni ayyomi visolingni tilarman,  
Hijron kechasi sham‘i jamolingni tilarman.  
Hayvon suyini Xizr ko‘zim qoshida qo‘ysa,  
Naylay ani, ko‘zumga zilolingni tilarman.  
Gar jon-u ko‘ngul qilsa talab xol-u xatingni,  
Men jodu ko‘zing birla hilolingni tilarman.

G‘azalning maqtaigacha lirik qahramonning yoriga intilayotgandagi ichki tuyg‘ulari ana shunday omiyona so‘z va iboralar, bir ko‘rinishda jo‘n, ammo g‘oyatda jozibali tashbehlar orqali ifodalanib boradi. Shoir nazarida haqiqiy oshiq muhabbat yo‘lida kuymog‘i, fidoyi, bag‘ri biryon bo‘lmog‘i, so‘zlari dardli, ko‘zlari g‘amnok bo‘lmog‘i zarur. Ishqning bunday tasviri faqat Ubaydiyagina xosdir:

Ishqdin g‘uncha kabi ko‘ngli to‘la qon kerak,  
Yuzi ham soriq-u guldek, yaqosi chok kerak.  
Ishq — jon bermak-u, bosh o‘ynamoq-u, kuymakdur,  
Oshiq ul ishlarida chobuk-u cholok kerak.

Ubaydiy she‘rlarida o‘zbek tilining rang-barang badiiy imkoniyatidan sarrofona foydalangan, yangi-yangi so‘z va iboralarni kashf etib, adabiy til me‘yoriga doxil etgan, an‘anaviy iboralarning yangi qirralarini namoyish etgan.

Ma‘lumki, forsiy tilda „*soleki nako‘st, az bahorash paydost*“ (yilning qanday kelishi bahoridan ma‘lumdir), degan ibora bor. Shoir uni „yileki yaxshi kelur, bilgirur bahorindin“, degan misra sifatida osongina qo‘llaydi. Bundan tashqari, u „*bu gulistondin g‘araz ul ikki nargisdur manga*“, didai giryonimda surati ko‘rinsin uchun uni ko‘ngil lavhida naqsh ettim, ko‘zim yo‘lingga durlar sohadir, ko‘nglim falakdek sargardon, boshimdagi fatila soch qushlar uya qurish uchun yiqqan

xordir, singari o'nlab obrazli lavhalar yaratar ekan, quyidagicha manzara chizadi:

Shomdek zulfungni olg'il subh yuzdin, — dedim,  
Dedikim: „Bo'lg'on emastur kecha kunduzdin yiroq.“  
Ko'zki, bilmon necha yumdum vasl ayyomidakim,  
Ko'z yumib ochquncha bo'ldum ul qaro ko'zdin yiroq.“

Bunga o'xshash yuzlab quyma baytlar Ubaydiy poetik tili boy va xilma-xil ekanligini ko'rsatadi. Mazkur sehrangiz hodisani alohida tadqiq etish — shoir ijodiy bisotini kashf etish imkoniyatini beradi.

Ubaydiy g'azallarida taqdirdan nolish, zamondan shikoyat ohanglari ham uchrab turadi. Bunday mulohazalar ko'pincha ma'shuqaning jafosi-yu ag'yorning g'alamisligidan aziyat chekish bilan qorishib ketadi. Bir ruboiysida san'atkor „O'lmay sitam-u, g'am-u alamdin qutulub“ bo'lmas emish, degan xulosaga kelsa, „Zamonadin“ radifli g'azalida hech bir zamonda jarohat ahliga marham yetmasligini dard va hasrat bilan ta'kidlaydi:

Bir lahza ko'nglim o'lmadi beg'am zamonadin,  
To'ydi zamona mendin-u — men ham zamonadin.  
Etmay ko'ngulga, ey hamdamim, yetar —  
Yuz ming g'am-u alam anga har dam zamonadin.  
Jamiyateki bor edi ko'nglum diyorida,  
Ul dog'i bo'ldi bir yo'li barham zamonadin.

Ubaydiy she'rlarining talaygina qismini orifona, axloqiy-ta'limiy hikmatlar, pand-u nasihat ruhidagi asarlar tashkil qiladi. Shoir nazmining bu xususiyatiga diqqat qilgan Nisoriy quyidagilarni yozgan: „Tasavvufda fikrlari mazmuni asosli va kuchli namoyon bo'lar, baland ma'nolarni dilpisand iboratlar bilan bayon qilar edi. Va mana bu ruboiyni Hazrat Mahdumiy Mavloni Kosoniyga, sirlari muqaddas bo'lsin, yuborgan:

Ahvoli nim, ey, dust, yake binam,  
Har chiz, ki binam, hama bo u binam.  
Mustag'raqi „hu“ chunon shudam dar hama hol,  
„Hu“ guyamu, „hu“ bishnavam-u „hu“ binam.

(Mazmuni: *Yarim ahvolimni, ey, do'st, bir ko'raman, nimani ko'rsam barchasini u bilan birga ko'raman. Barcha holatda ham „hu“ga shuncha g'arq bo'libmanki, faqat „hu“ deyman, „hu“ni eshitaman va „hu“ni ko'raman*).

Ayni paytda, Ubaydiy bir qancha baytlari, qit'a, ruboiy hamda tuyuqlarida do'stlik va sadoqatni, poklig-u halollik, rostlig-u rostgo'ylikni targ'ib etadi, badbinlik, jaholat-u riyokorlikni qattiq tanqid qiladi, kitobxonni nekbinlig-u adolat-peshalikka da'vat etadi:

Gar urush tushsa iki hamdam aro,  
Bot aning tadbirini etmak kerak.  
Biridin ayb o'tsa zohir, ul biri,  
Uzr aytib, aybini yopmak kerak.

Ayrim baytlarida shoir hayot tajribasidan, ajdodlar sabog'idan-u o'zgalar raftoridan pand, ibrat olishga chorlaydi, namomatga qolmaslik uchun „nasihat ganjidan“ bahramand bo'lishga undaydi, „*Shayton beadabligidan sharmanda bo'ldi, odam odobi bilan yuksaldi*“, deydi:

O'q kibi tuz bo'lsa har kim, solur o'zin ilgari,  
Yo kibi kim egri bo'lsa, o'zin solur keyin.  
O'qni ko'rki — tuzlukdin ilgari borur mudom,  
Yoyga boqqim, egrilikdin muttasil qolur keyin.

\* \* \*

Zinhor adab o'rganing, ey, ahli talab,  
Kim bordur adab guli saodatqa sabab.  
Shaytonki adabsiz erdi, qoldi mahrum,  
Odamni ko'rung — ne yerga yetkurdi adab.

Hatto „Ot oling“ radifli tuyug'ida san'atkor yoshlarni bu dunyoda kasb-kor egallashga, yaxshi ishlari bilan „yaxshi“ degan nom qoldirishga undaydi.

Jasoratli va tadbirkor xon, islomiy ahkomlar donishmandi va targ'ibotchisi, hofiz hamda musiqashunos, uch tilda barobar ijod qilib, „zullisonayn san'atkorlar ustoz“ darajasiga yetgan Ubaydiy merosi jiddiy o'rganish va chop etishni kutmoqda. Shoir ijodi mumtoz adabiyotimizdagi kamyob hodisadir!

## KO'HNA CHOCH OSHIG'I

Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro hamda Husayn Voizi Koshifiy kabi mashhur so'z san'atkorlarining nazari tushgan, ularning tarbiyasini olgan shoir va yozuvchilardan biri **Vosifiydir**. Koshifiy 12 yashar bolaning

notiqlik san'atidagi mahoratiga tahsin aytgan. Navoiy bo'lsa, Vosifiyning she'riy topishmoq-muammo yechishdagi zehni va topqirligiga tan bergan. Chunonchi, Vosifiyning zamondoshi Amir Muhammad u haqda shunday naql etadi: „*Vosifiy ko'p ishlarda davrning durdona'si va zamonasining yagonasi edi: birinchidan, uning bilaklari shu darajada baquvvatki, Xurosonda hech bir bahodir uni yenga olmagan, sarpanjasini buka olmagan, ikkinchidan, uning tez yurish va yugurish mahorati shu darajaga yetdiki, 65 farsang (520 kilometr)dan iborat Mashhad — Hirot yo'lini ikki kunda bosib o'tgan, uchinchidan suvda suzishda ham unga teng keladigan odam topilmasdi. Kunlardan bir kun Hirotning Bog'izog'onida Faridun Husayn Mirzoning buyrug'i bilan Vosifiyning ikki qo'li va ikki oyog'ini bog'lab, hovuzga tashlab yubordilar. U ana shu holatda peshindan oqshomgacha hovuzda suzib yurdi, to'rtinchidan, u xushxon hofizliqda hammadan o'zardi, beshinchidan, u Mavlono Husayn Voizning shogirdi edi. Mavlono xushovozlikda Vosifiyni o'zidan ustun qo'yardi, oltinchidan, u har qanday kishining ovozi va harakatiga aynan taqlid qila olardi, yettinchidan, muammo yechishda unga yetadigan donishmand topilmasdi, sakkizinchidan, bir kunda „Qofiya“, „Shofiya“ nomli mashhur kitoblarni bitta xatoga yo'l qo'ymay, oliy darajadagi husnixatda ko'chirardi, to'qqizinchidan, nihoyatda chidamli edi. Aytishlaricha, 10 kecha-kunduz hech narsa yemay yuraverarkan, o'ninchidan, badiha tarzida she'r aytish, mashhur shoirlar asarlariga o'xshatmalar yaratishga usta edi. Agar xohlasa, bir kechada atoqli shoirlarning 50—60 baytli qasidasiga javob ayta olardi“.*

Vosifiy 1485-yili hirotlik ma'rifat shaydosi Abdujalil oilasida dunyoga keladi. Bo'lajak shoirning bolalik yillari Hirot goh Shayboniyxon, goh Eron shohi Ismoil qo'liga o'tib turgan bir vaqtga to'g'ri keldi. Shunga qaramay, Vosifiy qunt bilan bilim oldi, Hirot madrasalarida o'qidi. 12—13 yoshida ko'p fanlarni puxta egallab, she'rni yaxshi tushunadigan iqtidorli yigitcha sifatida ilm-adab ahli nazariga tushdi, Navoiyning olqishini oldi. U *huquqshunoslik, mantiq, astronomiya, matematika, tilshunoslik* va zamonasining boshqa barcha bilimlarini puxta o'rgandi. 1510-yili shoh Ismoil Shayboniyxonni o'ldirib, Hirot shahrini ishg'ol etadi. Vosifiy hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsa ham ko'p do'stlarini qatl etilishidan xalos etadi. Xuroson va Movaroun-

nahrda darbadarlikda yuradi. Buxoro, O‘ratepa, Xo‘jand, Samarqand, Sayram, Toshkent shaharlarida bo‘ladi. Navro‘z Ahmad hamda Keldi Muhammadxonlar hukmronligi davrida Toshkentda bo‘lgan Vosifiy muallimlik qiladi, ilm-fan sohasida rahbarlik lavozimida ishlaydi. Adib taxminan 1552—1555-yillar orasida shu yerda vafot etadi.

Vosifiyning ijodiy merosi — „Badoye‘ ul-vaqoye“ xotira-sarguzasht asari, bir qancha o‘zbek va tojik tilidagi she‘rlaridan iborat. „Badoye‘-ul vaqoye“ yuzlab hikoyat, rivoyat, latifa, xotiralardan tashkil topgan. Bu asar Xuroson va Movarounnahrning o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, tarixi, ilmiy, madaniy, adabiy muhiti, xalq san‘ati, turli elatlarning kelib chiqishi, urf-odati, qo‘g‘irchoqbozlik, masxarabozlik, teatr tomoshasini bilishda, Jomiy, Navoiy, Behzod, Husayn Boyqaro, Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Yusuf singari o‘nlab madaniyat arboblari faoliyatini o‘rganishda noyob manba hisoblanadi. Yozuvchining Toshkent shahri madaniy hayoti, uning bog‘-u rog‘lari haqidagi mulohazalari xususan diqqatga sazovordir. Uning 150 misradan iborat „Toshkent va uning bog‘-u rog‘lari vasfida“ deb nomlangan qasidasini o‘qir ekanmiz, biz ko‘hna shahrimizning o‘sha davrdagi holatini ko‘z oldimizga keltiramiz. Vosifiy Toshkentdagi munozaralar, adabiy anjumanlar haqida fikr yuritar ekan, aksariyat paytlarda shoh-nomaxonlik qilinishini, Ibn Sino, Hofiz, Kamol Xo‘jandiy, Jomiy, Navoiy, Kotibiy kabi shoirlarning ijodi haqida bahs bo‘lib turishini uqtiradi. U Toshkentda yashab ijod etgan shoir Firkatiy, adabiyotshunos, astronom Mavlono Qatiliy, shoir Mavlono Konibodomiy, Said Turkistoniy, Mavlono Nodiriy, Mavlono Matla‘iy, olim va rassomlardan Mavlono Samarqandiy, Shoh Husayn, Jamoliddin Yusuf va boshqalarni hurmat bilan tilga oladi. Bundan tashqari, qasidada Toshkentning ravon suvlari, bog‘-u rog‘lari, hayratomuz binolari-yu turli-tuman mevalari zavq bilan tasvirlanadi:

Suvlarini ko‘rganda bu obihayot,  
Tortinib zulmatga yashirindi bot.  
Burak anhorlarning suvlari ravon,  
Jannat bog‘larida salsabilsumon...  
Husayni uzumin qilgin tamosho,  
Durdona yanglig‘ ko‘p qimmatbaho.

Zayniddin Mahmud Vosifiy yozib qoldirgan nodir hikoyatlar, ajoyib voqealar bizga qadimiy madaniyatimiz haqida qimmatli ma'lumotlar berish bilan birga, hamisha qalbimizga quvonch, chehramizga tabassum baxsh etadi: jasoratga, go'zallikka, insonparvarlikka mehr qo'yishga undaydi. Shuningdek, bu hikoyatlar Xuroson va Movarounnahrda yashagan ba'zi adib va davlat arboblari hayotining ayrim jihatlarini o'rganishga ham yordam beradi.

### **Quyida Vosifiyning Navoiy haqidagi hikoyalaridan namunalar keltirdik**

Bu faqir mavlono Sohibdoroga ona tomonidan qarindosh bo'lardi. Bir kuni otam bilan u kishining uyiga bordik. Kamol ahli-yu fazilat arboblari ancha kishi bor ekan. Bu faqirning otasiga xitob qilib, „o'g'lingiz tolibi ilm, xushxon hofiz va pahlavon shoir ekan. Har qanday nomi aytilmay o'qilgan mushkul muammoni yecharkan, degan shov-shuv yuradi“, deb bir muammo o'qidilar, men topdim...

Biz uyimizga qaytib ketdik. Biroz fursat o'tgach, mavlono Sohibdoroning xabarchisi kelib, xojam sizni so'ramoqdalar, dedi. Biz yetib borgach, mavlono dedi:

— *Amir Alisher huzurlariga borgan edik. Mirning odati shuki, har kuni meni chaqirib, butun shaharda bo'lib o'tgan ajoyib-u g'aroyib hodisalardan neni ko'rdingiz va nima gaplar eshitingiz?*, — deb so'raydilar. Men javob berdim: „*Bir kishini uchratdim. O'zi 16 yoki 17 yoshda. Nomi aytilmay o'qilgan har qanday mushkul muammoni topadi. Tolib ilmlikda, hofiz-u shoirlikda katta iqtidori bor*“. Mir taajjub bilan: „Sen uni imtihon qildingmi?“, — dedilar. Men bir mushkul muammo-ning nomini aytmay o'qigan edim yechdi, — dedim. Hazrati Mir menga: „U kishini bizning huzurimizga nega olib kelmading“, — deb e'tiroz bildirdilar. Men o'z gaplarimdan pushaymon bo'ldim. Chunki, Mirning suhbatida juda mazmunli va hayratlidir. Masalan, biror majlisda biror fozilning nomini so'rasalar-u aytib berolmasangiz, koyiydilar. Mabodo, bir muammo o'qilsa-yu, topolmasangiz, sharmanda va xijolat bo'lishingizga sabab bo'ladi. Endi hozirligingizni ko'rib, ertaga ertaroq bu yerga kelib turingiz, Hazrati Mir siz bilan ko'rishmoq ishtiyoqidalar.



Kechqurun uyga qaytdim-u, ajoyib kayfiyat meni chulg'ab oldi. Ilon chaqqan kishidek u yoqdan bu yoqqa ag'anab, uxlayolmadim. Faqirning otasi iztirobimdan voqif edilar:

Ey, joni padar, chi hol dori,  
Az ro'i chi dard beqarori?  
(Ey, jonim o'g'lim, nechuksen?,  
Ne dard uchun sen beqarorsan?)

Men u kishiga: „*E, ota! Nimasini so'raysiz!. Ertaga Mir Alisher majlisiga borishim lozim. Holim ne kecharini bilmayman*“, — dedim. Otam ko'z yoshi qilib, dedilar: „*Ey, jonim o'g'lim, sen bir inson suhbatidan bu qadar qo'rquv va vahimadasan*“, tasalli berdilar.

Alqissa, erta bilan Mavlono Sohibdoro uyiga yetib keldim. Mendan boshqa u kishining huzurida yana uch tolibi ilm bor ekan. Mavlono Sohibdoro menga, „vaqtida kelding, bu uch yoshni Mirning huzurida ta'rif qilganman“, — dedilar. Ularning biri Muammoiy edi. Mahorati shu qadar ediki, uni bu san'atda mavlono Husayn Nishopuriy bilan tenglashtirar edilar. Ikkinchisi qasidago'ylikda shuhrat topgan edi. Uchinchisi masnaviyni juda yaxshi aytar edi. Oliy majlisga kirib bordik. Majlis ahli va hazrati Mir o'z nadimlari bilan hozir ekanlar. Janobi Mir biz tomon qaradilar. Faqirga ishora qilib, „*nomini aytmay o'qilgan muammoni yecha oladigan do'stimiz shu kishimi?*“ — dedilar. Mavlono Sohibdoro: „*Bali, o'sha maxdum*“, — deb javob berdilar. Mavlono Muhammad Badaxshiy suhbatga aralashdilar: „*Maxdumlar, Xudo haqqi muammo yechishda sizdan o'tadigani yo'q-ku?..*“ Mir dedilar: „*Men uning muammo yechishga iqtidorini ko'zidan bildim. Zero, uning fikrlari ko'zlaridan zohir bo'lib turibdi*“. Keyin shu muammoni o'qidilar:

*Bog'ro bin xazon befarru az jo shuda,  
Bulbulash barham zada minqori o' nogo'yo shuda.*

(Mazmuni: *Bog'ni ko'r, xazonrezlikdan ko'rki qolmabdi, toji o'rnida emas, bulbulning tumshug'i yo'qolib, kuylashdan qolibdi*).

Ittifoqo, men bu muammoni yod bilardim. O'ylanib qoldim: nomini aytib, o'zimni go'llikka solib, majlisni o'tkazaversammi yoki to'g'risini aytayinmi? Oqibatda rostini aytishga

ahd qildim. Dedim: „*Maxdum, men bu muammoni yod bilaman.*“ Hazrati Mir biroz boshlarini egib turdilar-da, yonidagilarga, „Azizlar bilasizlarmi, buning so‘zi ne ma’noni bildiradi? O‘z qudratini izhor qilib, bunisini bilaman, boshqasini ayting“, — demoqchi. Mir boshqa muammoni o‘qimadilar. Anchagina lutfomuz so‘zlar aytib, so‘ngida mavlono Sohibdoroga, „Biz uning da’vosini qabul qilurmiz“, — dedilar.

### ZARIF HIKOYATLAR USTASI

Alisher Navoiy davri Hirotida kichik hikoya janri, ayniqsa, tez rivojlanadi. Chunki, XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida bu shaharda o‘ziga xos bir adabiy muhit vujudga kelgandi. Dastlab Abdurahmon Jomiy, keyinchalik Navoiy sardorlik qilgan bu katta ijodiy maktabda ilmiy-nazariy bahslar, qissaxonliklardan tashqari voizlik, latifago‘ylik, lutf va zarofatga jiddiy e‘tibor berilardi. Mushoira-yu mubohaalarda adib va noqillar o‘z nutqlarida o‘tmish va zamon voqealari, buyuk kishilar hayoti va faoliyati xususida hikoyatlar keltirishar, Qur’oni karim-u Payg‘ambar hadislaridan qiroat qilishardi. Keyinchalik bunday hikoyatlar „Habibus siyar“, „Makorim ul-axloq“, „Majolis-un oshiqin“, „Badoye’ ul-vaqoye‘“, „Nafahot ul-uns“, „Futuvvatnoma“ singari asarlar tarkibiga kiritildi. Ulug‘ adib Husayn Voiz Koshifiyning o‘g‘li Safiy ham ana shunday hikmatomuz hikoyatlar mualliflaridan biridir.

Mavlono Faxriddin Ali Safiy 1463-yili Sabzavorda dunyoga keladi. Uning bolaligi ona shahrida o‘tadi, yigitlik yillari Hirot madrasalarida o‘qiydi. Keyinchalik Samarqandga borib, Xoja Ubaydulla Ahrorga murid bo‘ladi va kotiblik qiladi. 1504-yildan boshlab Faxriddin Hirotning jome’ masjidida otasi o‘rnida voizlik qiladi va madrasalarda dars aytadi. Hirot Buxoro amiri Ubaydullaxon tomonidan qamal qilinganda adib bir yil davomida zindonda yotadi, ozod bo‘lgach, Gurjistonga hijrat qildi. Eron safaviylarining Hirot uchun janglari paytida Safiy shaharga qaytib, voizlik ishini davom ettirdi. U Abdurahmon Jomiydan ta’lim olgan, Vosifiy bilan yaqin do‘st bo‘lgan.

Safiy 1534-yili Hirotida vafot etadi.

Faxriddin Ali Safiy nozikta’b shoir, fiqh donishmandi, zarofatli hikoyanavis, nuktadon muarrix sifatida ko‘plab asarlar yozgan, tarjimalar qilgan. Ammo, bizga qadar adabiy merosidan

„Rashahot ul-ayn ul hayot“, „Mahmud va Ayozi“, „Kashf ul-asror“, „Latoif ut tavoif“, „Lugʻatnoma“ singari asarlarning dastxatlariga yetib kelgan, xolos.

Oʻzbekiston FA akademigi Boʻriboy Ahmedovning taʼkidlashicha, „Rashahot-ul-ayn-ul hayot“ni yozishda Safiy Xoja Muhammad Porsoning (1419-yili vafot etgan) „Fasl-ul-xitob“, Shahobiddin — Ibni Amir Hamzaning (1405-yili vafot etgan) „Maqoloti Amir Kulol“, Muhammad al-Buxoriyning (XII asr) „Maslak-ul-orofin“, Mavlono Muhammad Karzining (1516-yili vafot etgan) „Silsilatun orifin va tazkirat as-siddiqin“ asarlaridan ijodiy foydalangan“ (B.Ahmedov. Oʻzbekiston xalqlari tarixi manbalari. 1991, 159-bet).

Ushbu asarda yozuvchi naqshbandiya tariqati shayxlarining hayoti va faoliyatini yoritgan. Kitobning Xoja Ubaydulla Ahrorga bagʻishlangan qismi muallifning ustozini bilan boʻlgan muloqotlari, kundaliklari, shaxsiy kuzatishlari taassuroti asosida yozilgan. „Rashaxot“ naqshbandiya tariqati tarixi, uning tarqalishi, bu suluk allomalarining maʼnaviyatini bilish jihati-dangina emas, balki XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi Movarounnahr iqtisodiy, ijtimoiy hayotini oʻrganishda ham qimmatli manba hisoblanadi. Bundan tashqari, undagi baʼzi maʼlumotlar Xoja Ubaydulla Ahror va Abdurahmon Jomiy-larining ijodiy tarjimai holini yaratishda, irfoniy tafakkur tarixini oʻrganishda tadqiqotchilarga asqotmoqda. Shuningdek, ushbu risola oʻsha davrdagi Movarounnahr-dagi feodal munosabatlarni, xoʻjalik yuritish, soliq tizimi, qoʻshni oʻlkalar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarni oʻrganishda ham tarixiy ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, risola Sharqning buyuk mashoyixlari faoliyatini oʻrganishda ham muhim sarchashmalardan biri hisoblanadi.

Faxriddin Ali Safiy zarif hikoyatlar ustasi sifatida shu davr adabiyotida oʻziga xos mavqega ega. Zeroki, u Sharq adabiyotida birinchilardan boʻlib, oʻzigacha oʻtgan buyuk tarixiy shaxslar, adiblar haqidagi hikoyatlarni turli kitoblardan yigʻdi, xalq ogʻzidan yozib olib „Latoif ut-tavoif“ („Turli toifalar haqidagi latifalar“) kitobini (1481) yaratdi va Turkiston hokimi Muhammad Sayfulmulukka taqdim etdi. Asar muqaddima va xotimadan tashqari, 24 bobdan iborat boʻlib, mavzu hamda gʻoyaviy yoʻnalishi jihatidan rang-barang latifalarni oʻz ichiga olgan. Yozuvchi ularda halollik, rostgoʻylik, poklik, taʼzim-

tavoze, zukkolik, suxandonlik, nuktasanjlik, mehnat evaziga kun kechirish va boshqa ko'p insoniy xislatlarni targ'ib etadi, insonparvar adib sifatida oddiy mehnatkash xalqni ta'rif va tavsif etadi. „Latoif ut-tavoif“ juda katta ilmiy, adabiy qimmatga ega. Chunki, unda adib Ro'dakiy, Firdavsiy, Anvari, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Mirzo Boysunqur, Ulug'bek singari 88 ta shoir va yozuvchi haqida ma'lumot beradi, asarlaridan ba'zi namunalari keltiradi; 20 ta badiiy-she'riy san'at xususida bahs yuritadi va ularni ishonchli misollar bilan isbotlaydi. Shu kitob tufayli ayrim hikoyatlar keyinchalik asardan asarga o'tib yuruvchi naqlarga aylandi. Buyuk bobomiz Navoiy „Majolis un-nafois“ asarida Safiy iste'dodiga yuqori baho berib, shunday yozadi: „*Mavlono Husayn Voizning o'g'lidir. Bag'oyat darveshvash va foniysifat dardmansheva yigitdir. Hiriyan Samarqandga hazrat Xoja Ubaydulloh Ahror suhbatig'a musharraf bo'lur uchun bordi va andoq derlarkim anda qabul sharafin topib, irshod va talqin saodatig'a sarafroz o'lub, yana Xurosonga keldi. Tab'i xub voqe' bo'lubturkim, bu matla' aningdurkim:*

*Bo labi la'l-u, xat-u g'oliyagun omadai,  
Ajab orasta az xona burun omadai.*

(Mazmuni: *La'idek qizil lab va xush is bilan kelib, ajoyib bezak bilan uydan chiqibsan*).

Demak, Faxriddin Ali Safiyning barcha asarlari juda katta ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ega. U o'sha davr Movarounnahr xalqlari ma'naviyati hamda adabiy, axloqiy qarashlari tarixini o'rganishda kamyob durdonalar hisoblanadi.

## **Safiy hikoyatlaridan**

Shiddatli janglardan so'ng Habash podshosi Yaman hokimi Sayfi Ziyazan ustidan g'alaba qozondi. Sayfi yurtidan qochib, Eron shohi Anushervondan madad so'radi. U o'z lashkaridan uch ming yigitlarni ajratdi.

— *Ey, Anushervon, ellik minglik lashkarga uch ming sipohiy qanday bas kela oladi?* — so'radi Ziyazan.

— *Ko'p o'tinni ozgina otash ham yondirib yuboradi,* — javob berdi Anushervon.

\* \* \*

Iskandar Eronga qarshi lashkar tortishga tayyorgarlik ko'ra-  
yotganini eshitgan Doro uni vahimaga solmoqchi bo'lib, „Doro  
shoh sakson ming yigitlar orasida javlon urmoqda“, degan gap  
tarqatadi. Buni eshitgan Iskandar, „chaqqon qassob uchun  
qo'yning ko'p bo'lishi ahamiyatsiz“, degan xabar yuboradi.

\* \* \*

Bir sipohi Xorun ar-Rashiddan in'om tiladi.

— *Shunday uzun soqol bilan aqling kirmabdi, mendan  
ehson so'raysan*, — dedi Xorun ar-Rashid.

— *Taqsir, kishining soqoli o'ssa, aqli ko'sa bo'ladi, degan  
naqlni eshitmaganmisiz?* — dedi sipoh.

Bu lutf Xorun ar-Rashidga xush yoqdi va sipohiyni  
in'omdan serob etdi.

\* \* \*

— *Sho'rvani arab tilida nima deydilar?* — so'rashibdi bir  
arabdan.

— *Saxun!* — javob beribdi arab.

— *Sovug'ini-chi?* — yana so'rashibdi.

— *Biz sho'rvani sovutmasdan ichib qo'yamiz*, — ta'kidlabdi u.

\* \* \*

Ota-bola aybdorni hokim oldiga eltib, avval otasini yuz darra  
urdilar, g'ing demadi. So'ngra o'g'lini yotqizib, bir darra urib  
edilar, nola-faryod chekdi.

— *O'zingga yuz darra suqqanda „voy“ demading, nega endi  
buni bir darra urgandayoq faryod chekasan?* — so'rabdi jal-  
lodlar.

— *Oldingi kaltaklar mening tanamga botgandi, bu zarbalar  
esa, jigarimga tegmoqda*, — debdi ota.

\* \* \*

Bir Sayyid bilan oming o'zaro xusumati bor edi. Muno-  
qisha paytida Sayyid, „Vo Muhammadoh!“ deb baqirsa, omi  
„Vo odamoh!“ deb qichqirdi.

— *„Vo odamoh“ning ma'nosi nima?* — so'rashdi omidan.

— *U o'zini Muhammadning farzandi sanab, „Vo Muham-  
madoh“ demoqda. Men esa „men odam farzandiman“ deyapman.  
U Muhammad avlodidan ekanligini isbotlashi lozim, mening  
odam farzandi ekanligimga hech shubha bo'lmasa kerak!?*

\* \* \*

Bir donishmanddan soʻrabdilar:

- *Qay mahalda ovqatlanish maʼqul?*
- *Badavlat kishi qorni ochiqqanda, kambagʻal esa, taom topganda yegani maʼqul, — javob berdi donishmand.*

\* \* \*

Balx bozoridan oʻtib borayotgan Anvariylar bir izdihomni koʻrdi va borib quloq solsa, bir kishi qasidalarini oʻz nomidan oʻqir, hozirlar ofarin aytishardi.

Anvariylar oldinroqqa oʻtib soʻrabdi:

- *Doʻstim, oʻqiyotgan sheʼrlaringiz qaysi shoirniki?*
- *Anvariyniki!*
- *Anvariyni taniysizmi?*
- *Nima deyapsiz oʻzi, Anvariylar menman! — doʻq qilibdi sheʼrxon.*
- *Tavba, sheʼr oʻgʻrisini eshitgandim-u, shoir oʻgʻrisini eshitmagan ekanman! — debdi kulib Anvariylar.*

\* \* \*

Shayx Kamoli Xoʻjandiy sheʼrlarida „it“ soʻzini, Hasan Dehlaviy esa „dilband“ kalimasini koʻp ishlatisharkan. Bir shoir bularning birga muqovalangan devonlarini bir kishining qoʻlida koʻrib:

- *Bularni ajratib, bir-biridan uzogʻroqda tut, yana Kamolning „itlari“ Hasanning „dilbandlarini“ yeb qoʻymasin! — debdi shoʻxlik bilan.*

## USTODGA YODNOMA

Oʻn beshinchi asr Sharq ilm-fani zarvaraqlarini koʻzdan kechirar ekanmiz, har bir sahifa boʻstonida ulugʻ bobokalonimiz, ustod sanʼatkor Alisher Navoiyning muborak nafasi esib turadi. Zeroki, bu obidalar Navoiy maslakdoshi yoki shogirdi, yoki shoirning moddiy va maʼnaviy koʻmagi bilan kamolotga yetgan ijodkor, yoxud ulugʻ shoir ijod maktabidan saboq olib, uning qutlugʻ anʼanasiga sodiq biror sanʼatkor tomonidan yaratilgan boʻladi. Mashhur yozuvchi Sadridin Ayniyning aniqlashicha, Suhayliy, Sayfiy, Osafiy, Binoiy, Kotibiy, Hiloliy, Koshifiy, Mushrifiy, Bihishtiylar, Faxriylar singari oʻnlab fors-tojik shoirlari bevosita Navoiyning moddiy va maʼnaviy yordamida kamolot choʻqqisiga koʻtarilgan.

„Badoye’-us sanoye’“ asarining muallifi Atouullo Mahmudi Husayniy ham buyuk mutafakkir yordami, madadidan bahramand bo’lgan ijodkorlardan hisoblanadi.

Atouullo Mahmud Husayniy XV asrning 30—40-yillari o’rtasida Nishopurda tug’iladi. U Hirotida tahsil ko’radi, tez orada „adabiyot bilimdoni“ sifatida shuhrat qozonadi. Iste’dodli adabiyotshunosning dovrug’ini Navoiy ham eshitadi. Navoiy Atouullo bilan shaxsan tanishib, uni moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlaydi. Mashhur tarixchi G’iyosiddin Xondamirning „Makorim-ul-axloq“ asarining to’qqizinchi bobida hikoya qilinishicha, Hirotning „Ixlosiya“, „Sultoniya“ singari katta madrasalarida mudarrislik qilgan Atoulloga Navoiy davlat hisobidan maosh ajratgan va „jannatmisol“ hovli in’om etgan. „Xulosat ul-axbor“, „Makorim ul-axloq“, „Majolis un-nafis“ kabi manbalardagi ma’lumotlarga qaraganda, Navoiy Atoulloning hayoti va faoliyatini doim kuzatib borgan, o’z huzuriga chorlab, adabiyotshunoslik masalalari bo’yicha suhbatlar qurgan, badiiy san’atga doir asar yaratishga undagan. „Badoye’ us-sanoye’“ ana shu ko’mak va da’vat natijasida yuzaga kelgan.

Atouullo Mahmud Husayniy adabiyotshunoslikka doir bir necha asarning muallifi, iste’dodli shoir hisoblanadi. Afsuski, hozirgacha ana shu zabardast donishmandning hayoti va ijodiy merosi e’tibordan chetda qolib kelmoqda. Ayrim maqolalardagi Atoulloga doir fikrlar chalkash, noaniq. Iste’dodli sharqshunos olim, professor R. Musulmonqulov yaqin o’n yil davomida olimning ijodiy merosini o’rgandi, dunyo dastxat xazinalaridagi asarlarining nusxalarini qiyosiy tahlil etib, „Badoye’ us-sanoye’“ning ilmiy-ommaviy nashrini („Irfon“ — 1974) yaratadi. „Atouullo Mahmud Husayniy va fors-tojik she’riyati poetikasi masalalari“ risolasini yozdi. Olimning ko’p yillik zahmati natijasida shoirning hayot yo’li va ijodiy merosi mukammal aniqlandi. Tadqiqotchi kitobga yozgan so’zboshisi va ilmiy risolasida Atouullo va uning „Badoye’ us-sanoye’“ asarining yaratilishi haqida fikr yuritib, Alisher Navoiy bilan Atouullo o’rtasidagi yaqin do’stlik, ijodiy hamkorlikni alohida qayd etadi. XV asr adabiy-nazariy qarashlarida katta bir voqea bo’lgan bu asar bevosita Navoiyning xohishi, moddiy-ma’naviy homiyligi tufayli yaratilganligini isbotlaydi va „*bu bir tomondan, u (Navoiy)ning oliyjanob inson, olim va adiblarning murabbiysi hamda homiysi ekanligini ko’rsatsa, ikkinchi*

*tarafdan, o'zbek va forsiy zabon xalqlarning ikki ulug' farzandi o'rtalaridagi samimiy munosabatlarni ko'rsatadi*“.

Haqiqatan ham, Navoiy bilan Atouullo bir-biri bilan doim muloqotda bo'lgan, bir-birlarining ijodiy ishlarini hamisha kuzatib borgan. Masalan, Navoiy „Majolis un-nafois“da Atoulloning iste'dodi haqida samimiy fikrlarni aytib, bir o'rinda „Badoye'i Atoiy“ nomli asar yozayotganligini ta'kidlasa, keyinroq bu asarni bitib, „bayozg'a borg'oni“ni aytadi.

„Badoye' us-sanoye“ „Debocha“ va „Xotima“dan tashqari yana uch katta bobdan iborat. Unda 150 ga yaqin so'z san'ati va qisman adabiyotshunoslik atamalarining qonun-qoidalarini bayon etib, izohini beradi, mashhur shoirlar va o'z she'rlaridan namunalar keltiradi. Ko'p adabiyotshunoslardan farqli o'laroq, Atouullo san'at va atamalarni mukammal yoritadi, mufassalroq sharhlab, xarakterli dalillar keltiradi. Asar juda katta adabiy, nazariy, ilmiy ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, adabiyot tarixini, ayrim adabiy-tarixiy hodisalar va faktlarni o'rganishda ham g'oyatda qimmatli manba hisoblanadi. Zeroki, Atouullo ellikka yaqin shoirlar ijodidan misollar keltirgan, mashhur san'atkorlar bilan bir qatorda, hali ilm-adab ahliga kam ma'lum bo'lgan Bahromiy, Rizoiy, Nishopuriy, Kotibiy, Naziriy kabi ijodkorlarning she'rlaridan ham namunalar bergan.

„Debocha“da Atouullo o'z asarini „mulk-u millatning quvvati“ Alisher Navoiyga bag'ishlanganini alohida ta'kidlaydi. Bundan tashqari, olim „Badoye' ul-sanoye“ning ko'p joylarida, turli munosabatlar bilan Navoiyni qayta-qayta tilga oladi, unga atab yozgan she'rlarini ilova qiladi, shoir asarlaridan baytlar keltiradi. Atoulloning Navoiy haqidagi fikr va she'rlari ulug' shoir hayoti va ijodining ayrim tomonlarini o'rganishda jiddiy ahamiyatga molik. O'z ustodi, homiysiga atab bitilgan mazkur asarning ko'p o'rinlarida Navoiy bilan bo'lgan munosabati haqida samimiy va mamnuniyat bilan yozadi. Chunonchi, Alisher Navoiy nihoyatda muhtasham madrasa qurdirgani, 1486-yilning 9-iyulida uning ochilish marosimi bo'lganini qalamga oladi:

„Chun madrasa soxt Mir bo ilm-u adab,  
Farmud maro ifodai ahdi talab.  
Chun dar shashumi mohi rajab kard yuklos,  
Ta'rix talab az „shashumi mohi rajab“.



(Mazmuni: *Mir (Navoiy) ilm-u adab bilan madrasa qurib, meni unga mudarris etib tayinladi. Bu voqea rajab oyining oltinchisida bo'lgani uchun uning tarixini „shashumi mohi rajab“, ya'ni rajab oyining oltinchi sanasidan top).*

Darhaqiqat, „shasho'mi mohi rajab“ning tarix moddasi hijriy 891-yil, rajab oyining oltisi, melodiy 1486-yil, 9-iyul bo'ladi. Ayrim nasriy va she'riy misralarda esa, bevosita buyuk shoirning hayoti hamda faoliyati bilan bog'liq sanalar, voqealar zikr qilinadi.

Quyidagi to'rtlikda Alisher Navoiyning Astrobodga hokim etib yuborilishi sanasi o'z ifodasini topgan:

On miri olisayr — Alisher  
K-o'rost kamoli fazlu tadbir,  
Chun kard qabul boz amorat,  
Ta'rix shudash: „amorati mir“.

(Mazmuni: *Fazl-u tadbirda kamol bo'lmish ul oliyjanob mir Alisher yana amirlikni qabul etganda tarixi „amorati mir“ bo'ldi).*

„Amorati mir“ning tarix moddasi hijriy 892, melodiy 1487-yil bo'ladi.

**Sahli mumtane'** — (oson-u nomumkin) istilohini sharhlar ekan, Atoullo Navoiyning „turkiy va forsiy tildagi asarlari“ ham „sahli mumtane'“dir, deydi-da, „bu kitob ul hazratning davlat va himmatlari, da'vatlari bilan yozib bitkazildi“ (204-bet), deb alohida ta'kidlaydi.

Atoullo Mahmud Husayniy madadkori va homiysi Navoiyga asarlarining manzur bo'lishini istar, „unda biron bir xato uchrasa, uzr raqamin chekib, mushk hidi anqib turuvchi qalamlar bilan isloh etishlarini“ (12-bet) xohlar edi. Alisher Navoiy o'z vaqtida „Ma'lum emaskim, bu fanda hargiz hech kishi oncha jome' va mufid kitob bitmish bo'lgay“ („Majolis un-nafois“), deb risolani yuksak baholagan edi.

Atoulloning „Badoye' ul-sanoye“ asari sharqshunos olim Alibek Rustamov tomonidan o'zbek tiliga ham (1981-y.) tarjima qilingan. Tarjima xususida shuni ta'kidlash lozimki, „Badoye' ul-sanoye“ nazariy asar bo'lgani uchun uslubi og'ir, adabiy atamalar XV asr adabiyotshunosligi an'analariga qat'iy rioya qilingan holda qo'llanilgan. Mutarjim asl nusxani bus-butun saqlashga muvaffaq bo'lgan. Matndagi ko'pgina atama va iboralarning tutib qolinishi, she'riy parcha, misollarning aslini

matn tarkibida keltirib, mazmuni yoki sharhining izohda berilishi ham maqsadga muvofiqdir.

O'rta osiyo xalqlari adabiy-estetik qarashlari tarixining ayrim jihatlarini o'rganish, Navoiy faoliyatining ba'zi tomonlarini yanada to'laroq tasavvur etishga yordam beradigan bu kitob hozirgi adabiyotshunoslik, ayniqsa, aruzshunoslikda muhim dasturulamal bo'lib qoladi.

## MUSAVVIRLAR SARVARI

O'n beshinchi asr Sharq ilm-fani, madaniyati taraqqiyoti tarixida o'ziga xos bir palla bo'ldi. Zeroki, Amir Temur 150 yillik mo'g'il istilosiga barham berib, tadbirkorlik, jasorat va aql-zakovat bilan ulkan bir imperiyani tashkil etdi. Uning bemahal vafotidan so'ng to'rt yil vorislik uchun jang bo'lgan ersa-da, ammo Shohruh davrida 40 yil jiddiy urushlar yuz bermadi. Temuriy shahzodalar to'plangan son-sanoqsiz boyliklar-u turli mintaqalardan markazlarga jalb etilgan hunarmandlar, olimlarni, madaniyat, ilm-fan, san'at, badiiy ijod, me'morchilikni ravnaq toptirishga safarbar etdilar. Natijada Hirot, Samarqand, Balx, Buxoro shaharlarida madaniy hayot, san'at gul-gul yashnadi. Jumladan, Mirzo Boysunqur tashkil etgan Hirot „Nigoriston“ida ko'plab san'at va hunar maktablari tashkil etiladi; ularda „yuzlab hunar egalari“ (Xo'jandiy) tarbiyalanadi, bular butun Sharq nafis san'ati, ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shadilar. Ana shulardan biri daho san'atkor — „Monii Soniy“, „Sharq Rafaeli“ **Kamoliddin Behzoddir.**

Kamoliddin Behzod 1455-yili Hirotida ziyoli oilasida dunyoga keladi. Yoshligida ota-onasidan yetim qolgan Behzod mustaqil savod chiqaradi. Naqqoshlig-u musavvirlikka mehr qo'yadi. Yigitlik onlarida shoh kitobdori Amir Ruhullohdan rassomlik sirlarini o'rganadi, keyin esa o'zi mustaqil suratda Husayn Boyqaro kutubxonasida kitoblarga ziynat beradi, ixcham suratlar — miniaturalar chiza boshlaydi. Bu orada u Sulton Ali Mashhadiy va Saidahmad Tabriziylardan naqqoshlik bo'yicha dars oladi. Behzod kamoloti va ijodining ravnaqida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning ma'naviy hamda moddiy homiyliklari muhim omil bo'ladi. Husayn Boyqaro esa uni 1487-yili o'z saroyining kitobdori etib tayinlab, chorbog'i o'rtasida maxsus ijodxona qurib beradi. Kitobxonadagi *muzahhib*,

*xalkor, zarko‘b, lavvoh, sahhof, jadvalkash, naqqosh va qog‘ozrez-u davotchilar* bevosita Behzod rahbarligida ishlashardi. Xuddi shu davrda Hirot nafis kitob va tasviriy san‘atining markaziga aylanadi, yuzlab kitoblar, bayozlar ko‘chirilib, ziynatlanib, madaniyatimizning zarvaraqlariga aylanadi.

Ismoil Safaviy 1512-yili Hirotni zabt etgach, hamma yoqni vayron qiladi, ma‘rifat maskanlarining kuli ko‘kka sovuriladi, ko‘plab hunar egalari, jumladan, Behzodni Tabrezga eltadi. Behzod bu yerda ham shoh kutubxonasida ishlaydi hamda taxt vorisi yosh shahzoda Tahmasbga rassomlik sirini o‘rgata boshlaydi. 1524-yili Ismoil Safaviy vafot etib, o‘rniga 12 yashar Tahmasb taxtga o‘tiradi. Lekin saroy atrofidagi mashmashalarga bardosh berolmagan Behzod Hirotga qaytib, yana ijodga sho‘ng‘iydi va 1535-yili vafot etadi. Uning qabri Hirot yaqinidagi Muxtor tog‘i etagida, maqbarasi ilm-adab ahlining ziyo-ratgohi sifatida saqlanmoqda.

Behzoddan bizga qadar rang-barang janrlarda ko‘plab asarlar qolgan. U Sharq tasviriy san‘atini janr, mavzu, g‘oyaviy yo‘nalish, tuzilishi, ranglar tanosibi, shakl va voqealar mutanosibligi jihatidan yangi taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘taradi; oddiy hayotiy voqea-hodisalardan tortib, mashriqzaminda keng yoyilgan an‘anaviy lavhalar asosida go‘zal miniaturalar chizdi, daho allomalarning shoh asarlarini, tarix kitoblarini bezadi; zamona-sidagi buyuk shaxslarning portretini yaratdi.

Rassomning dastlabki miniaturalari Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan Sa‘diyning „Bo‘ston“ asariga 1478-yili chizilgan asarlardir. Bu dastnavis Dublindagi Chester Bitti kutubxonasida saqlanmoqda. Undagi o‘ndan ortiq miniaturalarda shohlar, zodagonlar, olim-u fuzalolar, oshiq-u darveshlar, dasht-u sahro, bog‘-u rog‘lar, anhor-u chashmalar sehrangiz bo‘yoqlarda tasvirlanadi. 1488-yili „Bo‘ston“ni Sultonali Mashhadiy Husayn Boyqaroning xohishiga ko‘ra ko‘chiradi, Yoriy Muzahhib ziynatlaydi. Behzod esa unga 6 ta surat chizgan va tagiga „Amali Behzod“ deb qayd etgan. Ushbu dastxatdagi asarlarda tabiat manzaralari — gulzor-u o‘rmonzorlar, zilol suvli chashma-yu anhorlar, shohlar-u sipohiylar, ilm-adab ahli, oshiq-u ma‘shuqlar, saroy a‘yonlari, oddiy mehnatkash xalq vakillari siymosi yuksak san‘atkorlik bilan tasvirlangan.

1467-yili Sherali Xattot mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“sini ko‘chirgan. Mazkur qo‘lyozma

AQShning Baltimor shahridagi Jon Xopkins universiteti kutubxonasida saqlanmoqda. Asardagi 12 rasmning sakkiztasi Behzod mo'yqalamiga taalluqli. Ularda shoh saroyidagi qabul marosimlari, jang manzaralari, binokorlik jarayoni-yu, ov palasi aks topgan. E'tiborlisi shundaki, ushbu miniaturalarda aks ettirilganlar qiyofasi tabiat manzaralari, qasr-u uy anjomlari bilan g'oyatda mutanosib-payvast tarzda tasvirlangan; har bir shaxs o'z qiyofasiga ega, anjom-u liboslar sharqona milliy ruh hamda shakldadir; ommaviy lahzalar tasvirida san'atkor ranglar mutanosibligining eng nozik jihatlarini saqlashga erishgan.

Shayx Sa'diy hikoyatiga chizilgan „Doro va yilqiboqar“ miniaturasida shahanshohning osmono'par tog' etagidagi yamyashil o'tloqda yilqiboqarlar bilan uchrashib, kiborlarga xos shavkat, viqor va kelbat bilan suhbat, ikkinchi otboqarning sanochdan qimiz olib tavoze bilan uzatishi aks etgan bo'lsa, „Amir Temur saroyida qabul“ suratida mutlaqo boshqacha manzara ko'zga tashlanadi. Bog' o'rtasidagi muhtasham saroy. O'rtada Amir Temur salobat to'kib o'tiribdi. O'ng qo'lda saroy a'yonlari, chap qo'lda esa turli mamlakatlardan Sohibqiron qabuliga kelgan mehmonlar. Ulardan tashqari, ikki kishi eshik oldida turibdi, bir necha qora tanli ayollar ham bor. Rassom ana shu katta-gavjum shaxslarning har birini faqat o'ziga xos qiyofada, ko'rinish-u harakatda, libos-u nigohda turli-tuman rangda tasvirlagan. Ayni paytda yaxlit mazmun ifodalanishi, yagona kompozitsion qurilishga ega bo'lishiga erishgan. Boshqa bir suratda „Xevaning zabt etilishi“ manzarasini nihoyat darajada ko'tarinki, jangovar ruhda tasvirlaganki, asarni tomosha qilgan kishi Behzodning muhoraba lahzalarini, olomon jang manzaralarini kichik hajmdagi suratlarda naqadar yuksak mahorat bilan aks ettira olganligining guvohi bo'ladi.

Agar Behzod ijodining dastlabki yillarida ko'proq tarixiy, zamonasining dolzarb mavzularida (masjid qurilishi, tuyalar jangi, Doro sarguzashti, Amir Temur saroyida qabul marosimi), qahramonlik mavzularida asarlar yaratgan bo'lsa, keyinchalik ko'proq an'anaviy, xalq og'zaki ijodi va lirik qahramonlar timsollarini yaratishga kirishadi. Jumladan, u Nizomiy Ganjaviy „Xamsa“si, Amir Xusrav Dehlaviyning „Majnun va Layli“ (1492-y.), Farididdin Attorning „Mantiq ut-tayr“ (1494-y.) asarlariga g'oyatda go'zal miniaturalar chizgan. Bu asarlar

doston yoki hikoyatda tavsiflangan voqealarning tasvirlari mo'jaz bir tarzda o'zida mujassamlashtirgani, qahramonlarning har biri o'ziga xos bir tarzda ifodalanganligi bilan kishi diqqatini o'ziga tortadi. Masalan, Nizomiy „Xamsa“siga chizilgan „Layli va Majnun maktabda“ nomli surat o'zining har jihatdan mukammalligi bilan diqqatga molik. To'rt tomoni naqshinkor binolar, maysazor-u gullar, sermeva daraxt og'ushidagi sinfonada bir guruh bolalar dars o'qimoqda, boshqa bir to'dasi esa bolalarga xos sho'x-u shanglik bilan o'ynashmoqda, ovqatlanishmoqda, ba'zilari liboslarini kiymoqda. Ammo Layli bilan Majnun mahzun, chor atrofdagi voqeaga beparvo, allaqanday xayolot olamiga g'arq, bir-birlarini zimdan kuzatib o'tirishibdi. Xusrav Dehlaviyning „Majnun va Layli“ dostoni asosida yaratilgan „Do'stlarining Majnunni otasi huzuriga keltirishlari“ miniatursi ham benavo va nomurod oshiqning zohiriy hamda botiniy dard-alamini bokira bir tarzda aks etganligi bilan mumtozdir. Behzod har bir asarda voqeaning haqqoniy, jozibador tasvirlanishiga, shakl va mazmun mutanosibligiga erishishga, tasvirda aks ettirilgan har bir shaxs qiyofasi, libosi-yu xatti-harakatining tasviri ayricha bo'lishiga, ranglarning turli xil, ayni paytda tiniq, shaffof chiqishiga erishgan buyuk san'at-kordir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Behzod Sharq miniatursi san'atiga hayotiylik, haqqoniylikni olib kirgan ijodkordir. Zeroki, u tarixiy, zamonaviy mavzularda o'nlab asarlar yaratish bilan birga, o'zi bevosita muloqotda bo'lgan, muruvvat ko'rgan maslakdoshlari, zamondoshlarining suratlarini chizib, tasviriy san'atimiz tarixiga portret janrini olib kirdi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulloh Hotifiy, Sulton Ali Mashhadiy, Hokim Muhammad, Sulton Husayn Boyqaro, Shayboniyxon kabi tarixiy shaxslarning portreti Behzod mo'yqalami tufayligina bizgacha yetib kelgan. Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur „Boburnoma“da Husayn Boyqaroning shakl-u shamoyili, aft-u andomini so'z bilan g'oyatda komil tasvirlagan. Agar biz Bobur tasvirini Behzod chizgan „Sulton Husayn Boyqaro“ suratiga qiyoslasak, musavvir asarining naqadar haqqoniyligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz.

Kamoliddin Behzod ijodi keyingi asrlar Xuroson-u Movarounnahr, Hindiston miniatursi san'ati rivojiga sezilarli ta'sir etgan. Qosim Chehrakusho, Mahmud Muzahhib, Mullo Dar-

vesh Muhammad, Do'sti Devona, Muhammadmurod Samarqandiy singari musavvirlar Behzod miniaturalar maktabidan bevosita saboq olib, uning ilg'or an'analarini muvaffaqiyat bilan davom ettirgan san'atkorlardir.

Behzod ijodini tadqiq va targ'ib etishda san'atshunos, faylasuf, tarixchi olimlardan M.Ashrafiy, O'.Pulodov, O.Usmon, I.Nizomiddinov hamda N.Norqulovlarning xizmatlari katta. Jumladan, sharqshunos olim, professor Orif Usmonov „Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi“ (1974) risolasini chop ettirgan.

### ZAMONA HOFIZI

Hirotd ilm-adab ahli orasida duv-duv gap: shoirlar orasida bir yigitcha paydo bo'libdi, hofizasi keng, g'azalni dahanaka ijod etarkan, qiroati baso maqbul emish. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy kunlardan bir kun Sohob Doroga:

— *O'sha badehago'y yigitchani bizning navbatdagi she'riyat majlisimizga taklif etsangiz, o'zining xushilhon xonishidan bizni ham bahramand etsa,* — dedi.

— *Xo'p bo'ladi, Amiri Kabir,* — ta'zim qildi Sohob Doro.

Navoiyning xos xonasiga Hirotdning eng sara shoirlari jamlangan. Ustod Abdurahmon Jomiyning fotihasi bilan mushoira boshlandi. Birin ketin Riyoziy, Ahliy, Fazliy, Suhayliy, Hotifiylar yangi g'azallarini ustodlar huzurida o'qidilar. Navbat yangi mehmonga kelganda, u ta'zim bilan o'rnidan turdi-da, bir g'azal o'qidi. „Ham“ radifli g'azal maqtaida „Hiloliy“ taxallusi qo'llanilgandi. Ushbu she'rni mahliyo bo'lib tinglab o'tirgan Navoiy shoir qo'lidagi qog'ozni oldi-da:

— *Bunday bokira g'azalga yarimta taxallus yetarli emas, u butun bo'lishi kerak,* — deb „Hiloliy“ning ustidan xat chizib, „Badriy“ deb yozib qo'ydi.

Shundan so'ng bu shoir o'z g'azallarida „Hiloliy“ yoki „**Badriddin Hiloliy**“ taxallusini ishlatadigan bo'ldi.

„Zamonasining Hofizi Sheroziysi“ deb dong taratgan, Jomiy va Navoiydek buyuklarning nafasi tekkan, ularning bevosita homiyligidan bahramand bo'lgan Hiloliy XV asrning 70-yillarida Astrobodda dunyoga keladi. Alisher Navoiy „Majolis un-nafois“ („Go'zal majlislar“) tazkirasida uni „turkiynajod“ deb ataydi. Bo'lajak shoir ibtidoiy ta'limni o'z shahrida olgach, 1491-yili o'qishni davom ettirish maqsadida Hirotdga keladi

hamda Navoiy va Jomiylar ehtiromiga musharraf bo‘ladi. Ular madrasa tolibi Hiloliyni o‘z panohlariga oladilar: ma’naviy va moddiy ko‘maklarini ayamaydilar. Aslida zahmatkash, ilmga chanqoq yigit ana shu madadkorlik tufayli tez orada „She’riyatning barcha jabhalarida mahorat paydo qildi va o‘z zamonasining yagonasiga aylandi“ (Faxriy Hirotiy). Hiloliyning favqulodda qudrati, ilm egallashdagi betinim intilishlari, ijod zahmati yo‘lidagi bardoshi haqida o‘sha davr adabiyotshunoslari-yu tarixchilaridan Vosifiy, Sommirzo va Xondamirlar ko‘p iliq fikrlar yozib qoldirganlar. Jumladan, Bobur Hiloliyning quvvai hofizasi haqida fikr yuritib, „o‘ttiz-qirq ming she’r bilardi. Nizomiy va Xusrav Dehlaviy „Xamsa“larini yoddan o‘qirdi“, — deydi.

Hayot sahnasidan Jomiy-yu Navoiylarning birin-ketin o‘tishlari, Husayn Boyqaro (1506-y.)ning vafoti gul-gul yashagan Hirot, undagi ilm-adab ahli boshiga ko‘p kulfatlar keltirdi: shahar xonavayron qilindi, ko‘rkam binolar, madrasa-yu maktablar, nigoriston-u tabobatxonalarining kuli ko‘kka sovurildi, ko‘p fozil kishilar nisbatan osoyishta Hind-u Arabga hijrat qildilar. O‘z yurtida yashab qolgan adiblar safaviylar, shayboniyalar hamda Ubaydulloxon tarafdorlari tomonidan ta’qib, quvg‘in qilindi, qatl etildi. Jumladan, Jaloliddin Ogahiy nomli shoir Amir Xusrav Dehlaviyning „Daryoi abror“ qasidasiga *tatabbu* tarzida asar yaratib, bir necha baytida zamonidagi zulm-zo‘rlilikni tanqid qiladi. Shu „gunohi uchun“ Hirot hokimi Amirxon farmoniga ko‘ra adibning tilini kesadilar; she’rlaridagi keskin mulohazalari sababli Ahmad Tabasiyning o‘ng qo‘li va tilini kesib tashlaydilar.

Ana shunday qonli va musibatli kunlarda ham Hiloliy Hirotni tark etmaydi. 1529-yili Ubaydulloxon Xurosonga hujum qilib, xalqni talaydi, Hirot ahliga zug‘umlar o‘tkazadi, ma’rifat ahli tahqir etiladi. Bu bedodlikka chiday olmagan Hiloliy Buxoro xonining bosqinchiligini la’natlab ikkita ruboiy yozadi. Shoirga hasadgo‘ylik va baxillik nazari bilan qarab yurgan Mavlono Baqriy va Mavlono Shamsuddin Qo‘histoniylar Ubaydulloxonga bu ruboiylarni jo‘natib, fitna uyushtiradilar. Natijada „Yagonai davron va nodirai zamon“ Hiloliy 1529-yilning oktabr oyida Hirotda qatl etiladi.

Hiloliy nozikbin shoir, ehtirosli olim, zabardast dostonnavis bo‘lgan. Afsuski, uning mukammal ijodiy merosi bizgacha

yetib kelmagan. Said Nafisiy, Kamol Ayniy, A'loxon Afsahzod singari olimlarning aniqlashlaricha, Hiloliyning hozircha bitta she'riy devoni, uch dostoni hamda qofiya ilmiga oid risolasi ma'lum. Shoir devoni *g'azal, qasida, ruboiy, qit'a, chiston, soqiynoma, muxammas* kabi janrlardagi asarlardan iborat.

Shoir devonini kuzatar ekanmiz, biz navqiron qalbning go'zallig-u shodlikka intilishini, gul gashti-yu bahor latofati, mahbubaning noz-u istig'nosi-yu mayning ruhafzo fayzi taran-numi vasfiga duchor bo'lamiz. Bunday kezlarda shoir chinakam tabiat shaydosi, go'zallik muhtalosi, chin sevgi fidoyisi sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi. G'azallarda biz gul, bahor, bo'ston, may, sog'ar kabi timsollarni ko'p uchratamiz:

*Kez, to imro'z bo ham sog'ari sahbo kashem,  
Keshro doman kashon to domani sahro kashem.  
Bog'-u bo'ston dilkash ast-u, ko'h-u sahro ham xush ast,  
Har kucho go'yi bisoti ayshro onjo kashem.*

(Mazmuni: *Tur, bugun birgalikda tong mayini sipqaraylik, bir-birimizning etagimizni tutib, sahro chetiga boraylik. Bog'-u bo'ston dilkash-u, sahro-yu tog'lar dilrabo, qayerni istasang, o'sha yerda aysh-u rohat qilaylik.*)

Ammo, Hiloliy she'riyatidagi bunday hayotbaxsh, ko'tarinki ruhni ko'pincha zamondan, nobop maslakdoshlardan, sarvatdor-u davlatmandlardan shikoyat, ba'zan ularni ro'yi-rost tanqid egallaydi. Shoir yorning toshbag'irligi-yu bevafoqligi, ag'yorning g'alamisligi-yu buzg'unchiligi, kajraftor falakning nobopligi zamirida bevosita nobakor hokimlar-u talonchi xon-u sultonlarni nazarda tutadi, tanqid qiladi, falak sho'badabozligidan qon qaqshab noliydi. G'azallaridagi „sitamkashi davron“, „diltangi falak“, „sar dar xok“, „kushtai g'am“, „jabriddai falaki kajraftor“, „rasvoi olam“ kabi so'z va iboralarda bevosita adibning g'am-hasrati, dod-u faryodi o'z aksini topgan. Xullas, Hiloliy lirikasida mavjud ijtimoiy tuzum illatlarini fosh etish, adolatparvarlik, ijtimoiy ruh hiyla kuchli. Juda ko'p g'azallarida „kajraftor falak“, „charxi kajraftor“, „buzilgan zamon“ so'z va iboralarni qo'llab, she'rning tanqidiy ruhini yanada oshirishga erishadi. Bir baytida shoir mening bu nola-yu fig'onim oy yuzli yor dastidangina emas, balki bu kulfatlarni mening boshimga teskari aylanuvchi charx soldi, deydi:



Nolai man in hama z-on mohi xushraftor nest.  
Harchi bo man kard davri charxi kajraftor kard.

Ba'zan, butun bir g'azal shikoyat motivida, tanqidiy ruhda yozilganligini ham kuzatish mumkin.

Hiloliy o'z asrining g'azal ustasi bo'lish bilan birga, masnaviyda mohir san'atkor hisoblanadi. Undan bizga qadar „Sifatul oshiqin“, „Shohu Darvesh“ hamda „Layli va Majnun“ dostonlari saqlanib qolgan. Hiloliyning har uch dostoni axloqiy-ta'limiy, insondo'stlik, adolatpeshalig-u ishq-muhabbat tasviriga bag'ishlangan. Chunonchi, „Shohu Darvesh“da tasvirlanishicha, hayotdagi turli-tuman to'siqlar, raqibning fitnasi, ayrim nobop guruhlarning baxilliklari ham maktabdagi o'qish, mehnat, hayotdagi ziddiyatlarni matonat bilan yengib o'tish jarayonlarida shakllangan Shoh va Darvesh o'rtasidagi metindek do'stlikka raxna sololmaydi. Shoh otasining vasiyati va do'stining maslahatiga ko'ra yurtni aql-zakovat bilan, adolat bilan boshqaradi, fuqaroparvarlik yo'lini tutadi.

Nizomiyning „Maxzan ul-asror“, Xusrav Dehlaviyning „Matla' ul-anvor“, Jomiyning „Tuhfat ul-ahror“ dostonlariga o'xshatma tarzida yaratilgan „Sifat ul-oshiqin“ dostonida Hiloliy *vaf*o hamda *sadoqat*, *halol-u poklik*, *ilm o'rganish*, *mehnatsevarlik*, *javonmardlik*, *xayr-u saxovat*, *hayo va tavozu*, *til va so'zlashuv odobi*, *halimlik* va *shirinsuxanlik*, *insondo'stlik* singari masalalar xususida pand-nasihati beradi. Ayni paytda, 20 bobdan iborat bu masnaviyda muallif *zulm-zo'rlik*, *jaholat* va *razolatni*, *tamagirlik-u dilozorlikni*, *bag'ritoshlig-u achchiqso'zlikni*, *tanballig-u beparvolikni*, *sudxo'rlig-u g'arazgo'ylikni* g'ayriinsoniy xatti-harakatlar sifatida qattiq qoralaydi. San'atkor har bir mulohazasini turli masal va hikoyatlar bilan, o'zi yashayotgan turmushdan olingan biron lavha orqali asoslab, tasdiqlab boradi.

Garchi Hiloliy „Layli va Majnun“ni yozishda ustozlar an'anasidan bevosita fayz topgan bo'lsa ham, ammo voqealar tafsiloti, timsollar talqini, xususan, badiiy tasvirda o'ziga xos bir san'atkor ekanligini ko'rsata olgan. Chunonchi, Layli va Majnunlar o'qiyotgan maktab, qabilalararo ilm maskani sifatida tasvirlanib, unda yuzta o'g'il bola, yuzta qiz bola birgalikda ta'lim olardi, Majnunning otasi katta qabila boshlig'i, eng badavlat kishilardan, deb tasvirlanadi. Hiloliy nazarida Layli hiyla dadil, oshiq ahvoliga kuyinadi; uning dardiga malham bo'lishga intiladi;

o‘zining oliyjanob maqsadiga erishish yo‘lida harakat qiladi, har qanday to‘siqlarni ham yengib o‘tish payidan bo‘ladi.

Xullas, ustozlar vasiyati hamda an‘anasiga sodiq qolgan Hiloliy o‘z asarlarida hayotga, go‘zallikka, insonga muhabbat g‘oyalarini targ‘ib etdi; qatli om, zulm-zo‘rluk avj olgan kunlarda jonini jallodga tikib bo‘lsa ham adolatni, fuqaroparvarlikni yoqladi. Shuning uchun ham uning asarlari hamisha xalq bilan hamroh: ellikdan ziyod g‘azallari „Shashmaqom“ tarkibidan joy olgan; mashhur adibimiz Ogahiy „Shohu Darvesh“ dostonini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

### „SHOHINOMA“XON MUSAVVIR

Yurtimizning eng ko‘hna shaharlaridan bo‘lmish Samarqand qadimul-ayyomdan ilm-fan, tasviriy san‘at, badiiy adabiyot har tomonlama taraqqiy topib, turli davrlarda o‘z mavqeyini saqlab kelayotgan shahardir. Afrosiyob va boshqa mavzelnarni qazish paytida qadimshunoslarimiz qo‘lga kiritgan ashyolar ushbu shahar hududida yashagan ajdodlarimiz qadimgi zamonlarda yog‘och va ganch o‘ymakorligi, naqqoshlig-u mis kandakorligi hunarlari, rang-tasvir hamda ganchda qiyofani ifoda etishda yuksak taraqqiyotga erishgan mumtoz asarlar yaratishganligini isbotlashgan. Afrosiyob qal‘asi devorlaridagi manzara tasviri, sipohlar, elchilar, xonaki hamda yovvoyi qushlarning moy bo‘yoqdagi tasvirlari bu fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Ana shu an‘ana Samarqandda kitobat san‘atining rivojlanishi bilan XV—XVIII asrlarda yanada davom ettirildi va o‘ziga xos bir miniatura maktabi vujudga keldi. Samarqand miniatura doirasi taraqqiyotida mashhur musavvir **Muhammad Murodning** hissasi, ayniqsa, kattadir.

Muhammad Murod Samarqandiy XVI asrning oxirlarida Samarqandda tug‘ilgan. Yoshligidan musavvirlikka qiziqqan, xususiy muallimlardan xattotlik va kitob naqqoshligi bo‘yicha dars olgan. Keyinchalik Ulug‘bek madrasasida ta‘lim olib, ilmiy *ma‘qul* va *manqul* (diniy va dunyoviy bilimlar) bo‘yicha yaxshi savod chiqargan. Madrasa xatmidan so‘ng u kitob ko‘chirish va ularni rangli suratlar, naqshlar-la bezash bilan shug‘ullanadi. Ammo musavvirning jonzotlar, xususan, insonlarning tashqi ko‘rinishi, tabiat manzaralari, sarbozlar-u janglarini g‘oyatda mahorat bilan chiza boshlaganini sezgan mutaassib ulamolar

uni ta'qib eta boshlaydilar. Buni sezgan rassom do'sti Muhammad Nodir Samarqandiy bilan maxfiy tarzda Hindistonga ketishga majbur bo'ladi. Boburiylar sulolasi hukmronlari zamonda Agra va Dehlida yashadi, do'sti Muhammad Nodir bilan birgalikda Agrada san'at maktabi tashkil etdi. Muhammad Murod Samarqandiy o'z maktabida o'nlab musavvirlarni tarbiyalab yetishtirishga muvaffaq bo'ladi. Hind tasviriy san'atining atoqli vakillari Basrant, Bihashi, Gujaratiy, Ibrohim Qahhor, Banvari Xurd, Suri Gujaratiy, Parvin, Rom Das va boshqalar bevosita Muhammad Murodning shogirdlaridirlar. Musavvir XVII asrning birinchi choragida Dehlida vafot etgan. Muhammad Murod Samarqandiy hayoti va ijodiy merosini topish va o'rganishda professorlar I. Nizomiddinov hamda Muqaddama Ashrafiylarning xizmatlari katta.

Ma'lumki, tasviriy san'at olamida „chehrakusholar sarvari“, „Sharq Rafaeli“ deb dong taratgan Kamoliddin Behzod Xuroson-u Movarounnahr xalqlari tasviriy san'atini yangi taraqqiyot cho'qqisiga olib chiqdi. U kichik hajmdagi rangli suratlarda *tabiat tasviri, kiborlar suhbat, qabul marosimi, oshiqlar uchrashuvi, muhoriba asnosi, donishmandlar bahsi, inson tashqi qiyofasini* g'oyatda nafis, mukammal tasvirlashga erishdi; ranglar tanosibini saqlash, tasvirlanayotgan shaxslar qiyofasining o'ziga xosligiga erishish musavvir asarlarining nozik jihatlaridandir. Muhammad Murod Samarqandiy Behzoddagi ana shu o'ta nafislig-u bokira ko'tarinkilik ruhini muvaffaqiyat bilan davom ettirgan san'atkordir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, musavvir Sharq mutafakkirlarining o'nlab asarlarini bezagan, ularga yuzlab miniaturalar chizgan; Hindistonning betakror tabiatining muayyan go'shalari rassom mo'yqalami orqali qog'oz yuzida qayta jonlangan, temuriy zodagonlarning aksini yaratgan. Lekin bunday asarlarga Muhammad Murod imzo chekmagani sababli ularni aniq ajrata olish qiyin. Ammo shunga qaramay, san'atshunoslar vatandoshimiz miniaturalarining uslubiga qarab ma'lum miqdorini muayyan etishga erishganlar. Ularning bizgacha mukammal saqlanib qolganlari 200 dan ortiqdir.

Musavvirga juda katta shuhrat keltirgan asari Abulqosim Firdavsiy „Shohnoma“siga chizilgan va O'zbekiston FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 1811 raqamidagi qo'lyozma tarkibida saqlanayotgan 115 miniaturadir. Bundan tashqari, Muhammad Murod tomonidan Sa'diyning „Guliston“ va

„Bo‘ston“ asarlariga chizilgan miniaturalari Parij milliy kutubxonasi ham mavjud. Muhammad Murod Samarqandiy Movarounnahrda yashab ijod etgan musavvirlardan asarlari eng ko‘p bizgacha yetib kelgan rassom hisoblanadi. Muhammad Murod bilan hamrohlikda Hindistonga kelgan Muhammad Nodir Samarqandiy Boburiylar sulolasining „Shahanshohlik muraqqa‘si“ (Imperiya albomi)ni tuzgan. Ba‘zi san‘atshunoslar muraqqa‘dagi shahzodalar portreti Muhammad Murod qalamiga mansub degan fikrni bildirmoqdalar. Chunki, bir qancha portretlar manzara tasviri zahirida chizilgankim, bu uslub Muhammad Murodgagina xosdir. Yigitlik onlaridayoq „Shohnoma“dek buyuk asarda tasvirlangan timsollar siymosini barkamol tasvirlay olgani ham bu mulohazani quvvatlaydi.

Ma‘lumki, Firdavsiy „Shohnoma“si yaratilgandan beri turli asrlarda yuzlab kotiblar uni qayta-qayta xushnavis qildilar, naqqoshlar turli lavhalar bilan bezadilar; musavvirlar har bir doston voqeasiga mos rasmlar chizdilar. XIII asrdan boshlab Misr, Tabriz, Isfahon, Sheroz, Hirot, Marv, Urganch, Toshkent, Dehli, Samarqand shaharlarida „Shohnoma“ dastnavislariga turli-tuman uslubdagi musavvirlar miniaturalar chizdilar. Ular orasida 1556—57-yillarda ko‘chirilgan „Shohnoma“ nusxasiga Muhammad Murod tomonidan chizilgan suratlar eng ko‘p va xo‘p hisoblanadi. Zeroki, musavvir har bir dostondagi voqea jarayoniga, shoir ijodiy niyatiga mos suratlar chizgan. Buyuk shoir „Shohnoma“da xalq qahramonligi, insondo‘stlik, vatanparvarlik, mardlik va jasorat, adolatli shoh boshchiligida markazlashgan davlat uchun kurash, jang o‘rniga sulhning afzalligi, xalqlar do‘stligi, tinch-totuv yashash, ishq-muhabbat kabi hamisha insoniyatni lol qoldirib kelayotgan g‘oyalarni baland pardalarda kuylagan, jaholat va razolatga nisbatan zakovat va ma‘rifatni qarshi qo‘ygan, zulmat ustidan hamisha nuro‘shnolikning g‘alaba qilishi tarafdori bo‘lgan.

Muhammad Murod Samarqandiy 115 miniaturalarida Firdavsiy dostonlaridagi ana shu yuksak insonparvarlik, adolat-peshalig-u ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini o‘ta lirizm va yuksak ko‘tarinkilik, jangovarlig-u sherdillik ruhida rang-barang lavhalar orqali tadrijiy takomilda tasvirlashga erishgan.

„Temirchi Kova qo‘zg‘oloni“, „Zahhokning Faridun tomonidan asir olinishi“, „Zoli Zarning Mehrobi Kobuliy bilan suhbat“, „Faridunning o‘g‘illari Yaman shohi huzurida“,

„Rustamning tug‘ilishi“, „Bejan va Manija“, „Taxminaning Rustam bilan uchrashuvi“ singari o‘nlab asarlar bu fikrni tasdiqlaydi. Chunonchi, Shahzodalarning Yaman shohi tomondan imtihon qilinishida Firdavsiy asarida ko‘zda tutilgan niyat va doston voqeasi ixcham tarzda mukammal aks topgan. O‘rtada shahanshoh o‘tiribdi. Uning chehrasi, kelbat va salobati ko‘pni ko‘rgan, donishmand ekanligini ko‘rsatib turibdi. U qo‘llarini ko‘tarib Salm, Tur va Erajlarga murojaat qilmoqda. Ro‘parada o‘tirgan shahzodalar bosh egib nimta‘zimda. Faqat Erajninggina ikki qo‘li oldinda — ta‘zimga qovushgan. Eraj bilimdon, zakovatli, insondo‘st, akalari esa takabbur, shahzodaligi tutib turibdi. Chap tomonda esa Yaman shohining qizlari qizil, jigarrang, nofarmon rangdagi arabiy liboslarda o‘tirishibdi. Boshlari ta‘zimda. Oldindagi dasturxonga uch shahzodaga mo‘ljallangan tojsimon tilsim anjomlari qo‘yilgan. Suratda barcha chiziq, lavha, lahza va ranglar nihoyatda uyg‘un va mutanosib, savol-javob, suhbatning samimiyligi yaqqol sezilib turibdi. Zahokning hibsga olinishi tasvirida esa xalq qudratining razolat ustidan g‘alaba qozonishi olomon ruhiyati orqali ko‘rsatilgan. Janglar tasviri, Rustamning Oq fil, Akvan dev bilan olishuvi, Anushervoni Odilning saroy a‘yonlariga nasihati, temirtirnoq ruyinatan Isfandiyor kelbati tasvirlari ham „Shohnoma“ sujetlariga mutanosibli, nozik rang, mo‘jaz tasvirlar orqali yuksak g‘oyalarning ifodalanishi jihatidan diqqatga sazovordir. „Guliston“ga chizilgan ikki miniatura ostiga muallif imzo chekkan „Shahzoda“, „Shiva Parvati“ suratlari ham o‘zining kompozitsion butunligi, rang tanlash hamda tasvirlanayotgan siymo ruhiy dunyosini ham izchil aks ettirilganligi bilan alohida qimmatga molik.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Muhammad Murod Samarqandiy ijodi maxsus o‘rganishga arzirli meros. Uning „Shohnoma“ga chizgan miniaturalari alohida albom sifatida nashr qilinsa, nur ustiga a‘lo nur bo‘lar edi.

## SARKARDA SHOIR

O‘n birinchi asrdan boshlab Hindiston forsiy va turkiy tillardagi she‘riyat ravnaqiga ulkan hissa qo‘shib kelgan mintaqaga aylandi. Shijoatli qo‘shin boshlig‘i, dono davlat arbobi Bayramxon ana shunday hindistonlik turkiyo‘y forsiyzabon shoirlardan biri edi.

O'n oltinchi asrda yashab ijod etgan **Muhammad Bayramxon** 1504-yili G'aznada tug'ilib, 1555 (ayrim manbalarda 1561-yil yozilgan) yili Hindistonning Patna shahri yaqinida Haj safari paytida Muborak Laxaniy tomonidan o'ldiriladi. Manbalarning guvohlik berishicha, Bayramxon harbiylar xonadonidan bo'lib, ota-bobolari turkmanlarning Bahorlu qabilasidir. Otasi Sayf Alibek G'azna viloyatining hokimi bo'lgan, onasi esa Balx hokimining qizi edi. Otasidan yosh yetim qolgan Bayramxon Balxga — ona tomonidan qarindoshlari huzuriga boradi. Xat-savodini chiqargach, Balx va Badaxshon madrasalarida o'qiydi, diniy, dunyoviy, xususan, harbiy bilimlarni puxta egallaydi. Natijada  *faylasuf olim, lashkarboshi, davlat arbobi, bastakor* hamda *shoir* sifatida shuhrat qozonadi.

O'z shijoat-u jasorati bilan alohida ajralib turgan Bayramxon o'sha yillari Badaxshon hokimi bo'lgan Humoyun qo'shiniga sarbozlikka qabul qilinadi. O'shanda u endi 17 yoshga to'lgan yigitcha edi. Bayramxon turli ichki mojarolarda zo'r mardlik va qahramonlik ko'rsatadi. Shuning uchun ham u Bobur vafotidan so'ng Humoyunga bosh maslahatchi bo'lib keladi. U Hindistondagi boburiylar sulolasini mustahkamlash, kengaytirishda eng ko'p jasorat ko'rsatgan qo'mondonlardan hisoblanadi. Hatto, u Kannauj yaqinidagi jangda Shershohga asir tushadi. Baxtli tasodifga ko'ra qochishga muvaffaq bo'lgan Bayramxon ikki yildan so'ng (1542-y.), ko'p sarsonliklardan keyin yana Humoyun dargohiga kirib keladi.

Humoyun davlatini mustahkamlash, aka-ukalarni murosaga keltirish, boburiylar dushmani Shershohga qarshi kurashda Eron shohi Tahmashning yordamini uyushtirish va boshqa davlat ahamiyatiga molik tadbirlarni amalga oshirishda Bayramxon hal qiluvchi shaxs bo'lgan. Shuning uchun ham Humoyun unga Qandahor hokimligini in'om etgan, o'z o'g'li Akbarning „otalig'i“ni unga topshirgan. Bundan tashqari, boburiylar sulolasi hukmronligi davrida Bayramxon turli harbiy vazifalar hamda davlat lavozimlarida xizmat qiladi; Akbarshoh zamonidan bosh qo'mondon darajasigacha ko'tariladi. Xuroson-u Movarounnahrda Hindistonga borib qolgan mashhur kishilardan Bayramxongina „Xoni xonon“ (ya'ni xonlar xoni) „Vakilusaltana“ hamda „E'timoduddavla“ martabalariga erishgan. Saroydagi g'alamisliklar, ayrim safdoshlarining fitnalari tufayli biroz vaqt Bayramxon bilan Akbar munosabatlari buzilib, o'zaro dushmanga aylangan bo'lsalar-da, umrining oxirgi yilla-

rida yana saroyga qaytib, o'z lavozimiga tiklanadi. Lekin shunday buyuk shaxs fitna tufayli nomardlar qo'lida halok bo'ladi.

Bayramxon turkiy, forsiy hamda hindu tillarida mumtoz she'rlar yaratgan. Uning turkiy tildagi she'rlari devoni 359 baytdan, forsiy tildagisi esa 608 baytdan iborat. Devonlarda *g'azal*, *masnaviy*, *ruboiy*, *qit'a*, *fard*, *tarix* kabi janrlardagi she'rlar jamlangan. Shoirning Humoyun va Akbarlarga bag'ishlangan bir necha qasidalari ham saqlanib qolgan. U o'z she'rlarida Sa'diy, Hofiz, Xusrav Dehlaviy, Jomiy hamda Navoiy kabi buyuk ijodkorlarning qutlug' an'analarini davom ettirib, insonparvarlik g'oyalari, sevgi-muhabbatni yuksak badiiylikda ifodalashga muvaffaq bo'lgan.

Bayramxon an'anaviy muhabbat mavzusini tasvirlar ekan, ko'proq ma'shuqa chiroyi, noz-u karashmasini, oshiqning sadoqatini o'ziga xos nafislik, o'ynoqilikda ifodalashga, rangin badiiy-tasviriy vositalar ishlatishga, sof turkiy ibora va birikmalarni qo'llab, ayri-ayri uslubda ravonlikka erishishga intiladi. „Sanga“, „Soching“, „Bo'lmasam“, „Xandonginam“, „Xudroylig“, „Inonma“ singari o'nlab g'azallari ana shunday xalqona, ravon, musiqiy g'azallar hisoblanadi. Aksariyat mumtoz adiblarimizning g'azallarida yorning sochi — *mushki anbar taratuvchi a'zo*, *oshiq gardaniga tashlangan zanjir*, *tuzoq timsoli* sifatida tasvirlanadi, ishlatiladi. Bayramxon tasvirlayotgan ma'shuqaning sochi *go'zallik timsoli*, *oshiqqa nur*, *ro'shnolik baxsh etadigan bir mo'jiza*. Yaldo kechasi yor sochini parishon qilib taragani uchun hamma yoq yorishib ketadi. Oshiq yoriga sodiqlik izhor etar ekan, undan ham sadoqatli bo'lishni o'tinadi:

Har necha ey, bevafo, vaslingga loyiq bo'lmasam,  
Ishq ahli bo'lmayin, ishqingda sodiq bo'lmasam.  
Topmayin sendin murode, e'tiqodim bo'lmasa,  
Sen menga bo'lgil muxolif, gar muvofiq bo'lmasam.

Ma'lumki, Bayramxon davrida musulmonlar bilan Hindistondagi boshqa e'tiqod vakillari o'rtasida jiddiy kelishmovchiliklar yuz berar, ba'zan bunday ziddiyatlar qirg'in-barot janglarga sabab bo'lardi. Shoir ayrim g'azallari, bir qancha ruboiylarida ana shu g'ayriinsoniy hodisalarni bir mutafakkir sifatida qoralab, insonparvarlik, xalqlar do'stligi, totuvlikni targ'ib etardi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, shoir asarlarida mavjud ijtimoiy muhit illatlarini tanqid qilish, ayrim din arboblariidagi ikkiyuzlamachilik, feodal zodagonlar o'rtasidagi buzg'unchilikni qoralash, oddiy mehnatkash xalqqa zulm o'tkazishga achinish ohangi xiyla kuchli. Ayniqsa, turkiy va forsiy tillardagi qit'alarida ijtimoiy adolatsizlikni fosh etish ancha ustun. Bir forsiy qit'asida shoir: „*Ey, Xoja, uzugingga adolat va haqiqat hikmatini yozdirgansan-u, yetim-u bevalarning haqqini yeysan, molini talaysan. Sening shuhrating-u davlating kambag'allar gardaniga yuklangan*“, deydi.

Bayramxon ruboiylari o'zining shakli, mavzu doirasi, badiiy unsurlari jihatidan Bobur she'rlarini eslatadi. Chunki, bu sarkarda shoir ham xuddi Bobur singari zamonning teskari aylanishini la'natlaydi, achchiq qismatidan zorlanadi, yuksak insoniy xislatlar, odamiylik, ilm-ma'rifatni targ'ib qiladi:

Bayramga base g'ariblik kor etdi,  
G'urbat ani xor-u, zor-u, bemor etdi.  
Yo rabki balolarga giriftor o'lsun,  
Har kim ani g'amlarga giriftor etdi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, saroydagi g'alamisliklar, „bek atka“dagi takabbur va mansabga ko'z olaytirish tufayli Akbar bilan o'zaro nizoga borishadi. Shoh ham dastlabki paytlarda o'z „pusht-u panohi“ni kechirmaydi. Quyidagi ruboiyda Bayramxonning boshiga tushgan ana shu mudhish kunlar o'z ifodasini topgan:

Avval meni xizimatingga mahram qilding,  
Bazmingaro hamzabon-u hamdam qilding.  
Oxirida iltifotni kam qilding,  
Rasvoyi tamomi alam qilding.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, Bayramxon qasidalari, ayrim g'azallari, xususan, ruboiylarida axloqiy-ta'limiy mulo-hazalar, insonparvarlikka, ilm o'rganish, kasb-hunar egallashga da'vat, mazlumlarga rahm-shafqatli bo'lishga undash ham xiyla ustun.

Har so'zki g'arazgo' desa, ey, yor, inonma,  
Arbobi g'araz so'ziga, zinhor inonma.

Shoir uch tilda barobar ijod etgani uchun, ba'zi g'azallari, ruboiylaridagi alohida baytlar „Shir-u shakar“ga o'xshab ketadi:



Jon topar yuz Masih la'lingdan,  
Labi la'ling kujo, Masih kujo.

Xullas, buyuk sarkarda, donishmand murabbiy, shoir Bayramxonning turkiy va forsiy tillaridagi ijodi XVI asr boburiylar davri Hindistondagi she'riyatining zarvaraqlarini tashkil etadi. Shoir ijodini o'rganishga Suyima G'aniyeva hamda Rahmonxon Inomxo'jayevlar munosib ulush qo'shishgan.

## TARIXCHI OLIM VA SAYYOHI

O'rta osiyolik shoir, tarixchi, tabib, adabiyotshunos, sayyoh **Mahmud ibn Valining** nomi 80-yillarga qadar ilma'rifat ahliga ma'lum emas edi. O'zbekiston Respublikasi FA akademigi Bo'rivoy Ahmedov „Bahr ul-asror“ kitobini forsiydan rus tiliga tarjima qilgandan so'ng uning siymosi kitobxonlarga ma'lum bo'ldi. Mutarjimning aniqlashicha, bo'lajak donishmand Mahmud ibn Vali 1595—1596-yillar orasida Balxda tug'ildi. Mahmudning otasi mir Muhammad Vali Kosonsoy sayyidlaridan bo'lib, Shayboniy amirlaridan bo'l-mish Pirmuhammadxon hukmronligi (1546—1567) davrida — yigitlik pallasida Balxga kelib qolgan. U o'z davrining donishmandlaridan hisoblanib, „Miri Xislat“ taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. Mahmudning akasi Amir Abdulbori bo'lsa, tabib va fiqh olimlaridan ekan.

Mahmud ibn Vali o'z davridagi barcha bilimlarni qunt bilan egallaydi. Yigitlik onlaridayoq xushta'b shoir, ko'p bilimlarni puxta egallagan, fiqh bo'yicha bahslarda o'zg'irlik qiladigan olim sifatida taniladi. Shuning uchun ham mashhur dinshunos shayx, olimning pochchasi Mirakshoh Husayniy 19 yashar Mahmud ibn Valini o'ziga murid qilib oladi. U o'z davrining ulkan tabibi va fiqhshunosi Mirakshoh Husayniydan ko'p narsa o'rganadi, uning boy kutubxonasida muttasil kitob mutolaa qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mahmud ibn Vali ibn al-Faqih, Muqaddasiy, Istaxriy, Zakriyoi Qazviniiy, Bano-katiy, Vassof, Hamidullohi Qazviniiy, Rashididdin Juvayniy, Mirxond singari olimlarning asarlari bilan ustoz Husayniy dargohida tanishishga muyassar bo'lganligini yozib qoldirgan.

1625-yili (Mirakshohning vafotidan keyin) Mahmud ibn Vali „o'qigan va bilganlarini o'z ko'zi bilan ko'rish“ maqsadida

karvonga hamroh bo'lib, Hindiston va Sarandibga yo'l oladi. Mahmud bu o'lkalarni yetti yil kezib chiqadi: Dehli, Lohur, Peshovar, Agra, Haydarobod, Kalkutta, Bixar, Vidjyanagar, Gonkong singari o'nlab shaharlarda bo'ladi, hind va seylon xalqlari yurtlarining *tarixi, geografiyasi, hayvonot olami, madaniyati, kasb-korini* har tomonlama puxta o'rganadi. 1631-yili safardan qaytgach, Mahmud ibn Vali Balx hokimi saroyi kitobdori vazifasiga tayinlanadi.

Olim umrining oxirigacha shu mansabda ishlaydi va XVII asrning 60-yillari o'rtalarida vafot etadi.

Mahmud ibn *Vali adib, mineralog, o'simlikshunos, tabib, fiqhshunos, tarixchi* va *geograf* olim sifatida o'zidan keyin o'nlab asarlar qoldirgan. „Ravoyiha tayyiba“ („Yoqimli tarovat“), „Muhabbatnoma“, „Najmi sohib“ („Yorqin yulduz“), „Risolayi bahoriya“, „Axloqi Husayniy“, „Bahr ul-asror“ hamda 50 ming baytdan iborat she'rlar devoni shular jumlasidandir. Afsuski, bu asarlarning aksariyatini dastxati bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilmagan.

Mahmud ibn Valiga olim sifatida shuhrat keltirgan asar, har bir jildi to'rt qismdan iborat yetti jildlik „Bahr ul-asror“dir. Mazkur asar Balx hokimi Nodir Muhammadxon topshirig'iga muvofiq 1645—1651-yillar orasida forsiy tilda yozilgan. Muallif ushbu kitobni bitishda o'zidan oldin o'tgan Ibn al Faqih, Tabariy, Istaxriy, ibn Havkal, Ma'sudiy, Abu Dulaf, Ya'qubiy Muqaddasiy (IX—X asrlar), Yoqut Ibn Fadlon, Zakriyoyi Qazviniy, Al Garnatiy (XI—XII asrlar) singari o'nlab arabiynavis va forsiy qalam sohiblarining asarlaridan, o'zining bevosita safar kundaliklarida foydalangan. Bundan tashqari, musannif risolasining ba'zi o'rinlarida „Gershaspnoma“, „Tarixi Ko'ragoniyon“ nomli ilmiy jamoatchilikka kam ma'lum manbalarga ham suyanganini uqtiradi.

„Bahr ul-asror“ tarix kitobi bo'lsa-da, qomusiy xarakterdagi asardir. Zeroki, unda adib, bir tomondan, Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Sarandib, Sharqiy Turkiston va boshqa o'lkalarning *tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, madaniyati* haqida ma'lumot beradi. Ikkinchi tomondan esa, tilga olingan *mamlakat, yurt, viloyat, nohiya, qarya, qishloq xalqlarining o'zga ellar bilan munosabati, e'tiqodi, urf-odati, kasb-kori, harbiy san'ati, hunarmandchilik, dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, xalqning madaniy-ma'naviy yumushi, savdo-sotig'i, dunyo bozoriga*

*chiqaradigan mahsulotlari* haqida aniq dalillar keltiradi. Bundan tashqari, kitobning alohida qismlarida turli qit'alarining *hayvonot* va *o'simlik olami, qazilma boyliklari, suv, chashmalarining ma'danlari, dorivor o'simliklari, xalq tabobati udumlari* xususida ham zavqlanib yozadi va qiziqarli ma'lumotlar beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Mahmud ibn Vali tarixiy dalillar, voqealarni, turli manzilgohlar manzarasini tarixchi nigohi bilan ko'radi, kuzatadi, yozuvchi didi bilan idrok etib, sahifaga tushiradi. Asarning badiiy-estetik qimmatini oshirish maqsadida she'riy parchalar bilan bezatadi. Natijada bunday sahifalar u yoki bu tarixiy voqea, yurt tasviriga bag'ishlangan badiiy lavhani eslatadi. Yozuvchining ota yurti tasviri fikrimizni isbotlaydi. „*Koson Farg'ona Axsikentiga qarashli manzilgohdir. Uning go'zal dalalari-yu maftunkor sahrolari hamda dilrabo iqlimi ko'zni qamashtiradi. Nohiya bog'-u rog'lari-yu ekinzorlari ravzayi rizvonni eslatadi. Jannatosa bo'stonlari-yu yerlarining serhosilligi had-u hududsiz. Mevalaridan o'rik, shaftoli, uzum va qovunlari haddan tashqari zebo va totlidir.*

*Bu yerning aholisidan, ayniqsa, sayyidlaridan bo'lmish ikki urug' alohida martabaga ega. Ularning birini oyima sayyidlari, ikkinchisini esa, tayyoq sayyidlari deyiladi. Dahbedning eng mashhur sayyidlaridan Maxdumi A'zam, Xo'ja Is'hoq, Xo'ja Hoshim, Xo'ja Solihlar asli kosonliklardir. Ushbu satrlar muallifining otasi ham kosonlik bo'lib, Xudo rahmat qilgur Burhoniddin Qilich avlodlaridan edi. Uning nasli tayyoq sayyidlariga borib taqaladi“.* Farg'ona viloyatining markazi bo'lmish Andijon haqida so'z yuritir ekan, Mahmud ibn Vali shahar xalqining sipohiylik, jangarilikka o'chligini, xalq doimiy harbiy tayyorlikda yurishi, turli-tuman qurollar ishlab chiqarilishi, hatto qo'shchilar ham ish paytida o'zlari bilan harbiy qurol olib yurishlari va buning sababini batafsil yozib qoldirgan. „*Axsi go'zal va obod shahar, shayx va olimlar maskani, shoir Asiriddin ham Axsikatiydir“*, deydi muallif. Buxoro arab tarixchilari tomonidan „Islom gumbazi“, „Ilm va olimlar chashmasi“ deb atalarkan.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud ibn Valining „Bahr ul-asror“ („Sirlar ummoni“) asari O'rta Osiyo va Xuroson, Hindiston, Sarandib, Qoshg'ar yurtlarining tarixi, ilm-fani, madaniyati, geografiyasi, tabiati, aholisi, turli ijtimoiy tabaqalar haqida mukammal ma'lumot beradigan mo'tabar kitobdir. Bundan tashqari, ushbu kitob XII—XIV asrlar orasida arab va forsiy tilda

Sharq tarixi, ilm-fani, geografiyasiga oid bitilgan oʻnlab nodir kitoblar, ulardagi kamyob fikrlar haqida ham maʼlumot beradigan qimmatbaho manbadir. Qomusiy bilim sohibi, vatandoshimiz Mahmud ibn Valining asarlari hanuzgacha oʻzbek tiliga tarjima qilinmaganligi afsuslanarli bir holdir.

## SOHIR SAN'ATKOR

Koʻhna mashriqzaminda shunday mutafakkirlar yetishib chiqqanki, ularning asarlari butun insoniyatni hamisha lol qoldirib kelayotgan muammolarning nazariy hamda amaliy jihatlarini hal etishga yordam beradi. **Mirzo Abdulqodir Bedil** ana shunday buyuk insonlardandir. Boʻljak  *faylasuf shoir, nozikbin adib, fiqh donishmandi, tabiatshunos olim* 1644-yili Hindistonning Azimobod shahrida harbiy xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Uning bobolari asli shahrisabzlik boʻlgan. Bedil bir yasharlighida otadan yetim qoladi, uni onasi tarbiyalab, 5,5 yasharlighida maktabga beradi. U 7 yasharlighida yaxshigina savod chiqaradi. Amakisi Mirza Qalandar va togʻasi Mirza Zariflar homiylighida Bedil zamonasidagi barcha diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallaydi. Bedil 17 yasharlighida togʻasi bilan Udesa shahriga safar qilib, mashhur ruhshunos Shohosim Xuvallo qoʻlida uch yil taʼlim oladi. Hind, arab va forsiy tillarni hamda ularda yaratilgan badiiy adabiyotni puxta oʻzlashtiradi. Bedil 10 yasharlighida sheʼr yoza boshlagan boʻlsa ham, baʼzi gʻalamis ijodkorlar uning iqtidoriga shubha bilan qarashgani uchun asarlarini doʻstlarining iltimosi bilangina 20 yoshida kitob holiga keltiradi. Bu orada Mirza Zarif va Mirza Qalandarlar olamdan oʻtadilar. 21 yoshida Bedil batamom mustaqil hayot yoʻliga kiradi.

Oʻsha yillari Bedil shaharni tark etib, Dehliga boradi va Shohkobuliy nomli donishmand bilan tanishib, soʻfizmning majzubiya oqimini qabul qiladi. Undan sehrgarlik-psixologik taʼsir ilmini oʻrganadi. Bedil 25 yasharlighida uylanib, Avrangzebning oʻgʻli Aʼzamshoh dargohida navkarlik xizmatida boʻladi. Bedilning shoirlighini sezgan Aʼzamshoh undan oʻzi haqida qasida yozishni istaydi. Hech qachon, hech kimga maddohlik qilmagan hur fikrli Bedil bu xohishni bajarmay, navkarlikdan voz kechib, Akbarobodga boradi: Zuhuriy, Izzat nomli shoirlar bilan tanishib, adabiy majlislarda ishtirok eta boshlaydi, shoir va

fozil Mirza Komgor bilan oshnalik paydo qiladi. Lekin bu yerdagi o'zaro kelishmovchiliklar, turli toifadagi ziyolilar o'rtasidagi ziddiyatlar shoirga ma'qul tushmay, Dehliga qaytib ketadi.

Ammo Avrangzebning zulmi, nodurust siyosati tufayli vaziyat og'ir bo'lib, turli viloyatlarda g'alayonlar bo'lmoqda edi. Shuning uchun Bedil do'stlari maslahati bilan Panjobga ketishga majbur bo'ladi va Lohur, Mo'ltan, Kashmir, Sarhind kabi shaharlarni kezib chiqadi, shoir-u fuzalolar bilan suhbatda bo'ladi, qadimgi hind tarixi, epos-u rivoyatlarini o'rganishga kirishadi. Shunday qilib, 1696-yilgacha Bedil umrini sayohatda, sarsonlikda o'tkazadi, hind xalqining hayoti, madaniyati va qadimgi yozma hamda og'zaki ijod yodnomalari bilan yaqindan tanishadi; taxt-toj uchun kurash, hindilar va musulmonlar o'rtasidagi diniy kurashlarning fojiali oqibatlarini o'z ko'zi bilan ko'radi, bundan qattiq iztirob chekadi. Xuddi shu yillari Fransiya, Angliya, Portugaliya kabi Yevropa davlatlari ana shu ichki ixtiloflardan foydalanib, Hindistonning ayrim orollari hamda okeanga chiqadigan qo'ltiq va bandargohlarni bosib ola boshladilar.

Mamlakatdagi ana shu ichki voqealar, tashqi tomondan bo'layotgan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tahdid Bedil dunyoqarashidagi ijtimoiy-falsafiy, axloqiy, ma'rifiy qarashlarning keskinlashishiga sabab bo'ldi. Natijada u o'zining lirik she'rlari, masnaviylari-yu ilmiy asarlarida vatanparvarlik, insondo'stlik, turli din va mazhabdagi qavmlarning hamjihatligini targ'ib etdi, ma'rifatparvarlik bayrog'ini baland ko'tardi.

Shoir umrining oxirigacha muttasil ijod qilib, ko'plab *lirik she'rlar, qasidalar, masnaviylar, axloqiy-talimiy, ijtimoiy-falsafiy ruhdagi asarlar* yarata boshlaydi.

Bedil 11 hukmron davridagi ijtimoiy-siyosiy voqealarga guvoh bo'lib, 77 yil umr ko'rib, 1721-yili vafot etgan.

Bedildan bizga qadar forsiy tilda yaratilgan 130 ming baytdan iborat she'riy, bir necha jildlik nasriy asarlar meros bo'lib qolgan.

Adib asarlari orasida „Tilsemi hayrat“, „Tarkkibbot va tarje'ot“, „Turi ma'rifat“, „Muhiti a'zam“, „Ishorat va hikoyat“, „Chor unsur“, „Ruqa'ot“, „Irfon“, „Ruboiyot“, „G'azaliyot“, „Komde va Mudan“ kabi she'riy va nasriy kitoblari Sharq xalqlari orasida xiyla mashhur. Bedil o'z

asarlari va vatanparvarlik, insondo'stlik, ma'rifatparvarlik, xalqlar do'stligi, turli elat va millatlar birligi, komil inson tarbiyasi, mehnatsevarlik g'oyalari ilgari suradi; kishilarni ilm o'rganishga, kasb-hunar egallashga, hayotga tetik ko'z bilan qarashga da'vat etadi. Ayni paytda shoir tanballik, ochko'zlik, makr, tamagirlik, hukmron tabaqalarga laganbardorlik, xiyonat, sudxo'rlik, kibr-havo, johillik singari g'ayriinsoniy xislatlarni qattiq tanqid qiladi. Bedil Hindistonning betakror tabiatini rango-rang jilolarda tasvirlashga muvaffaq bo'lgan shoirdir. Jumladan, „Turi ma'rifat“ masnaviysida (1687-y.) Bayrot tog'i atroflari shu darajada sehrli va jozibali tasvirlanganki, dostonning har bir fasli kitobxon qalbida go'zal tabiatning insonga in'om etgan barcha ne'matlariga mehr, zavq-shavq uyg'otadi, hayotsevarlik ruhini tetiklashtiradi. O'n bir ming baytdan iborat „Irfon“ (1712-y.) masnaviysida esa shoirning *falsafiy, tasavvufiy, axloqiy* va *ijtimoiy* qarashlari ifodalangan. Qomusiy xarakterdagi bu asarda Bedil ijtimoiy hayot va koinot, insonning zohiriy va botiniy mohiyati xususidagi mulohazalarini ko'plab hayotiy hikoyat hamda masallar bilan isbotlab beradi; *insonni barcha mavjudotning eng komili*, deb ataydi; dehqonlarni jamiyatdagi eng zarur va oliyanob kasb egalari sifatida alohida ta'riflaydi. Shuningdek, asarda adibning adabiy-estetik qarashlari ham o'z ifodasini topgan. Bedil ijodi Sayido Nasafiy, Mirzo G'olib, Ahmad Donish, Naqibxon Tug'ral kabi shoir va adiblar ijodiga barakali ta'sir etgan. Ular shoir asarlarini to'g'ri tushunib, xalq orasida bedilxonliklar uyushtirish bilan birga, uning she'rlariga payravlikda yangi g'azallar yaratganlar.

Bedilning badiiy va ilmiy merosi o'tmishda va hozir ham xalqimiz orasida mashhur va manzur bo'lgan. Maktab va madrasalarda Bedil asarlari maxsus o'qitilgan; shoir g'azallari, ruboiy va qasidalarini tushunishni osonlashtirish uchun qo'llanma tarzida maxsus sharhlar bitilgan; Bedil kulliyoti qayta-qayta kitobat qilingan, toshbosma usulida bir necha bor nashr etilgan. E'tiborlisi shundaki, gulobodlik Sa'dixon domla hovlilarida Chustiy, Xurshid, Habibiy, Boqiy, Anisiy va boshqa san'atkorlar to'planishib, bedilxonlik qilishgan. XX asrning 20-yillarida yurtimizda Bedil ijodini o'rganishga qiziqish boshlandi. Atoqli adib va olimlar Abdurauf Fitrat hamda Sadridin Ayniylar Bedil ijodiga doir bir necha maqolalar yozdilar.

Bugina emas, 60—70-yillarga kelib, Bedil ijodini tadqiq etish, asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish keng ko‘lamda olib borildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, mashhur jamoat arbobi Ibrohim Mo‘minov Bedilning ijtimoiy-falsafiy qarashlari xususida bir qancha maqolalar, kitoblar yozgan, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Professor Shavkat Shukurov esa shoirning mehnat va mehnat ahli haqidagi qarashlari xususida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, maxsus tadqiqot yaratgan, ilmiy risola chop ettirgan.

Bedil asarlarini bevosita asl nusxasidan o‘zbek tiliga o‘g‘irishda shoirlarimiz birmuncha yutuqlarni qo‘lga kiritishgan. Jumladan, taniqli sharqshunos adib, Xalqaro Firdavsiy mukofoti sovrindori, professor Shoislom Shomuhamedov Bedil ruboiylaridan bir guldasta yaratdilar. Bu tarjima ikki marta alohida kitob shaklida nashr etildi. Adibning „Komde va Mudan“ dostoni shoir Nazarmat tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Ana shu tarjima asosida keyinchalik „Ikki dil dostoni“ badiiy filmi yaratildi. Bedil asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol ham hissa qo‘shib kelmoqda.

## ALIYI SONIY DERLAR

Tarix — Sharq mumtoz adabiyotining eng mo‘jaz, ammo keng tarqalgan janrlaridan biri hisoblanadi. She’rshunoslar uning vujudga kelishini IX asr bilan bog‘laydilar. Ammo tarixning janr sifatida to‘la shakllanishi X—XI asrlarda yuz berdi. Bu davrlarda bir bayt yoki to‘rtlikda u yoki bu tarixiy sana, biron bir buyuk shaxs — davlat arbobi, adib, mashoyixning tug‘ilgan yili, vafot etgan sanasi qayd etiladi. Bora-bora bu janrda so‘z o‘yini yoki harflar qaydi (ta’kidi) orqali muhim bir voqea, sanani ifodalanganligiga ishora qilinadi. Bunda bir tomondan, baytda biron badiiy san’at, ibora ishlatilishiga erishilsa, ikkinchi tomondan, arab grafikasidagi harflarning qaysi raqamni ifodalashi hisobga olingan. Tarixning *ma’naviy*, *noqis*, *zoid*, *qit’ayi tarix* kabi turlari mavjudkim, ular san’atkordan o‘ziga xos zukkolikni talab etgan. Masalan, shoir baytda bir yoki ikki so‘zga o‘quvchi diqqatini jalb etib, uning tarix moddasiga ishora qiladi:

*Sar-u sarkardayi arbobi suxan,  
Az g‘amobodi jahon xurram raft.*

*Guft ta'rixni vafotash Ozod,  
„Mirzo Bedil az olam raff“.*

(Mazmuni: *So'z mulki arboblarning sarkardasi bu jahon g'amxonasidan shod ketdi. Uning vafoti tarixini Ozod „Mirzo Bedil olamdan ketdi“, deb ta'kidladi).*

Oxirgi misra harflari miqdorini topib, bir-biriga qo'shsak, Bedil vafot etgan 1721-yil chiqadi.

O'tmishda shoir va yozuvchilar yo'l-yo'lakay turli voqea va hodisalar sanasiga bag'ishlab tarix yozishdan tashqari, bir necha asrlarda yuz bergan voqealar yilnomasiga bag'ishlangan maxsus tarix kitoblari ham yaratishgan. **Said A'lam Sharofiddin Roqimiyning** „Tarixi tomm“ asari ana shunday kitoblardan biridir. Adibning hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar yetarli emas. Tug'ilgan hamda vafot etgan yili ham aniqlanmagan. Uning yoshligi Andijonda o'tgan. O'qish maqsadida Samarqandga kelib, shu yerda madrasani xatm etadi va muqim yashab qoladi. Biz Roqimiyning ijodiy faoliyati qachondan boshlanganligini bilmaymiz. Uning bizga qadar 1680-yili yozilgan katta hajmdagi „Tarixi tomm“ asari ma'lum. Muallif 1701—1702-yillari risolaning muxtasarroq bir nusxasini ham yaratgan. Ana shu nusxa 1913—1914-yillari toshbosma usuli bilan Vazehning „Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-a'hob“ tazkirasiga ilova tarzda chop etilgan. Ushbu nusxaning bizga qadar bir necha qo'lyozmasi saqlanib qolgan. Asar juda katta *ilmiy, adabiy, tarixiy, ma'rifiy, estetik* ahamiyatga ega. Unda o'nlab fiqh donishmandlari haqida ham ko'p ma'lumot bor. Ana shu nodir kitobning professor Haydarbek Bobobekov shaxsiy xazinasida saqlanayotgan nusxasini nozikbin sharqshunos, dotsent Naim Norqulov forsiydan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Biz asl nusxani ham, o'girmani ham sinchiklab o'qib chiqishga muvassar bo'ldik. Kitob shu xildagi boshqa asarlardan bir necha jihatlari bilan jiddiy farq qiladi.

Dastlab, shuni ta'kidlash lozimki, „Tarixi tomm“da 1633—1644 hamda 1645—1701-yillar davomida Eron va O'rta Osiyoda yuz bergan voqealar, sodir bo'lgan hodisalar, yashab o'tgan tarixiy shaxslarning hayoti hamda faoliyati haqida ma'lumotlar mavjud. Undagi tarix-she'rlar mundarija, g'oyaviy yo'nalish jihatidan g'oyatda ibratli, nasriy kiritma yoki xotimalar, dalillarga boy va qiziqarlidir. Tarixlarni mavzu doirasiga ko'ra, shartli ravishda, uch guruhga ajratish mumkin.



Bir silsila tarixlar, Sharq ijtimoiy-siyosiy hayot darg'alarining tug'ilgan yillari yoki vafoti, biron urushdagi g'alaba yoki biron o'lkani zabt etish sanalari, bir sulolaning saltanatdorlik muhlati, biron shahar yoki obidaning bunyod etilishiga bag'ishlangan to'rtliklardir. Bunday she'rlar bizning O'rta Osiyo xalqlari tarixi, davlatdorligi haqidagi bilimimizni mukammallashtiradi, tafakkurimizni charxlaydi. Masalan, muallif Sohibqiron Amir Temur vafot etgan yiliga bag'ishlangan tarixlarni keltirar ekan, „*Ul hamida sifatlar hayotining muddati yetmish ikki yil-u ikki oy sakkiz kun bo'ldi. Sohibqironning er avlodidan vafot vaqtida o'ttiz olti nafari hayot edi... Sohibqironning mukarram qizlaridan ismat pardasida bo'lgan va uhob lihofidagi mag'rur o'n yetti nafari mavjud edi*“, deb aniq ta'kidlagan va Amir Temur vafoti sanasiga bag'ishlangan sakkizta tarixni keltirgan. Ubaydulloxonning Najmi Soniyini daf' etib, Movarounnahrni eroniylar bosqinidan batamom xalos etganini alohida qayd etar ekan, muallif „*urug'laridan biron cho'ng bo'laturg'onda taxtni ixtiyor etmasdilar*“, degan fikrni bayon etadi. Asli yamanlik bo'lgan Mir Arab bilan Ubaydulloxon o'rtasidagi ustod-shogirdlik, pir-u murshidlik haqidagi qiziqarli ma'lumotlar Mir Arab madrasasining qurilishi tarixini she'rga solish munosabati bilan keltirilgan. Mirzo Ulug'bek, Shayboniyxon, Amir Shayximlar haqidagi dalillar ham asosli va maroqlidir.

Mazkur risoladagi tarixlarning katta qismi XV—XVI asrlarda Eron-u Turon sarzaminlarida yashab o'tgan mashhur mashoyixlarning hayot sanalariga bag'ishlangan. Biz bu fasllarda ham rang-barang lavhalar, dalillarni uchratamiz. Xususan, Said Ali Hamadoniy, Lutfulloh Nishopuriy, Bahouddin Naqshband, Taftazoniy, Muhammad Porso, Qosim Anvor, Hasan Kubrovij, Xoja Ubaydullo Ahror, Shayx Xudoydod, Mahdumi A'zam, Abubakr Toyobodiy, Qozi Poyanda Zominiy, Xojagi Amkanagiy, Yusuf Qarabog'iy singari o'nlab mashoyixlar xususidagi lavhalar ham katta ilmiy va badiiy qimmatga ega. Zeroki, Roqimiy tarix bahonayi sababi bilan, bir tomondan, bu ulug' zotlarning haq yo'lida chekkan riyozatlarini bayon etsa, ikkinchi tomondan, ularning ilm o'rganish, xalq orasida islomiy ahkomlarni targ'ib va tashviq etish borasida chekkan zahmatlarini qayd etadi: karomat va bashoratlaridan ba'zi lavhalar chizadi. Agar xalifa Hazrati Ali islom davlatini

mustahkamlash, uning hududini kengaytirishda katta jasorat ko'rsatgan bo'lsa, shayx Said Hamadoniy Mag'rib-u Mashriqni piyoda kezib, yuz minglab g'ayridinlar qalbini islom nuri bilan yoritishga muvassar bo'lgan allomadir. Shuning uchun „Ul zotni „Atiyi Soniy“ der erdilar... Uch navbat rub'i maskun aksarini sayr qildi. Shu saodatli yo'lda bir ming to'rt yuz nafar valiyning suhbatiga musharraf bo'ldi“. Asarda juda ko'p mashoyixlarning hayotlari haqida boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar, kitoblarining aniq ro'yxati berilgan. Hozirga qadar ilmiy-nazariy adabiyotlarda toshkentlik fiqh donishmandi, „Samarqand viloyatining a'lam ul-ulamasi“ darajasiga yetgan Amir Fathiy haqida ma'lumotlar kam. Roqimiy 1635-yili vafot etgan Fathiy xususida quyidagilarni yozgan: „Xullas, bul fazilatlar bahri muhiti, hikmat va kamol manbaining tasnif va ta'liflari juda ko'p. Jumladan, „Kitobi jome'-ul ma'qul va manqul“, ikki jilddan iborat „Kitobi zodil oxirat“: birinchi jildi „Qisasi al-anbiyo“, ikkinchi jildi „Salot ir-Rahmon“ dir. Boshqa asarlari ham ko'p. Shuncha fazilatlariga qaramay, gohida she'r ham bitur erdilar“. Roqimiyning ajdodlari asli toshkentlik ekan. Chunki kitobda „Fathiy mening bobokalonim edilar. U kishining ayrim asarlari qo'lyozmasi menda saqlanadi“, degan fikr mavjud.

Ma'lumki, o'tmishda ko'hna Xuroson-u Movarounnahrda yetishib chiqqan so'z san'atkorlarining aksariyati jahongashtayu jahondida bo'lgan. Shu sababli ularning hayot yo'li va ijodiy faoliyatlari xususidagi dalillar ham dunyoga sochilib ketgan, turli sarchashmalarda zabt etilgan. Vaqtlar o'tishi, yangi qo'l-yozmalarning topilishi munosabati bilan bu buyuk zotlar faoliyatining yangi qirralari muayyanlashib bordi. „Tarixi tomm“ ana shunday dalillarga boy, serfayz qo'lyozmalardandir. Unda Hofiz, Sa'diy, Kamol, Jomiy, Navoiy, Binoiy, Bobur, Keshifiy, Kotibiy, Mushfiqiy singari ulkan allomalarning shaxsiyati bayoni va asarlari tavsifi ham ancha boydir. Ular bu adiblarning tarjimaiy holini yanada mukammalroq tasavvur etish, ijodiy niyatlarining ba'zi jihatini to'la idrok etishga ko'maklashadi. Hozirgacha adabiyotshunoslikda To'xtamishxon Tabrezni g'orat qilganda Kamol Xo'jandiyni ham Saroy shahriga asir qilib eltgan, shoir bu yerda g'aribona umr kechirgan: Amir Temur To'xtamishni yenggach, shoir yana Tabrezga kelib, Valiyonko'hdagi „Bihisht“ otlig' bog'ida

nochor hayot kechirgan, mazmundagi fikr mavjud. „Tarixi tomm“dagi mulohazalar bu fikrni tuzatadi va to‘ldiradi. „*Viloyat fath etilgandan keyin hazrati Shayxni To‘xtamishxon farmoniga ko‘ra Dashti Qipchoqqa — Saroy shahriga olib ketganlar. Ul joylarning ob-havosi g‘oyatda yaxshi edi, Hazrati Shayx ta‘biga xush keldi. O‘sha holda bu matla’ ul Hazratning xurshed kabi ta‘blari ufuqidan tulu’ qildi. Matla’:*

*Agar Saroy hamin ast, dilbaroni saroyi,  
Biyor boda, ki forig’ shavam zi har du saroyi.*

(Mazmuni: *Agar Saroy shahri shu bo‘lsa, ey, saroy dilbarlari! Menga boda keltiringlar, toki har ikki olam tashvishidan qutulay.*)

To‘rt yildan keyin Shayx Tabrez viloyatiga qaytdilar. Sulton Husayn No‘yon Tabrez viloyatida hazrati Shayx uchun Xonaqohi Nodiriyni qurdirdi. U xizmatkorlar Ka‘basi va zohidlar qiblasidir. Bu imoratning peshtoqi niyoz ahlining mehrobidir, darvozalari fayz eshigidek ahli dillar uchun hamisha ochiq. Oliy martabali sulton mulkining ko‘pini o‘sha xonaqoh uchun vaqf qilib bergandi.

Hazrati Shayx amirzoda Mironshoh davlati va saltanati davrigacha hayot edilar. Sanayi 793-yilda (milodiy 1391-y.) qazo kotibi ul zot hayoti devoni matla‘ini mamot maqtayiga kiritdi. Tabrezning Surxob mavzeyidagi Valiyonko‘hda ul zot dafn etilganlar. Nurlarga to‘la qabri lavhasiga bu matla‘ni raqam qilganlar. Matla’:

*Kamol az Ka‘ba rafti bar dari do‘st,  
Hazorat ofarin, mardona rafti.*

(Mazmuni: *Kamol, Ka‘badan do‘st eshigiga ketding, ming ofarin, mardona ketding.*)

Sharq adabiyotshunosligi-yu fiqh fanida Abdurahmon Jomiyning hayoti va ijodiy faoliyati hiyla puxta o‘rganilgan. Hatto, u haqda „Xamsat ul-mutahayyirin“, „Maqomoti Jomiy“ singari kitoblar ham yaratilgan. Sharofiddin Roqimiy ham Jomiy vafotiga atalgan tarixlarni keltirishdan oldin shoirning ajdodlari, ota-onasi, Vatani, Navoiy bilan ustoz-shogirdligi haqida batafsilroq naql etadi, 40 ta asarining ro‘yxatini beradi, tavsiflaydi. Muallifning mana bu qaydlari, ayniqsa, e‘tiborga loyiqdir: „*Aytishlaricha, ul zotning volidayi shariflari zamon hodisalari va davron inqilobi tufayli Isfahondan Xuroson mulki*

*tarafiga ko'chganlar. Jom viloyati Xarjurd qasabasida Hazrati Zindafili Ahmadi Jom turbati yaqinida maqom tutganlar. Keyin, shu yerda oila qurganlar*".

Ulkan lirik shoir, zabardast dostonnavis Urfiy Sheroziyning hayot yo'li g'oyatda murakkab kechgan. Bir umrga muhtojlikka mahkum etilgan shoir hech kimga bosh egmagan, birovga tama qo'lini cho'zmagan. Ko'p amirlar-u shahzodalar uni o'z dargohlariga tortmoqchi bo'lishgan, ammo bunga erisholmaganlar. „Tarixi tomm“da Urfiyning Hindistonda kechgan umri xususida quyidagi lavha keltirilgan: „Ul zot podshohi Jam suhbatidan o'zini kanorga tortib yurdi. Qancha taklif qilishmasin, dargohni ixtiyor etmadi. Oxiri bir kun Mavlono Urfiy uchun bir pora oltin jo'natishdi. Ul Mavlono boloxonasida o'tirganicha podshoh in'omini istiqbol etmadi va ushbu ruboiyni badeha tarzida aytdi. Ruboiy:

*Urfiyi mo dili xud digargun nakunad,  
Daryuza ba juz darun purxun naqunad.  
Somoni bihisht agar az in ko'cha kashand,  
Ummedi sar az daricha berun nakunad*".

(Mazmuni: *Urfimiz o'z qalbini o'zgartirmaydi, oshufta dilini faqat purxun etadi. Taqdir bihishtni shu ko'chadan o'tkazsa, umid boshini darchadan tashqari chiqarmaydi.*)

Fors-tojik she'riyatining zabardast siymolaridan biri **Abdurahmon Mushfiqiy nozikta'b g'azalgo'y, saliqali doston**saro bo'lish bilan birga, *o'tkir hajvchi* sifatida Sharqda mashhurdir. U hatto hozirjavob zarofatgo'y donishmand tarzida xalqning ikkinchi Nasriddin Afandisiga aylangan. Ayni paytda Mushfiqiy peshqadam *matematik, astronom* hamda *rammol*<sup>1</sup> ham ekan. „Tarixi tomm“dagi ma'lumotlar adib ijodining ana shu kam-yob sahifalari xususidagi tushunchamizni oydinlashtiradi: „*Mushfiqiyning ta'bi ob-u tobi ilmi hikmatdan Jolinus kabi boxabar, hay'at bobida Batlimus erdi. Hisob ilmida shunday komil ediki, oqillar aqli uning tasavvuridan ojiz va zako ahli zehni uni fahmlashdan qusurli va noqis edi*“.

Ayrim tadqiqotchilarning asarlarida „*Ulug'bekdan so'ng Movarounnahrda matematika va astronomiya fanlari mutlaqo tanazzulga yuz tutdi*“, degan mushohadalar mavjud. Mushfiqiy

---

<sup>1</sup> Rammol — folbin ma'nosida.

va Hoji Yusuf Hay'atilar handasa hamda hay'atshunoslik sohasida erishgan yutuqlari bunday fikrlar asossiz ekanligini isbotlaydi. „Tarixi tomm“ hali jiddiy o'rganilmagan. Ulardagi ayrim tarixlar marhum sharqshunos A. Juvonmardiyevning „Harflar raqamlarga aylanganda“ (1966-y.) kitobida keltirilgan va izohlangan, xolos.

## KOSHONALARDAGI G'USSA

Mashhur shoir va olim Sharofiddin Roqimiy (XVI asrning oxiri XVII asrning boshlari) o'zining „Tarixi tomm“ asarida quyidagi ma'lumotni keltiradi: „Ammo ul zotning kimdandir ko'ngli ranjib, podshohning suhbatidan o'zini tortib yurdi. Ko'p taklif qilishdi, ko'nmadi. Oxirida Mavlono uchun bir pora oltin jo'natildi. Ul zot boloxonasida o'tirib edi. Podshoh ehsonini qanchalik ko'z-ko'z qilmasinlar, istiqbol etmadi va ushbu ruboiyni badeha tarzida aytdi:

*Urfiyi mo dili xesh digargun nakunad,  
Daryuza ba juz darun purxun nakunad.  
Somoni bihisht agar az in ko'cha kashand,  
Ummedi sar az daricha berun nakunad.*

(Mazmuni: *Urfimiz ko'nglini o'zgartirmaydi. Qalb ichidan boshqasini purxun etmaydi. Jannat shuhratin bu ko'chadan o'tkazishsa ham, umid boshini darchadan chiqarmaydi*). (Sharofiddin Roqimiy, Tarixi tomm, Ma'naviyat, 1998, 127-bet.)

Bu zoti kiromiy boburiylar sulolasi davri Hindistondagi forsiy she'riyatga umumjahoniy shuhrat baxsh etgan **Jaloliddin Muhammad ibn Zaynuddin ibni Jaloliddin Chodarbaf Urfiy Sheroziy** edi. Bo'lajak otashnafas shoir Urfiy 1556-yili Sherrozda davlatmand oilada dunyoga keladi. Uning otasi Zaynullobiddin Sheroz hokimining devonbegisi-dorug'asi edi, ayni paytda u ma'rifatli, donishmand odam ham edi. Urfiy zamonasidagi barcha bilimlarni egallaydi, badiha she'r aytish, latifago'ylikda shuhrat qozonadi. Yigitlik pallasida bir karvonga qo'shilib Hindistonga sayohat qiladi. Ittifoqo, shoirning favqulodda iqtidorini sezgan Akbarshohning saroy olimlari Hakim Abulfath Geloniy va Sipohsolor Abdurahim Hasanxonlar uni saroyga jalb etib, tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanadilar.

Yigitligida Mavlono Saidiy taxallusi bilan she'r yozgan shoir endi Urfiy Sheroziy nomi bilan ijod qila boshlaydi. Davrining Shayx Fayziy, Shayx Abulfazl, Xoja Husayn Sanoiy singari mashhur shoirlari bilan hamsuhbat bo'ladi, mushoiralar o'tkazadi. „*Nazmi salsabil ta'mini berib, nasri Frot-u Nil xosiyatiga ega bo'lgan*“ (Haft Iqlim) Urfiy umr bo'yi she'riyatning barcha janrlarida ijod etib, *jozib qasidalar, dilangiz g'azallar, otashbor ruboiylar, maftunkor masnaviylar* yaratdi. Urfiy 1588-yili she'rlarini to'plab, devon tuzdi. Tehrondagi „Kitobxonayi Sannoniy“ nashriyoti 2001-yili shoir devonini uchinchi daf'a chop etdi. Unda 50 ta qasida, 580 ta g'azal, 800 ta qit'a, ruboiy, masnaviy, tarje'band, tarkibband, soqiynoma va boshqa kichik janrlardagi she'rlar jamlangan. Bundan tashqari, shoir tasavvufga doir „Nafisa“ nomli nasriy asar, Roqimiyning ta'kidlashicha, Nizomiyning „Maxzan ul-asror“iga o'xshatib „Aroyis ul-abkor“, „Xusrav va Shirin“ga ergashib shu nomda (ba'zi manbalarda „Farhod va Shirin“ deb uqtirilgan) masnaviylarini yaratgan. „Tarixi tomm“da ana shu ishqiyy-sarguzasht dostonidan parcha keltirilgan.

Shoir 1590-yili Lohurda vafot etadi va shu yerga dafn etiladi. Ammo vasiyatiga ko'ra keyinchalik shogirdlari uning suyaklarini olib, Najafga keltirib, ikkinchi marta dafn etadilar.

Urfiy Sheroziy Akbarshoh va uning o'g'illari, vazir-u vuzarolaridan iltifot ko'rdi, ularning homiyligida yashadi. Shuning uchun shoir qasidalarining asosiy mamduhlari Hakim Abulfath, Jaloliddin Akbarshoh, Mir Abdulfath, Xonixonon (mashhur lirik shoir va sarkarda Bayramxon), Shahzoda Salimlar hisoblanadi. Bundan tashqari, devonda Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) hamda Hazrati Aliga bag'ishlangan qasidalar, Kashmir ta'rifi, hasbihol, zamondan shikoyat kabi she'rlar ham o'rin olgan.

Sirtidan qaraganda, Urfiy qasidalarida faqat mamduhlar ta'rif-tavsifi berilgandek tuyuladi. Ammo har bir she'rning botiniy jihatiga nazar solsak, ularda shoirning dard-hasrati, o'zga yurtdagi biqiq hayotdan bezish ohanglarini his qilish mumkin. Ayni paytda Xonixonon, Abulfath siymolarida Urfiy chinakam adolatpesha, ilm-fan, badiiy ijod ahlining homiylari, ma'naviyat peshvolarini, shijoat va jasoratli insonlarni ko'radi.

Barcha tazkiranavislar Urfiy g'azallari mazmun-mundarija, shakl jihatidan ham, poetik nuqtayi nazaridan ham forsiy

she'riyatda o'ziga xos bir pog'ona, palla bo'lganligini uqtirishadi va, hatto „*barcha fanda benazir erdi*“ („Majma' ul-xavos“) deb ta'riflashgan. Zeroki, Urfiy g'azal janrida lirik qahramonning tor intim kechinmalari bilan birga, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy, zamona nidosini, dard-nolasini ham o'ziga xos, betakror san'atkorlik bilan ifodalashga erishgan. Shuning uchun o'zining buyuk shoirlardan kam emasligini faxriya tarzida ta'kidlagan ham. Aksariyat g'azallarida shoir majoziy va haqiqiy ishqni rang-barang tarzda badiiy yuksaklikda tasvirlashga muvaffaq bo'lgan va haqli ravishda buyuk g'azalsarolar qatorida turajagini isbotlay olgan. Shunga ko'ra, „Riyozi al-shuaro“ muallifi: „*Uning suxanvarlik tantanasi olamni tutdi, shoirlilik shuhrati Mashriqdan Mag'ribga yetib, balog'at maydonida zamon suxanvarlaridan o'zib ketdi*“, deganda mutlaqo haq edi.

Ma'lumki, Urfiy Sheroziy umrining oxirigacha saroy doirasida, zodagonlar qurshovida yashagan. Aftidan shoirni ana shu O'rdadagi aysh-u ishrat, farog'at-rohat qoniqtirmagan, hamisha u muhitdan dilgirlikda umrguzaronlik qilganga o'xshaydi. Zeroki, yuzlab g'azal va ruboiylari dard-nola bilan bitilgan. Ularda „g'am-xona“, „g'am“, „muhtoj“, „dushman“, „bekas“, „bexonumon“, „badbaxt“ singari so'z va iboralar goh radif, goh qofiya sifatida qo'llaniladi. „*Shomimning tonglari kamdir*“, „*barcha ham-suhbatlardan vafo ko'rsam-da, bunday mehrdan ko'ra jafo qilganlari ma'qul*“, degan shoir. „Xun ast“ radifli g'azalida o'z qismatini lo'nda, otashin tarzda tasvirlagan:

*Man bulbuli on gul, ki, gulobosh xun ast,  
Murg'obihi on bahr ki obash hama xun ast.*

(Urfiy Sheroziy, Devon, 221-bet).

(Mazmuni: *Men shunday gulning bulbulimanki, gulobi qondir, men shunday dengiz o'rdagimanki, butun suvi qondir.*)

Bunday dardchil mulohazalar „O'tdi“, „Ko'pdir“, „Nimadir“, „Motamdird“, „Bordi“, „Ofat“, „Yo'qdir“ singari radifli ko'plab g'azallarida bir qizil ipdek tizilib o'tadi. „*Jahon o'tadi, sen ham bir kun o'tajaksan, deb o'ylama, zeroki, minglab shamlarni o'chirgan bo'lsalar-da, anjuman boqiydir*“, degan shoirning quyidagi g'azalida o'zgacha fikr ifodalangan:

*Az nolayi shabona ajr burdayem mo,  
Nomusi giryahoyi sahar burdayem mo.*

*Bodi murod agar navazid dam-badam,  
Kishti zi mavjhez badar burdayem mo.  
Rohe ki Xizr dosht zi sar chashmayi davr bud,  
Lab tashnagi zi rohi digar burdayem mo.  
Sudi matoyi mo chi bud, ki zi diyori umr,  
Mijgoni xushk va domoni tar burdayem mo.  
Sirhoyi ofiyat nashnosem k-az azal,  
Dar garmseri ishq basar burdayem mo.  
Xome nafrat Urfiy gashtem bar-u bahr,  
Binishinki obro'yi safar burdayem mo!*

(Devon, 209-bet).

(Mazmuni: „Tonggi noladan ko'p ozor tortdik biz, tongotar yig'ilarning nomusini eltdik biz. Murod shamoli dam-badam esib turmasa ham, mavjlarda kemamizni yurgizdik biz, yo'ldagi Xizr suvi zamona chashmasi edi, o'zga yo'ldan labtashnalikdan o'tdik biz. Umrimiz diyoridan topgan matomizning foydasi nadur? Undan quruq mijgonlar-u ho'l etakni oldik biz. Ofiyat sirlarini bilmasmiz, chunki azaldan ishq garmselini boshda olib o'tdik biz. Urfiy, quruqlig-u dengizda yurdik, biz bilan o'tirgilki, safar qoshlarini eltibdur biz“.)

Demak, shoir g'azalda ijtimoiy mavzuni g'oyatda mohirlik bilan irfoniy tafakkurga bog'laydi: o'z boshiga tushgan ixtiyoriy g'am-anduhni qismat-taqdir bilan bog'lab, g'oyatda ehtiyotkorlik bilan yakunlaydi.

Barcha tadqiqotchilar Urfiy Sheroziy ruboiylarining bir zindagiynomasi ekanligiga e'tibor beradilar. Zeroki, har bir ruboiyda muallif ruhiy kechinmalarining muayyan qirrasini aks etganday tuyuladi: g'azallaridagi hayotdan, nomunosib do'stlarning g'ayriinsoniy harakatlaridan o'kinish, zada bo'lish to'rt misrada tugal tasvirlanadi. Roqimiy keltirgan ruboiy va quyidagi she'r bu fikrni tasdiqlaydi.

*Daste doramki, dar giriboni g'amast,  
Poye doramki vaqfi domoni g'amast.  
Jisme doramki bog'-u bo'stoni balost,  
Jone doramki jonu imoni g'amast.*

(Mazmuni: *Qo'lim doim g'am yoqasidadir, oyoqlarim g'am etagining vaqfidir. Shunday jismim borki, u bog'-u bo'stonning balosidir, shunday jismga egamanki, uning jon-u imoni g'amdir.*)



Insonni jisman ham, ruhan ham hasrat-nadomatga girif-torligini bundan-da mo'jazzbayonlikda tasvirlay bilish, badiiy ifodalash amri mahol bo'lsa kerak.

Urfiy she'rlarida o'z iste'dodiga mahliyolik, shaxsiy iftixor ancha kuchli. Hatto u she'rlarida o'zining Attor-u Rumiyan, Sa'di-yu Hofizdan kam emasligini qayta-qayta ta'kidlagan. Ba'zi tadqiqotchilar shoir ijodidagi bu motivni buyuklar dahosini e'tirof etish, ular sarchashmasiga minnatdorchilik, shukronalik sifatida talqin etadilar. Haqiqatan ham juda ko'p o'rinlarda shoir o'zining forsiyda g'azalsaro ekanligidan, „Sheroziy“ligidan, daholar qatorida ekanligidan faxrlanadi:

*Sherozki daryoyi maoniyi guharast,  
Yaktoyi guharash Urfiy sohibzar ast.*

*Bas-k-az du taraf moh va shon meguzarod,  
Har ko'chayi o' nishoni shaq-al-qamar ast.*

(Mazmuni: *Sheroz ma'no daryosining gavharidir, u gavharning bir donasi sohibzar Urfiydir. Modomiki, uning ikki tomondan oy-u shuhrat o'tar ekan, uning har ko'chasi du nim moh nishonasidir*).

Shoir ayrim ruboiylarini kamyob badiiy san'atlar, folklor va asotiriy unsurlar bilan sayqallaydiki, bunday xislat bu janrda kamdan kam so'z ustalariga nasib etadi. Quyidagi misralarda bir yo'la uchta an'anaviy obraz faoliyati bilan bog'liq lavhaga ishora qilinmoqda:

*Shirin bo vafoyi Ko'hkan menozad,  
Ya'qub ba bo'yi pirohan menozad.  
Dovud ba lahni xeshtan menozad,  
Ishqi tu ba nolahoyi man menozad.*

(Mazmuni: *Shirin Farhodning vafosidan yayraydi. Ya'qub ko'ylak hididan yayraydi. Dovud o'z kasb-kuyi huzuridan yayraydi, sening ishqing mening nolalarimdan yayraydi*).

Shoir asarlari orasida axloqiy-ta'limiy, orifona ruboiylar ham uchraydi. Mana bu baytlar fikrimiz dalilidir:

*So'fi bo firebi mard-u zan mashg'ul ast,  
Nodon ba imorati badan mashg'ul ast.  
Dono ba karashmayi suxan mashg'ul ast,  
Oshiq ba haloki xeshtan mashg'ul ast.*

(Mazmuni: *So'fi erkag-u ayolni aldash bilan mashg'ul, nodon badani parvarishi bilan mashg'ul. Dono — so'zga sayqal berish bilan mashg'ul, oshiq esa o'zini halok etish payida mashg'ul.*)

Urfiy ruboiylarining aksariyati taronayi ruboiy usulida yozilgan. Ularda ko'pincha qo'shqofiya qo'llaniladi; ba'zan barcha misralar qofiyalanib keladi. Shoir ko'pincha ruboiyda taxallus qo'llaydi.

Xulosa qilib aytganda, Urfiy Hindistondagi forsiy she'riyatni mavzu jihatidan ham, shakl, janr nuqtayi nazardan ham, poetik tomondan ham yangi taraqqiyot bosqichiga ko'targan san'atkordir. Uning hasbihol, tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlari mutlaqo betakrordir. Shuning uchun ham aksariyat o'tmish tazkiranavislar Urfiy Sheroziy ijodi tahlili va ta'rifiga alohida e'tibor bergan.

## SHE'R ILMINING SAROMADI RO'ZG'ORI ERUR

Ma'naviyatimiz tarixida shunday sarchashmalar borki, ularni har gal mutolaa qilganingizda yangicha zavq, olam-olam taassurot olasiz, bilimingiz teranlasha boradi. Mashhur adabiyotshunos, shoir hazrat Navoiyning nazari tushgan alloma **Davlatshoh Samarqandiyning** „Tazkirat ush-shuaro“si ana shunday obidalardan biri. Kamina „Shohnoma“ va o'zbek adabiyoti muammosini o'rganib yurgan kezlarimda tazkiraning Firdavsiyga oid faslinigina o'qib chiquvdim. Asarni ikkinchi bor mukammal ko'zdan kechirganimda u haqdagi fikrlarim mutlaqo o'zgardi, Sharq adabiyoti haqidagi ko'p qarashlarim to'lishdi, Asadi Tusiy ijodining yangi nuqtalari aniqlandi.

Davlatshoh taxminan 1436—1437-yillar orasida Samarqandda tug'ilgan. Uning to'la ismi Amir Davlatshoh Valadiy amir Aloviddin Baxtishohiy G'oziy Samarqandiydir. Otasi Alouddavla asli isfaralik bo'lib, Shohruh Mirzoning lashkarboshilaridan ekan; akasi amir Rizoiddin Ali bo'lsa Abulqosim Bobur hamda amir Muhammad Xudoydodlar dargohida nadiqlik vazifasini o'tagan; forsiy va turkiyda she'r bitgan. Bo'lajak adabiyotshunos yoshligidan ilm o'rganish bilan jiddiy shug'ullanib, zamonasidagi diniy hamda dunyoviy bilimlarda kamolot kasb etadi. Fazlulloh Samarqandiy qo'lida tahsil ko'radi, arab tili va adabiyotini puxta o'rganadi. Shundan so'ng

u Hirotga kelib Husayn Boyqaro saroyiga xizmatga kiradi, Andxo‘y jangida sarboz sifatida ishtirok etadi. Navoiy, amir Shayxim Suhaylilar bilan oshnolik paydo qiladi. Ammo tez orada bu vazifani tark etib, „ajdodlari amirzoda“, o‘zi barcha sohada „kamolot kasb etgan“ (Navoiy) bo‘lishiga qaramay, umrining oxirigacha dehqonchilik bilan shug‘ullanib, taxminan 1495—1498-yillar orasida vafot etgan.

Alisher Navoiyning ma‘lumotiga qaraganda, Davlatshoh *ruboiy, g‘azal, qit‘a, masnaviy, qasida, tarix, marsiya* janrlarida yaxshi she‘rlar bitgan iste‘dod egasi bo‘lgan. Uning qasidalari vasfiy mohiyatiga ega bo‘lib, Jomiy, Husayniy, Navoiy kabi zamondoshlariga bag‘ishlangan. Aftidan Davlatshoh forsiy va turkiy tillarda barobar ijod qilganga o‘xshaydi. Zeroki, uning bisotida parokanda o‘zbekcha baytlar, bir mulamma‘ uchraydi. Davlatshoh she‘rlarida ko‘proq *ijtimoiy, falsafiy, axloqiy-ta‘limiy* masalalar o‘z aksini topgan. *Tajnis, majoz, tazod* kabi san‘atlardan zo‘r mahorat bilan foydalangan. Quyidagi ruboiy fikrimizni tasdiqlaydi:

*Ey hamnafason, ajab saroyest jahon,  
Boshed az in saroy badmehr jahon,  
In ast dar in jahoni dun kori mehon,  
Chun kori mehon chunin buvad, voy kehon.*

(Mazmuni: *Ey, hamnafaslar, bu jahon ajoyib bir saroydir, bu mehrsiz saroydan ehtiyot bo‘ling, bu jahonda ulug‘larni ishi teskaridir, shunday bo‘lgach, kichiklarning holiga voy*).

Bu xushta‘b shoir va nuktafahm olimga jahoniy shuhrat keltirgan asar „Tazkirat ush-shuaro“dir. Davlatshoh Samarqandiy bir umr dehqonchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, muttasil tarzda zamonasigacha bo‘lgan forsiy she‘riyatning tarixiga doir dalillarni jamladi, majmua, devonlarni ko‘zdan kechirdi, o‘zigacha yashab o‘tgan shoirlarning hayoti, faoliyati, ijodiga doir sarchashmalarni o‘rgandi; Saljuqiylar davri adabiyotshunoslari Abu Tohir Xotuniy, Nizomiy Aruziylarining asarlaridan fayz topib, 1487-yili „Tazkirat-ush-shuaro“ asarini yozib tugatdi va Alisher Navoiyga taqdim etdi. Muallif tazkirasini yozishda unda zikr etilgan adiblarning o‘z asarlaridan tashqari „Tarixi Bayhaqiy“, „Masolik va mamolik“, „Hadoyiq us-sehr“, „Tarixi guzida“, „Tarjimon ul-balog‘a“, „Suvari aqolim“, „Tazkirat ul-avliyo“, „Nizom ut-tavorix“,

„Javome' ut-tavorix“, „Tarixi Juvayniy“, „Xulosayi Bano-katiy“, „Maqomati Nosiriy“ kabi o'nlab manbalardan keng istifoda etgan. Lekin negadir muallif bizgacha yetib kelmagan yoki hali qo'lyozmasi topilmagan „Manoqid ush-shuaro“ni eslab o'tgan holda, Muhammad Avfiyning „Lubob ul-albob“ tazkirasini qayd etmagan.

„Tazkirat ush-shuaro“da o'tmishda yashagan 153 ta va zamondoshlaridan 7 ta shoirning hayoti hamda ijodiy faoliyati haqida ma'lumot berilgan. Adib asar muqaddimasida she'rning paydo bo'lishi haqida batafsil ma'lumot berib, arab shoirlaridan 10 nafarini zikr etadi. Xotimada esa, zamondoshlarining hayoti, faoliyati va adabiy merosini zikr etadi. Bundan tashqari, Davlatshoh u yoki bu adabiy muhit doirasining zabardast vakili to'g'risida fikr yurita turib, o'sha doira va maxfilda umr surgan 120 ta ijodkorlar haqida ham yo' -yo'lakay bo'lsa-da qiziqarli dalillar keltirgan. Ibn Sino, Umr Xayyom, G'azzoliy, Kaykovus, Nasriddin Tusiy, Alaxustiyalar xususidagi ma'lumotnomalar alohida fasllarni eslatadi. Bundan tashqari, adibning Saolibiy, Faxriddin Roziy, Abu Suhayli Sa'lukiy, Avhaduddin Kirmoniy, Muhammad Ko'histoniy, Sadrush Shuaro Buxoriylar haqidagi dalillari ham diqqatga molik.

Eng muhimi shundaki, Davlatshoh qalamga olgan har bir shoir haqida iloji boricha mukammalroq ma'lumot berishga — ismi-sharifi, laqabi, tug'ilgan yeri, ajdodi, ilm o'rganish bobidagi riyozati, kasb-kori, necha yil umr ko'rgani, vafoti tafsili, qabrining o'rni, ustoz, shogirdi, moddiy ahvoli, merosi, asarlarining nomi, janr turi, mavzu doirasi, til va uslubi haqida qiziqarli dalillarni keltirib o'tadi. Davlatshoh biron bir adib haqida fikr yurita turib asarlarining tarqalishi, devonining mavjud yoki mavjud emasligi, xalq tomonidan sevib o'qilishi, buyuklarning nazari tushganligi, unga payravlik qilgan ijodkorlar, ba'zi bir janrlarning paydo bo'lishi, xullas, adabiy jarayonning barcha jabhalarini yoritishga harakat qilgan.

Davlatshohning fikricha, she'r inson yaratilgan kundan boshlab uning ruhiy kechinmalarini aks ettirish vositasi sifatida paydo bo'lgan. Shuning uchun uning tarixi juda ko'hna. Jumladan, olim forsiy tildagi she'riyatning islomdan bir necha asrlar burun vujudga kelganligini ko'p dalillar bilan aniq isbotlagan. Tazkirada shunday bir naql keltirilgan: „Abbosiyalar

xalifaligi zamonida Xuroson raisi bo'lib turgan Abdulloh binni Tohirga kunlardan bir kuni Nishopur shahridan bir kishi qo'lyozma kitobni taqdim etdi.

— *Bu qanday kitob? — so'radi Rais.*

— *Taqsir, bu „Vomiq va Uzro“ qissasi. Uni hakimlar podsho Anushervon uchun yozishgan, — deb javob berdi u.*

— *Biz qur'onxon odamlarmiz. Bizlar Qur'on va Payg'ambar hadislaridan o'zga kitobni o'qimaymiz. Bizga bunday kitob kerak emas, uni mug'lar yozishgan, mug'lar yaratgan har qanday kitob biz uchun zararlidir, — dedi-da, o'sha kitobni soyga tashlab oqizib yubordi. Shundan so'ng Xuroson raisi „mening hukmronligim hududida mug'lar va ajamliklar yaratgan har qanday kitob yoki maqolalar qo'lga tushsa, o'tga tashlab kuydiringlar“, deb farmon chiqardi.*

Anushervoni odil (1513—1579-y.y.) zamonida pahlaviy tilida yaratilgan „Vomiq va Uzro“ qissasining Abdullo binni Tohir (820—844) zamonigacha mukammal yetib kelganligi muhim adabiy hodisa bo'lib, u doston salohiyatining naqadar uzoq tarixga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ko'hna Sharq o'tmishidagi juda ko'p hokimlar, amir-u shohlar, bekszoda-yu shahzodalar ilm-fan, san'at, madaniyat, badiiy ijodning ravnaqiga ko'maklashgan, ko'pincha homiylik qilgan. Ayni paytda ularning aksariyati she'riyat sehrini ilg'ab, davr poeziyasi taraqqiyotiga munosib ulush qo'shgan. „Tazkirat ush-shuaro“ saroy adabiyoti tarixini, biron bir hokim, ijodkor faoliyatini o'rganishdagina muhim manba bo'libgina qolmay, davr tarixi, ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishda ham noyob sarchashmalardan biri hisoblanadi. Zeroki, adib G'azoyiriy Mahmud Bundor — Majduddavla, Amaq — Sanjar, Jaloliddin Abdurazzoq — Jaloliddin Xorazmshoh, Jalol tabib — Shohshujo', Sayid Ne'matulloh — Shohruh, Husayniy — Husayn Boyqaro kabi ijodkor hokimlar xususida so'z yuritir ekan, ularning siyosiy, iqtisodiy sohadagi faoliyatlarini, jang-u jadallar, zafar-u mag'lubiyatlarini tadrijan bayon etishga, ijodkorning ayni paytda davlat arbobi sifatidagi siymosini kitobxon ko'z o'ngida to'la gavdalantirishga harakat qilgan. Ibn Yamin hayoti va ijodi haqida fikr yuritish jarayonida muallif o'n bir sahifada sarbadorlar davlatining paydo bo'lishi, uning ma'naviy-ma'rifiy siyosati, mafkurasi va nihoyat falokati

haqida aniq asosli fikr yuritgan. Davlat boshqaruvida faoliyat ko'rsatgan har bir sarbador — hukmron zikriga tazkirada batafsil to'xtab o'tgan. Chunki bu masala tarixchilar nazaridan chetda qolib kelar ekan. Demak, bu asar XV asrning boshlarigacha bo'lgan Sharq xalqlari tarixining ko'p jihatlarini, madaniy hayot, ilm-fan tarixini o'rganishda ham birinchi manbalardan biri hisoblanar ekan.

Aftidan, tazkirani yozishda Davlatshoh foydalangan manbalardagi dalillarda ishtibohli o'rinlar ham bo'lgan ko'rinadi. Zeroki, kitobda „Shohnoma“ning xotimasini qartayib qolgan Firdavsiy Asadi Tusiydan yozib tugatishni iltimos qilgan, „*Nosir Xisrav asli isfaxonlik edi*“, degan fikrlar uchraydikim, ular tarixiy haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Demak, „Tazkirat ush-shuaro“dagi ayrim fikrlarni boshqa sarchashmalar bilan qiyosan qabul qilish va o'rganish lozim ekan. Ana shunda biz kitobda zikr etilgan ba'zi dalillarga tarixan, ilmiy jihatdan to'g'ri yondashgan bo'lamiz.

Davlatshoh Samarqandiy Husayniy, Navoiy kabi o'zbek shoirlari ijodiga keng to'xtash bilan birga, Bundori Roziy, Mas'ud Sa'di Salmon, Amir Shayxim Suhayliy singari ikki va uch tilda barobar asarlar yaratgan ijodkorlar haqida ham qiziqarli dalillar keltirgan. Bu xislat tazkiraning Sharq xalqlari ma'naviyatidagi zullisonaynlik an'anasi, mulamma' janri tarixini o'rganishdagi ahamiyati ham beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, shoir va adabiyotshunos Davlatshoh Samarqandiyning „Tazkirat ush-shuaro“ asari fors-tojik hamda o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishdagina emas, balki butun Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, ilmi, adabiy-estetik qarashlari tarixini o'rganishda ham tengsiz kitobdir. Buni muallifning juda ko'p adiblar haqida gapirganda „She'r ilmida mohir“, „Aruz haqida risola bitmish“, „She'riy san'atlar haqida kitobi bor“, „Ilmi she'rda saromadi ro'zg'or edi“, „Muammo fanida risolalar tasnif etgan“ singari fikrlari ham tasdiqlaydi. Davlatshoh ijodini o'rganish va targ'ib etishda akademiklar A. Mirzoyev, V. Abdullayev, B. Valixo'jayev, B. Ahmedovlarning xizmatlari katta. Ustoz Bo'rivoy Ahmedov tazkiraning ixchamroq o'zbekcha tarjimasini ham yaratgan va adib haqida batafsil so'zboshi bilan 1967-yili nashr ettirgan.



## HAQIQAT VA MA'RIFAT YALOVBARDORLARI

### KOMILLIKKA YO'LLOVCHI BAYTLAR

O'tmishdagi maktab va madrasalarimizda, xususiy muallimlar ixtiyoridagi ta'lim tizimida Qur'oni Karim, Hadisi sharif, Haftyak, Chor kitoblar bilan birga, mashhur zullisonayn lirik shoir, dostonnavis, islomiy ahkamlarning jonfido targ'ibotchisi **So'fi Olloyorning** „Sabot ul-ojizin“, „Maslak ul-muttaqin“ asarlari ham bir darslik sifatida o'qitilgan. Afsuski, kommunistik mafkura va sho'rolarning shovinistik siyosati bu adib ijodini o'rganish, nashr etib o'rgatishga yo'l qo'ymadi. Xalqimiz milliy mustaqillikka erishgandan so'ng, boshqa islomiy she'riyat singari So'fi Olloyor ijodi ham jiddiy o'rganila boshlandi, „Sabot ul-ojizin“ nashr qilindi. Xususan, filologiya fanlari doktori Inoyatullo Suvonqulovning bu sohadagi izlanishlari-yu zahmatkashligi tahsinga loyiq.

Bo'lajak adib 1644-yili Kattaqo'rg'onning Minglar qishlog'ida ziyoli oilasida dunyoga keladi. Otasi Temir Yor o'g'lining tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanadi: u 12 yoshigacha o'z qishlog'ida o'qiydi, keyinchalik Buxoroga borib, madrasalarda bilim olib, zamonasidagi barcha fanlarni o'rganadi, badiiy ijod sehrini egallaydi, o'zbek va tojik tillarida asarlar yoza boshlaydi. Madrasa xatmidan so'ng So'fi Olloyor bir necha yil Buxoro amirining Hisor va Qubodiyon tumanlari soliq mahkamalarida ishlaydi, „*Shumlig'im, rasvolig'im tegdi viloyat xalqiga*“, deb keyinchalik adib o'zining ana shu faoliyatidan nadomat chekadi.

So'fi Olloyorning islomiy aqidalar yalovbardori darajasiga yetishida uning shayx Navro'zga qo'l berib, undan dars olishi, mashhur Ofoqxo'ja eshon, otashzabon shoir Mashrablar bilan muloqotlari, oddiy mehnatkash xalq hayoti, ruhiyati bilan yaqinroq tanishuvi muhim bosqich bo'lgan.

Umrlining ko'p qismini so'fiylik g'oyalarini targ'ib etib, komillik sari intilgan zabardast shoir 1721-yili Vaxshivarda vafot etgan.

Professor I. Suvonqulovning uqtirishicha, bu sana „Sabot ul-ojizin“ning bir qo‘lyozmasida hamda „Sharhi So‘fiya“ kitobida aniq ko‘rsatilgan.

So‘fi Olloyordan bizga qadar katta hajmda ijodiy meros qolgan. Turli majmualar, bayozlarda saqlanib qolgan lirik she‘rlar, „Murod ul-orifin“, „Maslak ul-muttaqin“, „Maxzan ul-muteyin“, „Sabot ul-ojizin“ kabi axloqiy-ta‘limiy, ijtimoiy-falsafiy masnaviylar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, I. Suvonqulov shoirning „Mevalar munozarasi“ nomli manzumasi ham mavjudligini aniqlashga muvassar bo‘lgan.

So‘fi Olloyor o‘zbek va tojik tillarida bitilgan lirik she‘rlarida, bir tomondan, dunyoviy muhabbatni, yorning chiroyi hamda noz-u istig‘nosini turli-tuman badiiy bo‘yoqlarda tasvirlasa, ikkinchi tomondan, mavjud ijtimoiy tuzum illatlarini, odamlar orasida uchraydigan gina-adovatni tanqid qilib, ularni pok va rost yo‘lga da‘vat etadi: nafis badiiy vositalar, tashbehlar ishlatadi, mutlaqo o‘ziga xos qiyoslar yaratadi:

Ko‘rk uchun tushti ziloli la‘la mushkin xattu xol,  
Tuzdi suhbat Xizr ila Kavsar qirog‘inda hilol.  
Nargisi masting xumori bodadin gulgunmudur,  
Yo, budurkim lolazor ichra tushan vahshiy g‘izol.

Birinchi baytda yorning la‘li ziloli sohilida turgan mushk taratuvchi xat (qora tuk) va xol jannatning Kavsar hovuzi labida Xizr bilan suhbatlashayotgan oyga o‘xshatilsa, keyingi misralarda, bodadin gulgun bo‘lgan yorning xumor ko‘zlari lolazorga tushgan hurkkich-yovvoyi kiyikka o‘xshatiladi. Quyidagi baytlardan ham shoirning chinakam hayot go‘zalligini vasf etganligini, ma‘shuqaning vafosi-yu jafosi oshiq uchun birday totli, farahbaxsh ekanligini his etamiz. Shunga ko‘ra, shoir o‘z yorini turli xil hayotiy detallarga o‘xshatadi:

Sen bu nozikluk bila yo hur, yo ayyorsan,  
Yo pari, yo lola, yo gulshani bahorsan.

„O‘lmas“ radifli g‘azalida shoir soliqning maqsad yo‘lida riyozat chekmog‘ligi, albatta, ustod — pirga ergashmoq, qo‘l bermoq lozimligi, bu yo‘ldagi har qanday to‘siq, monelikni „*Jon chekib, g‘ussa yutib, jigarni qon qilib*“ mardonavor yengib o‘tmoq zarurligini uqtiradi:

Boshini dosha urub, doni elakdin o‘tmay,  
Musht yemay, o‘t ichina solsalar, non o‘lmas.



Ey, yigit, maslahating bilgali bir pir kerak,  
Bekamon o'q necha tuzlik ila parron o'lmas.

Umrining asosiy qismini haq yo'liga, irfoniy bilimlar targ'ibiga, so'fiylik ta'limotini keng xalq ommasiga singdirishga safarbar etgan So'fi Olloyor *zulum-zo'rlik, takabburlik, sud-xo'rlik, vafosizlik, loqaydlik, tamagirlilik, tanballig-u behunarlikni; mansab-martaba, mol-dunyoni deb janjalkashlik qilish, dilozor, noittifoq bo'lishni* qattiq qoralaydi; zamondoshlariga tanbeh beradi, bir mutafakkir sifatida pand-nasihat qiladi. „Arzimas“ radifli g'azali ana shundan shahodat beradi:

Do'stlar, bu bevafo dunyoda mol-u mulk uchun,  
Bir-biringni og'ritib, noshod qilmoq arzimas.  
Mansab-u dunyo uchun ahli hukumat oldida,  
Qo'l qovushturib turibon, dod qilmoq arzimas.  
Olig'-u solig' bilan mullo-yu xoja — barchani,  
Yuz jafu-yu jabr ila, aftoda qilmoq arzimas.  
Turk-u tojik, o'zbek-u sahnoshinlarni mol uchun,  
Kecha-yu kunduz urib, noshod qilmoq arzimas.

Demak, ma'lum muddat davlat xizmatini ado etgan shoir o'z zamonasidagi o'zaro feodal nizolarni, mehnatkash xalq boshiga kulfat tushirayotganlarni o'z lirik she'rlarida ro'yirost tanqid qilgan, hukmron tabaqalarni *insondo'st, adolatli* bo'lishga undagan. Tojik tilidagi g'azallarida ham hikmatomuz baytlar ko'plab uchraydi.

So'fi Olloyor masnaviylari mavzu doirasi jihatidan ham, g'oyaviy yo'nalishi nuqtayi nazaridan ham o'zbek didaktik she'riyatida katta hodisa bo'ldi. Zeroki, ularda shoir komillik sari yo'llaydigan barcha shart hamda qarzlarni birma-bir bayon etadi; islomiy farz va sunnatlarning mohiyatini tushuntiradi, ularni bajarish yo'l-yo'riqlarini sharhlaydi, ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu manzumalar o'tmishda maktab va madrasalarda asosiy qo'llanmalardan biri hisoblangan. Jumladan, „Sabot ul-ojizin“, „Murod ul-orifin“ kitoblarida, asosan, Murshid va Muridning burch hamda vazifalari, so'fiylarning dunyoqarashi, qanday bilimlarni o'rganishi haqida mulohaza yuritilsa-da, shoir toliblik, tama qilmaslik, ahd, vafo, sidq, muhabbat, saxovat, to'g'rilik, xiyonatdan yiroq bo'lmoq, chin erga ergashmoq va boshqa juda ko'p hayotiy masalalar xususida fikr

yuritadi; imonda sobitqadamlik, ahdga vafo — inson kamolotida muhim bosqichdir. Shoir fikricha, inson umr bo‘yi ilm o‘rganmog‘i, ma‘rifat kasb etmog‘i lozim; har qanday holatda ham xokisorlikni unutmashlik darkor:

Muyassar bo‘lsa tillodin sanga taxt,  
O‘zingdin pastga zinhor aytmagil saxt.

Inson aqli yetadigan ishni qilishi, qo‘ldan keladigan yumushni bajarmog‘i lozim. Ayni paytda ahdiga sodiq, va‘dasiga vafodor bo‘lishi zarur. Bajara olmaydigan ishga qo‘l urib, va‘da berib, ahdida turmaslik insonni bu dunyo-yu u dunyo badnom qiladi:

Xilof etgan zabunlardan zabundur,  
Bu dunyo-yu u dunyosi nagundur.  
Xilof etsang agar ayg‘on so‘zingdin,  
Ko‘tar erkaklik otini o‘zingdin.  
Chiqormog‘il og‘izdin, qilmas ishni,  
Qilurman, dema qo‘ldan kelmas ishni.  
Kerak erman, deganning va‘dasi tuz,  
Agar tuz bo‘lmasa, ondin ko‘ngul uz.

So‘fi Olloyor kishilarni bilim egallash, kasb-hunar o‘rganishga da‘vat etar ekan, halol mehnat bilan peshana terini to‘kib, rizq-u ro‘z topib yeyishni, pok va pokdomon yashashni, birovlar minnati jabrini tortmaslikka, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi, tamagirlikni qoralaydi:

Xudoyim har na bersa qil qanoat,  
Yurakni qilma minnatdin jarohat.  
Bu mehnat birla topsang parcha non,  
Kishining minnatidini uddur oson.  
Tama noniga lab ochguncha o‘l och,  
Tama bo‘yi ko‘rinmay bo‘yding qoch.

Xullas, So‘fi Olloyor asarlarida kitobxonni *halollik, poklik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, odamoxun bo‘lish*, yoshlikdan *ilm-ma‘rifat egallash, sadoqatli, qanoatli, rizoli, ta‘zim-tavozeli, imon-e‘tiqodli* bo‘lishga o‘rgatadi; *g‘ayriinsoniy, g‘ayrishar‘iy* ishlardan parhez qilishga undaydi. Bular esa komillikning asosiy belgilaridandir. Demak, shoir asarlari *insondo‘stlik* va *ma‘rifatparvarlik* g‘oyalari bilan sug‘orilgan ekan.

## SAROY ADABIYOTI XUSUSIDA

Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan beri madaniyat, ilm-fan hamda ma'naviyatning boshqa shoxobchalari, asosan, shaharlarda — u yoki bu hukmdorning, hokimiyatning atrofida, o'rda bilan bog'liq holda vujudga kelgan, rivojlangan.<sup>1</sup> 32 hunarli manzilgohlar — shaharlarda vujudga kelgan ilk feodal davlatlarning zodagonlari, keyinchalik, shohlar o'z yurtlari hududida, saroylarida ilm-adab ahli qancha ko'p bo'lsa, shuncha quvonishgan. Zeroki, olim-u fozillar, badiiyat sohiblari saltanatning ko'rki bo'lib, uning shuhratini orttirgan. Chunonchi, Eron shahanshoi **Xusrav Parviz** (570—628 yillar hukmronlik qilgan) sevikli yori Shirinning maslahati bilan Madoyin qasri — Toqi Xusravni bunyod etar ekan, turli o'lkalardan da'vat etilgan me'morlar, ganchkor, o'ymakor, sangtarosh, miskar, ohanrez, naqbkkan, garmobasozlar yordamida o'nlab saroylar qurdiradi. Shundan so'ng u Eron-u Xuroson, Movarounnahrdan ikki mingdan ziyod chehrakusho, sangbur (marmarga sayqal beruvchi, haykal yasaydiganlar), adib, raqqosa va raqqos, hofiz, noqil va roviylar, ohangsozlarni jam etib, turli xil dastalarni tuzib, maxsus ijodxonalar tashkil etadi. Firdavsiy, Nizomiy, Saolibiy Madoyin qasridagi san'at ahlini alohida sanab, ta'riflashgan; Xoqoniy Shirvoniy bo'lsa „Madoyin ayvoni“ nomli qasida yozgan. Harbiy va to'y marosimlari, diniy marosimlar, fasl marosimlariga oid dastalarga Sarkash, Sarkab, Nekiso Changiy, Soroush singari bastakorlar, qizlar guruhiga esa 300 ohang muallifi, shoira, raqqosa va bastakor Ozodvar Changiy rahbarlik qilgan. Ularning yagona sardori Borbad Marvaziy bo'lgan. E'tiborli jihati shundaki, Toqi Xusrav atrofiga uyushgan barcha hunar egalari xos qarorgohlarda yashaganlar, shohlik xazinasidan maosh bilan ta'minlanganlar. Shuning uchun ham kandakorlikdan shoirlikkacha ijodning barcha sohasi yuksak darajada taraqqiy topgan.

O'rta asr Sharqi tarixiga sinchiklab nazar tashlasak, deyarli barcha davrlarda hukmron sinflarning ilg'or toifalari ilm-fan, madaniyat, san'at va badiiy ijod rivojiga alohida e'tibor berganlarini ko'ramiz. Ular ijodkorlarga jamiyatning eng pesh-

---

<sup>1</sup> Ushbu lavha prof. A. Hayitmetov bilan hamkorlikda yozilgan.

qadam vakillari sifatida qarab, faoliyatlarini kuzatib borgan, baʼzan yoʻnalish bergan, oʻz himoyalari olib, iloji boricha ragʻbatlantirib turishga intilgan.

Arab xalifaligida nisbatan osoyishtalik vujudga kelib, bosib olingan yerlardagi xalqlarning xuruj-u isyonlari pasaygach, **Maʼmun** (786—833) Bagʻdodda „Bayt ul-hikmat“ deb atalmish maxsus ilmgoh tashkil etadi va Eron-u Xuroson hamda Movarounnahrda yuzdan ziyod olimlarni taklif etadi, yangi tibbiy va matematik maktablar ochadi. Ular ilm-fanning deyarli barcha sohalari boʻyicha tadqiqotlar olib boradilar, jahoniy ahamiyatga molik asarlar yaratadilar. Taborak, Tus hamda Isfahon rasadxonalari Movarounnahrda borgan olimlar ishtirokida davlat mablagʻi hisobiga qurilgan. Nosir Xisravning guvohlik berishicha, xuddi shu yillari Balx, Marv, Tus, Halab va Shom shaharlarida yerosti quvur suvlari (vodoprovod), tashlandiq va oqovalar yoʻli (kanalizatsiya) qurilishiga shohlik xazinasidan katta mablagʻlar sarflangan.

Arab xalifaligi yemirilib, Eron-u Movarounnahrda yangi milliy markazlashgan davlatlar paydo boʻlishi bilan rahalliy shoh va amirlar xalqning koʻhna anʼana, udumlarini qayta tiklab, rivojlantirishga jazm etdilar. Ular xalq tili, madaniyat, ilm-fan bilan birgalikda insonning maʼnaviy kamolotida muhim oʻrin tutgan badiiy adabiyotga ham alohida eʼtibor berdilar. Natijada *somoniyilar, qoraxoniylar, gʻaznaviylar, xorazmshohlar, saljuqiylar, shirvonshohlar* (XI—XIII asrlar) sulolalari hukmronligi davrida forsiy va turkiy tillardagi adabiyot oʻzining yangi taraqqiyot bosqichiga koʻtarildi. Unsuriy, Manuchehriy, Amʼaq Buxoriy, Farruxiy, Muizziy, Rashid Samarqandiy, Adib Sobir Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Rashididdin Votvot, Zohir Faryobiy, Xoqoniy Shirvoniy va boshqa oʻnlab sanʼatkorlar bevosita saroy adabiyoti doirasida qalam tebratdilar. Nizomiy Aroʻziy Samarqandiy xorazmshohlar va saljuqiylar saroyi doirasida ellikdan ortiq shoir yashab ijod etganligini yozib qoldirgan. Mahmud Gʻaznaviy Beruniy boshchiligidagi olimlar hamda adiblarga xos qarorgoh — saroylar qurdirib bergan; **Sulton Husayn Jaloyiriy** (1375—83-yillari hukmronlik qilgan) Valiyonkoʻhdagi mulkini Kamol Xoʻjandiyga inʼom etgan. Agar xalifa Maʼmun Aboʻmansur Muammariyga Ajam afsonalari asosida nasriy „Shohnoma“ tuzishni, soʻngra Somoniy hukmronlar ajdodlar anʼanasini tiklashga kirishib,

dastlab Daqiqiyga (956—980), soʻngra Firdavsiyga (941—1025) sheʼriy „Shohnoma“ yozishni topshirmaganlarida, ehtimol Ajam xalqlarining eng koʻhna tarixi-yu maʼnaviy dunyosi bu darajada balogʻat va fasohat bilan nazm silkiga tushmagan boʻlardi. Ayrim olimlar Firdavsiyning „Sulton Mahmud haqidagi hajv“idan milliy ixtiloflar qidirib topishga urinishadi. Bu sheʼriyatning oʻziga xos xususiyatini hisobga olmaslik natijasidir. Buning ustiga shahanshoh Mahmudning „Shohnoma“dek asarni oʻqishga vaqti boʻlmasdi. Ayoq va Unsuriy singari sultonning yaqin odamlari Firdavsiyning saroyda martabasi oshib ketishini istamasdilar. Shuning uchun ulardagi igʻvo, koʻrolmaslik, xudbinlik sheʼrda shaxsiy adovatdek ruhning boʻrtib ifodalanishiga sabab boʻlgan.

Maʼlumki, **Nizomiy** (1141—1209) bir umrga muhtojlikda yashagan boʻlsa ham biron hukmron saroyida xizmat qilishni ixtiyor etmagan. Ammo shoir ijodining ravnaqi, shuhratida hukmron tabaqalarning xizmati ham yoʻq emas. Chunki „Xamsa“dagi barcha dostonlar u yoki bu shirvonshohning buyurtmasi bilan bitilgan va shoir taqdirlangan ham. U yoki bu hukmron homiyligida, uning qasrida yashagan ijodkorning oʻz mamdoʻhini taʼrif va tavsif etadigan qasidalar bitishi, baʼzan tor intim hissiyotlarni ifodalaydigan gʻazallar yozishi tabiiy. Ammo ular ijodini mukammal oʻrganib, uning yaratuvchilik mahorati toʻgʻri tadqiq etilsa, bu ijodkorlarning adabiy jaryonda tutgan oʻrni toʻgʻri baholangan boʻladi. Bundan tashqari, Rudakiy, Nizomiy, Aroʻziy Samarqandiy, Kaykovus, Amir Xusrav Dehlaviy kabi bevosita saroy bilan bogʻliq ijodkorlar forsiy tildagi badiiy adabiyotning ravnaqiga koʻp hissa qoʻshdilar, Kamol Xoʻjandiy, Adib Sobir Termiziy, Avhadiddin Anvari, Sanoiy, Xoqoniylar saroy doirasida boʻlsalar-da, shohlar nazdidagi obroʻlariga, xalq hurmatiga suyanib oʻz asarlarida *vatandoʻstlik*, *insonparvarlik*, *adolatpeshalik* gʻoyalarini targʻib etib, mavjud ijtimoiy tuzum illatlarini, xususan, yurtni xarob etadigan oʻzaro feodal urushlarni roʻyirost qoraladilar. Ajablanarlisi shundaki, bu shaddodliklari uchun ular taʼqib etilmadi.

Toʻgʻri, baʼzi adiblar saroydagi feodal fitna va igʻvolardan aʼqiyat tortdilar, tuhmat, boʻhtonlarga uchradilar, hasad va xusn-at oʻrqasida tahqirlandilar. Lekin baribir oqibat natijada homiylari muruvvatidan mahrum boʻlmadilar. Saroyga yaqin

turgan adiblar, ya'ni saroy adabiyoti vakillari *adabiy tilni yuk-saltirish, g'azal, qasida, masnaviy, yodnoma* janrlarini takomillashtirishga benihoyat katta hissa qo'shdilar. Xuddi shu davrda, saroy doirasida eng ko'p qasida yozildi. Ma'sud Sa'di Salmon, Amir Muizziy, Xoqoniy Shirvoniy, Farruxiy, Anvariylar bu janrning mavzu doirasini, ifoda imkoniyatlarini yangi taraqqiyot cho'qqisiga olib chiqdilar: ko'plab falsafiy, hasbihol, bahoriya mavzusida hamda ijtimoiy-siyosiy, tanqidiy ruhdagi qasidalar yaratildi. Bugina emas, Sharq ilm-fanining asosiy kashfiyotlari saroy doirasida yuz berganidek, *yodnomanavislik, tarixnavislik* hamda axloqiy-ta'limiy mohiyatdagi „Tarixi Tabariy“, „Tarixi Narshaxiy“, „Tarixi Bayhaqiy“, „Zafarnoma“, „Matla ul-sa'dayn va majma' ul-bahrayn“, „Futuhoti xoniy“, „Mehmonnomayi Buxoro“, „Tarixi Muqimxoniy“, „Siyosatnoma“, „Qobusnoma“, „Axloqi Muhsiniy“ kabi asarlarning ko'pi u yoki bu sulola hukmronlarining xohishi, istagi, buyurtmasiga ko'ra ta'rif etilgan. Shuni ham ta'kidlash kerakim, saroy adabiyoti doirasidagi aksariyat san'atkorlar bag'ishlov yoki tavsif xarakteridagi asarlarida ko'pincha mamdo'h — madh etilayotgan hukmronning qanday ekanligini ko'rsatishdan ko'ra, qanday bo'lishi lozimligini ko'zda tutganlar.

O'zbek adabiyoti ham boy tarixga ega bo'lishi bilan birga, murakkab yo'llar bilan rivojlandi, uning shu kungacha hal etilmagan muammolari ham yo'q emas. Shulardan biri saroy adabiyoti yoki feodal-saroy adabiyoti masalasidir. Feodal-saroy adabiyoti deganda biz podshoh saroyida yashab, ijod qilgan, shohga yaqin, shohlik manfaatlarini himoya qiluvchi, kuylovchi shoirlarni tushunganmiz. Lekin bu adabiyotni biz umumadabiy jarayon bilan bog'lab, muayyan tarixiy aspektda xolis o'rganmaganmiz. Ko'proq bu adabiyotga biz yuqoridan turib, men-simay qaraganmiz, uning vakillari doim kamsitilib kelingan.

Buning bosh sababi adabiyotga sinfiy nuqtayi nazardan qarashimiz edi. Osh, non, suv, tuz sinfiy bo'lmagani kabi ishq-sevgi, o'rtoqlik, do'stlik, go'zallik, tabiat va unga muhabbatni ham sinfiy deb bo'ladimi? To'g'ri, masalan, do'stlik, o'rtoqlik sinfiy qarash, manfaat asosida yuzaga kelishi mumkin. Biroq bunday muhabbat, do'stlik g'arazga asoslangan bo'lib chiqmaydimi? Bunday do'stlikni xolis, samimiy deb bo'ladimi? Biz uzoq vaqt ishq haqida Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Munis, Ogahiy, Muqimiy kabilar yozgan she'riy va nasriy asarlarni

qabul qilgan, e'zozlagan holda bu mavzudagi Husayn Boyqaro, Ubaydiy, Amiriy, Feruz kabi shoirlarimizning she'r-lariga beparvo qarab keldik. Masalan, Ogahiyning „Ustina“ radifli g'azaliga yuksak baho berganimiz holda Husayn Boyqaro (Husayniy)ning ham shu radif bilan beshta ajoyib g'azal yaratganini, ular badiiylikda Ogahiylikidan aslo qolish-masligini gapirmadik. Husayn Boyqaroning „O'rtama“ radifli va boshqa g'azallari o'z zamonida ham, keyingi davrlarda ham ishqiy she'rning yuksak namunalari ekanidan ko'z yumdik:

Orazing mehrin ochib, jismim aro jon o'rtama,  
Oshkoro lutf etib, ko'nglumni pinhon o'rtama.  
Barqi hijron noldek jonimda basdur, sen dog'i,  
Va'dayi vasl aylabon, ey, ahdi yolg'on, o'rtama.

Shu bilan birga, biz saroy shoirlarini doim boshi maishat-dan chiqmaydigan, insoniy dard-alamlardan forig' kishilar, deb tasavvur qilar edik, vaholanki, ularning ham o'z fojialari bo'lishi, taxt deb bola otasini, ota bolasini ayamasligi, vaqti kelsa „boylar ham yig'lashi“ mumkinligini tushunib yetmadik. Shunday bo'lmasa, Husayn Boyqaro mana bu she'rini yozmagan bo'lardi:

Ey, ajal, osuda qil hijron balosidin meni:  
Bir yo'li qutqar ulusning mojarosidin meni.  
Za'fim oshti hajr bog'ida sirishk-u ohdin;  
Qutqar, ey, vasl, ul chaman ob-u havosidin meni.  
Ey, ajal, qo'rqutma o'lturgum debon: o'lturgasen, —  
Gar tirik topsang firoqining jafosidin meni...

Albatta, biz hamma podshohlar adolatli bo'lgan va adabiyot rivojiga qayishgan, — deb ayta olmaymiz. Xorazmshoh Otsiz tomonidan Adib Sobir Termiziyning Amudaryoda bo'yniga tosh bog'lab cho'ktirilishi, Subhonqulixon tomonidan Turdi Farog'iy-ning tahqir etilishi, Mahmud Qatag'on buyrug'iga binoan Mashrabning dorga osilishi, Nasrulloxon jallodlari tomonidan Nodira-ning so'yilib, Hoziqning boshi tanasidan judo etilishi — bularning hammasi tariximizdagi qora dog'lardir.

Lekin shu bilan birga, o'zbek adabiyotini feodal saroy muhitida yaratilgan Boburning „Boburnoma“sisiz, Muhammad Solihning „Shayboniynoma“sisiz, Abulg'ozi Bahodirxonning „Shajarayi tarokima“ va „Shajarayi turk“ asarlarisiz tasavvur

eta olamizmi? Agar Muhammad Xo'jabek Xorazmiyga murojaat qilib, uning she'riy iste'dodini qadrlamaganda, undan o'zi uchun ham, zamondoshlari uchun ham dunyoda qoladigan bir asar yozishni iltimos qilmaganda „Muhabbatnoma“ yuzaga kelarmidi? Mana, Muhammad Xo'jabekning adabiyotni qanday yaxshi ko'rganini ko'rsatib turuvchi shirin-shakar so'zlariga e'tibor qiling:

Ko'ngul bahrinda ko'p gavharlaring bor,  
Ochunda parsiylar daftarlaring bor.  
Muhabbat nardini ko'plardin uttung,  
Shakartek til bila olamni tuttung.  
Tilarmenkim, bizing til birla paydo —  
Kitobe aylasang bu qish qotimdo.  
Kim ush eltek kechar ayyomi foniy,  
Jahonda qolsa bizdin armug'oni.

Muhammad Xo'jabekning bu so'zlarining ma'nosini chaqmay, „Muhabbatnoma“ tarixini to'la bilish qiyin. Shoir xalqiga e'tiqod, ularga mehribonlik bo'lsa, shunchalik bo'lar, deb o'ylaymiz!

Umuman, o'zbek adabiyoti va adabiy tilining paydo bo'lishi, rivojlanishi hamda shakllanishida saroy adabiyoti she'r-larida, xususan, qasidalarida hukmdor qanday ekanligini tasvirlashdan ko'ra, uning qanday bo'lishi lozimligini ko'zda tutib, unda mavjud bo'lmagan xususiyatlarni *bo'rttirib aks ettirishga intilish, adolatpeshalik, mardumsevarlik* singari sifatlarni turli yo'llar bilan bayon etish ko'proq o'rin tutgan. Lekin Sakkokiy olim Ulug'bekni va turkiy she'riyatda nom chiqargan shoirlardan biri bo'lmish o'zini maqtab, bir qasidasida quyidagi baytni bitar ekan, bunda mutlaqo haq edi:

Falak yillar kerak aylansa-yu keltirsa ilkiga,  
Meningdek shoiri turk-u seningdek shohi dononi.

Shuning uchun ham bunday asarlar hukmron tabaqalarning nazar-e'tiborida turgan, keng xalq mehrini ham qozonishgan.

Amir Temur vafotidan so'ng besh yil davom etgan meros talashish janglarida Shohrux Mirzo g'alaba qiladi. U viloyatlarni o'g'illariga taqsimlab berib, Hirotda turib, markaziy hokimiyatni boshqaradi. Qizig'i shundaki, ko'proq diniy yumushlar



bilan mashg'ul bo'lgan Shohruh o'g'illarining ilmiy, ma'rifiy faoliyatlariga monelik ko'rsatmaydi. Natijada Ulug'bek va Boysunqur singari shahzodalar ilm, san'at, madaniyat hamda adabiyot masalalariga jiddiy e'tibor bera boshlaydilar. Ularning saroylari chinakam ilmiy, ma'rifiy markazga aylanadi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurazzoq Samarqandiy, „Latofatnoma“ muallifi Xo'jandiylar ma'lumotiga ko'ra, Boysunqur tashkil etgan Hirot „Nigoriston“ida *til bilimi, ziroat ilmi, tibbiyot, falakiyot, handasa, adabiyot, geografiya, tarix* va boshqa fanlar bilan shug'ullangan yuzdan ortiq olim ishlagan. Ularning bari Shohruh davlati ta'minotida bo'lgan. Navoiy, Jomiy, Hiloliy, Amir Shayxim Suhayliy, Vosifiy, Amir Shohiy, Behzod, Sulton Ali, Koshifiy va boshqalarning faoliyatini saroy adabiy muhitisiz tasavvur qilib bo'ladimi!? Axir Husayn Boyqarosiz Hirot madaniy va adabiy muhiti bu darajaga yeta olarmidi!?

Ayrim sarchashmalarning, xususan, Jomiyning Navoiyga yo'llagan maktublarining guvohlik berishicha, Husayn Boyqaro saltanatida hamma madrasa talabalari-yu olim-u fuzalolarga vaqf mulki, devon-xazina hisobidan maosh tayinlangan, uy-joy bilan ta'minlangan. Masalan, Navoiyning ko'rsatmasiga ko'ra, shoir va adabiyotshunos Atoullo Mahmudiy Husayniyga shoh devoni hisobidagi bog'chali hovli xatlab berilgan va ma'lum miqdorda maosh belgilangan. O'zbek adabiyotining yorqin siymosi Zahiriddin Boburni eslang. U o'z hayotini she'rsiz, muhabbatsiz, do'stlarisiz ko'z oldiga keltira olmas, hayotining ma'nosini shunda deb bilar edi:

Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,  
She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.

Nazarimizda, saroy adabiyotining mavzu doirasini, uning qiziqishlarini ko'p vaqt biz toraytirib ko'rsatishga harakat qilganmiz. Aslida bu adabiyot hech qachon o'zini xalqchil adabiyotga, diniy adabiyotga, tasavvuf adabiyotiga zid qo'y-magan. Ko'p vaqt bu adabiyotda ham umuminsoniy qadriyatlarini kuylash muhim o'rin tutgan. Bu shoirlarning Navoiy, Hofiz, Fuzuliy g'azallariga bog'lagan muxammaslari, o'xshatmalari buning yaqqol dalilidir. Masalan, Amiriy (1787—1822) she'riyatida ma'shuqaning madhi, unga muhabbat bir g'azalda umuman ayol zotini ulug'lash va sevishga olib kelgan. Amiriy

bu g'azalida bir gulzorda o'zlaricha xursand bo'lib, chaq-chaqlashib, o'yin-kulgi qilib o'ltirgan xotin-qizlar bazmini tasvirlagan. Ularning biri qo'shiq aytsa, ikkinchisi o'ynagan, sho'xliklari avjida:

Ishq elin qatl etguchi berahm dilozorlar,  
Jam' o'lub bir bazm aro suhbat etarlar yorlar.  
G'uncha yanglig' ko'nglumi yuz noz ila qon ettilar —  
Sho'xlar, beboklar, raqqos-u xushraftorlar...  
Jilva aylab anjuman sahnini gulshan ettilar —  
Guljabinlar, g'uncha og'izlar, shakarguftorlar...

Bu g'azalda zarracha bo'lsin xotin-qizlarni kamsitish, ularga g'araz bilan qarash sezilmaydi, ularning baxtiyorligidan xolisona xursand bo'lish tuyg'usigina ko'zga yaqqol tashlanib turibdi. Bu shuni ko'rsatadiki, Amiriy Nodiradek nozikta'b ayol — shoiraga munosib er bo'lgan va uning chin hurmatini qozongan. Uning vafoti munosabati bilan Nodiraning ko'z yoshlari daryosiga g'arq bo'lgani bekorga emas edi.

Aslida Nodira ham saroy shoirasi. Axir, u eri — Amir Umarxon bilan bir jon, bir tan edi-ku! Ularni qanday qilib bir-biridan ajratish mumkin!? Demak, saroy adabiyotini xalqchil adabiyotdan ajratish shartli, adabiyotshunoslik uchungina zarur bo'lgan bir narsadir.

70 yildan ziyod vaqt davomida ko'plab ijodkorlarimizni „diniy-mistik adabiyot vakili“, „saroy tarixchisi“, „saroy maddohi“, „xonning maddohi“, „yalang'och sevgini kuylagan“ deb tahqirlab, ijodini bir chekkaga surib qo'ydik. Vaholanki, o'zbek mumtoz adabiyotining katta qismi, aytib o'tganimizdek, ana shu saroyda yaratildi. Ehtimol, tarix maydoniga Amir Umarxondek zukko shoir kelib, o'z saroyida bir adabiy dasta tuzmaganda, „Qo'qon adabiy muhiti“ degan ibora ham paydo bo'lmasdi. Umarxonning xizmati shundaki, u chor atrofdagi ijodkorlarni — sozanda, bozanda, hofiz, naqqosh, xattot, adiblarni markazga yig'di, ularga bosh-qosh bo'ldi, homiylik qildi. Gulxaniyning „Zarbulmasal“ asari shaxsan Amiriy tashabbusi bilan yaratilgan. Alisher Navoiyning „Xazoyin ulmaoniy“si Umarxonning topshirig'i bilan 300 nusxa ko'chirilib, xalq orasiga tarqatildi. Uning davrida ko'plab asarlar kitobat etildi, tarjima qilindi, bitildi. Birgina Abdulkarim Naman-goniy Fazliy „Majmuat ush-shuaro“sida Qo'qon xonligi

hududida yashab ijod etgan 101 shoir asarlaridan namunalar keltirib, ulardan 75 tasi haqida muxtasar ma'lumot beradi, she'rlarini baholi qudrat g'oyaviy-badiiy jihatdan baholaydi. Quvonchlisi shundaki, Nodira, Uvaysiy, Mahzuna singari shoirlar ijod qilgan adabiy doirada shoirlar merosi ham o'ziga xos mavqega ega bo'lgan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Aziz Qayumov ta'kidlaganidek, ushbu tazkira XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlaridagi o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishda eng nodir manba hisoblanadi. Fazliy asari keyingi yillardagi tazkiranavislar ijodiga barakali ta'sir etgan. Jumladan, Qori Rahmatullo Vozeh, Afzal Pirmastiy, Sadri Ziyoy singari tazkiranavislar Fazliy majmuasidagi dalillardan bevosita foydalangan.

Demak, Amir Umarxon saroyi va uning atrofidagi adabiy doira davr ijodiy jarayonida yetakchi mavqega ega bo'lgan. Shuning uchun ham bu adabiy muhitni Amiriy va muhoblari ijodini puxta o'rganmay turib, mukammal tasavvur qilish mumkin emas.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridagi Xiva adabiy muhitining vujudga kelishi, inkishofida **Muhammad Rahimxon — Feruzning** (1863—1910-yillarda xonlik qilgan) faoliyati muhim rol o'ynadi. Zeroki, u ilm-ma'rifat homiysi, tashkilotchisi, san'at va adabiyotning chinakam fidoyisi sifatida katta ishlarni amalga oshirdi. Shoir va tarixchi Bayoniyning iborasi bilan aytganda, „*uning davrida har bir mahalla o'z masjidi va madrasasi*“ga ega bo'ldi; o'ndan ziyod nodir asarlar arab va forsiy tillardan o'zbek tiliga ag'darildi. Feruzning sa'y-harakatlari asosida tashkil etilgan matbaada 1876-yildan boshlab Navoiy, Komil, Munis, Ogahiyning devonlari, kulliyoti chop etildi. 1897-yili esa Bayoniy, Ogahiy, Rojiiy, Mirzo, Tabibiy, G'ulomiy, Sul-toniy, Asad, G'oziiy, Pirkomil, Devoni-y kabi Xorazm adabiy muhitida qalam tebratgan 30 dan ziyod shoirlarning asarlari jamlangan maxsus tazkira nashr qilingan. Unga Ahmadjon Tabibiy so'zboshi yozgan. Bundan tashqari, matbaada bir necha tarjima asarlar, turli shakldagi to'plamlar, xotira kitoblari ham chop qilingan. Muhammad Rahimxon va otasi zamonida, Sharq xalqlari tarixiga, xususan, O'rta Osiyo xalqlari tarixiga doir eng noyob asarlar yaratilganligini ham alohida ta'kidlash lozim. Xulosa qilib

aytganda, Feruz va uning saroyi atrofida jipslashgan ilm-fan, san'at va adabiyot ahlari o'zbek xalqi ma'naviyati tarixida chuqur iz qoldirgan ijodiy ishlarni amalga oshirdilar. Bu ulkan merosni har tomonlama, mukammal o'rganish eng dolzarb masalalardan biridir.

O'tmish madaniy-adabiy merosiga, qadriyatlarimizga munosabat o'z joyiga tushayotgan hozirgi paytda saroy adabiyoti va uning fidoyilariga munosabatni jiddiy o'ylab ko'rishimiz kerak. Bunda ijodkor zodagonlar, feodal hukmdorlar, bek va amirlar merosini umumadabiy jarayondan ajratmay, har tomonlama puxta o'rganib, ularning ma'naviyat, badiiy so'z san'ati tarixida tutgan o'rinlarini aniq ko'rsatish lozim. Zinhor bunday tadqiqotlarda bir yoqlama xulosalar chiqarishga yo'l qo'ymaslik kerak. Bir tomondan, ularning o'z sinfining vakili, taxt-u toj sohibi, keng mehnatkash omma hisobiga yashab, doim xazinasini to'ldira borganini, ikkinchidan, shunday sharoitda madaniy hayot, xususan, badiiy so'z san'ati taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha olganini xolis baholash zarur.

Totalitarizm davridagi katta xatolaridan biri shunda bo'ldiki, qaysi ijodkor ruhida milliy iftixor sezilsa, ona tilini, adabiy merosini ulug'lagan bo'lsa, u millatchi sifatida qoralandi; turmushdagi kamchiliklar, boshqaruvdagi nuqsonlar, laganbardorlik va to'rachilik qoralansa, mavjud tuzum dushmani, deb quvg'in qilindi. Natijada badiiy adabiyotda yo'qni yo'ndirishga intilindi. Bu esa, oxir-oqibatda ma'naviy qashshoqlikka olib kela boshladi.

Muddao shuki, o'tmishdagi adabiy, madaniy merosimiz, jumladan, saroy doirasidagi badiiy ijod ne'matlari ham har tomonlama, „turli chiqitlar“ga chiqazilmasdan mukammal o'rganilsa; uning ilg'or an'analari, xususan, ma'naviyatga homiylik qilishdagi ibratli jihatlari davom ettirilsa: zeroki, qaysi jamiyatda ma'naviy hayot e'tibordan soqit qilinsa, u tanazzulga mahkum etilsa, o'sha jamiyatning istiqboli ham bo'lmaydi.

## IRFONiy BILIMLAR QOMUSI

Tasavvuf tarixi, she'riyati, undagi mazhab va oqimlar, ular o'rtasidagi nazariy kurashlar, bu ta'limotning insonparvarlik mohiyati, jabr-zulm va jaholatga qarshi sobitqadam kurashi to'g'risida Ye. E. Bertels, F. Ko'pruluzoda, V. Zohidov

kabi taniqli olimlar qimmatli tadqiqotlarni meros qoldirishgan. Shuningdek, N. Mallayev, M. Zokirov, N. Komilov, I. Haq-qulov, S. Olim, O. Usmon kabi olimlarimizning risola va maqolalarida ham tasavvuf she'riyati xususida qimmatli mulohazalar mavjud.

Ayniqsa, olim va adib Radiy Fish o'zining „Jaloliddin Rumiy“ nomli tarixiy romani bilan tasavvufshunoslikka bebaho hissa qo'shdi. Bu asar 1986-yilda Jamol Kamol tarjimasida o'zbek tilida chop etildi.

Tadqiqotchilarning fikricha, tasavvuf falsafiy maslak sifatida islom dini maydonga kelgandan keyin feodal reaksiyasining, zulmining keskinlashuvi va buning natijasida adolatsizlikning, qashshoqlikning kuchayishiga qarshi ko'tarilgan norozilikning olovlanib ketishi natijasida shakllandi, rivojlandi. VII—XI asrlarda, ayniqsa, arab diyorida so'fizm tezlik bilan rivojlandi, Uvays Karaniy, Hasan Basriy, Robiya Alaviya, Ibrohim Adham, Boyazid Tayfur al-Bastomiy, Abubakr Shibliy, Abumansur al-Husayin, Al-Xalloy kabi mutasavvuflar maydonga keldi. Natijada, tasavvuf arab olamida keng tarqalib, so'ng Xuroson va Movarounnahrda islom dini bilan birga kirib keldi. Buning natijasi o'laroq, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi jahoniy mutafakkirlar yetishib chiqdi. Bu mutasavvuflarning yaratgan ilmiy, badiiy asarlari, doston va g'azallarini ko'zdan kechirsangiz, ular tasavvufdan chetga chiqmaslik uchun „Qur'on“ va Muhammad alayhissalom hadislaridan chetga chiqmaslik lozim, deb uqtiradilar.

*Xo'sh, bu hukmron mafkura bilan an'anaviy murosayi madorami yoki chinakam ixlos iqrorimi?*

Mashoyixlar o'zlarini payg'ambarlarning ma'naviy merosxo'rlari, deb hisoblaydilar. Biz XIII asr oxiri XIV asrning birinchi yarmida yashagan Nosiriddin Rabg'uziyning „Qisasi Rabg'uziy“<sup>1</sup> asarini ko'zdan kechirib, ushbu savolga javob topgandek bo'ldik. Rabg'uziy Muhammad alayhissalom

---

<sup>1</sup> Rabg'uziyning bu asari turli davrlarda kitobat qilinib, keng tarqalgan. Uning XV asrga oid qadimiy nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi. Bu nusxaning faksimilesi K. Gronbek tomonidan 1948-yilda Kopengagenda nashr etilgan. Biz shu manbaga suyardik. Asar A. Yunusov tomonidan hozirgi alifboga ko'chirilib, ikki jildda nashr qilindi.

(570—632) as’hoqlarining sifatlarini, ya’ni qanday inson payg’ambarlarga sahoba bo’la olishini quyidagicha ta’riflaydi:

„Qamug’ sahobalarning sifati bu erdi — ular tengri azza va jalla farmoni uza erdilar. Shug’llari tengri azza va jalla qullug’in qilmoq erdi. Jihod qilmoqg’a anuq, tilaklari mavlo taoloning xushnudluqi erdi, dushmanliqlari shayton birla erdi. Balog’a sabr, qazog’a rozi, balog’a shokir erdilar. Kishilarni o’zlarindin ilgari tuttilar, rag’batlariki dunyo molinga oz erdi, tiriklari haq so’zlamak birla, bermaklari hadya erdi. Doyim qo’rqinch ichinda erdilar, bir-biringa mehribon erdilar. Nimarsani yod qilsalar ezgulik birla yod qilur erdilar. G’iybatdin, hasaddin, bo’htondin qo’rqib, so’zlari hikmat, nafslari ibratlik, turmushlari fikrat erdi. Achchig’ vaqtinda sabr qilmoq, xushnudliq vaqtida uzr qilmoq, o’z hojatlaridin kishi hojatlarini ilgari tutmoq, o’zlari chig’ay erkan (yo’qsul bo’lsalar ham) xalqg’a naf’ yetkurmak. Yozuqlug’lar uzrin qilmoq (gunohkorlar uchun Xudodan uzr tilamoq), va’dani rost tutub, oxirat savobini umid tutmoq. Yozuqlug’lar yozuqin, ayblarin o’ttilar (kechirdilar), islom haqin saqladilar“.

*Muhammad Payg’ambar hadislari ham yuqoridagi fikrlar bilan uyg’un ekanligini e’tiborga olsak, tasavvuf ta’limotiga Muhammad alayhissalom asos solgan, desak aslo yanglishmaymiz, balki tarixiy haqiqatni tan olgan bo’lamiz.*<sup>2</sup>

Shu bois bo’lsa kerak, o’tmishda payg’ambarlar, ularning sahobalari, aziz-avliyolar, mashoyixlar, so’fiylar, qalandarlar to’g’risida juda ko’p *xotira, qissa, doston* va *zikrlar* yaratilgan. Ulardan yosh avlodni tarbiyalash, to’g’ri yo’lga boshlash vositasi sifatida foydalanishgan. Bunday kitoblar jumlasiga arab, fors-tojik va turkiy tillarda yaratilgan Abu Iso Termiziy (IX asr), Abdulloh Ansoriy (XI asr), Farididdin Attor (XII asr), Yusuf Hamadoniy (XIII asr), Nosiriddin Rabg’uziy (XIV asr), Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Is’hoq Bog’istoniy (XVII asr), Muhammad Ya’qub Yorkandiy (XIX asr) singari adiblar asarlarini keltirish mumkin.

Yaqinda ana shunday noyob kitoblardan yana birini topish baxtiga musharraf bo’ldik. Kitob nomi „Tazkirat ul-avliyoyi turkiy“ bo’lib, uning muallifi **Muhammad Siddiq Rushdiydu**r.

Hozirgi zamon adabiyotshunosligi uchun butunlay yangi

---

<sup>1</sup> Ushbu lavha I. Ostonaqulov bilan hamkorlikda yozilgan.

siymo bo'lgan ulkan o'zbek shoiri, nosiri, tarjimoni va olimi Muhammad Siddiq Rushdiy va uning ilmiy-adabiy merosi haqida to'la ma'lumotga ega emasmiz.

Asarning muqaddimasidagi qaydlarga qaraganda, adib Qo'qon, Yorkent shaharlarida, Qoshg'ar, Ho'tan diyorlarida umr kechirgan. Tazkirani esa Ho'tan diyorida tavallud topgan Yorkent hokimi Xoja Kefakbek iltimosiga ko'ra yozadi. Xoja Kefakbek „*donish ahlining foyiqi va zarrot maqomining loyiqi*“, o'z yurtida madaniyat va ilm-fan ahliga homiylik qilgan, madrasa va masjidlar barpo etgan taraqqiyparvar kishi edi.

Muhammad Siddiq she'riyatda, xususan, *g'azal, muxammas, ruboiy* janrlarida o'z zamondoshlari o'rtasida katta shuhrat qozonadi. „Qur'on“, hadis bayoniga doir bilimlarni, tasavvuf falsafasini puxta egallagan. Arab, fors-tojik va turkiy tilning nozik jihatlarini mukammal egallagan bilimdon kishi bo'lgani uchun do'stlari unga „Tazkirayi turkiy“ bitishini iltimos qiladilar.

Muhammad Siddiq bu haqda shunday yozadi:

„G'arigonda ko'rishtum tog' bila,  
Qozidim ul tog'ni tirnog' bila.

Tarixqa ming ikki yuz to'qson erdi ibtido qildim, to'rt yil tamom bo'lg'onda itmomig'a yetkurdim...

...To'rt yil o'trusida chektim raqam,  
Ne ilik orom olib, ne qalam“.

Demak, bu asar 1870-yilda yozib tamomlangan. Adib o'z asarini yozish uchun katta tayyorgarlik ko'radi. Arabiy, forsiy manbalarni „Sharh ul-qulub“, „Kashf ul-asror“, „Mag'firat un-nafs“, „Tazkirat ul-avliyo“ singari o'nlab kitoblardan ijodiy foydalangan.

Muqaddimada ta'kidlanishicha, muallif „arabiy iboratlar“ hamda „forsiy alfoz“ bilan bitilgan kitoblar turkiy talabalar uchun tushunish og'ir bo'lishi, zamondoshlari orasida „Qur'on“ va Payg'ambar hadislarini izohlab tushuntirib bera oladigan allomalar kamyoblashib borayotgani uchun xos-u ommaga tushunarli sodda tilda o'z kitobini yaratadi.

Uni qo'liga qalam olishga undagan yana bir jihat — adib yashagan zamonda fir'avnsifat *odamxo'r, sangdil, beshafqat, bemuruvvat* kishilar ko'payib ketib, „mashoyixlar so'zini elulus unutib“, ma'naviy qashshoqlashib borayotgani edi.

Payg‘ambarlar haqida qissa va naqlar ko‘p yozilgani, agar ularni ham qo‘shib, so‘ng shayxlar zikrini qilsam so‘z uzoqqa cho‘ziladi, degan andisha bilan Muhammad Siddiq faqat avliyolar zikri bilan kifoyalanadi. Unda, garchi 95 mashoyix zikri va‘da qilingan bo‘lsa-da, faqat 83 buzrukvor zikri bayon etilgan. Ehtimol, bunga adibning umri kifoya qilmagan yoki kitobat paytida kotiblar ayrim zikrlarni „ikkinchi darajali“ deb bilib tushirib qoldirgan bo‘lishi mumkin.

Qo‘lyozma 382 varaq bo‘lib, g‘oyat sifatli qog‘ozga, go‘zal nasta‘liq xati bilan ko‘chirilgan. Zikrlar tartibi, oyat, hadislar va naqlar qizil rangda yozilgan. U o‘tgan asr Qashg‘ar kitobat san‘atining yorqin namunasi hisoblanadi. Kitob kotiblari ko‘rsatilmagan, sahhofi esa Sayyid Muhammad otlig‘ kishi bo‘lib, muqovaning ichki tarafida yelim-muhriga tushirilgan.

Qo‘lyozma muallif dastxati yoki u hayot paytida kitobat qilingan bo‘lishi mumkin. Chunki unda yuzlab tuzatishlar, kiritmalar mavjud.

Muhammad Siddiqning taxallusi masalasiga kelsak, o‘tmishda bunday taxallus qo‘llagan shoir uchramaydi. Bu jihatdan „Rushdiy“ o‘ziga xos taxallus. Lug‘aviy ma‘nosi *hidoyat*, ya‘ni rost yo‘lga kirgan kishi ma‘nosini bildiradi. Ehtimol, adib ulug‘ faylasuf Ibn Rushd (X asr) dahosiga iqtido qilib mazkur taxallusni qo‘llagandir.

Ushbu kitob ko‘p jihatlari bilan shu xildagi asarlardan tubdan farq qiladi. O‘ziga xos kompozitsion qurilish hamda mundarijaga ega. Boblar zikr tarzida keladi. Har bir zikrda, dastlab qalamga olingan shayx-avliyoning ilm-fan, din, adabiyot olamida tutgan o‘rni, tasavvufning qaysi maslagiga mansubligi, ilmiy qudrati, uning qaysi ilmlar bilan shuhrat qozongani saj yo‘lida yuksak ko‘tarinki ruhda tavsif etiladi.

Shundan so‘ng o‘sha avliyoning tug‘ilib o‘sgan yurti, ijtimoiy kelib chiqishi, ta‘lim olgan shaharlari, ustozlari, u yoki bu mutasavvufiy oqimga qo‘shilib, ishq ilohiy yo‘liga o‘tgunga qadar bajargan ishlari, chekkan riyozatlari, tavbasiga sabab bo‘lgan nogahoniy turtki — *vahiy* bayon etiladi.

Kitobxonda o‘sha shaxs haqida ma‘lum tasavvur hosil qildirgach, Muhammad Siddiq „Keltiribdurlarkim“ boshlanmasi bilan u kishi haqidagi rivoyatlarni, „Naql qilibdurlarkim“, „Naqldurkim“, „Debdurlarkim“ kiritmasi bilan uning



safdoshlari, muridlari va zamondoshlarining suhbatlari, xotiraları va hikoyalari beradi.

Shundan so'ng, „Debdur“ boshlanmasi bilan o'sha mashoyixning „Qur'on“ oyatlari va Payg'ambar hadisleri bilan bog'liq ko'plab pand-nasihatlari, diniy tushunchalar, tasavvuf ta'limotiga doir mushohadalari va ibratli xulosalari keltiriladi.

Bu pand-u nasihatlar, maqollar Sharq donoligining beba-ho durdonalaridurki, ularning har biri quyma mazmun zamini-ga ega. Mana shayx Samnun Muhib tasavvufga qanday baho beradi:

*„Tasavvuf uldurki, sen hech kimarsaning mulki bo'lmag'aysan va hech nimarsa sening mulking bo'lmag'ay!“*

Ozodlik, tenglik va insoniy erkni bundan ortiq so'z bilan ifodalab bo'lmasa kerak.

Fuzayl Ayoq shunday deydi:

*„Badbaxtning nishonasi besh nimarsadur: avval, ko'ngli qattiq bo'lmoq; ikkinchi, ko'zi uyatsiz bo'lmoq; uchinchi, besharm va behayo bo'lmoq; to'rtinchi, dunyoga moyil bo'lmoq; beshinchi, umid rishtasin uzoqg'a solmoq, ya'ni bu yil mundaq qilay, kelurg'a andog' qilay demak“.*

Imom Ja'far Sodiq shunday nasihat qiladilar:

*„Besh kishining suhbatidan hazar qil: avval, yolg'onchikim, aning birla hamisha fireb yersan; ikkinchi, ahmoq va soddakim, senga manfaat deb bir ish qilur, ziyoning andadur; uchinchi, baxlikim, o'bdon vaqtida sendan ayrilur; to'rtinchi, qo'rqunchoqkim, hojat vaqtida seni tashlar; beshinchi — fosiqki, bir luqmaning tamasida seni yarim luqmag'a sotar“.*

Shunisi diqqatga sazovorki, muallif pand va falsafiy mushohadalardan so'ng mamdo'hining vafoti, janozasi tafsilotini bayon etadi. Bu bayon shunchaki qayd etish bo'lmay, balki ma'lum bir ibratni ko'rsatish uchun istifoda etilgan voqea hisoblanadi. Shuningdek, murid yoki shogirdining tushi orqali marhumning ruhiy taqdiri ham ko'rsatib o'tiladi. Natijada har bir zikr yaxlit bir asar darajasiga yetkazilganligi ma'lum bo'ladi. Bunga Ibrohim ibn Adham, Boyazid Bastomiy, Abul Hasan Xarraqoniy zikrlari misol bo'la oladi. Zeroki, bu tipdagi ko'plab zikrlardan na bir tavsif, na bir rivoyat, na bir naql va na biror pandni tushirib qoldirish mumkin.

Muhammad Siddiq o'z tazkirasida Sharq falsafiy-diniy qarashlari, xususan, tasavvuf ta'limoti, mohiyati, uning

yuzlab atamalari lugʻaviy maʼnosi toʻgʻrisida keng maʼlumot beradi. Oʻz nazariy fikrlarining tasdiq-isboti uchun Qurʼondan koʻplab oyatlar keltiradi, hadislardan foydalanadi. Asarni varaqlar ekansiz, donishmand mashoyixlarning zikrlari orasida *tasavvuf, tavakkal, varʼ, tafviz, zuhd-taqviy, parhezkorlik, ilm ul-yaqin, aynul-yaqin, haq ul-yaqin, riyozat, imo-ishora, karomat, valoyat, firosat, tafsir, sunnat, farz, maroqaba, samoʼ, tavba, tavoze sujuʼ, rukuʼ, tavid, vahdat* kabi tasavvufiy ilmlar va rasm-rusumlar, *uvaysiylar, tayfuriy, malomatiylar, ahiylar* kabi mazhablar bilan yaqindan tanishasiz.

Hozir biz anglagandan koʻra boshqacha boʻlgan *talabalik, muridlik, zohidlik, darveshlik, soʻfiylik, omillik, olimlik, oriflik, aminlik, shayxlik, javonmardlik* martabalariga qanday yoʻllar bilan yetishish mumkinligini anglab olasiz.

„Tazkirat ul-avliyoyi turkiy“ sof diniy-nazariy asar boʻlish bilan birga, juda katta irfoniy, maʼrifiy, adabiy ahamiyatga ham ega. Har bir rivoyat, naql va hadis darajasidagi pandlarda tarbiya kamoloti uchun zarur boʻlgan tarbiya unsurlari barq urib turadi. Ular insonni imonning butunligiga erishish, eʼtiqod poyasini mustahkam etish, koʻzlangan maqsad yoʻlidagi riyozatlardan tushkunlikka tushmaslik, ijtimoiy adolat, toʻgʻri-lik va haqiqat uchun kurash va bu yoʻlda metindek irodali, pok niyatli boʻlishga chorlaydi.

Inson uchun, ona-zamin, tabiat uchun yaxshilik qilish, eʼtiqodlar turlichaligi bilan inson zoti asli bir ekanligini doimo yodda saqlash, elparvarlik, vatandoʻstlik, nafsga banda boʻlmaslik, boylik va purbaho kiyim ketidan quvib, oʻzi va boshqalar joniga ziyon-zahmat yetkurmaslik har zikr gʻoyaviy yoʻnalishini tashkil etadi. Junaid Bagʻdodiy tavidga bergan sharhida Alloh bilan banda oʻrtasidagi farq va uning mohiyati haqida toʻxtalib shunday deydi: „*Uningcha, qudratlilik, saxovatlik, muruvvatlik, qahhorlik, razzoqlik, behojatlik yolgʻiz Xudoga xosdir. Inson-banda esa gʻarib, miskin, hojatmand, ojizdir.*“ „Yaʼni inson mol-mulkiga, amaliga bino qoʻyib, boshqalardan oʻzini qudratli, behojat, muruvvatli, qahrli, mangu yashovchiman, deb anglasa — Xudoda bor sifatlarni oʻzida bor deb bilsa, u, albatta, qattiq yanglishadi, hayotda qoqiladi, oʻsal boʻladi, azob-uqubatga giriftor boʻladi, vaqtinchalik muvaffaqiyati, soxta buyukligi oshkor boʻladi. Mana, Allohning

birligini ta'kidlashdan maqsad! Asarda tilga olingan shaxslarning har biri ilm-fanning u yoki bu sohasida ko'plab kitoblar bitib, ustod darajasiga yetgan, favqulodda qudratga, ilohiy kuchga ega bo'lgan kishilar. Chunonchi, **Hakim at-Termiziy** ilm-u amal, falakiyot, hayvonot ilmi, tafsir sohasida ulug' kitoblar tasnif qilgan, „Hakim al-avliyo“ unvoniga sazovor bo'lgan. **Robia** yakka-yu yagona ayol — avliyo bo'lib, sehr-laydi, havoda muallaq tura oladi. **Abu Turob Naxshabiy** qo'lini temirchilar ko'rasiga tutib tura oladi, yerni tepsa chashma qaynab chiqadi, **Habib Ajamiy**, **Ibrohim Adham** daryodan yurib o'ta oladi, daraxtni o'zi bilan yurgizadi. **Hasan Basriy**, **Boyazid Bastomiy**, **Bashir Hofiy** istiqbolda bo'ladigan ishlarni bashorat qiladigan, firosat — ruhshunoslik ilmida komil: **Abul Hasan Xarraqoniy** sher, ilon, yo'lbarslar bilan do'st-inoq, tomدا turib, yerdagi boltani vositasiz qo'lga oladi, u shahardan bu shaharga yayov yurib, yuzlab farsang masofani oz fursatda bosib o'tadi. **Mansur Halloj** qo'l harakati bilan uyum paxtani momiqqa va chigitga ajrata oladi. Ba'zi shayxlar (yoshi katta bo'lgach, albatta) yemak-ichmakni kunda bir marotaba o'zlariga ravo ko'radilar. Ularcha oriflar bir kunda bir marta ovqatlana-dilar, mo'minlar ikki marta, hayvonlar esa uch marta. Bir shayx har kuni yetti dona uzum yeyish bilan qanoatlansa, boshqasi, olma bo'yini hidlab yurib kun kechiradi. Ular nazokat bobida ham barchaga o'rnak: **Boyazid** masjidga yetguncha, masjid hurmatini saqlab, hargiz tupurmaydi, Alloh so'zini tilga olishdan avval og'zini chayqaydi. **Hotam Asim** o'zi yonida yel qo'yib yuborgan xotin o'sal bo'lmasin deb, o'sha zahoti „kar“ bo'ladi. To o'sha xotin olamdan o'tmaguncha „karquloq“ laqabi bilan yashaydi.

Hayratlanarlighi shundaki, bu xudojo'y shayxlarning har biri o'z tariqati va mazhabini boshqalarga majburlamaydi. Ayrim shayxlar esa shogird tarbiyalashga butun umrini bag'ishlaydi. Ularni „uchar qushlarim“, deb ataydi. Sirtidan qaraganda, barcha shayxlar faqat Allohga yetishmak yo'lida bu dunyoning barcha yumush va ne'matlaridan, eng jigarband kishilaridan ham voz kechgan. Ammo sinchkovlik bilan qaralsa, ularning mana shu ahdlarida ham komil insoniylik bor. Avvalambor, bu shaxslarning o'zi biron kasb-hunar egasi; yoshligidan ustod ko'rib, ko'p ilmlarda kamolot cho'qqisiga yetgan; yuzlab shogirdlarni voyaga yetkazgan; aksariyati murid

yoki zakot beruvchilar in'omi evaziga emas, o'z mehnati evaziga yashaydi. Ba'zi shaxslar shogird hamda farzandlariga kasb-hunar o'rgatishga astoydil harakat qilishadi:

„Kelturibdurlarkim, Abdullo Mag'ribiyning to'rt o'g'li bor erdi. Har bir o'g'lig'a bir hunar o'rgatmak buyurdi.

So'rdilarkim:

— *Ne uchun o'g'lonlarga hunar o'rganmakni loyiq ko'rdingiz?*

Abdullo dedikim:

— *Har bir o'g'ilga bir hunar o'rgaturman, to mendan keyin „faloniyning o'g'liman“ deb rostgo'y elning jigarlarini yemagaylar va hojat vaqtida kasb-hunar qilib, ro'zonasiga sabab bo'lg'ay va eldin tama qilmag'ay“.*

Ayrim shayxlarning xalqdan uzilish, xilvatda o'tirish, faqat Alloh yodi bilan yashab, jannat umidida umr o'tkazish to'g'risidagi ko'pdan ko'p mulohazalari ular yashagan ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bevosita bog'liq. Ular jabr-zulmning intihosiz, yengib bo'lmas darajada tomir otganligini ko'rib, shunday holat bilan taskin topish mumkin, deb o'ylar edi'lar. Asli farg'onalik bo'lib, Vosit va Marv shaharlarida yashaga. Abubakr Vositiyning quyidagi so'zlari fikrimizni tasdiqlaydi: „*Bizlar muftalo bo'libdurimiz bu zamonada bir toifalar orasidaki, ularda na islom odoblaridan nishona bo'lg'ay va na muruvvat hukmi ularda zohir. Hamma johillik va badxo'yliq ularda mavjud va paydodur“.*

Yoki Ja'far Sodiq rahmatullohu alayhining „*Bu zamona xalqining do'stluqini bozor taomi yanglig' topibdurmankim, rangi-bo'yi xushdur, ammo ta'mi noxushdur“* degan so'zlari afsuski, barcha davrlar uchun aytsa bo'lgulik achchiq haqiqatdur.

Shuni nazarda tutish kerakki, xalqdan, olomondan uzilish maslahatini murshid muridga, so'fi darveshga tavsiya etadi, butun ommaga emas! Bu ta'lim ham doimiy bo'lmay, ko'zlangan bilim egallanguncha davom etadi.

Endi bir-ikki og'iz Muhammad Siddiqning badiiy mahorati masalasi xususida. Yuqorida aytganimizdek, muallif o'z davrining yetuk *shoiri, noqili, zokiri, tilshunosi* va *tasavvufshunosi* bo'lgan. U foydalangan manbalar arabiy, forsiy bo'lgani uchun mazkur asarda ham ba'zan forsiy gap qurilishi ta'siri ustuvorlik qiladi. Matnda inversiya hodisasi kuchli bo'lib, bu Muhammad Siddiqning nasrdagi o'ziga xos uslubini belgilaydi.

Muallif ora-sira keltirilgan arabcha, forscha she'rlarni turkiyga tarjima qilganda aruz vaznining ustalaridan ekanligini namoyish etgan.

Agar asar leksikasi bo'yicha tadqiqot olib borilsa, shoirning o'zbek tilini boyitishdagi katta xizmati yaqqol ko'zga tashlangan bo'lur edi. Aytish mumkinki, Muhammad Siddiq Rushdiy o'zbek nasrining ulkan namoyandasi sifatida adabiyotimiz tarixidan munosib o'rin egallaydi. Naql va rivoyatlarda mumtoz nasr va xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan *frazeologik birikmalar, iboralar, o'xshatish va jonlantirishlar, tajnis, tashbihlar* ko'p uchraydi: „zor-zor chun abri navbahor yig'ladi“, „umr kemasi ajal girdobiga yetdi“, „olami foniydan dorul baqog'a rihlat qildi“, „ma'rifat daraxtini fikr-andisha suvi birla sug'orgaylar“, „hayrat barmog'ini tishladi“.

Shayxlar vasfi debocha, ba'zan xotimada mashoyixlarning munojotini berishda saj' san'atidan ustalik bilan foydalanadi. Shu bilan birga, o'ta jimjimadorlik, ortiqcha gapdonlikka ham yo'l qo'ymaydi, lo'ndalikka intiladi. Bu xususiyat rivoyatlardagi dialoglarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Dialoglarda fikriy taranglik o'quvchini shu qadar o'ziga tortadiki, u yakun topguncha nafas olmay kutib turasiz. Xulosadan esa olam-jahon hikmat olasiz.

Dunyoni tushuntirishda so'filar imo-ishora, ramz, majoz bilan so'zlaganlari uchun falsafiy mushohadalarni birdaniga idrok etish oson emas. Muhammad Siddiq bunday hollarda o'zi ham qattiq mas'uliyat bilan masalaga yondashganligini aytadi. O'zi yaxshi idrok etmagan o'rinlarni xato qilib qo'ymaslik uchun tushurib qoldiradi. Agar o'quvchi mening so'zim bilan qoniqish hosil qilmasa, Farididdin Attor asari hamda „Kashf ul-asror“ kabi kitoblarga murojaat etishi mumkin, deydi. Bu esa adibning yuksak madaniyat va idrok sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Qisqasi, Muhammad Siddiqning mahorat bilan yozilgan ko'pgina rivoyatlari o'zbek sarguzasht-sehrli asarlarining eng yaxshi namunasi hisoblanishi mumkin. O'nlab naqlarni esa tarixiy hikoyachilik janrining mumtoz turi, deb atash o'rinlidir. Shuningdek, bu asar Sharq tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga oid ko'plab ma'lumotlarni o'zida jam etgan yodgorlik sifatida ham qimmatlidir. Kichik misol keltirish bilan chegaralanamiz. „Ajam“ so'zi ilmiy risolalar hamda izohli lug'atlarda „*arab bo'lmagan yurtlar yoki xalqlar*“ deb sharhlangan.

„Tazkirat ul-avliyoyi turkiy“da esa bu soʻzga yanada aniqroq izoh berilgan. Basralik shayx Abu Shaqoni xalq **Habib Ajamiy** deb ataydi. Bunga sabab u „Qurʻon“ni yaxshi oʻqiy olmaydi, qiroat qilolmaydi. Shu sababli uni „ajamiy“, yaʼni „arab boʻlmagan musulmon“, deyishgan. Abu Shaqo ham „*Men ajamiy, yaʼni turkman, qalhim arabiy*“ deya xitob qiladi. Habib esa Xudoning doʻsti maʼnosini bildiradi.

Demak, „Ajam“ soʻzini arablardan boshqa xalqlar deb emas, umuman arab boʻlmasa-da, musulmon dinini qabul qilgan xalqlar, mamlakatlar deb atash toʻgʻriroq va mukammalroq boʻladi. Shunda Navoiyning „Tarixi muluki Ajam“ asarining maʼnosi ham yanada mukammal tushuniladi.

Kishida oʻrinli bir savol tugʻilishi mumkin: *Bu kitobda zikr etilgan shayxlarning bari arab, Xuroson diyorida yashab ijod etgan boʻlsa, bizga qanday ahamiyati bor?*

Kishini quvontiradigan, qalblarimizni faxr va iftixorga toʻldiradigan jihati shundaki, kitobda zikr etilgan ulugʻ insonlar orasida Oʻrta Osiyoda kamol topgan, ilm-fan, maorif va maishiy madaniyat taraqqiyotiga sezilarli hissa qoʻshgan, nomlari musulmon Osiyosidagina emas, butun jahonga mashhur boʻlgan, ayrimlari oldingi kitoblarda tilga olinmagan Muhammad Ali Hakim at-Termiziy, Abubakr Varroq Termiziy (mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziyning togʻasi), Abu Turob Naxshabiy, fargʻonalik Abubakr Vositiy, marvlik Fuzayl Ayozi, Abu Ali ibn Sinoning doʻsti, katta zamondoshi Abul Hasan Xarraqoniy, Abubakr Saydaloniy kabi ilmi hikmat, falsafa va fiqh donishmandlari bor. Bundan tashqari, kitobda zikr etilgan baʼzi avliyolar hayoti hamda faoliyatining maʼlum davri Nasaf, Marv, Urganch, Buxoro, Samarqand shaharlarida kechadi yoki avlodlari Movarounnahrlikdir.

Muhammad Siddiq oʻz fikrlarini dalillash, toʻlaroq oʻquvchiga tushuntirib berish uchun Rudakiy, Firdavsiy, Hofiz, Saʼdiy, Shavkat singari ulugʻlar ijodiga suyanibgina qolmay, Navoiy, Soʻfi Olloyor asarlariga ham murojaat etadi.

Xulosa qilib aytganda, bu asar shu qadar serfayz va xosiyatli yodgorlikki, undan har bir kishi xoh kichik, xoh katta boʻlsin oʻziga kerakli maʼnaviy oziq oladi.

Qori va ulamolar oʻqisa, „Qurʻon“ va hadis sharhini yangidan kashf etadi; talaba va shogird oʻqisa, bilim dunyosi kengayib, koʻngli quvvatga toʻladi; hukmdor, davlatmand oʻqisa,

faqir-bechoraga rahm-shafqatli, saxovatli bo'ladi, zulm va bedodlikdan qaytadi; yo'ldan adashgan, malomatga qolgan, o'g'irlik qilib yuzi shuvut bo'lgan odam o'qisa, gunohiga tavbat-zarru qiladi; ota-ona o'qisa, farzandlariga yanada mehribon, shirinso'z bo'ladi, farzandlar o'qisa, ota-ona, yaqinlar qadriga yetadigan bo'ladi; kibru havoga berilgan, o'z holidan g'ofil kimsalar o'qisa, ko'nglidagi takabbur susayadi; e'tiqodsiz o'qisa, ezgulik va yaxshilik yo'liga kiradi; imoni mustahkam bo'ladi, hayotning ma'nosini anglaydi.

Bu kitob irfoniy bilimlar qomusi bo'lib, bir lavhada uni atroflicha tahlil etish, uning ahamiyatini bor bo'yicha ko'rsatib bera olish mushkul ish. U alohida, tarixiy, qiyosiy-ti-pologik nuqtayi nazardan jiddiy tadqiq etishni talab qiladi.

### ZAROFAT SOHIBI

Aziz kitobxon! Siz mullo Nasriddin, Nasriddin Afandi, Ota Ko'pek Mergan, Aldar Ko'sa, O'mirbek Laqqi singari O'rta Osiyo xalq zarofatgo'y donishmandlari qatoriga XVIII asrda qo'shilgan Mushfiqiy — Mullo **Mushfiqiy** nomini ham ko'p eshitgansiz. Ammo, Mushfiqiy kim? U asli tarixiy shaxs-mi yoki to'qima timsolmi, degan savol ko'pchilikni qiziqtirsa kerak. Biz shu savolga to'laroq javob berishga urinamiz.<sup>1</sup>

Tojik xalq latifa va hikoyatlarining asosiy qahramoniga aylangan Mushfiqiy tarixan yashab o'tgan shaxs, uning asli ismi Abdurahmon, XVI asrda yashagan ayanchli taqdir sohibi. U sargardon lirik *shoir, hozirjavob hajvgo'y, dostonnavisdir*. Mushfiqiyning ota-bobolari asli marvlikdir. Shoir 1525-yili Buxoroda qashshoq oilada dunyoga kelgan, yoshligida ota-onasidan yetim qoladi. Natijada, bo'lajak shoir buxorolik bir hunarmand xonadonida xizmatkorlik qilib yurib, xat-savodini chiqaradi, madrasada tahsil ko'radi. U favqulodda iste'dod sohibi sifatida *matematika, astronomiya, hikmat, mantiq, arab tili, falsafa, bashorat* va boshqa bilimlarni mukammal egallab, „Ilmda Ptolomey va Aristotel“ („Tarixi Roqimiy“) darajasiga yetadi. Ammo, yoshligidan shoirtabiat bo'lgan Mushfiqiyda badiiy ijodga bo'lgan rag'bat ustunlik qiladi va u tez orada mashhur shoir sifatida shuhrat qozona boshlaydi, hajviy she'rlar ijod qiladi.

<sup>1</sup> (276-betda ham qisqa ma'lumot berilgan.)

Mushfiqiy Aminiy va Mahramiy kabi shoirlar bilan birga biroz muddat davlat xizmatkori, zodagonlardan Burhonxon huzurida bo'lgan va juybor xo'jalaridan ba'zilariga madhiyalar yozgan bo'lishiga qaramay, ona shahrida shuhrat topa olmadi, biron homiy paydo qilolmadi. Shuning uchun Mushfiqiy 1564-yili Samarqandga ketib qoladi. Shoir bu yerda saroy kitobdori vazifasiga erishgan bo'lsa ham, lekin moddiy ahvoli yaxshilanmaydi. Shoir Buxoroga qaytish maqsadida Abdullaxonga qasidalar yo'llaydi, „Gulzori Iram“ masnaviysini tugatadi. Bu orada Samarqand hokimi Abu Said vafot etadi; Abdullaxon Samarqandni qo'lga kiritadi. Mushfiqiy uning zafarini muborakbod etib, qasidalar bitadi, ammo xon unga iltifot ko'rsatmaydi. Natijada, bir qancha adiblar singari shoir Movarounnahni tark etib, Hindistonga ketishga majbur bo'ladi. 1577-yili Akbarshoh huzuriga boradi, lekin uning umidlari puchga chiqadi. 1578-yili Buxoroga qaytib, Abdullaxon saroyidagi adabiy doiraga doxil bo'lishga erishadi. Katta adabiy jarayon, jiddiy ijtimoiy-siyosiy voqealar og'ushida yashab, 1588-yilda vafot etadi.

Mushfiqiydan bizga juda katta hajmda badiiy meros qolgan. Ularni o'rganish, tasnif etish va nashr qildirishda tojik olimlaridan Z. Ahrorov, S. Ayniy va U. Karimovlarning xizmati katta. Uning to'rtta devoni mavjud bo'lib, ularning birinchisi 1558-yili tuzilgan, faqat hajviyalardan iborat, qolganlari qasida va g'azallarni o'z ichiga olgan. Bundan tashqari, Mushfiqiy „Soqiynoma“, „Gulzori Iram“, „Jahonnamo“ singari masnaviy-dostonlar ham yozgan. Devonlarida *qasida*, *g'azal*, *ruboiy*, *qit'a*, *muxammas*, *masnaviy*, *tarkibband*, *tarje'band*, *mustazod* singari lirik tur janrlaridagi asarlar jamlangan. Shoir o'z hajviyalarida kishilar o'rtasida uchraydigan nuqsonlar, g'ayriinsoniy xatti-harakatlar ustidan kuladi, adolatsizlikdan noliydi. Mashhur „Meros taqsimi“ hajviyasida esa, qaysi bir aqidaga ko'ra qiz bolani ota-ona merosidan mahrum qilish odati ustidan kulib, bu xususdagi munofiqlik va riyokorlikni qattiq tanqid ostiga oladi. Mushfiqiy Sharq she'riyati tarixida maxsus hajviy she'rlar devoni tuzgan shoir sifatida ham diqqatga sazovor. Professor A. Boldirev bunday asarlarni *xalqchil*, *shahar hunarmandlari ruhiyatini ifoda etadigan haqqoniy asarlar*, deb ta'kidlagan. U nisbatan ilm-madaniyat ravnaqi uchun imkoniyat paydo bo'lgan osoyishta muhitda malikushshuaro



darajasiga yetadi. Hasan Dehlaviy hamda Kamol Xo'jandiy singari buyuk shoirlarning ilg'or an'analarini davom ettiradi, ularning san'atkorlik dahosidan fayz topadi.

Shoir lirikasi g'oyaviy yo'nalishi, tematik doirasi, xususan, betakrorligi jihatidan o'ziga xos xususiyatga egadir. Chunki, ularda an'anaviy obraz va mavzular yangicha mohiyat kasb etib boradi, u lirik qahramonning dard-hasrati, shod-u hurramligi-yu, o'ziga xos hazil-mutoyibaga moyilligi, ma'shuqaning serviqor noz-u tamannosi, oshiq iltijosi-yu, nola-yu zoriga beparvo, „o'z taxtidan tushmasligi“ (Navoiy)ni nihoyatda ta'sirchan, badiiy o'ynoqilik bilan tasvirlaydi. Professor Zohir Ahroriy Mushfiqiy san'atkorlik mahoratini shoir ijodiga bag'ishlangan risolasida maxsus o'rgangan. Mashhur adib va qomusiy bilim sohibi Sadridin Ayniy o'z tadqiqotlarida shoir she'riyatining bu sehriga bir necha bor ishora qilgan. Ma'shuqasining dardida yurmoq, uning poyi tuprog'ini ko'ziga to'tiy o'tmoq oshiq uchun baxt, fidoyilikka undovchi bir ramz:

*Volayi husni xati g'oliyabo'yi tu shavam,  
Vah chi zebo shudayi, bandayi ro'i tu shavam.  
Gar shavad har nafase dar tani man joni digar,  
Har nafas jon dihamu zinda bar bo'yi tu shavam.  
Man na on oshiqam imro'z, ki chun bulhavason,  
Talabam komi dilu ranja zi xo'yi tu shavam.  
Sari mo'ye shudaam az g'amu dog'am havase,  
Ki fidoyi havasi har sari mo'yi tu shavam.*

(Mazmuni: *Sening mushkin hidli labing xatiga vola bo'libman, shu qadar go'zallashibsanki, yuzing bandasi bo'libman. Har nafasda tanamda bir jon paydo bo'lsa, har daqiqada jon bergim-u, hiddingan qayta tirilgum. Men bul havaslar singari bugun parvona bo'lib, hajr azobi onlarida sandin voz kechmasmen. Ishqing ko'yida soch tolasidek bo'lib qoldim, lekin hamon har soching tolasiga fidoyiligincha qolibman.*)

Barcha o'tmish tazkironavis va she'rshunoslari Mushfiqiyni nozikbin va nozikbayonlikda alohida mahorat sohibi sifatida ta'riflaydilar.

Mushfiqiy qasidalarining ko'pi *vasfiy* xususiyatga ega. Ularning ba'zilari shoir o'ziga bir pushtipanoh homiy topa olmay, shaharma-shahar yurganida turli hukmronlarga yo'llangan asarlardir. Ammo „Qasidalar devoni“da shunday

she'rlar ham borki, ularda muallif, bir tomondan, o'zining og'ir, musibatli hayotini, moddiy qiyinchiliklari, bekasligini ifodalab, zamona nosozligidan shikoyat qilsa, ikkinchi tomondan, shoh nazdidagi obro'siga suyanib, mavjud ijtimoiy tuzumdagi adolatsizlikni, ayrim beklar, idora amaldorlari, xususan, vazir Osaf tomonidan sodir qilinayotgan zulm-zo'rlik, g'ayriqonuniy xatti-harakatlar qattiq tanqid qilinadi, fosh etiladi, ularni adolatpesha bo'lishga undaydi.

„Soqiynoma“ hamda „Jahonnamo“ nisbatan ixcham dostonlar bo'lib, ularda shoir so'fiyona mayllar, axloq-odob masalalari, komillik shartlari xususida bir mutafakkir sifatida mulohaza yuritib, kitobxonni *poktiynat, ma'rifatli* bo'lishga da'vat etadi. Sarguzasht doston „Gulzori Iram“da esa muallif ikki yosh o'rtasidagi fidoyi ishqni Husn, Dil, Ishq, Aql, Xayol, G'amza, Mehr, Vafo, Nomus singari ramziy obrazlar orqali tasvirlagan. Ayrim adabiyotshunoslar Mushfiqiy bu dostonni yozishda Fattohiy Nishopuriyning „Husnu Dil“ dostonidan ilhom olganligini qayd etishgan. Lekin Fattohiy dostoni xalq kitoblari singari nazm-u nasr aralash usulida yozilgan, Mushfiqiy asari esa an'anaviy masnaviy janrida bitilgan. Bunda janrlar qorishmasi sezilmaydi. Bu mavzuning keyingi asarlardagi turkiy va forsiy tillarda an'anaga aylanishida Mushfiqiy asarining ham o'rni bor.

Xulosa qilib aytganda, Mushfiqiy yoshligidan barcha bilimlarda kamolot kasb etib, o'zining zukkoligi-yu hozirjavobligi, notiqligi-yu badchago'yli, latifago'yli-yu askiya aytishi bilan hammani lol qoldirgan, noqilligini g'azalga'yli bilan manaman, degan shoirlar nazariga tushgan adibdir. Shuning uchun ham o'sha asrdayoq Movarounnahrda tez yoyilib, xalq latifalari, hikoyatlarining qahramonlariga, zarofatgo'y ertakchilarning timsollariga aylangan. U hozirjavob hajvgo'y qahramon sifatida hamisha omma bilan barobar qadam tashlab yuribdi.

## JISMIM NOTAVONDUR MENING

O'n yettinchi asrda Movarounnahr mintaqasidan fors-tojik adabiyotining bir necha yorqin yulduzlari yetishib chiqdikim, ular orasida otashzabon-u shirinkalom shoir **Sayido Nasafiy** alohida maqomga ega. Lirik turning deyarli barcha janrlaridagi

asarlardan katta hajmdagi devon tuzgan, „Bahoriyot“ (Hayvonotnoma), „Shahrosho‘b“ (shahar hunarmandlari xususida manzuma)lar yaratgan sermahsul bu san‘atkorning ijodini o‘rganish va nashr etishda Xoliq Mirzozoda, Sadridin Ayniy, Abdug‘ani Mirzoyev hamda Jo‘raxon Shanbezodalarning xizmati katta.

Bo‘ljak shoir Mirobid Sayido Nasafiy XVII asrning 30-yillarida Buxoroda hunarmand oilasida dunyoga keladi. Avlodlari qarshilik bo‘lgani uchun „Nasafiy“ taxallusini qo‘llagan. Bola-ligidanoq zehni o‘tkir bo‘lgan Mirobid besh yasharligidan mustaqil mutolaa, xat mashqiga berilib, tez orada savodini chiqaradi, yigitlik pallasida kimsasiz qolgani uchun Labi Hovuz masjidi huzuridagi Devonbegi madrasasidan bir hujra olib yashay boshlaydi. Madrasa tahsili jarayonidayoq u iste’dodli shoir sifatida ko‘zga tashlanadi. Natijada talabalar, shahar hunarmandlari orasida shuhrati oshib, ko‘plab do‘stlar orttiradi. Ana shu do‘stlari uni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab yuradilar va bu madadga suyanib u o‘z davridagi barcha bilimlarni egallab, zamonasining eng peshqadam shoiri darajasiga yetadi. Ammo Buxoro shahrida shoir e‘tibordan chetda qoladi, biron homiy topilmaydi. Shuning uchun u pushtupano‘h izlab, Movarounnahrning ko‘plab shaharlarini kezadi, lekin „biron xaridor“ topilmaydi, Hindistonga bormoqchi bo‘ladi, ammo aksariyat hamrohlari ketishsa ham „Vatan mehri“ yurt hududini tark etishga yo‘l bermaydi. To‘quvchilikdan keladigan daromadi moddiy ahvolini yaxshilamasa ham, umrining oxirigacha o‘sha hujrada yashab, hunarmandlar va kosib do‘stlari qatorida bo‘ladi.

Sayido Nasafiy uzoq umr ko‘rib, 1707—1711-yillar orasida vafot etgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, bizga qadar Sayido Nasafiyning mukammal kulliyoti yetib kelgan. Uning qo‘lyozma nusxalarida 8500 baytdan iborat turli janrlardagi she’rlar jamlangan. Ularning mavzu doirasi keng, g‘oyaviy yo‘nalishi rang-barang, badiiyligi eng avj nuqtada. O‘sha davr shoiri va adabiyotshunosi Maleho Samarqandiy o‘zining „Muzakkir ul-ahbob“ tazkirasida Sayido ijodiga quyidagicha baho bergan: „*Maqtashda uning nomi payvasta kelmagan g‘azal uchramaydi, u muxammas bog‘lamagan g‘azal ham topilmaydi. Bokira g‘azallari so‘z ustalarini hayratda qoldirgan, ra‘no yanglig‘ muxammaslari*

*savat to'la gullarning tojidir. Shahroshublari bozorlarga g'avg'o solgan, ruboiylari so'z arboblari e'tiborini qozongan, qasidalari salmoqli, masnaviylari sirlarga boy, qit'alari pandga serob, musta'zodlari qalblarni rom etuvchi, muvashshahlari muammo, chistonlari dilpisand, nimaiki yozgan bo'lsa bari mumtoz va oliyqadrdir“.*

Haqiqatan ham, Sayido Nasafiyning she'rlari har jihatdan boshqa salaflari asarlaridan farq qiladi. Jumladan, u g'azal janrida an'anaviy muhabbat mavzusidan tashqari, inson turmush urinishlari, uning ma'naviy olami, mavjud ijtimoiy tuzumning barcha jabhalaridagi hayotiy hodisalarni tasvirlashga, aks ettirishga erishgan adibdir. Shoir ko'pincha 7—8 baytli g'azallar insho etsa ham, ba'zi g'azallarida baytlar sirasi yigirmadan oshadi. Ularda hamisha voqe'binlik, haqqoniylikka jiddiy e'tibor beriladi, har bir g'azal shoir yashayotgan davrning muayyan hayot lavhasidek tuyuladi. Shuning uchun ham she'rlarida azaliy va abadiy muhabbat mavzusining yangi qirralarini kashf etish bilan birga, lirik qahramonning o'zini o'rab olgan muhitga munosabati rang-barang bo'yoqlarda o'z ifodasini topgan. Shubhasiz, oshiq visol onlariga intiladi, yorining betakror go'zalligini vasf etadi, undan vafo, sadoqat, muruvvat tilaydi; uni gul gashti, bahor faslini, bo'ston sayrini g'animat bilishga chorlaydi. Oshiq chinakam go'zallik, hayot shaydosi:

*Omad bahor-u sayri guliston g'animat ast,  
Bazmi visoli g'unchayi xandon g'animat ast.  
Bo qomati xamida ravam so'i bo'ston,  
Nazzorai bunafshavu rayhon g'animat ast.*

(Mazmuni: *Bahor keldi, gulistonni sayr etmoq g'animatdir, xandon g'uncha visoli ila bazm etmoq g'animatdur, bo'ston sari qomatimni egib boraman, chunki binafsha bilan rayhon tamoshosi g'animatdir*).

Bir qancha g'azallarida shoir oshiq qalbining turli-tuman kechinmalarini tabiat go'shasining so'lim yoki so'lg'in lavhalarini chizish bilan mutanosib tasvirlab, inson ruhiy olami nechog'liq nozik va rango-rang ko'rinishlarga ega ekanligini ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi. Ana shunday kezlarda tabiat oshiq niyati, xohishiga ters kelib qoladi. Bunday kezlarda endi lirik qahramonning mavjud ijtimoiy tuzum illatlariga, badkirdor

zamondoshlari-yu bevafo do‘stlariga munosabati, zulm iskanjasida ingrayotgan oddiy hunarmandlar ahvoliga, zamondoshlar dardiga hamdardlik izhor etish yaqqol ko‘zga tashlana boshlaydi. Shu zaylda oshiq goh yor jabridan, goh bejizlikdan mung tortadi, ba‘zan hayotdan norozi oshiqning „tizza ko‘zgisiga bosh qo‘yib“, mahzun o‘tirishi nafis chiziladi. Ko‘pincha zamon va zamon ahlining bevafoqligi-yu zulmi tanqid qilinadi: „Mening“ („Maro“) radifli g‘azallarida shoir o‘ziga o‘xshagan minglab jismi notavonlarning umumlashma obrazini yaratadi:

*Mazrai xushkam, nazar ba osmon boshad maro,  
Meparad chashmam, umed az Kahkashon boshad maro.  
Partavi xurshed bar do‘sham garoni mekunad,  
Baski hamchun jismi notavon boshad maro.*

(Mazmuni: *Quruq shudgorman, ko‘zlarim osmondadur mening,  
Ko‘zim uchadi, umidim Samon yo‘lidadur mening  
Quyosh nuri tanamga og‘ir botadi,  
Jismim zor-u notavondur mening*).

Shu turkumga kiradigan g‘azallarda shoir o‘zini „quduqqa tashlangan Yusufga“, „bo‘m-bo‘sh sahro etagida kun kechirayotgan minglarning biriga“ o‘xshatadi; „zog‘-u zag‘ona yo‘ldosh“ bo‘lgandan, „uyga zamona aholidan biri tashrif buyursa, dashtga qochib ketishga“ majbur bo‘lganidan, „jahon talangan qishloqqa“, „gul qonga bo‘yalgan xanjarga“ o‘xshaganidan ozor chekadi; „xalq toj-taxt talashib“, „suv o‘rniga bir-birining qonini ichayotgani“dan nolib, davrining ayanchli manzarasini chizadi.

Boshqa turkum asarlarida, xususan „Shoir uyining o‘g‘ri urishi“ she‘rida *qalloblik, bemehrlik, sudxo‘rlik*, „*ye to‘nimchilik*“ avj olgan, adl o‘rnini zulm egallagan zamonasining yorqin lavhalarini zo‘r mahorat bilan chizadi:

*Ba darho medavand odamiro nafsi gardankashi,  
Xaridore naboshad g‘ayri sag noni gadoiro.  
Ba muflis ro‘ dihad dunyo, kunad savdogari pesha,  
Gado mun‘im chu gardad mefuro‘shad oshnoiro.  
Nasihati mekunad ba ahdi dunyo beshtar voiz,  
Namego‘yand mardum be tama‘ harfi xudoiro.*

(Mazmuni: *Insonlarni muhtojlik eshiklariga termultiradi,  
gadaylikda topilgan nonga kuchukdan boshqa kimsa qaramaydi.*

*Yo'qsilga dunyo uchrasa, savdogarlik da'vosini qiladi, gadoyning qorni to'ysa, do'stlikni sotadi. Voiz dunyo ahliga va'zxonlik qiladi, ammo hech kim xudojo'ylik haqida tamasiz gapirmaydi).*

Hasbi hol xarakteridagi bunday she'rlarda lirik qahramon zamoni zulmidan, muhtojlig-u benavolikdan, zulm iskanjasida noliyotgan, ohidan „otash o'rlayotgan“ mehnatkash xalqning umumlashma obrazini yaratadi; „*dasturxonni tilanchilikka uzatilgan gado qo'lidek bo'shligi*“dan shikoyat qiladi: „*Xuroson-u Hindistonda she'rlarimni o'qiydilaru yurtim Turkistonda qadr topmadim*“, deydi.

Sayido Nasafiy kulliyotining katta bir qismini masnaviylar tashkil qiladi. Ular 27 ta bo'lib, an'anaviy ishqiy-sarguzasht, ijtimoiy-falsafiy xarakterdagi masnaviylardan farq qiladi. Shoirning bu xildagi she'rlari biron bir tarixiy voqea yoki shahar, tarixiy shaxs, tabiat manzarasi, yil fasllari tasviriga bag'ishlangan ixcham dostonni eslatadi. Jumladan, bunday asarlarning bir nechasi qishning qattiq sovug'i-yu, yoz chillasining inson toqat qila olmaydigan issig'i tasviriga, Buxoro, Boqijon chorbog'i, Naqshband ravzasi ta'riflariga bag'ishlangan.

Bir turkum masnaviylar Buxoro amirlari Abdulazizxon hamda Subxonqulixon hukmronligi davridagi Movarounnahrda ro'y bergan voqealar tasviriga bag'ishlangan. Ular, bir tomondan, shoir ijodidagi haqqoniylik — realistik tamoyillarni bilib olishga ko'maklashsa, ikkinchi tomondan, o'sha davrdagi ba'zi tarixiy voqealarni aniq tasavvur etishga ko'maklashadi. Ayrim tarixiy shaxslarning mavjud ijtimoiy tuzumdagi o'rni hamda mavqelarini mukammal anglashga yordam beradi. Umuman Sayido masnaviylari tuzilishi, mavzu doirasi, timsollar silsilasi, g'oyaviy yo'nalishi-yu badiiyligi jihatidan ushbu janrning tarixiy taraqqiyotida muhim bir hodisa hisoblanadi. Sharq mumtoz adabiyotida bu turkumdagi asarlar faqat Sayido Nasafiy ijodigagina mansub bo'lib, tili, uslubi, badiiy tasvir usullari ham o'ziga xosdir. Qasida, qit'a, ruboiy kabi janrlardagi asarlar ham ana shu masnaviylardagi fikrlarni to'ldirishga xizmat qiladi. Jumladan, Bahovuddin Naqshbandga bag'ishlangan qasidalar shayx ravzasi haqidagi masnaviylarda ifodalangan mulohazalarni rivojlantiradi, yanada takomillashtiradi.

Oldin qayd etganimizdek, Sayido bir umr shahar ahli bilan xususan, hunarmandlar bilan hamkor — hamnafas bo'lgan san'atkordir. Shuning uchun ham shoir asarlarining

yetakchi mavzularidan biri — oddiy mehnatkash xalq hayotini tasvirlashdir. Uning devonida kosiblar, turli kasb egalari, shaharning mayda-chuyda — kundalik yumush bilan band aholiga bag'ishlangan maxsus „hunarmandlar she'rlari“ mavjud. Ularda shoir, bir tomondan, Buxoro amirligi zamonida mehnatkash xalq turmushining nechog'lik ayanchli ekanligi haqqoniy in'ikos ettirsa, ikkinchi tomondan, masnaviylarga kirgan turli hajmdagi asarlarida batafsil tasvirlangan.

Sayido masnaviylaridan sakkiztasi turli toifadagi hunarmandlar tavsifiga bag'ishlangan. „Xoja Mirzajon baqqol ta'rifida“, „Shustagar xoja Nurxolmuhammad ta'rifida“, „Baqqol xoja Shafe ta'rifida“, „Novvoylar ta'rifida“, „Qassob ta'rifida“, „Najjor ta'rifida“ singari asarlar shular jumlasidandir. Bunday masnaviylarda shoir oddiy mehnatkash xalqning hayotini ko'tarinki bir ruhda tasvirlaydi; ularning jamiyat moddiy ne'matlarini yaratishdagi o'rni, mavqeini alohida e'tirof etadi; ular jamiyat ko'rkiga ko'rk qo'shib, insonlarning kundalik ehtiyojlarini qondirishlariga qaramay g'oyatda og'ir ahvolda yashayotganlarini dard-hasrat bilan ko'rsatadi. Bunday „hunarmandlar haqidagi she'rlar“ tojik adabiyotidagina emas, o'rta Osiyo xalqlari mumtoz adabiyotida mutlaqo o'ziga xos hodisadir.

Ma'lumki, o'tmish mumtoz adabiyotimizda shaharlarda yashaydigan turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatda tutgan o'rnini tasvirlash, ko'pincha hukmron tabaqalar guruhlarining salbiy kirdikorlarini tanqid hamda fosh qiladigan asarlar yaratish an'anasi mavjud. Lekin, faqat mehnatkash xalqning turli toifalarini nazm rishtasida bir silsilada tasvirlash — shahroshub yaratish ham Sayido Nasafiy qalamigagina xosdir. 404 baytdan iborat Sayido shahroshubida parchafuro'sh ta'rifiga bag'ishlangan g'azaldan boshlanib, *zargar, halvogar, kulol, qandolatchi, toqido'z, baqqol, kamongar, saroybon, etikdo'z, paxsachi, oshpaz, xaymado'z, tandirchi, tanburchi, sovunpaz, defez, ko'hnado'z, dukchi, kurashchi, temirchi, musavvir, kotib, dallol* singari 212 hunar egasi 2 baytdan tortib 5 baytgacha bo'lgan she'riy shakllarda ta'rif va tavsif etiladi, ba'zan yengil yumor yoki lutf orqali mutoyibaga tortadi, ularning moddiy ne'mat yaratish jarayonidagi kayfiyatlari tasvirlanadi. Boshqa shahroshublardan Sayido

asarining farqi u asosan fardda yozilgan. Ushbu manzumalar mavzu doirasi va g'oyaviy yo'nalishi jihatidagina emas, balki ma'rifiy, tarixiy va etnografik nuqtayi nazardan ham katta ahamiyatga molik. Zeroki, shoir shahroshublari orqali biz o'sha davr Buxoro muzofotidagi hunar va hunarmandlar xususida, har bir kasbning o'ziga xos murakkabliklari haqida mukammal ma'lumotga ega bo'lamiz. Chunonchi, Buxoro shahrida maxsus „shustagir“ (kir yuvuvchi)lik kasbi mavjud bo'lib, shoir ularni hayot pokizaligi timsolidek ta'riflaydi. Sayido Nasafiyning oddiy mehnatkash xalqqa mehri, insonparvarligi, turli hunar egalarining yaratuvchilik qudratiga komil ishonch „Bahoriyot“ („Hayvonotnoma“) manzumasida ham yaqqol o'z ifodasini topgan.

Kunlardan bir kun shoir g'am go'shasidan chiqib, sahroga yuzlanibdi, qarasa, bir *sichqon* uyasi og'ziga o'tirib olib o'zini ta'riflayotganmish. Uning maqtanchoqligini eshitgan *mushuk* kelib, sichqonni past urib, o'zini maqtab ketibdi. Buni eshitgan *it* kelib mushukni qoralab, o'zini oqlay-maqtay boshlabdi, shu zaylda *qo'y, bo'ri, ho'kiz, tuya, toshbaqa, tipratikan, tulki, quyon, maymun, ohu, arslon, fil, karkidon* birin-ketin kelib, dastlab o'zidan oldin gapirgan hayvonni qoralab-yomonlab, so'ng o'z-o'zini ta'riflabdi. Va nihoyat „hayvonlar podshosi“ dag'dag'a-yu, as-asa bilan kelib, o'zining hammadan katta va baquvvat ekanligini viqor bilan ta'riflabdi. Bir donni sudrab borayotgan chumoli sherning gapini eshitgach, yo'lidan to'xtab debdi: „*Ey, zamonaning Rustami Dostoni, chumolilar ittifoqidan bexabarmisan. Biz birlashganda oilamiz rizqisi sening ayshingdandir, qumursqalar ovqati sherbachchalardir*“.

Shoir 18 hayvonni o'zaro, o'z-o'zini ta'riflash munozarasi orqali majoziy yo'l bilan tasvirlar ekan, asar oxirida chumoli tilidan „birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar“, „yakka otning changi chiqmas ekan“, degan xulosaga keladi. Masnaviy yo'lida yozilgan ushbu doston katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zeroki, asar zamirida — mehnatkash xalq — qudratli kuchdir, degan fikr mujassamlangan.

Fors-tojik adabiyoti tarixida Sayido eng ko'p muxammas yozgan shoirlardan biri hisoblanadi. U Hofiz, Jomiy, Urfiy, Hiloliy, Nazariy, Fig'oniy, Soib, Kamol, Kalim, Tolib, Mushfiqiy singari 70 dan ortiq o'tmishdoshlari g'azallariga



muxammaslar bitgan, o‘zi ham zamon va nobop zamona ahlini tanqid qilib, muxammaslar yozgan. U Soyib Tabreziy ijodini o‘zi uchun bir maktab, deb bilgan va shuning uchun uning ko‘plab g‘azallariga muxammaslar yozgan.

Ko‘rinib turibdiki, butun umrini goh go‘shanishlikda, goh hunarmandlar orasida, ba‘zan esa muhtojlik azobidan qutulish uchun Samarqand-u Toshkent, Qarshi-yu Shahrisabz shaharlarida homiy, pushti-panoh izlab safarda o‘tkazgan Sayido tojik mumtoz adabiyotidagi chinakam xalq-hunarmandlar shoiri ekan. U bir umr kosiblar davrasida yurdi, javonmardlik o‘chog‘i bo‘lmish hunarmand toifalar gurungida bo‘ldi, xalq dardiga hamroz bo‘lib, baytlari bilan ko‘ngillarini ko‘tardi. Shuning uchun ham uning asarlari hamon o‘zi aytganidek „Hindu Xurosonda“ el og‘zida.

### SO‘Z GUHARSHUNOSI

XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmi ko‘hna Qo‘qonda o‘ziga xos bir madaniy, ilmiy va adabiy muhit vujudga keldi: turli shahar, qishloqlardan *olim, xattot, musavvir, muallim, shoir, mashshoq, mug‘anni-yu muqallid, zarofatgo‘ylar* shaharga jamlandi, maxsus hunar maktablari, madrasalar rivojiga alohida e‘tibor berildi. Hatto sohaviy-rassomlik, naqqosh-u muzahhiblik, xattotlik, mashshoqlik sozanda-navozandalik hunar maktablari tashkil etildi. Eng mumtoz asarlarni saralab ko‘chirtirish, tarjima qildirish yo‘lga qo‘yildi. Ularga arkoni davlat homiylik qildi, xattot va mutarjimlar moddiy jihatdan ta‘minlab turildi. Ellikdan ziyod ijodkorlar yagona adabiy muhitda jamlandi. Hatto chekka Ashtda ham Muhammadamin Kosoniy boshchiligida kotiblar va rassomlar — musavvirilar tayyorlaydigan maxsus maktab ochilgan. Ana shu katta bir ijodiy jarayonning rahnamosi — sarkori **Amir Umarxon** — **Amiriy** edi.

Bo‘lajak shoir va davlat arbobi Umarbek 1787-yili Qo‘qonda zodagon oilasida tug‘iladi. U boshlang‘ich ta‘limni xususiy muallimlarda olgach, madrasada o‘qiydi: arab va forsiy tillarni, zamonasidagi barcha bilimlarni mukammal egallaydi. Shundan so‘ng akasi Olimxon xizmatida bo‘ladi. O‘z bilimdonligi-yu ma‘rifatlilik bilan ko‘pchilikning diqqatini tortadi. 1807-yili

akasi Farg‘ona hokimligini topshiradi. U Andijon hokimi Rahmonqulbiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylanadi. 1810-yili Olimxon fitna oqibatida o‘ldirilgach, Umarbekni xon etib ko‘taradilar. O‘n yildan ziyod hukmronlik qilgan Umarbek madaniy hayotni yuksaltirishga, madrasa, maktab, masjid, xonaqoh, hammom, karvonsaroylar qurdirishga, adabiy hayotni jonlantirishga, qo‘shni davlatlar bilan madaniy, iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor bergan. Uning o‘zi ham Amiriy taxallusi bilan g‘azallar yozgan.

Amir Umarxon 1822-yili vafot etgan.

Amir Umarxon davr farzandi sifatida saltanatini mustahkamlash, xonlik hududini kengaytirish yo‘lida qattiqqo‘llik siyosatini olib bordi, hatto, bosqinchilik urushlarini ham uyushtirdi, yurtgirlik siyosati g‘olib kelib, el-ulus ahvolidan xabar olmadi. Dilshodi Barno: „*Amir Umarxon vujudan olim va buyuk shoir edi. Shunday olim va shoir bo‘lsa-da, mazlum aholiga rahm-shafqat qilmadi*“, deb yozgani bejiz emas.

Amiriy o‘zidan o‘zbek va tojik tillarida katta hajmdagi she‘rlar devonini qoldirgan. Shoir devoni 1887-yildan 1909-yilgacha bir necha bor chop etilgan. O‘sha davr Qo‘qon adabiy muhiti, Amiriy ijodini o‘rganishda akademik Aziz Qayumov, filologiya fanlari doktori Mahbuba Qodirovalarning xizmati katta. M. Qodirova 1972-yili Amiriy devonini chop ettirgan edi. Lekin o‘sha yillardagi hukmron mafkura „o‘tmishni ideal-lashtirish“, „saroy adabiyoti vakili“ tamg‘alari bilan kitobni man etdi va tarqalishga yo‘l qo‘yilmadi.

Amiriy Qo‘qon adabiy muhitining boshqa shoirlari singari o‘zbek va tojik tillarida barobar ijod qilib, har ikki tilda *muntoz g‘azallar, muxammas, murabba, musaddaslar* yaratgan. Sharqning daho shoirlari Hofiz, Kamol, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Bedil hamda Fuzuliyning eng sara g‘azallariga muxammaslar bitgan, o‘xshatmalar yozgan. Bir g‘azalida shoir Navoiy ijodi o‘ziga badiiyat sarchashmasi bo‘lganligini qayd etgan. Shu dalilning o‘zi uning ijodxonasi qay tahkursi asosiga qurilganligini ko‘rsatadi. Amiriy ijodiga Navoiy dahosining ta‘siri, shoir g‘azallarining xalqona ruhda ekanligiga M. Qodirova „Devon“ga yozgan so‘zboshisidayoq ilm-adab ahli diqqatini jalb etgandi.

Shoir g‘azallarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, ularda abadiy mavzular, ishq tasvirlanganligini kuzatamiz. Ammo, ana shu

an'anaviy muhabbat tasvirida Amiriy mutlaqo o'ziga xos bir yo'l tutgan. U Lutfiy, Navoiy, Bobur g'azallaridan fayz topib, aruzning xalq qo'shiqlariga yaqin bahrlarida ijod etishga, muayyan inson-ma'shuqa chiroyini nafis chizishda, oshiq iltijosi, dard-hasratini ifodalashda xalq laparlaridek sodda, ravon she'rlar yaratishga erishadi. U ko'pincha sevgining fayz-u tarovatini umumlashma qahramon — oshiq tilidan yorining *ruxsori, guftori, raftori, andomi, qosh-u ko'zi, noz-u karashmasini* ta'sirchan, bokira tarzda tasvirlashga muayassar bo'ladi; kichik bir lavha vositasida olam-olam taassurotlar tug'diradi.

Chunonchi, mumtoz g'azaliyotimizda ko'pincha *yor labi ustidagi nafis qora tuk* go'zallik timsoli sifatida *mushki anbar, rayhonga* qiyoslanadi. Amiriy g'azallarida ana shu „xat“ning yuzlab holatlarda badiiy tashbeh, timsol sifatida aks topganligini kuzatamiz. „Xatti anbarfom“, „xating nuktasi“, „anbarin xat“, „sabzayi xatti“, „xatti shabrang“, „xating rayhoni“, „xating davri“, „xat zohir o'ldi la'lidin“ singari so'z va iboralarining xilma-xil tovlanishlarda kelishi fikrimizni tasdiqlaydi. Shoirning tojikcha g'azallari va muxammaslarida ham ana shu an'ana ustuvor. Jumladan, bir g'azalida „sening xating Qur'on satriklarini eslatadi“, degan fikrni beradi.

Xati zog'i uchun ikki qaro zulfi tuzog' erdi,

Banogo'shi safosin bog'a tushgan qora o'xshattim.

Amiriyning „Tasadduq“, „Sanga“, „Derman“, „Nogoh“, „Cho'x“, „O'xshaydur“, „Dermishlar“, „Gulnor“ singari o'nlab g'azallari chinakam xalqona asarlar bo'lib, ularda oshiq qahramonning ruhiy kechinmalari behad nafis, ixcham va ravon yo'lda ifodalangan, murakkab tashbehtar, turli fikrlarning qo'shilib-quyuqlanib kelishi holati uchramaydi: badiiy-tasviriy vositalar hammabop tarzda qo'llangan:

Zohir etmish gar shafaq ul la'li xandondin havo,  
Yig'lamoq kasb aylamish bu chashmi giriyondin havo.  
Bo'lmagan bo'lsa agar la'ling maydin surx ro',  
Ne uchun har tun shafaq zohir qilur qondin havo.

Bunday g'azallarda ma'lum darajada Fuzuliy va Mashrablar an'anasi ham mavjud:

Labing sarchashmayi obi baqodur,  
Xizr xatti zilolingga tasadduq,

Tutarman tanaro jonni giromi,  
Bo‘lur bir kun visolingga tasadduq.

Ko‘pincha, shoir an’anaviy obrazlarni yoki badiiy-tasviriy vositalarni qo‘llashda ayricha yo‘l tanlaydi. Aksariyat shoirlarimiz, masalan, yor gajagini, ba‘zan sochini ham oshiq uchun qo‘yilgan tuzoqqa o‘xshatganlar. Yoki yorning oshiqqa qiyo boqishini, qayrilib ko‘z qirini tashlashini „mo‘rcha nigoh“ deb ta‘riflaganlar. Amiriy ana shu an‘analarga o‘zgacha yondashadi; gajag-u zulfni ko‘p holatlarda qo‘llab, ya‘ni qarmoqqa qiyoslab, fikrning teran ifodalanishiga, g‘azalsarolikka yangi bir lavha olib kirishga muassar bo‘ladi:

Ishq bahrida qo‘ngil mohisini sayd etgali,  
Zulfin har bir kaji yuz halqayi qullob erur.

Demak, yor sochining har bir jingalagi ishq dengizidagi baliqlarni (oshiqlarni) ovlash uchun tashlangan qarmoq ilgichlarini eslatadi. Mumtoz g‘azallarimizda ko‘p uchraydigan „mo‘rcha nigoh“ iborasini shoir sodda qilib „nimnigoh“ tarzida ishlataveradi:

Nimnigohing ko‘z uchidin, turdi mijgon saf tuzub,  
Xam bo‘lib, ta‘zim etib, yer o‘pdi farmoningda qosh.

Yorning qatli uchun qasd etish — lutf aylashi ham oshiqni tetiklashtiradi, unga taskin beradi. Zeroki, ma‘shuqa ko‘zidan otilgan o‘qlar oshiq qalbini chok etsa, dudog‘ida zuhur etgan shiringuftorlik unga jon bag‘ishlaydi. Yor lablarini ta‘riflab xat insho etgan qalam bol cho‘qigan qush tumshug‘iga o‘xshaydi:

Har qalamkim lablari vasfida tahrir etsa xat,  
To‘tidurkim bo‘lur shahd ichra minqori suchuk.

Quyidagi baytda ham o‘zgacha, mutlaqo yangi bir qiyos mavjudkim, shoirning so‘zga zargarona munosabati hayratomuzdir:

G‘izo o‘lmish agar ko‘rsam ko‘zingni ro‘za chog‘ida,  
Nexush ulkim qilur bodom ila iftor men yanglig‘.

Farg‘ona vodiysi xalqlari orasida ro‘za kunlari iftorga bodom qo‘yish yoki iftorda bodom mag‘zi tanovul etish an‘anasi mavjud. Shoir bu yerda mumtoz she‘riyatimizdagi yor ko‘zini — qabog‘ini bodomga o‘xshatish an‘anasini davom ettirgan holda,

ana shu taomilga ishora qilib, fikrning qabariq ifodalanishiga erishgan.

An'anaviy *tazod*, *tarse'*, *g'ulu* (o'ta mubolag'a), *o'xshatish*, *tadrij* singari qator she'riy va lafziy san'atlardan foydalanishda ham biz go'zal, betakror baytlar yaratilganligining guvohi bo'lamiz. Yor labidagi qop-qora xolni „bolga qo'ngan chivinga, oshiq boshini go'yga, yor gajagini chavgonga“ o'xshatish turli-tuman ko'rinishlarda zuhur etgan. Bu vorisiylikda ham Amiriy kashfiyotlar qilishga intiladi:

Boshim go'y o'ldi, javlongohida man benavo qolsam,  
Bihamdilloh joni zorimni pomoli samand etdi.

Boshqa bir o'rinda boshi (go'y), yor gajagi (chavgon)ga ilinganidan shod ekanligini izhor etsa, bu o'rinda oshiq yor otlari tuyog'i ostida go'ydek toptalganidan shod (chavgon ot ustida maysazor maydonda o'ynaladi).

„Sutun“, „Zeb“, „Yaktaraf“ radifli g'azallarda ham birbirini takrorlamaydigan, boshqa san'atkorlar ijodida kam uchraydigan rang-barang tashbehlar qo'llanilgan va jozibali tasvirlar yaratishga erishilgan. Yorning oppoq yanog'idagi qop-qora xoli momiqday qor ustidagi qora qarg'aga o'xshaydi. Ammo ana shu hindu xol yor banogushini ravshan etadi, ya'ni o'zidan shaffof nur taratadigan mo'jiza:

Xoli hindusi banogushini ravshan ayladi,  
Fasliday topg'on kibi zog'i siyohdin qor zeb.

Juda ko'p mumtoz shoirlarimiz yor sochini mushkka, mushki Xo'tan tarqatadigan bir mo'jizaga taqqoslaydilar. Quyidagi baytda Amiriy zulf obrazini yangicha talqin etgan:

Iki fatton ko'zung Chin shahridin boj olsa, tong ermas,  
Xo'tan mushkiga tushmish shuhrati zulfingdan ovoza.

Demak, oshiq nazarida uning yori olamaro tanho bo'lib, zulflarini parishon qilgandan so'nggina eng xushbo'y hid tarqatadigan Xo'tan mushki shuhrat paydo qilgan ekan, ya'ni o'sha mo'jizaning manbayi yor sochi.

Ba'zan, shoir oshiq qalbining eng nozik tuyg'ularini ma'shuqaga xitob, iltijo usullari bilan ifodalab, muayyan badiiy lavhalar yaratadi. Mana bu baytda oshiq yoriga „sochingga tarog'ingni avaylab urg'in, ya'ni taragin, chunki uning har torida yuz asirning ko'ngli bor“ demoqchi:

Gar tarar bo'lsang sochingni chekma beparvo tarog',  
Baski bordur yuz asir o'lg'on ko'ngul har tor aro.

Aksariyat g'azallarida faqat shodlig-u go'zallikni ta'rif etib, ma'shuqaning safoli ruhidan, shirin guftori-yu ohudek xiro-midan gulgul yashnagan lirik qahramon ba'zan uning beva-foligi-yu ag'yorga lutf etib, „xaridoriga jabr“ etishidan shikoyat qiladi. Amiriyning „Hofiz“, „Tama“, „Falak“, „Yanglig“, „Zaif“ radifli g'azallarida yorining ozor-u jafosi, „diltangligi“, „saxtro'ligi“dan nolish mavjud. U yoriga „pora-pora ko'nglum usturlobtek“, umr o'tar „xayol-u xobtek“, shuning uchun „sog'ar ichib, nabot gazak“ etmoq kerak, deb murojaat qiladi. Amiriy g'azallaridan ma'lum bo'lishicha, o'tmishda „sharobi nob“ iste'mol qilgandan so'ng „nabot gazak“ etish rasm ekan:

Bizga to chand jaqon kulfati-yu dahr g'ami,  
Boda ichmak bilan daf'i g'amu kulfat qiloli.

Amiriy o'tmishdoshlari an'analarini davom ettirib, muvaf-faqiyat bilan tuyuqlar yaratgan shoirdir. U o'zbek tilidagi so'z-larning ohangdoshlik xususiyatiga e'tibor berarkan, o'zgalar ishlatmagan so'zlar asosida tuyuq yozishga intilgan. „Chin“ va „Bog'idur“ kabi tuyuqlar fikrimizga dalil bo'la oladi:

Orazing gulzori jannat bog'idur,  
Tori zulfing jon qushining bog'idur.  
Halqai zunnor zulfing davrida,  
Kofiri ishq o'lmag'onlar bog'idur.

Demak, Amiriy ham sharobni qayg'u hasratni, *zamon kulfatlarini unutish* vositasi, deb bilgan.

Ma'lumki, Amiriy bilan Nodira munosabatlari, ustozu shogird mushoiralari haqida ko'p va xo'p naqlar bor. Nodira o'z devoni debochasida ustoz — o'zining birinchi o'quvchisi, munaqqidi va muharriri ekanligi haqida iliq gaplarni yozib qoldirgan. Aftidan Amiriy devonida ham bevosita umr yo'ldoshi bo'lmish Nodiraga bag'ishlangan bir qancha g'azallar borga o'xshaydi. Buni Amiriy va Nodiralar tomonidan mushoira tarzida yaratilgan „Bor“ radifli g'azalning shoir devoniga kiritilganligi ham tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ayrim she'rlardagi ma'shuqa oshiq kulbasini doimiy munavvar etguvchi siymo. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tishni istardik. Ayrim munaqqidlar No-dira g'azallarida Umarxon haddan tashqari ideallashtirilgan,

degan fikrni bildiradilar. Bu, ochig'i, „feodal o'tmishni ideal-  
lashtirish“ singari hukmfarmo mafkuraviy zug'umning asorati  
bo'lib, ularning mutlaqo asossizligi barchaga ayon. Navqiron,  
qo'liga qalam tutqizgan ustoz, davlatni tadbirkorlik-la bosh-  
qarish bilan birga, ilmiy, adabiy muhitga yo'nalish berib  
turgan odamidan judo bo'lgan shoira qalbidagi ayriliq dardi  
asarlarning tom tomiriga aylanib, ularni firoqnomaga tabdil  
etishi tabiiy bir hol. Shuning uchun Amiriy g'azallarida Nodira  
timsoli, shoira asarlarida Umarxon siymosi alohida o'rganishni  
taqozo etadi.

Ko'rinib turibdiki, sho'rolar davrida mavzu jihatidan mah-  
dud, g'oyaviy yo'nalishi nuqtayi nazaridan qashshoq, faqat  
yalang'och, shahvatparastlikni tarannum etgan, shaklbozlikdan  
iborat, deb kamsitib kelganimiz — Amiriy asarlari — o'zbek  
g'azaliyotining zarvaraqlarini tashkil etarkan. Xususan, shoir-  
ning so'z tanlash mahorati ko'p jihatdan ibratlidir. U she'r-  
larida bironta ham murakkab yoki beparda so'z ishlatgan emas.

Demak, Amiriy devonini qayta nashr qilish hamda ilmiy-  
tanqidiy matnini yaratish galdagi vazifa bo'lib qolmoqda.

### ASRIMIZGACHA NASRIMIZ

Ma'lumki, o'zbek xalqi ming yildan ziyod tarixga ega bo'l-  
gan boy adabiyot yaratgan. Mumtoz adabiyot, deb ataladigan  
bu ma'naviy zarvaraqlarimiz ko'lam jihatidan ham, mavzu va  
g'oyaviy yo'nalish nuqtayi nazaridan, janrlari hamda badiiyligi  
tomonidan ham nihoyatda rang-barangdir. Ana shu bebaho  
xazinaning katta qismini nasriy asarlar tashkil qiladi. Biz ko'p  
yillik kuzatishlarimiz, o'nlab nasriy asarlarning bevosita asl  
qo'lyozmalarini mutolaa qilish natijasida qadimiy nasrimizni  
janr, tematika, g'oyaviy yo'nalish hamda uslub jihatidan  
quyidagicha muxtasar tasnif etishni lozim ko'rdik. Zeroki,  
hozirgacha „diniy“, „mistik“, „xurofiy“ deb nazardan soqit  
qilgan o'nlab nasriy kitoblarimiz ma'rifat koni, axloq-odob  
dasturidir. Ularda islomiy ahkomlardan tashqari, xalqimiz  
ma'naviyatining ko'p qirralari o'z ifodasini topgan, uning tur-  
mush urinishlari aks etgan.

*Hikoya, hikoyat, tamsillar.* Bu turga „Qissayi Rabg'uziy“  
(XIV asr), „Nasoyim ul-muhabbat“ (XV asr), „Gulzor“, „Mif-  
toh ul-adl“, „Jome' ul-hikoyoti turkiy“ (XVI asr), „Tazkirat

ul-avlviyoyi turkiy“, Gulxaniy va Nozil Xo‘jandiylarning „Zarbulmasal“ kitoblari kiradi. Mazkur majmualardagi hikoya, hikoyat va masallarning yetakchi mavzusi pand-nasihad, yaxshi xulq-odobni, farz va sunnatlarning bajarilishi shartligi, *ilm, hunar o‘rganish, sabr, qanoat, rizo, shukr, e‘tiqod, zikr, ishq, ma‘rifat, javonmardlik, adolat* va boshqalarni targ‘ib etib, islomiy odobga zid xislat, ayb, gunohlardan parhez qilishga chorlashdir. Ushbu kitoblarning aksariyatini o‘ziga xos *odobnoma* deyish mumkin. Ularning tili va tasvir usuliga „naql-durkim“, „aytibdurlarkim“, „hikoyatda kelur“, „aytmishlar“, „xabarda kelur“, „xabarda kelmish“, „hikoyatlarda so‘z bu turur“, „hikoyatlarda andog‘ kelurkim“, „burungi o‘tkan zamonda“ singari boshlanmalar e‘tiborlidir. Deyarli ko‘pchilik hikoyatlarda qissadan hissa chiqarish xarakterida yakuniy baytlar keladi. Bunday asarlarning tili g‘oyatda ravon va fikr obrazli iboralar, lafziy va she‘riy satrlar orqali lo‘nda ifodalanadi.

Turli mavzulardagi ishqiy-sarguzasht, axloqiy-ta‘limiy, qahramonlik ruhidagi qissalar: „Qahramoni qotil“, „Qissayi Jamshid“, „Qissayi Dilnavoz“, „Qissayi Ahmadbek va Yusufbek“, „Devonayi Mashrab“, „Ibrohim Adham“, „Hazrat Ali qissasi“, „Qissayi malikayi Dilorom“, „Qissayi Dorobi zarrinkamar“, „Jangnomayi Suhrobi Yal“, „Kitobi podshoh Afrosiyob“, „Siyovush qissasi“ ana shu xildagi asarlar sirasiga kiradi. Afrosiyob haqidagi qissaning bir qismi 1914-yili hozirgi Turkiyaning Diyorbakr shahrida nashr etilgan „Chanoq qal‘a“ oynomasida ham bosilgan. Bularning uslubiga „Roviylar rivoyat qilurlarkim“, „Ammo roviyoni axbor va noqiloni osor va muxaddisoni doston“ kabi boshlanmalar, bobdan bobga yoki voqeadan voqeaga o‘tishda „alqissa“ bog‘lamasi xosdir. Bunday asarlarda sujet bir me‘yorda, favqulodda o‘zgarishlar, nogahoniy voqealarsiz bayon etiladi. Asosiy diqqat bosh qahramon sarguzashtini mukammal, g‘oyatda nafis, obrazli bayon etishga qaratilgan. Ularning tarkibida ruhiy holat, tabiat manzaralari, jang-u jadallar, qahramonlarning kelbat va salobati tasviriga bag‘ishlangan ko‘plab *ruboiy, g‘azal, marsiya, masnaviylar* uchraydi. Ba‘zilarida voqea boshidan oxirigacha nazm va nasr aralash tarzda tasvirlanadi.

*Sarguzasht romanlar:* „Samironshoh“, „Barzunoma“, „Dorobnoma“, „Hotamnoma“, „Jahongirnoma“, „Saidbattoli



G'oziy“, „Abomuslimnoma“ kabi o'nlab asarlar o'zbek roman-chiligining mumtoz namunalari hisoblanadi. Bu xildagi kitoblarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda voqea ko'lami juda keng. Asosiy qahramonlardan tashqari, uning faoliyatini to'ldirib, muallif ijodiy niyatining mukammal tarzda ifodalanishi uchun xizmat qiladigan o'nlab obrazlar: voqea ichidagi voqealar yoki hikoya tarkibidagi hikoyalar juda ko'p. Bir romanning o'zi bir necha o'nlab hikoyatlardan tashkil topgan. Ularda muallif qasrlar, osmoniy bog'u rog'lar, suv osti shaharlar, davriy va bosqichli voqealarni tasvirlaydi. Qahramonlar voqealar jarayonida shajaralari bilan ishtirok etadi. Ushbu romanlarning badiiy nafosati, tasviriy vositalardan istifoda etilishi ham ana shu qamrovning hududsizligi, asosiy qahramonlar va ikkinchi darajali timsollarning g'oyatda ko'pligi bilan belgilanadi. Jumladan, an'anaviy boshlanma hamda voqeadan voqeaga o'tishdagi vosita lavhalar ham turli-tumandir. *So'z, ibora, ifoda, an'anaviy boshlanma va bog'lanmalar* har bir romanda ayri-ayracha nafosatga ega. „Ammo roviyoni axbor, noqiloni osor muhaddisoni dostoni ko'xan, xushachinoni xirmanini suxan“, „Bu voqealarning donanda va binandasi andog' rivoyat qilibdurlarkim“ singari boshlanmalar, voqeadan voqeaga o'tish tasvirida esa „Emdi bir kalima so'zni boshqa yerdin eshiting“, „Bularni bu yerda qo'yung, ikki kalima so'zni o'zga joydin eshiting“ kabi bog'lovchi kirish gaplar — ushbu romanlar uslubiga xosdir. „Abo Muslim jangnomasi“da esa bunday boshlanmaning yanada murakkabroq ko'rinishini uchratamiz. „*Ammo roviyoni axbor va noqiloni osor va muhaddisoni dostoni bo'stoni gulistoni kuhan va xushachinoni xirmanini suxan va sarrofonni dorulayoni javhariyoni rishtai bozori maoniy va suroyoroyoni tasviri ajoyib va chehrakushoyoni hikoyoti g'aroyib... Hakim Tarsusiy va Xoja Muhammad Tohir Xo'jandiy shundog' rivoyat qilibdurlarki*“.

O'n sakkizinchi asrda yashab ijod etgan andijonlik shoir va yozuvchi Shoh Hijron „Barzunoma“sida shu xildagi boshlanma lavhaning o'z-gacha ko'rinishi mavjud. Unda saj'ni tashkil etuvchi so'zlarning tizimi ham, ifodalar tanosibi ham o'ziga xos joziba va ravonlikka molik. Bu asar asrimizning boshida yashagan shoir va mutarjim, noshir Haybatulloxo'ja Xislat „Barzunoma“sidan ham badiiy til vositalari, nafosati jihatidan ustun turadi. Chunki, Shoh Hijron kirish gap va qistirma

iboralarning nisbatan soddaroq turlaridan foydalangan, arabiy va forsiy soʻz va jumalarni kamroq qoʻllashga intilgan.

*Tarixiy, tarixiy-yodnoma yoʻnalishdagi nasriy asarlar:* „Tarixi Muluki Ajam“, „Tarixi anbiyo va hukamo“, „Boburnoma“, „Shajarayi turk“, „Shajarayi tarokima“, „Gulshani davlat“, „Firdavs ul-iqbol“, „Shajarayi Xorazmshohiy“ va boshqa asarlar. Bu kitoblarda tarixiy voqealar mualliflar tomonidan olim koʻzi bilan koʻrib, saralab chiqiladi, kuzatiladi, yozuvchi didi, qalami bilan qogʻozga tushiriladi, bayon etiladi, tasvirlanadi. Shuning uchun ularda tarixiy voqealar tasviri badiiylikka yoʻgʻirilib, koʻpincha sheʼrlar, pandomuz masnaviy-lar bilan bezanib, hayotiy, afsonaviy hikoyatlar, naqlar bilan sayqallanib boriladi. Bunday kitoblar oʻquvchiga bilim berish bilan birga, katta badiiy-estetik zavq bagʻishlaydi. Ular shubhasiz nasrimiz tarixining ajralmas qismi hisoblanadi.

*Ilmiy-falsafiy, taʼlimiy yoʻnalishdagi nasr namunalari:* „Mahbub ul-qulub“, „Gulshani roz“, „Tazkirayi qalanderon“, „Qoralar falsafasi“, „Tarixi muhojiron“, maktublar, sarguzashtnomalar, munshaotlar, maoqiblar shunday asarlar sirasiga kiradi. Ularning koʻpi nasr va nazm aralash bitilgan. Mazkur yodnomalarning asosini jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarning burch hamda vazifalari, axloq-odob, insonparvarlik, maʼrifatparvarlik, ijtimoiy adolat xususidagi mushohadalar tashkil etadi.

Bu yerda biz mumtoz nasrimizning barcha asarlarini qamrab olib, ularning mukammal tasnifini berdik, degan fikrdan yiroqdamiz. Hali biz kuzata olmagan nasr namunalari juda koʻp boʻlishi mumkin. Chunki, qissalarning oʻzi yuzdan ziyod. Baʼzi sarguzasht romanlarning bir yoʻla 2—3 koʻrinishi ham yaratilgan. Ularning har biri alohida badiiy nafosat qirralariga ega.

Oliy oʻquv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun tuzilgan joriy dasturlar va ular asosida yaratilgan darsliklarda qadimgi nasrimiz namunalari ajratilgan soatlar gʻoyatda chegaralangan. Birinchi va ikkinchi kurslarda Navoiyning nasriy asarlari muxtasar tarzda, Xojaning hikoyalari va „Boburnoma“ oʻrganiladi, xolos. Nosiriddin Rabgʻuziydan bir necha „dunyoviy hikoyalar“ tahlili bilan cheklanilgan; uchinchi kursda esa, tarixiy ruhdagi nasr namunalari sanab oʻtilib, bir-ikki „xalq kitoblari“ qisqacha sharhlanib, Gul-

xaniyning „Zarbulmasal“ini yuzaki o‘qitish bilan cheklanib kelmoqdamiz. Vaholanki, mumtoz nasrimiz bir tizimda, tadrijiy takomilda o‘rgatilishi zarur. To‘g‘ri, respublikamiz olimlari bu sohada hozirga qadar birmuncha ishlarni amalga oshirdilar. Olimlarimizdan H. Oqbo‘tayev, T. Qobulov, R. Majidov, R. Jumaniyozov, I. Ostonaqulov, S. Jamolov, M. Mirzamuhammedova va boshqalar nasr namunalari tahliliga doir tadqiqotlar yaratishgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot instituti olimlari „O‘zbek nasri tarixidan“ nomli maxsus risola chop ettirdilar. Unda o‘zbek nasrining paydo bo‘lish tarixi, yuqorida ta‘kidlanganidek, „Boburnoma“, Xoja hikoyalari, Umar Boqiy kitoblari, „Tohir va Zuhra“, „Latoyif ut-tavoyif“ning tarjimai va XIX asrning ikkinchi yarmidagi nasr namunalariidan ayrimlariga doir tadqiqotlar jamlangan. „Tarixi muhojiron“ va „Qoralar falsafasi“ asarlari o‘sha davr adabiyotshunosligi ruhida tahlil etilgan. Afsuski, bu kitobdan biz yuqorida tilga olgan aksariyat asarlar tahlili o‘rin olmagan. Achinarlisi shundaki, bu tadqiqotni ma‘ruza jarayoniga olib kirish u yoqda tursin, ayrim pedagoglarimiz shunday ilmiy asar yaratilganligini bilmaydilar ham. Endilikda yoziladigan dasturlar va ular asosida bitiladigan darsliklarda bu masalaga jiddiy yondashishimiz, mumtoz nasrimizni ham she‘riyatimiz qatorida barobar o‘rganib borishimiz lozim.

Bundan bir necha yil muqaddam zabardast adabiyotshunos, hozirgi adabiy jarayonning zukko munaqqidi, kasbdosh do‘stimiz, professor Azimjon Rahimov „O‘zbek romani poetikasi“ga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Muallif o‘zbek romanchiligida uchta sujet chizig‘i mavjudligini aytib, har bir yo‘nalishning ilmiy jihatdan chuqur, mukammal tahlilini keltirgan. Qizig‘i shundaki, olim ko‘rsatib o‘tgan Yevropa hamda hozirgi o‘zbek romannavisligidagi ana shu uch ustuvor sujet tizimi mumtoz romanlarimiz bo‘lmish „Samironshoh“, „Dorobnoma“ va „Barzunoma“larda to‘la mavjud. Ulardagi voqealar qamrovi ham, timsollar silsilasi-yu badiiy unsurlar ham hozirgi romanlar talabi va tabiatiga g‘oyatda yaqindir. Demak, biz kelajakda o‘zbek mumtoz adabiyoti bilan, xususan, qadimgi nasr bilan hozirgi proza o‘rtasiga „xitoy devori“ qo‘ymay, ularni yaxlit, tadrijiy takomilda o‘rganishimiz lozim ekan. Zeroki, hozirgi hikoya, qissa va romanlarimizdagi ko‘p badiiy unsurlar mumtoz nasrimizda „mana-

man“ deb ko‘zga tashlanib turibdi. Ushbu masala hozirgi zamon adabiyoti bilan shug‘ullanadigan olimlarning qadimgi nasriy merosimizni ham jiddiy tarzda o‘rganib borishlarini taqozo etadi. Umuman, o‘zbek adabiyotini davrlarga bo‘lish nisbiy narsa. Shuning uchun bu soha olimlari har ikki bosqich adabiy hodisalarini puxtaroq bilishga intilishlari faqat foyda keltiradi, xolos.

## EL HOZIG‘I

Buxoro amiri Nasrullo 1842-yili son-sanoqsiz lashkar bilan Qo‘qonga bostirib kelib, qatli om uyushtiradi. Muhammadalixon, ukasi, o‘g‘li va shoira Nodirani o‘ldirib, xalqni xonavayron etadi. Nasrullo Ibrohim Hayolni Qo‘qonga hokim etib tayinlab, hunarmand, olim, shoir va ustalardan ko‘p kishini asir qilib Buxoroga haydab ketadi. Ular orasida mashhur shoir, olim va tabib Hoziq ham bor edi. Shaharga qaytgach, Amir shoirga o‘z zafari haqida bir fard aytishni buyuradi. Hoziq arkoni davlat va lashkarboshilar huzurida baland ovoz bilan quyidagi baytni o‘qiydi:

*Buridi bar qadi hud az malomat,  
Libose to ba domani qiyomat.*

(Mazmuni: *Sen o‘zingga la‘natdan shunday bir libos bichdingki, u kiyim ustingda qiyomatgacha qoladi.*)

Amir Nasrullo shoirga hech narsa demaydi. Ammo diliga undan qasd olishni tugib qo‘yadi.

Junaydullo Hoziq XVIII asrning 80-yillarida Hirotning Karx nomli mahallasida tug‘ilgan. Bo‘ljak shoirning bolaligi ona shahrida o‘tadi. Amir Haydar hukmronligi davrida (1800—1827) Buxoroga kelib, madrasada tahsil ko‘radi, zamonasidagi barcha ilmlarni, jumladan, tibbiyotni puxta egallaydi va ilm-adab ahli orasida shoir, olim sifatida shuhrat qozonadi. Hoziq avval o‘zi o‘qigan Oli madrasasiga imom qilib tayinlanadi va oradan ko‘p o‘tmay amir Haydar saroyiga jalb etiladi. Lekin erkin fikrli, rostgo‘y va zukko Hoziqni saroydagi laganbardor, tamagir ijodkorlar ko‘rolmaydi. Hatto, Mahdum Jaloliy degan bir qalamkash uni masxaralab hajviya yozib tarqatadi. Hoziq ham „Mavlono Jaloliy hajviyasiga javob-qasida“ yozadi va saroyni tark etib, fuqaro-yu fuzaloga e‘tibor nisbatan yaxshiroq bo‘lgan Qo‘qonga boradi. U dastlabki paytlarda katta

obro'ga ega bo'ladi. Amir Umarxonga madhiyalar bitadi, uning g'azallariga o'xshatma-taxmislar yozadi. Lekin saroydagi hayot uni siqib qo'yadi. Xususan, Umarxon vafotidan so'ng (1822-y.) Hoziq saroyni tark etib, Qo'qon va Buxoro xonligi hududidagi turli viloyat va shaharlarda tabiblik qilib yuradi hamda „Yusuf va Zulayho“ nomli dostonini tugatadi. 1824-yili u tabobatga doir „Sharhi qonuncha“ kitobini yozadi. Buxoroning chekka shaharlarida yashirib yashab yurgan Hoziq 1826-yili Xorazmga boradi. Bu yerdagi olim-u adiblar shoirni yaxshi kutib oladilar.

Oradan ko'p o'tmay shoir Xiva xoni Olloqulixonga (1825—1842) „Ravzat us-safo“ning tarjimasini taqdim etadi. 1829-yili Buxoroga qaytgan Hoziq goh Qo'qon, goh Shahrisabzda tabiblik qilib yashashga majbur bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Amir Nasrullo Qo'qonni qonga botirganda Hoziq ham tasodifan shu yerda edi.

Fardni o'qigandan so'ng Amir uni omon qoldirmasligini his etgan Hoziq do'stlari yordamida mustaqil viloyat bo'lmish Shahrisabzga qochib borib, hokim Xo'jaquli parvonachi panohida yashay boshladi. Dastlab, Nasrullo shoirning o'g'li Mirza Muhtasham orqali xat yozib uni chaqirtiradi. Hoziq quyidagi fard bilan rad javobini yuboradi:

*Chun huzuram sababi ranjishi tab'at gardid,  
Megurezam, ki malulat makunam bori digar.*

(Mazmuni: *Mening hozir bo'lganim ta'bingning xiralashi-shiga sabab bo'ldi. Senga yana malomat yetkazmaslik uchun qochaman*).

Shundan so'ng amir hibsdan yotgan o'g'ri Dushaboyini zindondan bo'shatib, ozodlik va katta in'om va'da qilib, Shahrisabzga borib, shoir Hoziqning boshini olib kelishni buyuradi. Dushaboy uch sherigi bilan Shahrisabzga kelib, tong saharda Hoziqning uyiga bostirib kirib, uning boshini tanasidan judo qilib olib ketishadi. Bu paytda Amir Nasrullo Qarshida edi. O'g'rilar shoirning boshini o'sha yerga eltib beradilar. Hoziqning boshsiz tanasi Xo'jaquli parvonachi boshchiligidagi umarolar ishtirokida dafn etiladi. Bu qonli fojia 1843-yilning yanvar oyida ro'y beradi. Shoirning qabri Kitob tumanidagi Oxund mozoridadir.

Insonparvar, jasur, zulm-zo'rlikka ro'yirost qarshi turgan, butun umri darbadarlikda, tahluka-yu notinchlikda o'tgan

Junaydullo Hoziq o'zidan so'ng katta ijodiy meros qoldirdi. Mukammal she'rlar devoni, „Yusuf va Zulayho“, „Voqeoti islomi“, „Tahqiq ul-kafond“ („Sharhi Qonuncha“) va parokanda she'rlari bayozlarda, dastxatlar xazinalarida saqlanmoqda. Birgina „Yusuf va Zulayho“ dostonining 21 ta qo'lyozmasi bizgacha yetib kelgan. Bu shoirning ulkan adib sifatidagi shuhratini ko'rsatadi.

Junaydullo Hoziq asosan tojik tilida, qisman o'zbek tilida ijod qilgan zullisonayn shoirdir. U Amiriy (Amir Umarxon), Navoiy va boshqa o'zbek shoirlarining g'azallariga muxammaslar bitgan, Mirxondning tarixiy asarini forsiydan tarjima qilgan. Shoir g'azallarida an'anaviy muhabbat mavzusini tasvirlab, yigitlikda kechgan shodu xurramligi-yu, visol nashidasidan serob bo'lgan kayfiyatlarini ifodalaydi, ba'zan ayriliq dardidan, ag'yor, noahil safdoshlaridan yetgan aziyatdan iztirobga tushadi. Xususan, Navoiy g'azallariga bog'langan muxammaslarida biz Hoziqni chinakam shodlik va go'zallik kuychisi sifatida ko'ramiz:

Biri bor erdi hinoning rangi paydo ilkida,  
Yo tegib ushshoqning qoni sumanso ilkida,  
Bodadin sarmast o'lub bir to'da miymo ilkida,  
Biri qoshi kifrigidek o'q bila yo ilkida,  
Dekim ul o'q birla ko'p jonlarni qurbon aylabon.

Ammo, shoir boshiga tushgan kulfatlar, sarson-sargardonlikdagi hayot, ijodkor muxoliflarning g'alamisligi, tabiatdagi favqulodda ta'sirchanlik lirik qahramonning hayotga, donolarga „tikon“, nodonlarga „gul“ bergan mavjud ijtimoiy tuzumga munosabatini keskin o'zgartirib yuboradi. Shuning uchun ham Hoziq asarlarida zulm-zo'ravonlikka, ilm-ma'rifat ahliga nopisand munosabatda bo'lishga, hamma narsani boylik, mansab-martabaga qarab baholashga qarshi keskin kayfiyat kuchayadi. Ma'lumki, Amir Nasrullo zamonida zulm haddan oshadi. Mahalliy feodallar, lashkarboshi-yu askarlar xalqni bemalol talar, bechoralarning nolasi zaminu zamoni larzaga keltirardi. Shuning uchun Hoziq amirga yo'llagan qasidalaridan birida uni xalqparvar, adolatpesha bo'lishga undaydi, elning farovonligi-yu yurtning obodonligini odil hukmdordan, deb biladi:

*Bahri on podshoh kard Xudo,  
Ki nizomi jahon buvad barpo...*

*Ya'ni kas moli digare naxo'rad,  
Sari mazlum zolime naburad.*

(Mazmuni: *Seni Xudo jahonni qonun-qoida bilan bosh-qargin, birov o'zganing haqini yemasin, biron zolim mazlumning boshini kesmasun, deb podsho qilgan*).

Boshqa bir g'azalida shoir laganbardor ijodkorlar, amaldorlarni, ikkiyuzlamachi do'stlarining munofiqligini tanqid qiladi, fosh etadi.

Bunda u chayon tabiatidagi bir hikmatdan ustalik bilan foydalangan:

*Qasdi zolim az tavozu' nest juz tamhidi zulm,  
Meshavad xam neshi aqrab zahr chun barmekashad.*

(Mazmuni: *Zolimning tavozu qilishidan ham maqsadi zulm etmoqdir, chunki chayon ham zahar sochishdan oldin nayzasini quyiga egadi*).

„Nadorad“, „Aftad“, „Zarast“, „Kunam“ radifli g'azallarida shoir mavjud feodal tartib-intizom illatlarini, yurt boshiga tushgan zulm-u talon-tarojni ro'yirost la'natlaydi.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida „Yusuf va Zulayho“ sevgi sarguzashti haqida Firdavsiy, Qul Ali, Durbek, Jomiy, Nozim, Hiraviylar doston yaratgan. Junaydullo Hoziq ham ana shu ko'hna mavzuga murojaat qilib, o'ziga xos yangi doston yozgan. Jumladan, Hoziq o'z ijodiy niyatidan kelib chiqib, Yusuf bilan akalari o'rtasidagi kelishmovchilikni, akalarining Yusuf joniga qasd qilishlarini feodal o'zaro nizolar tizimida ancha shiddatli tasvirlagan. An'anaviy sujetga ko'ra, Zulayho tushida ko'rib sevib qolgan yigit o'zini „Misr Aziziman“, deb g'oyib bo'ladi. Qizining arz-xohishiga ko'ra Mag'rib shohi Taymus Misr Aziziga sovchi yuboradi. O'rta Osiyo xalqlari odaticha, o'z ijodiy niyatiga ko'ra, Hoziq dostonidagi tasvirda Misr Azizi Mag'ribzaminga sovchi jo'natadi. Asarda boshqa yangi jihatlar ham ko'p. Eng asosiysi, shoir an'anaviy mavzu va obrazlar orqali o'zining zulm-zo'rlikka, firibgarlik, yolg'onchilikka qarshi nafratini ifodalashga erishgan: *chin sevgi, sadoqat, halol-u poklik, rostgo'ylik, mardlik, jasorat, aql-zakovat qudrati, adolat* xususidagi fikrlarini targ'ib va tashviq etgan.

Buxoro va Qo'qon xonligiga qarashli ko'p shaharlar xalqi dardiga malham bo'lib, o'limga tik qaragan, jasur va otashnafas

shoir — el Hoziqning asarlari XVIII asr va XIX asr boshlari o‘zbek va tojik adabiyoti tarixining yorqin sahifalarini tashkil etadi. Shoir ijodini o‘rganishda S. Amirqulov, U. Karimovlarning hissasi katta. 1957-yili O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi, ustoz Aziz Qayumovning „Hoziq“ nomli risolasi chop etildi. Biz ushbu lavhani yozishda shoir asarlari bilan bir qatorda mazkur mualliflarning tadqiqotlaridan ham bahramand bo‘ldik.

### ULUG‘BEKNING IZDOSHI

Men 1978-yili taniqli yozuvchi Rahim Jalilning „Ko‘ngil oshiyoni“ qissasining dastlabki uch faslini tarjima qilib, „O‘qituvchilar gazetasi“ning bir necha sonida e‘lon qildirgan edim. Qissa yodnoma xarakteriga ega bo‘lib, yosh Rahimning ko‘rgan-kechirganlari g‘oyatda nafis bir tarzda, shifohiy adabiyot usuli — naql yo‘li bilan bitilgan. Asarning dastlabki sahifalarida yodnoma qahramonining mashhur sayyoh, mirob, hay‘atshunos Hoji Yusuf bilan uchrashuvi tasvirlangan. Shundan so‘ng men ko‘hna dastxatlar, tojik olimlarining asarlari, xotiralari va qomuslarni o‘rganib, bu zabardast olim haqidagi tasavvurimni mukammallashtirdim. Ma‘lum bo‘lishicha, Hoji Yusuf Ulug‘bekning izdoshlaridan ekan.

**Hoji Yusuf** 1842-yili Xo‘jandning Og‘oliqon mahallasida pillakash oilasida dunyoga keladi. 6—7 yasharligida uni maktabga beradilar. Maktab ta‘limidan qanoatlanmagan Hoji Yusuf mustaqil o‘qish bilan mashg‘ul bo‘lib, Sharq she‘riyati, tabiat, geografiya, matematika, astronomiya va boshqa fanlarni o‘rgana boshlaydi.

Kunlardan bir kuni yosh Yusuf onasidan otasi haqida so‘raydi. Mehribon ona esa ko‘z yoshlarini to‘kib otasi Mirfayoz hajga borib, Makkada vafot etganligini aytadi. Murg‘ak Yusufning qalbida otasi hokini topish istagi tug‘iladi. 1854—1855-yillarda bir guruh xo‘jandliklar Hajga jo‘nashga tayyorgarlik ko‘rayotganini eshitib, 12 yashar Yusuf yalinib-yolvorib onasidan ruxsat oladi va ularga hamroh bo‘ladi. Rahim Jalilning yozishicha, Yusuf Madina shahridagi „G‘ariblar qabristoni“dan otasining go‘rini topib, qabr ustiga lavha tosh o‘rnatadi.

Hoji Yusuf 10—12 yilcha Misrda qolib ketadi. Uni asli xo‘jandlik bo‘lgan Hojisaydullo o‘z tarbiyasiga olib, onasiga maktub yozib yuboradi. Xushfe‘l va o‘tkir zehnlil Yusufga



Hojisaydullo arab tilini o'rgatadi, so'ngra „Jome' ul-azhar“ madrasasiga kiritib qo'yadi. Hoji Yusuf besh yillik madrasa tahsili davomida *riyoziyot, hikmat, ilmi nujum, arab va fors* adabiyoti bo'yicha puxta bilim oladi. Madrasani tugatgach, yetti yil mudarrislik xizmatida bo'lib, o'z bilimini oshiradi, kamolotga yetkazadi. U rus tilidan tashqari arab, fors, yunon, ingliz, fransuz tillarini mukammal bilgan.

Hoji Yusuf 12 yildan so'ng Xo'jandga qaytib kelganida yakka-yu yagona suyanchig'i — onasi olamdan o'tgandi.

Hoji Yusuf birinchi safarida Yunoniston, Suriyada, ikkinchi safarida Ispaniya, Fransiya, Habashiston, Italiya, Jazoir, Turkiya, Peterburgda bo'ladi, bu yurtlar haqida ma'lumot to'playdi.

Astronomiya, tib ilmi, yangi ilm-fan, texnikaga mayli kuchli bo'lgani uchun mahalliy ruhoniylar uni „kofir“ deb e'lon qiladilar. Hoji Yusuf yana Vatanini tark etib, shoir va soatsoz Abdulla Fayyoz bilan Toshkentga o'tlanadi. Bu yerda bir necha muddat tayyorgarlik ko'rilgach, Orenburg, Moskva, Odessa orqali Yevropa va Afrika mamlakatlari bo'ylab safarga jo'naydilar, Abdulla Fayyoz soatsozlik, Hoji Yusuf mar-dikorlik, hammollik bilan kun kechiradilar. Bu ikki do'st 10—12 yil davomida Ovro'pa, Afrika va Arab mamlakatlarini kezib chiqib, 1885—1887- yillar orasida Eron orqali Vatanlariga qaytadilar.

Hoji Yusufdagi qobiliyat va bilimdonlikni ko'rgan rus amal-dorlari uni miroblikka, idora ishlariga jalb etadilar. U Xo'jand atrofidagi yerlarni sug'orishni yaxshilash, yangi ariqlar chi-qazishni rejalashtirishda ancha faol qatnashgan. Garchi u turli vazifalarda, jumladan, Xo'jand oqsoqoli lavozimida ishlasa ham ajoyib donishmand, ilm-fan, yangi texnika tarafdori sifatida Yer, Osmon, Quyosh, Oy, umuman, sayyoralar haqidagi ilmiy kuzatish va asarlari bilan mutaassib tushunchalarga zarba beradi. Hoji Yusuf 1925-yili 83 yoshida Xo'jandda vafot etadi.

Ma'lumki, O'rta Osiyo olimlari dunyo astronomiya va geo-grafiya fanining taraqqiyoti tarixida munosib o'rin egallab kelganlar. Jumladan, Beruniy astronomiya va geografiyaga doir ko'plab asarlar yozish bilan birga, kattagina globus tuzgan, Ulug'bek boshchiligida Samarqand rasadxonasida ham globus yasalganligi ma'lum. O'lkamiz fani tarixida uchinchi globusni mana shu ajoyib sayyoh va olim Hoji Yusuf yasagan. U xo'-

jandlik zargar, naqqosh, rassom, duradgor va sayyohlar bilan maslahatlashib, shoir Toshxo‘ja Asiriy, Husayn Roje’, Abdullo Fayyoz, misgar Nurmuhammad, usta Yoqubxon va boshqalarning ko‘magi bilan 1895-yili Yer kurrasining shakli — kurrayi arz, ya’ni globus yasaydi. Globus Moskva, Peterburg, Toshkent va Samarqand shaharlaridagi turli ko‘rgazmalarda namoyish etiladi. O‘sha vaqtdagi rus geograf va kartograf olimlar, geografiya jamiyati globusni sinchiklab tekshirib, uning benuqson, ilmiy jihatdan mukammalligini e’tirof etadilar, Hoji Yusuf ixtiro uchun mualliflik guvohnomasini oladi.

1896-yili Samarqandda qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi ochiladi. Hoji Yusuf o‘z globusini o‘sha ko‘rgazmaga yuboradi. Globus avval Ulug‘bek madrasasidagi muzeyga qo‘yilgan. Hozir Samarqanddagi O‘zbekiston xalqlari madaniyati va san’ati tarixi muzeyida saqlanmoqda.

Hoji Yusuf Yerning tuzilishi va sayyoralarni o‘rganishga bag‘ishlab bir qator risolalar ham yozgan. Tojikistonning xaritasini tuzgan. O‘z hovlisida maktab ochib, bolalarni o‘qitgan. Vasiyatiga ko‘ra, vafotidan so‘ng hovlisi yetim bolalarni o‘qitadigan maktab binosiga aylantirilgan.

U 1911-yili o‘zining „Muxtasari ilmi aflok va ilmi arz“ nomli risolasini tugatgan. Asar sakkiz fasldan iborat bo‘lib, har bir fasl bir necha qismga bo‘linadi. Ushbu risola muallif tarjimai-holini, globus yasash jarayonini o‘rganish jihatidan ham qimmatlidir. Chunki, unda olim Xo‘jand ilmiy muhiti, o‘zi bilan hamkorlik qilgan *zargar, misgar, ganchkor, sahhof* va boshqa hunar egalari haqida batafsil ma’lumot beradi. Chunonchi, o‘z kurrayi arzi taqdiri haqida quyidagilarni bitgan: „*Ular mahalliy xalqdan kurrayi arz shaklini yasaydigan odam topilganidan hayratga tushdilar va bu haqda Peterburgga xabar qildilar, Podshoh meni o‘z huzuriga chaqirib, tahsin va ofarindalardan so‘ng menga mukofotlar berdi hamda davlatning oliy nishonlari bilan sarafroz etdi*“ (Hoji Yusufi Hay’atiy. „Ilm ul-aflok“. „Sadoyi Sharq“, 1989-y., 5-son, 45-bet). Hoji Yusuf boshqa astronomlardan farqli o‘laroq, Yer va boshqa sayyoralarning tuzilishi, o‘zaro munosabati, harakatini sodda bir uslubda, hamma tushunadigan qilib tasvirlagan.

Tolmas sayyoh, sinchkov ixtirochi, ilm-ma’rifat homiysi va do‘sti Hoji Yusuf Hay’atiyni avlodlari hamisha iftixor bilan eslaydilar.

## DONISH HAQIQATLARI

Ko'hna sarchashmalarda „Islom gumbazi“, „Ilm makoni“ deb e'zozlangan Buxoroyi Sharifdan o'tgan zamonlarda Rudakiy, Daqiqiy, Murodiy, Avfiy, Nosiriy, Sayido, Mushfiqiy, Hiloliy, Turdi, Mujrim, Mirza Sodiq, Mirza Siroj, Hayrat, Shohin kabi yuzlab ilm sohiblar yetishib chiqib, Xuroson-u Turonzamin she'riyatiga, badiiy nasrini yuksak cho'qqilarga olib chiqishga munosib ulush qo'shganlar; badiiy so'z san'atini mavzu, janr, timsollar hamda nafosat jihatidan xiyla boyitganlar. Ana shu ma'naviyat darg'alari orasida *shoir, musavvir, xattot, me'mor, mirzo, yozuvchi-mudarris, ma'rifat targ'ibotchisi, davlat arbobi Ahmad Donish* siymosi alohida ajralib turadi.

Bo'lajak alloma Ahmad mahdum ibn Nosir 1826-yili Buxoro shahrida ziyoli oilasida dunyoga keldi. Xat-savodini onasi boshqargan mahalla maktabida chiqargach, Ahmad qorilar maktabiga dohil bo'ldi. Bu yerdagi o'qish uzoq davom etmadi — otasi uni madrasaga berdi. O'qish davomida Ahmad zamonasidagi barcha bilimlarni mustaqil o'rgana boshladi. Naqqoshlik, suratkashlig-u xat ko'chirish san'atini puxta egalladi. „Donish“ taxallusi bilan g'azallar mashq qila boshladi. Odamlarga, xususan, madrasa talabalariga turli kitoblardan nusxa ko'chirib, ularni har xil rasmlar, turli-tuman naqshlar bilan bezab berib, moddiy ahvolini yaxshiladi. Iste'dodli naqqosh va kotib sifatida shuhrat qozondi.

Madrasa xatmidan so'ng ustodlardan birining ko'magi bilan Ahmad Donish Amir Nasrullo saroyiga me'mor va xattot sifatida ishga joylashdi. Bu haqda yozuvchining o'zi quyidagilarni uqtirgan: „*Kunlardan bir kun meni ustodim Hazrati sulton huzuriga eltib, bu yigit xushnavislik va kitoblarga ziynat berishda tengsizdir, uning zeb-ziynat san'ati moniysifatu behzodsiyratdir; u rasmiy va g'ayrirasmiy xatlarni nuqsonsiz yozadi*“, deb ta'rifladi.

Shundan so'ng Sulton meni huzuriga da'vat etib, bir kitobni sodda xatda ko'chirishni buyurdi. Men bu yumushni tez va xushsifat bajardim. Buni ko'rgan amir menga har kuni tib, tarix, hisob, ma'rifiy masalaga doir kitoblarni xushnavis qilishni buyurar va bir juzvga o'n diramdan maosh berardi. Bu orada ustodim foniy dunyodan boqiy dunyoga rihlat qildilar. Amir

meni ustodim o'rniga vazifador etdi hamda oyiga ming diramdan maosh tayinladi. Endi amir meni subhidamdan oqshomgacha o'rdada ushlab, muallimim bajargan hamma ishlarni mening zimmamga yuklardi. Shunday qilib, saroydagi barcha me'mor va naqqoshlar bevosita mening rahbarligimda faoliyat ko'rsatadigan bo'ldi“ („Navodir ul-vaqoye“dan).

Bu yerda u nozikta'b rassom, matematik, xushnavis xattot sifatida obro'ga erishdi. Shuning uchun Amir Nasrullo 1857-yili Buxorodan Peterburgga borayotgan elchilar guruhiga Ahmad Donishni mirzo etib tayinladi.

Bu safar unda juda katta taassurot qoldirdi. U amirga Rusiya podshosining idora usuli, harbiy qudrati va texnikasi xususida batafsil ma'lumot yozib beradi.

1860-yili taxtga o'tirgan Amir Muzaffar ko'p ilm-adab ahlini, donishmand, tadbirkor arboblarni saroydan chetlashtirdi, ularning o'rniga johil, poraxo'r, xudbin odamlarni joylashtiradi. Ahmad Donishning martabasi ham pasaytiriladi. U endi ko'proq rasmiy hujjatlarni ko'chirish va ijod bilan mashg'ul bo'ladi. Jumladan, 1865-yili yulduzlarning joylashish tartibi haqida birinchi hay'atshunoslik risolasi „Manozir ul-kavokib“ni yozadi. Bu asar yulduzlar turkumi va ularning samoviy o'rnashuvi haqidagi muxtasar bir qo'llanma edi.

„Tarix haqida risola“ kitobida Ahmad Donish ashtar-xoniylar sulolasi amirlarining yuz yillik tarixi haqida xiyla mukammal ma'lumot bergan. Xususan, Amir Muzaffar saltanatdorligi tarixi, unda zulm-zo'rlik, beboshliklarning avj olishi, peshqadam, hur fikrli ziyolilarning ta'qib etilib, bir guruh johil-u nodon, amalparastlarning hokimiyat idoralarini egallab olganliklari qattiq qoralangan.

Amir Muzaffar hukmronligining dastlabki yillarida Rossiya bilan munosabatlarni keskinlashtirgan bo'lsa ham, 1868-yilgi jangdagi mag'lubiyatdan so'ng rus podsholigi bilan diplomatik munosabatlarni yana tiklashga intilib, 1869-yili Peterburgga elchilar yuboradi. Ular orasida Ahmad Donish ham bor edi. Bu safar olim muzokaralarda tajribali davlat arbobi sifatida Buxoro amirligi manfaatlarini donolik bilan himoya qiladi. Shuning uchun elchilar 1870-yili Vataniga qaytgach, amir unga „Uroq“ unvonini beradi va o'z davlatida biron katta martabani tanlashni taklif etadi. Ammo Ahmad Donish Amir Muzaffarning johil, qaysar va xudbinligini bilgani uchun bu

istakni rad etib, ilmiy, ijodiy ishlar bilan mashgʻul boʻladi. Natijada „Risola dar nazmi tamaddun va taovun“ („Xalq va madaniyat nizomi haqida risola“) asari vujudga keladi. Unda adib Buxoro amirligidagi davlat boshqaruv tizimini jiddiy isloh qilish gʻoyasini ilgari suradi. Jumladan, turli tabaqa namoyandalaridan iborat oliy majlis tuzib, barcha qonun, nizomlarni shu majlisda ishlab chiqib, muhokama qilinishi, soʻng Amir tomonidan tasdiqlanishi lozimligini, shuningdek, amirlikda davlatning barcha sohalari boʻyicha nazorat maʼmuriyatini tashkil qilishni taklif etgandi. Shubhasiz, bu va boshqa mulohazalar Amirning mutlaq hokimiyatini cheklab qoʻyardi. Bundan tashqari, maʼrifatparvar adib zamonaviy jihozlar bilan ziynatlangan maktab, madrasalar qurish, ularda turli tillarni, tabiiy fanlarni oʻrganishga ham jiddiy eʼtibor berish, muallim va mudarrislarining masʼuliyatini oshirish masalalarini ham qoʻygan edi. Shuning uchun ham Amir Muzaffar Ahmad Donishni Rossiyaga uchinchi safaridan soʻng (1873-y.) saroydan chetlatib, yaqin oʻn yil davomida Gʻuzor va Narpay tumanlarida qozilik vazifasini bajarishga majbur etadi. Bu Donish uchun amalda surgun va quvgʻin edi. Ammo maʼrifatparvar adib uzoq goʻshalarda ham dardini ilmdan, ijoddan olib yurdi.

Garchi Ahmad Donish Amir Abdulahad tomonidan yana saroyga daʼvat etilib, kitobdorlik vazifasiga tayinlangan boʻlsa ham, uning faoliyati qatʼiy nazorat va tahqir ostida edi. Adib umrining oxirgi yillarini muttasil ilmiy, badiiy ijodga sarflab, 1897-yili vafot etadi. Ahmad Donishdan bizga qadar uning 15 yil davomida yozgan „Navodir ul-vaqoye“ („Nodir voqealar“), „Tarix haqida risola“ singari kitoblari meros boʻlib qolgan.

„Navodir ul-vaqoye“ 23 fasldan iborat boʻlib, unda muallif juda koʻp ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, adabiy, axloqiy-talimiy, irfoniy-maʼrifiy masalalar xususida zamonasining peshqadam ziyolisi sifatida mulohaza yuritadi, islohotchi maʼrifatparvar sifatida bu sohadagi nuqson va yetishmovchiliklarni bartaraf etish yoʻl-yoʻriqlarini tavsiya etadi. Masalan, adib asarining birinchi — „Ota-onaning vazifalari hamda haq-huquqlari“ bobida ota-onaning oiladagi bola tarbiyasi borasidagi burch hamda vazifalarini bayon etsa, „Oqillarning aziyat chekishi va johillar davlatining yuksalishi sababi“ nomli bobida donolar

kulfatda-yu nodonlar izzatda bo'lgan, ko'p ilm-adab ahli xoru zorlikka mahkum etilgan zamonasining illatlarini ro'yirost tanqid qiladi. Muallif o'z fikr-mulohazalarini tarixiy voqealar, mashhur kishilar hayoti hamda zamonasining bevosita o'zi bilan bog'liq hikoyatlar, naql va tamsillar bilan tasdiqlab, dalillab boradi. Natijada siyosiy, falsafiy, axloqiy, nazariy fikr-mulohazalar muayyan dalillarga asoslanadi.

Ahmad Donishning ayrim mulohazalari o'sha davrda ham, hozirgi vaqtda ham diqqatga molik. Masalan, asarning o'n oltinchi bobida tog' jinslarining paydo bo'lishi, konlar, turli ma'danlarning xossalari, yer qimirlashi xususida ma'lumot bersa, yigirmanchi bobda Bedil she'rlarini qanday tushunish xususida fikr yuritib, shoir baytlaridagi zohiriy va botiniy ma'noni bir zukko she'rshunos sifatida tahlil qiladi. „Tarix haqida risola“ kitobida Donish ashtarxoniyar sulolasining yuz yillik tarixi haqida mukammal ma'lumot beradi. Xususan, Amir Muzaffar saltanati tarixi, unda zulm-zo'rlik, beboshliklarning avj olishi, bir guruh nodonlarning davlat idoralarini egallab olishi qattiq tanqid qilingan.

Ahmad Donish asarlari XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo mintaqasida yangi ijtimoiy tafakkurning vujudga kelish zaminini, ma'rifatparvarlik, islohotchilik, jadidchilik tarixini o'rganishda eng nodir manbalar hisoblanadi. „Navodir ul-vaqoye“ning bevosita muallif ko'chirgan ikki nusxasi bizgacha yetib kelgankim, unda hozirgi istiqlol davridagi demokratik jarayonning ayrim unsurlari borligi diqqatga molikdir.

Ahmad Donishning juda katta ilmiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy mohiyatga ega bo'lgan „Navodir ul-vaqoye“ („Nodir voqealar“) risolasi 1965-yili dotsent Abdurahmon Hamrayev tomonidan tojik tilidan tarjima qilinib, mashhur akademik Ibrohim Mo'minov so'zboshisi bilan chop etilgandi. Kitobni qayta nashr etish shu kunlarda ayni muddao bo'lar edi. Chunki bu asarda, yuqorida ta'kidlanganidek, o'sha davr maktab va madrasa tizimini tubdan isloh qilish, o'qish-o'qitish, tarbiya usullarini yangilash, ta'lim jarayoniga tabiiy, texnikaviy fanlarni kiritish singari dolzarb, ilg'or g'oyalar o'z ifodasini topgan. Donish ijodini o'rganishda mashhur yozuvchi Sadriddin Ayniy hamda professor Rasulxon Hodizodalarning xizmatlari katta. Hodizoda yozuvchi haqida „Zulmatdan ziyo“ nomli tarixiy roman ham yozgan.

## QUTLUG' AN'ANA

O'zbek va tojik xalqlari qadim zamonlardan bir zaminda yashab, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratib kelgan. Ular o'rtasidagi tarix va taqdir birligi tasviriy san'at, musiqa, xususan, badiiy adabiyotda mavzu jihatidan ham, g'oyaviy-ruhiy jihatdan ham yaqinlikni vujudga keltirgan. Har ikki xalq ijodkorlari bir-biriga ustoz, bir-biriga shogird bo'lgan. Bu qutlug' an'anada ikki tilda barobar ijod etish — zullisonaynlik o'ziga xos bir mohiyatga ega.

**Zufarxon Javhariy** ana shu zullisonayn shoirlar vakillaridan biridir. Javhariy 1860-yili shoir Nazmiy Istaravshaniy oilasida dunyoga keldi. Dastlabki ta'limni otasidan oldi, so'ngra Buxoro shahrida madrasada ta'lim oldi. Arab, turkiy tillarni o'rgandi, o'z davridagi barcha bilimlarni puxta egalladi. Sharq poeziyasidan mukammal saboq oldi. Ayni paytda Buxoro, Samarqand va Qo'qon adabiy muhiti bilan yaqindan aloqada bo'ldi. 1945-yili o'z shahri O'ratepada vafot etdi.

*„Kichikligimdayoq, ya'ni o'n besh yasharligimdan boshlab tojik, turkiy va arabiy tillarda she'r o'qish hamda g'azal yozish, masnaviy bitish, risolalar yozish, Bedil, Soib, Hofizi Sheroziylar g'azallariga taxmislar yaratish bilan shug'ullandim“, deb ta'kidlaydi o'z tarjimayi holida Javhariy.*

Javhariy Sa'diy, Hofiz, Jomiy, Bedil, Navoiy, Xusrav kabi buyuk so'z san'atkorlari an'anasini davom ettirib, dunyoviy muhabbatni kuyladi, ilm-adab, ma'rifatni targ'ib etdi. Sharq she'riyatidagi barcha janrlarda ijod etdi, zabardast dostonnavis sifatida tanildi. „Tabrik“, „Iqbol bayrami“, „Ilm navbahori“, „Tojikiston qasidasi“ kabi she'rlarida ozodlik, mehnat erkinligi, hurriyat, ma'rifatni, mehnat kishilarining bunyodkorligini tarannum etib, chinakam zamon kuychisiga aylandi. Shoir vatanparvarlik mavzularida ko'plab she'rlar, dostonlar yaratdi.

Mumtoz adabiyot an'analari ruhida kamol topgan Javhariy ilm-ma'rifat, hur fikrni targ'ib etdi. Uning 30-yillar ijodida xalq jasorati, qahramonligi madh etildi. Adib asarlarida yuksak insonparvarlik hamda vatanparvarlik ruhi barq urib turadi. „Odamxo'r jallod“, „Teshaboydek mardona bo'ling“, „Yigitlarga“, „Xush kelibsiz!“ singari she'rlari fashist gazandalar ustidan xalqning g'alaba qozonajagiga da'vat etgan jangovar she'riy asarlar jumlasidandir.

E'tiborlisi shundaki, Javhariy o'zbek tilida ham ko'plab barkamol she'rlar bitgan, o'zbek demokrat shoirlari, ziyolilari bilan yaqindan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Uning Muhiy Qo'qoniy, Boqiy Rishtoniy, ko'p tillarni bilgan ajoyib olim, shoir Muqimiyning yaqin do'sti Mavlono Yo'ldosh, Abdulhofizi Zominiy bilan do'stligi haqida dalillar, she'riy maktublar saqlanib qolgan.

Javhariy ijodida chirkin feodal o'tmishga nafrat, xalqlar do'stligini tarannum etish o'z ifodasini topgan. U asarlarida o'zbek xalqi hayoti tasviriga jiddiy e'tibor bergan. Shoirning „Oftobxon“ dostoni bevosita o'zbek xalqi hayoti tasviriga bag'ishlangan. „Oftobxon“da bir kambag'al qizning achchiq, fojiaiy hayotini tasvirlash orqali shoir xonliklar davridagi o'zbek xotin-qizlarining umumlashma obrazini yaratgan. Haquhuquqi poymol etilgan, izzat-nafsi toptalgan sho'rlik qiz feodal zodagonlar, xonlarning iflos changalida xo'rlanadi. Qo'qonni qonga botirib, Nodiradek donishmandlarni qatl ettirgan amir Nasrullo Oftobxonni qul qilib, Buxoroga eltadi. Qiz boshiga yana xo'rlik, haqorat va malomat toshlari yog'iladi. Kambag'al qiz Nasrulloning g'ayri shar'iy ishlarini ro'yi rost aytadi, qarib quyilmaganlikda la'natlaydi. Oqibatda qiz Nasrulloning onasining buyrug'i bilan saroydagi xizmatkor ayollar tomonidan bo'g'ib o'ldiriladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Oftobxon taqdiri ayrim tarixiy kitoblarda ham qayd etilgan. Atoqli yozuvchi Abdulla Qodiriy Amir Umarxon saroyidagi bu kanizak fojiasi haqida roman bitmoqchi bo'lganu, yozib ulgurmagan. Shoir va dramaturg Turob To'laning „Quvvayi qah-qaha“ dramasida ham Oftobxon epizodik obraz sifatida ishtirok etadi. Hozircha bu tarixiy haqiqat haqidagi eng barkamol asar Javhariyning dostoni hisoblanadi.

Zufarxon Javhariy o'zbek demokrat shoiri Muqimiy bilan yaqindan tanish, ijodiy hamnafas bo'lgan. Muqimiy vafotidan o'n yil o'tgach, Javhariy „Farg'onalik Muqimiyning kechmishi“ nomli doston yaratdi. Muallif asarda Muqimiy ijodining yetakchi g'oyaviy yo'nalishini to'g'ri ko'rsata bilgan: nodonlarga izzat, donolarga kulfat keltirgan xonliklar davrini qoralaydi, ajdodlar qoldirgan meros barcha zamonlarda avlodlar qalbini ma'rifat yog'dusi bilan munavvar etaveradi, ular mangu barhayot, deydi. Dostonni nozikta'b shoir Muhammadali Qo'shmoqov o'zbek tiliga tarjima qilgan.



Zufarxon Javhariy ijodi „*kuylasa cholg'usi bir, yig'lasa qayg'usi bir*“ bo'lgan o'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi abadiy birodarlikning yorqin namunasi hisoblanadi. Tojik shoirlarining o'zbek tilidagi, o'zbek adiblarining tojik tilidagi merosini har tomonlama ilmiy asosda xolis o'rganish zarur. Bularni yig'ib, alohida kitoblar sifatida nashr etib, targ'ib va tashviq qilmoq lozim. Bunday xayrli ishlar ikki qardosh xalq adabiy va madaniy hamkorligini mustahkamlash, rivojlantirishga munosib hissa bo'lib qo'shiladi, yosh avlodni xalqlar do'stligi ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

### KOSONIY RUHI

Bir kuni kafedrada o'tirsam, taniqli sharqshunos, filologiya fanlari doktori Orif Usmonov kirib keldilar. Salom-alikdan so'ng:

— *Mana shu kitobni Naimjon Norqulovga berib qo'ysangiz, kafedralarida yo'q ekan, shoshilib turuvdim, kutolmayman*, — dedilar.

— „*Xo'b bo'ladi*“, — dedim-da, kitobni stolga olib qo'yib, domlani kuzatib chiqdim. Qaytib kelib, arab alifbosida bosilgan kitobni ko'zdan kechirsam, Sayyidmuboshirxon Kosoniyning uch jildlik „O'rta Osiyo tarixi“ asarining birinchi va ikkinchi jildlari ekan. Uning mundariyasi, muqaddimasi bilan tanishib chiqqach, muallifning hamyurtim ekanligini bilib oldim.

Kechga yaqin dotsent Norqulov kitobni olib ketdi va „hamshaharingiz bilan tanishtiraman“, degan va'da berdi.

Kunlardan bir kun do'stim Oloy bozori mavzeyida yashaydigan Sayyidmuboshirxon domla huzuriga boshlab bordi. Bizni qotmadan kelgan, arabiy avra-astar chakmon kiyib olgan, 60 yildan ziyod Vatanidan judo bo'lib, Sharq mamlakatlarini kezib yursa ham hamon kosonlik lahjasida gapiradigan nuroniy inson ochiq chehra bilan kutib oldilar. Vaqt tushlikka yaqinlashib qolgani uchun bir piyola choydan so'ng:

— *Naimjon, ovqat taraddudini ko'rmaymizmi?* — so'rab qoldilar.

— *Endi, domla, hamshahar kelganda palov bo'lsa, zo'r bo'lardi-da*, — hazillashdi Naimjon.

— *Bale, az duston ishorat, az mo bo sar davidan, deganlar. Siz nimani buyursangiz, o'shada*, — fikrni tasdiqladilar ustoz.

— *Siz masalliq-larni ko'rsatib qo'ysangiz bo'ldi, buyog'ini o'zimiz boplaymiz,* — deb Naimjon ishga kirishib ketdi.

Biz suhbatni davom ettirdik. Ma'lum bo'lishicha, Sayyidmuboshirxon 1929-yili Kosonsoyning Darvoza — qishloq (Asp bozor, Ko'chayi Chak, Shahrab ko'chalarini birlashtirgan) mahallasida katta mulkdor Sulaymonxo'ja oilasida dunyoga kelgan. Onalarini Latifabibi deb atashgan. Shahrabdagi to'rt toshli tegirmon ham Sulaymonxo'jaga qaragan. 30-yillarning boshlaridagi mulkdorlarni quloq qilish, mol-mulki, yeri va boshqa boyliklarini musodara etib, tortib olib, kolxozga qo'shib berish kabi mudhish siyosat Sulaymonxo'ja oilasini ham chetlab o'tmadi. Otasi qamoqda olamdan o'tadi. Boshpanasiz, tirikchilik o'tkazish vositasidan mahrum oila ko'chada qoldi. Tog'asi Sayyidahmadxon onasi va Sayyidmuboshirxonni olib, shahardan chiqib ketadi va Ko'lobdagi Qaymoqchi qishlog'iga boradi. Ammo hamshaharlaridan biri qishloqda „boyquloqning farzandlari“ yurganini davlat xavfsizlik idoralariga yetkazishadi. Natijada „hukumat kishilari“ ularni bu yerdan haydab yuboradi. Ular necha sarsonlikdan so'ng Afg'oniston bilan chegaradosh Qurboni shahid (hozirgi Vose' tumani) qishlog'iga borib, boshpana topib, bir yil kolxozda ishlashadi. Bu orada Sayyidahmadxonning onalari va tog'asi hayotdan ko'z yumishadi.

Judolik dardiga bardosh berolmagan Sayyidahmadxon kunlardan bir kun Darqad kechuvidan gupsarchilar yordamida hamroh qarindoshlari bilan Afg'onistonga o'tib ketadi. Shundan so'ng Sayyidmuboshirxonning hayoti goh Hindiston, goh Afg'oniston va nihoyat Arabistonda kechdi.

U kishining to'rt o'g'li va to'rt qizi bor. Katta o'g'li tijorat ishlari bilan mashg'ul. Qayerda yashamasin Sayyidmuboshirxon qalbida xalqi mehri, Vatan sog'inchi tug'yon urardi. U tojirlik ishlaridan forig' paytlarida ona yurt ilhaqligiga xalqi tarixi haqida ko'hna kitoblarni varaqlash, ulardagi jasorat, matonat to'la sahifalarni ko'chirib olish, o'nlab shoirlar devonlari asl nusxalarini ko'zdan kechirish, bu xususda biron bir kitob yaratish ilinji bilan taskin berdi. Shu yo'lda u Hindiston, Afg'oniston, Eron-u Vashington kitob xazinalaridagi dastxat sarchashmalarni 20 yil davomida o'rganib chiqdi: kekxa vatandoshlari bilan suhbatlashdi, bahs-u munozaralar qildi.

Natijada uch jilddan iborat „Oʻrta Osiyo tarixi“ kitobi vujudga keldi.

Asarning 394 sahifali ikkinchi jildi bir qator boblardan iborat besh boʻlimdan tashkil topgan. Unda asosan Oʻrta Osiyo tarixi ustida soʻz yuritilgan boʻlib, Turkistonda Qoraxoniylar davlati qurilishidan to Temuriylar davlatchiligini oʻz ichiga olgandir. Bu jildda ayrim sulolalar tuzilish jadvali va xaritalar berish orqali muallif koʻp tarixiy hodisalarga atroflicha aniqlik berib oʻtadi. Ushbu kitob oʻtmish tariximizning hamma jabhalarini chiqitlarga chiqarmay, siyosiy, mafkuraviy cheklashlarga berilmay xolis, mukammal yoritib berilganligi bilan qimmatlidir. Kitobning nashri kutilayotgan uchinchi jildida xalqimizning XV asrdan tortib, oʻlkamizda oktabr toʻntarishi yuz berib, xalq boshiga tushgan mudhish tarixiy voqealar yoritiladi.

Sayyidmuboshirxon Kosoniy shoirtaʼb, sheʼriyat nafosatini nozik idrok etadigan olim edi. U kishining „Gʻaznaviylar davri adabiyoti va madaniyati“, „Qori Rahmatullo Partav Kosoniy“, „Mir Atouлло Kosoniy“, „85 Kosoniy muhojirlar tarixi“ kitoblari hamda Temuriylar davri sanʼati tarixiga doir sochma maqolalari dastxatlari hozir Jiddada yashayotgan oʻgʻillari Mahmudxonning qoʻlida saqlanmoqda. Uch jilddan iborat „Oʻrta Osiyo tarixi“ kitoblari esa „Movarounnahr“ nashriyoti tasarrufida. Kosoniy bilan boʻlgan bir suhbatda, „Forsiy tildagi adabiyot aynan gʻaznaviylar hukmronligi davrida janr nuqtayi nazaridan ham, gʻoyaviy yoʻnalish, badiiy qudrati jihatidan ham yangi taraqqiyot choʻqqisiga koʻtarildi. Uni Farruxiy, Unsuriy, Firdavsiy, Asjadiylarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Firdavsiy va Sulton Mahmud munosabatini yangitdan, xolis oʻrganish kerak“, degan edilar. Sayyidmuboshirxon Kosoniy oilalari bilan ikki yil Toshkentda yashab, 1996-yili vafot etganlar. Inshoollo, kelgusida ana shu farzandlari qoʻlidagi dastxat yozgʻulardan hozirgi harfga koʻchirib, eʼtiboringizga havola qilurmiz. Tokim marhum yoki barhayot muhojir hamyurtlarimiz, ehtimol qarindoshlar kechmishidan xabardor, maʼnaviyatimiz tarixining yangi zarvaraqlari bilan oshno boʻlsak. Zeroki, ustoz Kosoniyning xotirasi, hamisha barhayot ruhi bizni shunga daʼvat etadi.





## XOTIMA

Hirot shahri ilm-adab ahlining navbatdagi mushoira oqshomi Jomiy hovlisida o'tadigan bo'libdi. Tong sahardan boshlab turli shahar va qishloqlardan shoirlar ustod xonadoniga kela boshlabdilar. Eshik oldida yupungina kiyinib olgan, jikkakkina nuroniy mo'ysafid yelib-yugurib xizmat qilarkan: u goh odamlarni ta'zim-tavoze bilan peshvoz olib, uyga taklif qilar, goh otda kelgan adiblarni suyab tushirib, arg'umog'ini og'ilxonaga eltib bog'lar ekan. Shu payt ko'pdan beri ustod suhbatida bo'lishni orzu qilib yurgan viloyat hokimlaridan bo'lmish yosh shahzoda, havaskor shoir ham ko'rinibdi. Haligi xizmatkor mo'ysafid tezlik bilan hokimni otdan suyab tushirib, otini og'ilxonaga bog'lab qaytibdi. Hokimni mehmonlar huzuriga yo'llab, to'rga o'tqizdiribdi-da, o'zi yana poygakka borib cho'kka tushibdi.

— *Janoblar, hamma kelib bo'ldi, shekilli, ul ulug' zot qani?*  
— so'rabdi shahzoda.

Mehmonlardan biri poygakda o'tirgan boyagi xizmatkorga ishora kilibdi. Haligi xizmatkor **Abdurahmon Jomiy** ekanini endi bilgan hokim xijolat tortganidan o'rnidan sapchib turib, tashqariga otiladigan bo'libdi. Jomiy uni o'z o'rniga o'tqizib, she'riyat bahsini boshlab yuboribdi.

Sharqning mashhur iste'dod sohibi, yuzlab ilm-adab ahlining ustozi, Navoiyning yaqin do'sti, maslakdoshi Jomiy juda katta obro', hurmat-ehтиromga ega bo'lishiga qaramay, ana shunday kamtarona hayot kechirgan. Shogirdlari, hukmdorlardan keladigan in'om-ehsonlarni beva-bechoralar, yetim-yesirlarga ulashib bergan.

Sharqning aksariyat ulkan mutafakkirlari og'ir kun kechirganlar, qanday vazifani bajarishmasin, qay mansabda bo'lishmasin oddiy xalqni, elni, yurtni o'ylaganlar: ular yoqqan ma'rifat chirog'i feodalizm zulmati ichra porlagan yulduzdir. Kim ekanligi va qaysi tabaqaga mansubligidan qat'i nazar, madaniyat rivojiga hissa qo'shgan, xalq an'analarini tiklash, davom ettirishga intilgan, adolatni yoqlab, ma'naviyatga homiylik qilgan,

g'ayriinsoniy illatlarni qoralab, odamzodni e'zozlagan bobolarimiz o'z mardumsevarlik va ma'rifatparvarlik qarashlari bilan hamisha bizga yo'ldosh-u qo'ldoshdirlar. Zeroki, mashhur ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy, yer-u ko'kning barcha ishi insonga bog'liq, uni xalq hal etadi, degan edi:

Osmon-u zaminda narsalar bari,  
Odamning fikridan emas tashqari.

Aziz kitobxon! Ushbu lavhalar Sizga biron-bir ma'rifat bera olgan bo'lsa, ta'bingizni ravshan, kayfiyatingizni chog'etishga biroz bo'lsa-da ulush qo'shgan bo'lsa, muallif murodiga yetibdi. Chunki yaxshi so'zni targ'ib qilish ham savob. Yomon so'zdan o'zi asrasin. Zeroki, hazrat Navoiy aytganlaridek:

Yomon so'zki kelib jong'a urg'ay,  
Ki jondin ham o'tib, imong'a urg'ay.





## MUNDARIJA

Muqaddima -----	3
<b>MA'NAVİYATIMIZ SARCIASHIMALARI</b> -----	5
Zardusht -----	5
Avesto -----	7
Sharq musiqasining asoschisi -----	12
Al-jabr, ya'ni algebra -----	17
Tabariy saboqlari -----	20
Muallimi Soniy -----	23
Asrning noyob hodisasi -----	27
To'ng'ich tarixnavis -----	29
Qomusiy bilim sohibi -----	32
Insonlar qalbining charog'i bilim -----	36
Daqiqiy -----	42
Xalq qahramonligi kuychisi -----	45
„Ofarinnoma“ muallifi -----	50
<b>BIRINCHI SULTON</b> -----	52
<b>HAYRATANGEZ ISTE'DOD</b> -----	65
G'aznaviyalar malikushshuarosi -----	69
Tibbiyot bobokaloni -----	74
Ozodvar Changiy -----	78
Al-Matroniy kim? -----	79
Rashididdin Vatvot -----	82
Bayhaqiy — bosh mirzo va tarixchi -----	86
Go'zallik oshuftasi -----	89
O'z mamduhi o'qidan o'chgan shoir -----	93
<b>MA'RIFATPARVAR VAZIR VA OLIM</b> -----	97
Riyoziyotshunos faylasuf -----	99
Til bilimining donishmandi -----	105
Dostonnavis va lug'atshunos -----	108
Fidoi c'tiqod -----	110
Bilimlar xazinasini -----	115
Hikmatlar atriyyoti -----	120
Ma'naviyat peshvosi -----	125
Jaholatni qoralab -----	129
Anduh koshonasi -----	137
Axsikat andalibi -----	142
Xorazm faxri -----	144
Nuktasanj she'rshunos -----	147
Xalq dardiga hamroz -----	150

Xamsachilik kashshofi -----	154
Jasoratli adib -----	159
Adib va adabiyotshunos -----	163
Mazlumlarni ko'zyoshi — otash -----	165
Nozikta' b badihago'y -----	170
Jonbaxsh she'riyat -----	175
Pahlavon va shoir -----	177
Faxruzzamon -----	180
Do'stlik kuychisi -----	182
Zokonlik hajvchi -----	185
Hikmatlar guldastasi -----	188
Jahon ichra bir jahon -----	191
Ma'rifatni olqishlab -----	195
Hayot shaydosi -----	201
Nigoriston sohibi -----	205
Zaminida osmon yaratgan olim -----	209
Ulkan muarrix -----	216
Hamisha bedor qalb -----	219
Yuksak axloq targ'ibotchisi -----	224
Fanoiy va Puryorvaliy -----	228
Shoh va ijod tanosibi -----	232
Ko'hna Choch oshig'i -----	237
Zarif hikoyatlar ustasi -----	242
Ustodga yodnoma -----	246
Musavvirlar sarvari -----	250
Zamona hofizi -----	254
„Shohnoma“xon musavvir -----	258
Sarkarda shoir -----	261
Tarixchi-olim va sayyoh -----	265
Sohir san'atkor -----	268
Aliyi Soniy derlar -----	271
Koshonalardagi g'ussa -----	277
She'r ilmining saromadi ro'zg'ori erur -----	282
<b>IIAQIQAT VA MA'RIFAT YALOVBARDORLARI -----</b>	<b>287</b>
Komillikka yo'llovchi baytlar -----	287
Saroy adabiyoti xususida -----	291
Irfoniy bilimlar qomusi -----	300
Zarofat sohibi -----	311
Jismim notavondur mening -----	314
So'z guharshunosi -----	321
Asrimizgacha nasrimiz -----	327
El Hozig'i -----	332
Ulug'bekning izdoshi -----	336
Donish haqiqatlari -----	339
Qutlug'an'ana -----	343
Kosoniy ruhi -----	345
Xotima -----	348

**HAMIDJON HOMIDIY**  
**DAHOLAR DAVRASI**

*„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi*  
*Toshkent — 2011*

Muharrir *R. Mirxoliqov*  
Badiiy muharrir *D. Mulla-Axunov*  
Texn.muharrir *S. Nabiyeva*  
Kompyuterda sahifalovchi *S. Musajonova*  
Musahhah *A. Ibrohimov*

Nashriyot litsenziyasi AIN№161. 14.08.2009. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 18.07.2011. Bichimi 60x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Tayms garniturasi. Kegli 11 shponli. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog‘ozi. Shartli b. t. 22,0. Nashr. t. 21,38. 2000 nusxada bosildi. Buyurtma № 92-11.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko‘chasi, 30- uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Yangishahar ko‘chasi, 1- uy. Shartnoma № 07-04-10.